

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

JINOYAT-PROTSESSUAL HUQUQI

UMUMIY QISM

DARSLIK

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan
5240100 - «Yurisprudensiya» yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim olayotgan
talabalar uchun darslik sifatida tavsiya etilgan*

TOSHKENT – 2016

Toshkent davlat yuridik universiteti O‘quv-uslubiy Kengashining
2016-yil _____-sonli qaroriga ko‘ra nashrga tavsiya etilgan.

UDK 343.1(575.1)

Jinoyat-protsessual huquqi. Umumiy qism. Darslik. // Mualliflar jamoasi. / yu.f.d., dots. G.Z.To‘laganova va yu.f.n., dots. S.M.Raxmonovalarning umumiy tahriri ostida –Toshkent: TDYU nashriyoti, 2016. – 468 bet.

Taqrizchilar:

I.Sottiev – O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi kafedra boshlig‘i, yu.f.n., dotsent

Sh.Abdukadirov – jinoyat ishlari bo‘yicha Toshkent shahar Shayxontohur tuman sudi sudyasi, yu.f.n., dotsent.

Mazkur darslik “Jinoyat-protsessual huquqi” fanining umumiy qismi bo‘yicha o‘quv dasturi negizida tayyorlangan va 5240100 – “Yurisprudensiya” ixtisosligi Davlat ta’lim standartiga muvofiq bo‘lib, yuridik oliy ta’lim muassasalari va fakultetlari talabalariga mo‘ljallangan.

© Mualliflar jamoasi

© Toshkent davlat yuridik universiteti, 2016.

MUNDARIJA:

KIRISH.....8

I BOB. JINOYAT-PROTSESSUAL HUQUQI TUSHUNCHASI VA MOHIYATI. JINOYAT-PROTSESSUAL QONUN HUJJATLARI

1.1.Jinoyat-protsessual huquqi tushunchasi va ahamiyati.....	10
1.2.Jinoyat protsessining bosqichlari va funksiyalari.....	14
1.3.Jinoyat protsessual shakl va jinoyat protsessual kafolatlar.....	22
1.4.Jinoyat-protsessual huquqi huquq sohasi sifatida va uning boshqa huquq sohalari bilan o‘zaro aloqasi.....	24
1.5.Jinoyat-protsessual qonun hujjatlari va uning vazifalari.....	28
1.6.Jinoyat protsessual huquqining normalari.....	32
1.7.Jinoyat-protsessual qonunining vaqt, hudud va shaxslar bo‘yicha amal qilishi.....	38

II BOB. JINOYAT PROTSESSI PRINSIPLARI

2.1.Jinoyat protsessi prinsiplari tushunchasi va tizimi.....	44
2.2.Qonuniylik prinsipi.....	46
2.3.Odil sudlovning faqat sud tomonidan amalga oshirilish prinsipi.....	48
2.4.Jinoyat ishlarini hay’atda va yakka tartibda ko‘rib chiqish prinsipi...	50
2.5.Sudyalarning mustaqilligi va ularning faqat qonunga bo‘ysunish prinsipi.....	51
2.6.Jinoyat ishini qo‘zg‘atishning muqarrarligi prinsipi.....	53
2.7.Odil sudlovni fuqarolarning qonun va sud oldida tengligi asosida amalga oshirish prinsipi.....	54
2.8.Shaxsning sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilish prinsipi.....	56
2.9.Fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish prinsipi.....	58
2.10.Sudda jinoyat ishlarining oshkora ko‘rilishi prinsipi.....	60
2.11.Jinoyat ishlari yuritiladigan til.....	62
2.12.Jinoyat ishlarini yuritishda jamoatchilikning ishtiroki prinsipi.....	64
2.13.Haqiqatni aniqlash prinsipi.....	66
2.14.Aybsizlik prezumpsiyasi.....	67
2.15.Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchini himoyalash huquqi bilan ta’minlash prinsipi.....	70

2.16.Sudda ishlarni yuritishda tortishuv prinsipi.....	73
2.17.Dalillarni bevosita va og‘zaki usulda tekshirish prinsipi.....	75
2.18.Protsessual harakatlar va qarorlar ustidan shikoyat qilish huquqi prinsipi.....	76

III BOB. JINOYAT PROTSESSI ISHTIROKCHILARI

3.1.Jinoyat protsessi ishtirokchilari tushunchasi va ularning tasniflanishi.....	80
3.2.Jinoyat ishini yuritishga mas‘ul bo‘lgan davlat organlari va mansabdor shaxslar.....	82
3.3.Jinoyat ishini yuritishda ishtirok etuvchi jamoat birlashmalari, jamoalar va ularning vakillari.....	97
3.4.Jinoyat protsessida o‘z manfaatlarini himoya qiladigan shaxslar. Himoyachilar va vakillar.....	100
3.5.Jinoyat protsessida ishtirok etuvchi boshqa shaxslar.....	110

IV BOB. JINOYAT PROTSESSIDA ISHTIROK ETISHGA MONELIK QILADIGAN HOLATLAR. RAD QILISHLAR.

4.1.Sudyaning, prokurorning, tergovchining, surishtiruvchining va sud majlisi kotibining ishda ishtirok etishiga monelik qiladigan holatlar.....	120
4.2.Jamoat birlashmasi yoki jamoa vakilining ishda ishtirok etishiga monelik qiladigan holatlar.....	125
4.3.Ekspertning, mutaxassisning, tarjimonning, xolisning ishda ishtirok etishiga monelik qiladigan holatlar.....	126
4.4.Himoyachining, jabrlanuvchi, fuqaroviy da‘vogar yoki fuqaroviy javobgar vakilining ishda ishtirok etishiga monelik qiladigan holatlar.....	127
4.5.Rad qilish va o‘zini o‘zi rad etish hamda ularni hal qilish tartibi.....	129

V BOB. DALILLAR VA ISBOT QILISH

5.1.Dalillar va isbot qilish tushunchasi.....	136
5.2.Isbot qilish predmeti.....	139
5.3.Isbot qilish doirasi.....	142
5.4.Dalillarning xususiyatlari.....	146
5.5.Dalillarni tasniflanishi va ularning amaliy ahamiyati.....	148

5.6.Dalillar manbalarining tushunchasi va turlari.....	154
--	-----

VI BOB. ISBOT QILISHNING UMUMIY SHARTLARI

6.1.Isbotlash va uning elementlari.....	160
6.2.Isbotlashning umumiy shartlari.....	167
6.3.Dalillarni baholash.....	174
6.4.Dalillarni bayonnomalarda qayd etish.....	183

VII BOB. DALILLARNI TO‘PLASH USULLARI

7.1.Dalillarni to‘plash usullari tushunchasi va turlari.....	191
7.2.Tergov harakatlarining boshqa protsessual harakatlardan farqi.....	195
7.3.So‘roq qilishning umumiy shartlari.....	197
7.4.Yuzlashtirish.....	215
7.5.Tanib olish uchun ko‘rsatish tergov harakati.....	217
7.6.Ko‘rsatuvlarni hodisa sodir bo‘lgan joyda tekshirish.....	221
7.7.Ko‘zdan kechirish.....	225
7.8.Guvohlantirish.....	231
7.9.Murdani eksqumatsiya qilish.....	237
7.10.Eksperiment.....	243
7.11.Olib qo‘yish va tintuv.....	248
7.12.Pochta-telegraf jo‘natmalarini xatlab qo‘yish, ko‘zdan kechirish va olib qo‘yish.....	254
7.13.Telefon va boshqa so‘zlashuv qurilmalari orqali olib boriladigan so‘zlashuvlarni eshitib turish.....	257
7.14.Ekspertiza.....	261
7.15.Ekspertiza tekshiruvi uchun namunalar olish.....	264
7.16.Ashyoviy dalillar va ularning tasniflanishi.....	267
7.17.Narsa va hujjatlarni taqdim qilish.....	270
7.18.Narsa va hujjatlarni ashyoviy va yozma dalil sifatida ishga qo‘shib qo‘yish.....	272

VIII BOB. JINOYAT-PROTSESSUAL MAJBURLOV CHORALARI

8.1. Protsessual majburlov tushunchasi, mohiyati, vazifalari va turlari.....	277
8.2. Jinoyat protsessida shaxs huquqlarini cheklash asoslari va chegaralari.....	280
8.3. Ushlab turish.....	282
8.4. Lavozimdan chetlashtirish.....	293
8.5. Majburiy keltirish.....	295
8.6. Shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish.....	297
8.7. Protsessual majburlov choralari protsessual majburiyatlar va sud majlisida tartibni buzganlik uchun javobgarlik.....	301
8.8. Jinoyat protsessi ishtirokchilarining xavfsizligini ta'minlash.....	305

IX BOB. EHTIYOT CHORALARI

9.1. Ehtiyot choralari va ularning turlari, ularni qo'llash, o'zgartirish va bekor qilish.....	310
9.2. Ehtiyot chorasi sifatida qamoq va uy qamog'i.....	313
9.3. Garov.....	326
9.4. Munosib xulq-atvorda bo'lish to'g'risidagi tilxat.....	331
9.5. Shaxsiy kafillik.....	334
9.6. Voyaga yetmaganlarni kuzatuv ostiga olish uchun topshirish.....	342
9.7. Harbiy xizmatchining xulq-atvori ustidan qo'mondonlik kuzatuvi.....	346

X BOB. JINOYAT NATIJASIDA YETKAZILGAN MULKIY ZIYONNI QOPLASH

10.1. Jinoyat protsessida fuqaroviy da'vo tushunchasi va predmeti.....	351
10.2. Mol-mulkni jabrlanuvchi yoki fuqaroviy da'vogarga qaytarish.....	361
10.3. Hukmning mulkiy undirishlarga doir qismi ijrosini ta'minlash.....	363

XI BOB. JINOYATLARNING OLDINI OLISH CHORALARI

11.1.Jinoyatlarning oldini olish choralari tushunchasi, turlari va huquqiy asoslari.....	369
11.2.Jinoyatning sabablarini va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf qilish shakllari va bu jarayonda surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning faoliyati.....	370
11.3.Sudning jinoyatning sabablarini va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf qilish faoliyati.....	372
11.4.Taqdimnomani va xususiy ajrimlarni bajarish majburiyati.....	373
11.5.Fuqaro ijtimoiy burchini namunali bajarganligi to‘g‘risida taqdimnoma va xususiy ajrim qabul qilish.....	376

XII BOB. REABILITATSIYA

12.1.Reabilitatsiya tushunchasi va uning asoslari.....	380
12.2.Reabilitatsiya qilinuvchi shaxslar.....	384
12.3.Reabilitatsiya turlari.....	385
12.4.Reabilitatsiya huquqiga ega bo‘lmagan shaxslar.....	387
12.5.Yetkazilgan mulkiy ziyonni qoplash.....	389
12.6.Reabilitatsiyaga oid masalani hal qilish.....	390

XIII BOB. PROTSESSUAL MUDDATLAR VA CHIQIMLAR

13.1.Jinoyat protsessida protsessual muddatlarning tushunchasi, ahamiyati va turlari.....	396
13.2.Protsessual muddatlarni hisoblash, uzaytirish va tiklash.....	400
13.3.Jinoyat protsessida protsessual chiqimlar tushunchasi va turlari...403	
13.4.Protsessual chiqimlarni undirish tartibi.....	408
Glossariy.....	412
Tavsiya etilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	459

KIRISH

Mustaqillik yillari davomida sud-huquq tizimini tubdan isloh qilish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish, demokratlashtirishning tarkibiy qismi sifatida sud hokimiyatining xolis, mustaqil tarmoq sifatida mustahkamlash, qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklari ishonchli himoyalashini ta'minlash bo'yicha izchil ishlar amalga oshirildi.

Jumladan, 2010-yil 12-noyabrda Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasining qo'shma majlisida davlatimiz birinchi rahbari o'zining mohiyatan tarixiy bo'lmish "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi" da alohida ta'kidlaganlaridek "...sud hokimiyatini bosqichma-bosqich mustahkamlab borish, sudning mustaqilligini ta'minlash, uni sobiq tuzumda bo'lgani kabi qatag'on quroli va jazolash idorasi sifatidagi organ emas, balki inson va fuqaro huquq va erkinliklarini ishonchli himoya va muhofaza etishga xizmat qiladigan tom ma'nodagi mustaqil davlat institutiga aylantirishga qaratilgan keng ko'lamli tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar amalga oshirildi¹".

Bu borada sud-huquq sohasidagi qonun hujjatlarining liberallashtirilishi islohotlarning muhim yo'nalishi bo'ldi. Xususan, jinoyat ishlari yurituvchi amaliyotiga yarashuv instituti joriy etildi, sudlarning iqtisodiy jinoyatlar uchun ozodlikdan mahrum etish o'rniga jarimalar tarzidagi jazolarni qo'llash imkoniyatlari kengaytirildi. Sud ishlarini yuritish tizimida adolat, jazoning muqarrarligi tamoyili va o'zgacha demokratik tamoyillar mustahkamlanishini ta'minlovchi boshqa qator chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Sudlarning vakolatlari izchil kengaytirib borilib, odil sudlovni amalga oshirishda ular xolisligining va mustaqilligining kafolatlari mustahkamlandi. Shuningdek, sudlar tuzilmasini, ular faoliyatining tashkiliy asoslarini takomillashtirish, kadrlar zaxirasini mustahkamlashga doir chora-tadbirlar sud-huquq islohotlarini chuqurlashtirishga ko'maklashdi.

Ishni sudga qadar yuritish bosqichida tergov ustidan sud nazorati kuchaytirildi. Milliy qonunchiligimizga «Xabeas korpus» instituti joriy etildi — qamoqqa olishga sanksiya berish, shaxsni lavozimidan chetlashtirish va tibbiy muassasaga joylashtirishdek protsessual majburlov

¹ I.A. Karimov. "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi: 2010-yil 12-noyabrda Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasining qo'shma majlisidagi ma'ruza. T.: O'zbekiston. - B. 16.

choralarini qo‘llash huquqi prokurorlardan sudlarga o‘tkazildi, uy qamog‘i ehtiyot chorasi joriy etildi.

Huquqni qo‘llash tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini, odil sudlovni amalga oshirish protsessual asoslarini takomillashtirishga doir chora-tadbirlar odil sudlovning muqarrarligini, tezkorligini ta‘minlashga, qonuniylikni ta‘minlashda sudning rolini oshirishga ko‘maklashdi.

Prokuror va advokatning jinoyat protsessining barcha bosqichlaridagi tortishuvi tengligini, sud-huquq tizimini liberallashtirish jarayonining muhim tarkibiy qismi sifatida advokatura mustaqilligini mustahkamlashga doir kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Mamlakatimizda demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasiga muvofiq jinoyat ishi qo‘zg‘atish, ish yuzasidan ayblov xulosasini o‘qib eshittirish singari huquqlarni sudlar vakolatidan chiqarilishini nazarda tutuvchi o‘zgartishlar jinoyat-protsessual qonuniga kiritildi. Bu esa sudning obyektivligi, xolisligini ta‘minlashga, jinoyat ishini ko‘rib chiqish jarayonida tortishuv tamoyilining kuchayishiga ko‘maklashdi. Kassatsiya instituti tubdan isloh etildi, apellyatsiya instituti joriy qilindi.

Binobarin, milliy qonunchilik bazasini uzluksiz ravishda isloh etish jarayonida tubdan yangi yuridik o‘quv adabiyotlarini tayyorlash ehtiyoji nihoyatda oshmoqda. Ta‘kidlash joizki, milliy Jinoyat-protsessual kodeksining qabul qilinganidan shu kunga qadar 56 marta o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi. Demak, o‘quv adabiyotlari ham doimiy ravishda yangilanib borishi, jinoyat-protsessual fanining va sud-tergov amaliyotini real holatini aks ettirishi lozim. Shu nuqtayi nazardan, mazkur darslik Jinoyat-protsessual kodeksiga kiritilgan so‘nggi o‘zgartirish va qo‘shimchalar hamda hozirgi jinoyat ishlari yurituvining so‘nggi yutuqlari inobatga olingan holda, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining tegishli qarorlari, shuningdek maxsus o‘quv va ilmiy adabiyotlar (milliy va xorijiy) tahlili asosida tayyorlangan.

I BOB. JINOYAT-PROTSESSUAL HUQUQI TUSHUNCHASI VA MOHIYATI. JINOYAT-PROTSESSUAL QONUN HUJJATLARI

*(mualliflar – yuridik fanlar doktori, professor B.X.Pulatov,
yuridik fanlar nomzodi, dotsent S.M.Sahaddinov)*

***Annotatsiya:** Mazkur mavzuni talabalar tomonidan o‘rganilishi O‘zbekiston Respublikasida jinoyat-protsessual huquqi tushunchasi, mohiyati, vazifalari va manbalarini aniqlab olish, shuningdek fuqarolar uchun yagona va majburiy bo‘lgan jinoyat ishlari yuritish tartibi, uning vaqt va hudud bo‘yicha hamda chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga nisbatan amal qilishi tartib qoidalarini bilish imkonini beradi.*

1.1. Jinoyat-protsessual huquqi tushunchasi va ahamiyati

“Protsess” so‘zi lotincha “procedere” – olg‘a siljish; “processus” – harakat, rivojlanayotgan, ishlab chiqarish ma‘nolarini anglatadi.

Jinoyat protsessi davlatning huquqni qo‘llash bo‘yicha faoliyatining turi hisoblanib, bunday faoliyatga zaruriyat jinoyat sodir etilganligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar bo‘lgan taqdirdagina yuzaga keladi.

Shu sababli jinoyatlarni aniqlash, ularning sodir bo‘lish holatlarini tergov qilish, aybdor shaxslarni fosh etish va adolatli jazoga tortish davlatning vazifalariga kiradi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida jinoyatchilikka qarshi kurash bo‘yicha tezkor-qidiruv, tergov va boshqa maxsus vazifalarni mustaqil ravishda bajaruvchi xususiy kooperativ tashkilotlar, jamoat birlashmalari va ularning bo‘linmalarini tuzish hamda ularning faoliyat ko‘rsatishi ta‘qiqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 121-moddasi.

Jinoyat ishlarining aksariyati (O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 325-moddasida nazarda tutilgan jabrlanuvchining arizasiga ko‘ra qo‘zg‘atiladigan jinoyat ishlari bundan mustasno) alohida shaxslarning xohishidan qat’i nazar qo‘zg‘atiladi.

Jinoyat-protsessual huquqi jinoyat protsessining maqsadi va prinsiplarini, ularni jinoyat-protsessual faoliyatning barcha subyektlariga nisbatan amalga oshirish huquqi va kafolatlarini ifodalaydi, jinoyat ishlari

yurituvı bosqıchlari tizimini, ularning har birida protsessual harakatlarni o'tkazish tartibini, ish bo'yicha qaror qabul qilish asoslari va tartibini

Jinoyat protsessual huquqi – jinoyat ishlari bo'yicha surishtiruv, dastlabki tergov va sud muhokamasini o'tkazish bilan bog'liq faoliyatni tartibga soluvchi tartib qoida va normalarning qonunda mustahkamlangan tizimini, ya'ni jinoyat ishi yurituvı vazifalari amalga oshiriladigan zarur huquqiy tartib-taomillarni ifodalaydi.

o'rnatadi.

Jinoyat-protsessual huquqining *ahamiyati va zaruriyati* quyidagilarda namoyon bo'ladi:

Birinchidan, huquqni muhofaza qilish organlarining qonunda belgilangan o'z vakolatlari doirasida jinoyat ishlarini qo'zg'atish, tergov qilish, ko'rib chiqish va hal qilish bo'yicha faoliyatini tartibga solish orqali shaxs, jamiyat, davlatni jinoiy tajovuzlardan muhofaza qiluvchi jinoyat-huquqiy normalar qo'llanilishini ta'minlaydi;

Ikkinchidan, majburlov choralarini qo'llash shartlari, asoslari va turlarini belgilaydi;

Uchinchidan, shaxs huquqlari kafolatlarini o'rnatadi, xususan, ayblanuvchining himoyaga bo'lgan, uy-joy daxlsizligi, yozishmalar sir saqlanishi, adolatli va xolis odil sudlovga bo'lgan huquqi va boshqa huquqlarini ta'minlaydi;

To'rtinchidan, fuqarolarning hayoti va sog'lig'i, xususiy mulki va shaxsiy erkinligi, sha'ni va qadr-qimmatiga tajovuzlardan sud tartibida himoyalaniş tartibini belgilaydi;

Beshinchidan, ma'naviy, jismoniy va mulkiy zarar ko'rgan shaxslarning huquqlarini himoya qiladi;

Oltinchidan, aybsiz kishini javobgarlik va jazoga tortilishining oldini olishga, basharti u noqonuniy javobgarlikka jalb qilingan bo'lsa, tegishli qarorni bekor qilish va asossiz ayblangan shaxsni rehabilitatsiya qilishga qaratilgan faoliyat tartibi va shartlarini belgilaydi;

Yettinchidan, huquqiy tartib-taomillar va qoidalarga rioya etilishini ta'minlovchi huquqni tiklovchi va boshqa sanksiyalarni ko'zda tutadi.


Jinoyat protsessi qonun bilan tartibga solingan surishtiruv, dastlabki tergov, prokuratura va sud organlari va jinoyat ishi yurituvi boshqa ishtirokchilarining jinoyat ishini qo‘zg‘atish, surishtiruv, dastlabki tergov, sud muhokamasi, sudning qaror, ajrim va hukmini qayta ko‘rib chiqish, sud hujjatlarini ijro etish kabi bosqichlarni qamrab olgan faoliyati bo‘lib, u jabrlanuvchining, jinoiy ta‘qib etilayotgan shaxsning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, jinoyat qonuni normalarini munosib qo‘llashini ta‘minlashga qaratilgan.

Jinoyat protsessi qonunga asoslangan faoliyatdir. Qonuniylikka qat‘iy rioya etish, huquqiy tartibotning har qanday buzilishlariga qarshi kurash, uni yuzaga keltiradigan sabab va shart-sharoitlarning oldini olishning dasturiy vazifasiga mos ravishda jinoyat-protsessual qonuni hujjatlarida jinoyat protsessining vazifalari belgilangan.

Jinoyat ishlari yurituvining jinoyat protsessual qonun hujjatlarida belgilangan tartibi aynan shu maqsad va vazifalarni hal qilishga xizmat qiladi. O‘zbekiston Respublikasi hududida jinoyat ishlarini yuritish tartibi Jinoyat-protsessual kodeksi bilan belgilangan.

Jinoyat-protsessual huquqi mustaqil huquq sohasi bo‘lib, davlat organlari va mansabdor shaxslar hamda davlat organlari, mansabdor shaxslar va fuqarolar o‘rtasida jinoyat ishlari yurituvi sohasida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi.

Jinoyat-protsessual huquqi tizimi ikki qismdan – umumiy va maxsus qismlardan iborat. Jinoyat-protsessual huquqining umumiy qismida butun jinoyat protsessiga oid yoxud uning aksariyat bosqichlari va institutlariga taalluqli bo‘lgan asosiy tushunchalar va qoidalar o‘rin olgan. Umumiy qismda protsessual qonunchilikning vaqt, hudud va shaxslar doirasida amal qilishi, protsess ishtirokchilarining huquq va majburiyatlari, hokimiyat organlarining vakolatlari, dalillar va isbot qilish instituti, ularni to‘plash, tekshirish va baholash, protsessual majburlov choralari va boshqa umumiy institutlar va masalalar o‘rin olgan.



Jinoyat-protsessual huquqining maxsus qismida jinoyat protsessining alohida bosqichlari va ularni amalga oshirish tartibi belgilangan bo‘lib, shuningdek protsessual harakatlarni o‘tkazish qoidalari tartibga solingan. Umuman olganda, maxsus qismning o‘zini shartli ravishda turdosh huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi to‘rt mustaqil institutlarga ajratish mumkin: sudga qadar ish yuritish; sudda ish yuritish; alohida toifadagi jinoyat ishlarini yuritish; jinoiy sud ishlarini yuritish sohasidagi xalqaro hamkorlik.

Shuningdek, jinoyat-protsessual huquqini huquq sohasi, fan va o‘quv kursi sifatida tushunish mumkin. Huquq sohasi sifatida jinoyat-protsessual huquqi – bu surishtiruv, dastlabki tergov, prokuratura va sud organlarining jinoyat ishlarini qo‘zg‘atish, tergov qilish va hal qilish bo‘yicha faoliyatini tartibga soluvchi huquq sohasidir.

Fan sifatida **Jinoyat-protsessual huquqi** – bu jinoyat ishlari yurituvining mazmun-mohiyati, o‘ziga xos xususiyatlari va tabiatini ochib beruvchi qarashlar, tasavvurlar, g‘oyalar va konsepsiyalar tizimidan iborat. Jinoyat protsessi fani tegishli qonunchilikni, uni qo‘llash amaliyotini, ushbu baza asosida shakllangan doktrinani, tarixiy tajribani va ushbu sohadagi boshqa davlatlar tajribasini o‘rganadi.

1.2. Jinoyat protsessining bosqichlari va funksiyalari

Jinoyat protsessi alohida qonuniyatlarga asoslangan holda tizimlashtirilgan va o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan qismlardan iborat bo'lgan yaxlit tizimni ifodalaydi.

Jinoyat ishini yuritish jinoyat protsessining bosqichlari deb nomlanadigan muayyan davriy qismlardan o'tadi. Chunonchi, protsessual qonun sudga qadar va sud bosqichlarida jinoyat ishi yurituvining ushbu bosqichlarda amalga oshiriladigan faoliyat vazifalarini hal qilish uchun zarur va maqbul shart-sharoitlarni va tartibini belgilab bergan.

Jinoyat protsessi bosqichlari o'z boshlanish va tamomlanish vaqtiga, vazifa va mazmuniga, ishtirokchilar doirasiga, ular o'rtasida shakllanadigan jinoyat-protsessual munosabatlar kabi belgilarga ega bo'lgan mustaqil davrlar sifatida tavsiflanadi.

Jinoyat protsessi bosqichlari – bu protsessning, bir tomondan, o'zaro bog'liq va ikkinchi tomondan, nisbatan mustaqil bo'lgan qismlari bo'lib, bir-biridan yakuniy protsessual qarorlariga hamda bevosita vazifalariga (jinoyat sud ish yurituvi maqsadidan kelib chiquvchi), ish yurituvida ishtirok etayotgan shaxslar va organlarga, protsessual faoliyatni (protsessual tartib-taomillarni) amalga oshirish tartibiga (shakliga) hamda jinoyat-protsessual munosabatlar xususiyatiga qarab farqlanadi.

Jinoyat protsessining har bir bosqichiga xos bo'lgan quyidagi xususiyatlarni ko'rsatish mumkin: 1) jinoyat ishlari yurituvi maqsadidan kelib chiquvchi bevosita vazifalar; 2) unda ishtirok etuvchi organ va shaxslarning muayyan doirasi; 3) faoliyat tartibi (protsessual shakli); 4) jinoyat ishini yuritish jarayonida subyektlar o'rtasida vujudga keladigan jinoyat-protsessual munosabatlarning o'ziga xos xususiyati; 5) protsessual harakatlar va munosabatlar tizimini tamomlovchi va jinoyat ishini keyingi bosqichga o'tkazuvchi (basharti, jinoyat ishi yoki jinoiy ta'qib tugatilmasa) yakuniy protsessual hujjat (qaror).


Umumiy maqsadi va jinoyat ish yurituvi prinsiplari bilan o'zaro uyg'un holda bog'liq bo'lgan jinoyat protsessi bosqichlari majmuyi jinoyat protsessi tizimini hosil qiladi.

Jinoyat protsessi bosqichlari tadrijiy mantiqiy izchillikda keladi va qat'iy ketma-ketlik asosida birining yakuni hisoblanmish protsessual hujjat keyingi bosqichning boshlanishiga asos hisoblanadi (Masalan, dastlabki

tergovning yakuni bo‘lgan ayblov xulosasi sud muhokamasi bosqichining boshlanishi va doirasini belgilaydi), bunda har bir keyingi bosqichda oldingi bosqich natijalari tekshiriladi yoxud faqatgina ushbu bosqichga taalluqli bo‘lgan masalalar (Masalan, hukmni ijro etish bosqichi) hal qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi tarkibida ishni sudga qadar yuritish (9-bo‘lim, 41-47 boblar), birinchi instansiya sudida ish yuritish (10-bo‘lim, 48-54 boblar), hukm, ajrim, qarorlarni ijro etish (12-bo‘lim) bosqichlari alohida ajratilgan. Ishni sudga qadar yuritish o‘z navbatida jinoyat ishini qo‘zg‘atish (41-bob), surishtiruv (42-bob) va dastlabki tergov (43-bob) kabi bosqichlarni qamrab oladi.

Jinoyat protsessi bosqichi – uning nisbatan ajratilgan qismi bo‘lib, u (jinoyat ishlarini sudga ko‘rishning umumiy vazifalaridan kelib chiqadigan) aniq vazifalar, ishtirokchilarning alohida doirasi, jinoyat protsessual harakatlar va huquqiy munosabatlarning o‘ziga xosligi, ularni rasmiylashtiradigan jinoyat-protsessual hujjatlarning xususiyati bilan tavsiflanadi.



Jinoyat ishini qo‘zg‘atish – protsessning dastlabki bosqichi bo‘lib, unda vakolatli davlat organlari va mansabdor shaxslar yetarli sabablar (shaxslarning arizalari; korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslar, ommaviy axborot vositalari bergan xabarlar; jinoyat sodir etilganligini ko‘rsatuvchi ma‘lumotlar va izlarni surishtiruv organi, surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning bevosita o‘zi aniqlashi; aybini bo‘yniga olish haqidagi arz) bo‘lganda, ish bo‘yicha

yurituvni boshlash uchun asoslar bor yoki yo‘qligi aniqlanadi. Jinoyat ishini qo‘zg‘atish to‘g‘risidagi qaror jinoyat protsessi tartib-taomillarini harakatga keltiradi, keyingi bosqichlarda tegishli protsessual harakatlarni amalga oshirish uchun huquqiy asosni vujudga keltiradi hamda dastlabki tergov muddatlarini hisoblash muddatini boshlanishini belgilaydi.

Surishtiruv – jinoyatning oldini olish yoki unga yo‘l qo‘ymaslik; dalillarni to‘plash va saqlash; jinoyat sodir etishda gumon qilinganlarni ushlab va yashiringan gumon qilinuvchilarni hamda ayblanuvchilarni qidirib topish; jinoyat tufayli yetkazilgan moddiy ziyon qoplanishini ta‘minlash uchun kechiktirib bo‘lmaydigan tergov harakatlarini yuritish vazifalarini hal qilishga qaratilgan bosqichdir. Surishtiruvchi jinoyat ishini qo‘zg‘atganidan keyin yoki prokuror yoxud surishtiruv organining boshlig‘i tomonidan qo‘zg‘atilgan ishni olgach, darhol uni o‘z ish yurituviga qabul qiladi va o‘n kunlik muddat ichida kechiktirib bo‘lmaydigan protsessual va tergov harakatlarini bajarishga kirishadi. Surishtiruv organlarining faoliyati jinoyat-protsessual va tezkor-qidiruv funksiyalarini bajarishga qaratilgan. O‘z navbatida, surishtiruv organlarining jinoyat-protsessual faoliyati quyidagilarni o‘z ichiga oladi: jinoyatlar haqidagi ariza (xabar)larni ko‘rib chiqish va hal qilish (tergov oldi tekshiruvi); jinoyat ishini qo‘zg‘atish uchun boshqa sabablarning mavjudligi tufayli tekshiruv harakatlari, surishtiruv o‘tkazish; tergovchilarning topshirig‘i bo‘yicha qidiruv va tergov harakatlarini amalga oshirish; dastlabki tergov davrida tergovchi tomonidan o‘tkaziladigan ayrim tergov harakatlarida ishtirok etish².

Dastlabki tergov – sudga qadar ish yuritishning qismi bo‘lib, ish holatlari bo‘yicha dastlabki tergov xulosalari sud uchun dastlabki ma‘lumot sifatida qabul qilinadi. Dastlabki tergov ma‘lumotlari ayblov tasmoli bo‘lib, u ayblov xulosasida o‘z ifodasini topadi, sud esa taraflarning tengligi va tortishuv talablari asosida dalillarni bevosita tekshirishi lozim bo‘ladi. Dastlabki tergovda jinoyat hodisasi sodir bo‘lgan yoki bo‘lmaganligini, uni sodir etishda aybdor shaxslarni, jinoyat tufayli yetkazilgan zarar xususiyati va miqdorini hamda ish uchun ahamiyatga ega bo‘lgan boshqa holatlarni aniqlash maqsadida dalillar to‘planadi, mustahkamlanadi, tekshiriladi va baholanadi.

Dastlabki tergov jinoyat ishini tugatish to‘g‘risida qaror chiqarish, ayblov xulosasini tuzish, ishni tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari qo‘llash yoki taraflarning yarashuvi uchun sudga yuborish to‘g‘risida qaror

² O‘zbekiston Respublikasining jinoyat protsessi. Darslik. Mualliflar jamoasi. – Toshkent: O‘zR IIV Akademiyasi, 2012. – B. 318.

chiqarish yoxud amnistiya aktiga asosan jinoyat ishini tugatish haqida sudga iltimosnoma kiritish to'g'risida taqdimnoma tayyorlash bilan tamomlanadi.

Sudda ish yuritish bosqichi birinchi instansiya va yuqori turuvchi sudlarda ish yuritishni, shu jumladan, birinchi instansiya sudi qarorlarining qonuniyligi, asosliligi va adolatliligini tekshirishni o'z ichiga oladi.

Birinchi instansiya sudida ish yuritish jinoyat ishini sudda ko'rish uchun tayinlash (49-bob) bilan boshlanadi. Sudya jinoyat ishini ayblov xulosasi bilan yoki tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash masalasini ko'rib chiqish uchun ishni sudga yuborish to'g'risidagi qaror bilan qabul qilib olgach, quyidagi qarorlaridan birini qabul qilish to'g'risida qaror (ajrim) chiqaradi: 1) ishni sudda ko'rish uchun tayinlash to'g'risida; 2) jinoyat ishi yuzasidan ish yuritishni to'xtatib turish to'g'risida; 3) jinoyat ishi yuzasidan ish yuritishni tugatish to'g'risida.

Ishni sudda ko'rish uchun tayinlash to'g'risidagi yoxud boshqacha qaror qabul qilish haqidagi masala sudya tomonidan ish sudga kelib tushgan kundan boshlab yetti sutkadan kechiktirmay hal qilinishi lozim. Ushbu muddat shu sudning raisi tomonidan ko'pi bilan uch sutkagacha uzaytirilishi mumkin.

Ushbu bosqichda sudya ish bilan yakka tartibda tanishib chiqadi. Jinoyat ishini sudda ko'rish uchun tayinlash masalasini hal qilish chog'ida sudya har bir ayblanuvchiga nisbatan quyidagi holatlarni aniqlashi lozim: 1) ish mazkur sudning sudloviga tegishlimi; 2) ishni tugatish yoki to'xtatishga sabab bo'ladigan holatlar yo'qmi; 3) ishning sud majlisida ko'rilishi uchun asoslar yetarlimi; 4) surishtiruv va dastlabki tergov o'tkazish chog'ida O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining talablariga rioya qilinganmi; 5) ayblanuvchiga nisbatan ehtiyot chorasi to'g'ri tanlanganmi; 6) jinoyat oqibatida yetkazilgan mulkiy zarar qoplanishini ta'minlash choralari ko'rilganmi; 7) ayblov xulosasi Jinoyat-protsessual kodeksining talablariga muvofiq tuzilganmi.

Jinoyat ishini sudda muhokama qilishga tayinlash to'g'risida sudyaning qarori chiqarilgan vaqtdan boshlab ko'pi bilan o'n sutkada sud ishni ko'rishni boshlashi lozim. Jinoyat ishini sudda muhokama qilish umumiy muddati ishni muhokama qilish boshlangan kundan e'tiboran ikki oydan oshmasligi kerak.

Ikkinchi muhim sud bosqichi bu sud muhokamasidir (50-54-boblar). Sud majlisi tayyorlov (51-bob), sud tergovi (52-bob), taraflar muzokarasi va sudlanuvchining oxirgi so'zi (53-bob), hukm chiqarish (54-bob) kabi to'rt bosqichdan iborat tartibda amalga oshiriladi. Sud muhokamasi yakunida qoida tariqasida sudning ayblov yoki oqlov hukmi yoxud boshqacha qaror

(jinoyat ishini tugatish v.b.) qabul qilinishi mumkin. Sud majlisida, shuningdek tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash, amnistiya aktini qo'llash masalalari ham hal qilinadi.

Yuqori instansiya sudlari tomonidan jinoyat ishi yurituvchi hukm, ajrim va qarorlarning qonuniyligi, asosliliigi va adolatliligini tekshirish tartibida amalga oshiriladi (11-bo'lim). Ta'kidlash lozimki, hukm, ajrim va qarorlarning qonuniyligi, asosliliigi va adolatliligini tekshirish apellyatsiya (55¹-bob), kassatsiya (56-bob) va nazorat (57-bob) tartibida amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi alohida toifada yuritiladigan jinoyat ishlarini tartibga solib (13-bo'lim), xususan, voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlarni yuritish (60-bob), tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash to'g'risidagi ishlarni yuritish (61-bob), yarashuv to'g'risidagi ishlar bo'yicha ish yuritish (62-bob), ishni sudga qadar yuritish bosqichida amnistiya aktini qo'llashni (63-bob) nazarda tutadi. Bunday ish yuritish o'ziga xosligi jinoyat-protsessual munosabatlar ishtirokchilarining ruhiy-psixologik holati va yoshi, ushbu ishlar bo'yicha o'tkaziladigan protsessual harakatlarning o'ziga xosligi, ularda ishtirok etuvchi shaxslar doirasining o'ziga xosligi, ushbu ishlar bo'yicha tayinlanishi mumkin bo'lgan ta'sir choralari o'ziga xosligi va boshqalar bilan belgilanadi.

Hukm, ajrim, qarorlarni ijro etish (12-bo'lim) ham jinoyat protsessining muhim bosqichi bo'lib, u o'z ichiga hukm, ajrim, qarorlarni ijro etishga qaratish (58-bob) va hukm, ajrim, qarorlarni ijro etishda yuzaga kelgan masalalarni hal qilishni (59-bob) qamrab oladi. Hukm uning ustidan apellyatsiya shikoyati berish va protest bildirish muddati o'tishi bilan qonuniy kuchga kiradi. Apellyatsiya shikoyati berilgan yoki protest bildirilgan taqdirda hukm, agar u bekor qilinmagan bo'lsa, ishni yuqori sud ko'rib chiqqan kuni qonuniy kuchga kiradi. Hukm, ajrim, qarorlarni ijro etishda yuzaga kelgan masalalar – hukmning ijrosini kechiktirish, kasalligi tufayli jazoni o'tashdan ozod qilish, jazoning shartlilikini bekor qilish, jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilish va jazoni yengilrogi bilan almashtirish, mahkumni amnistiya aktiga asosan jazodan ozod qilish, ozodlikdan mahrum etish jazosiga hukm qilingan shaxslarni saqlash sharoitini jazoni o'tash vaqtida o'zgartirish, mahkumni tergov hibsonasida saqlab turish, jarima solishni va axloq tuzatish ishlarini jazoning boshqa turi bilan almashtirish, hukm, ajrim va qarorlarni ijro etishda fuqaroviy da'vo hamda boshqa mulkiy undirishlarga oid qismi bo'yicha yuzaga keladigan masalalar, sinov muddati to'g'risidagi masala, sudlanganlikni olib tashlash,

axloq tuzatish ishlari o‘talgan vaqtni mahkumning umumiy mehnat stajiga qo‘shish, xizmat bo‘yicha cheklash, intizomiy qismda saqlash vaqtini hisobga kiritish kabilardan iboratdir.

Jinoyat protsessining funksiyalari deganda, jinoyat-protsessual faoliyatning asosiy yo‘nalishlari tushuniladi. Ma’lumki, surishtiruv, dastlabki tergov, prokuratura va sud organlarining jinoyat-protsessual faoliyati bir xil bo‘lmay, o‘z mazmuniga ko‘ra bir necha yo‘nalishlarda amalga oshiriladi. Jinoyat protsessining funksiyalari jinoyat sud ish yurituvchi subyektlarining protsessdagi roli va vazifasidan kelib chiqadi.

Jinoyat protsessining funksiyalarini shartli ravishda uch turga ajratish mumkin:

1) asosiy funksiyalar (ayblov, himoya, odil sudlov – ishni hal qilish, nazorat); 2) fakultativ funksiyalar (zararni qoplash, fuqaroviy da’voni qo‘llab-quvvatlash, jinoyat sodir etishga shart-sharoit yaratgan holatlarni aniqlash); 3) qo‘shimcha funksiyalar (ya’ni, ta’minlovchi funksiyalar, masalan, sud majlisi kotibining sud majlisi bayonnomasini tuzish funksiyasi v.b.).

Ushbu funksiyalardan eng muhim, asosiylariga to‘xtalib o‘tamiz:

1. Ayblov funksiyasi – bu jinoyat protsessi subyektlarining jinoyat sodir etgan shaxsni fosh etish, uning aybini, shuningdek jinoiy javobgarlikka oid boshqa holatlarni aniqlashga qaratilgan faoliyatidir. Mazkur funktsiyani prokuror, jamoat ayblovchisi, jabrlanuvchi va uning vakillari amalga oshiradi. Ayblov funksiyasi aniq shaxsga nisbatan jinoyat ishini qo‘zg‘atish, shaxsni jinoyat sodir etganligini fosh etish, jinoyat sodir etishga gumonni shakllantirish, ayblovni e’lon qilish, gumon qilinuvchi va ayblanuvchiga nisbatan protsessual majburlov choralarini qo‘llash, davlat ayblovini sudda qo‘llab-quvvatlashda namoyon bo‘ladi. Ayblov funksiyasi Jinoyat-protsessual kodeksi bilan bir qatorda, 2001-yil 29 avgustdagi “Prokuratura to‘g‘risida” (yangi tahriri), 2011-yil 29-sentabrdagi “Jinoyat ishini yuritish chog‘ida qamoqda saqlash to‘g‘risida” hamda 2012-yil 25-dekabrda “Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi qonunlari bilan ham tartibga solinadi.

2. Himoya funksiyasi – bu jinoyat protsessi subyektlarining ayblovni inkor etishga, shaxsning aybsizligini hamda javobgarlikni yengillashtiruvchi holatlarni aniqlashga qaratilgan faoliyatidir. Ushbu funktsiya subyektlari - gumon qilinuvchi va ayblanuvchi (sudlanuvchi),

ularning qonuniy vakillari, himoyachi va jamoat himoyachisi. Himoya funksiyasi quyidagilarda namoyon bo‘ladi: gumon va ayblov mohiyatiga nisbatan to‘liq e’tiroz bildirish; gumon va ayblovning alohida bandlariga nisbatan e’tiroz bildirish; qilmish malakasini (kvalifikatsiyasini) rad qilish; himoya ostida bo‘lgan shaxsning qilmishiga boshqacha huquqiy baho berish; javobgarlikni yengillashtiruvchi holatlarga e’tibor qaratish; ayblovni asoslantiruvchi dalillarning yetarli emasligini asoslash v.b. Himoya funksiyasi O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi bilan bir qatorda, 1996-yil 27-dekabrda O‘zbekiston Respublikasining “Advokatura to‘g‘risida”gi Qonuni hamda 1998-yil 25-dekabrda “Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to‘g‘risida”gi qonunlar bilan ham tartibga solinadi.

Ta’kidlash lozimki, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida so‘nggi yillarda himoya funksiyasini kuchaytirish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 1999-yil 15-apreldagi Qonun bilan himoyachining huquqlari doirasi kengaytirilib, himoyachi endilikda ishni nazorat tartibida ko‘rish chog‘ida ham ishtirok etishga haqli bo‘ldi. 2003-yil 12-dekabrda Qonun bilan himoyachi jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilish va jazoni yengilroq‘i bilan almashtirish tartibini qo‘llash bo‘yicha iltimosnoma bilan murojaat etish huquqiga ega bo‘ldi. 2008-yil 15-sentabrda Qonun bilan advokatning ishda ishtirok etishiga u advokatlik guvohnomasini ko‘rsatganidan va muayyan ishni yuritishga vakolatli ekanligini tasdiqlovchi orderni taqdim etganidan keyin yo‘l qo‘yilishi tartibi joriy etildi. 2008-yil 31-dekabrda Qonun bilan O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi “Guvohning advokati” deb nomlangan 66¹-modda bilan to‘ldirildi, himoyachining iltimosnomasiga ko‘ra surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud tomonidan mutaxassis tushuntirish berish uchun chaqirilishi mumkinligi belgilandi (69-modda), himoyachi vakolatlari kengaytirilib, u dalillar to‘plash huquqiga ega bo‘ldi.

3. Odil sudlov funksiyasi – bu sudning ish bo‘yicha to‘plangan barcha dalillarni tekshirish hamda aniq shaxsning aybdor yoki aybsizligi to‘g‘risida, shuningdek unga tayinlanadigan jazo to‘g‘risida qaror qabul qilishga qaratilgan faoliyati (jinoyat ishini mazmunan hal qilish funksiyasi). O‘zbekiston Respublikasida odil sudlov funksiyasini amalga oshirishi mumkin bo‘lgan yagona organ bu sud hisoblanadi. Odil sudlov funksiyasini amalga oshirish tartibi ham kuchaymoqda. Xususan, “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi”ning sud-huquq sohasini isloh etish yo‘nalishida ko‘zda tutilgan o‘zgartirishlar asosida 2012-yil

18- sentabrdagi Qonun bilan sud jinoyat ishini qoʻzgʻatish huquqiga ega subyektlar doirasidan chiqarildi (Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 15-moddasi); Xabeas korpus instituti kengaytirildi; ayblov xulosasini sud emas, prokuror tomonidan oʻqib eshittirilishi belgilandi (Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 439-moddasi). Odil sudlov funksiyasi Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi bilan bir qatorda, 2000-yil 14-dekabrda “Sudlar toʻgʻrisida” (yangi tahriri), 2010-yil 1-iyundagi “Sud ekspertizasi toʻgʻrisida” va boshqa qonun hujjatlari bilan ham tartibga solinadi.

4. Nazorat funksiyasi – bu prokuror va sud tomonidan jinoyat protsessi bosqichlarida qonuniylikka, protsess ishtirokchilarining huquq va manfaatlariga rioya etilishi ustidan amalga oshiriladigan nazorat yuzasidan faoliyat yoʻnalishidir. Hozirgi kunga kelib “Xabeas korpus” instituti rivojlanishi munosabati bilan ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olishga (2008-yil) va uy qamogʻiga (2014-yil), lavozimdan chetlashtirish va shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish tarzidagi protsessual majburlov choralari qoʻllashga (2012-yil) sanksiya berish huquqi prokurordan sudga oʻtkazilishi insonning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari, uning daxlsizligini himoya qilishda prinsipial qadam boʻldi.

Jinoyat protsessida asosiy boʻlgan ayblov, himoya va odil sudlov funksiyalardan tashqari dastlabki tergov va yordamchi funksiyalar amal qiladi.

Dastlabki tergov funksiyasi – tergovchi, surishtiruvchi – oʻz vakolat doirasida (ayblov eʼlon qilish va ayblanuvchi bilan bogʻliq boʻlgan protsessual va tergov harakatlarini oʻtkazish bundan mustasno) tomonidan jinoyat ishi boʻyicha dalil toʻplash va ularni protsessual qayd qilish, toʻplangan dalillarni tekshirish va baholash orqali ayblovni shakllantirish, shaxsni ayblanuvchi sifatida jinoyat ishiga jalb qilish va dastlabki tergovni tamomlash bilan bogʻliq protsessual qarorlar qabul qilishdan iboratdir. Shu bilan birgalikda, dastlabki tergov funksiyasining ayblov funksiyasidan asosiy farqi shundaki, uning ustuvor vazifasi ayblovni shakllantirish emas, balki jinoyat ishi boʻyicha haqiqatni aniqlashdir. Yaʼni, haqiqatni aniqlash uchun dastlabki tergov funksiyasini amalga oshiruvchi subyektlar ish boʻyicha isbotlanishi lozim boʻlgan barcha holatlarni sinchkovlik bilan, har tomonlama, toʻla va xolisona tekshirib chiqishi kerak. Ishda yuzaga keladigan har qanday masalani hal qilishda ayblanuvchini yoki sudlanuvchini ham fosh qiladigan, ham oqlaydigan, shuningdek uning javobgarligini ham yengillashtiradigan, ham ogʻirlashtiradigan holatlar

aniqlanishi va hisobga olinishi lozim (O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 22-moddasi).

Yordamchi funksiya – jinoyat ishlari yurituvida haqiqatni aniqlashga ko‘maklashuvchi ishtirokchilarning faoliyatidan iborat bo‘lib, ular ikki guruhga bo‘linadi: 1) daliliy ahamiyatga ega ma‘lumotlar manbalari bo‘lgan shaxslar (guvoh va ekspert). Bu shaxslar isbot qilish jarayonida faol ishtirok etib, aynan ular tomonidan beriladigan daliliy ahamiyatga molik ma‘lumotlar ishning hal qilinishiga jiddiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. 2) dalillarni qayd qilish va mustahkamlashda ko‘maklashuvchi shaxslar (mutaxassis, tarjimon, xolis). Bu toifadagi shaxslar esa jinoyat hodisasi bo‘yicha obyektiv faktik ma‘lumotlar manbalari bo‘lmasalar-da, jinoyat protsessida texnik-tashkiliy yordam ko‘rsatadilar.

1.3. Jinoyat protsessual shakl va jinoyat protsessual kafolatlar

Jinoyat protsessual huquqi jinoyat protsessual shakl va jinoyat protsessual kafolatlar tushunchalari bilan uzviy bog‘liqdir.

Jinoyat protsessual shakl – jinoyat-protsessual harakatlarni amalga oshirish shartlari, ketma-ketligi va izchilligi, ularni rasmiylashtirish tartibini aniq va batafsil tartibga soluvchi, ya'ni muayyan jinoyat protsessual munosabatlarni yuzaga keltirish, o‘zgartirish yoki tugatishning qat‘iy shartlaridan iborat.

Jinoyat protsessual shaklning ahamiyati jinoyat ishini qo‘zg‘atishdan boshlab to jinoyat ishi yurituvini tamomlashgacha bo‘lgan barcha protsessual hujjatlar shakli qonun bilan mustahkamlanganligida ham namoyon bo‘ladi. Masalan, hukm - uni tuzish va bayon qilish shakli yuzasidan qonun bilan batafsil tartibga solingan odil sudlov aktidir.

Protsessual shakl – nihoyatda katta ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lib, adolatli jinoyat ish yurituvining muhim kafolati hisoblanadi.

Jinoyat protsessual shakl o‘ziga xos belgilarga ega bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:

1. Yaxlitlik – jinoyat protsessning bosqichlarida harakatlanishida barcha jinoyat ishlari uchun majburiy bo‘lgan yagona protsessual tartibi mavjud bo‘lib (qonunda nazarda tutilgan hollardan tashqari), O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 1-moddasiga muvofiq,

O‘zbekiston Respublikasi hududida jinoyat ishlarini yuritish tartibi Jinoyat-protsessual kodeksi bilan belgilanadi.

2. Jinoyat ishi yurituvining detallashgan tartibga solinishi - har bir alohida protsessual harakatlar va ularning majmuini amalga oshirish tartibi va shartlari hamda qonunan o‘rnatilgan tartibda ularni olib borish jarayoni va natijalarini rasmiy qayd qilinishidir.

3. Amalga oshiriladigan protsessual harakatlar va qabul qilinadigan qarorlar izchilligi - jinoyat protsessining bosqichlardan o‘tish jarayonining o‘zi ham muayyan bosqichlarning umumiy shartlari, har qanday tergov yoki sud harakatining amalga oshirish tadrijiy izchilligi va tartibi qonun bilan o‘rnatilgan muayyan protsessual shaklga muvofiqdir.

4. Imperativlik – jinoyat protsessual munosabatlarni tartibga solishning jinoyat protsessi subyektlariga qat’iy talablar o‘rnatishda namoyon bo‘lib, ularga protsessual majburiyatlar yuklatiladiki, mazkur majburiyatlarni bajarmaslik protsessual majburlov choralarini qo‘llashga, jinoyat ishi yurituvi uchun mas’ul bo‘lgan shaxslarga yuklatilgan vazifalarni bajarmaslik esa tegishli huquqiy oqibatlariga olib kelishi mumkin.

5. Protsessual shaklning differentsiativligi – jinoyat protsessual qonunida jinoyat ishlari yurituvining differentsiativlashgan shakllarini ham mustahkamlanganligida ko‘rinadi. Masalan, yarashuv tartibida ish yuritish, tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini qo‘llash, voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlarni yuritish, amnistiya aktini qo‘llash kabi institutlarning O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi doirasida amal qilishi.

Jinoyat ishlari yurituvining qonuniyligi va asoslanganligini ta’minlashda muhim rolni *protsessual kafolatlar* bajaradi.

Protsessual kafolatlar – bu jinoyat protsessining vazifalarini amalga oshirishga yo‘naltirilgan qonun bilan tartibga solingan vositalardir. Umuman olganda, butun protsessual tartibning o‘zi: jinoyat protsessi prinsiplaridan to alohida tergov va sud harakatlari tartibga solinishining detali har bir jinoyat ishining qonuniyligi va asoslanganligini kafolatlaydi.

Protsessual kafolatlarning muhim qismini jinoyat protsessida ishtirok etuvchi shaxs huquq va qonuniy manfaatlarini ta’minlashning protsessual qonun bilan tartibga solingan vosita va usullari tashkil etadi.

Jinoyat protsessining ahamiyati shundan iboratki, qonun bilan

oʻrnatilgan jinoyat ishini yuritish tartibi jinoyat protsessining vazifalarini taʼminlashga, jinoyat protsessining barcha ishtirokchilarining huquq va qonuniy manfaatlarini muhofaza qilishga, obyektiv haqiqatni aniqlashga va ish yuzasidan qonuniy va asoslantirilgan qarorlar qabul qilishga xizmat qiladi.

1.4. Jinoyat-protsessual huquqi huquq sohasi sifatida va uning boshqa huquq sohalari bilan oʻzaro aloqasi

Jinoyat-protsessual huquqi surishtiruv, dastlabki tergov, prokuratura va sud organlarining jinoyat ishlarini qoʻzgʻatish, tergov qilish va hal qilish boʻyicha faoliyatini tartibga soluvchi huquq sohasi hisoblanadi. Jinoyat-protsessual huquqi nafaqat turdosh huquqiy fanlar bilan, balki jinoyat ishlarining sud muhokamasi vazifalarini amalga oshirish manfaatlarida muvaffaqiyatli foydalaniladigan bilimlarning boshqa sohalari bilan chambarchas bogʻlangan.

Jinoyat-protsessual huquqi yuridik fanlar bilan uzviy bogʻliqdir. Maʼlumki, yuridik fanlar tarixiy-huquqiy (davlat va huquq tarixi, siyosiy-huquqiy taʼlimotlar tarixi v.b.), tarmoq-yuridik (konstitutsiyaviy huquq, maʼmuriy huquq, jinoyat huquqi, fuqarolik huquqi, fuqarolik protsessi, mehnat huquqi, moliya huquqi v.b.), maxsus-yuridik (kriminologiya, huquqni muhofaza qilish organlari v.b.) va amaliy-yuridik (kriminalistika, sud tibbiyoti, sud psixiatriyasi, sud buxgalteriyasi, sud statistikasi v.b.) fanlarga boʻlinadi. Jinoyat-protsessual huquqi koʻproq tarmoq, maxsus va amaliy fanlar bilan bogʻliq.

Jinoyat-protsessual huquqi **konstitutsiyaviy huquq** bilan chambarchas bogʻliq. Xususan, Konstitutsiya davlat hokimiyati va jinoyat sud ishlari yurituvining asosiy prinsiplarini shakllantirgan; mamlakatda sud tizimini belgilab bergan. Shuningdek, Konstitutsiyada inson va fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklari hamda Konstitutsiya va qonunlar ustuvorligi masalalari ham belgilangan. Xususan, unda Oʻzbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanishi, inson, uning hayoti, erkinligi, shaʼni, qadr-qimmatini va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat ekanligi; demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinishi (13-modda); Oʻzbekiston Respublikasida Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi soʻzsiz tan olinishi (15-modda); inson va fuqarolarning asosiy huquqlari va erkinliklari (7-9-boblar); inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlari (10-

bob), O‘zbekiston Respublikasining sud hokimiyati (22-bob); sud hokimiyati va sudyaning mustaqilligi (106, 112-moddalar); O‘zbekiston Respublikasida sud tizimi (107, 110-moddalar); sudning vakolatlari (108-109, 111-moddalar); sudyalar daxlsizligi (112-modda); sud ishlari yurituvda oshkoralik (113-modda); sud hujjatlarining majburiyligi (114-modda); sudda jinoyat ishlari yurituvda til (115-modda); himoyalalanish huquqi (116-modda); prokuratura organlari faoliyatining prinsiplari (24-bob) kabi muhim qoidalar mustahkamlangan.

Jinoyat-protsessual huquqi, shuningdek **jinoyat huquqi** bilan ham bog‘liq. Jinoyat-huquqiy munosabatlarni o‘rnatish va jinoiy javobgarlik choralarni qo‘llashni faqatgina jinoyat-protsessual munosabatlar doirasida amalga oshirish mumkin. Jinoyat huquqi normalari, birinchidan, faqatgina jinoyat-protsessual huquq normalari orqali qo‘llanilishi mumkin bo‘lsa, ikkinchidan, jinoyat-huquqiy normalarni qo‘llashga faqatgina jinoyat-protsessual munosabatlar subyektlari haqli hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 13, 82, 84, 236, 242, 265, 271, 325, 331, 379, 389 va boshqa qator moddalarida Jinoyat kodeksiga havolalar mavjudligi ham ushbu ikki huquq sohasining o‘zaro chambarchas bog‘liqligi, bir-birini taqozo etishini ko‘zda tutadi.

Jinoyat-protsessual huquqi **jinoyat-ijroiya huquqi** bilan ham uzviy bog‘liq. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi normalari sud tomonidan mahkumni saqlash tartibini o‘zgartirish, hukmni ijroga qaratish, jazoni o‘tash sharoitlarini o‘zgartirish bilan bog‘liq munosabatlarni ham tartibga soladi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining o‘n ikkinchi bo‘limi hukm, ajrim, qarorlarni ijro etishga bag‘ishlangan bo‘lib, u hukm, ajrim, qarorlarni ijro etilishi (58-bob) hamda hukm, ajrim, qarorlarni ijro etishda yuzaga kelgan masalalarni hal qilish (59-bob) masalalari tartibga solingan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining 1997-yil 25-aprelda qabul qilingan Jinoyat-ijroiya kodeksining 19, 61, 104, 129, 160, 164, 166-moddalarida aynan O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksiga havolalar mavjud bo‘lib, bu ham ikki huquq sohasining o‘zaro aloqasini yuridik jihatdan ta’minlaydi.

Jinoyat-protsessual huquqi **kriminologiya** fani bilan ham uzviy bog‘liq. Jinoyatchilikni, uning sabablari va shart-sharoitlarini, jinoyatchining shaxsini o‘rganadigan, jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqadigan kriminologiya jinoyat protsessi nazariyasi va amaliyoti bilan chambarchas bog‘langan. Bu narsa jinoyat-protsessual qonunning har bir muayyan ish bo‘yicha jinoyatning

sabablari hamda uning sodir etilishiga ko‘mak bergan shart-sharoitlarni aniqlash, ularni bartaraf etish uchun choralar ko‘rish, ayblanuvchi, sudlanuvchining shaxsini to‘liq va har tomonlama o‘rganish talabida o‘z aksini topadi (O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 296-300-moddalari). Boshqa tomondan, kriminologiya fanidan jinoyat ishlarini sudda ko‘rishning tegishli ma‘lumotlaridan jinoyatchilikning oldini olishning yanada samarali choralari ishlab chiqish maqsadida foydalaniladi.

Fuqarolik huquqi ham o‘z o‘rnida jinoyat-protsessual huquqi bilan bog‘liqdir. Jinoyat tufayli yetkazilgan zarar o‘z navbatida jabrlanuvchining yetkazilgan mulkiy ziyonni va ma‘naviy zararni qoplatishga bo‘lgan huquqini vujudga keltiradi. Bunda qonun jinoyat protsessida fuqaroviy da‘vo qo‘zg‘atish yoxud yetkazilgan zararni fuqarolik sud ish yurituv tartibida undirishni ko‘zda tutadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining beshinchi bo‘limida jinoyat natijasida yetkazilgan mulkiy ziyonni qoplash masalalari tartibga solingan bo‘lib, unda jinoyat protsessida fuqaroviy da‘vo boshqa mulkiy undirishlar (33-bob), mol-mulkni jabrlanuvchi yoki fuqaroviy da‘vogarga qaytarish (34-bob), hukmning mulkiy undirishlar to‘g‘risidagi qismi ijrosini ta‘minlash (35-bob) masalalari o‘z ifodasini topgan. Unga ko‘ra, bevosita jinoyat tufayli yoki aqli noraso shaxsning ijtimoiy xavfli qilmishi natijasida fuqarolarga va yuridik shaxslarga yetkazilgan mulkiy ziyonni qoplash, shuningdek jabrlanuvchini dafn etish yoki uning statsionarda davolanish xarajatlarini hamda sug‘urta tariqasida unga to‘langan pul, nafaqa yoki pensiya pulini undirish to‘g‘risidagi fuqaroviy da‘volar jinoyat protsessida ko‘riladi. Fuqaroviy da‘voning sudlovga tegishliligi bu da‘vo qo‘zg‘atilgan jinoyat ishining qaysi sudlovga tegishliligiga qarab aniqlanadi (275-modda).

Jinoyat protsessi va kriminalistika. Jinoyat ishlarini sudda ko‘rishni amalga oshirish ko‘pincha jinoyatlarni ochish, ularni tergov qilish va sudda ko‘rib chiqish ilmiy uslublari va vositalari tizimidan, ya‘ni kriminalistika sohasidagi bilimlardan foydalanmasdan mumkin bo‘lmaydi. **Kriminalistika** jinoyatlarni ochish va ularning oldini olish maqsadida dalillarni topish, to‘plash, qayd qilish va tadqiq qilish bo‘yicha jinoyat protsessual qonunda nazarda tutilgan harakatlarni bajarish uchun qo‘llaniladigan texnik vositalar, taktik uslublar va usullar to‘g‘risidagi fandır.

Kriminalistika jinoyatlarni fosh etish va ochishga qaratilgan faoliyat bo‘lib, jinoyat protsessining tarkibiy qismi hisoblanadi. Kriminalistik vositalari va usullari jinoyat protsessual qonuni asosida maqsadlariga

erishish uchun qo'llaniladi. Kriminalistika jinoyat protsessiga nisbatan amaliy fan hisoblanadi.

Jinoyat protsessi fanining predmeti rioya etilishi lozim bo'lgan huquq normalarini o'rganishdan iborat bo'lsa, kriminalistika uslublari va usullarini bevosita huquqiy jihatdan mustahkamlashning ahamiyati qanchalik yuqori bo'lmasin, bu fanda majburiy bo'lmagan, har bir alohida holda qo'llanilishining maqsadga muvofiqligi vakolatli davlat organlari (surishtiruv, tergov, prokuratura, sud) tomonidan belgilanadigan, tavsiya tusidagi qoidalardan iborat.

Jinoyat protsessi va sud tibbiyoti. Mazmuni huquqiy amaliyotda vujudga keladigan tibbiy va biologik tUSDagi masalalarni o'rganish hamda ishlab chiqishni tashkil etadigan tibbiyot sohasi sud tibbiyoti deb ataladi. Jinoyat ishlarini yuritish amaliyotida hal qilinishi sud tibbiyotining maxsus bilimlarini talab etadigan masalalarga ko'p uchraydi. Masalan, o'limning sababini, yetkazilgan tan jarohatlarining xususiyati va og'irlik darajasini aniqlash zarurati yuzaga keladi.

Bu hamda boshqa shunga o'xshash ko'pgina savollarga faqat sud tibbiyoti sohasida bilimga ega shifokor malakali javob berishi mumkin bo'lib, u jinoyat ishlarini sudda ko'rishda ishtirok etish uchun ekspert, ayrim hollarda esa mutaxassis sifatida jalb etiladi.

Ekspert yoki mutaxassis sifatida shifokorni chaqirish zarurati to'g'risidagi masalani malakali hal qilish, shuningdek tegishli xulosani (yoki tushuntirishni) to'g'ri baholashni o'rganish yuridik kadrlarni tayyorlash hajmiga kiradigan sud tibbiyoti asoslarini bilishni nazarda tutadi.

Jinoyat protsessi va sud psixiatriyasi. Jinoyat ishini tergov qilish va ko'rib chiqish chog'ida ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsning ruhiy holati to'g'risidagi masala hamda, binobarin, uning jinoiy javobgarligi mumkinligi to'g'risidagi, jabrlanuvchining, guvohning ruhiy va jismoniy ahvoli to'g'risidagi masala, shuningdek ularning ish bo'yicha ahamiyatga ega bo'lgan holatlarni to'g'ri qabul qilish va qayta aks ettirishga qodirligi to'g'risidagi masala va boshqa masalalar kelib chiqishi mumkin. Jinoyat ishlarini sudda ko'rishda sud-psixiatriya, shuningdek sud-tibbiy xususiyatdagi masalalarning kelib chiqishi ekspert yoki mutaxassislar yordamidan foydalanish zaruratini keltirib chiqarishi mumkin.

Jinoyat protsessi va sud psixologiyasi. Umumiy psixologiyaning tarkibiy qismi sifatida sud psixologiyasining predmeti jinoyatchilikka qarshi kurash sohasida inson ruhiyati qonuniyatlarini o'rganish hisoblanadi. Sud psixologiyasi bilimlaridan jinoyatlarni ochish uchun ayrim tergov va sud harakatlarini o'tkazish bo'yicha taktik tavsiyanomalarni ishlab chiqishda

foydalaniladi. Psixologiya sohasidagi maxsus bilimlardan sud-psixologiya ekspertizasini o‘tkazishda, xususan, shaxsning individual xususiyatlari va ahvolini aniqlash uchun foydalaniladi.

Jinoyat protsessi va sud statistikasi. Sud statistikasi – statistika fanining sohasi bo‘lib, uning predmeti jinoyatchilik holati to‘g‘risidagi miqdoriy ma‘lumotlarni, uning dinamikasi hamda unga qarshi kurash choralarini o‘rganish va umumlashtirishdir. Bunday ma‘lumotlarsiz jinoyatchilik sabablarini, unga qarshi kurash maqbul chora-tadbirlarini, tegishli jinoiy jazolarning samaradorligini, shuningdek jinoyat ishlarini sudda ko‘rishning qonun hujjatlari va sudlov organlari faoliyatining yanada takomillashtirilishini ta‘minlash mumkin emas. Shu boisdan ham surishtiruv, tergov, prokuratura va sud organlarida ishlarni qo‘zg‘atish, tergov qilish va ko‘rib chiqishning, ularning sudda ko‘rilishi natijalarining, qo‘llanilayotgan jazo choralarning hisobi yuritiladi va shu kabi boshqa ma‘lumotlar hisobga olinadi. Sud statistikasining mazmuni fanning bu sohasi nomlanishiga qaraganda kengroq, chunki u nafaqat sud faoliyatini, balki jinoyat ishlarini sudda ko‘rish boshqa organlarining – surishtiruv, tergov va prokuraturaning ham statistik faoliyatini qamrab oladi³.

1.5. Jinoyat-protsessual qonun hujjatlari va uning vazifalari

Jinoyat ishlarini yuritish tartibi faqatgina O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi bilan belgilangan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi hududida jinoyat ishlarini yuritish tartibini belgilovchi muqobil qonun hujjatlari mavjud emas.

Jinoyat-protsessual munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy qonun hujjati jinoyat-protsessual kodeksdir. Bu kodeksning normativ-huquqiy hujjat turi sifatidagi o‘ziga xos jihatlarga ega bo‘lib, kodeks – bugungi kunda joriy qonunlarning asosiy va muhim turlaridan biri hisoblanadi, qonunchilik tarmoqlarida integratsiya funksiyasini bajaradi, qonunchilik tarmoqlari o‘rtasidagi tizimli aloqalar manbai sifatida xizmat qiladi. Kodeksning davlat uchun ahamiyati unda o‘zaro ichki muvofiqlashgan huquqiy normalar tizimi mujassam bo‘lishi bilan belgilanadi.

³ Jinoyat protsessi. Mualliflar jamoasi. Umumiy qism. Darslik / prof. Z.F.Inog‘omjonovanning umumiy tahriri ostida. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2002. – B. 32-34.

Jinoyat ishlari yurituvi tartibining ham kodifikatsiyalashgan normativ-

Qonun Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilinib, Senat tomonidan ma'qullanib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolangach va qonunda belgilangan tartibda rasmiy nashrlarda e'lon qilingach, yuridik kuchga ega bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 84-moddasi.

huquqiy hujjat bilan tartibga **solinishi ushbu munosabatlarda tezkorlik, aniqlik va tizimlilikni ta'minlaydi.**

O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonunining 8-moddasi uchinchi qismiga muvofiq, kodekslar O'zbekiston Respublikasining qonunlari bilan tasdiqlanadi. Shunga muvofiq, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi ham O'zbekiston Respublikasining 1994-yil 22-sentabrdagi 2013-XII-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida belgilangan barcha qoidalar normativ xususiyatga hamda qonun kuchiga ega bo'lib, O'zbekiston Respublikasining butun hududi doirasida bir xilda qo'llaniladi. Shuningdek, unda belgilangan jinoyat ishlarini yuritish tartibi barcha huquqni muhofaza qiluvchi idoralar hamda fuqarolar uchun yagona va majburiy xususiyatga egadir.

Jinoyat-protsessual qonun hujjatlarining vazifalari O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 2-moddasida belgilab berilgan. Unda jinoyat-protsessual qonun hujjatlarining to'rtta asosiy vazifalari belgilab berilgan. Ushbu vazifalar qonunda nihoyatda aniq va tizimli ifodalangan bo'lib, quyidagilardan iborat:

1) jinoyatlarni tez va to'la ochishni ta'minlash – bu jinoyat ishini yurituvchi va jinoiy ta'qibni amalga oshiruvchi surishtiruv, dastlabki tergov va prokuratura organlari, shuningdek sudning sodir etilgan jinoyat holatiga oid O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida belgilangan holatlarni aniqlashga qaratilgan asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Jinoyatlarni tez va to'la ochishni ta'minlashda O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 82-moddasiga muvofiq, ayblash va hukm qilish uchun asoslar – jinoyat obyekti; jinoyat tufayli yetkazilgan ziyonning xususiyati va miqdori, jabrlanuvchining shaxsini tavsiflovchi holatlar; sodir etilgan jinoyatning vaqti, joyi, usuli, shuningdek Jinoyat kodeksida ko'rsatib o'tilgan boshqa holatlari; qilmish va ro'y bergan ijtimoiy xavfli oqibatlar o'rtasidagi sababiy bog'lanish; jinoyatning ushbu shaxs tomonidan sodir etilganligi; jinoyat to'g'ri yoki egri qasd bilan yoxud

beparvolik yoki o‘z-o‘ziga ishonish oqibatida sodir etilganligi, jinoyatning sabablari va maqsadlari; ayblanuvchining, sudlanuvchining shaxsini tavsiflovchi holatlar aniqlanadi.

Har bir jinoyat u qanchalik yashirin sodir etilgan bo‘lmasin, tez va to‘la ochilishi lozim. Jinoyat-protsessual qonuniga ko‘ra, huquqni muhofaza qiluvchi davlat organlari doimo ziyraklik bilan jinoyat voqeasi holatlarni aniqlashi, ularni “izlar sovimay” ochishi, jinoyatning barcha ishtirokchilari, ayniqsa tashkilotchilari, dalolatchilari, bevosita ijrochilarini fosh etishi, jinoyat sodir etishga imkon bergan sabab, shart-sharoitlarni aniqlashi muhim ahamiyat kasb etadi. Jinoyat qanchalik tez va to‘la ochilsa, inson, jamiyat va davlat manfaatlarini himoyalash vazifasi shunchalik samarali bajariladi.

Ishning barcha holatlarini aniqlash yuz bergan voqeani, haqiqatni aniqlashdan iborat. Bo‘lib o‘tgan holatlarga to‘g‘ri baho berish haqiqatning tub mazmunini bilishga imkon beradi. Haqiqatni bilmay jinoyat-protsessual qonun hujjatlarini tatbiq etish va uning vazifalarini bajarishga erishib bo‘lmaydi. Shu bilan birgalikda jinoyat hodisasi bo‘yicha haqiqatni aniqlashda O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 22-moddasiga binoan, ish bo‘yicha isbotlanishi lozim bo‘lgan barcha holatlar sinchkovlik bilan, har tomonlama, to‘la va xolisona tekshirib chiqilishi kerak.

2) jinoyat sodir etgan har bir shaxsga adolatli jazo berilishini ta’minlash – ya’ni, ayblanuvchi tomonidan sodir etilgan qilmishning hamda jinoyatchi shaxsining ijtimoiy xavflilik darajasiga mutanosib bo‘lgan jazo chorasini tayinlanishini ta’minlaydi, ya’ni ishda yuzaga keladigan har qanday masalani hal qilishda ayblanuvchini yoki sudlanuvchini ham fosh qiladigan, ham oqlaydigan, shuningdek uning javobgarligini ham yengillashtiradigan, ham og‘irlashtiradigan holatlar aniqlanishi va hisobga olinishi lozim.

3) aybi bo‘lmagan hech bir shaxs javobgarlikka tortilmasligi va hukm qilinmasligi uchun aybdorlarni fosh etishni ta’minlash – ya’ni, jinoyatni sodir etishda haqiqatdan aybdor bo‘lgan barcha shaxslarni, shu jumladan, jinoyatning barcha ishtirokchilarini va unga daxldor shaxslarni aniqlashga qaratilgan. Jinoyat sodir etgan shaxslarni fosh etish va jinoiy javobgarlikka tortish jinoiy ta’qibni amalga oshiruvchi organlar (surishtiruv organi, tergov, prokuratura)ning aybni isbot qilish maqsadida ishni qonuniy, asoslangan va adolatli hal qilish uchun ahamiyatga ega bo‘lgan holatlar to‘g‘risidagi haqiqatni aniqlash maqsadida dalillarni to‘plash, tekshirish va baholash bo‘yicha ham vazifasi, ham majburiyatidir. Ya’ni bu vazifani

amalga oshirishda jinoiy ta'qib subyektlariga qonun doirasida ish yuritishi, xususan, ish bo'yicha haqiqatni aniqlash uchun faqat O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida nazarda tutilgan tartibda topilgan, tekshirilgan va baholangan ma'lumotlardan foydalanish mumkinligi, gumon qilinuvchidan, ayblanuvchidan, sudlanuvchidan, jabrlanuvchidan, guvohdan va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslardan zo'rlash, qo'rqitish, huquqlarini cheklash va qonunga xilof bo'lgan o'zgacha choralar bilan ko'rsatuvlar olishga harakat qilish man etilganligi to'g'risidagi qoidaga qat'iy rioya etishlari shart.

4) qonunning to'g'ri tatbiq etilishini ta'minlash – ya'ni, jinoyat-protsessual qonun hujjatlarining sud-tergov organlari faoliyatiga to'g'ri – qonunga mos, mazmunini buzmagani, biryoqlama yondashuvlarsiz, belgilangan protsessual tartibda qo'llanilishini anglatadi. Qonunni to'g'ri tatbiq etish, jumladan, qonunbuzarlik hamda qonunga rioya qilmaslik hollarini aniqlash, har qanday qonunbuzarning javobgarlikka tortilishi muqarrarligini ta'minlashga qaratilgan. Jinoyatishlari yurituvchi jarayonida huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan qabul qilinadigan qarorlar va amalga oshiriladigan protsessual harakatlarning qonuniyligi va asosligi jinoyatlarni to'g'ri tasniflash bilan ham bog'liq. Jinoyat qonunchiligini to'g'ri qo'llanilishi sud tomonidan sodir qilingan jinoyatning og'irligi va sudlanuvchining shaxsiga mutanosib ravishda jinoiy jazo tayinlanishini ta'minlaydi. Jinoiy ta'qibni amalga oshiruvchi organlar tomonidan sodir qilingan jinoyatning protsessual qonun normalariga qat'iy rioya qilingan holda fosh etilishi adolatli sud muhokamasining garovidir.

Jinoyat-protsessual kodeksda belgilangan usullar orqali jinoyat protsessi vazifalarini bajarilishi ish yurituvning qonuniy va asosligini, uning maqsadlariga erishishni ta'minlaydi. Xususan, jinoyat ishlarini yuritishning jinoyat-protsessual qonunda belgilangan tartibi uch maqsadga xizmat qiladi:

Birinchidan, qonuniylikni mustahkamlashga – ya'ni, jinoyat ishlarini yuritishda Konstitutsiya va qonunlarning ustunligini e'tirof etishga, shuningdek jinoyat-protsessual faoliyatni amalga oshirayotgan mansabdor shaxslar – surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudya faoliyatida qonunlarga og'ishmay va qat'iy rioya etilishini ta'minlashga qaratilganligini, xususan jinoyat-huquqiy va protsessual normalarni qo'llashda surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning shaxsni gumon qilish, ayblashda, sudyaning esa hukm chiqarishda o'z ixtiyoriga qarab ish ko'rish chegarasi qonun bilan aniq tartibga solinganligini anglatadi;

Ikkinchidan, jinoyatlarning oldini olishga – ya'ni, sudlanuvchi va

boshqa shaxslarga axloqiy-ruhiy ta'sir ko'rsatib, ular tomonidan kelgusida jinoyat sodir etilishining oldini olishga xizmat qiladi;

Uchinchidan, shaxs, davlat va jamiyat manfaatlarini himoya etishga – jinoyat-protsessual qonun hujjatlari jinoyat tufayli zarar yoki ziyon yetgan alohida shaxslar, davlat yoki jamiyat manfaatlarini himoya etishga, shu jumladan, yetkazilgan moddiy va ma'naviy ziyonni qoplashga xizmat qiladi.

Jinoyat protsessining muhim vazifasi yangi jinoyatlarni oldini olish, profilaktika qilish, aholini qonun va huquq-tartibotga nisbatan hurmat ruhida tarbiyalashdan iborat. Jinoyat ishlarini yuritishda surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud jinoyatning sabablarini va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlashi, ularni bartaraf etishga qaratilgan samarali choralarni ko'rishlari shart. Jinoyat-protsessual qonun hujjatlarining talablarini bajarish bevosita huquqni muhofaza qiluvchi organlar va sudning zimmasidadir. Bu talablarni amalga oshirishdan davlat, jamiyat va har bir inson manfaatdor ekani bois unga erishish barchaning umumiy vazifasidir.

1.6. Jinoyat protsessual huquqi normalari

Jinoyat-protsessual huquqining tashqi shaklini uning manbalari, ichki shaklini esa huquq normalari tashkil qiladi. Jinoyat-protsessual normalarning mazmuni jinoyat-protsessual huquq subyektlarining xulq-atvor qoidalaridan iborat. Jinoyat-protsessual huquqi subyekti huquq normasida o'z aksini topgan huquq va majburiyatlarni amalga oshirar ekan jinoyat-protsessual munosabatlarga kirishadi va shu orqali muayyan jinoyat ishi bo'yicha huquqiy munosabatlar subyektiga (ishtirokchisiga) aylanadi. Jinoyat-protsessual huquqi o'zida jinoyat-protsessual qonunda ifodalangan normalar majmuini ifodalaydi.

Jinoyat-protsessual norma – jinoyat-protsessual huquq va majburiyatlar subyektlarining davlat tomonidan o'rnatilgan hamda davlat va jamoat ta'siri tizimi orqali ta'minlangan hamda jinoyat ishlari yurituvini samarali amalga oshirishga qaratilgan umummajburiy xulq-atvor qoidalari.

Jinoyat-protsessual normalarning belgilari quyidagilardan iborat:

1) davlat tomonidan o'rnatilgan, ya'ni davlatning qonun chiqaruvchi

hokimiyatni amalga oshiruvchi oliy vakillik organi tomonidan tegishli normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan;

2) jinoyat-protsessual huquq va majburiyatlar subyektlarining umumiy xulq-atvor qoidalari bo‘lib, muntazam ravishda takrorlanadigan muayyan harakatlarni ko‘zda tutadi;

3) jinoyat protsessi ishtirokchilari uchun majburiy hisoblanadi; norma o‘zining umummajburiy ta‘siri orqali protsessning barcha ishtirokchilarini emas, balki u bevosita taalluqli bo‘lgan ishtirokchilarni qamrab oladi;

4) normalar davlat majburlov kuchi orqali ta‘minlanadi;

5) jinoyat-protsessual qonun hujjatlari vazifalarini samarali tarzda amalga oshirish maqsadini ko‘zlaydi v.b.

Jinoyat-protsessual huquqiy munosabatlar ishtirokchilarining huquq va majburiyatlarini, jinoyat ish yurituvi bosqichlarini va boshqa ko‘plab tushunchalarni belgilab beruvchi jinoyat-protsessual normalar jinoyat-protsessual huquq tizimini tashkil qiladi. Jinoyat-protsessual huquqning barcha normalari qat‘iy tizim va mantiqiy izchillikka ega bo‘lib, ular tizimlashtirilgan va kodifikatsiyalashganligi bilan tavsiflanadi. Chunki, Jinoyat-protsessual kodeksida jinoyat protsessiga taalluqli asosiy qoidalar batafsil bayon etilgan.

Jinoyat-protsessual normalar tizimida jinoyat-protsessual munosabatlar ishtirokchilarining xulq-atvor qoidalarini qat‘iy qilib belgilab beruvchi normalar muhim o‘rin tutadi. Mazkur normalarning salmog‘i jinoyat protsessining maqsadi va vazifalaridan kelib chiqadi. Zero, jinoyat protsessi vazifalarini bajarish uchun eng maqbul va oqilona yo‘l tanlanishi lozim bo‘lib, bu mazkur munosabatlar ishtirokchilarining xulq-atvorini qat‘iy tartibga solishni taqozo etadi. Biroq, jinoyat protsessiga xos bo‘lgan tortishuv jinoyat protsessida muayyan dispozitiv normalar ham amal qilishini ko‘zda tutadi. Dispozitiv normalar subyektlarga muayyan harakatlarni sodir etish yoki ulardan tiyib turish to‘g‘risida ko‘rsatma bermaydi. Ularning maqsadi shaxsning subyektiv manfaatini qanoatlantirish hisoblanadi. Dispozitiv normalarga asoslangan munosabatlarning vujudga kelishi, o‘zgarishi va tugatilishi manfaatdor shaxsning tashabbusiga bog‘liqdir.

Huquqiy tartibga solish usullariga (ruxsat berish, ko‘rsatma berish, taqiqlash) ko‘ra, jinoyat-protsessual huquq normalari **vakolat beruvchi, majburiyat yuklovchi va taqiqlovchiga** bo‘linadi. Vakolat beruvchi normalar – protsess ishtirokchilariga ularning ixtiyoriga ko‘ra foydalanishni ko‘zda tutuvchi huquq beruvchi normalar. Majburiyat yuklovchi normalar – muayyan shart-sharoitlarda xulq-atvorning ma‘lum turini ko‘zda tutuvchi

normalar. Taqiqlovchi normalar – muayyan harakatlarni sodir etishdan tiyilishni talab qiluvchi normalar. Jinoyat-protsessual qonunchilikda taqiqlovchi normalar ko‘plab uchraydi. Ular o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lib, turlicha shaklda namoyon bo‘ladi. Aksariyat hollarda ularda imperativ tUSDagi hokimiyat irodasi namoyon bo‘lib, ular muayyan harakatlarni amalga oshirishni yoxud ularni amalga oshirishdan bo‘yin tovlashni ta‘qiqlaydi.

Jinoyat-protsessual normalar qo‘llanilish sohasiga ko‘ra quyidagicha tasniflanadi:

a) **umumiy normalar** – barcha jinoyat-protsessual munosabatlar ishtirokchilariga nisbatan barcha jinoyat-protsessual faoliyat jarayonida qo‘llaniladi;

b) **maxsus normalar** – jinoyat protsessining alohida bosqichlarida yoki alohida protsessual harakatlarni o‘tkazish jarayonida qo‘llaniladi;

v) **istisno normalar** – umumiy yoki maxsus normalarga qo‘shimcha qiladigan yoki ulardan muayyan bir mustasnolarni ko‘zda tutadigan normalar.

Huquqiy tartibga solish predmetiga ko‘ra, jinoyat-protsessual normalar quyidagilarga bo‘linadi:

a) vakolat yuklovchi, ya‘ni jinoyat protsessi ishtirokchilariga muayyan huquqlar taqdim etuvchi normalar;

b) majburiyat yuklovchi, ya‘ni jinoyat protsessi ishtirokchilaridan muayyan xulq-atvorda bo‘lishni talab qiluvchi normalar;

v) ta‘qiqlovchi, ya‘ni jinoyat protsessi ishtirokchilariga u yoki bu harakatni sodir etishdan tiyilishni talab qiluvchi normalar.

Majburiylik darajasiga ko‘ra, normalar quyidagilarga bo‘linadi:

a) qat‘iy (imperativ), ya‘ni unda ko‘zda tutilgan xulq-atvor qoidalaridan hech qanday chekinishga yo‘l qo‘ymaydigan normalar;

b) dispozitiv – jinoyat protsessi ishtirokchilarida ushbu normada belgilangan doirada xulq-atvorni tanlash huquqini saqlab qoladigan normalar.

Jinoyat-protsessual huquq normalari O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida moddalar ko‘rinishida ifodalangan. Jinoyat-protsessual normalar va ular ifodalangan O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi moddalari **gipoteza, dispozitsiya va sanksiyadan** tashkil topgan. Jinoyat-protsessual normalarning gipotezasi uning ifodalanishining aniqlik darajasiga qarab mutlaq-muayyan va nisbiy-muayyan bo‘lishi mumkin. Ushbu gipoteza turlarining tartibga soluvchi ahamiyati bir xilda emas. Mutlaq muayyan gipotezalar jinoyat-protsessual

normaning dispozitsiya va sanksiyasini amalga oshirishning aniq shartlarini ko'rsatadi. Bunday gipotezaga ega normani qo'llash uchun gipotezada ko'zda tutilgan tegishli shartlarni aniq amaliy holatga mos kelishini aniqlash yetarli hisoblanadi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 321-moddasiga asosan, jinoyat sodir etilganligi to'g'risida sabab va yetarli asoslar aniqlanganda, jinoyat ishi qo'zg'atilishi shart. Mazkur holatda "jinoyat sodir etilganligi to'g'risida sabab va yetarli asoslarning aniqlanishi" (gipoteza) jinoyat ishining qo'zg'atilishiga (dispozitsiya) olib keladi. Nisbiy-muayyan gipotezalarda ularning tegishli shartlari qanoatlantirilganda, jinoyat-protsessual norma dispozitsiya yoki sanksiyasini qo'llash jinoyat ishini yuritayotgan vakolatli organ yoki mansabdor shaxslar ixtiyoriga topshiriladi. Bunday normalar O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida "ixtiyoriga binoan", "ixtiyori bilan" kabi atamalar yordamida ifodalanadi (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 161, 497¹⁰-moddalari). Demak, jinoyat-protsessual normaning gipotezasi uning dispozitsiya va sanksiyasini amalda tatbiq etish uchun sharoit yaratadi.

Jinoyat-protsessual normaning gipotezasi ijobiy yoki salbiy bo'lishi mumkin – basharti, huquq normasining dispozitsiya yoki sanksiya qismini amalga oshirish uchun muayyan shart-sharoitlar, holatlarning mavjud bo'lishi talab qilinsa, bu ijobiy yoki mavjud bo'lmasligi talab qilinsa, bu salbiy gipoteza hisoblanadi. Shuningdek, basharti gipotezada bir holat ko'rsatilib, huquq normasining amal qilishi uning mavjud yoki mavjud emasligi bilan bog'lansa, bunday gipoteza oddiy hisoblanadi. Agarda gipoteza huquq normasining harakatini ikki yoki undan ortiq holatlarning bor yoki yo'qligi bilan bog'lasa, u murakkab gipoteza hisoblanadi. Basharti, huquq normasining harakati bir necha holatlardan birining bor yoki yo'qligi bilan bog'lansa, bunday gipoteza muqobil gipoteza hisoblanadi.

Jinoyat-protsessual normaning dispozitsiyasi jinoyat-protsessual faoliyatni qamrab oladi. Jinoyat-protsessual faoliyat o'z navbatida maqsadi va vositalariga ega bo'lgan jinoyat-protsessual harakatlar tizimidan iboratdir. Jinoyat-protsessual normaning dispozitsiyasida jinoyat-protsessual munosabatlar ishtirokchilari xulq-atvori modelini tanlashda qonun yoki faoliyat yo'nalishiga oid umumiy ko'rsatma bilan cheklanadi yoxud xulq-atvorni mufassallashtiradi. Bunda dispozitsiyani qanday bayon etish tartibga solinadigan faoliyatning muhimligi, uni amalga oshirishning tez-tez takrorlanishi, jinoyat siyosatining yo'nalishi, jamiyatdagi huquqiy madaniyat darajasi kabi bir qator omillarga bog'liq bo'ladi.

Jinoyat protsessida dispozitsiya protsessual normaning qismi bo'lib,

unda jinoyat protsessi sohasidagi huquqiy munosabatlar ishtirokchilarining munosib xulq-atvorining modeli tavsiflanadi. Protssual adabiyotlarda ko'p hollarda protssual normalarning barcha ko'rsatmalari tartib-taomil xususiyati kasb etishiga, ular qoida tariqasida moddiy huquq normalarini qo'llash bo'yicha hokimiyat vakolatlariga ega subyektlarga yo'naltirilishiga e'tibor qaratiladi.

Jinoyat-protssual normalar dispozitsiyasining tartib-taomillarni belgilovchi xususiyati shundaki, ular nafaqat protsess ishtirokchilari harakatlarini tavsiflaydi, balki ularni sodir etish usuli, tartibi, ketma-ketligi, mazkur harakatlar natijalarini qayd etish shakllarini ham mustahkamlaydi.

Jinoyat-protssual normalar dispozitsiyasining murakkab tuzilishi ular bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlarning murakkabligi bilan ham belgilanadi. Zero, birinchidan, protssual faoliyat ishtirokchilarining ko'p sonligi bois ular o'rtasida o'ziga xos aloqadorlik, o'zaro bog'liqlik mavjud bo'ladi; ikkinchidan, protssual faoliyat jarayonida isbotlash amalga oshiriladiki, u huquqni qo'llash jarayonida bilishning o'ziga xos shakli hisoblanadi.

Jinoyat protssual normalarning sanksiyasi uning dispozitsiyasiga rioya etmagan holda vujudga keladigan oqibatlarini ko'rsatadigan huquqiy normaning elementi. U protssual munosabatlar ishtirokchilarining jinoyat-protssual normalar talablari bajarilmaganda kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar va davlat majburlovi bilan bog'liq. Sanksiyalar jinoyat-protssual normalarning zarur qismi hisoblanadi. Biroq ular jinoyat-protssual normalar tuzilishida yetakchi o'ringa egalik qila olmaydilar, chunki davlat majburlovini qo'llash bilan ta'sir ko'rsatish protsess ishtirokchilariga davlat tomonidan ta'sir ko'rsatishning asosiy shakli hisoblanmaydi.

O'z tuzilishi va tabiatiga ko'ra, jinoyat-protssual normalar sanksiyasi turlicha mazmun va maqsadga ega. Ularni o'zaro farqlashning bosh mezoni bu ular huquqni muhofaza qilishga xizmat qilishi uchun qaratilgan vosita hisoblanadi. Ushbu asosga ko'ra ularni huquqni tiklovchi, huquqni rad etuvchi, jazolovchi va ahamiyatsiz sanksiyalarga ajratish mumkin.

Jinoyat-protssual normaning huquqni tiklovchi sanksiyasi gipoteza yoki dispozitsiyada ko'rsatilgan qoidalardagi buzilishlarni bartaraf etishga qaratilgan sanksiyalardir. Ushbu sanksiyalar jinoyat-protssual hujjatlarni bekor qilishni ko'zda tutadi. Mazkur sanksiyalar protsess ishtirokchisining huquqiy maqomini o'zgarishga ham sabab bo'lishi mumkin (noqonuniy ayblanganda ayb olib tashlanadi, jinoyat ishi tugatiladi,

ehtiyot chorasi bekor qilinadi v.h.).

Jinoyat-protsessual normaning huquqni rad etuvchi sanksiyasi deganda tergov yoki sud hujjatini yoxud boshqa dalilni nomaqbul deb topishga qaratilgan sanksiyalar tushuniladi. Jumladan, dalillarni to'plash qoidalarini buzgan holda to'plangan dalillar nomaqbul deb topiladi va ulardan isbotlash maqsadida foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

Jinoyat-protsessual normaning jazolovchi sanksiyasi o'z majburiyatlariga rioya etmagan subyektlar uchun noqulay oqibatlarni keltirib chiqaradi. Ushbu sanksiyalar mulkiy xususiyat kasb etishi yoki huquqni cheklovchi tusga ega bo'lishi mumkin. Mazkur sanksiyalar jumladan, o'z majburiyatlarini bajarmagan tarjimon, mutaxassis va ekspertga yoxud sud majlisida tartibga rioya etmagan protsess ishtirokchilariga nisbatan raislik qiluvchi farmoyishiga asosan qo'llanilishi mumkin. Ushbu sanksiyalar, shuningdek qo'llanilgan ehtiyot chorasi talablariga rioya etmagan ayblanuvchiga nisbatan ham tatbiq etilishi mumkin. Jazolovchi sanksiya huquqbuzar shaxsiga qaratilgan bo'lib, ular qoida tariqasida ogohlantiruvchi xususiyat kasb etadi.

Jinoyat-protsessual normaning ahamiyatsiz sanksiyasi jinoyat-protsessual norma gipoteza yoki dispozitsiyasi buzilganda qo'llaniladi. Bunda garchand, protsess ishtirokchisining harakatlari huquqqa xilof bo'lsada, huquqni tiklovchi, rad etuvchi yoki jazolovchi sanksiyalarni ishga tushirmaydigan darajada ahamiyatsiz bo'ladi. Masalan, basharti prokuror protest taqdim etish muddatini buzadigan bo'lsa, sud uning protestini ko'rmay qoldirishi mumkin. Bunda prokuror javobgarlikka yoki boshqacha jazolovchi sanksiyasiga tortilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida mustahkamlangan jinoyat-protsessual normalarda quyidagicha sanksiyalar ko'zda tutilgan:

a) protsessual majburlov sanksiyalari - ular sirasiga misol uchun, majburiy keltirish (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 30-bobi) tariqasidagi majburlov chorasini kiritish mumkin;

b) protsessual-jarimali sanksiyalar - pul undirish va jarima solish (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 274-moddasi), shuningdek kiritilgan garov pulini davlat foydasiga o'tkazishni kiritish mumkin (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 249-moddasi);

v) protsessual-tiklovchi sanksiyalar, ular qabul qilingan protsessual qarorni bekor qilishni, o'zgartirishni, jinoyat ishini qo'shimcha tergovga yuborishni ko'zda tutadi (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 404, 484, 490-moddalari);

g) protsessual-ogohlantiruvchi sanksiyalar – o‘zini o‘zi rad etish va rad etish (O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 76-80-moddalari); tergov boshqarmasi, bo‘limi, bo‘linmasi, guruhining boshlig‘i va uning o‘rinbosari tomonidan ishni bir tergovchidan ikkinchi tergovchiga olib berish (O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 37-moddasi); prokuror tomonidan jinoyat ishini surishtiruv organidan tergovchiga, prokuraturaning bir tergovchisidan boshqasiga, bir dastlabki tergov organidan boshqasiga o‘tkazishi; surishtiruvchini yoki tergovchini, basharti ular ishning tergov chog‘ida qonun buzilishiga yo‘l qo‘ygan bo‘lsalar, surishtiruv yoxud dastlabki tergov ishlarini davom ettirishdan chetlatishi (O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 382-moddasi) v.b.

1.7. Jinoyat-protsessual qonunining vaqt, hudud va shaxslar bo‘yicha amal qilishi

Jinoyat-protsessual qonun – davlatning oliy vakillik (qonunchilik) organi tomonidan qabul qilingan, oliy yuridik kuchga ega bo‘lgan va jinoyat sud ish yurituvi sohasida ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjat.

Huquq nazariyasi va qonunchilikda qonunning vaqt, hudud va shaxslar bo‘yicha amal qilishi farqlanadi.

Qonunning vaqt bo‘yicha amal qilishi jinoyat ishi yurituvda ishni sudga qadar yuritish va sud muhokamasi vaqtida amal qilgan jinoyat-protsessual qonun qo‘llanilishi bilan belgilanadi.

Qonunning hudud bo‘yicha amal qilishi “tuproq prinsipi”, ya’ni hududiylik tamoyili asosida belgilanadi. Bu jinoyat sodir etish joyidan qat’i nazar O‘zbekiston Respublikasi hududida jinoyat-protsessual yuritish uning protsessual qonunchiligi asosida yuritilishini anglatadi.

Qonunning shaxslar bo‘yicha amal qilishi jinoyat ishi yurituvi tartibining barcha uchun yagonaligi hamda jinoyat-protsessual qonunchilikning fuqarolarning qonun va sud oldida tengligi prinsipi asosida amalga oshirilishini anglatadi. Shu bois ham jinoyat-protsessual qonunchilikning amal qilishi O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga nisbatan tatbiq etiladi. Immunitetga ega bo‘lgan shaxslar ushbu qoidadan mustasno.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi qoidalarini qo‘llashda ba’zi istisnolar e’tiborga olinishi lozim. Jumladan:

- jinoyat sodir etilgan vaqt va joydan qat'i nazar, surishtiruv, dastlabki tergov va sud muhokamasi O'zbekiston Respublikasining boshqa davlatlar bilan tuzgan shartnoma va bitimlarida o'zgacha qoidalar belgilangan bo'lsa, ana shu shartnoma va bitimda ko'rsatilgan qoidalarga muvofiq olib boriladi. Bu holda O'zbekiston bilan shartnoma yoki bitim tuzgan davlatning tegishli muassasasi yoxud idorasi bilan hamkorlik o'rnatiladi.

- shaxs o'n sakkiz yoshga to'lmasdan ilgari sodir etgan qilmishi uchun ayblansa, u ish yuritish vaqtida voyaga yetgan bo'lsa-da, jinoyat protsessual munosabatlarda o'n sakkiz yoshga to'lmaganga tegishli huquq va imtiyozlardan foydalanadi. Bu afzalliklar amaldagi qonun me'yorlarida ko'rsatilmagan bo'lsa ham, jinoyat sodir etilgan vaqtdagi qonunda nazarda tutilgan bo'lsa, orqaga qaytish kuchiga ega.

Jinoyat-protsessual qonunining vaqt bo'yicha amal qilishi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 3-moddasiga binoan, jinoyat ishlarini yuritish, jinoyat sodir etilgan joydan qat'i nazar, basharti O'zbekiston Respublikasining boshqa davlatlar bilan tuzilgan shartnoma va bitimlarida o'zgacha qoidalar belgilanmagan bo'lsa, ish yuzasidan surishtiruv, dastlabki tergov va sud muhokamasi yuritilayotgan paytda amalda bo'lgan qonun hujjatlariga muvofiq olib boriladi. Jinoyat-protsessual qonun orqaga qaytish kuchiga ega emas.

Jinoyat-protsessual qonunining hudud bo'yicha amal qilishi.

Hududiylik tamoyiliga ko'ra, jinoyat ishi yurituvi qaysi davlat hududida amalga oshirilayotgan bo'lsa, usha davlatning jinoyat-protsessual qonun hujjatlari qo'llanilishini ifoda etadi. O'zbekiston hududida jinoyat sodir etgan barcha shaxslarga nisbatan jinoyat ishi yurituvi ular chet el davlati fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxslar bo'lishidan qat'i nazar faqat O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi bo'yicha amalga oshiriladi.

Jinoyat sodir etilgan joy – keng ma'noda olganda mamlakatning chegarasi bilan belgilangan quruqlik, suv va havo havzasi nazarda tutiladi. Jinoyat ishlarini yuritish jinoyat sodir etilgan joydan qat'i nazar ish yurituvi amalga oshirilayotgan paytda amalda bo'lgan qonun hujjatlariga muvofiq olib boriladi.

Basharti, O'zbekiston Respublikasining boshqa davlatlar bilan tuzilgan shartnoma va bitimlarida o'zgacha qoidalar belgilangan bo'lsa yoxud jinoyat chet elda yoki boshqa davlat manfaatlariga qarshi sodir etilgan bo'lsa, xalqaro shartnoma yoki o'zarolik prinsipiga asosan O'zbekiston Respublikasi hududida jinoyat ishlari yurituvi xalqaro hujjat yoki xorijiy davlat jinoyat-protsessual qonunchiligi talablariga rioya etgan

holda amalga oshirilishi mumkin.

Jinoyat-protsessual qonunining shaxslar bo'yicha amal qilishi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 17-moddasida jinoyat sodir etgunga qadar yuridik javobgarlik yoshiga yetgan barcha aqli raso jismoniy shaxslarning javobgarlikka tortilishi belgilangan. Ular nafaqat O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, balki **chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ham bo'lishi mumkin.**

Jinoyat protsessida immunitet instituti jinoyat-protsessual qonunining shaxslar bo'yicha amal qilishini cheklashi mumkin bo'lib, bu umumiy qoidadan istisno sanaladi. "Immunitet" lot. "immunitatis" – "xalos bo'lish" degan ma'noni anglatadi. Huquq sohasida immunitet faqat qonun hujjati asosida beriladi va shaxsning yoki muassasa, tashkilotning muayyan vakolatlari to'siqsiz amalga oshirilishini ta'minlash zarurligi bois alohida huquqlari, huquqiy afzalliklari, imtiyozlari, ustuvorligi borligini yoxud biror turdagi majburiyatdan xalosligi, ta'sir chorasidan tashqaridaligi va daxlsizligini anglatadi. Har qanday jismoniy shaxs, shuningdek ajnabiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmaganlar O'zbekiston Respublikasining qonunlariga, shu jumladan, Jinoyat va Jinoyat-protsessual kodekslarining talablariga rioya qilishlari shart. Ammo, ular bu majburiyatlarga nisbatan immunitetga ega, ya'ni bunday majburiyatdan xalos etilgan bo'lishlari mumkin.

Amaldagi qonunchilikka muvofiq, O'zbekiston hududida quyidagi to'rt toifa chet el fuqarolari immunitet huquqidan foydalanishi mumkin: chet el davlatlarining diplomatik vakolatxona xodimlari; chet el davlatlarining konsullik vakolatxona xodimlari; xalqaro hukumatlararo tashkilotlar xodimlari; chet el davlatlarining boshqa vakillari, shuningdek xalqaro shartnomada ko'zda tutilgan hollarda ularning oila a'zolari.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xorijiy davlatlar diplomatik vakolatxonalarini, konsullik muassasalarining, xalqaro tashkilotlar vakolatxonalarining hamda ular xodimlarining O'zbekiston Respublikasidagi faoliyati to'g'risida"gi 2001-yil 8-maydagi 207-sonli qarori 1-ilovaga muvofiq tasdiqlangan "Xorijiy davlatlarning O'zbekiston Respublikasidagi diplomatik vakolatxonalarini va konsullik muassasalarini to'g'risida"gi Nizomga asosan diplomatik vakolatxona boshlig'i va diplomatik personal a'zolari shaxsiy daxlsizlik huquqlaridan foydalanadilar hamda tintuv qilinishi yoki hibsga olinishi, yoki biron-bir shaklda ushlab turilishi mumkin emas hamda O'zbekiston Respublikasining jinoiy, fuqarolik va ma'muriy yurisdiksiyasidan daxlsizlik huquqlaridan foydalanadilar. Daxlsizlik huquqlari va imtiyozlar konsullik muassasalariga

nisbatan ham qo‘llanadi.

Diplomatik vakolatxona xodimlari – O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining shunday maqomga ega ekanligini tasdiqlovchi hujjat berilgan vakolatxona boshlig‘i va vakolatxona a‘zolaridir. Vakolatxona shaxsiy tarkibi a‘zolari – bu avvalo diplomatik xodimlar, vakolatxonaning ma‘muriy texnik va xizmat ko‘rsatuvchi xodimlari. Diplomatik xodimlar qatoriga, shuningdek diplomatik (maqom) rangga ega bo‘lgan vakolatxona xodimlari kiradi.

Immunitetga ega bo‘lgan shaxslarning huquqiy maqomi masalalariga “BMTning imtiyozlar va immunitetlar to‘g‘risida”gi Konvensiya 4-moddasi 11-bo‘limining “a”, “b” bandlari, 5-moddasi 18-bo‘limining “a” bandi, 6-moddasi 22-bo‘limining “a”-“s” bandlari (1946-yil 13-fevral, Nyu-York), “Birlashgan Millatlar Tashkiloti va turli ixtisoslashgan muassasalar foydalanadigan imtiyozlar va daxlsizlik huquqlari to‘g‘risida”gi Konvensiya III moddasining 4-6-bo‘limlari, V moddasi 13-bo‘limining “a”, “b” bandlari, 14-bo‘limi, VI moddasi 19-bo‘limining “a” bandi (1947-yil 21 noyabr, Vashington), “Shanxay hamkorlik tashkilotining imtiyoz va immunitetlari to‘g‘risida”gi Konvensiyaning 3-moddasi, 11-moddasining 1-bandi, 17-moddasining 1-bandi, 18-moddasining 1, 2-bandlari (2004-yil 17-iyun, Toshkent) va boshqa xalqaro hujjatlar bag‘ishlangan.



MAVZU BO‘YICHA XULOSALAR

Mazkur mavzuni o‘rganishda talabalar jinoyat ishlari yurituviga oid qoidalarining xalqaro hujjatlarda va tarmoq qonun hujjatlarida mustahkamlanishiga oid masalalarni ko‘rib chiqishlari; qiyosiy-huquqiy tahlil o‘tkazib, jinoyat ishlarini yuritishda protsessual shaklning rolini aniqlashlari, hamda jinoyat protsessual qonunining rivojlanish tarixi va takomillashtirish istiqbollari yoritishlari lozim.

MUAMMOLI SAVOLLAR VA KAZUSLAR

1. Kodeks muayyan huquq (qonunchilik) sohasidagi normativ majmuani ifodalovchi, jamlovchi qonun bo‘lib, unga kiritilgan huquqiy normalarning mantiqiy bog‘liqligi hamda mutanosibliigi, huquq tarmog‘iga va qonunchilik sohasiga monand tizimli joylashtirilganligi bilan tarmoq

qonunlardan ustun turadi. **Jinoyat-protsessual kodeksida belgilangan usullar orqali jinoyat protsessi vazifalarini bajarishning ahamiyatini ochib bering.**

2. Jinoyat protsessi bosqichlari o'z boshlanish va tamomlanish vaqtiga, vazifa va mazmuniga, ishtirokchilar doirasiga, ular o'rtasida shakllanadigan jinoyat-protsessual munosabatlar kabi belgilarga ega bo'lgan mustaqil davrlar sifatida tavsiflanadi. **Jinoyat protsessi bosqichlarining mantiqiy tadrijiy tahlil qiling.**

1-kazus

Xorijiy davlat diplomatik vakolatxonasining vakili Nasibov mansabini suiste'mol qilib chet el vizasini olish uchun murojaat qilgan Salimovdan tovlamachilik qilib, vakolatxonadan tashqarida 300 AQSh dollari miqdorida pora olganligi fosh etilgan. Nasibov jinoiy javobgarlikdan qutulib qolish maqsadida vakolatxonaga yashiringan. Tergovchi gumon qilinuvchini va daliliy ashyoni topish maqsadida vakolatxonada tintuv o'tkazish to'g'risida qaror chiqargan.

Tergovchining harakatlariga huquqiy baho bering. Uning qarori qonuniymi? Ushbu holatda tergov organlari tomonidan qaysi qonun va normativ hujjatlar asosida qanday harakatlar amalga oshirilishi lozim?

2-kazus

Jinoyat sodir qilganlikda gumon qilinib ushlangan Erkinov himoyachi bilan ta'minlash haqida iltimosnoma beradi. Erkinovning fikricha, unga nisbatan huquqni muhofaza qiluvchi organlar ayblov faoliyatini boshlab yuborgan, shuning uchun ham u himoya huquqi bilan ta'minlanishi lozim.

Uning iltimosi qondirilishi kerakmi? Jinoyat protsessida ayblov va himoya funksiyasi qaysi vaqtdan boshlab amal qiladi? Jinoyat qidiruv faoliyati va ayblov funksiyasi boshlanish vaqti bo'yicha bir-biriga mos keladimi?



MUSTAQIL ISH UCHUN TOPSHIRIQLAR

1. MDH va boshqa xorijiy davlatlarning jinoyat-protsessual qonun hujjatlarining vazifalari tizimiga oid huquqiy asoslarni tahlil qiling. Ish shakli – nazorat ishi (esse).

2. Xorijiy davlatlarda jinoyat-protsessual qonun hujjatlarining vaqt va hudud bo'yicha amal qilish tartibini ko'rib chiqing. Ish shakli – nazorat ishi (esse).

3. Jinoyat protsessining funksiyalarini tahlil qiling. Ish shakli – nazorat ishi (esse).

II BOB. JINOYAT PROTSESSI PRINSIPLARI

(Muallif – yuridik fanlar nomzodi, dots. U.A Tuxtasheva)

Annotatsiya: Talabalar uchun mazkur mavzu o‘rganilishi jinoyat protsessi prinsiplari tushunchasi va ularning mazmun mohiyatini aniqlab olishga; jinoyat protsessi prinsiplari tizimini ko‘rib chiqishga; jinoyat protsess prinsiplarini tasniflashga; jinoyat protsessi prinsiplari rivojlanishini tushunib olishga; jinoyat ishlarini yuritishda prinsiplar o‘rni va rolini aniqlab olishga imkon beradi.

2.1. Jinoyat protsessi prinsiplari tushunchasi va tizimi

Jinoyat protsessi prinsiplari tushunchasi. Ma'no jihatidan prinsiplar – bu rahbariy g‘oyalar va tegishli faoliyatning asosiy qoidalaridir. “Prinsip” so‘zi lotincha “principium” so‘zidan kelib chiqib, uning ma'nosi “asos”, “asosiy omil” kabi tushunchalarni anglatadi. Huquq aslida hamma uchun majburiy bo‘lgan adolat talablarini belgilashi sababli, huquqiy prinsiplar huquqda adolatning o‘lchovi sifatida xizmat qiladi. Qonun huquq prinsiplariga javob bergan holdagina qonuniy, ya’ni huquqiy mazmunga ega bo‘lgan deb e’tirof etiladi. O‘z navbatida, prinsiplar oddiy yuridik g‘oyalar bo‘lmaganligi hamda adolat va lozimlikning hamma uchun majburiy va obyektiv jihatdan zarur bo‘lgan mezonlarini huquqda belgilashi ularning asosiy mazmunini tashkil etadi. Huquq va huquqiy ong rivojlangan sari huquqiy materiyadan muayyan yuridik g‘oyalar sifatida prinsiplar ajratiladi, yuridik texnika rivojlanishi bilan esa ular qonunda ayrim normativ-huquqiy ko‘rsatmalar sifatida mustahkamlanishi mumkin. Qonunda o‘z ifodasini topib, prinsiplar muayyan mustaqillikka erishadi va amaldagi qonunchilikning o‘zgarishi jarayonida barometr sifatida, huquqning keyingi shakllanishida esa kompas sifatida xizmat qiladi.

Barcha prinsiplar bir-biri bilan uzviy bog‘langan bo‘lib, ular odil sudlov maqsadlariga erishish uchun teng muhim bo‘lgan huquqiy asoslarning yaxlit majmuini yaratadilar. Ularning har biri sud ishlarini yuritishning muayyan tomonini belgilaydi, ushbu tomon yo‘qligida sud ishlarini yuritishning vazifalarini to‘g‘ri amalga oshirishga imkon bo‘lmaydi.

Jinoyat protsessi prinsiplari – bu O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Jinoyat-protsessual kodeksida mustahkamlangan, jinoyat ishlarini yuritishning eng muhim xususiyatlari, xarakteri va mazmun-mohiyatini belgilovchi hamda jinoyat ishlarini qo‘zg‘atish, tergov qilish, sudda ko‘rib chiqish va hal qilish bilan bog‘liq jinoyat-protsessual faoliyatida jinoyat-protsessual munosabatlari sohasiga jalb etilgan fuqarolarning huquq va erkinliklarini amalda ta‘minlashga va jinoyat protsessi maqsadlariga erishishga xizmat qiluvchi asosiy huquqiy qoidalardir.

Prinsiplar yaxlit tizim doirasida amal qilib, bu tizimda har bir prinsipning mohiyati nafaqat uning mazmuniga bog‘liq bo‘ladi, balki butun tizimning ishlab turishi bilan aloqador bo‘lib turadi. Tizimda ayrim prinsip buzilishi, qoida tariqasida, boshqa prinsiplar va shu bilan birga, ish bo‘yicha odil sudlovni amalga oshirishda qonuniylik buzilishiga olib keladi.

Prinsiplar umumiy tuzdagi normalar bo‘lib, amaliy faoliyat jarayonida vujudga keladigan barcha masalalar hal qilinishini ta‘minlaydi. Protsessual huquqning ayrim normalari o‘rtasida muammolar yoki qarama-qarshiliklar vujudga kelsa, bu qiyinchiliklarni hal qilish vositasi sifatida prinsiplar xizmat qiladi.

O‘z mazmuniga ko‘ra prinsiplar imperativ, hokimiyat-buyruq tusga ega bo‘lib, bajarilishi davlat tomonidan ta‘minlanadigan umumiy majburiy ko‘rsatmalarini o‘z ichiga qamrab oladilar.

Mafkuraviy kategoriya sifatida prinsiplar ijtimoiy-siyosiy g‘oyalar ta‘siri ostida shakllanadi, biroq protsessual faoliyatni va uning sohasida vujudga kelayotgan huquqiy munosabatlarni tartibga solish vazifasini g‘oyalar emas, balki ularga asoslangan norma-prinsiplar bajaradi. G‘oya huquq normalarida mustahkamlab qo‘yilmaguncha odil sudlov prinsipi bo‘la olmaydi, u huquqiy ong mahsuli va ilmiy xulosa bo‘lib qolaveradi.

Prinsiplarning normativligi davlat faoliyatining alohida turi bo‘lgan odil sudlov tabiatidan ajratib bo‘lmaydigan ularning asosiy xususiyatidir. Ular inson va fuqaro hamda tegishli davlat organlariga qaratilgan bo‘ladi. Protsessni olib borayotgan davlat organlari belgilangan prinsiplarga rioya qilgan holda faoliyatini amalga oshirib, ularni buzganlik uchun javobgar bo‘ladi.

Jinoyat protsess prinsiplari tizimi – bu jinoyat protsessining o‘zaro uzviy bog‘liq tizimi elementlari sifatida namoyon bo‘luvchi asosiy huquqiy asoslarini majmuidir.

Jinoyat protsessi prinsiplari huquqiy talablarning oddiy majmuasi bo‘lmasdan ular yaxlit tizimni tashkil etadi. Prinsiplar tizimi jinoyat protsessi mazmun – mohiyati va maqsadlarini belgilab beradi.

Prinsiplar tizimi qonuniylikni bir xilda tushunish va jinoyat ishini yuritishga mas‘ul bo‘lgan barcha davlat organlari, mansabdor shaxslari tomonidan Jinoyat-protsessual kodeksi huquqiy ko‘rsatmalarini amaliyotda bir xilda qo‘llashlarini ta‘minlaydi, jinoyat protsessi to‘g‘risidagi qonun normalarining rivojlanishi va takomillashtirilishida uslubiy asos bo‘lib xizmat qiladi.


Jinoyat protsessi prinsiplari mazmuni, tartibga solish manbalari va harakat doirasiga qarab bir-biridan farqlanadi.

Jinoyat protsessi prinsiplarining ayrimlari jinoyat ishlarini yuritishning barcha bosqichlarida amal qilsa, ayrimlari esa uning ma‘lum bosqichlarida amal qiladi. Qonuniylik, shaxsning sha‘ni va qadr-qimmatini hurmat qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarining muhofaza qilish, aybsizlik prezumpsiyasi kabi prinsiplar jinoyat ishlarining yuritishning barcha bosqichlarida amal qiladi. Sudda jinoyat ishlarini oshkora ko‘rilishi va sudda ishlarni yuritishda tortishuv kabi prinsiplar jinoyat ishlari bo‘yicha sudda ish yuritish bosqichidagina amal qiladi.

Ayrim prinsiplar jinoyat protsessining ma‘lum bosqichlarida to‘liq amal qilsa, boshqalari qisman amal qiladi. Bunday prinsiplarga misol qilib jinoyat ishlarini yuritishda jamoatchilik ishtiroki, dalillarni bevosita va og‘zaqi usulda tekshirish prinsiplarini ko‘rsatish mumkin.

2.2. Qonuniylik prinsipi

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 15-moddasida mustahkamlab qo‘yilganidek: “O‘zbekiston Respublikasida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so‘zsiz tan olinadi. Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko‘radilar”. Jinoyat protsessida ham qonuniylikka rioya etish to‘g‘risidagi Konstitutsiya ko‘rsatmalari tatbiq etiladi va u Jinoyat-protsessual kodeksida qonuniylik prinsipi sifatida o‘z ifodasini topgan.



Qonuniylik prinsipi – bu davlatning jinoyat ishlarini yuritishda jinoyat protsessida ishtirok etuvchi barcha subyektlardan jinoyat ishlarini tergov qilish, sudda qo‘rib chiqish, jinoyat protsessining sudga qadar va sudda ish yuritish bosqichlarida tergov organlari va sudlar faoliyati ustidan tegishincha prokuror va sud nazoratini amalga oshirishda jinoyat protsessual qonun-hujjatlari normalariga aniq rioya etish va ularning talablarini og‘ishmay bajarish haqidagi talabidir.

Jinoyat ishlarini yuritish maqsadlariga erishish uchun ijtimoiy munosabatlar protsessual qonunlar bilan aniq tartibga solinishi lozim, shu tufayli jinoyat sud ishlarini yuritish ushbu protsessual qonunlariga asoslanadi. Qonuniylik to‘g‘risidagi normalar O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 11-moddasida o‘z ifodasini topgan.

Mazkur prinsip ishdagi barcha holatlar to‘la, har tomonlama va xolisona ko‘rib chiqilishini, har bir ish qonunga asosan ko‘rib chiqilishi va hal qilinishini, sud ishlarini yuritish barcha ishtirokchilarining huquq va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini, fuqarolar qonunlarga rioya qilish va ularni hurmat qilish ruhida tarbiyalanishini ta‘minlashga qaratilgan. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi o‘zining 1997-yil 22-avgustdagi “Sudlar tomonidan jinoyat ishlarini birinchi bosqich sudida

muhokama etish jarayonida protsessual qonunchilikka rioya qilinishi to'g'risida"gi 12-son qarorida: "Sudlarning e'tibori jinoyat ishlarini sud muhokamasi jarayonida protsessual qonunchilikka qat'iy amal qilishning zarurligiga qaratilsin, faqat unga aniq va og'ishmay amal qilish ishning holatini har tomonlama to'liq va xolisona tekshirishni, jinoyatlarning sodir etilishiga imkon yaratuvchi sharoit va sabablarni aniqlashni va sud jarayonining tarbiyaviy ta'sirini ta'minlashini e'tiborga olinsin" deb qayd etilgan. Sudlar faoliyatida mavjud bo'lgan kamchiliklarni bartaraf etishga apellyatsiya, kassatsiya va nazorat instansiyalari e'tiborini qaratib, Plenum o'z qarorida "ishlarni apellyatsiya, kassatsiya va nazorat tartibida ko'rayotganda birinchi bosqich sudlari tomonidan jinoyat-protsessual qonunchiligiga rioya qilinishiga alohida e'tibor qaratish, jinoyat ishlarining sud muhokamasida jinoyat-protsessual qonunchiligini qo'llashda yo'l qo'yilgan xatolarni, birorta qonun buzilish holatini e'tibordan chetda qoldirmasdan, muntazam tahlil qilib borish"⁴ni tavsiya etgan.

Moddiy va protsessual qonunlarning barcha talablariga, shu jumladan, protsessual faoliyatning prinsiplarini belgilovchi normalarga rioya etish bo'yicha protsessual faoliyatining har bir ishtirokchisi zimmasiga yuklatilgan majburiyat qonuniylik prinsipi mazmunini tashkil qiladi.

Qonunda yo'l qo'yiladigan barcha protsessual harakatlar o'tkazilishi va protsessual qarorlar qabul qilinishi protsessual normalar bilan aniq tartibga solingan. Jinoyat ishlarini yuritish jarayonida qonuniylik protsessual qonunchilikda belgilangan kafolatlar tizimi orqali ta'minlanadi.

Qonuniylik protsessual huquqning barcha prinsip va normalarida o'z ifodasini topgan hamda sud ishlarini yuritishning barcha tomonlarini ta'riflaydigan hamma sohani qamrab oladigan, universal prinsip hisoblanadi.

2.3. Odil sudlovning faqat sud tomonidan amalga oshirilishi

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19-moddasiga muvofiq fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir, ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo'yishga hech kim haqli emas.

O'zbekiston Respublikasining "Sudlar to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq **O'zbekiston Respublikasida odil sudlov faqat sud tomonidan**

⁴ O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining "Sudlar tomonidan jinoyat ishlarining birinchi bosqich sudida muhokama etish jarayonida protsessual qonunchilikka rioya qilinishi to'g'risida"gi 1997-yil 22-avgustdagi 12-sonli Qarori//O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorlari to'plami 1991-2006. T.1. -T.: 2007. -B.105.

amalga oshiriladi (3-modda).

Odil sudlov – sud hokimiyatini amalga oshirishning yetakchi shakli. Shuning uchun odil sudlovning faqat sud tomonidan amalga oshirilishi prinsipining e’lon qilinishi jinoyat-protsessual qonunchiligida ham o‘z aksini topgan.

Jinoyatga oid sud ishlarini yuritishda odil sudlov – bu jinoyat-protsessual qonunida belgilangan va sud qarorlarining qonuniyligini, asosliligini va adolatliligini ta’minlaydigan tartibga qat’iy rioya qilgan holda sud tomonidan, uning vakolati doirasida, jinoyat ishlarini ko‘rish va hal etish bo‘yicha amalga oshirilayotgan faoliyatdir.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 12-moddasida aks ettirilgan ushbu prinsip odil sudlovning tub mazmunini ochib beradi: shaxsni jinoyat sodir etishda aybdor deb topishga hamda ushbu shaxsga jazo tayinlashga faqat sud o‘z hukmi bilan vakolatli. Shaxsga nisbatan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini, qamoqqa olish va uy qamog‘i tarzidagi ehtiyot choralarini qo‘llash, shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish, ayblanuvchini, sudlanuvchini lavozimdan chetlashtirish to‘g‘risidagi qarorni qabul qilishga ham faqat sud haqlidir.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 28-moddasida ko‘rsatilganidek: “O‘zbekiston Respublikasida jinoyat ishlari bo‘yicha odil sudlovni O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi jinoyat ishlari bo‘yicha Oliy sudi, jinoyat ishlari bo‘yicha viloyatlar, Toshkent shahar, tuman (shahar) sudlari va harbiy sudlar amalga oshiradi”.

Sud majlisida jinoyat ishini ko‘rish va natijalariga ko‘ra jinoyat sodir etishda aybdor deb topilgan shaxsga O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida belgilangan jazoni tayinlash yoki ushbu shaxsni oqlash yoxud jinoiy javobgarlikdan yoki jazodan ozod qilish jinoyat ishlari bo‘yicha odil sudlovni amalga oshirish usuli sifatida xizmat qiladi.

Shunday qilib, O‘zbekiston Respublikasida O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi jinoyat ishlari bo‘yicha oliy sudi, jinoyat ishlari bo‘yicha viloyat va Toshkent shahar sudlari, jinoyat ishlari bo‘yicha tuman (shahar) sudlari, harbiy sudlar odil sudlovni amalga oshiradilar. Favqulodda sudlar tuzishga yo‘l qo‘yilmaydi.

2.4. Jinoyat ishlarini hay'atda va yakka tartibda ko'rib chiqish prinsipi

Jinoyat ishlari bo'yicha sudlari tizimida odil sudlovni birinchi instansiya, apellyatsiya, kassatsiya va nazorat instansiyalari sudlari amalga oshiradilar. Odil sudlovni amalga oshirishda sudyalar tarkibi turli bo'lishi mumkin.

Jinoyat ishlarini ko'rishda qonunda quyidagi sud tarkibi nazarda tutilgan (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 13-moddasi):

Birinchi instansiya bo'yicha – hay'atda va yakka tartibda:

- O'zbekiston Respublikasi Oliy sudidan tashqari, barcha sudlarda O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 15-moddasining ikkinchi va uchinchi qismlarida nazarda tutilgan jinoyatlar (ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan⁵ va uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar⁶) to'g'risidagi ishlar sudya tomonidan yakka tartibda ko'riladi; qolgan ishlar hay'atda (sudya va ikki nafar xalq maslahatchisi) ko'riladi;

- O'zbekiston Respublikasi Oliy sudida ishlar uch nafar sudyadan iborat tarkibda ko'riladi.

Apellyatsiya va kassatsiya tartibida:

- tegishli sud hay'atlarida jinoyat ishlari uch nafar sudyadan iborat tarkibda ko'riladi;

- O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining hukmlariga apellyatsiya va kassatsiya shikoyatlari (protestlari) O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining tegishli sudlov hay'atlarida besh nafar sudyadan iborat tarkibda ko'rib chiqiladi.

Nazorat tartibida jinoyat ishlari:

- tegishli sud hay'atlarida – uch nafar sudyadan iborat tarkibda;

- sud rayosatida – rayosat a'zolarining ko'pchiligi hozir bo'lgan taqdirda;

- O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumida – tarkibidagilardan kamida uchdan ikki qismi hozir bo'lgan taqdirda ko'riladi.

⁵ Ularga qasddan sodir etilib, qonunda uch yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar, shuningdek ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilib, qonunda besh yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi.

⁶ Ularga qasddan sodir etilib, qonunda uch yildan ortiq, lekin besh yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar, shuningdek ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilib, qonunda besh yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi.

2.5. Sudyalarning mustaqilligi va ularning faqat qonunga bo‘ysunishi prinsipi

“Sudyalar mustaqildirlar, faqat qonunga bo‘ysunadilar. Sudyalarning odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyatiga biron-bir tarzda aralashishga yo‘l qo‘yilmaydi va bunday aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo‘ladi”.

**O‘zbekiston Respublikasi
Konstitutsiyasining
112-moddasi.**

“Har bir inson huquq va burchlarini belgilash va unga qo‘yilgan jinoiy aybning qanchalik darajada asosli ekanligini aniqlashi uchun to‘liq tenglik asosida uning ishi oshkora va adolat talablariga rioya qilingan holda mustaqil va xolis sud tomonidan ko‘rib chiqilishi huquqiga ega”.

**Inson huquqlari umumjahon
Deklaratsiyasining
10-moddasi.**

Sudyalarning mustaqilligi konstitutsiyaviy prinsip bo‘lib, demokratik huquqiy davlat barpo etilishini ta‘minlash uchun zarur shart sifatida xizmat qiluvchi sudyalarning erkinligi va mustaqilligining kafolatlarini mustahkamlab qo‘ygan O‘zbekiston Respublikasining “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonunida va O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida (14-modda) o‘z rivojini topgan.

O‘zbekiston Respublikasida sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritadi.

Mazkur qoida O‘zbekiston Respublikasida to‘laqonli sud hokimiyati o‘z faoliyatini amalga oshirishining asosiy shartlaridan va kafolatlaridan biri bo‘lib, ko‘rib chiqilayotgan prinsipning asosiy mazmunini tashkil etadi.

Sudyaga nisbatan jinoyat ishi faqat O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan qo‘zg‘atilishi mumkin. Sudya tegishincha O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining yoki O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi Plenumining roziligisiz jinoiy javobgarlikka tortilishi, hibsga olinishi mumkin emas.

Sudya sudyalarning tegishli malaka hay‘atining roziligisiz ma‘muriy javobgarlikka tortilishi mumkin emas.

Sudyaning turar joyiga yoki xizmat xonasiga, foydalanadigan

transportiga kirish, ularni ko‘zdan kechirish, ularda tintuv o‘tkazish yoki ulardan ashyoni olish, telefondagi so‘zlashuvlarini eshitish, sudyani shaxsan ko‘zdan kechirish va uni shaxsiy tintuv qilish, shuningdek uning xat-xabarlarini, unga tegishli ashyolar va hujjatlarni ko‘zdan kechirish, olib qo‘yish yoki olishga faqat Qoraqalpog‘iston Respublikasi prokurorining, viloyat, Toshkent shahar prokurorining, O‘zbekiston Respublikasi Harbiy prokurorining ruxsati yoki sudning qarori bilan yo‘l qo‘yiladi.

Tuman (shahar) sudi, okrug va hududiy harbiy sud sudyasiga nisbatan jinoyat ishi yuqori turuvchi sud sudloviga, boshqa sudlar sudyalariga nisbatan esa O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudloviga tegishlidir.

Mustaqillik prinsipi sudda o‘z vazifalarini bajarayotgan davrda xalq maslahatchilariga ham tatbiq etiladi. Xalq maslahatchilarining mustaqilligi odil sudlovni amalga oshirishning qonunda nazarda tutilgan taomili, odil sudlovni amalga oshirish bo‘yicha faoliyatga biron-bir tarzda aralashish uchun aybdor shaxs qonunga muvofiq javobgarlikka tortilishi, shuningdek xalq maslahatchisining daxlsizligi orqali ta‘minlanadi. Sudda o‘z vazifalarini bajarayotgan davrda xalq maslahatchilariga sudyalar daxlsizligining barcha kafolatlari tatbiq etiladi.

O‘z faoliyatida sud dastlabki tergov organlari va yuqori turuvchi sud instansiyalari xulosalari bilan bog‘lanmagan. Sud tizimining turli bo‘g‘in sudlari o‘zaro munosabatlari sudyalarning mustaqilligi va ularning faqat qonunga bo‘ysunishi prinsipiga qat‘iy rioya qilgan holda shakllanadi.

Sud odil sudlovning ifodasi, uning beg‘araz va xolis xizmatchisidir. Sudning faoliyati mustaqillik, faqat O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va unga asosan qabul qilingan qonunlarga bo‘ysunish, oshkoralik va taraflarning tortishuvi, aybsizlik prezumpsiyasi va sud ishlarini yuritishning boshqa demokratik prinsiplariga asoslanadi.

O‘zbekiston Respublikasi sud tizimining zamonaviy tuzilmasi bevosita sud tizimining doirasida sudyalarning mustaqilligini ta‘minlashga imkon yaratadi. Yuqori turuvchi sudlar quyi sudlarning faoliyatini boshqarishga, ular tomonidan sud ishlarini ko‘rish jarayoniga aralashishga haqli emas, sud ishini ko‘rish paytida har bir sudya to‘liq darajada erkin va mustaqil bo‘ladi. Yuqori turuvchi sud instansiyalari, apellyatsiya, kassatsiya yoki nazorat tartibida ishlarni ko‘rib chiqib, quyi sudlarining faoliyati ustidan nazoratni faqat protsessual jihatdan amalga oshiradi.

Sudyalarning mustaqilligi nafaqat ularni qonunda belgilangan tartibda sudyalikka saylash, tayinlash va sudyalikdan ozod qilish, ularning daxlsizligi, qaror chiqarish chog‘ida sudyalar maslahatining sir tutilishi va uni oshkor qilishni talab etishning taqiqlanishi (O‘zbekiston Respublikasi

“Sudlar to‘g‘risida”gi Qonunining 67-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 456-moddasi) va boshqa protsessual kafolatlar orqali, balki umuman jamiyatimizning ijtimoiy va davlat tuzilishi orqali ta‘minlanadi.

2.6. Jinoyat ishini qo‘zg‘atishning muqarrarligi prinsipi

Prokuror, tergovchi va surishtiruvchi jinoyat alomatlari topilgan har bir holda, o‘z vakolatlari doirasida jinoyat ishini qo‘zg‘atishlari, jinoiy hodisani, jinoyat sodir etishda aybdor bo‘lgan shaxslarni aniqlash va ularni jazolash uchun qonunda nazarda tutilgan barcha choralarni ko‘rishlari shart.

Mazkur prinsip mazmuniga ko‘ra, prokuror, tergovchi va surishtiruvchi jinoyat alomatlari aniqlangan hamda jinoyat ishi qo‘zg‘atish uchun sabab va yetarli asoslar mavjud bo‘lgan barcha hollarda o‘z vakolatlari doirasida jinoyat ishini qo‘zg‘atishlari, biror-bir muassasa, tashkilot, fuqarolarning xohish-irodasidan qat‘i nazar jinoyat sodir etishda aybdor bo‘lgan shaxslarni aniqlash va ularni fosh etish uchun qonunda nazarda tutilgan barcha zarur choralarni ko‘rishlari shart.

Shuni nazarda tutish kerakki, Jinoyat-protsessual kodeksining 325-moddasida nazarda tutilgan hollarda jinoyat ishi aybdorni javobgarlikka tortishni so‘rab jabrlanuvchi bergan shikoyat arizasi asosidagina qo‘zg‘atiladi. Ammo jabrlanuvchi nochor ahvolda bo‘lganligi ayblanuvchiga qaram bo‘lganligi tufayli yoki boshqa sabablarga ko‘ra o‘z huquqini va qonuniy manfaatlarini o‘zi himoya qila olmaydigan alohida hollarda prokuror jabrlanuvchining shikoyatisiz ham jinoyat ishini qo‘zg‘atishi shart.

Keyingi paytlarda jinoyat protsessida dispozitiv asoslar kengayishi tufayli, ayrim hollarda jinoyat hodisasi aniqlangan taqdirda ham prokuror, tergovchi va surishtiruvchi jinoyat ishini faqatgina tegishli shaxslarning arizasi bo‘lgan taqdirdagina qo‘zg‘atishi mumkin. Xususan, o‘zganing mulkini o‘zlashtirish yoki rastrata qilish yo‘li bilan talon-taroj qilish, aldash yoki ishonchni suiste‘mol qilish yo‘li bilan mulkiy zarar yetkazish, mulkni qo‘riqlashga vijdotsiz munosabatda bo‘lish, mulkni qasddan nobud qilish yoki unga zarar yetkazish jinoyatlari ustav fondida davlat ulushi bo‘lmagan yuridik shaxsga nisbatan uning xodimi tomonidan sodir etilgan bo‘lsa, jinoyat ishi faqat mazkur yuridik shaxs rahbarining, mulkdorining yoki vakolatli boshqaruv organining arizasiga ko‘ra qo‘zg‘atiladi.

Jinoyat ishini qo‘zg‘atish sabablari va asoslari Jinoyat-protsessual kodeksining 322-moddasida nazarda tutilgan.

Jinoyat ishlari jabrlanuvchining va ish natijasidan manfaatdor bo‘lgan boshqa shaxslarning yoki prokuror, tergovchi hamda surishtiruvchining subyektiv fikri bilan qo‘zg‘atilishi mumkin emas. Ular o‘zlarining jinoyat ishi qo‘zg‘atish haqidagi hujjatlarida har tomonlama va xolisona tadqiq qilingan dalillarga asoslanishlari kerak.

2.7. Odil sudlovni fuqarolarning qonun va sud oldida tengligi asosida amalga oshirish prinsipi

“O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e‘tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar, qonun oldida tengdirlar”.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining “Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar”.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 46-moddasi.

“Barcha shaxslar sudlar va tribunallar oldida tengdir”.

Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktning 14-moddasi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18, 46-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 16-moddasi odil sudlovni barcha shaxslarning qonun va sud oldida tengligi asosida amalga oshirish prinsipining huquqiy asosi sifatida xizmat qiladi. Mazkur prinsip Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasining 7-moddasiga ham asoslanadi. Xalqaro huquqning ushbu normasiga binoan barcha odamlar qonun oldida tengdir va hech bir tafovutsiz qonun bilan teng himoya qilinish huquqiga egadir.

O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e‘tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar, qonun va sud oldida tengligi ko‘rib chiqilayotgan prinsipning mazmunini tashkil etadi. Korxonalar, muassasalar, tashkilotlar ham qonun va sud oldida tengdirlar.

Mazkur prinsipning mazmunini quyidagicha belgilash mumkin: sudga

murojaat qilgan va protsessda ishtirok etayotgan shaxsga ayrim imtiyozlar taqdim etish yoki uni kamsitish uchun uning mulkiy va mansab mavqei, jinsi, irqi va millati, ma'lumoti, tili, dinga nisbatan munosabati, turar joyi, e'tiqodi, jamoat birlashmalarda a'zo bo'lishi yoki birorta boshqa holatlar asos bo'lmaydi va protsessning yuritilishiga va yakuniga hech qanday ta'sir etmaydi. Ushbu talablar odil sudlovni amalga oshirishning barcha shakllariga tatbiq etiladi, chunki sud ishlarini yuritishning birorta sohasida qonun qoidalari fuqaroning huquqiy maqomini yuqorida ko'rsatilgan belgilar bilan bog'lamaydi.

Fuqarolarning qonun va sud oldidagi tengligi – bir-biri bilan aloqador bo'lgan tushunchalar, biroq ularning har biri alohida mazmunga ega.

Fuqarolarning qonun oldidagi tengligi fuqaroning irqi va millati, ijtimoiy, mulkiy va mansab mavqei yoxud uning dini asosida ayrim imtiyozlarni yoki cheklovlarni o'rnatmaydigan yagona moddiy va protsessual qonunlar mavjudligini anglatadi.

Fuqarolarning sud oldidagi tengligi sud ishlarining, sudlanuvchi va jabrlanuvchi, da'vogar va javobgar, protsessning boshqa ishtirokchilari irqi, millati va dini, ijtimoiy, mansab va mulkiy mavqeidan qat'i nazar, barcha fuqarolarga nisbatan va barcha sudlar tomonidan bir xil protsessual tartibida ko'rib chiqilishini anglatadi. Shuningdek, mazkur qoida yuqorida ko'rsatilgan belgilarga qarab o'z faoliyatini amalga oshiradigan tabaqa, irqiy yoki boshqa maxsus sudlar davlatda tashkil etilishini taqiqlaydi.

Amaldagi qonunlarga rioya qilish hamma uchun majburiy bo'lishi, shuningdek qonunlarni buzish uchun barcha shaxslar uchun teng javobgarlik belgilanishi fuqarolar qonun va sud oldidagi tengligining ifodasidir. Masalan, jinoyat sodir etgan shaxslar, egallab turgan lavozimi, shug'ullanayotgan faoliyati va boshqa holatlardan qat'i nazar, jinoiy javobgarlikka tortiladi va ularga nisbatan bir xil jinoyat qonuni amal qiladi.

Sudyalarni jinoiy javobgarlikka tortishning va tintuv o'tkazishning (O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi Qonunining 70-moddasi), O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining deputatlarini ushlab turishning va qamoqqa olishning (Konstitutsiyaning 88-moddasi) alohida tartibi mavjudligi, albatta, fuqarolarning qonun oldidagi tengligi prinsipi umumiy qoidalari doirasidan mazkur shaxslarni chiqaradi, chunki ushbu daxlsizlik kafolatlari yo'qligida deputatlar va sudyalar o'z vazifalarini tegishli ravishda bajara olmas edilar.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 1-moddasi 2-qismiga muvofiq, jinoyat ishlarini yuritishning qonunda belgilangan tartibi barcha sudlar, prokuratura, tergov, surishtiruv organlari uchun

yagona hamda majburiydir. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi ayblanuvchining jismoniy va psixologik xususiyatlaridan kelib chiqib sud ishlarini yuritishning differentsiyalangan tartibini belgilaydi va bunga qarab protsessual kafolatlarining har xil hajmini nazarda tutadi (O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 60, 61-boblari). Sud ishlarini yuritishning mazkur differentsiyalanishi fuqarolarning qonun oldidagi tengligi prinsipidan ijobiy istisno hisoblanadi, chunki ushbu differentsiyalash xolis sabablarga asosan yuzaga kelgan va to‘liq asoslantirilgan. Xatti-harakatlari sud ishlarini yuritishning mazmunini tashkil etadigan shaxs o‘z manfaatlarini himoya qilish uchun yetarli bo‘lgan protsessual huquq va kafolatlar bilan ta’minlanishi lozim.

2.8. Shaxsning sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilish prinsipi

Shaxsning sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilish prinsipi shaxsning daxlsizligi davlat tomonidan kafolatlanishining ifodasidir. Shaxsning sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilish jinoyat ishini yuritishda ishtirok etayotgan barcha organlar va mansabdor shaxslar uchun majburiydir.

Mazkur prinsip O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13- va 26-moddalari normalariga asoslangan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplariga asoslanishi, ularga ko‘ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmat va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanishi, hech kim qiynoqqa solinishi, zo‘ravonlikka, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdagi tazyiqqa duchor etilishi mumkin emasligi, xuddi shuningdek hech kimda uning rozilgisiz tibbiy yoki ilmiy tajribalar o‘tkazilishi mumkin emasligi to‘g‘risidagi konstitutsiyaviy prinsiplarni jinoyat protsessining asosiy prinsiplaridan biri sifatida mustahkamlaydi.

Zo‘ravonlik, qo‘rqituv, haqoratga asoslangan, shuningdek insonni teng huquqli subyekt sifatida o‘z huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish imkoniyatidan mahrum qiluvchi harakat va qarorlar shaxsning sha’ni va qadr-qimmatini kamsituvchi harakat va qarorlar deb e’tirof etiladi.

Qiynoq hamda muomala va jazolashning qattiq shafqatsiz, insoniylikka zid yoki qadr-qimmatni kamsituvchi turlariga qarshi Konvensiyada (1984-yil 10-dekabr) qiynoqning ta’rifi berilgan. Unga ko‘ra “qiynoqning ta’rifi shunday istalgan harakatni anglatadiki, u bilan qandaydir shaxsga undan yoki uchinchi shaxsdan ma’lumotlar yoki e’tirof olish, uni u yoki uchinchi shaxs sodir etgan yoki sodir etishda u gumon qilinadigan harakat uchun

jazolash, shuningdek uni yoki uchinchi shaxsni qoʻrqitish yoki zoʻrlash maqsadida, yoki bunday ogʻriq yoki azob davlatning mansabdor shaxsi yoki rasmiy sifatidagi boshqa shaxs, yoki ularning gijgijlashi bilan yoki ularning xabardorligida yoki indamay roziligi bilan har qanday tusdagi kamsitish asoslangan istalgan sabab boʻyicha ataylab kuchli ogʻriq va azob beriladi. Bu taʼrifga qonuniy sanksiyalar natijasida paydo boʻladigan shu sanksiyalardan ajralmas yoki ulardan tasofidan chiqqan ogʻriq yoki azoblar kirmaydi”. Ushbu Konvensiyaning 2-moddasiga koʻra “har qanday ishtirokchi davlat uning yurisdiksiyasidagi istalgan hududda qiynoq harakatlarining oldini olish uchun samarali qonun chiqarish, maʼmuriy, sudlov va boshqa choralarni koʻradi. Hech qanday favqulodda holatlar, ular qanday boʻlmasin: xoh, urush holatimi yoki urush xavfimi, ichki siyosiy barqarorlikmi yoki boshqa istalgan favqulodda holatmi ekanligidan qatʼi nazar, qiynoqni oqlashga xizmat qilolmaydi. Yuqori turgan boshliq yoki davlat hokimiyatining buyrugʻi qiynoqni oqlashga xizmat qilolmaydi”.

Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida mustahkamlangan shaxsning shaʼni va qadr-qimmatini hurmat qilish prinsipi inson huquqlariga doir asosiy xalqaro hujjatlarning talablariga toʻliq javob beradi hamda jinoyat protsessiga jalb qilingan har bir shaxsning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning kafolati boʻlib xizmat qiladi.

Mazkur prinsip birinchi navbatda jinoyat protsessida boshqa ishtirokchilarga nisbatan protsessual majburlov choralari va fuqarolarning huquq va erkinliklarini chegaralash bilan bogʻliq boshqa harakatlarni amalga oshirish vakolatiga ega boʻlgan mansabdor shaxslar tomonidan yoʻl qoʻyilishi mumkin boʻlgan suiisteʼmolchiliklardan shaxsni, uning shaʼni va qadr-qimmatini himoya qilishga qaratilgan.

Koʻrib chiqilayotgan prinsip davlat organlari bilan ishda ishtirok etadigan shaxslar oʻrtasidagi oʻzaro munosabatlarni shunday belgilaydiki, davlat organlari ishda ishtirok etadigan shaxslarning shaʼni va qadr-qimmatini muhofaza qilishi shart, ishda ishtirok etadiganlar esa inson qadr-qimmatini kamsituvchi harakatlardan himoyalaniish vositalari majmuiga egadirlar. Jumladan, ularning manfaatlarini cheklash yoki buzishga olib keladigan mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari va qarorlari ustidan shikoyat berishlari mumkin. Mazkur prinsip shaxsga jismoniy va maʼnaviy azob-uqubat yetkazadigan harakatlar qilish uchun toʻsiq boʻlib xizmat qiladi. Eksperiment, guvohlantirish, shaxsiy tintuv oʻtkazilganda ishtirok etadigan shaxslarning shaʼni, qadr-qimmatini kamsituvchi, sogʻligʻini xavf ostiga qoʻyadigan harakatlarga yoʻl qoʻyilmaydi. Sud muhokamasida

ishtirok etadigan biron-bir shaxs ustida, xususan, dalillar olish uchun uning roziligisiz tibbiy yoki ilmiy tajribalar o'tkazilishi mumkin emas. Agar ish yuritilishida protsessda ishtirok etadigan shaxslarning shaxsiy hayotiga, farzandlikka olish, tibbiy sirlar va boshqalarga taalluqli ma'lumotlar aniqlansa, davlat organlari mazkur ma'lumotlarni tarqalib ketishiga yo'l qo'ymaslik choralarini ko'rishlari shart.

2.9. Fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish prinsipi

Jinoyat ishini yuritishga mas'ul bo'lgan davlat organlari va mansabdor shaxslarning protsess ishtirokchilarining huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, buzilgan huquqlarini tiklash va ularning o'z huquqlarini biron-bir to'siqlarsiz amalga oshirishlari uchun sharoitlar yaratish bo'yicha majburiyatlari mazkur prinsipning mazmunini tashkil etadi.

Mazkur prinsipning normalari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 43-moddasida bayon etilgan, davlat fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta'minlashligi to'g'risidagi konstitutsiyaviy prinsipni jinoyat protsessi prinsipi sifatida ifodalab, jinoyat protsessiga jalb etilgan har bir shaxsning huquq va erkinliklari muhofaza qilinishini kafolatlaydi.

Mazkur prinsip O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari normalariga ham to'liq muvofiqdir. Chunonchi, Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasining 3-moddasiga ko'ra, har bir inson yashash, erkin bo'lish va shaxsiy daxlsizlik huquqlariga egadir. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 9-moddasiga ko'ra, har bir inson ozodlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega. Hech kim o'zboshimchalik bilan hibsga olinishi yoki hibsdan saqlanishi mumkin emas. Hech kim qonun bilan belgilanganidan boshqacha asos va tartibda ozodlikdan mahrum etilishi mumkin emas. Hibsga olinayotgan har bir kishiga hibsga olish vaqtida qamalish sabablari aytiladi va darhol unga qo'yilgan ayb ma'lum qilinadi.

Ko'rilayotgan prinsip Inson huquqlari to'g'risidagi asosiy xalqaro hujjatlar talablariga muvofiq bo'lib, har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega ekanligi to'g'risidagi konstitutsiyaviy prinsipning jinoyat protsessida amal qilishini ta'minlaydi. Mazkur prinsipning amal qilishi Jinoyat-protsessual kodeksining qator moddalarida (221, 226, 242, 243-moddalar) shaxsni ushlab turish, hibsga olish va qamoqda saqlash tartib-tamoili batafsil nazarda tutilganligi bilan ham

ta'minlanadi.

Jinoyat-protsessual kodeksining qator normalarida hibsdan ushlab turish va qamoqda saqlashning chegaralangan muddatlari belgilangan bo'lib, bu muddatlar o'tgan hollarda, ozodlikdan mahrum etilgan shaxsga belgilangan jazo muddati tugaganda shaxs darhol ozod qilinishi shart. Qonunning bu talabini bajarmagan mansabdor shaxslar tegishli tartibda javobgarlikka tortiladilar.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 19-moddasining 4 va 5-qismlarida nazarda tutilgan normalar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 27-moddasiga asoslangan. Konstitutsiyaning ko'rsatilgan normasiga ko'ra, "har kim o'z sha'ni va obro'siga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalani va turar joyi daxlsizligi huquqiga ega. Hech kim qonun nazarda tutgan hollardan va tartibdan tashqari bironing turar joyiga kirishi, tintuv o'tkazishi yoki uni ko'zdan kechirishi, yozishmalar va telefonda so'zlashuvlar sirini oshkor qilishi mumkin emas".

Fuqarolarning turar joyi yoki boshqa bino, hududlarda tintuv o'tkazish, fuqarolarning pochta-telegraf jo'natmalarini xatlab qo'yish va ularni olib qo'yish, telefonlar va boshqa so'zlashuv qurilmalari orqali olib borilayotgan so'zlashuvlarni eshitib borish faqat Jinoyat-protsessual kodeksida belgilangan hollarda va tartibda amalga oshirilishi mumkin. Qonunning mazkur talabini har qanday buzish o'rnatilgan tartibda javobgarlikka sabab bo'ladi va fuqaroga yetkazilgan zarar qonunda belgilangan tartibda undiriladi.

Jinoyat ishini yuritish jarayonida shaxsning huquq va erkinliklarini buzish oqibatida yetkazilgan zarar buzilgan huquqlarni tiklash bilan birga qonunda belgilangan tartibda qoplanadi.

2.10. Sudda jinoyat ishlarining oshkora ko‘rilishi prinsipi

“Hamma sudlarda ishlar ochiq ko‘riladi. Ishlarni yopiq majlisda tinglashga qonunda belgilangan hollardagina yo‘l qo‘yiladi”.

*O‘zbekiston Respublikasi
Konstitutsiyasining
113-moddasi.*

Har bir inson huquq va burchlarini belgilash va qo‘yilgan jinoiy aybning, mustaqil va xolis sud tomonidan qanchalik darajada asosli ekanligini aniqlashi uchun to‘liq tenglik asosida uning ishi oshkora va adolat talablariga rioya qilingan holda ko‘rib chiqilishi huquqiga ega.

*Inson huquqlari umumjahon
Deklaratsiyasining 10-moddasi.*

“Sudlar to‘g‘risida”gi Qonunning 7-moddasi sud ishlarini yuritishning oshkoraligi prinsipini nazarda tutadi. Mazkur modda mazmunidan ko‘rinib turibdiki, “oshkoralik” atamasi “sudda ishlarning ochiq ko‘rilishi” atamasining sinonimi sifatida qo‘llaniladi.

Sudda ishning oshkora ko‘rilishiga bo‘lgan huquq har bir insonning huquqidir. Bu huquq Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasining 10-moddasida, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktning 14-moddasida hamda O‘zbekiston Respublikasi qo‘shilgan xalqaro huquqning boshqa hujjatlarida mustahkamlangan.

Sudda jinoyat ishlarining oshkora ko‘rilishi O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 19-moddasida mustahkamlangan prinsipidir.

Jinoyat protsessining mazkur prinsipi qonun tomonidan quyidagi tarzda tartibga solinadi: “Barcha sudlarda, davlat sirlarini qo‘riqlash manfaatlariga zid keladigan, shuningdek jinsiy jinoyatlar to‘g‘risidagi ishlar ko‘riladigan hollarni istisno qilganda, jinoyat ishlari oshkora ko‘riladi” (O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 19-moddasi 1-qismi).

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 19-moddasi 2-qismiga muvofiq, o‘n sakkiz yoshga to‘lmagan shaxslarning jinoyatlari to‘g‘risidagi ishlarni, shuningdek fuqarolarning shaxsiy hayotiga oid ma‘lumotlarni yoki ularning sha‘ni va qadr-qimmatini kamsitadigan ma‘lumotlarni oshkor qilmaslik maqsadida jabrlanuvchining, guvohning yoki ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning, xuddi shuningdek ularning

oila a'zolari yoki yaqin qarindoshlarining xavfsizligini ta'minlash taqozo etgan hollarda boshqa ishlarni ham sud tomonidan ajrim chiqarib, yopiq sud majlisida ko'rishga yo'l qo'yiladi. Ushbu ishlar bo'yicha ishning to'liq yoki qisman yopiq sud majlisida ko'rilishi zaruriyatiga sabab bo'ladigan aniq holatlar mavjudligini sud har bir vaziyatda alohida aniqlaydi. Mazkur holatlar mavjudligida sud butun protsessni yoki uning alohida bir qismini "yopiq eshiklarda" o'tkazishga nafaqat haqli, balki majbur ham.

Amaliyotdan misol: O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 169-moddasining 1-qismi bilan ayblanib, sudga berilgan, voyaga yetmagan Asilovni ishini himoyachining iltimosiga ko'ra yopiq sud majlisida ko'rish haqida sud ajrim chiqaradi. Biroq voyaga yetmagan ayblanuvchining ikki akasi va jabrlanuvchining amakisi sud majlisida qatnashish uchun ruxsat so'rab murojaat qilishadi. Biroq sud majlisi yopiq tarzda o'tkazilayotganini vaj keltirib, ularning murojaatini rad qildi.

Sudning ushbu masala bo'yicha ajrimi sud majlisida yig'ilganlarga taalluqli bo'lib, protsess ishtirokchilariga ham tatbiq etiladi.

Shaxsiy yozishma va shaxsiy telegraf xabarnomalari ochiq sud majlisida faqat bu xat va xabarlarini jo'natgan hamda olgan shaxslarning roziligi bilan oshkor qilinishi mumkin. Aks holda ular yopiq sud majlisida o'qib eshittiriladi va tekshiriladi.

Sud zalida tartibni saqlab turish uchun zarur bo'lgan hollarda sud ayrim shaxslarning sudning ochiq majlislarida qatnashishlarini taqiqlab qo'yishga haqlidir.

Sud zalida ovozlarni yozib olish, fotosuratga, videoyozuvga, kinoga olishga faqat sud majlisida raislik qiluvchining ruxsati bilan yo'l qo'yiladi.

Sud hukmi barcha hollarda oshkora e'lon qilinadi. Shu bilan birga, oshkor qilinmasligi uchun yopiq sud majlisi o'tkazilgan ma'lumotlar sud hukmida oshkora qilinmaydi.

Sudlov faoliyatida oshkoralikni kengaytirish uchun ommaviy axborot vositalari xodimlari, jamoat birlashmalari va jamoalar bo'ladigan protsesslar to'g'risida xabardor qilinishi mumkin.

Bundan tashqari, sud protsesslari bevosita korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda o'tkazilishi mumkin.

Ko'rinib turibdiki, qonun tomonidan talab qilinadigan yoki yo'l qo'yiladigan oshkoralik prinsipidan istisno holatlari doirasi ancha keng. Inson, jamiyat, davlat manfaatlariga zarar yetkazish maqsadida oshkoralikdan foydalanish mumkin emas. Mazkur cheklovlarning asosiy vazifasi shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini saqlashdir.

Sudda jinoyat ishlarining oshkora ko'rilishi prinsipining siyosiy va amaliy ahamiyati juda katta. Sudlarda ishlarining oshkora ko'rilishi fuqarolarni qonunlarni hurmat qilish va qonunbuzarliklarga toqat qilmaslik ruhida tarbiyalash vazifasini ta'sirchan va kengroq bajarishga hamda sud

organlarining faoliyati ustidan xalqning doimiy nazoratini o'rnatishga imkon yaratadi.

Oshkoralik prinsipidan istisno qilinadigan holatlar ro'yxati qonunda aniq ko'rsatilganligi oshkoralikning kafolati sifatida xizmat qiladi. Tegishli qonuniy asoslar yo'qligida ishning yopiq sud majlisida ko'rilishi qonunning buzilishi hisoblanadi.

2.11. Jinoyat ishlari yuritiladigan til

“O‘zbekiston Respublikasida sud ishlarini yuritish o‘zbek tilida, qoraqalpoq tilida yoki muayyan joydagi ko‘pchilik aholi so‘zlashadigan tilda olib boriladi. Sud ishlari olib borilayotgan tilni bilmaydigan sudda qatnashuvchi shaxslarning tarjimon orqali ish materiallari bilan to‘la tanishish va sud ishlarida ishtirok etish huquqi hamda sudda ona tilida so‘zlash huquqi ta‘minlanadi”.

**O‘zbekiston Respublikasi
Konstitutsiyasining 115-moddasi.**

“Har bir kishi unga qo‘yilgan har qanday jinoiy ayblov sudda ko‘rib chiqilishida ish yuritilayotgan tilni tushunmaydigan yoki bu tilda gapira olmaydigan bo‘lsa, tarjimon yordamidan bepul foydalanishga haqlidir”.

Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktining 14-moddasi 3-qismi “f” bandi.

Mazkur prinsip odil sudlovning eng asosiy prinsiplaridan biri bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonunining 8-moddasida ham mustahkamlangan. Unga asosan O‘zbekiston Respublikasida sud ishlarini yuritish o‘zbek tilida, qoraqalpoq tilida yoki muayyan joydagi ko‘pchilik aholi so‘zlashadigan tilda olib boriladi.

Sud ishlari olib borilayotgan tilni bilmaydigan sudda qatnashuvchi shaxslarning tarjimon orqali ish materiallari bilan to‘la tanishish va sud ishlarida ishtirok etish huquqi hamda sudda ona tilida so‘zlash huquqi ta‘minlanadi.

Ko‘rib chiqilayotgan prinsip hayotning barcha sohalarida ta‘minlanadigan fuqarolar millatidan qat’i nazar teng huquqliligi va milliy tillardan foydalanishning davlat kafolatlaridan biridir. Uning asosiy qoidalari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasida aks ettirilgan. O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari hurmat qilinishini ta‘minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi.

Mazkur prinsip O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual

kodeksining 20-moddasida o'z rivojini topgan. Ushbu prinsipga asosan jinoyat ishlarini yuritish ham o'zbek tilida, qoraqalpoq tilida yoki muayyan joydagi ko'pchilik aholi so'zlashadigan tilda olib boriladi (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 115-moddasi, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 20-moddasi).

Taraflar sud ishlari olib borilayotgan tilni bilmasligi ularning protsessda ishtirok etishiga to'sqinlik qilmaydi: protsessda o'z faoliyatini amalga oshirishda taraflarning har biri tarjimon xizmatidan foydalanishi mumkin. Ish yuritilayotgan tilni bilmaydigan yoki yetarli darajada tushunmaydigan protsess ishtirokchilariga o'z ona tilida yoki o'zi biladigan boshqa tilda og'zaki yoki yozma arz qilish, ko'rsatuv va tushuntirishlar berish, iltimosnoma va shikoyatlar bilan murojaat qilish, sudda so'zlash huquqi ta'minlanadi (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 20-moddasi).

Ko'rib chiqilayotgan prinsipning amalga oshirilishi ish yuritilayotgan tilni bilmaydigan protsessda ishtirok etuvchi barcha shaxslarning huquqlarini va milliy manfaatlarini kafolatlaydi. Ushbu huquqlar mazmuni tushuntirib berilishi va ularni amalga oshirish imkoniyati ta'minlanishi lozim. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 20-moddasiga muvofiq, ayblanuvchiga, sudlanuvchiga yoki protsessda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarga taqdim etilishi lozim bo'lgan tergov va sud hujjatlari ularning ona tiliga yoki ular biladigan boshqa tilga tarjima qilib berilishi lozim.

Agar shaxs sud ishlari yuritiladigan tilni bilmasa, ushbu shaxs ishtirokida o'tkaziladigan barcha protsessual harakatlarga majburiy tartibda tarjimon jalb qilinadi. Tarjimonning protsessda ishtirok etishi nafaqat sud ishlari yuritiladigan tilni bilmaydigan shaxsning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlaydi, balki dalillarning qayd etilishiga ko'maklashadi hamda so'roq qilinuvchi taqdim etadigan yoki yozma hujjatlarda saqlanadigan ma'lumotlar tergovchi va sud tomonidan to'liq hajmda olinishiga yordam beradi. Ish yuritayotgan shaxs qisqa muddat ichida ham tarjimon vazifalarini bajarishga haqli emas.

Ish yuritilayotgan tilni bilmaydigan gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga, sudlanuvchiga tarjimon yordamida ham o'zining himoya huquqini amalga oshirish qiyin bo'lganligini inobatga olib, dastlabki tergovda va ishni sudda ko'rishda himoyachi ishtirok etishining zarurati qonunda belgilab qo'yilgan (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 51-moddasi 3-bandi).

Sud ishlari yuritiladigan tilni bilmaganligi sababli gumon qilinuvchi,

ayblanuvchi, sudlanuvchi yoki himoyachi huquqlarining har qanday cheklanishi, shuningdek mazkur shaxslarga protsessning har bir bosqichida ona tilidan foydalanish imkoniyati ta'minlanmaganligi jinoyat-protsessual qonunining jiddiy buzilishi deb e'tirof etiladi va hukm bekor qilinishiga asos bo'ladi (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 487-moddasi). Sud ishlari yuritiladigan til prinsipi jinoyatga oid sud ishlarini yuritish tartibini fuqarolar uchun ochiq va tushunarli qiladi, protsessda ishtirok etuvchi shaxslarning, ularning millatidan qat'i nazar, qonun va sud oldidagi tengligini kafolatlaydi, ish holatlarini har tomonlama, to'liq va xolis o'rganish uchun zarur sharoitlarni yaratadi, oshkoralik va protsessning boshqa prinsiplari amalga oshirilishini ta'minlaydi, manfaatdor shaxslarga o'z huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun qonun bilan taqdim etilgan vositalardan foydalanishda yordam beradi. Shuning uchun sud ishlari yuritiladigan til to'g'risidagi qoidalar buzilishi hukm va ish bo'yicha qabul qilinadigan boshqa protsessual qarorlar bekor qilinishiga asos bo'ladi.

2.12. Jinoyat ishlarini yuritishda jamoatchilik ishtiroki prinsipi

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 7-moddasiga ko'ra, xalq davlat hokimiyatining birdan bir manbaidir. Konstitutsiyaning 14-moddasiga muvofiq, davlat o'z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko'zlab, ijtimoiy adolat va qonuniylik prinsiplari asosida amalga oshiriladi. Konstitutsiyaning 32-moddasiga ko'ra esa, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga egadirlar. Mazkur konstitutsiyaviy normalardan kelib chiqib, jinoyatchilikka qarshi kurashni amalga oshiruvchi davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari o'z faoliyatlarini amalga oshirishda jamoatchilik yordamiga tayanadilar. O'z navbatida fuqarolar jinoyatchilikka qarshi kurashish, jinoyatlarning sodir etish sabablari va unga imkon bergan sharoitlarni aniqlashda yordam ko'rsatish orqali mamlakatda qonuniylikni ta'minlashga ko'maklashadilar.

Jinoyat ishlarini yuritishda jamoatchilik ishtirokining bir necha shakli, chunonchi, jinoyat sodir etilgan holatlarni aniqlashda, aybdorlarni qidirish va fosh etishda, adolatli hukm chiqarishda, shuningdek jinoyatning sodir etilish sabablari va unga imkon bergan sharoitlarni aniqlashda jamoatchilikning ishtiroki nazarda tutilgan.

Amaldagi jinoyat protsessual qonun hujjatlarida jinoyat ishlarini yuritishda jamoatchilik ishtirokining turli shakllari nazarda tutilgan. Unga

muvofiq surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud jinoyat ishlarini tergov qilishda va sudda ko‘rishda jinoyat sodir etilgan holatlarni aniqlab olish, aybdorlarni qidirish va fosh etish, adolatli hukm chiqarish, shuningdek jinoyatning sabablari va unga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash uchun o‘z vakolatlari doirasida jamoatchilik yordamidan foydalanishga haqli.

Sud ishlarini yuritishda, jumladan ishni sudga qadar yuritishda ham jamoat birlashmalari va jamoalarning vakillari jamoat ayblovchilari hamda jamoat himoyachilari tariqasida qatnashishga haqli ekanligi qonunda mustahkamlab qo‘yilgan. Jamoat ayblovchilari va jamoat himoyachilarini jinoyat ishlarini yuritishda qatnashishining ahamiyati shundaki, ular o‘zlariga berilgan huquqlarini amalga oshira borib, sodir etilgan jinoyat hodisasiga nisbatan jamoatchilikning fikrini ifodalaydilar, ish holatlarini har tomonlama va to‘liq tekshirishiga ko‘maklashadilar, jinoyatning sodir etilishi sabablari va unga imkon bergan sharoitlarni batafsil aniqlashga hamda ish yuzasidan adolatli hukm chiqarilishiga yordamlashadilar.

Qonunda jamoat birlashmalari va jamoalarning sud muhokamasida jamoat ayblovchisi yoki jamoat himoyachisi tariqasida ishtirok etish uchun o‘z vakillarini yuborish tartibi belgilab qo‘yilgan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 42-moddasiga ko‘ra, jamoat ayblovchilari va jamoat himoyachilarini jamoat birlashmasining yoki korxonasi, muassasa, tashkilot jamoasining yig‘ilishi ko‘rsatadi. Yig‘ilish qarori sudga taqdim etilishi lozim. Shu bilan birga jamoat ayblovchisi yoki jamoat himoyachisi uni ko‘rsatgan jamoat birlashmasi yoki jamoa tomonidan istalgan vaqtda chaqirib olinishi yoki u boshqa vakil bilan almashtirilishi mumkin.

Jinoyat ishini yuritishda qatnashayotgan har bir subyekt ma’lum bir huquq va majburiyatlarga ega bo‘lishi lozim. Aks holda u o‘ziga yuklatilgan vazifalarini samarali bajarish imkoniga ega bo‘lmaydi. Shu tufayli O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida jamoat ayblovchisi va jamoat himoyachisining huquq va majburiyatlari belgilab qo‘yilgan.

2.13. Haqiqatni aniqlash prinsipi

Mazkur prinsipning mazmuni shundan iboratki, sodir etilgan jinoyatni to‘la ochish, uni sodir etganlarning aybdorlik darajasini to‘g‘ri belgilash

hamda aybdorga adolatli jazo tayinlash, jinoyatning sodir etilishi sabablari va unga imkon bergan sharoitlarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish, aybi bo‘lmagan hech bir shaxsning javobgarlikka tortilishi va hukm qilinishining oldini olish maqsadida jinoyat ishini yuritishga mas’ul bo‘lgan davlat organlari va mansabdor shaxslar ishning barcha holatlarini to‘liq va xolisona aniqlashlari shart.

Ish bo‘yicha haqiqatni aniqlash uchun faqat O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida nazarda tutilgan tartibda to‘plangan, tekshirilgan va baholangan ma’lumotlardan foydalanish mumkin. Gumon qilinuvchidan, ayblanuvchidan, sudlanuvchidan, jabrlanuvchidan, guvohdan va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslardan zo‘rlash, qo‘rqitish, huquqlarini cheklash va o‘zga noqonuniy choralar bilan ko‘rsatuvlar olishga harakat qilish man qilinadi.

Ishning isbotlanishi lozim bo‘lgan barcha holatlari sinchkovlik bilan har tomonlama, to‘la va xolisona tekshirib chiqilishi kerak. Ishda yuzaga keladigan har qanday masalalarni hal qilishda ayblanuvchini yoki sudlanuvchini ham fosh qiladigan, ham oqlaydigan, shuningdek uning javobgarligini ham yengillashtiradigan, ham og‘irlashtiradigan holatlar aniqlanishi va o‘rganilishi lozim. Bu holat ko‘rib o‘tilayotgan prinsip ishning barcha holatlarini va dalillarini tekshirishga qaratilganligini anglatadi. Ishning holatlarini har tomonlama, to‘liq va xolisona tadqiq etishga oid talablar o‘zaro uzviy bog‘langan, ayni vaqtda ularning har biri mustaqil ahamiyatga ega.

Holatlarni har tomonlama tadqiq etish deganda, isbotlash faoliyati yo‘nalishini belgilaydigan, bir yoqlamalikni va subyektivlikni bartaraf etadigan hamda isbotlash to‘g‘ri borishini ta’minlaydigan barcha ehtimol bo‘lgan xolisona taxminlarni o‘z vaqtida tadqiq etish va sinchkovlik bilan dalillar to‘plash, tekshirish va baholash tushuniladi.

Holatlarni to‘liq tadqiq etish deganda, isbotlanishi lozim bo‘lgan barcha holatlarni aniqlash tushuniladi.

Holatlarni xolisona tadqiq etish deganda, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud tomonidan isbotlash mazmuni bo‘lgan barcha holatlarni aniqlash uchun zarur dalillarni yig‘ishda, tekshirishda va baholashda har qanday yuzaki, shubhali fikr bo‘lmasligi tushuniladi. Dastlabki tergov va sud tergovining biryoqlama olib borilganligi va to‘liq emasligi apellyatsiya, kassatsiya hamda nazorat tartibida hukmni bekor qilish uchun asos bo‘ladi.

2.14. Aybsizlik prezumpsiyasi

“Jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan har bir shaxsning ishi sudda qonuniy tartibda, oshkora ko‘rib chiqilib, uning aybi aniqlanmaguncha u aybdor hisoblanmaydi. Sudda ayblanayotgan shaxsga o‘zini himoya qilish uchun barcha sharoitlar ta‘minlab beriladi”.

Konstitutsiyaning 26-moddasi 1-qismi.

Jinoyat sodir etganlikda ayblangan har bir inson himoya uchun barcha imkoniyatlar ta‘minlangan holda, ochiq sud majlisi yo‘li bilan uning aybi qonuniy tartibda aniqlanmaguncha aybsiz deb hisoblanishga haqlidir.

Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasining 11-moddasi 1-qismi.

Aybsizlik prezumpsiyasi (lotin tildagi “presumption” – “taxmin” so‘zidan kelib chiqqan) shaxs huquqlari himoyasini ta‘minlab beruvchi, asossiz ayblash va jazolashning oldini oluvchi jinoyat protsessining muhim demokratik prinsiplaridan biri hisoblanadi. Ushbu prinsip faqat jinoyatga oid sud ishlarini yuritishda amal qiladi hamda O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 23-moddasi 1-qismida va O‘zbekiston Respublikasi “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonunining 10-moddasi 2-qismida batafsil belgilab berilgan.

Aybsizlik prezumpsiyasi prinsipi inson huquqlari sohasida asosiy xalqaro hujjatlarning qoidalariga asoslanadi: Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi (11-modda), Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt (14-modda), Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to‘g‘risidagi Yevropa Konvensiyasi (6-modda 2-qism). Aybsizlik prezumpsiyasining asosida umumiy, keng e‘tirof etilgan axloq normasi yotadi, unga muvofiq har bir inson aybdorligi isbotlanmaguncha aybsiz deb hisoblanishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 23-moddasiga binoan “Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi uning jinoyat sodir etishda aybdorligi qonunda nazarda tutilgan tartibda isbotlangunga va qonuniy kuchga kirgan sud hukmi bilan aniqlangunga qadar aybsiz hisoblanadi.

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o‘zining aybsizligini isbotlab berishi shart emas.

Aybdorlikka oid barcha shubhalar, basharti ularni bartaraf etish

imkoniyatlari tugagan bo'lsa, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining foydasiga hal qilinishi lozim. Qonun qo'llanilayotganda kelib chiqadigan shubhalar ham gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining foydasiga hal qilinishi kerak".

Barcha fuqarolar qonunga itoatkor bo'lishlari taxmin qilinishi va davlat tomonidan jinoyat sodir etishda aybdor deb topilishlari faqat qonunda nazarda tutilgan shartlar mavjudligida va qat'iy taomil qo'llanilishi natijasida mumkinligi mazkur prinsipning mazmun-mohiyatini tashkil etadi. Aybsizlik prezumpsiyasi prinsipiga amal qilish shaxsning asossiz hukm qilinishiga yo'l qo'ymaydigan kafolat sifatida xizmat qiladi.

Aybsizlik prezumpsiyasidan kelib chiqadigan, ushbu institutning huquqiy maqomini shakllantiradigan hamda surishtiruv, dastlabki tergov va sud organlarining huquqni qo'llash bo'yicha faoliyatida hisobga olinishi va rioya qilinishi lozim bo'lgan bir qator qoidalar amaldagi jinoyat-protsessual qonunida mustahkamlangan:

- gumon qilinuvchi, ayblanuvchi (sudlanuvchi) o'z aybsizligini isbotlashga majbur emas; ayblovni isbotlash hamda gumon qilinuvchi va ayblanuvchining himoyasiga keltirilgan dalillarni rad etish vazifasi ayblovchining zimmasiga yuklatiladi; jinoiy ta'qibni amalga oshirishda prokuror, tergovchi, surishtiruv organi va surishtiruvchi jinoyat alomatlari topilgan har bir holda jinoyat ishini qo'zg'atishlari, jinoiy hodisani, jinoyat sodir etishda aybdor bo'lgan shaxslarni aniqlash va ularni jazolash uchun qonunda nazarda tutilgan barcha choralarni ko'rishlari shart;

- aybdorlikka oid barcha shubhalar, basharti ularni bartaraf etish imkoniyatlari tugagan bo'lsa, ayblanuvchi va sudlanuvchining foydasiga hal qilinishi lozim (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 23-moddasi 3-qismi); mazkur qoida jinoyat ishi bo'yicha olib boriladigan dastlabki tergovga ham tatbiq etilgan bo'lib, jinoyat ishini tugatish, sodir etilgan jinoyat tavsif qilinishining o'zgarishi tufayli ayblov hajmi yoki uning xususiyati o'zgarishi kabi protsessual oqibatlarga olib keladi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida nazarda tutilgan dalillarni to'plashning barcha vosita va usullari tugagan bo'lsa hamda ish bo'yicha to'plangan dalillar orqali hal etilishi mumkin bo'lmagan shubhalar mavjud bo'lsa, ushbu shubhalar bartaraf etib bo'lmaydigan shubhalar deb e'tirof etilishi lozim;

- jinoyat ishini yuritishni amalga oshiruvchi davlat organlari va sud majlisida sud ish holatlarini har tomonlama, to'liq va xolis o'rganishlari shart; sud isbotlash majburiyatini sudlanuvchi zimmasiga yuklatishga haqli emas; sud tomonidan dalillarni bevosita tekshirish sudlanuvchi,

jabrlanuvchi, guvohlar, ekspertning ko'rsatuvlarini eshitish, bayonnoma va boshqa hujjatlarni o'qib eshitish, dalillarni o'rganish bo'yicha boshqa sud-tergov harakatlarini amalga oshirish bo'yicha sudning majburiyatini ko'zda tutadi (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 26-moddasi);

- ayblanuvchining o'z aybiga iqrор bo'lishi, ishda mavjud bo'lgan dalillar majmui bilan tasdiqlangan taqdirdagina, ayblash uchun asos qilib olinishi mumkin;

- ayblov hukmining taxminlarga asosan chiqarilishi qonun bilan taqiqlanadi; sudlanuvchi aybli ekanligi sud muhokamasi davomida o'rganilgan ishonchli dalillarning yetarli majmuasi bilan isbot qilingan taqdirdagina ayblov hukmi chiqariladi.

Ko'rsatilgan qoidalar bir vaqtning o'zida aybsizlik prezumpsiyasi prinsipi amal qilishini ta'minlashda tegishli kafolatlar sifatida xizmat qiladi.


Qonuniy kuchga kirgan sud hukmi yuqorida ko'rsatilgan qoidalarga rioya qilgan taqdirdagina haqiqatni, shu jumladan, isbotlashning asosiy masalasi, ya'ni ayblanuvchining aybi bo'yicha xulosani aks ettiruvchi hujjat deb e'tirof etiladi.

Aybsizlik prezumpsiyasi nafaqat asossiz ayblov va hukm qilishga yo'l qo'ymaydigan kafolatdir. Ayblovning shubhasiz isbotlanishi shartligi hamda bartaraf etib bo'lmaydigan shubhalarni ayblanuvchi foydasiga hal qilinishi zarurligi to'g'risidagi mazkur prezumpsiyaning talablari davlat organlarini ish holatlarini xolis, beg'araz va adolatli tarzda aniqlashga yo'naltiradi va shu orqali sud tomonidan ishning adolatli hal qilinishini ta'minlaydi. Aybsizlik prezumpsiyasidan chetga chiqish odil sudlovda qonuniylikning buzilishiga va fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlari cheklanilishiga olib keladi.

**Aybsizlik
prezumpsiyasi**
JPK
23-modda

Gumon qilinuvchi,
ayblanuvchi yoki
sudlanuvchi uning jinoyat
sodir etishda aybdorligi

Aybdorlikka oid barcha
shubhalar, basharti ularni
bartaraf etish imkoniyatlari
tugagan bo'lsa, gumon
qilinuvchi, ayblanuvchi
yoki sudlanuvchining
foydasiga hal qilinishi



2.15. Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchini himoyalash huquqi bilan ta'minlash prinsipi

“Ayblanuvchi himoyalash huquqi bilan ta'minlanadi. Tergov va sud ishini yuritishning har qanday bosqichida malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlanadi. Fuqarolarga, korxonaga, muassasa va tashkilotlarga yuridik yordam berish uchun advokatura faoliyat ko'rsatadi”.

**O'zbekiston Respublikasi
Konstitutsiyasining
116-moddasi.**

“Har bir kishining unga qo'yilgan har qanday jinoiy ishi ko'rib chiqilayotganda to'liq tenglik asosida quyidagi kafolatlarga ega bo'lish huquqi mavjud: O'zi qatnashib sud qilinishi va o'zini o'zi yoki tanlab olingan oqlovchi vositasida himoya qilinishi; agar oqlovchisi bo'lmasa unga ega bo'lish huquqi borligi haqida xabardor qilinishi; odil sud manfaatlarini talab etgan har qanday hollarda unga tayinlangan oqlovchiga ega bo'lish, ushbu oqlovchiga to'lash uchun yetarli mablag'i bo'lmagan barcha hollarda uning uchun oqlovchini tekinga berish”.

Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 14-moddasi 3-qismi “d” bandi.

Himoyalash huquqi jinoyatga oid sud ishlarini yuritishda shaxs huquqlarining kafolatlari tizimida markaziy o'rin egallaydi. Ushbu huquq nafaqat shaxs huquq va qonuniy manfaatlarining kafolatlarini, balki odil sudlov manfaatlarini amalga oshirishning yuridik sharti sifatida xizmat qiladi. Himoyalash huquqi mustaqil ijtimoiy-huquqiy ne'matdir.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi jinoiy javobgarlikka tortiladigan shaxslarda himoyalaniş huquqining nafaqat mavjudligini e‘lon qiladi, balki mazkur huquq ta‘minlanganligiga urg‘u beradi. Jinoyatga oid sud ishlarini yuritishda himoyalaniş instituti gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchiga taqdim etiladigan va ularga ishda taraf sifatida ishtirok etishga, jinoyat sodir etish yuzasidan ularga qo‘yilgan ayblov yoki gumonni rad qilishga, jinoyat sodir etishga aloqador emasligini isbotlashga, javobgarlikni yengillashtirish uchun harakat qilishga imkon beruvchi huquqlar kompleksi sifatida xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 24-moddasiga muvofiq, gumon qilinuvchi va ayblanuvchining himoyalaniş huquqi quyidagi qoidalardan iborat: gumon qilinuvchi va ayblanuvchi o‘z huquqlarini shaxsan hamda o‘z vakolatlaridan to‘liq foydalanadigan himoyachi yordamida amalga oshirishlari, shuningdek huquqni muhofaza qiluvchi organlarining mansabdor shaxslari har bir ayblanuvchi o‘zining himoyalanişga bo‘lgan konstitutsiyaviy huquqini amalga oshirishi uchun tegishli sharoitlar yaratish bo‘yicha majburiyatlarini bajarishlari.

Gumon qilinuvchiga (ayblanuvchiga) taqdim etiladigan hamda o‘zining nimada ayblanayotganligini bilishga, o‘z tushuntirishlarini berishga, unga qo‘yilgan ayblovga nisbatan e‘tiroz bildirishga, o‘z qonuniy manfaatlarini shaxsan himoya qilish bo‘yicha barcha huquqlardan foydalanishga imkon beruvchi protsessual vosita va huquqlar majmuasi jinoyat protsessida himoyalaniş huquqi institutining asosini tashkil etadi.

Himoyalaniş huquqi va uni amalga oshirishning kafolatlari bir-biri bilan chambarchas bog‘liqdir.

Amaliyotdan misol: Dastlabki tergov vaqtida ayblanuvchi Botirovni advokat Azizov himoya qilgan. Botirovning ishi sudga topshirilgandan keyin, u qarindoshlari orqali o‘z manfaatlarini himoya qilish uchun boshqa advokat taklif qilishni iltimos qilgan. Sababi Botirov, advokat Azizovni himoya qilishni istamagan. Chunki tergovchi tomonidan taklif etilgan advokat shartnoma asosida emas, balki davlat tomonidan ayblanuvchiga advokat ta‘minlangan. Sudda esa ayblanuvchi Batirovning huquqlarini himoya qilish uchun boshqa advokatni ishga taklif qilgan.

Qonun chiqaruvchi qo‘yilgan ayblovdan qonunda nazarda tutilgan barcha usul va vositalar orqali himoyalaniş imkoniyatini ayblanuvchiga ta‘minlash bo‘yicha majburiyatni jinoyat protsessini olib boruvchi davlat organlari va mansabdor shaxslarning zimmasiga yuklatadi. Ushbu barcha harakatlarni amalga oshirish huquqi gumon qilinuvchi va ayblanuvchida mavjudligi to‘g‘risida surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud jinoyat ishini yuritishda ishtirok etuvchi shaxslarni ma‘lum qilishga, yuqorida ko‘rsatilgan huquqlardan foydalanish tartibini tushuntirishga va ushbu

huquqlarni to'liq amalga oshirish imkoniyatini ta'minlashga majburdirlar (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 24-moddasi 2-qismi). Ushbu organlar ayblanuvchini yoki sudlanuvchini ham fosh qiladigan, ham oqlaydigan, shuningdek uning javobgarligini ham yengillashtiradigan, ham og'irlashtiradigan holatlarni aniqlashga ham majburdirlar (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 22-moddasi).

Gumon qilinuvchi va ayblanuvchi zimmasiga ko'rsatuv berish hamda o'z aybsizligini yoki ish bo'yicha biror-bir holatni isbotlash majburiyatini yuklatish taqiqlanadi. Qonunga asosan bunday majburiyat jinoyat ishini yuritishga mas'ul davlat organlarining mansabdor shaxslari zimmasiga yuklatilgan.

Shunday qilib, ayblanuvchining protsessual huquqlari tizimi hamda sud, surishtiruv, tergov va prokuratura organlarining ushbu huquqlarni amalga oshirish bo'yicha haqiqiy imkoniyatlarni ta'minlash majburiyati birligida ayblanuvchini himoyalanih huquqi bilan ta'minlash prinsipi o'zining eng chuqur va ta'sirli mazmunini topadi.

Ayblanuvchining (gumon qilinuvchi va sudlanuvchining) himoyalanih huquqi deganda, unga qo'yilgan ayblovdan shaxsan yoki himoyachining yordamida himoyalanih imkoniyatini beruvchi protsessual huquqlarning butun majmui, butun kompleksi tushunilishi lozim.

Ayblanuvchi (gumon qilinuvchi, sudlanuvchi) o'z huquq va qonuniy manfaatlarini shaxsan samaradorli himoya qilishga imkon beruvchi huquqlar kompleksiga ega. Ushbu maqsadda jinoiy javobgarlikka tortiladigan shaxslarga bir qator huquqlar taqdim etilgan: o'zining nimada ayblanayotganligini bilish, ko'rsatuv va tushuntirish berish, dalillar bilan tanishib chiqish va boshqalar (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 46-moddasi). Surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud (sudya)ning protsessual harakati yoki qarori ustidan belgilangan tartibda shikoyat berish huquqining gumon qilinuvchi va ayblanuvchiga qonun bilan taqdim etilishi mazkur shaxslarni himoyalanih huquqi bilan ta'minlashning muhim elementlaridan biri hisoblanadi.

Amaldagi jinoyat-protsessual qonunchiligi bo'yicha himoyachining ishda ishtirok etishiga jinoyat protsessining har qanday bosqichida, shaxs ushlanganida esa uning harakatlanish erkinligiga bo'lgan huquqi amalda cheklangan paytdan boshlab ruxsat etiladi (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 49-moddasi 4-qismi). Ishda himoyachilar sifatida advokatlar ishtirok etishlari mumkin. Gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining yaqin qarindoshlari yoki qonuniy

vakillaridan birining advokat bilan bir qatorda himoyachi sifatida ishtirok etishiga gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining iltimosnomasi bo'yicha surishtiruvchining, tergovchining qarori yoki sud ajrimiga binoan yo'l qo'yilishi mumkin.

Ishda ishtirok etish haqida bitim tuzilgan yoki tayinlangan vaqtdan boshlab advokat himoyachi vazifasini bajarishni rad etishga haqli emas (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 53-moddasi 5-qismi).

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchiga, ularning iltimosidan qat'i nazar, hattoki ularning xohishiga qaramay, himoyachi tayinlanishi shart bo'lgan hollarning qonunda nazarda tutilganligi himoyalanih huquqining qo'shimcha kafolati hisoblanadi. Ushbu hollar voyaga yetmaganlar, soqovlar, karlar, ko'rlar va jismoniy nuqsoni yoki ruhiy kasalligi sababli o'zini o'zi himoya qilish huquqini amalga oshirishga qiynaladigan boshqa shaxslarga, shuningdek sudlov ishi olib borilayotgan tilni bilmaydigan shaxslarga oid. Bundan tashqari, jazo chorasi sifatida umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanishi mumkin bo'lgan jinoyatlarni sodir etishda gumon qilinayotgan yoki ayblanayotgan shaxslarning ishlari bo'yicha ham himoyachi ishtirok etishi shart (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 51-moddasi). Himoyachining majburiy ishtirok etishi uning kelishuvi yoki surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud tomonidan tayinlanishi orqali ta'minlanishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 487-moddasi mazmuniga asosan himoyalanih huquqining buzilishi sud ishni har tomonlama ko'rib chiqishiga xalal bergan hamda qonuniy, asosli va adolatli hukm chiqarishga ta'sir qilgan yoki ta'sir qilishi mumkin bo'lgan taqdirda, jiddiy va sud hukmini bekor qilinishiga olib keladigan buzilish sifatida e'tirof etilishi lozim.

2.16. Sudda ishlarni yuritishda tortishuv prinsipi

Jinoyat-protsessual qonunchiligida tortishuv prinsipi alohida ahamiyatga ega. Jinoyat-protsessual qonunchiligi taraflarning sud oldidagi protsessual tengligi hamda jinoyat sud ishlarini yuritishni izchil demokratlashtirish g'oyasini asoslardan biri deb e'tirof etib, taraflarning o'zaro tortishuvini jinoyatga oid sud ishlarini yuritishning asosiy prinsiplar tizimiga kiritadi. Ta'kidlash joizki, 1959-yildagi Jinoyat-protsessual kodeksda mazkur prinsip nazarda tutilmagan. Amaldagi qonunchilikda esa

ushbu prinsip O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 25-moddasida o'z aksini topgan: "Birinchi instansiya sudining sud majlisida, shuningdek ishlar yuqori sudlarda ko'rilayotganda ish yuritish taraflarning o'zaro tortishuvi asosida amalga oshiriladi".

Tortishuv prinsipining amalga oshirilishi ayblov va himoya funksiyalari bir-biridan va sud faoliyatidan ajratilganligini hamda o'z manfaatlarini himoya qilish maqsadida teng protsessual huquqlaridan foydalanayotgan taraflar tomonidan bajaralishini nazarda tutadi.

Tortishuv prinsipining amalga oshirilishi ish to'liq, xolis va beg'araz ko'rib chiqilishining kafolati hisoblanadi, bu o'z navbatida, haqiqatni aniqlashga va ish bo'yicha adolatli qaror qabul qilishga imkon beradi.

Jinoyat protsessida taraflar deganda, protsessual manfaatlarini qarama-qarshi bo'lgan va bu manfaatlarini himoya qilish uchun qonun bilan taqdim etilgan huquqlarga ega bo'lgan jinoyatga oid sud ishlarini yuritishning ishtirokchilari tushuniladi. Asosiy protsessual vazifalarni bajaruvchi shaxslar qonunda belgilangan. Ayblash vazifasi bitta taraf tomonidan (prokuror, jabrlanuvchi, xususiy ayblovchi, fuqaroviy da'vogar ushbu taraf doirasida o'z faoliyatini amalga oshiradi), himoya qilish vazifasi esa ayblanuvchi, sudlanuvchi, uning himoyachisi, vakili, fuqaroviy javobgar kabi protsess ishtirokchilari vakillari bo'lgan boshqa taraf tomonidan bajarilishida protsessual vazifalarning ajratilganligi o'z ifodasini topadi.

Ishni hal qilish vazifasi faqat sud tomonidan bajariladi. Bu vazifa ayblash va himoya qilish vazifalaridan ajratilgan (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 25-moddasi 5 va 6-qismlari).

O'z navbatida, sud oldida ayblov va himoya taraflarining tengligi jinoyat ishlarini ko'rish jarayonida taraflarga o'z huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun teng imkoniyatlarni ta'minlovchi jinoyat sud ishlarini yuritishning tartibini anglatadi. Taraflarning protsessual teng huquqliligi nafaqat ishning faktik holatlarini tahlil qilishga, balki ishni sudda ko'rish jarayonida vujudga keladigan barcha yuridik masalalarni muhokama qilishga ham tatbiq etiladi.

Tortishuv prinsipini izchil amalga oshirish maqsadida sudlanuvchini fosh etish jarayonida sudning ishtirok etishi taqiqlanadi, chunki sud jinoiy ta'qib organlar qatoriga kirmaydi va ayblov yoki himoya tarafida turishga haqli emas. Sud taraflar protsessual majburiyatlarini bajarishlari va o'z huquqlarini amalga oshirishlari uchun zarur sharoitlar yaratib berishga majbur. Sud protsessda rahbariy o'rin egallab, xolislik va beg'arazlikni saqlagan holda sud majlisi ustidan rahbarlik qiladi, o'rganilayotgan ish holatlariga bevosita aloqador bo'lmagan barcha ma'lumotlarni bartaraf

etadi, sud majlisida tartibni buzish bo'yicha urinishlarga yo'l qo'ymaydi.

Nazariyada tortishuv prinsipining quyidagi uchta elementlarini ajratadilar: 1) ayblash (va fuqaroviy da'voni quvvatlash), himoya qilish (va fuqaroviy da'voga javob berish) hamda odil sudlov vazifalari bir-biridan alohida bajarilishi; 2) taraflar o'z vazifalarini bajarishlari uchun ularga teng protsessual huquqlar taqdim etilishi; 3) sudning protsessda rahbariy roli va ish bo'yicha qaror qabul qilish huquqining faqat sudga taqdim etilishi.

Ayblash va himoya qilish mustaqil vazifalar sifatida belgilanishi, ular bir-biridan va sud faoliyatidan ajratilishi tortishuv prinsipi amal qilishining asosini tashkil etadi. Qonun ayblash, himoya qilish va odil sudlovni amalga oshirish vazifalarini (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 408, 409, 412, 53, 12-moddalari) qat'iy ajratgan, ularning qo'shilishini hukmning albatta bekor qilinishi uchun asos sifatida belgilagan va shu orqali bunday qo'shilishni istisno qilgan (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 76, 79, 80-moddalari).

Inobatga olish lozimki, odil sudlovni amalga oshirishda taraflarning teng huquqliligi to'g'risidagi qoida faqat protsessual jihatdan ko'rilishi lozim. Taraflar o'z pozitsiyalarini sud oldida himoya qilishda teng protsessual huquqlarga ega. Taraflar ayblash va himoya qilish, fuqaroviy da'voni quvvatlash va da'voga qarshi e'tiroz bildirish bo'yicha o'z pozitsiyalarini himoya qilishlari uchun yo'l qo'yiladigan protsessual vositalaridan foydalanish bo'yicha teng imkoniyatlarga ega. Sud muhokamasida tortishuvni ta'minlash uchun sud taraflar o'z protsessual huquqlarini amalga oshirishlari uchun sharoit yaratadi va taraflar xatti-harakatlarining qonuniyligi ustidan nazorat qiladi hamda shu orqali ish bo'yicha haqiqatni aniqlashga ko'maklashadi.

2.17. Dalillarni bevosita va og'zaki usulda tekshirish prinsipi

Jinoyat ishini yuritishda dalillarni bevosita va og'zaki usulda tekshirish prinsipining mazmuni ikki elementdan iborat: dalillarni tekshirayotgan shaxs tomonidan ularni shaxsan idrok etish; qabul qilinadigan qarorni shaxsan tekshirilgan dalillarga asoslash talabi.

Dalillarni bevosita tekshirish shuni anglatadiki, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud tomonidan qabul qilinadigan qarorlar ular tomonidan shaxsan va bevosita tekshirilgan dalillarga asoslangan bo'lishi lozim.

Ushbu prinsipga muvofiq, jinoyat ishini yuritishda surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud dalillarni bevosita tekshirishlari, gumon

qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, jabrlanuvchi va guvohlarni so‘roq qilishlari, ekspertlarning xulosalarini eshitishlari, ashyoviy dalillarni ko‘zdan kechirishlari, bayonnoma va boshqa hujjatlarni o‘qib eshittirishlari shart.

Jinoyat protsessida bevositalilik prinsipi og‘zakilik bilan uzviy bog‘langandir, ularni bir-biridan farqlash lozim. Sudlanuvchi, jabrlanuvchi, guvohlar ko‘rsatuvlarining sud tomonidan bevosita idrok qilinishi ularni og‘zaki usulda so‘roq qilishni nazarda tutadi.

Og‘zakilik protsess subyektlarining o‘zaro muloqotda bo‘lish shaklini belgilaydi va dalillarni tekshirish usuli hisoblanadi. Og‘zakilik prinsipiga ko‘ra ish uchun ahamiyatli bo‘lgan barcha materiallar, harakatlar, sud protsessida vujudga keladigan barcha savollar og‘zaki shaklda bayon qilinadi, muhokama etiladi yoki amalga oshiriladi, shuningdek sud o‘z hukmini ko‘rib chiqilgan hamda muhokama qilingan dalillar bilangina asoslaydi. Sudda og‘zaki bayon qilinmagan va muhokama etilmagan hujjatlar hukm uchun asos bo‘la olmaydi. Sud so‘roq qilinayotgan shaxslarning og‘zaki ko‘rsatuvlarini eshitishi, bayonnoma va boshqa hujjatlarni, taraflarning tushuntirishlari, iltimosnomalari va arznomalarini eshitishi va muhokama qilishi, taraflarning sudda chiqishini va sudlanuvchining so‘nggi so‘zini eshitishi, chiqarilgan qarorni e‘lon qilishi kerak. Sud muhokamasi – sudda og‘zaki so‘zlash shaklida ish yuritish demakdir.

Ko‘rilayotgan prinsipning amaliy ahamiyati shundan iboratki, u surishtiruvchi, tergovchi va sudga ish yuzasidan haqiqatni aniqlash imkonini ta‘minlaydi. Shu sababli qonun ayrim hollarda bu qoidadan chetga chiqishga ruxsat beradi. Jumladan, sud dastlabki tergovda so‘roq qilingan, lekin sud majlisiga kelmagan guvohlarning ko‘rsatuvlarini o‘qib eshittirish sharti bilan ularning ishtirokisiz ishni ko‘rishi mumkin.

Og‘zakilik prinsipi oshkoralik, sudda ishning milliy tilda yuritilishi, tortishuv va bevositalik, ishga doir holatlarning har tomonlama va to‘liq tekshirilishi hamda boshqa protsessual asoslarning izchillik bilan amalga oshirilishini ta‘minlaydi.

2.18. Protsessual harakatlar va qarorlar ustidan shikoyat qilish huquqi prinsipi

Davlat organlari va mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari (qarorlari)

ustidan sudga shikoyat qilish huquqi har bir shaxsga berilgan sud himoyasida bo‘lish konstitutsiyaviy huquq mazmunining tarkibiy qismi bo‘lganligi va jinoyat ishini yurituvchi davlat organlarining xatti-harakatlari va mansabdor shaxslarning qarorlari ustidan shikoyat qilish erkinligining kafolati sifatida e’tirof etilganligi tufayli protsessual harakatlar va qarorlar ustidan shikoyat qilish huquqi jinoyat protsessining asosiy prinsiplaridan biri sifatida belgilangan.

Jinoyat-protsessual qonuniga asosan surishtiruv organi, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudning harakati yoki qarori ustidan protsessning istalgan paytida shikoyat berishga jinoyat ishlari bo‘yicha ish yuritishning ishtirokchilari, shuningdek amalga oshirilayotgan protsessual harakat yoki qaror ularning manfaatlariga daxldor qismida boshqa shaxslar ham haqlidir. Ya’ni, jinoyat protsessida shikoyat qilish huquqiga ega bo‘lgan subyektlarining ro‘yxatiga nafaqat jinoyat ishlari bo‘yicha ish yuritishning ishtirokchilari, balki boshqa shaxslar ham kiradi. Shu bilan birga, agarda dastlabki tergov va ishni sudda ko‘rish jarayonida shaxsning huquqlari cheklab qo‘yilgan bo‘lsa, mazkur shaxsning shikoyat qilish huquqining ta’minlanishiga qonun o‘zining alohida e’tiborini qaratadi. Huquqni muhofaza qiluvchi organlarining mansabdor shaxslari jinoyat protsessi ishtirokchilarining shikoyat qilish huquqini tushuntirishga va uni amalga oshirish imkoniyatini ta’minlashga majburdirlar.

Protsess ishtirokchilari va boshqa shaxslar, shuningdek jinoyat ishini yuritishdan manfaatdor bo‘lgan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning vakillari Jinoyat-protsessual kodeksida belgilab qo‘yilgan tartibda va muddatda surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sudya va sudning protsessual harakati yoki qarori ustidan shikoyat berishga haqlidir.

Protsessning istalgan paytida iltimosnoma bildirish va shikoyat berish mumkin (O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 27-moddasi).

Protsessual harakatlar va qarorlar ustidan shikoyat qilish jinoyat protsessida inson va fuqaro huquqlari va erkinliklarini ta’minlashning muhim kafolati sifatida jinoyat protsessida qonuniylik (O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 11-moddasi), shaxsning sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilish (O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 17-moddasi), fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish (O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 18-moddasi), sudda ishlarni yuritishda tortishuv (O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 25-moddasi) kabi prinsiplar amal qilishini ta’minlaydi va barcha prinsiplarning o‘zaro aloqasi va mushtarakligini

mustahkamlaydi.



MAVZU BO‘YICHA XULOSALAR

Mazkur mavzuni o‘rganishda talabalar jinoyat protsessi prinsiplarining xalqaro hujjatlarda va tarmoq qonun hujjatlarida mustahkamlanishiga oid masalalarni ko‘rib chiqishlari; qiyosiy-huquqiy tahlil o‘tkazib, jinoyat ishlarini yuritishda amalga oshirishda ularning rolini aniqlashlari lozim.

MUAMMOLI SAVOLLAR VA KAZUSLAR

1. Jinoyat protsessining prinsiplari ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, mohiyati va vazifasiga ko‘ra guruhlarga bo‘linadi: **Jinoyat protsessi prinsiplarini tasniflab tahlil qiling.**

2. Aybsizlik prezumpsiyasi prinsipi jinoyat protsessining markaziy prinsipidir, zero aynan mazkur prinsip jinoyat ishlari yurituvchi tarixining eng muhim yutuqlaridan biri bo‘lib, jinoiy ta‘qib ostidagi shaxsning huquqlari kafolati hisoblanadi. **Aybsizlik prezumpsiyasining har bir kafolatini jinoyat protsessining boshqa prinsiplarga mantiqan bog‘lab tahlil qiling.**

1-kazus

Fuqaro Azimov o‘zaro janjal jarayonida Soliyevga sog‘lig‘ining buzilishiga sabab bo‘lgan yengil tan jarohati yetkazgan. Surishtiruvchi Soliyevning arizasini tekshirish natijasida yig‘ilgan materiallarni ko‘rib chiqib, Azimov Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati bo‘lganligi sababli jinoyat ishini qo‘zg‘atishni rad qilish haqida qaror chiqargan.

Qabul qilingan qaror qonuniymi? Ushbu holatni jinoyat protsessi prinsiplarini qo‘llash nuqtayi nazaridan tahlil qiling.

2-kazus

Sudda jabrlanuvchi Kimsanov shaxsiy hayotiga oid ma‘lumotlarni, sha‘ni, qadr-qimmatini kamsitadigan ma‘lumotlar oshkor bo‘lmasligi uchun ishni yopiq sud majlisida ko‘rib chiqishni so‘rab sudga murojaat qiladi. Jinoyat ishlari bo‘yicha tuman sudi jabrlanuvchining iltimosini qanoatlantirmaydi.

Sudning harakatlari to‘g‘rimi? Tegishli qonun normalariga havola qilib muhokama qiling.



MUSTAQIL ISH UCHUN TOPSHIRIQLAR

1. MDH davlatlarida va boshqa xorijiy davlatlarda jinoyat protsessi asosiy prinsiplarini ko‘rib chiqing. Ish shakli – nazorat ishi (esse).
2. Xorijiy davlatlarda odil sudlovni amalga oshirishda jamoatchilik ishtirokining shakllarini ko‘rib chiqing. Ish shakli – nazorat ishi (esse).
3. Turli davlatlarda sudyalar mustaqilligining kafolatlarini ko‘rib chiqing. Ish shakli – nazorat ishi (esse).

III BOB. JINOYAT PROTSESSINING ISHTIROKCHILARI

(Mualliflar – yuridik fanlar doktori, dotsent G.Z.Tulaganova, yuridik fanlar nomzodi, dotsent Sh.F.Fayziev, yuridik fanlar nomzodi, dotsent D.B. Bazarova)

Annotatsiya: Talabalar uchun mazkur mavzu o'rganilishi jinoyat protsessi ishtirokchilari tushunchasi va ularning klassifikatsiyasi; jinoyat ishlari yurituvda mas'ul bo'lgan davlat organlari va mansabdor shaxslar; jinoyat ishini yuritishda ishtirok etuvchi jamoat birlashmalari, jamoalar va ularning vakillari, jinoyat protsessida o'z manfaatlarini himoya qiladigan shaxslarning huquqiy holati; shuningdek jinoyat protsessida ishtirok etayotgan boshqa shaxslarning protsessual maqomi haqida ma'lumot olishga imkon beradi.

3.1. Jinoyat protsessi ishtirokchilari tushunchasi va ularning tasniflanishi

Jinoyat protsessining har bir ishtirokchisi o'ziga xos funktsiya, ya'ni o'z faoliyat yo'nalishini ifoda etuvchi xizmat burchini o'taydi. Ushbu funktsiyalarning xususiyati protsessning mazkur ishtirokchilari bajaradigan vazifalarga va ularning muhofaza qilinadigan manfaatlariga bog'liq holda belgilanadi.

Jinoyat protsessi ishtirokchilari deb, jinoyat sudlov ishlarini yuritishda qonun bilan belgilangan tartibda muayyan bir funktsiyani bajarishga yo'naltirilgan va qonun bilan tegishli huquq va majburiyatlarga ega bo'lgan davlat organlari, mansabdor shaxslar va fuqarolarga aytiladi.

Amaldagi jinoyat protsessual qonunchilikka ko'ra jinoyat sudlov ishlarini yuritish ishtirokchilarini quyidagicha tasniflanadi.

1. Jinoyat ishini yuritishga mas'ul bo'lgan davlat organlari va mansabdor shaxslar: a) sud (28-modda); b) prokuror (33-modda); v) tergovchi (35-modda); g) tergov boshqarmasi, bo'limi, bo'linmasi, guruhi boshlig'i va uning o'rinbosari (37-modda); d) surishtiruv organlari (38-modda);

2. Jinoyat protsessida o'z moddiy, ma'naviy va shaxsiy manfaatlarini himoya qiladigan ishtirokchilar: a) ayblanuvchi (45-modda); b) gumon qilinuvchi (46-modda); v) jabrlanuvchi (54-modda); g) fuqaroviy da'vogar

(56-modda); d) fuqaroviy javobgar (58-modda);


3. O'z galar manfaatini himoya qiladigan ishtirokchilar: a) himoyachi (49-modda); b) guvoh advokati (66¹-modda); v) qonuniy vakil (60-modda); g) vakillar (62-modda).

4. Jamoatchilik nomidan ishtirok etuvchi: a) jamoat birlashmalari, jamoalar va ularning vakillari (40-41-moddalar); b) jamoat ayblovchilari (43-modda); v) jamoat himoyachilari (44-modda).

5. Jinoyat sudlov ishlarini samaradorligini oshirishga yordam beruvchi ishtirokchilar: a) guvoh (65-modda); b) ekspert (67-modda); v) tarjimon (71-modda); g) xolis (73-modda); d) mutaxassis (69-modda); ye) sud kotibi (32-modda).

Umuman olganda, jinoyat protsessi ishtirokchilari o'z vakolat doiralarida jinoyat ishlari yurituv faoliyatini aniq va o'z vaqtida bajarilishiga xizmat qiladilar.

Jinoyat protsessining ishtirokchilari ularga qo'yilgan vazifalarga, muhofaza qiladigan yoki qilinadigan manfaatlariga ko'ra quyidagi guruhlariga bo'lib, **tasniflanadi.**



3.2. Jinoyat ishini yuritishga mas'ul bo'lgan davlat organlari va mansabdor shaxslar

Jinoyat ishlari yurituviga mas'ul bo'lgan davlat organlari va mansabdor shaxslar ichida sud markaziy o'ringa ega subyektdir. Zero, aynan sud odil sudlov funksiyasini amalga oshirib, jinoyat hodisasi yuzasidan yakuniy qarorni qabul qiladi.

Bugungi kunda sud-huquq islohotlari jarayonida ishlarni sudda ko'rishning bir muncha takomillashtirilgan protsessual tartibi joriy etildi, sud kadrlarini tanlash va lavozimga tayinlash borasida ancha samarali tizimga asos solindi, sud oldida protsess ishtirokchilarining tengligi qonun bilan mustahkamlandi.

Sudyalar mustaqildirlar, faqat qonunga bo'ysunadilar. Sudyalarning daxlsizligi qonun bilan kafolatlanadi.
(O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 112-moddasi).

Mustaqil sud to'g'risidagi talab - har bir insonning huquqi demakdir.
(Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasining 10-moddasi)

O'zbekiston Respublikasida jinoyat ishlari bo'yicha odil sudlovni O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasi jinoyat ishlari bo'yicha Oliy sudi, jinoyat ishlari bo'yicha viloyatlar, Toshkent shahar, tuman (shahar) sudlari va harbiy sudlar amalga oshiradi.


Sudlarda ishlar hay'at hamda yakka tartibda ko'riladi. Jinoyat ishini ko'rib chiqishda sudning tarkibida saylangan va tayinlangan sudyalar va xalq maslahatchilari ishtirok etadilar.

Birinchi instansiya sudi jinoyat ishi bo'yicha hukm yoki ajrim chiqarish huquqiga ega. Apellyatsiya instansiyasi sudi birinchi instansiya sudining qonuniy kuchga kirmagan hukmlari va ajrimlari ustidan berilgan shikoyat va protestlar bo'yicha ishlarni ko'rib, ajrim chiqaradi. Kassatsiya instansiyasi sudi birinchi instansiya sudining qonuniy kuchga kirgan hukmlari va ajrimlari ustidan berilgan shikoyat va protestlar bo'yicha ishlarni ko'rib, ajrim chiqaradi. Nazorat instansiyasi sudi birinchi instansiya sudining hukmlari va ajrimlari ustidan berilgan protestlar bo'yicha ishlarni ular apellyatsiya yoki kassatsiya tartibida ko'rib chiqilganidan keyin ko'rib, qaror (ajrim) chiqaradi. Bundan tashqari, yuqori sudlar o'z vakolatlari doirasida quyi sudlarning sudlov faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradilar.

Sud hokimiyati o‘z vakolatini jinoyat protsessida ishni mazmunan ko‘rish, hal qilish va hukm, ajrim va qarorlarning umumiyliqi, asosliligi va adolatligini tekshirish ishlarini yuritish orqali amalga oshiradi.

Sudning vakolatlari

- qamoqqa olish yoki uy qamog‘i tarzidagi ehtiyot chorasini qo‘llash
- qamoqda saqlash yoki uy qamog‘i muddatini uzaytirish masalalari bilan bog‘liq iltimosnoma, shikoyat va protestni ehtiyot chorasini qo‘llash to‘g‘risida ajrim chiqargan sudni albatta xabardor qilgan holda ko‘rib chiqish;
- ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish to‘g‘risidagi, shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish haqidagi yoki ayblanuvchining tibbiy muassasada bo‘lishi muddatini uzaytirish to‘g‘risidagi iltimosnomalarni ko‘rib chiqish;
- prokurorning amnistiya aktiga asosan jinoyat ishini qo‘zg‘atishni rad qilish to‘g‘risidagi yoki jinoyat ishini tugatish haqidagi yoxud mahkumni jazodan ozod qilish to‘g‘risidagi iltimosnomasini ko‘rib chiqish;
- jinoyat ishini sud muhokamasiga tayyorlash;
- ishni muhokama qilish va hukm chiqarish yoki boshqa qaror qabul qilish;
- ishni apellyatsiya, kassatsiya, nazorat tartibida ko‘rib chiqish;
- hukmni ijro ettirish kiradi.
- yuqori sudlar, bundan tashqari, o‘z vakolatlari doirasida quyi sudlarning sudlov



Sud faoliyati mustaqil va faqat O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga hamda uning asosida qabul qilingan qonunlarga asosan, oshkoralik, taraflar tortishuvi va aybsizlik prezumpsiyasi kabi prinsiplarga va jinoyat protsessining boshqa demokratik asoslariga tayanadi.

Sud muhokamasiga tuman (shahar) sudining raisi shaxsan o'zi raislik qiladi yoki raislik qilish uchun sudyani tayinlaydi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi, viloyatlar, Toshkent shahar sudlarining sud majlislarida sud raisi yoki uning tanlovi bo'yicha rais o'rinbosari, sud hay'atining raisi yoki uning tayinlovi bo'yicha tegishli sudning sudyasi raislik qiladi. Sud majlisida raislik qiluvchining rahbarligi sud protsessining tarbiyaviy ahamiyatini ta'minlab, ish holatlarini tartibli ravishda ko'rib chiqishga imkoniyat yaratadi. Sud muhokamasida raislik qiluvchining aniq harakatlari, xalq maslahatchilari va taraflar bilan fikrlashuvi protsessual qonun talablariga qat'iy rioya qilgan holda ish olib borishi, qonunga e'tiqod va e'tirof bilan yondashuvi protsess ishtirokchilaridan ham shuni talab qilish uchun zamin hozirlaydi. Sud ishni ko'rishda uni har tomonlama, to'la va xolisona tekshirilishini ta'minlash choralarini ko'rish, sudlanuvchining aybini yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlarni aniqlashi, shuningdek ish yuzasidan haqiqatni aniqlash uchun faqatgina jinoyat ishi materiallari va dalillar bilangina chegaralanib qolmay o'z tashabbusi bilan dalillar to'plashi va tekshirishi lozim.

Sud tarkibi ishni to'la tekshirish uchun qo'shimcha dalillar to'plash, hujjatlarni talab qilib olish, ish yuzasidan sudlanuvchi, jabrlanuvchi, guvoh, mutaxassis va ekspertni so'roq qilish, ariza va iltimoslarni qabul qilish, tanaffus e'lon qilish, qidiruv e'lon qilish, ish yuzasidan kelmagan jabrlanuvchi va guvohlarni majburiy keltirish, sud muhokamasi paytida tartibni buzganlarga va sudga hurmatsizlik qilganlarga nisbatan choralar ko'rish huquqiga ega.

Sud tarkibiga sud muhokamasida bo'lgan ishning barcha holatlarini har tomonlama, to'la va xolisona tekshirish, iltimos va arizalarni ko'rib chiqib, sudning qarorini e'lon qilish, ishtirokchilarni tarjimon bilan ta'minlash, qonunga so'zsiz bo'ysunish, obyektiv haqiqatni aniqlash, sudlanuvchi shaxsni qonun asosida aybdor deb topib, unga nisbatan jazo belgilash, sud muhokamasida tilga e'tibor berish, sud muhokamasining bevositaligi, og'zakligi va oshkoraligini ta'minlash, zarur hollarda yopiq sud majlisi o'tkazish, sud muhokamasining tarbiyaviy ta'sirini kuchaytirish va sud ishtirokchilarining sudga bo'lgan hurmatini oshirish majburiyatlari yuklatiladi.

Sud (sudya va xalq maslahatchilari) ning jinoyat ishlarini hay'atda va yakka tartibda ko'rib chiqish tartibi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 13-moddasida batafsil o'z ifodasini topgan. Ushbu moddada ish birinchi instansiya sudi tomonidan hay'atda ko'rilganda sud tarkibiga sudya va ikki nafar xalq maslahatchisi kiradi. O'zbekiston

Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 30-moddasiga ko‘ra, jinoyat ishini ko‘rishda ushbu sud tarkibiga tayinlangan yoki saylangan sudyalari va xalq maslahatchilari qatnashadilar. Sud hay‘atida ikki nafar xalq maslahatchilarining ishtirok etishi aholini odil sudlovga jalb etish vositasi sifatida tan olinadi. Sud maslahatchilari birinchi instansiya sudi tomonidan jinoyat ishi ko‘rilganda bevosita ishtirok etadilar. Ular sud muhokamasida kelib chiqadigan muammolar, turli protsessual va hukmga oid masalalarni hal etishda bevosita sudya bilan birgalikda ishtirok etadilar va o‘z fikr-mulohazalarini sudyaga yetkazadilar. Agar xalq maslahatchisining fikri raislik qiluvchi sudyaning fikriga mos kelmasa, raislik qiluvchi ushbu fikrining noto‘g‘riligini tushuntirib berishi shart.

Xalq maslahatchisi etib O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi yigirma besh yoshdan kichik bo‘lmaganda yashash yoki ish joyidagi yig‘ilishlarda ikki yarim yilga, harbiy xizmatni o‘tayotgan bo‘lib, saylov kuniga o‘n sakkiz yoshga to‘lgan bo‘lsa bir yarim yil muddatga saylanishi mumkin.

Xalq maslahatchilari sudlardagi vazifalarni bajarish uchun yiliga ko‘pi bilan ikki haftaga navbatma-navbat chaqiriladi, ularning ishtirokida boshlangan sud ishini ko‘rishni tugallash zarurati bu muddatni uzaytirishni taqozo etgan hollar bundan mustasno. Shu davrda ularning ish joyidagi o‘rtacha ish haqi saqlanib qoladi. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 15-moddasining ikkinchi va uchinchi qismlarida nazarda tutilgan jinoyatlar to‘g‘risidagi ishlardan tashqari ishlar birinchi instansiya sudi tomonidan ko‘rilayotganda xalq maslahatchilari ishtirok etadilar va ular odil sudlovni amalga oshirishda sudyaning barcha huquqlaridan foydalanadilar. Sud majlisida ishni ko‘rib chiqish jarayonida kelib chiqadigan hamma masalalarni hal qilishda va hukm chiqarishda raislik qiluvchi bilan teng huquqqa egadirlar. Shuningdek, ularga sudya bilan teng majburiyatlar yuklangan. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi bundan mustasno tarzida birinchi instansiyada ishlarni uch nafar sudyadan iborat tarkibda ko‘rib chiqadi.

Sudya yakka o‘zi yoki sud tarkibida ish yuritib, ishni sud muhokamasiga tayyorlash bilan bog‘liq harakatlarni bajaradi, sud majlisida raislik qiladi va O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida nazarda tutilgan boshqa huquq va majburiyatlarni amalga oshiradi. Jinoyat ishini ko‘rishda ushbu sud tarkibiga tayinlangan yoki saylangan sudyalari va xalq maslahatchilari qatnashadilar.

Prokuror O‘zbekiston Respublikasi «Prokuratura to‘g‘risida»gi Qonunining 3-bobida ko‘rsatilgan qoidalarga binoan jinoyatchilikka qarshi kurash olib boruvchi organlar ustidan prokuror nazorati va ularning faoliyatini muvofiqlashtirish amalga oshiriladi. Ushbu vazifa prokuratura faoliyatining asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 382-moddasiga muvofiq, prokuror surishtiruv, dastlabki tergov organlari tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshirib, o‘z vakolati doirasida: surishtiruv va dastlabki tergov organlaridan ishlarni tekshirish uchun, sodir etilgan jinoyatlarga oid tezkor-qidiruv, surishtiruv, dastlabki tergov ishlarini olib borilishiga doir hujjatlarni, materiallarni va boshqa ma‘lumotlarni talab qilib oladi, sodir etilgan yoki tayyorlanayotgan jinoyatlar haqidagi ariza va ma‘lumotlarni qabul qilish, ro‘yxatdan o‘tkazish va hal etish to‘g‘risidagi qonun talablari qay darajada ijro etilayotganligini har oyda kamida bir marta tekshiradi; tergovchilarning qonunga xilof hamda asossiz qarorlarini bekor qiladi; jinoyatlarni tergov qilish, qamoq yoki uy qamog‘i ehtiyot chorasi hamda lavozimdan chetlashtirish, tibbiy muassasaga joylashtirish kabi protsessual majburlov choralarini qo‘llash yuzasidan iltimosnoma qo‘zg‘atish, o‘zgartirish yoki bekor qilish, jinoyat tavsifini belgilash, ishda ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish, ayrim tergov harakatlarini bajarish va jinoyat sodir etgan shaxslarni qidirish to‘g‘risida yozma ko‘rsatmalar beradi; shaxslarni ushlab, majburiy keltirish, qidirish, tintuv o‘tkazish, olib qo‘yish, boshqa tergov harakatlarini bajarish to‘g‘risidagi qarorlarni ijro etishni topshiradi, shuningdek prokuror yoki prokuratura tergovchisi qo‘lidagi ishlar yuzasidan jinoyatlarni ochish va jinoyat sodir etgan shaxslarni aniqlash uchun zarur choralar ko‘rish to‘g‘risida ko‘rsatmalar beradi; dastlabki tergovda ishtirok etadi hamda zarur hollarda har qanday ish bo‘yicha ayrim tergov harakatlarini shaxsan bajaradi yoki tergovni to‘liq amalga oshiradi; jinoyat-protsessual qonunda belgilangan tartibda tergov yuritish muddatini uzaytiradi; ishlarni dastlabki tergov organlariga qo‘shimcha tergov o‘tkazish to‘g‘risida o‘z ko‘rsatmalari bilan qaytaradi; har qanday ishni surishtiruv organlaridan olib tergovchiga beradi, shuningdek uni bir dastlabki tergov organidan boshqasiga, bir tergovchidan boshqasiga o‘tkazadi; tergovchini, agar u ishning tergov chog‘ida qonun buzilishiga yo‘l qo‘ygan bo‘lsa, dastlabki tergov ishlarini davom ettirishdan chetlatadi. Prokurorning O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida nazarda tutilgan tartibga muvofiq dastlabki tergov organlariga tergovga qadar tekshirish o‘tkazish, ishlarni qo‘zg‘atish va tergov qilish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha ko‘rsatmalarini bajarish

majburiydir.

Surishtiruv va dastlabki tergov organlari tomonidan qonunlarni ijro etilishi ustidan **prokuror nazorati** - bu qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratning bir qismi bo'lib, jinoyat sodir etilganligi to'g'risidagi ariza va xabarlarni ko'rish hamda hal qilish, tekshirishni amalga oshirishning JPKda belgilangan tartibi, chiqarilgan qarorlarning qonuniyligi dastlabki tergov organlari tomonidan qonunlar ijro etilishi ustidan olib boradigan nazoratining sohasidir.

Protsessual va tergov harakatlari ustidan prokurorlik nazoratining vazifalarini quyidagi qoidalardan kelib chiqqan holda tahlil qilish mumkin: jinoyat sodir etishda gumon qilingan shaxslar faqat qonunda ko'rsatilgan tartib va asoslardagina ushlanishi lozim; hech kim noqonuniy va asoslanmagan ravishda jinoiy javobgarlikka tortilishi va huquqlari cheklanmasligi kerak; hech bir shaxs sudning ajrimisiz qamoqqa olinishi mumkin emas; jinoyat ishi qo'zg'atishning va tergov olib borishning qonunda ko'rsatilgan tartibiga, uning muddatlariga rioya etish va protsess ishtirokchilari huquqlarining himoyasiga e'tibor qaratishi shart; har bir jinoyat ishi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida ko'rsatilgan me'yorlarga asosan barcha sharoitlar hisobga olinib, har tomonlama, to'la va xolisona, ayblanuvchining aybliligi va aybsizligini isbot qiladigan, aybni og'irlashtiradigan va yengillashtiradigan barcha holatlar aniqlanib, tergov qilinishi shart; sodir etilgan jinoyatning sabablari, uni sodir etishga zamin tayyorlagan sharoitlar aniqlanib, ularni bartaraf etish choralari ko'rilishi kerak.

Bundan tashqari, prokuror yoki uning o'rinbosari ko'p voqeali jinoyat ishlari bo'yicha ayblovni ayrim voqealari yuzasidan muayyan shaxsga nisbatan to'plagan dalillarni ayblov xulosasi tuzish uchun yetarli deb e'tirof etsa, shu voqealar bo'yicha tergovni tamomlash va ishni sudga yuborish haqida yozma ko'rsatma berishga haqli (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 383-moddasi). Bir mansabdor shaxsga turli shakldagi bunday vakolatlarning berilishi prokurorning dastlabki tergov bosqichidagi protsessual holatining o'ta murakkab ekanligini ko'rsatadi, tergov natijalari uchun javobgarlik uning zimmasiga yuklatilgan.

Prokuror surishtiruv va dastlabki tergov bosqichlarida

O‘zbekiston Respublikasi qonunlarining aniq va bir xilda ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi hamda birinchi, ikkinchi, uchinchi instansiya sudlarida ishtirok etadi.

Prokurorning vakolatlari

Prokuror surishtiruv va dastlabki tergov bosqichlarida qonunning buzilishini, kim tomonidan sodir etilganligidan qat'i nazar, bartaraf etish uchun qonunda nazarda tutilgan chora-tadbirlarni o‘z vaqtida ko‘rishi shart.

- Prokuror surishtiruv va dastlabki tergov bosqichlarida JPKning 243, 382-388, 558-moddalarida nazarda tutilgan vakolatlarni amalga oshiradi.
- Prokuror sud muhokamasida qatnashib, JPKning 409-moddasida nazarda tutilgan vakolatlarni amalga oshiradi.
- Prokuror apellyatsiya, kassatsiya va nazorat instansiya sudlarida JPKning 497²-497¹⁸, 498-509, 510-527 moddalarida nazarda tutilgan vakolatlarni amalga oshiradi.

Prokuror sudda taraf sifatida ishtirok etib, uning vazifasi – davlat ayblovni qo‘llab-quvvatlash va sud oldida ayblanuvchining aybini tasdiqlovchi dalillarni to‘plash, o‘zining ayblov xulosalarini sud oldida isbotlab berish, sudlanuvchiga nisbatan tegishli jazo tayinlash so‘rash. Ayblovni quvvatlash yoki sud muhokamasida isbotlanmagan bo‘lsa, ayblovdan voz kechish – bu prokurorning suddagi ishtirokining asosiy mazmunini tashkil etib, uning sud muhokamasining qatnashchisi sifatidagi protsessual holatini aniqlab beradi.

Prokurorning suddagi ishtiroki sudga dalillarni har tomonlama, to‘la va xolisona tahlil etishga, jinoiy javobgarlikka tortilayotgan shaxsning aybli yoki aybsiz ekanligini isbotlashga, sodir etilgan jinoyatning to‘g‘ri malakalanishiga, shaxsga nisbatan adolatli jazo tayinlanishi yoki uni

jazodan ozod qilinishiga yordam beradi.

Prokuror jinoyat ishlari bo'yicha sudlarda ishtirok etib, o'z vakolatlari doirasida: sudyaning jinoyat ishini sud muhokamasiga tayyorlash to'g'risidagi qarorining qonuniyligiga e'tibor beradi; sudda davlat ayblovini qo'llab-quvvatlaydi; sud muhokamasi davrida yuzaga kelgan masalalar yuzasidan o'z fikr va xulosalarini beradi; agar davlat, jamiyat va fuqarolarning manfaatlarini himoyalash talab etilsa, da'volar keltiradi va ularni sudda himoya qiladi; sudning asoslanmagan va noqonuniy qarorlari, ajrimlari ustidan protest keltiradi; protest yoki shikoyatlar bo'yicha ko'rilayotgan apellyatsiya, kassatsiya va nazorat tartibidagi sudlarga o'z xulosalarini taqdim etadi; sudlarning hukm, qaror va ajrimlarining qonuniyligi va muddatlarini tekshiradi; sudlarning hukm, ajrim va qarorlarining bajarilishi ustidan nazorat olib boradi; hukm, ajrim va qarorlar qonun tomonidan nazorat tartibida qayta ko'rib chiqiladigan holatlarda, yangi ochilgan holatlar bo'yicha jinoyat ishi qayta tiklanadigan hollarda kerakli choralarni ko'radi.

Prokurorning sud muhokamasidagi ayblov nutqi quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi: jinoyatga ijtimoiy-siyosiy, huquqiy-psixologik baho berish; ishning haqiqiy holatlarini bayon qilish; dalillarni tahlil qilish va ularga baho berish; qilmishga berilgan yuridik kvalifikatsiyani asoslash; sudlanuvchini shaxsini tavsiflash; aybdorning aybini yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlarni tahlil qilish va ularga baho berish; jinoyatlarni sodir etilishiga sabab bo'lgan shart-sharoitlarni tahlil qilish va ularni bartaraf qilish choralarni taklif qilish tayinlanishi lozim bo'lgan jazoga, undirilishi lozim bo'lgan fuqarolik da'vosiga, jinoyat tufayli yetkazilgan moddiy zararni undirishga va shunga o'xshash masalalar yuzasidan o'z fikrini bildirish.

Prokuror albatta har qanday jinoyat ishi bo'yicha shu ko'rsatilgan tartibda ayblov nutqini tuzishi shart emas. Jinoyat ishining o'ziga xos xususiyatlariga, jinoyat ishi bo'yicha to'plangan materiallarning tuzilishiga qarab ayblov nutqining qayd etilgan elementlari mazmuni va butun hajmi aniq voqea holatlari ta'sirida o'zgarishi mumkin.

Lekin prokurorning davlat ayblovini qo'llab-quvvatlash faoliyati asosan sud jarayonida namoyon bo'ladi topadi. Apellyatsiya, kassatsiya va nazorat tartibida sud qarorlarining qonuniyligi va asoslanganligini tekshirish bosqichida ish yuritilishida prokuror markaziy o'rinlardan birini egallaydi. Zero, u jinoyat protsessining ishtirokchisi sifatida o'z vakolatlari doirasida birinchi instansiya sudlarining qarorlari, ajrimlari ustidan keltirgan protestlari ishning yuqori instansiya sudlarida ko'rilishiga sabab

bo‘ladi. Yuqori instansiya sudlarida ham prokuror asosan davlat ayblovini va o‘zi keltirgan protestning qonuniyligini asoslab berishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, prokuror jinoyat protsessining eng faol ishtirokchilaridan biri bo‘lib, faqat u jinoyat ish yurituvining barcha bosqichlarida, ya’ni jinoyat ishini qo‘zg‘atish bosqichidan to sud hukmi kuchga ijroga qaratilgunga qadar ishtirok etadi. Shu bilan birga uning protsessual holati ham turli bosqichlarda turlicha ko‘rinishga ega bo‘ladi.

Jinoyat ishi bo‘yicha **dastlabki tergovni** amalga oshirish vakolatiga ega organlar prokuratura, ichki ishlar va milliy xavfsizlik xizmati tergovchilari (ayrim hollarda prokuror) hisoblanadi.

Dastlabki tergov organlari prokuratura, ichki ishlar va milliy xavfsizlik xizmati tergovchilari (ayrim hollarda prokuror) hisoblanadi. Tergovchi dastlabki tergov bosqichida tergovning o‘z vaqtida va sifatli olib borilishi uchun mas’ul bo‘lgan asosiy shaxs hisoblanadi. Uning huquq va majburiyatlari doirasi qonun bilan belgilangan.

Tergovchi – dastlabki tergov bosqichida qonuniylik va fuqarolar huquq va erkinliklarini ta'minlash, jinoyat sodir etgan har bir shaxsning jazosiz qolmasligi va hech bir aybsiz shaxsning jinoiy javobgarlikka tortilishiga yo‘l qo‘yilmasligi uchun qonunni to‘g‘ri qo‘llashga mas’ul bo‘lgan jinoyat protsessining ishtirokchisidir.

Jinoyat ishining xususiyati va mazmuni, bosqichi va murakkablik darajasi, malakalanishi va tergovchining tajribasidan kelib chiqqan holda tergovchi, katta tergovchi, o‘ta muhim ishlar bo‘yicha tergovchi va o‘ta muhim ishlar bo‘yicha katta tergovchi lavozimini egallashi mumkin. Tergovchi gumon qilinuvchilarni ushlab turish, jinoyat ishini qo‘zg‘atishga va tugatishga, ishni qo‘zg‘atishni rad etishga ularga nisbatan ehtiyot choralarini tanlash haqida qaror qabul qilishga, qamoqqa olish to‘g‘risidagi iltimosnoma berishga, ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish to‘g‘risida, shaxsni tibbiy muassaga joylashtirish haqida iltimosnoma berishga, mazkur protsessual majburlov choralarini O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida belgilangan tartibda bekor qilishga, shaxsni ayblanuvchi tariqasida ishga jalb etish va ayb e’lon qilish hamda ayblov xulosasini tuzish va O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 36-moddasida belgilangan vakolatlariga ega. Eng muhimi tergovchi bu vakolatlarini to‘la, har tomonlama va xolisona bajarishi shart. Tergovchining mustaqilligi va mas’uliyat doirasi tamoyili u bajaradigan funksiyalarning asosida yotadi. Bu tamoyil tergovchi dastlabki tergov

davomida amalga oshiradigan jinoyat holatlarini o'rganish va hal qilishda yaqqol namoyon bo'ladi. Aynan ish holatlarini o'rganish jinoyat ishi bo'yicha oraliq va yakuniy qarorlarni chiqarish va ayblov yoki himoya uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Tergovchining ba'zi vazifalari ma'lum bir jinoyat ishini ko'rib chiqishda bajarilmasligi ham mumkin (masalan, moddiy zarar qoplanishini ta'minlash, agar jinoyat moddiy zarar keltirish bilan bog'liq bo'lmasa). Ma'lum bir vazifaning amalga oshirilishini jinoyat ishini o'rganib chiqmasdan turib aniqlash mushkul. Tergovchining faoliyati bir qator harakatlar va qarorlardan iborat bo'lib, u qonun talablariga muvofiq jinoyat ishini sifatli va o'z vaqtida ko'rib chiqishni taqozo etadi. Tergovchining shaxsiy mas'uliyati u amalga oshiradigan barcha harakatlar, yechim va qarorlariga tegishlidir. Tergovchiga protsessual mustaqillikni, ya'ni qonunga asoslangan holda va o'z ichki ishonchidan kelib chiqib ish holatlarini har tomonlama, to'liq va xolisona ko'rib chiqish uchun mustaqil harakat qilish imkoniyatini ta'minlash lozim. Tergovchi mustaqilligining chegarasi unga berilgan vakolatlar doirasi orqali belgilanadi. Tergovchi o'z vakolatlarini amalga oshirish davomida fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilishga so'zsiz rioya qilishi lozim.

Qaysi organga tegishliligidan qat'i nazar har qanday tergovchi o'zining faoliyati va yo'nalishlari mazmuni bilan bog'liq bo'lgan qonun talablariga rioya qilishi shart. U har bir jinoyat tez va to'la tergov qilishi, har bir jinoyat sodir etgan shaxs adolatli jazoga tortilishi va aybi bo'lmagan har qanday shaxs jinoiy javobgarlikka tortilmasligi, sudlanmasligi to'g'risidagi qonun talablarini bajarilishini ta'minlashi kerak.

Amaliyotdan misol: Kuzgi yig'im-terimda hasharga chiqqan qurilish kolleji talabalari Safarov, Latipov bilan shu yerda yashovchi Parpiyev va Toxirovlar o'rtasida o'zaro janjal chiqadi. Kollej o'qituvchisi bu kelishmovchilikni bartaraf qilib, yoshlarni kelishtirib qo'yadi. Yarim kechada Parpiyev va Toxirovlar ov miltig'i bilan kollej talabalari joylashgan bino derazalariga o'q uzadilar. Faqat baxtli hodisa tufayli hech kim zarar ko'rmaydi. Parpiyev va Toxirovlar jinoiy javobgarlikka tortiladilar. Safarov va Latipovlar tergovchidan o'zlarini jabrlanuvchi deb e'tirof etishni so'raydilar. Tergovchi bu talabni rad etadi.

Prokurorning ko'rsatmalari faqat yozma ravishda berilgan bo'lsa, tergovchi uchun majburiy (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 37-moddasi 3-qismi, 382-moddasi 3-qism 3-bandi, 4-qismlari). Bu texnik talab emas, balki protsessual-huquqiy talab bo'lib, uning ma'nosi shundaki, prokuror tergovchiga o'z ko'rsatmalarini yozma ravishda tuzib, shu bilan ularning qonuniyligi va asosliliigi hamda tergovchi tomonidan ularning bajarilishi natijasida kelib chiqqan oqibat uchun ham javobgar bo'ladi. Prokurorning yozma ko'rsatmalari protsessual hujjat sifatida ishga qo'shib qo'yiladi.

Tergov bo‘limining rahbari ham dastlabki tergovni olib borish huquqiga ega. Tergovchining faoliyati ustidan tashkiliy-protsessual rahbarlikni amalga oshiruvchi shaxslar ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 37-moddasida belgilangan: tergov boshqarmasi, bo‘limi, bo‘linmasi, guruhi boshlig‘i va uning o‘rinbosari. O‘zining mazmuni va hajmiga ko‘ra ularning vakolatlari murakkab xarakterga ega. Bu vakolatlar, birinchi tarafdin tergov bo‘linmasining boshlig‘iga tegishli bo‘lib, ular tergovchining faoliyatini boshqarish va nazorat qilishni ko‘zda tutsa, ikkinchi tarafdin tergov bo‘limi boshlig‘i jinoyat ishini shaxsan tergov qilish vaqtida foydalanadigan tergovchining vakolatlaridir. Tergovchi o‘z faoliyatida mustaqil bo‘lsa-da, unga tergov boshqarmasi (bo‘limi) boshlig‘i rahbarlik qiladi. Ichki ishlar va milliy xavfsizlik xizmati organlarida tergov boshqarmasi boshlig‘i alohida mansabdor shaxslar bo‘lsa, prokuratura idoralarida tergov boshqarmasi boshlig‘i prokuror hisoblanadi. Tergov boshqarmasi, bo‘limi, bo‘linmasi, guruhning boshlig‘i va uning o‘rinbosari o‘z vakolatlari doirasida jinoyatlarni ochish va ularni oldini olish yuzasidan tergovchilarning o‘z vaqtida harakat qilishini nazorat qilib turadilar, jinoyat ishlari bo‘yicha dastlabki tergovni to‘la, xolisona va har tomonlama olib borish choralari ko‘radilar. Tergov organining boshlig‘i va uning o‘rinbosari ishlarni tekshirib ko‘rishga, shuningdek dastlabki tergov o‘tkazish, shaxsni ishda ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb etish, jinoyatni tavsif qilish va ayblovning hajmi hamda ishning yo‘nalishini belgilash, ayrim tergov harakatlarini o‘tkazish haqida tergovchiga ko‘rsatmalar berishga, ishni bir tergovchidan ikkinchisiga topshirishga, shuningdek tergovchini vakolatlaridan foydalanib, dastlabki tergovni olib borishda qatnashishga va dastlabki tergovni shaxsan o‘zi olib borishga haqlidir. Tergov organi boshlig‘i va uning o‘rinbosari ish yuzasidan tergovchiga bergan yozma ko‘rsatmalari tergovchi uchun majburiydir.

Shu bilan birga, tergov boshqarmasi (bo‘lim) boshlig‘i o‘z qarorlari bilan tergovchining qarorlarini bekor qila olmaydi, bunday huquq faqat prokurorga berilgan. Agar jinoyat ishi ko‘p mehnat talab qilsa va juda murakkab bo‘lsa, dastlabki tergov tergovchilar guruhi tomonidan ham olib borilishi mumkin. Bu hollarda prokuror yoki tergov bo‘limining boshlig‘i ushbu ish bo‘yicha dastlabki tergov yuritishni doimiy yoki maxsus tuzilgan tergov guruhiga topshirishi mumkin. Tergovchilar guruhi ustidan rahbar tayinlanadi va u ham tegishli vakolatlarga ega.

Demak, jinoyat protsessida dastlabki tergovni olib borishga vakolatli organlar va mansabdor shaxslar ro‘yxati keng hamda ular tergovni

muvaffaqiyatli olib borishlari uchun qonunda belgilangan ko'plab vakolatlardan foydalanadilar.

Jinoyat ishini yuritishga mas'ul bo'lgan davlat organi va mansabdor shaxslarning qatoriga **surishtiruv organlari** ham kiradi.

Surishtiruv organlarining ayrimlari (IIV, MXX, davlat bojxona xizmati organlari, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliq, valyutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamenti va uning joylardagi bo'linmalari) jinoyatning oldini olish, unga yo'l qo'ymaslik, aniqlash va uni ochish, jinoyat sodir qilgan shaxslarni ushlab maqsadida tezkor-qidiruv choralari ko'rishga haqlidirlar.

Jinoyat-protsessual kodeksining 38-moddasida belgilangan quyidagilar surishtiruv organi hisoblanadi.

1) militsiya;

2) harbiy qismlar, qo'shilmalarning komandirlari, harbiy muassasalar va harbiy o'quv yurtlarining boshliqlari — ularga bo'ysunuvchi harbiy xizmatchilar, shuningdek o'quv mashqlari o'tkazilayotgan vaqtda harbiy xizmatga majburlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarga doir ishlar bo'yicha; O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari xodimlarining xizmat majburiyatini bajarish bilan bog'liq jinoyatlari yoki qism, qo'shilma, muassasa yo o'quv yurti joylashgan yerda sodir etgan jinoyatlariga doir ishlar bo'yicha;

3) milliy xavfsizlik xizmati organlari — qonunga ko'ra ularning yuritishiga berilgan ishlar bo'yicha;

4) O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi jazoni ijro etish tizimini boshqarish organlarining boshliqlari, qamoq tarzidagi jazoni ijro etish muassasalarining, jazoni ijro etish koloniyalari, tarbiya koloniyalari, tergov hibsonalari hamda turmalarning boshliqlari — shu muassasalar xodimlari xizmatni o'tashning belgilangan tartibiga qarshi qilgan jinoyatlarga doir ishlar, xuddi shuningdek mazkur muassasalar hududida sodir etilgan boshqa jinoyatlarga doir ishlar bo'yicha;

5) davlat yong'indan nazorat qilish organlari — yong'inlarga doir va yong'inga qarshi qoidalarni buzganlikka doir ishlar bo'yicha;

6) chegarani qo'riqlash organlari — davlat chegarasini buzganlikka doir ishlar bo'yicha;

7) olis safarda bo'lgan dengiz kemalarining kapitanlari;

8) davlat bojxona xizmati organlari, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliq, valyutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamenti va uning

joylardagi bo‘linmalari — tegishincha bojxona, soliq va valyuta to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlikka doir ishlar bo‘yicha;

9) O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Sud qarorlarini ijro etish, sudlar faoliyatini moddiy-texnika jihatidan va moliyaviy ta‘minlash departamenti hamda uning hududiy boshqarmalari — voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni, ota-onani moddiy ta‘minlashdan bo‘yin tovlashga, sud qarorini bajarmaslikka, shuningdek band solingan mol-mulkni qonunga xilof ravishda tasarruf etishga doir ishlar bo‘yicha;

10) O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining Bozorlar va savdo komplekslari faoliyatini nazorat qilish bosh boshqarmasi va uning hududiy bo‘limlari — bozorlar, savdo komplekslari hududlarida va ularga tutash bo‘lgan avtotransport vositalarini vaqtincha saqlash joylarida aniqlangan moliyaviy-iqtisodiy va soliq sohalaridagi huquqbuzarliklarga doir ishlar bo‘yicha.

Surishtiruv organlari - jinoyat ishini qo‘zg‘atish va kechiktirib bo‘lmaydigan tergov harakatlarini yuritish vakolati berilgan davlat organlari va mansabdor shaxslardir.

Surishtiruv organi, surishtiruv organining boshlig‘i va surishtiruvchi jinoyat ishini yuritishga mas‘ul bo‘lgan davlat organlari va shaxslari qatoridan o‘rin olgan. Ularning protsessual vakolatlari va huquqiy maqomi O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 39-moddasida belgilab qo‘yilgan. Surishtiruvchi sodir etilgan yoki tayyorlanayotgan jinoyatlar to‘g‘risidagi ariza va xabarlarni qabul qilish va ular asosida jinoyat ishi qo‘zg‘atishga, jinoyat sodir etishda ayblanuvchilarga nisbatan protsessual majburlov choralarini qo‘llashga, ushlab turishga, tergovchining topshirig‘i bilan kechiktirib bo‘lmaydigan tergov harakatlarini o‘tkazishga haqlidir. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 339, 340-moddalarida surishtiruvchi tomonidan jinoyat ishi qo‘zg‘atilgandan keyin, amalga oshiriladigan kechiktirib bo‘lmaydigan tergov harakatlarining ro‘yxati berilmasligi to‘g‘ri hal qilingan. Surishtiruvchi (ayblanuvchi ishtirokida o‘tkaziladigan tergov harakatlaridan tashqari) barcha tergov harakatlarini, jumladan: gumon qilinuvchi, guvoh va jabrlanuvchini so‘roq qilish; yuzlashtirish; tanib olish uchun ko‘rsatish; guvohlantirish; hodisa joyini ko‘zdan kechirish; murdani eksqumatsiya qilish: eksperiment; olib qo‘yish; tintuv; telefon va boshqa so‘zlashuv qurilmalari orqali olib boriladigan so‘zlashuvlarni eshitib turish; ekspertiza tekshiruvi uchun

namunalar olish; narsalar va hujjatlarni taqdim qilish kabi tergov harakatlarini o'tkazishga haqli. Jinoyat-protsessual qonunni tahlili shuni ko'rsatadiki, surishtiruvchi shuningdek shaxsni ayblanuvchi tariqasida jinoyat ishida ishtirokchi sifatida jalb qilish yuzasidan protsessual vakolatga ega emas.

Xorijiy davlatlarda surishtiruvning yuritilishi borasida to'xtalsak, aytish kerakki, evropa davlatlarning aksariyatida surishtiruv faoliyati analogik tarzda tashkil etilgan.

Masalan, **Germaniyada** surishtiruvning differentsiatsiyaviy ajratilgan ikki shakli mavjud: 1) jamoat xavfsizligi politsiyasi (*Schutzpolizei*) tomonidan surishtiruv (aniq jinoyatlar, murakkab bo'lmagan jinoyatlar); 2) jinoiy politsiya (*Kriminalpolizei*) tomonidan surishtiruv (qolgan barcha jinoyat ishlari yuzasidan)⁷.

Ispaniyada esa surishtiruv politsiya tomonidan amalga oshiriladi, yuritiladigan ishlar yuzasidan bildirgi tayyorlanib, navbatchi tergov sudyasiga yuboriladi. Tergov sudyasi zarur hollarda 72 soat davomida tergovni tamomlaydi. Tergov sudyasi tergovni tamomlangan deb hisoblasa, shundan kelib chiqib, tezlashtirilgan tartibda ish ko'rish tartibini qo'llash masalasini hal etadi.

Milliy jinoyat protsessi nuqtai nazaridan surishtiruvning **AQSh** analogi politsiya bo'lib, unga jamoat tartibi va jinoyatlarni tergov qilish funktsiyasi yuklatilgan, sudga qadar bosqichni amalga oshiruvchi asosiy organ sifatida namoyon bo'ladi. AQSh qonunchiligida tergovchi kabi protsessual ishtirokchi umuman mavjud bo'lmay,⁸ dalillarni to'plash hamda mustahkamlash tergovchining yordamisiz ham amalga oshiriladi. Shu bois ham, sudga qadar bosqichlarda jinoyat ishi yurituvida haqiqiy "boshliq" - politsiya noziri hisoblanadi⁹.

Frantsiyada¹⁰ surishtiruv bir qator o'ziga xos jihatlariga ega. Frantsuz jinoyat protsessida ham AQSh singari surishtiruv politsiya tomonidan olib borilsa-da, Frantsiyada prokurorning yanada faolligi kuzatiladi. Jinoyat haqida xabar kelib tushgandan so'ng, prokuror nazorati ostida politsiya surishtiruvi boshlanadi. Surishtiruv prokurorga daliliy materiallarni taqdim qilish bilan yakunlanib, prokuror ularga jinoiy ta'qibni qo'zg'atishga oid vakolatlari doirasida yuridik baho beradi.

⁷ Бэст Э. Уголовный процесс Германии // Уголовное судопроизводство 2014. №4. С.10.

⁸ Хашем Т. Сравнительный анализ уголовного процесса России, Англии, Франции, США и Германии. // Интернет-версия журнала «Право и жизнь». (дата обращения: 10.04.2015. <http://www.law-n-life.ru>).

⁹ Ларичев В.В. Предварительное расследование преступлений в США и Германии: Дис. ... канд. юрид. наук. М., 2004. С. 189.

¹⁰ Головкин Л.В. Архетипы досудебного производства, возможные перспективы развития отечественного предварительного следствия // Уголовное судопроизводство. 2014. №2. С.12-13.

Surishtiruvning vazifalari jinoyatning oldini olish yoki yo‘l qo‘ymaslik, dalillarni to‘plash va saqlash, jinoyat sodir etishda gumon qilinuvchilarni ushlash va yashiringan gumon qilinuvchilarni hamda ayblanuvchilarni qidirib topish, jinoyat tufayli yetkazilgan moddiy ziyon qoplanishini ta‘minlash uchun kechiktirib bo‘lmaydigan tergov harakatlarini yuritishdan iborat.

Surishtiruvchi tergovchi yuritayotgan ish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 343-moddasiga asosan, tergov harakatlarini olib boradi va qarorlar chiqaradi. Surishtiruv organining boshlig‘i ham, basharti u surishtiruvchining vazifalarini bajarayotgan bo‘lsa, xuddi shu qoidalarga amal qiladi. Surishtiruvchining qarori surishtiruv organining boshlig‘i tomonidan tasdiqlanishi lozim.

Surishtiruv organi boshlig‘ining yozma ko‘rsatmasi surishtiruvchi uchun majburiydir. Surishtiruvchi bu ko‘rsatmaga norozi bo‘lsa, ko‘rsatmani bajarishni to‘xtatmay turib, bu ko‘rsatma ustidan prokurorga shikoyat qilishga haqlidir. Prokurorning yozma ko‘rsatmasiga surishtiruv organining boshlig‘i va surishtiruvchi rozi bo‘lmagan taqdirda, ko‘rsatmani bajarishni to‘xtatmay turib, uning ustidan yuqori turuvchi prokurorga shikoyat qilishga haqlidir. Surishtiruv organi boshlig‘i shaxsan jinoyat ishini tergov qilishi, u bo‘yicha qonunda ko‘zda tutilgan har qanday qarorlarini qabul qilishi mumkin. Bunday hollarda u surishtiruv organiga, shuningdek surishtiruvchiga berilgan vakolatlarga amal qilgan holda ish ko‘radi. Surishtiruvchi ishni o‘zining yurituvida qabul qiladi. U surishtiruv organi boshlig‘ining nazorati ostida ishlaydi, lekin shu bilan bir vaqtda ma‘lum mustaqillikka ega. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 39-moddasiga asosan surishtiruvchi yurituvida bo‘lgan ish bo‘yicha har qanday fuqaroni so‘roq qilish uchun yoki ekspertni yoki mutaxassisni ish bo‘yicha xulosa berish uchun chaqirish, ko‘zdan kechirish, tintuv, olib qo‘yish va boshqa qonunda ko‘zda tutilgan tergov harakatlarini o‘tkazish, muassasalardan, tashkilotlardan ish bo‘yicha zarur haqiqiy ma‘lumotlarni aniqlab oladigan narsalarni, hujjatlarni taqdim qilishni hamda taftish o‘tkazishni talab qilishi mumkin. Surishtiruvchi qonunga rioya qilgan holda dalillarni, ish holatlarini majmuini har tomonlama to‘liq va obyektiv ko‘rib chiqishga asoslanib, o‘zining ichki ishonchiga tayanib baholaydi.

2012-yil 25-dekabr O‘zbekiston Respublikasining “Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilindi. Tezkor-qidiruv faoliyat

natijalaridan jinoyat ishi bo'yicha isbot qilishda foydalanish uchun ularning o'z navbatida surishtiruv organlari, tergovchi, sudga taqdim etilishini nazarda tutadi. Ya'ni, tezkor-qidiruv faoliyat natijalari muayyan jinoyat ishini tergov qilishga vakolatli bo'lgan prokurorga yoki tegishli dastlabki tergov organlariga taqdim etiladi. Jinoyat ishlarini tergov qilish jarayonida tergovchi tezkor yo'l bilan olingan ma'lumotlarga ega bo'lar ekan, bu ma'lumotlar mustaqil ahamiyatga ega bo'lmay, faqat tergovni yo'naltirish uchun xizmat qiladi. Bunda ushbu ma'lumotlardan ularni yashirish tarzda olinganligini oshkor etmasdan foydalanish muammosi tug'iladi. Jumladan, "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi qonunning 19-moddasiga muvofiq, tezkor-qidiruv tadbirlarining natijalari O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksiga muvofiq tekshirilganidan va baholanganidan so'nggina dalillar sifatida e'tirof etilishi mumkin.

Tezkor-qidiruv tadbirlarini amalga oshirish jarayonida qo'lga kiritilgan jinoyat sodir etgan shaxslar to'g'risidagi dastlabki ma'lumotlar jinoyat ishi bo'yicha dalillarni to'plash va tekshirishga qaratilgan kelgusi tergov harakatlarini to'g'ri tanlashga yordam beruvchi yo'naltiruvchi vazifani bajaradi. Barcha kechiktirib bo'lmaydigan tergov harakatlari surishtiruv jarayonida, qonun talablariga to'la mos bo'lgan holda o'tkaziladi.

3.3. Jinoyat ishini yuritishda ishtirok etuvchi jamoat birlashmalari, jamoalar va ularning vakillari

Jinoyat-protsessual kodeksida jinoyat protsessida **jamoat birlashmalari va jamoa vakillari** ishtirok etishining bir nechta shakli nazarda tutilgan. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 40-moddasiga binoan jamoat birlashmalari va jamoalar, ularning rahbar organlari hamda vakillari sodir etilgan yoki tayyorlanayotgan jinoyat to'g'risidagi xabar bilan surishtiruv organiga, tergovchiga, prokurorga yoki sudga murojaat etishlari mumkin. Ular ayblanuvchiga yoki sudlanuvchiga nisbatan ehtiyot chorasi sifatida jamoat birlashmasi yoki jamoa kafilligiga berishni tanlash haqida; mahkumni muddatidan ilgari shartli ravishda jazodan ozod qilish yoki jazoni yengilrog'i bilan almashtirish haqida; ozodlikdan mahrum etishga hukm qilinganlarning jazoni o'tash sharoitlarini o'zgartirish haqida; sudlanganlikni olib tashlash haqida va boshqa masalalar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida nazarda tutilgan hollar hamda tartibda iltimos qilishga haqlidirlar. O'z navbatida surishtiruvchi va tergovchi fuqaroning og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar

to'g'risidagi ishda ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilingani haqida uning ish, o'qish yoki yashash joyidagi jamoaga, sud esa ularga shu ish bo'yicha sud muhokamasi qachon va qayerda o'tkazilishi haqida xabar beradi. Jinoyat protsessida jamoatchilik ishtiroki jamoat ayblovchilari va jamoat himoyachilari institutida ko'proq namoyon bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 42-moddasiga binoan jamoat birlashmalari va jamoalar sud muhokamasida jamoat ayblovchisi yoki jamoat himoyachisi sifatida ishtirok etish uchun o'z vakillarini yuborishlari mumkin. Jamoat ayblovchilari va jamoat himoyachilarini jamoat birlashmasining yoki korxonasi, muassasa, tashkilot jamoasining, shu jumladan, tijorat tuzilmasining, shuningdek yashash joyi bo'yicha jamoaning yig'ilishi ko'rsatadi. Yig'ilish qarori sudga taqdim etilishi lozim. Lekin jamoat birlashmasi, jamoa o'zi yo'llagan jamoat ayblovchisi yoki jamoat himoyachisini xohlagan vaqtda chaqirib olishga yoki uni boshqa vakil bilan almashtirishga haqlidir.

Jamoat ayblovchisi va jamoat himoyachisi o'z vazifalarini davlat ayblovchisi va himoyachisi qanday nuqtayi nazarda bo'lishidan qat'iy nazar amalga oshiradigan sud muhokamasining mustaqil va teng huquqli ishtirokchilaridir.

Sud muhokamasida ishtirok etayotgan jamoat ayblovchisi: ish materiallari bilan tanishishga; dalillar taqdim etishga va ularni tekshirishda ishtirok etishga; iltimosnoma berishga; taraflar muzokaralarida so'zga chiqib, ayblovning isbotlangani haqida sudga fikr bildirishga haqlidir. Jamoat ayblovchisi ayblovdan voz kechishga haqli. Shu bilan birga jamoat ayblovchisi: sud muhokamasida ishtirok etishi; jamoat birlashmasi yoki jamoaning fikrini sudda bayon qilishi va ish holatlarini aniqlashga ko'maklashishi shart (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 43-moddasi).

Jamoat himoyachisi ham xuddi shunday huquq va majburiyatlarga egadir. Xususan, sud muhokamasida ishtirok etayotgan jamoat himoyachisi: ish materiallari bilan tanishishga, dalillar taqdim etishga va ularni tekshirishda ishtirok etishga; iltimosnoma berishga; taraflarning muzokaralarida so'zga chiqib, sudlanuvchini oqlaydigan yoki uning javobgarligini yengillashtiradigan holatlar xususida sudga fikr bildirishga haqlidir.

Jamoat himoyachisi: sud muhokamasida ishtirok etishi; jamoat birlashmasi yoki jamoaning fikrini sudda bayon qilishi va ishning

sudlanuvchining ahvolini yengillashtiruvchi holatlarini aniqlashga ko‘maklashishi shart (O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 44-moddasi).

«Sud muhokamasida jinoyat ishi yuzasidan sudlanuvchi va jabrlanuvchining ish joyidan, yashash joyidan va boshqa jamoat tashkilotlaridan vakillar qatnashishi mumkin. Ular sud muhokamasida o‘z manfaatini himoya qiluvchi shaxslardan farq qilib, mehnat jamoasi yoki jamoat tashkiloti manfaatlarini himoya qiladilar. Albatta, bu manfaatlar sud muhokamasida bo‘lgan jinoyat ishi bilan bog‘liq bo‘lgan hollarda amalga oshiriladi. Bu vakillar sud muhokamasida jamoat ayblovchisi yoki jamoat himoyachisi sifatida ishtirok etadilar. Ular korxonalar, muassasalar, va tashkilotlarning umumiy yig‘ilishlari qarori bilan saylanadilar, shu yig‘ilish bayonnomalarining nusxasi sudga taqdim etilgan taqdirda sudning ajrimi asosida sud muhokamasida qatnashadilar». Jamoat ayblovchisi va jamoat himoyachisi sud muhokamasida qonunda belgilangan huquq va majburiyatlarga ega bo‘ladilar. Jamoat ayblovchisiga sudlanuvchiga qo‘yilgan aybni isbotlash majburiyati yuklatilmaydi. Ular faqat guruh yoki jamoatchilik fikrini bayon qiladilar. Jamoat himoyachisi dalillarni tekshirishda ishtirok etadi, iltimoslar qiladi, sud muzokaralarida ishtirok etadi, sudlanuvchining aybini yengillashtiruvchi, uni oqlovchi holatlar to‘g‘risida, sudlanuvchiga beriladigan jazoni yengillashtirish, uni jazodan ozod qilish, uni mehnat jamoasi kafilligiga berishni suddan iltimos qilishi mumkin. Jamoat himoyachisining sud muhokamasida tutgan pozitsiyasi sudlanuvchining va uning himoyachisining pozitsiyasiga bog‘liq emas. U jamoa yoki jamoat tashkilotining fikrini bayon etadi. Jamoat ayblovchisi va jamoat himoyachisi sud muhokamasida mustaqil bo‘lib, boshqa ishtirokchilar kabi ish yuzasidan dalillarni tekshirish, dalillar keltirish, iltimoslar qilishda teng huquqlardan foydalanadilar.

Bitta sudlanuvchiga nisbatan bir jamoat tashkiloti yoki mehnat jamoasidan ham jamoat ayblovchisi, ham jamoat himoyachisi qatnashishi mumkin emas.

Chunki bunda tashkilot yoki mehnat jamoasining fikri ifoda etilmay qoladi. Turli jamoat tashkiloti yoki mehnat jamoalaridan bitta sudlanuvchiga nisbatan ham jamoat ayblovchisi, ham jamoat himoyachisi sud muhokamasida qatnashishi mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 412-moddasining talabiga ko‘ra, jamoat ayblovchisi yoki jamoat himoyachisi sudga kelmay qolsa, ishning holatlariga qarab, sud ishni ular ishtirokisiz ko‘rish mumkinligi yoki muhokamani keyingi qoldirish masalasini hal etadi. Ularni kelmaganligi to‘g‘risida ularni

yuborgan tashkilot yoki mehnat jamoasiga xabar beriladi.

Sud muhokamasida voyaga yetmaganlarning jinoyat ishlari ko‘rilayotganida jamoat vakillari sifatida sud tomonidan uni ish, o‘qish joyi yoki yashash joyidan vakillar, shuningdek voyaga yetmaganlar bilan shug‘ullanuvchi komissiya xodimlari, ota-onalari, qonuniy vakillari, yaqin qarindoshlari hamda homiy va vasiylari chaqirilishi mumkin. Zarur hollarda bu vakillar guvoh sifatida so‘roq qilinishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 43-44-moddalarida jamoat ayblovchisi va jamoat himoyachisining huquq va majburiyatlari bayon etilgan. Unga ko‘ra, sud muhokamasida ishtirok etayotgan jamoat ayblovchisi va jamoat himoyachisi ish materiallari bilan tanishishga, dalillar taqdim etishga va ularni tekshirishda ishtirok etishga, iltimosnomalar berishga, taraflarning muzokaralarida so‘zga chiqib, jamoat ayblovchisi ayblovning isbotlanganligi haqida, jamoat himoyachisi sudlanuvchini oqlaydigan yoki uning javobgarligini yengillashtiradigan holatlar xususida sudga fikr bildirishga haqlidir. Jamoat ayblovchisi ayblovdan voz kechishga haqli. Jamoat ayblovchisi va jamoat himoyachisi sud muhokamasida ishtirok etish, jamoat birlashmasi yoki jamoaning fikrini sudda bayon qilish va ishda sudlanuvchining ahvolini yengillashtiruvchi holatlarni aniqlashga ko‘maklashishi shart.

3.4. Jinoyat protsessida o‘z manfaatlarini himoya qiladigan shaxslar. Himoyachilar va vakillar.

Jinoyat protsessida **gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi** ayblovdan himoyalaniish nuqtayi nazaridan o‘z manfaatlarini himoya qilish huquqiga ega bo‘lgan asosiy ishtirokchilar hisoblanadi.

So‘nggi yillarda gumon qilinuvchi, ayblanuvchining protsessual holatiga oid jinoyat-protsessual normalarga jiddiy o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritildi. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 46, 48, 361, 379, 397, 467-moddalarida nazarda tutilgan gumon qilinuvchi, ayblanuvchining o‘zining nimada gumon qilinayotganligini (ayblanayotganligini) bilish huquqi davlat organlarining shaxsni ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilish haqidagi qarorida, ayblov xulosasida shaxsni nimada ayblanayotganligini ko‘rsatishi, ayblov hukmida esa shaxs qanday qilmishni sodir etishda aybli deb topilganligi va

u jinoyat qonunining qaysi moddalarida belgilangan jinoyatga to'g'ri kelishini ko'rsatish majburiyati bilan ta'minlanadi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 362-moddasiga muvofiq esa, tergov jarayonida ayblov o'zgartirilsa, to'ldirilsa yoki tugatilsa, u haqda ayblanuvchi xabardor etiladi. Ayblanuvchining ushbu huquqi unga isbotlash jarayonida faol ishtirok etishi uchun zamin hozirlaydi.

Gumon qilinuvchining qaysi jinoyatni sodir etishda gumon qilinayotganini bilish huquqi shu bilan kafolatlanadiki, ushlab turish to'g'risidagi bayonnomada uning asoslari va sabablari ko'rsatiladi, ushlanganning tushuntirishlari yoziladi, bayonnomaga ushlangan shaxs imzo chekadi; ehtiyot chorasini qo'llash to'g'risidagi qarorda mazkur shaxs sodir etgan deb gumon qilingan jinoyat ko'rsatilgan bo'lishi lozim; so'roq oldidan gumon qilinuvchiga u qanday jinoyatni sodir etishda gumon qilinayotgani e'lon qilingani haqida so'roq qilish bayonnomasiga qayd etiladi.

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchi o'zining nimada ayblanayotganligini yoki gumon qilinayotganligini bilganlaridan so'ng, ushbu gumon yoxud ayblovni rad etish yoki mohiyatini ochish uchun maqsadga yo'naltirilgan tarzda harakat qilishlari, gumon (ayblov)ni keltirib chiqargan ma'lumotlarning noo'rinligini asoslashlari, jinoyat ishi qo'zg'atilishiga sabab bo'lgan hodisadagi o'z harakatlarini oydinlashtirishlari hamda tushuntirishlari mumkin bo'ladi.

Mazkur huquq gumon qilinuvchi, ayblanuvchi e'tiboriga qaysi jinoyatni sodir qilishda aybdor deb taxmin qilinayotganligi to'g'risidagi axborotni havola etish vositasida amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 225-moddasining birinchi qismiga ko'ra, ushlab turish bayonnomasida ushlangan shaxs qanday jinoyatni sodir etishda gumon qilinayotganligi aks ettiriladi. Shu moddaning **beshinchi** qismiga binoan, ushlab turish, jinoyat ishini qo'zg'atish, ishda gumon qilinuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish to'g'risidagi qarorlar darhol gumon qilinuvchiga e'lon qilinadi. Jinoyat-protsessual qonunning bir necha moddalari orqali gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchining nimada gumon qilinayotganligi yoki ayblanayotganligini bilish huquqi amalga oshadi. Demak, tergovchi, prokuror va sud shaxslarga nimada gumon qilinayotganligi yoki ayblanayotganligini tushuntirishda ularning individual xususiyatlarini (yoshi, ma'lumoti, hayotiy tajribasi) e'tiborga olishlari, ayblov yoki gumonning mohiyati, jinoyatning malakalanishi hamda taxminiy oqibatlarini tushunarli, ravon tarzda bayon etishlari muhim bo'lib, gumon

qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchi huquqlarini kafolatlashda katta ahamiyatga ega.

Ayblanuvchi, gumon qilinuvchining O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 46, 48-moddalaridagi o‘ziga qo‘yilgan ayblov yuzasidan (gumon xususida) hamda ishning boshqa har qanday holatlari bo‘yicha ko‘rsatuv va tushuntirish berish huquqi ham jinoyat sudlov ishlarini yuritishda muhim ahamiyatga ega. Mazkur huquqni amalga oshirish uchun tergovni olib boruvchi shaxs va sud ayblanuvchiga ayblovning mohiyatini tushuntirishi va uni qonunda belgilangan tartibda hamda muddatlarda so‘roq qilishi lozim.

Ko‘rsatuv berish ayblanuvchi, gumon qilinuvchining huquqi, lekin majburiyati emas. Biroq, bu ayblanuvchining rost yoki yolg‘on javob berishiga qonun befarq qarashini bildirmaydi. Sodir etilgan jinoyat to‘g‘risida haqqoniy ko‘rsatuv berish, qilmishdan pushaymon bo‘lish javobgarlikni yengillashtiruvchi holat hisoblanadi.

Ayblanuvchining iltimosnomalar berish huquqi – uning isbotlash jarayonidagi ishtirokining shakllaridan biri hisoblanadi. Ayblanuvchining iltimosnomalar berish huquqi deganda, uning mazkur ishni yuritayotgan organlarga ko‘rib chiqilishi va hal etilishi lozim bo‘lgan rasmiy iltimoslar bilan qilgan murojaati tushuniladi. Iltimosnomalarni asossiz qondirilmasligi nafaqat ayblanuvchi manfaatlariga, balki jinoyat ishlari yurituvchi manfaatlariga ham jiddiy putur yetkazadi.

Surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudning harakatlari hamda qarorlari ustidan shikoyatlar berish huquqi ayblanuvchi, gumon qilinuvchining kafolatlangan subyektiv huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish usullaridan biridir. O‘z navbatida, ushbu huquq ishtirokchilarga boshqa protsessual huquqlarini amalga oshirishni ta‘minlaydi, chunki fuqarolarning huquq va erkinliklarining buzilishi yoki noqonuniy cheklanishi holatlari uni amalga oshirilishiga asos bo‘ladi. Gumon qilinuvchi, ayblanuvchining shikoyati deganda, unga nisbatan tergov organi yoki prokuror tomonidan yo‘l qo‘yilgan nohaqlikni bartaraf etishni iltimos qilib berilgan rasmiy ariza tushuniladi.

Sudlanuvchi quyidagi huquqlarga ega: birinchi instansiya va yuqori instansiya sudi majlislarida ishtirok etish, rad qilish, sud harakatlari va qarorlari ustidan shikoyat qilish, iltimosnomalar qilish va dalillar taqdim etish, sud majlisi bayonnomasi bilan tanishish, ish bo‘yicha keltirilgan protestlar, apellyatsiya, kassatsiya shikoyatlaridan xabardor bo‘lish va ularga nisbatan e‘tirozlar bildirish, oxirgi so‘z bilan chiqish huquqiga ega.

Sudlanuvchining majburiyatlari quyidagicha: sud chaqiruviga binoan hozir bo'lish; sud muhokamasida ishtirok etishdan bosh tortmaslik; haqiqatni aniqlashga to'sqinlik qilmaslik; tanlangan ehtiyot choralari talablarini bajarish; sud ajrimlarining ijro etilishiga to'sqinlik qilmaslik; sud majlisida tartibga rioya etishi shart. Agar sudlanuvchi uzrsiz sabablarga ko'ra sud majlisiga kelmasa, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 262-264 moddalarda nazarda tutilgan asoslarda va tartibda majburiy ravishda keltirilishi mumkin.

Sudlanuvchining protsessual maqomi Jinoyat-protsessual kodeksining birinchi instansiya sudida ish yuritish tartibi belgilangan 10-bo'limida belgilangan.

Sudlanuvchining ta'minlanishi lozim bo'lgan eng muhim huquqlaridan biri sud muzokarasida ishtirok etish va oxirgi so'z bilan chiqish huquqidir.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining "Gumon qilinuvchi va ayblanuvchini himoya huquqi bilan ta'minlashga oid qonunlarni qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi 2003-yil 19-dekabrda 17-sonli Qarori 21-bandiga muvofiq, sudlanuvchining advokati bo'lmagan holda uni sud muzokarasida ishtirok etishiga imkoniyat yaratmaslik, shuningdek oxirgi so'zdan mahrum etish jinoyat-protsessual qonunni jiddiy buzish hisoblanadi¹¹.

Jinoyat, shuningdek aqli noraso shaxsning ijtimoiy xavfli qilmishi shaxsga ma'naviy, jismoniy yoki mulkiy zarar yetkazgan deb hisoblash uchun dalillar bo'lgan taqdirda, bunday shaxs **jabrlanuvchi** deb e'tirof etiladi.

Ishning barcha holatlarini to'la, har tomonlama va xolisona tekshirishda jabrlanuvchining ishtirokini inkor etish jinoyat sudlov ishlarining demokratiya va tortishuv prinsiplariga zid yuritilayotgani to'g'risida xulosa chiqarishga va ularning isbotlashda ishtirok etish huquqi cheklanishiga olib kelgan bo'lar edi. Lekin bu ishtirokchilar isbotlashni amalga oshirish imkoniyatiga ega emaslar, chunki ular zimmasiga o'z shaxsiy manfaatdorligini hisobga olgan holda ishning barcha holatlarini to'la va xolisona tekshirish vazifasi yuklatilmagan, yuklatilishi ham mumkin emas.

Jabrlanuvchi deb e'tirof etish haqida surishtiruvchi, tergovchi, prokuror

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining "Gumon qilinuvchi va ayblanuvchini himoya huquqi bilan ta'minlashga oid qonunlarni qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi 2003-yil 19-dekabrda 17-sonli Qarori//O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorlari to'plami 1991-2006. T.1. –T.: 2007. – B.144.

qaror, sud esa ajrim chiqaradi (O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 54-moddasi).

Jabrlanuvchi deb e’tirof etish shaxsning arizasiga ko‘ra yoki jinoyat ishi yurituviga mas’ul bo‘lgan mansabdor shaxs tomonidan amalga oshiriladi. Bunda jinoyatning kim tomonidan sodir etilganligi aniqlangan yoki aniqlanmaganligi, uning ushlangan yoki ushlanmaganligi, jabrlanuvchi va jinoyatchining o‘zaro munosabatlari hech qanday ahamiyat kasb etmaydi.

Shaxsni jabrlanuvchi deb e’tirof etish to‘g‘risidagi qaror uning qonunda nazarda tutilgan harakat (yoki harakatsizlik) haqidagi fakt ayon bo‘lganidan va jinoyat ishi qo‘zg‘atilganidan keyin chiqarilishi lozim. Shaxsni jabrlanuvchi deb e’tirof etish to‘g‘risidagi qarorning asossiz ravishda kechiktirilishi uni jinoiy jarayonda faol ishtirok etishiga to‘siq bo‘ladi. Jabrlanuvchi deb e’tirof etish yakka tartibda amalga oshirilib, har bir jabrlanuvchi uchun alohida qaror chiqariladi.

Jinoyat protsessual qonunchiligiga ko‘ra jabrlanuvchi voyaga yetmagan shaxs bo‘lsa, yoki belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz deb tan olingan bo‘lsa, ushbu ish bo‘yicha u bilan birga uning qonuniy vakili qatnashadi.

Jabrlanuvchining huquq va majburiyatlari O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 55-moddasida batafsil bayon etilgan.

Iltimosnoma va shikoyatlar jabrlanuvchi tomonidan yozma yoki og‘zaki holda berilishi mumkin, yozma holda berilgan murojaatlar ish jildiga tikib qo‘yiladi, og‘zaki murojaatlar esa bayonnomada qayd etilishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida jabrlanuvchining jinoyat ishidan kerakli bo‘lgan ma’lumotlarni yozib olishi huquqi ham belgilangan.

Jabrlanuvchining sud muhokamasida ayblovni quvvatlashi asosiy huquqlaridan biri hisoblanadi. Jabrlanuvchi o‘zining sudda ayblovni quvvatlash huquqini qonuniy vakiliga berishi ham mumkin.

Jabrlanuvchiga surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudning chaqiruviga binoan hozir bo‘lish majburiyati yuklangan.

Jabrlanuvchi uzrli sabablarsiz kelmaganda, u O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 261-264 moddalariga muvofiq ravishda majburiy keltirilishi mumkin.

Shu maqsadda surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud jabrlanuvchini majburiy keltirish to‘g‘risida tegishli tartibda asoslangan qaror chiqaradi. Ammo bu qarorni chiqarishdan avval jabrlanuvchining ixtiyoriy tarzda kelmaganligining sabablari atroflicha o‘rganib chiqilishi, ma’lum

shaxslardan kerakli tushuntirishlar olinishi, jabrlanuvchi taqdim etgan tegishli hujjatlar tekshirilishi lozim. Jabrlanuvchi faqat haqqoniy ko'rsatuvlar berishi shart. Yolg'on ko'rsatuv berganligi uchun qonunda belgilangan tarzda javobgar bo'ladi.

Fuqaroviy da'vogar sud majlisiga kelmasa, da'vo ko'rilmay qoldiriladi. Agar da'voni uning ishtirokisiz ko'rish haqida fuqaroviy da'vogarning iltimosi bo'lsa, prokuror fuqarolik da'vosini qo'llab-quvvatlasa yoki sud o'z tashabbusi bilan da'voni ko'rib hal qilishni lozim deb topsa, fuqaroviy da'vo ko'rib chiqiladi. Agar fuqaroviy da'vo sud muhokamasida ko'rilmasa, manfaatdor shaxs sudga fuqarolik tartibida murojaat qilib, da'voni qo'zg'atish huquqi saqlanib qoladi.

Sud muhokamasining mustaqil va teng huquqli ishtirokchisi bo'lgan **fuqaroviy da'vogar** va **fuqaroviy javobgar** ma'lum protsessual huquq va burchlarga ega.

Fuqaroviy da'vogar fuqaroviy da'vo qo'zg'atish, dalillar taqdim qilish, iltimosnomalar kiritish, sud muhokamasida to'liq qatnashish, fuqaroviy da'voni qo'llab-quvvatlash va uni qanoatlantirishni talab qilish, ish materiallari bilan tanishish hamda ish yuzasidan o'z fikrlarini bayon qilish huquqiga ega hamda JPKning 57-moddasida ko'rsatib o'tilgan boshqa huquqlarga ham ega.

Fuqaroviy da'vogar sud majlisiga kelmasa, da'vo ko'rilmay qoldiriladi. Agar da'voni uning ishtirokisiz ko'rish haqida fuqaroviy da'vogarning iltimosi bo'lsa, prokuror fuqaroviy da'voni qo'llab-quvvatlasa yoki sud o'z tashabbusi bilan da'voni ko'rib hal qilishni lozim deb topsa, fuqaroviy da'vo ko'rib chiqiladi. Agar fuqaroviy da'vo sud muhokamasida ko'rilmasa, manfaatdor shaxs sudga fuqarolik tartibida murojaat qilib, da'voni qo'zg'atish huquqi saqlanib qoladi.

Fuqaroviy javobgar ayblanuvchi tomonidan yoki ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan aqli noraso shaxs tomonidan yetkazilgan zarar uchun qonunga ko'ra mulkiy javobgar shaxs, korona, muassasa yoki tashkilot ishda fuqaroviy javobgar sifatida ishtirok etish uchun jalb qilinishi mumkin.

Ko'pgina hollarda fuqaroviy javobgar sudlanuvchi shaxs bo'ladi. Jabrlanuvchini moddiy manfaatini yaxshiroq ta'minlash maqsadida fuqaroviy javobgar sifatida sud muhokamasiga sudlanuvchining ota-onasi,

qonuniy vakillari, yaqin qarindoshlari yoki boshqa shaxslar jalb qilinishi mumkin. Shuningdek, sudlanuvchining jinoiy harakatlari tufayli keltirilgan zarar uchun moddiy javobgar bo'lgan korxonalar, tashkilot va muassasalar ham fuqaroviy javobgar bo'lishi mumkin. Voyaga yetmaganlar jinoyat ishlari yuzasidan ularning ota-onasi, o'quv yurti, voyaga yetmagan shaxs da'volanayotgan tibbiy muassasa, homiy va vasiylar fuqaroviy javobgar sifatida jalb qilinishi mumkin.

Fuqaroviy javobgar ayblov va fuqaroviy da'voning mazmunini bilish; da'voga e'tiroz bildirish; tushuntirish berish; o'z manfaatlarini himoya qilish uchun vakil olish; dalillar taqdim qilish; iltimosnoma berish va rad qilish, birinchi instansiya apellyatsiya, kassatsiya va nazorat instansiya sudning majlislarida ishtirok etish, sudning harakatlari va qarorlari ustidan shikoyatlar keltirish; sud hukmi va ajrimining fuqaroviy da'voga tegishli qismi ustidan shikoyatlar berish; ish bo'yicha keltirilgan shikoyat va protestlardan xabardor bo'lish va ularga nisbatan e'tirozlar bildirish huquqiga egadir.

Fuqaroviy javobgar sudning chaqiruviga binoan hozir bo'lish va ularning talablariga asosan fuqaroviy da'voga tegishli bo'lgan dalillar taqdim qilish; haqiqatni aniqlash, dalillarni yo'q qilish, soxtalashtirish, guvohlarni ko'ndirishga urinish va qonunga xilof boshqa harakatlar bilan to'sqinlik qilmasligi, sud majlisi vaqtida tartibga rioya etishi shart.

Himoyachi jinoyat protsessida qonunda ko'rsatilgan tartibda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining huquq va manfaatlarini himoya qilish va ularga zarur yuridik yordam ko'rsatish vakolatiga ega shaxsdir.

Jinoyat ishlari yurituvda himoyachining protsessual maqomini tahlil qilishda 2008-yil 31-dekabrda "Advokatura instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonunining ahamiyatini e'tirof etib, mazkur qonun bilan advokatning protsessual vakolati va maqomi yanada oshirilganini alohida ta'kidlash lozim.

Xususan, hozirgi kunda advokatlik faoliyati bilan oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lgan va advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyani belgilangan tartibda olgan O'zbekiston Respublikasining fuqarosi O'zbekiston Respublikasida advokat bo'lishi mumkin.

Himoya huquqi bilan ta'minlashning mazmuni quyidagilardan iborat:

gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi jinoyat protsessining ishtirokchisi sifatida protsessual huquqlar doirasiga ega bo'lib, ularga qo'yilgan ayblovdan himoyalaniş uchun o'zini-o'zi, o'z qonuniy manfaatlarini himoya etishga imkon beradi; gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi himoyachi yordamidan foydalanishi, himoyachining ishtiroki zarur bo'lgan ba'zi hollarda bu yordamni qonun asosida bevosita olishi mumkin; surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchiga uning protsessual huquq va majburiyatlarini tushuntirishga majbur bo'lib, ularga himoyalaniş manfaatlarini, shaxsiy huquq va moddiy huquqini idora qilishi uchun sharoitlar yaratib berishlari lozim; gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi shaxsning shaxsiy va moddiy huquqlarini muhofaza qilish, ularni ta'minlash borasida surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud zaruriyat bo'lmasa, uning shaxsiy hayotiga oid ma'lumotlarni ovoza qilmaslik, ushbu shaxslarning qadr-qimmatini va sha'niga qarshi, salomatligiga xavf tug'diradigan harakatlar qilmaslik, ularning voyaga yetmagan va yolg'iz qolgan bolalariga nisbatan homiylikni o'rnatish bo'yicha tegishli choralarni ko'rish, ushbu shaxslarning mulki va turar joyini saqlash choralari, ushbu shaxslarning qarindoshlari bilan dastlabki tergov tamom bo'lganda uchrashtirish yuklatilgan.

Odatda ishda himoyachi sifatida advokatlar ishtirok etadilar. Advokatning ishda ishtirok etishiga u advokat guvohnomasini ko'rsatganidan va muayyan ishni yuritishga vakolatli ekanligini tasdiqlovchi orderni taqdim etganidan keyin yo'l qo'yiladi.

Gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining yaqin qarindoshlari yoki qonuniy vakillaridan birining advokat bilan bir qatorda himoyachi sifatida ishtirok etishiga gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining iltimosnomasi bo'yicha surishtiruvchining, tergovchining qarori yoki sud ajrimiga binoan yo'l qo'yilishi mumkin.

Himoyachining ishda ishtirok etishiga jinoyat protsessining har qanday bosqichida, shaxs ushlanganida esa uning harakatlanish erkinligiga bo'lgan huquqi amalda cheklangan paytdan boshlab ruxsat etiladi.

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchining iltimosiga ko'ra surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud ishda himoyachining ishtirok etishini ta'minlaydi.

Surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud ishning murakkabligi va

boshqa holatlari tufayli gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o'z huquqlarini amalga oshirishda qiynalishi mumkin degan xulosaga kelsa, boshqa ishlar bo'yicha ham himoyachining ishtirok etishini shart, deb topishga haqlidir.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 53-moddasiga binoan himoyachi gumonni yoki aybini rad etadigan yoxud javobgarlikni yengillashtiradigan holatlarni aniqlash uchun qonunda nazarda tutilgan barcha vosita va usullarini qo'llashi hamda gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga yoki sudlanuvchiga zarur yuridik yordam ko'rsatishi; haqiqatni aniqlashga, dalillarni yo'q qilish, soxtalashtirish, guvohlarni ko'ndirishga urinish va qonunga xilof boshqa harakatlar bilan to'sqinlik qilmasligi; ishning tergov va sud majlisi vaqtida tartibga rioya etishi shart.

Ishda ishtirok etish haqida shartnoma tuzilgan yoki tayinlangan vaqtdan boshlab advokat himoyaga haqli hisoblanadi va bu vazifani bajarishni rad etishga haqli emas.

Ayblanuvchining huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish himoyachining asosiy burchidir. Ayblanuvchining qonuniy manfaatlarini himoya qilish deganda, ayblov asossizligi munosabati bilan jinoyat ishini bekor qilishga erishish; ish holatlariga binoan javobgarlikni yengillashtirish maqsadida jinoyat ishining malakalanishi (kvalifikatsiya)ni o'zgartirishga erishish; tegishli asos bo'lgan holda ehtiyot chorasini bekor qilish yoki o'zgartirishga erishish; javobgarlikni yengillashtiruvchi holatlarni aniqlashga urinish va boshqalardan iborat turli protsessual harakatlar tushuniladi. Boshqacha qilib aytganda, ayblanuvchining qonuniy manfaatlarini himoya qilish, aybsiz shaxsni sudlash yoki javobgarlikka tortilishini bartaraf qilish, adolatsiz tarzda og'ir jazo belgilanishining oldini olish, barcha yengillashtiruvchi holatlar majmuasini hisobga olishni o'z ichiga oladi.

Himoyachi ayblanuvchining har qanday manfaatlarini emas, balki aynan qonuniy manfaatlarini faqat qonuniy usul va vositalar bilan himoya qiladi. Shuning uchun himoyachining qonunda ko'rsatilmagan usul va vositalardan foydalanishi, ayblanuvchining noqonuniy manfaatlarini himoya qilishga urinishi qat'iy rad etilishi lozim.

Himoyachining mustaqilligi u umuman himoyasidagi shaxsning ixtiyori va talablari bilan hisoblashmasdan faoliyat ko'rsatishi lozim, degan ma'noni anglatmaydi.

Himoyachi ayblanuvchining noqonuniy urinishlariga ergashmasligi lozim, lekin u o'z himoyasidagi shaxsning qonun bilan asoslangan talablarini hisobga olishi shart va bu ma'noda himoyachining mustaqilligi nisbiydir.

O'zbekiston Respublikasi «Advokatura to'g'risida»gi Qonuni normalari avvalo advokatdan axloqiy soflik, qonunlarga aniq va og'ishmay amal qilishning namunasi bo'lishni talab etadi.

Advokatning kasbiy burchi unga ish bo'yicha barcha dalillarni obyektiv, har tomonlama va sidqidildan tahlil qilish va baho berish, faktlarni ataylab buzib ko'rsatmaslik, sud va tergovni chalg'itishga urinmaslik, tekshirilayotgan hodisalarga qonuniylik va axloq pozitsiyasidan turib baho berish majburiyatini yuklaydi. Himoyachi haqiqiy, o'ziga ma'lum bo'lgan dalillardan foydalanishi yoki unga ma'lum bo'lgan faktlarga zid keluvchi ishdagi ma'lumotlarni qo'llashi mumkin emas.

Jinoyat protsessi ishtirokchilaridan yana biri bu gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, jabrlanuvchining qonuniy vakilidir.

Qonuniy vakil ishda ishtirok etishga voyaga yetmagan yoxud belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz deb e'tirof etilgan gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, jabrlanuvchining huquq va majburiyatlarini himoya qilish uchun jalb qilinadi.

Ishda qonuniy vakil sifatida ota-onalar, farzandlikka olganlar, vasiylar, homiylar, voyaga yetmaganga yoki belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz deb e'tirof etilgan ishtirokchiga homiylik qiluvchi muassasa va tashkilotlarning vakillari qatnashishi mumkin. Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchining qonuniy vakili ishda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi bilan birga, jabrlanuvchining qonuniy vakili esa jabrlanuvchi bilan birga, shuningdek uning o'rnida ham ishtirok etadi.

Qonuniy vakilning ishda ishtirok etishiga yo'l qo'yilganligi haqida surishtiruvchi, tergovchi, prokuror qaror, sud esa ajrim chiqaradi. Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, jabrlanuvchining manfaatlari o'zaro mos kelmasa-da, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, jabrlanuvchi tarafida ishda ishtirok etish uchun qaror yoxud ajrim bilan advokat tayinlanadi.

Qonuniy vakillik fuqarolik va jinoyat protsessidagi vakillik umumiy himoya institutidan farqli o'laroq, vakillik qilinayotgan huquqiy munosabat subyekti almashtirilishini anglatmaydi. Qonuniy vakil vakillik qilayotgan shaxs o'rniga emas (birgalikda ham emas), balki u bilan birga o'z

qaramog'idagi shaxsning huquqlari himoyasi va qonuniy manfaatlarining amalga oshirilishiga, u tomonidan o'z protsessual majburiyatlarini bajarishga yordam beradi.

O'z navbatida ishda qonuniy vakilning ishtiroki o'zi vakillik qilayotgan shaxsning protsessual huquqlarini cheklab qo'ymaydi, balki aksincha ularning to'la va samarali ravishda amalga oshirilishiga yordam beradi. Ushbu shaxs har xil turdagi ariza va shikoyatlar berish kabi maqsadlarda o'z qonuniy vakilining roziligiga qaram emas. U o'z qonuniy vakilining holatidan farqlanadigan holatni egallashi mumkin.

Qonuniy vakilning protsessual holati avvalambor, kimning, protsessning qaysi ishtirokchisining manfaatlarini ko'zlab vakillik qilayotgani bilan belgilanadi va amaldagi jinoyat-protsessual qonuni shundan kelib chiqib, qonuniy vakillarga juda keng vakolat beradi, bu vakolat ular vakillik qilayotgan shaxslarning protsessual huquq va majburiyatlari majmuiga yaqinlashadi yoxud teng bo'ladi.

Qonuniy vakilning huquqlari mazmunan u o'zi vakillik qilayotgan shaxsning huquqlaridan kelib chiqqanligi sababli, shunga muvofiq ravishda u o'zi vakillik qilayotgan gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchining jinoyat sudlov ishlarini yuritish mobaynida ko'rsatilgan huquqlaridan kelib chiqadi va O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida ko'rsatilgan barcha protsessual vositalar, rad qilish va arizalar berishdan shikoyat qilishgacha bo'lgan vositalarning qo'llanishiga asoslanadi.

Qonuniy vakil nafaqat huquqlarga ega, balki uning majburiyatlari ham bor. U jumladan, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudning chaqiruviga binoan hozir bo'lishi, ko'rsatuvlar berishi, tergov harakatlarini o'tkazishda, sud majlisida ishtirok etishi, unda tartibga rioya qilishi, o'zi vakillik qilayotgan shaxsga salbiy ta'sir ko'rsatmaslik kabi majburiyatlarga ega.

Qonuniy vakil guvoh sifatida so'roq qilinishi, shuningdek, himoyachi, fuqaroviy da'vogar yoki fuqaroviy javobgar tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilinishi mumkin. Bunday hollarda qonuniy vakil yuqorida aytib o'tilgan protsess ishtirokchilarining huquqlari va majburiyatlariga ega bo'ladi.

3.5. Jinoyat protsessida ishtirok etuvchi boshqa shaxslar

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 65-moddasiga binoan jinoyat ishi bo'yicha aniqlanishi lozim bo'lgan biror holatni bilishi mumkin bo'lgan har qanday shaxs **guvoh** sifatida ko'rsatuv

berish uchun chaqirilishi mumkin. Guvoh isbotlovchi axborotning manbai sifatida tergov qilinayotgan hodisaning holatlaridan tashkil topadi.

Guvoh: advokatning yuridik yordamidan foydalanish; tergov harakatlarida advokat bilan birga ishtirok etish; so'roq yuritilayotgan tilni bilmasa yoki etarlicha bilmasa, o'z ona tilida ko'rsatuvlar berish va bu holda tarjimon xizmatidan foydalanish; uning so'roq qilinishida ishtirok etuvchi tarjimonni rad qilish; ko'rsatuvlarini o'z qo'li bilan yozib berish; o'ziga qarshi ko'rsatuv bermaslik; so'roq bayonnomasi bilan tanishish, unga qo'shimcha va o'zgartishlar kiritish; ko'rsatuvlar berishda yozma belgilar va hujjatlardan foydalanish; o'z manfaatlarini himoya qilish uchun, surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning va sudning harakatlari hamda qarorlari ustidan shikoyatlar keltirish huquqiga ega.

Guvoh sudning chaqiruviga binoan hozir bo'lishi; ish bo'yicha o'ziga ma'lum barcha holatlar haqida haqqoniy so'zlab berishi; berilgan savollarga javob qaytarishi; ish bo'yicha o'ziga ma'lum bo'lgan holatlarni so'roq qiluvchining ruxsatisiz oshkor etmasligi; ishning tergovi va sud majlisi vaqtida tartibga rioya etishi shart.

Guvoh uzrsiz sababga ko'ra kelmagan taqdirda majburiy ravishda olib kelinishi mumkin, ko'rsatuv berishdan bosh tortganlik, shuningdek bila turib yolg'on ko'rsatuv berganlik uchun qonunda belgilangan tarzda javobgar bo'ladi (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 66-moddasi).

Shaxs guvohlik berish uchun faqat davlat hokimiyatining vakolatli organlari - surishtiruv, dastlabki tergov, prokuratura hamda sud tomonidan chaqirilishi mumkin.

Aynan chaqirilgan vaqtdan boshlab fuqaro guvohlik maqomini oladi va shu bilan unga muayyan majburiyatlar yuklanadi. Aynan shu paytdan boshlab huquq va majburiyatlar, shuningdek mas'uliyat, shu bilan birga jinoiy javobgarlik vujudga keladi.

Amaliyotdan misol: O'g'irlik (kissavurlik) yuzasidan jinoyat ishi bo'yicha tergovchi Valiev va Alimovlarni guvoh tariqasida so'roq qilish uchun chaqirdi. Ular birgalikda kelishgach, tergovchi ularning har ikkovlari bilan ushbu o'g'irlik yuzasidan suhbatlashdi, keyin esa ularga so'roq bayonnomasini berib, ushbu voqea yuzasidan bilganlarini yozib berishlarini taklif qildi.

Shundan so'ng guvohlar Valiev va Alimovlar so'roq bayonnomasiga voqea tafsilotlarini o'z qo'li bilan yozib imzo chekdilar. Tergovchi so'roq bayonnomasini tanishtirib chiqib qo'shimcha e'tirozlar bor yo'qligini so'rab bayonnomani rasmiylashtirib qo'ydi.

Guvoh surishtiruv, tergov, prokuratura organlari va sudning talablariga binoan so'roq qilish belgilangan joyga vaqtida, soat va kunida yetib borishi

va o‘ziga ma’lum bo‘lgan ish to‘g‘risida to‘g‘ri ko‘rsatuv berishga majbur. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 115-moddasiga binoan guvoh sifatida quyidagilar so‘roq qilinmaydi:

– hukm yoki ajrim chiqarish jarayonida kelib chiqqan masalalarni maslahatxonada muhokama qilishga oid holatlar to‘g‘risida - sudya va xalq maslahatchisi;

– jinoyat ishi yuzasidan o‘z vazifalarini bajarishlari natijasida o‘zlariga ma’lum bo‘lgan holatlar to‘g‘risida-himoyachi, shuningdek jabrlanuvchi, fuqaroviy da’vogar, fuqaroviy javobgarining vakili;

– ruhiy va jismoniy nuqsoni sababli ish uchun ahamiyatli bo‘lgan holatni to‘g‘ri idrok etish va bu haqda ko‘rsatuv bera olish layohtatiga ega bo‘lmagan shaxs.

Amaliyotdan misol: Rajapovga 2014-yil 21-mart kuni soat 20-00 larda, o‘zini nomida bo‘lgan Nexia rusumli davlat raqami 60E 444 DA avtomashinasini, yo‘l transport hodisasi sodir bo‘lgan joy, ya’ni Baliqchi tumani markazi hududidan o‘tgan 4R 156-sonli Baliqchi-Marxamat avtomobil yo‘lining 12-kilometrida janubdan shimol tomonga qarab boshqarib borayotib, yo‘l harakati qoidalarini “Haydovchi harakatning serqatnovligi, shuningdek harakatlanish yo‘nalishidagi ko‘rinishni hisobga olgan holda, transport vositasini belgilangan cheklangan tezlikdan oshirmasdan boshqarishi, harakatlanishda haydovchi aniqlay olishi imkoniyatida bo‘lgan xavf yoki to‘siq paydo bo‘lsa, u transport vositasining tezligini to‘la to‘xtatishini ta’minlaydigan darajada kamaytirishi yoki to‘siqni boshqa harakat qatnashchilari uchun xavfsiz aylanib o‘tish choralarini ko‘rish kerak” – deyilgan 12.1-bandini qo‘pol ravishda buzib, shu yo‘ldan o‘tib borayotgan Urinovni avtomashinasini old tomoni bilan urib yuborib, transport vositalari yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzgan. Natijada Urinovni jarohat olishiga sabab bo‘lgan.

Ushbu holat yuzasidan guvohlar so‘roq qilinganda guvoh Akmalov o‘z ko‘rgazmasida: “Jarohat olgan shaxs avtoullov yo‘liga kutilmaganda yugurib o‘zi chiqdi, ushbu Nexia mashinasi taxminan 40 km/s tezliklarda kelayotgan edi, chorrahada svetofor yashil chirog‘i yonib turgan edi” deb bayon qilgan bo‘lsa, guvoh Xamidjonov o‘z ko‘rgazmasida: “Jarohat olgan shaxs odatdagidek yurish bilan yo‘ldan o‘tayotgan edi, Nexia avtomashinasi taxminan 100 km/s tezliklarda kelayotgan edi, chorrahada svetofor qizil chiroq yonib turgan edi, haydovchi jarohatlangan shaxsda xuddi qasdi bordek ataylab uni bosib ketdi” deb bayon qildi.

Rajapov o‘zining bu harakatlari bilan O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 266-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan jinoyatni sodir qilganligi aniqlanib, ish materiallari sud muhokamasiga taqdim etilgan.

Guvoh sifatida nafaqat sodir etilgan jinoyat shohidlari, balki turli majburiyatlarni bajarish davomida ishga aloqasi bo‘lgan shaxslar ham alohida holatlar bo‘yicha guvoh tariqasida so‘roq qilinadi. Ularga quyidagilar kiradi:

1. Tergov yoki sud harakatlarini o‘tkazishda jalb qilingan shaxslar ish qayta ko‘rilganda guvoh sifatida tergov va sud harakatlarini o‘tkazilish holatlarini aniqlashtirish maqsadida, ushbu tergov harakatlarining alohida qismlarini aniqlashtirish zarurati tug‘ilganda yoki tergov bayonnomasida qayd etilgan holatlar va sud tergov davomida vujudga kelgan qarama-qarshiliklarni bartaraf etish bo‘yicha so‘roq qilinishi mumkin. Xuddi

shuningdek, ushbu tergov harakatlarni o'tkazishda ayblanuvchilarning xulq-atvori to'g'risida savol tug'ilishi mumkin. Ushbu turdagi shaxslarga xolislar kiradi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 74-moddasi 4-qismiga binoan xolislar o'zi ishtirok etgan tergov harakatlari bilan bog'liq holatlar bo'yicha guvoh sifatida so'roq qilinishi mumkin.

2. Moliyaviy-taftish nazoratchilar, taftish yoki boshqa tekshirish materiallarini jinoyat ishiga dalil sifatida tikib qo'ygan shaxslar ular tomonidan taqdim etilgan materiallarda mavjud bo'lgan qarama-qarshiliklarni bartaraf etish va faktik ma'lumotlarni to'ldirish uchun ushbu holatlar bo'yicha guvoh sifatida so'roq qilinadi.

3. Qidiruvdagi shaxslarni ushlab yoki ularni kuzatib yurishda ishtirok etuvchi ichki ishlar va boshqa organ xodimlari, shuningdek jamoatchilik vakillari o'zlari aniqlagan holatlari bo'yicha guvoh sifatida so'roq qilinishi mumkin.

Guvohni almashtirib bo'lmasligi guvohlik ko'rsatuvlari tabiatini tasvirlashda asosiy o'rin egallaydi. Ekspert, xolis kasalligi yoki boshqa uzrli sabablarga ko'ra almashtirilishi mumkin, lekin guvohni ish uchun ahamiyatli holatlarni bilmaydigan boshqa bir guvoh bilan almashtirib bo'lmaydi. Ushbu guvohga ish uchun ahamiyatli holat boshqa shaxs orqali ma'lum bo'lmasa, bunday guvoh ham almashtirib bo'lmaydigan guvoh hisoblanadi. Bunday holatda tergovchi yoki sud uning ko'rsatuvlarini boshqa dalillar bilan solishtirib ko'rishi mumkin, biroq xabar qilingan ma'lumotni to'g'riligini tekshirish, tergov va sud uchun ahamiyatli bo'lgan holatlarni to'g'ridan-to'g'ri qabul qilgan shaxs tomonidan bu ma'lumotlar olingan holdagina samaraliroq bo'ladi. O'sha holatlar faqat ushbu guvoh emas, balki boshqa shaxslar tomonidan qabul qilingan bo'lsa, bunday hollarda ham guvoh almashtirilishi mumkin emas. Agar ish holatlari bo'yicha bir necha shaxs ko'rsatuv bergan bo'lsa, u holda sud yoki dastlabki tergov organlarida ularni sinchkovlik bilan va har tomonlama tekshirishga imkon beradi.

Guvoh erkin va majburlovsiz ko'rsatuv berish huquqiga ega. Qonun guvoh tariqasida o'z funksiyasini bajarayotgan shaxslarga tashqaridan bo'layotgan har qanday shaxslarning tazyiqlaridan himoya qilishni kafolatlaydi.

Guvohning sudda og'zaki javob berishi sudga nafaqat guvoh ko'rsatuvining mazmunini tekshirish, balki dalil manbasini qabul qilish va baholash imkonini beradi. Guvoh o'zidagi yozma belgilardan faqatgina

xotirada saqlash qiyin bo'lgan raqamlar va boshqa ma'lumotlarga taalluqli bo'lgan hollarda foydalaniladi. Surishtiruvchi, tergovchi va sud so'roq qiluvchidan so'roq qilish jarayonida u foydalanayotgan hujjatlar va boshqa yozuvlarni talab qilishi, ularni keyin qaytarib berishi yoki ishga qo'shib qo'yishi mumkin (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 103-modda).

Guvohning erkin so'zlab berish huquqi tergov yoki sudga ish uchun ahamiyatli bo'lgan va o'z ko'rsatuvlarini tasdiqlaydigan zaruriy dalillarni olish imkonini beradi. Sudning ajrimiga binoan guvohlik ko'rsatuvlariga tegishli bo'lgan hujjatlar jinoyat ishiga qo'shib qo'yilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 66¹-moddasi **guvohning advokati** protsessual maqomiga bag'ishlangan bo'lib, unga binoan guvohning advokati - belgilangan tartibda guvohning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish hamda unga zarur yuridik yordam ko'rsatish vakolatiga ega bo'lgan shaxsdir. Jinoyat ishida taraflar manfaatini himoya qilayotgan shaxs mazkur ish bo'yicha guvohning advokati bo'lishi mumkin emas.

Guvohning advokati ishda ishtirok etishga u advokatlik guvohnomasini ko'rsatganidan va orderni taqdim etganidan so'ng, guvoh chaqirilgan paytdan e'tiboran qo'yiladi.

Guvohning advokati: huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilayotgan shaxsning qaysi jinoyat ishi bo'yicha chaqirilganligini bilish; guvohning so'roq qilinishida, shuningdek u ishtiroki bilan o'tkazilayotgan boshqa tergov harakatlarida ishtirok etish, unga qisqa maslahatlar berish; so'roq qilayotgan shaxsning ruxsati bilan guvohga savollar berish; guvohni so'roq qilishda ishtirok etayotgan tarjimonni rad qilish haqida qonunda belgilangan tartibda arz qilish; so'roq tugaganidan so'ng guvohning huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilganligi to'g'risidagi, so'roq bayonnomasiga kiritilishi lozim bo'lgan arzlarini bayon etish huquqiga ega.

Guvohning advokati: guvohga zarur yuridik yordam ko'rsatishi; dalillarni yo'q qilish, soxtalashtirish, guvohlarni ko'ndirishga urinish va boshqa qonunga xilof harakatlar orqali haqiqatni aniqlashga to'sqinlik qilmasligi; ishni tergov qilishda va sud majlisi vaqtida tartibga rioya qilishi shart.

Jinoyat protsessida himoyachining faol va sidqidildan ishtirok etishi, o'z himoyasi ostidagi shaxsning manfaatidan kelib chiqib, qonunda ko'rsatilgan barcha usul va vositalarni qo'llashi ishni ayblanuvchi foydasiga

adolatli hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jinoyat ishi yurituvida xulosa berish uchun zarur fan, texnika, san'at yoki hunar sohasida maxsus bilimlarga ega bo'lgan har qanday jismoniy shaxs **ekspert** sifatida chaqirilishi mumkin.

Ekspert chaqirish, ekspertiza tayinlash va o'tkazish O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 172 — 187-moddalarida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

Jinoyat ishi yuzasidan ekspert sifatida qatnashayotgan shaxs: ekspertiza qilish uchun tegishli ish materiallari bilan tanishish va undan kerakli ma'lumotlarni yozib olish; o'ziga qo'shimcha materiallar taqdim etilishi haqida iltimosnoma berish; basharti hal qilinishi lozim bo'lgan masalalar uning mutaxassisligiga oid bo'lmasa yoki xulosa berish uchun unga taqdim etilgan materiallar yetarli bo'lmasa, xulosa berishning iloji yo'qligi haqida hujjat tuzish; surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning ruxsati bilan tergov harakatlari yuritilishida ishtirok etish va tergov harakatida ishtirok etuvchi shaxslarga ekspertizaga oid dalillarni tekshirishda sud muhokamasida ishtirok etish va sudning ruxsati bilan so'roq qilinayotgan shaxslarga savollar berish; ashyoviy dalillarni va hujjatlarni ko'zdan kechirish; o'z xulosalarida faqat uning oldiga qo'yilgan masalalar haqida emas, balki ekspertizaga oid boshqa masalalar bo'yicha ham fikr bildirish; basharti ish yuritilayotgan tilni bilmasa yoki yetarlicha bilmasa, o'z ona tilida xulosa va ko'rsatuv berish hamda bu holda tarjimon xizmatidan foydalanish; surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudning harakatlari hamda qarorlari ustidan shikoyatlar berish huquqiga egadir.

Ayni vaqtda ekspert sudning chaqiruviga binoan hozir bo'lishi; oldiga qo'yilgan savollar bo'yicha yozma xulosalar berishi; o'zi tomonidan o'tkazilgan ekspertiza bo'yicha ko'rsatuvlar berishi va bu xulosalarni tushuntirish uchun qo'yilgan qo'shimcha savollarga javob berishi; dastlabki tergov materiallarini oshkor etmasligi; sud majlisi vaqtida tartibga rioya etishi shart. Ekspert uzrsiz sababga ko'ra kelmagan taqdirda qonunda nazarda tutilgan javobgarlikka tortilishi mumkin. (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 68-moddasi).

Mutaxassis. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 69-moddasida sud muhokamasida mutaxassisning ishtiroki to'g'risida to'xtalib o'tilgan bo'lib, shunga ko'ra mutaxassis sudning chaqiruviga ko'ra sud muhokamasiga kelishi, sudga dalillar topish, o'rganish va mustahkamlashda o'zining maxsus bilimi bilan yordam

berishi, sudning diqqatini ish yuzasidan ma'lum bir holatlarni aniqlashga jalb etishi, alohida savollarga tushuntirish berishi kerak. Shuningdek, mutaxassislar raislik qiluvchining ruxsati bilan dalillarni tekshirish maqsadida ishtirokchilarga savollar berish huquqiga ega.

Mutaxassisga to'g'ri va aniq tushuntirish berish majburiyati yuklatilgan. Mutaxassis o'z majburiyatlarini bajarishdan bosh tortgan yoki bo'yin tovlagan taqdirda unga nisbatan jamoat ta'siri choralari yoki sud tomonidan jarima solinishi mumkin. Sud muhokamasida voyaga yetmagan shaxslarni so'roq qilish vaqtida pedagog taklif qilinishi mumkin.

Sud muhokamasida mutaxassislarning bergan bayonotlari dalillarga baho berishda katta ahamiyatga ega.

Tarjimon. Jinoyat ishi yurituvchi jarayonida tarjimondan foydalanish jinoyat protsessining konstitutsiyaviy kafolatlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 20-moddasiga binoan, **ish yuritilayotgan tilni bilmaydigan yoki yetarli darajada tushunmaydigan protsess ishtirokchilariga** o'z ona tilida yoki o'zi biladigan boshqa tilda og'zaki yoki yozma arz qilish, ko'rsatuv va tushuntirishlar berish, iltimosnoma va shikoyatlar bilan murojaat qilish, sudda so'zlash huquqi ta'minlanadi.

Bunday hollarda, shuningdek ish materiallari bilan tanishish vaqtida protsess ishtirokchilari qonunda belgilangan tartibda tarjimon xizmatidan foydalanishlari mumkin. Tarjimon quyidagi hollarda chaqiriladi:

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi yoki jabrlanuvchi, fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar yoxud ularning vakillari, guvoh, ekspert, mutaxassis ish yuritilayotgan tilni bilmasa yoki yetarli darajada bilmasa yoki kar yoki soqov bo'lsa;

biror matnni boshqa tildan tarjima qilishga zarurat bo'lsa (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 71-moddasi).

Tarjimonga tegishli qoidalar ish yuritishda ishtirok etish uchun taklif qilingan, kar yoki soqovning imo-ishoralarini tushunadigan shaxsga nisbatan ham qo'llaniladi.

Tarjimon tarjimini aniqlashtirish maqsadida protsess ishtirokchilariga savollar berish; o'zi qatnashgan tergov harakatlari bayonnomasi, shuningdek sud majlisi bayonnomasi bilan tanishish hamda bayonnomaga kiritilishi lozim bo'lgan mulohazalar bildirish; basharti tarjima qilish uchun zarur bilim va malakaga ega bo'lmasa, ish yuritishda ishtirok etishdan voz kechish; sudning harakatlari hamda qarorlari ustidan shikoyat keltirish huquqiga egadir.

Ayni vaqtda tarjimon sudning chaqiruviga binoan hozir bo'lishi; o'ziga topshirilgan tarjimoni aniq va to'liq bajarishi; tarjimonning to'g'riligini o'zining ishtirokida o'tkazilgan tergov harakati bayonnomasi va sud majlisining bayonnomasiga, shuningdek protsess ishtirokchilariga ularning ona tiliga yoki ular biladigan boshqa tilga tarjima qilib topshiriladigan protsessual hujjatlarga imzo chekish bilan tasdiqlashi; dastlabki tergov materiallarini oshkor qilmasligi; sud majlisi vaqtida tartibga rioya etishi shart.

Tarjimon bila turib noto'g'ri tarjima qilgan taqdirda qonunda belgilangan javobgarlikka tortiladi (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 72-moddasi).

Tergov harakatlarini yuritishda **xolis** sifatida ishtirok etish uchun ishning oqibatidan manfaatdor bo'lmagan, kamida ikki nafar voyaga yetgan fuqaro chaqirilishi lozim.

Dastlabki tergov bosqichida olib qo'yish, tintuv, ko'zdan kechirish, guvohlantirish, eksperiment, tanib olish uchun ko'rsatish, ko'rsatuvni hodisa yuz bergan joyda tekshirish, ekspert tekshiruvi uchun namunalar olish, murdani ekskumatsiya qilish kabi tergov harakatlarini o'tkazishda kamida ikki nafar xolisning ishtirok etishi talab etiladi. (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 352-moddasi).

Fuqaro tergovchining qonuniy talab va takliflarini bajarishdan bosh tortayotganligi yoki tergovchiga qarshilik ko'rsatayotganligi yoxud dastlabki tergov yuritish tartibiga mos kelmaydigan boshqa huquqqa xilof xatti-harakatlar qilayotganini tasdiqlash uchun ham xolislar taklif qilinadilar. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 93-moddasida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Ichki ishlar organlari, Milliy xavfsizlik xizmati, prokuratura, adliya yoki sud xodimlari xolislar sifatida taklif etilishi mumkin emas (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 78-moddasi).

Tergov harakatini boshlashdan oldin surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror xolislariga ularning huquq va majburiyatlarini tushuntiradi.

Xolis: tergov harakatida ishtirok etish; tergov harakati bo'yicha bayonnomaga kiritilishi lozim bo'lgan arz va mulohazalar berish; o'zi ishtirok etgan tergov harakatining bayonnomasi bilan tanishish; surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning harakatlari va qarorlari ustidan shikoyat keltirish huquqlariga ega.

Qonunda xolisning: surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning

chaqiruviga binoan hozir bo'lish; tergov harakatini yuritishda ishtirok etish; tergov harakati o'tkazilgani, uni o'tkazish jarayoni va natijalarini tergov harakati bayonnomasida imzo chekib tasdiqlash; surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning ruxsatisiz surishtiruv va dastlabki tergov materiallarini oshkor qilmaslik kabi majburiyatlari mavjud.

Xolis uzrsiz sababga ko'ra o'z vazifasini bajarishdan bosh tortganligi uchun qonunda belgilangan javobgarlikka tortiladi. Xolis o'zi ishtirok etgan tergov harakatini yuritish bilan bog'liq holatlar bo'yicha guvoh tariqasida so'roq qilinishi mumkin. U bunday hollarda guvoh huquqlaridan foydalanadi va majburiyatlarni bajaradi (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 74-moddasi).

Jabrlanuvchi yoki uning vakili, guvoh, ekspert, mutaxassis, tarjimon yoki xolis sifatida chaqirilgan shaxsning ish joyidagi o'rtacha oylik maoshi uning surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud huzuriga chaqirilishi munosabati bilan ketgan hamma vaqt uchun saqlanadi. Ishlamaydigan shaxslarga ular kundalik mashg'ulotlari bilan shug'ullana olmaganliklari uchun haq to'lanadi. Bundan tashqari, ko'rsatilgan hamma shaxslar chaqirilgani munosabati bilan qilgan sarf-xarajatlarini undirish huquqiga egadirlar.

Sud majlisi kotibi. Sud majlisining kotibi raislik etuvchining topshirig'iga ko'ra, jinoyat ishini sud majlisida ko'rilishi uchun ushbu moddada ko'rsatilgan vazifalardan tashqari xalq maslahatchilarini taklif etadi, shuningdek jabrlanuvchilarni, guvohlarni, ekspertlarni, tarjimonlarni chaqiradi, prokuror va advokatlarga xabarnoma yuboradi. Sud majlisi kotibining eng asosiy va muhim vazifalaridan biri sud majlisini to'liq va har bir sud harakatini xolis va aniq ifoda etuvchi bayonnomani yuritish hisoblanadi. Bayonnomaning o'z vaqtida va sifatli yuritilishi uchun raislik etuvchi bilan birga sud majlisining kotibi ham mas'uldir. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 426-moddasi beshinchi qismiga binoan bayonnomaning mazmuni bo'yicha raislik qiluvchi bilan o'rtalarida kelishmovchilik bo'lgan taqdirda, kotib o'z mulohazalarini yozma tarzda bayonnomaga ilova qilishi shart. Bu mulohazalar sud tarkibi tomonidan ko'rib chiqiladi. Mazkur masala yuzasidan ajrim chiqarilib, bayonnomaga ilova qilinadi. Agarda sud majlisi jarayonida bir nechta kotib qatnashgan bo'lsa, har qaysi kotib o'zi yuritgan bayonnoma qismini imzolashi shart. Sud majlisi kotibining o'z protsessual majburiyatini bajarishi, basharti ushbu ish sudda yangidan ko'rish uchun yuborilgan bo'lsa, u tomonidan sud majlisi bayonnomasini yana tuzishiga monelik qilmaydi. Sud majlisi kotibini rad qilish haqidagi masala sud tomonidan hal

qilinadi.

MAVZU DOIRASIDA MUAMMOLI SAVOLLAR VA KAZUSLAR

1. Jinoyat protsessining ishtirokchilari - jinoyat protsessual qonun hujjatlarining vazifalari nazarda tutgan maqsadlarni ro'yobga chiqarish uchun O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida nazarda tutilgan huquq va majburiyatlarga ega bo'lgan shaxslardir. **Jinoyat protsessual kodeksida nazarda tutilgan ishtirokchilarning huquq va majburiyatlarini tahlil qiling?**

2. Jinoyat protsessining har bir ishtirokchisi o'ziga xos funktsiya, ya'ni o'z faoliyat yo'nalishini ifoda etuvchi xizmat burchini o'taydi. Ushbu funksiyalarning xususiyati protsessning mazkur ishtirokchilari bajaradigan vazifalarga va ularning muhofaza qilinadigan manfaatlariga bog'liq holda belgilanadi. **Jinoyat protsessual kodeksiga ishtirokchilar borasida kiritilgan so'nggi o'zgarishlarni tahlil qiling.**

1-kazus

Voyaga yetmagan Rashidov, Tojiyev, Sohibov o'g'irlik jinoyatini sodir etganliklari uchun ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilinadilar. Sud majlisiga tayyorgarlik ko'rish davomida sudlanuvchi Tojiyevning himoyachisi himoyadan, Sohibov esa himoyachidan voz kechadi va boshqa himoyachi xizmatidan foydalanishini bildiradi. Sudya sudlanuvchi Sohibovni talabini qondirish va sudlanuvchi Tojiyevni talabini rad etish to'g'risida ajrim chiqaradi. **Himoyadan voz kechish va himoyachidan voz kechish o'rtasida qanday farqlar bor?**

2-kazus

Mansurov o'g'irlik jinoyatini sodir etganligi uchun jinoiy javobgarlikka tortiladi. Uni yashash joyida tintuv o'tkazilganda, o'g'irlangan buyumlardan ayrimlari topiladi. Mansurov so'roq qilinganda, buyumlardan ayrimlarini tanishi orqali bozorda sottirganligini, tilla buyumlarni esa lombardga topshirganligini ma'lum qiladi. Tekshirish natijasida tilla buyumlarni lombarddan Ravshanov sotib olganligi ma'lum bo'ladi. Tergovchi tilla buyumlarni Ravshanovdan olib, ashyoviy dalil sifatida ishga qo'shib qo'yadi. Ravshanov esa tergovchidan fuqaroviy da'vogar deb topishni talab qiladi.

Tergovchi qanday harakat qilishi kerak? Fuqaroviy da'vogar kim?



MUSTAQIL ISH UCHUN TOPSHIRIQLAR

1. MDH davlatlarida va boshqa xorijiy davlatlarda jinoyat protsessi ishtirokchilarining huquqlarini tahlil qiling. Ish shakli – nazorat ishi (esse).
2. Xorijiy davlatlarda jinoyat protsessi ishtirokchilarini klassifikatsiyasini ko‘rib chiqing. Ish shakli – nazorat ishi (esse).

IV BOB. JINOYAT PROTSESSIDA ISHTIROK ETISHGA MONELIK QILADIGAN HOLATLAR. RAD QILISHLAR

(mualliflar yu.f.n. S.M.Sahaddinov, M.Niyazov)

***Annotatsiya:** Ushbu mavzuning talabalar tomonidan o'zlashtirilishi jinoyat protsessining muhim institutlaridan biri bo'lgan rad qilishni amalga oshirishning protsessual tartibi, jinoyat protsessida ishtirok etishga monelik qiladigan holatlarni aniqlash va bu vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish, jinoyat protsessining ayrim toifa ishtirokchilarining ishda ishtirok etishiga monelik qiladigan holatlar to'g'risida bilim olishga imkon beradi.*

4.1. Sudyaning, prokurorning, tergovchining, surishtiruvchining va sud majlisi kotibining ishda ishtirok etishiga monelik qiladigan holatlar

Jinoyat protsessida ishtirok etishga monelik qiladigan holatlar va rad qilish institutining protsessual asoslari O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 7-bobida belgilab berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 76-moddasida jinoyat ishi yurituvda xolislikni ta'minlash maqsadida jinoyat ishi yurituv uchun mas'ul bo'lgan mansabdor shaxslar – sudyaning, prokurorning, tergovchining, surishtiruvchining va sud majlisi kotibining ishda ishtirok etishiga monelik qiladigan holatlar ro'yxati belgilab berilgan. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida jinoyat ishi yurituv uchun mas'ul bo'lgan mansabdor shaxslarning barchasining ishda ishtirok etishiga monelik qiladigan 3 ta (ya'ni, umumiy) hamda faqatgina sudyaga tegishli bo'lgan 6 ta (ya'ni, xususiy) holat belgilangan.

Ishda ishtirok etishiga monelik qiladigan holatlar – jinoyat protsessi ishtirokchilarining xolisligi, beg'arazligiga va ish bo'yicha qonuniy hamda adolatli qaror qabul qilish yoxud protsessual harakatlarni amalga oshirishiga nisbatan shubha tug'diradigan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida nazarda tutilgan obyektiv va subyektiv holatlar.

Demak, dastlab jinoyat ishi yurituv uchun mas'ul bo'lgan mansabdor shaxslarning barchasiga taalluqli bo'lgan ishda ishtirok etishiga monelik qiladigan uch umumiy holatni ko'rib chiqish maqsadga muvofiq.

1) sudya, shuningdek xalq maslahatchisi, prokuror, tergovchi, surishtiruvchi, sud majlisining kotibi shu ish bo'yicha jabrlanuvchi, fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar, ekspert, mutaxassis, tarjimon,

xolis, guvoh, himoyachi sifatida, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining qonuniy vakili yoki jabrlanuvchining, fuqaroviy da'vogarning, fuqaroviy javobgarining vakili sifatida ishtirok etayotgan yoki ilgari ishtirok etgan bo'lsa, jinoyat ishini yuritishda ishtirok etishga haqli emas va uni rad qilish lozim.

Ushbu ta'qiqning umumiy mohiyati shunga borib taqaladiki, jinoyat ishi yurituvchi uchun mas'ul bo'lgan mansabdor shaxslar, ya'ni sudya, prokuror, tergovchi, surishtiruvchi va sud majlisi kotibi ular ayni vaqtda yoxud ilgari ushbu jinoyat ishi bo'yicha boshqacha huquqiy maqomda ishtirok etayotgan yoki etgan bo'lsalar ushbu shaxslarning xolisligiga jiddiy shubha tug'iladi.

Jinoyat ishi yurituvchi uchun mas'ul bo'lgan mansabdor shaxslarning jinoyat ishi yurituvchi natijalaridan manfaatdor emasligi ularning xolisligini ta'minlashning muhimi omili hisoblanadi. Shu bois, ushbu shaxslarning ish bo'yicha jabrlanuvchi, fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar, ekspert, mutaxassis, tarjimon, xolis, guvoh, himoyachi sifatida, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining qonuniy vakili yoki jabrlanuvchining, fuqaroviy da'vogarning, fuqaroviy javobgarining vakili sifatida ishtirok etayotgan yoki ilgari ishtirok etgan bo'lsa, uning xolisligiga shubha tug'iladi va uning haqiqatni aniqlashga emas, balki ko'rsatilgan shaxslar manfaatidan kelib chiqib harakat qilishi ehtimoli vujudga keladi.

Qonun chiqaruvchi yuqoridagi holatlarni hisobga olgan holda mazkur vaziyatda sudya, shuningdek xalq maslahatchisi, prokuror, tergovchi, surishtiruvchi, sud majlisining kotibi rad etilishi lozimligini belgilaydi.

2) sudya, shuningdek xalq maslahatchisi, prokuror, tergovchi, surishtiruvchi, sud majlisining kotibi ushbu ishni yuritish uchun mas'ul bo'lgan biror mansabdor shaxsning yoki shu ish bo'yicha jabrlanuvchi, fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar, ekspert, mutaxassis, tarjimon, xolis, guvoh, himoyachi, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining qonuniy vakili yoki jabrlanuvchining, fuqaroviy da'vogarning, fuqaroviy javobgarining vakilining qarindoshi bo'lsa ham jinoyat ishini yuritishda ishtirok etishga haqli emas va uni rad qilish lozim.

Bu ham yuqorida qayd etilganidek, sudya, xalq maslahatchisi, prokuror, tergovchi, surishtiruvchi va sud majlisining kotibining jinoyat ishi bo'yicha xolisona harakat qilishini shubha ostiga qo'yadi, o'z qarindoshining manfaatidan kelib chiqib harakat qilishi ehtimolini tug'diradi. Ayni damda ushbu normalar axloqiy qadriyatlarga asoslangan bo'lib, shaxs hamda uning qarindoshlari o'rtasidagi munosabatlarni saqlab qolishga xizmat qiladi.

Zero, jinoyat ishi yurituvchi uchun mas'ul bo'lgan shaxs o'zining

qarindoshiga nisbatan jinoyat ishini yuritish natijasida qonun doirasida uning huquqlarini cheklashi oqibatida kelgusida ushbu shaxslar o'rtasidagi qarindoshlik rishtalari uzilishi yoki aksincha, o'z yaqinini turli yo'llar bilan himoyalash maqsadida noxolislikka yo'l qo'yishi mumkin. Qonun chiqaruvchi insonparvarlik hamda ma'naviy-axloqiy mezonlarga rioya etgan holda, jinoyat ishi yurituvchi uchun mas'ul bo'lgan shaxsni bunday majburiyatdan ozod etadi.

3) sudya, shuningdek xalq maslahatchisi, prokuror, tergovchi, surishtiruvchi, sud majlisining kotibining xolisligiga va beg'arazligiga shubha tug'diradigan boshqa holatlar mavjud bo'lsa ham ular jinoyat ishini yuritishda ishtirok etishga haqli emas va uni rad qilish lozim. Sud-tergov amaliyotida bunday holatlar sifatida jinoyat ishi yurituvchi uchun mas'ul shaxslarning jinoyat protsessi ishtirokchilari bilan yaqin do'st ekanligi yoxud aksincha bir-biri bilan xusumat munosabatlarida ekanligi, birgalikda hordiq chiqarishi, dam olishi, ularning bir-biridan qarzdor ekanligi, xizmat yuzasidan qaramligi, hisobdorligi, nazorat ostida ekanligi yoki boshqa mazkur shaxslarning xolisligi va beg'arazligini shubha ostiga qo'yadigan holatlar tan olinadi. Ushbu holatda mazkur shaxslar ish yakunlaridan manfaatdor bo'lgani bois, ular rad etilishi lozim.

Jinoyat ishi yurituvchi uchun mas'ul bo'lgan mansabdor shaxslarning ishda ishtirok etishiga monelik qiladigan har qanday holat ham aniq va ishonchli tarzda aniqlangan bo'lishi lozim, ushbu holatlar taxminlarga, mish-mishlarga yoki tuhmatga asoslangan bo'lishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sud Plenumining 2004-yil 24-sentabrdagi "Dalillar maqbulligiga oid jinoyat-protsessual qonuni normalarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi 12-son Qarori 3-bandining 1-bandiga ko'ra, "...dalillar, agar tergov harakati O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 76-moddasida belgilangan asoslarga ko'ra rad etilishi shart bo'lgan shaxs tomonidan o'tkazilgan bo'lsa, nomaqbul deb topiladi"¹².

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy sud Plenumining 2008-yil 15-maydagi "Sudlar tomonidan jinoyat ishlarini nazorat tartibida ko'rish amaliyoti to'g'risida"gi 12-son Qarori 7-bandining birinchi xatboshisiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 76 va 516-moddalariga muvofiq, chaqirtirilgan yoki protest bilan kelib tushgan jinoyat ishi ushbu ishning ko'rilishida muqaddam ishtirok etmagan sudya

¹² O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining "Dalillar maqbulligiga oid jinoyat-protsessual qonuni normalarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi 2004 yil 24 sentyabrdagi 12-sonli Qarori.//O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorlari to'plami 1991-2006. T.2. –T.: 2007. –B.188.

tomonidan o‘rganib chiqilishi lozim. Qonun mazmuniga ko‘ra bunday qoida iltimosnomani ko‘rib chiqishga nisbatan ham qo‘llanilishi kerak. Iltimosnoma yoki jinoyat ishi mazkur ishning ko‘rilishida muqaddam ishtirok etgan sudyaga tayinlangan hollarda, u O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 80-moddasiga muvofiq o‘zini o‘zi rad etishi shart.

Jinoyat ishi bo‘yicha qonuniy, adolatli va asoslangan qaror qabul qilishning eng muhim sharti bu jinoyat ishining qonuniy tarkibdagi sudlar tomonidan ko‘rib chiqilishidir. Bu esa, jinoyat ishida sudya va xalq maslahatchilari ishtirok etishiga monelik qiladigan, ularning aniq jinoyat ishini ko‘rib chiqish va hal qilishida xolislik va beg‘arazligini shubha ostiga qo‘yadigan holatlar bo‘lmasligini ham talab qiladi.

Endi esa, faqatgina sudyaning ishda ishtirok etishiga monelik qiladigan 6 ta xususiy holatlarga to‘xtalib o‘tamiz. Xususan, ularga ko‘ra, sudya ilgari shu ishni yuritishda surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sud majlisining kotibi sifatida ishtirok etgan bo‘lsa; birinchi instansiya, apellyatsiya yoki kassatsiya instansiyasi sudida yoxud nazorat tartibida ishni ko‘rishda ishtirok etgan sudya uning ishtirokida chiqarilgan hukm, ajrim (qaror) bekor qilinganidan keyin o‘sha ishni ko‘rishda ishtirok eta olmaydi.

Shuningdek, jinoyat ishini birinchi instansiya sudida ko‘rishda ishtirok etgan sudya shu jinoyat ishini apellyatsiya yoki kassatsiya instansiyasida yoxud nazorat tartibida ko‘rishda; jinoyat ishini apellyatsiya (kassatsiya) instansiyasi sudida ko‘rishda ishtirok etgan sudya shu jinoyat ishini birinchi instansiya yoki kassatsiya (apellyatsiya) instansiyasi sudida yoxud nazorat tartibida ko‘rishda; jinoyat ishini nazorat tartibida ko‘rishda ishtirok etgan sudya shu jinoyat ishini birinchi instansiya, apellyatsiya yoki kassatsiya instansiyasi sudida ko‘rishda ishtirok eta olmaydi.

Bunday ta‘qiqlovchi normalarning belgilanishidan maqsad sudyaning xolis va beg‘arazligini ta‘minlash bo‘lib, aks holda sudya o‘zi ilgari chiqargan hukmni asoslashga va o‘zi tomonidan yo‘l qo‘yilgan xatolarni xaspo‘shlashga harakat qilishi mumkin. Boshqacha aytganda, sudya mazkur vaziyatda o‘zi ilgari qabul qilgan qaror bilan bog‘liq bo‘ladi hamda bu sudyada bir tomonlama yondashuvni shakllantiradi. Shu bois ham, haqiqatni aniqlash, protsessda xolislik va beg‘arazlikni ta‘minlash maqsadida qonun chiqaruvchi tomonidan yuqoridagi singari cheklovchi norma o‘rnatilgan.

Shuningdek, ish qo‘shimcha tergov yuritish yoki sudda yangidan ko‘rish uchun yuborilganligi surishtiruvchining, tergovchining, shuningdek sud majlisi kotibining o‘z protsessual majburiyatini bajarishiga monelik qilmasligi belgilangan. Ish qo‘shimcha tergovga qaytarilganda,

surishtiruvchi, tergovchi o'z protsessual majburiyatini bajarishda davom etadi. Bu shu bilan izohlanadiki, qo'shimcha tergovda aynan ushbu ishni yuritgan surishtiruvchi, tergovchiga yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf etish topshiriladi va surishtiruvchi, tergovchi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 419-moddasida ko'zda tutilgan kamchiliklarni bartaraf etishga kirishadi. Bunda aynan muqaddam ushbu jinoyat ishi bo'yicha surishtiruv, dastlabki tergovni yuritgan surishtiruvchi, tergovchining jinoyat ishi yurituviga jalb qilinishi maqsadga muvofiq bo'lib, bu sud tomonidan ko'rsatilgan kamchiliklarni o'z vaqtida va sifatli bartaraf etilishini ta'minlashga xizmat qiladi. Sud majlisi kotibiga kelsak, u asosan, sudda texnik ahamiyatga ega bo'lgan vazifalarni bajarishi hamda jinoyat ishi taqdirini hal qiluvchi muayyan protsessual vakolatlarga ega bo'lmagani bois, uning yangitdan ko'rilayotgan sud majlisida ishtirok etishini cheklovchi holat yo'q.

4.2. Jamoat birlashmasi yoki jamoa vakilining ishda ishtirok etishiga monelik qiladigan holatlar

Jamoat birlashmasi yoki jamoa vakilining ishda ishtirok etishiga monelik qiladigan holatlar O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 77-moddasida belgilangan.

U havolaki norma bo'lib, unga ko'ra, jamoat ayblovchisi, jamoat himoyachisi va jamoat birlashmasi yoki jamoaning boshqa vakillari O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 76-moddasida nazarda tutilgan sudyaning, prokurorning, tergovchining, surishtiruvchining va sud majlisi kotibining ishda ishtirok etishiga monelik qiladigan holatlar mavjud bo'lgan taqdirda ishda ishtirok etishga haqli emaslar va rad qilinishlari lozim.

Demak, jamoat ayblovchisi, jamoat himoyachisi va jamoat birlashmasi yoki jamoaning boshqa vakillari shu ish bo'yicha jabrlanuvchi, fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar, ekspert, mutaxassis, tarjimon, xolis, guvoh, himoyachi sifatida, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining qonuniy vakili yoki jabrlanuvchining, fuqaroviy da'vogarning, fuqaroviy javobgarning vakili sifatida ishtirok etayotgan yoki ilgari ishtirok etgan bo'lsa; u ushbu ishni yuritish uchun mas'ul bo'lgan biror mansabdor shaxsning yoki yuqorida ko'rsatilgan shaxslarning qarindoshi bo'lsa; uning xolisligiga va beg'arazligiga shubha tug'diradigan boshqa holatlar mavjud bo'lsa ishda ishtirok etishga haqli emaslar va rad

qilinishlari lozim.

4.3. Ekspert, mutaxassis, tarjimon va xolisning ishda ishtirok etishiga monelik qiladigan holatlar

Ekspert, mutaxassis, tarjimon va xolisning ishda ishtirok etishiga monelik qiladigan holatlar O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 78-moddasida belgilangan.

Unga muvofiq, ekspert, mutaxassis, tarjimon, xolis quyidagi hollarda jinoyat ishini yuritishda ishtirok etishga haqli emas va rad qilinishi lozim:

1) shu ish bo'yicha jabrlanuvchi, fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar, guvoh, himoyachi sifatida, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining qonuniy vakili yoki jabrlanuvchining, fuqaroviy da'vogarning, fuqaroviy javobgarning vakili sifatida ishtirok etayotgan yoki ilgari ishtirok etgan bo'lsa;

2) ushbu ishni yuritish uchun mas'ul bo'lgan biror mansabdor shaxsning yoki yuqorida ko'rsatilgan o'zga shaxslarning qarindoshi bo'lsa;

3) uning xolisligiga va beg'arazligiga shubha tug'diradigan boshqa holatlar mavjud bo'lsa;

4) ishda ishtirok etayotgan shaxslardan birortasiga xizmat yuzasidan yoki boshqa jihatdan tobe bo'lsa. Xizmat yuzasidan tobelik deganda, ekspert, mutaxassis, tarjimon, xolisning jinoyat ishini yuritayotgan mas'ul mansabdor shaxsga xizmat nuqtayi nazaridan qaramligi, u bilan bo'ysunuv munosabatida ekanligi, mehnat shartnomasiga asosan, xizmat vazifasiga ushbu shaxsning xizmat yuzasidan beradigan topshiriqlarini bajarishi tushuniladi. Xizmat yuzasidan tobelik tabiiyki, ekspert, mutaxassis, tarjimon, xolisning mustaqilligiga hamda xolisligiga shubha tug'diradi. Boshqa jihatdan tobelik deganda, qarzdorligi, fuqaroviy shartnoma asosida topshiriq bajarayotganligi yoki shu kabi mazkur shaxs bilan bo'ysunuv aloqalarida bo'lishini ta'minlovchi munosabatda bo'lishi tushuniladi;

5) ekspert, mutaxassis, tarjimonning o'z kasbiga noloyiqligi ayon bo'lib qolsa, xolislar esa, ichki ishlar organi, milliy xavfsizlik xizmati, prokuratura, adliya yoki sud xodimi bo'lsalar. O'z kasbiga noloyiqligi deganda, ekspert, mutaxassis, tarjimonning surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudya tomonidan qo'yilayotgan savollarga fikr yoki xulosa berishga, taqdim etilayotgan matnni yoki tarjima qilinishi lozim bo'lgan tilni to'g'ri va aniq tarjima qilishga qobiliyatsizligi tushuniladi. Bunga ekspert, mutaxassis, tarjimonning aynan ushbu tor soha bo'yicha malakasizligi yoki

qo'yilayotgan masala bo'yicha fikr, xulosa berishga o'jizligi kabi omillar sabab bo'lishi mumkin;

6) materiallari ishning qo'zg'atilishiga asos bo'lgan taftish yoki o'zga idoraviy tekshiruv o'tkazgan shaxs ushbu ishda ekspert yoki mutaxassis sifatida ishtirok etishga haqli emas. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 321-moddasiga muvofiq, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror o'z vakolatlari doirasida jinoyat sodir etilganligi to'g'risida sabab va yetarli asoslar mavjud bo'lgan barcha hollarda jinoyat ishini qo'zg'atishi shartdir. Bunda korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslar bergan xabarlar ham O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 322-moddasiga muvofiq, jinoyat ishini qo'zg'atish uchun sabab bo'ladi. O'z navbatida jinoyat belgilari mavjudligini ko'rsatuvchi ma'lumotlar jinoyat ishini qo'zg'atish uchun asos bo'ladi. Bunda materiallari ishning qo'zg'atilishiga asos bo'lgan taftish yoki o'zga idoraviy tekshiruv o'tkazgan shaxs tabiiyki o'z tekshiruvining to'g'riligiga amin bo'ladi hamda ayrim hollarda yo'l qo'ygan xatosini ko'ra olmaydi yoki yopishga harakat qiladi. Shu bois, ham qonun chiqaruvchi ushbu shaxslarning mazkur ish bo'yicha ekspert yoki mutaxassis sifatida ishtirok etishiga yo'l qo'ymaydi.

Ishda mutaxassis sifatida ishtirok etgan shaxs kelgusida ushbu ish bo'yicha ekspert qilib tayinlanishi ham mumkin hisoblanadi. Mutaxassis ish bo'yicha fikr beradi va surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudya zarur hollarda, ish bo'yicha qo'yilgan topshiriqni yanada chuqurroq va to'liqroq o'rganish zaruriyati tug'ilsa, mutaxassisni ekspert sifatida jalb etish va o'z tadqiqotini yanada to'ldirib, ekspertlik xulosasini berishni taklif qilishi mumkin hisoblanadi.

4.4. Himoyachi, jabrlanuvchi, fuqaroviy da'vogar yoki fuqaroviy javobgar vakilining ishda ishtirok etishiga monelik qiladigan holatlar

Himoyachi, jabrlanuvchi, fuqaroviy da'vogar yoki fuqaroviy javobgar vakilining ishda ishtirok etishiga monelik qiladigan holatlar O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 79-moddasida belgilangan.

Advokat ishda ishtirok etish haqida bitim tuzilgan yoki tayinlangan vaqtdan boshlab, o'z vazifalarini bajarishni rad etishga haqli emas, ushbu qoidadan istisno tariqasida faqatgina O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 79-moddasida belgilangan hollar ko'zda tutilgan. Unda himoyachi, shuningdek jabrlanuvchining, fuqaroviy da'vogarning

yoki fuqaroviy javobgarining vakili jinoyat ishini yuritishda ishtirok etishga haqli bo'lmagan to'rtta holat belgilab berilgan.

1. Himoyachi va vakil ilgari shu ish bo'yicha sudya, xalq maslahatchisi, prokuror, tergovchi, surishtiruvchi, sud majlisining kotibi, guvoh, ekspert, mutaxassis, tarjimon yoki xolis sifatida ishtirok etgan bo'lsa, jinoyat ishini yuritishda ishtirok etishga haqli emas. Bu ushbu shaxslarning xolisligi va beg'arazligini shubha ostiga qo'yadi hamda odil sudlov manfaatlariga zid keladi, shu bois ham qonun chiqaruvchi shu kabi taqiqni belgilab bergan.

2. Himoyachi va vakil ushbu ishning tergovida yoki sudda ko'rilishida ishtirok etgan yoxud ishtirok etayotgan sudya, prokuror, tergovchi, surishtiruvchi yoki sud majlisining kotibi bilan qarindoshlik munosabatida bo'lsa, yoxud yuridik yordam ko'rsatish to'g'risida u bilan bitim tuzgan protsess ishtirokchisining manfaatlariga manfaati qarama-qarshi bo'lgan shaxs bilan qarindoshlik munosabatida bo'lsa, u jinoyat ishini yuritishda ishtirok etishga haqli emas. Bunda himoyachi va vakilning ushbu ishning tergovida yoki sudda ko'rilishida ishtirok etgan yoxud etayotgan sudya, prokuror, tergovchi, surishtiruvchi yoki sud majlisining kotibi bilan qarindoshlik munosabatida bo'lishi uning o'z himoyasi ostidagi shaxsning manfaati bilan qarindoshlarining manfaati o'rtasida ziddiyat kelib chiqqan hollarda to'g'ri qaror qabul qilish layoqatini shubha ostiga qo'yadi. Yoki himoyachi va vakil yuridik yordam ko'rsatish to'g'risida u bilan bitim tuzgan protsess ishtirokchisining manfaatlariga manfaati qarama-qarshi bo'lgan shaxs bilan qarindoshlik munosabatida bo'lsa ham yuqoridagi kabi vaziyat yuzaga keladi hamda ushbu shaxslarda kimning manfaatini ko'zlab harakat qilish borasida tanlash imkoniyati vujudga keladiki, bu o'z navbatida himoya ostidagi shaxs yoki vakilga ishonch bildirgan shaxs manfaatlariga zid keladi. Shu bois ham qonunchilikda shunday ta'qiq belgilab qo'yilgan;

3. Himoyachi va vakil sudya, prokuror, tergovchi, surishtiruvchi lavozimida bo'lsa ham jinoyat ishini yuritishda ishtirok etishga haqli emas. Bunda shuni e'tiborga olish kerakki, himoyachi bir vaqtning o'zida sudya, prokuror, tergovchi, surishtiruvchi lavozimida faoliyat yurita olmaydi. Ushbu ta'qiq ko'proq vakilga taalluqli bo'lib, basharti u sudya, prokuror, tergovchi, surishtiruvchi lavozimida ishlasa, u vakil sifatida sudda ishtirok eta olmaydi. Biroq, ushbu normadan mazkur cheklovdan istisno belgilangan bo'lib, unga ko'ra, u muomalaga layoqatsiz shaxslarning vakili bo'lsa yoki o'zi ishlaydigan va fuqaroviy da'vogar deb e'tirof etilgan yoki fuqaroviy javobgar tariqasida ishga jalb qilingan muassasaning vakili sifatida qatnashsa, ushbu jinoyat ishi bo'yicha vakil sifatida o'z faoliyatini davom

ettirish huquqini saqlab qoladi;

4. Himoyachi va vakil o‘z himoyasidagi yoki o‘zi vakillik qilayotgan shaxsning manfaatlariga manfaati qarama-qarshi bo‘lgan shaxsga yuridik yordam ko‘rsatayotgan yoki muqaddam shunday yordam ko‘rsatgan bo‘lsa ham jinoyat ishini yuritishda ishtirok etishga haqli emas. Ushbu holat himoyachi va vakil tomonidan o‘z zimmasiga yuklangan protsessual vazifalarni lozim darajada va to‘g‘ri amalga oshirishi mumkinligini shubha ostiga qo‘yadi. Chunki, mazkur hollarda ikki qarama-qarshi tomon manfaati bo‘yicha bir vaqtda himoya qilish yoki vakillik qilishning imkoniyati yo‘qligi bois, qonun chiqaruvchi ham tegishli ta‘qiqni ko‘zda tutgan.

Ushbu hollarda himoyachi va vakil ruhiy-psixologik jihatdan erkin bo‘lmaydi, jinoyat ishi bo‘yicha o‘z yondashuvini to‘liq himoya qilishga qodir bo‘lmaydi v.h. Shu bois, ko‘rsatilgan hollarda qonun talablariga zid ravishda himoyachi yoki vakil ishtirok etsa, himoyachi tomonidan gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchiga yuridik yordam ko‘rsatilsa, kelgusida bu gumon qilinuvchi, ayblanuvchining himoyaga bo‘lgan huquqining buzilishi, bu esa, o‘z navbatida jinoyat-protsessual qonunining jiddiy ravishda buzilishi sifatida tan olinib, hukmning bekor qilinishi uchun asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

4.5. Rad qilish va o‘zini o‘zi rad etish hamda ularni hal qilish tartibi

Odil sudlovning asosiy talabi sifatida xolislik va beg‘arazlikni ta‘minlash maqsadida qonun chiqaruvchi tomonidan qator normalar o‘rnatilgan bo‘lib, ular jinoyat ishini ko‘rib chiqishda ishga nisbatan adolatsiz qarori, yondashuvi yoxud fikri natijasida jinoyat ishi noto‘g‘ri hal qilinishiga sabab bo‘lishi mumkin bo‘lgan shaxslar ishtirokining oldini olishga hamda jinoyat ishini to‘liq, har tomonlama va xolisona tekshirish va tergov qilishga qaratilgan.

Ushbu institut jinoyat ishi bo‘yicha yurituvda xolislik va beg‘arazlikni ta‘minlash, huquqni muhofaza qiluvchi organ va sudning mansabdor shaxslari, shuningdek jinoyat protsessining ayrim ishtirokchilarining o‘z kasb vazifalarini suiste‘mol qilishlarining oldini olish maqsadiga xizmat qiladi.

Rad qilish – qonunda koʻzda tutilgan qonuniy asoslar boʻlgan taqdirda jinoyat protsessi ishtirokchisini ish yuritishdan chetlashtirish boʻlib, uning natijasida shaxs jinoyat ish yurituvda ishtirok etish imkoniyatidan mahrum boʻladi va oʻz protsessual maqomini yoʻqotadi.

Shu tariqa rad qilish oʻz mohiyatiga koʻra, jinoyat protsessi ishtirokchisi protsessual qonun talabini bajarmagan, yaʼni, qonun talabiga zid ravishda protsessda ishtirok etishni davom ettirgan holda qoʻllaniladi.

Shunga muvofiq, rad qilish protsessual sanksiya, yaʼni, huquq normasi dispozitsiyasini buzganlik, bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik natijasida kelib chiqadigan oqibat sifatida ham koʻrilishi mumkin. Rad qilish majburiy ahamiyat kasb etadi va qonunda koʻzda tutilgan hollarda uni qabul qilish shart hisoblanadi.

Jinoyat protsessida rad qilinishi mumkin boʻlgan shaxslar doirasi aniq belgilab berilgan, yaʼni: sudya, prokuror, tergovchi, surishtiruvchi, sud majlisi kotibi, jamoat birlashmasi yoki jamoa vakili, ekspert, mutaxassis, tarjimon, xolis, himoyachi, jabrlanuvchi, fuqaroviy daʼvogar yoki fuqaroviy javobgar vakili.

Koʻrsatilgan shaxslardan birini rad qilish uchun qonunda koʻzda tutilgan umumiy asoslardan birining mavjudligi yetarli hisoblanadi.

Rad qilishni ikki guruhga boʻlishimiz mumkin: 1) oʻzini oʻzi rad etish; 2) jinoyat protsessi ishtirokchilari tomonidan rad qilish. Ayni damda taʼkidlash lozimki, jinoyat protsessining barcha ishtirokchilari ham rad qilish toʻgʻrisidagi tashabbus bilan chiqa olmaydilar. Rad qilish toʻgʻrisidagi masala bilan protsessning jinoyat ishi yakunlaridan manfaatdor boʻlgan ishtirokchilari, yaʼni ayblov tarafi yoki himoya tomoni chiqishi mumkin. Guvoh, tarjimon, ekspert, xolis va mutaxassis, yaʼni jinoyat ishi boʻyicha shaxsiy manfaati boʻlmagan protsess ishtirokchilari rad qilishdan foydalanmaydi, bu yuridik jihatdan toʻgʻri va mantiqiy hamdir. Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida ham ushbu ishtirokchilarning huquqlariga bagʻishlangan moddalarda ularni rad qilish bilan bogʻliq huquqlari koʻzda tutilmagan.

Sudyani rad qilish toʻgʻrisidagi masala imkon qadar sud muhokamasining boshlangʻich bosqichlarida koʻtarilishi maqsadga muvofiq boʻlib, bu rad qilingan sudya deyarli yakunlangan sud muhokamasining chetlatilishi munosabati bilan sud muhokamasini yana yangi tarkibdagi sudda boshlash, sud tergovini takroran oʻtkazish va boshqacha tarzda sud muhokamasining asossiz uzayishining oldini olishga xizmat qiladi.

Basharti, sudyani rad etish uchun asos bo'lgan holatlar vakolatli protsess ishtirokchisiga keyinroq, ya'ni sud tergovi boshlangandan so'ng ma'lum bo'lgan bo'lsa hamda u o'z tasdig'ini topsa, sudya protsessdan chetlashtirilishi hamda zaruriyat tug'ilganda, sud muhokamasi yangitdan o'tkazilishi lozim.

Rad qilish va o'zini o'zi rad etish hamda ularni hal qilish tartibi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 80-moddasida belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 76-79-moddalarida ko'rsatilgan holatlar mavjud bo'lgan taqdirda sudya, xalq maslahatchisi, prokuror, tergovchi, surishtiruvchi, sud majlisining kotibi, jamoat birlashmasining yoki jamoaning vakili, himoyachi, jabrlanuvchining, fuqaroviy da'vogarning yoki fuqaroviy javobgarning vakili, ekspert, mutaxassis, tarjimon, xolis o'zini o'zi rad etishi shart.

Agar ko'rsatilgan shaxslar o'zlarini o'zlari rad etmasalar, unda ularni shu asosga ko'ra gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, shuningdek jabrlanuvchi, fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar va ularning vakillari, himoyachi tomonidan, sud majlisida esa, bundan tashqari davlat ayblovchisi, jamoat birlashmasi yoki jamoaning vakili tomonidan rad qilinishi mumkin.

Rad qilish to'g'risidagi masala qoida tariqasida sud tomonidan maslahatxonada hal qilinadi. Ta'kidlash lozimki, rad qilish instituti jinoyat protsessida xolislik, beg'arazlik va odillikni ta'minlaydi, bir tomonlamalikni inkor etadi. Shu bois ham jinoyat protsessida ikki taraf (bir tomondan, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, fuqaroviy javobgar, ularning himoyachilari va vakillari bo'lsa, ikkinchi tomondan, jabrlanuvchi, fuqaroviy da'vogar va ularning vakillari) manfaati to'qnash kelar ekan, ushbu ishtirokchilar sudya, xalq maslahatchisi, prokuror, tergovchi, surishtiruvchi, sud majlisining kotibi, jamoat birlashmasining yoki jamoaning vakili, himoyachi, jabrlanuvchining, fuqaroviy da'vogarning yoki fuqaroviy javobgarning vakili, ekspert, mutaxassis, tarjimon, xolisning qarama-qarshi tomon manfaatlariga yon bosayotganliklarining guvohi bo'lsalar, darhol tegishli asosga ko'ra, ushbu shaxslarni rad qilish to'g'risida arz qilishlari lozim bo'lib, bu ularning manfaatlari uchun ham xizmat qiladi.

Shuningdek, Oliy sud Plenumining 2008-yil 15-maydagi "Sudlar tomonidan jinoyat ishlarini nazorat tartibida ko'rish amaliyoti to'g'risida"gi 12-son Qarori 7-bandining ikkinchi xatboshisiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 76 va 516-moddalariga muvofiq,

chaqirtirilgan yoki protest bilan kelib tushgan jinoyat ishi ushbu ishning ko‘rilishida muqaddam ishtirok etmagan sudya tomonidan o‘rganib chiqilishi lozim¹³. Qonun mazmuniga ko‘ra bunday qoida iltimosnomani ko‘rib chiqishga nisbatan ham qo‘llanilishi kerak. Iltimosnoma yoki jinoyat ishi mazkur ishning ko‘rilishida muqaddam ishtirok etgan sudyaga tayinlangan hollarda, u O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 80-moddasiga muvofiq o‘zini o‘zi rad etishi shart.

Ishni tergov qilish chog‘ida rad etish masalasi prokuror, tergovchi, surishtiruvchi tomonidan, sud majlisida esa, sud tomonidan ham qo‘yilishi mumkin. Bunda prokuror, tergovchi, surishtiruvchi va sudya ish yuritishni boshlashdan oldin rad etish uchun asoslar bor yoki yo‘qligini aniqlash, bu borada protsess ishtirokchilarining fikrini bilish hamda bu haqda ish yuritish to‘g‘risidagi bayonnomada tegishli qaydni kiritib qo‘yish maqsadga muvofiq. Ta’kidlash lozimki, prokuror, tergovchi, surishtiruvchi va sudya boshqa protsess ishtirokchilarini rad etish bo‘yicha tegishli asoslar mavjudligini aniqlash uchun mas’uldirlar.

Rad qilish haqidagi arz asoslantirilgan bo‘lishi kerak. Ya’ni, arzda O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 76-79-moddalarida ko‘zda tutilgan asoslarga havolalar bo‘lishi, ular o‘z navbatida ushbu vaziyatda nimalarda namoyon bo‘lishi ko‘rsatilishi hamda bu haqda tegishli dalillar (qarindoshligini tasdiqlovchi ma’lumotlar, birga tushgan suratlar, qarz shartnomasi yoki mehnat shartnomasidan ko‘chirmalar v.h.) ilova qilinishi maqsadga muvofiq. Shuningdek, rad qilish haqidagi arz turli xil mish-mishlarga, xohish-istaklarga yoki bo‘lmasa, ko‘rsatilgan shaxslarning shaxsiy fazilatlarini yoki tabiatiga bog‘liq holda berilishi mumkin emas.

Rad qilingan shaxs rad etish haqidagi masala ko‘rilguniga qadar tushuntirish berishga haqli bo‘lib, bu rad qilingan shaxsning motivi va maqsadi to‘g‘risida xulosa qilish imkonini beradi. Ya’ni, rad qilingan shaxs rad etish haqidagi masala ko‘rilguniga qadar ushbu ishni ko‘rishda qatnashishni davom ettirishini asoslovchi dalillarni ko‘rsatishi, uni rad etishni asoslovchi dalillarga nisbatan o‘z vajlarini bayon etishga haqli. Bunda surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudya rad etishga asos bo‘luvchi holatlar mavjudligini aniqlagan bo‘lsa, rad etishni amalga oshirishi shart hisoblanadi.

Sudyani rad qilish tartibi jinoyat ishi hay’atda yoki yakka tartibda

¹³ O‘zbekiston Respublikasi Oliy sud Plenumining “Sudlar tomonidan jinoyat ishlarini nazorat tartibida ko‘rish amaliyoti to‘g‘risidagi” 2008-yil 15-maydagi №11 sonli Qarori.// O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Axborotnomasi, 2008. -№3. – B.10.

ko'rib chiqilayotganligiga qarab farqlanadi. Ya'ni, jinoyat ishi hay'atda ko'rib chiqilayotganida, sudyani rad qilish masalasi qolgan sudyalar tomonidan rad qilingan shaxsning ishtirokisiz ko'rib chiqiladi hamda ovozlar teng bo'linganda sudya rad qilingan hisoblansa, ishni yakka o'zi ko'rayotgan sudyani rad qilish masalasini uning o'zi hal qiladi. Ayni damda ko'pchilik sudyalarni yoki sudning butkul tarkibini yoxud sud majlisining kotibini rad qilish haqidagi masala to'la tarkibdagi sud tomonidan oddiy ko'pchilik ovoz bilan hal etilishi belgilangan. Sud amaliyotida sudyani rad etish tartibining aniq belgilanganligi ishni xolis va beg'araz sudya tomonidan ko'rib chiqilishini ta'minlash uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Prokurorni, jamoat birlashmasi yoki jamoa vakilini, surishtiruvchi yoki tergovchini, ekspertni, mutaxassisni, tarjimonni, himoyachini, jabrlanuvchining, fuqaroviy da'vogarning, fuqaroviy javobgarning vakillarini, xolisni rad qilish tartibi ish jinoyat protsessining qaysi bosqichida ekanligiga qarab o'zgarishi mumkin.

Ya'ni, sud bosqichida, shu jumladan, sud majlisida prokurorni, jamoat birlashmasi yoki jamoa vakilini, ekspertni, mutaxassisni, tarjimonni, himoyachini, jabrlanuvchining, fuqaroviy da'vogarning va fuqaroviy javobgarning vakillarini rad qilish masalasi sud tomonidan hal etiladi.

Sudga qadar bo'lgan bosqichda, shu jumladan, ishni tergov qilish chog'ida esa, prokurorni rad qilish masalasi yuqori turuvchi prokuror, surishtiruvchi yoki tergovchini rad qilish surishtiruv va dastlabki tergov ustidan nazorat olib boruvchi prokuror tomonidan, ekspertni, mutaxassisni, tarjimonni, himoyachini, jabrlanuvchining, fuqaroviy da'vogarning, fuqaroviy javobgarning vakillarini, shuningdek xolisni rad qilish masalasi ishni tergov qilish chog'ida surishtiruvchi yoki tergovchi tomonidan hal etiladi.

Rad qilish muddati hamda uni rasmiylashtirish tartibida rad qilishga nisbatan u jinoyat protsessining qaysi bosqichida amalga oshirilganligiga qarab ikki xil muddat belgilangan. Xususan, tergov qilish chog'ida qo'yilgan rad qilish masalasi surishtiruvchi, tergovchi, prokuror tomonidan yigirma to'rt soat ichida hal etilsa, sud majlisida rad qilish shu majlisda darhol hal etilishi lozim. Ayni damda rad qilishni qanoatlantirish yoki qanoatlantirmaslik haqida surishtiruvchi, tergovchi, prokuror qaror, sud esa ajrim chiqaradi. Bu haqdagi qaror yoki ajrimda rad qilishni qanoatlantirish yoki qanoatlantirmaslik haqidagi to'xtam asoslantirilgan, har qanday holatda ham bu boradagi vajlarga baho berilgan bo'lishi lozim.



MAVZU BO‘YICHA XULOSALAR

Mazkur mavzuni o‘rganishda talabalar jinoyat protsessida ishtirok etishga monelik qiladigan holatlarning Oliy sud Plenumi qarorlarida va tarmoq qonun hujjatlarida mustahkamlanishiga oid masalalarni ko‘rib chiqishlari; qiyosiy-huquqiy tahlil o‘tkazib, jinoyat ishlari yurituvida rad qilish instituti rolini aniqlashlari lozim.

MAVZUGA OID MUAMMOLI SAVOLLAR VA KAZUSLAR

1. Rad qilish instituti jinoyat protsessida xolislik, beg‘arazlik va odillikni ta‘minlaydi, bir tomonlamalikni inkor etadi. **Rad qilish va o‘zini o‘zi rad qilish institutining protsessual farqini tahlil qiling.**

2. Rad qilish dastlabki tergov va sudda jinoyat ishi holatlarini xolis va beg‘araz tekshirishni hamda shu orqali jinoyat sud ish yurituvi maqsadlariga erishishni kafolatlash vositasi vazifasini bajaruvchi jinoyat protsessual huquq instituti hisoblanadi. **Jinoyat ishi yurituviga mas‘ul mansabdor shaxslarni xolisligiga va beg‘arazligiga shubha tug‘diradigan boshqa holatlar deganda nima tushuniladi?**

1-kazus

Sud tergov jarayonida sudlanuvchi Kabirov o‘z himoyachisini rad qilish to‘g‘risidagi iltimos bilan sudga murojaat etdi. Kabirov o‘z iltimosini himoyachi jinoyat ishi materiallari bilan yetarlicha tanish emasligi bilan asoslantirdi va o‘z xohishiga ko‘ra, boshqa himoyachi jalb qilishni so‘radi. Sud o‘z navbatida himoyachi ishni davom ettirishi to‘g‘risidagi e‘tirozlarini o‘rganib, ko‘rsatilgan vajlarni asossiz deb hisoblashi hamda himoyachini rad etish asoslari mavjud emas deb topib, sudlanuvchining iltimosini qanoatlantirmadi.

Sudning qarori to‘g‘rimi? Himoyachi qaysi hollarda rad etilishi mumkin?

2-kazus

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 97-moddasi 2-qismi “g” bandi bo‘yicha qo‘zg‘atilgan jinoyat ishi bo‘yicha ayblov hukmi chiqarilgandan so‘ng xalq maslahatchisi Kamilov ancha yil muqaddam ichki ishlar idoralarida halok bo‘lgan Suratov bilan birga xizmat qilganligi aniqlandi. Ushbu holat yuzasidan xalq maslahatchisi raislik qiluvchiga xabar qilmagan.

Ushbu holat xalq maslahatchisini rad qilish uchun asos bo'la oladimi? Hukm qonuniy kuchga kirgandan so'ng rad qilish uchun asos aniqlanadigan taqdirda qanday huquqiy oqibatlar kelib chiqadi?



MUSTAQIL ISH UCHUN TOPSHIRIQLAR

1. Xorijiy mamlakatlar jinoyat protsessida ishtirok etishga monelik qiladigan holatlarni ko'rib chiqing. Ish shakli – nazorat ishi (esse).

2. MDH mamlakatlari jinoyat-protsessual qonunchiligida rad qilishni amalga oshirish tartibini ko'rib chiqing. Ish shakli – nazorat ishi (esse).

V BOB. DALILLAR VA ISBOT QILISH

(Mualliflar – yuridik fanlar doktori, prof. Z.F.Inog‘omjonova, yuridik fanlar doktori, dots. G.Z.To‘laganova)

***Annotatsiya:** Talabalar uchun mazkur mavzu o‘rganilishi jinoyat protsessida dalil, dalil manbalari va isbotlanishi lozim bo‘lgan holatlar tushunchasi, haqiqat turlari, isbot qilish va isbot qilish jarayonining tarkibiy qismlari, isbot qilish predmeti va isbot qilish doirasini o‘rganib tahlil qilish imkon beradi.*

5.1 Dalillar va isbot qilish tushunchasi


O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 81-moddasiga binoan, ijtimoiy xavfli qilmishning yuz bergan va bermaganligini shu qilmishni sodir etgan shaxsning aybdor, aybsiz ekanligini va ishni to‘g‘ri hal qilish uchun ahamiyatli bo‘lgan boshqa holatlarni surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud tomonidan qonunda belgilangan tartibda aniqlashlariga asos bo‘ladigan har qanday haqiqiy ma'lumotlar jinoyat ishi bo‘yicha **dalil** hisoblanadi.

Jinoyat protsessida dalillar tushunchasi markaziy ahamiyat kasb etadi. Dalillar – bu faktlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlardir, isbotlash predmetiga kiruvchi faktlar esa dalil hisoblanmaydi. Inson ongida predmetlar, narsalar emas, balki ularning manzaralari, tushunchalari va ular to‘g‘risidagi ma‘lumotlar mavjud bo‘ladi. **Haqiqiy ma‘lumotlar – bu qonuniy manbalardan olingan faktlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlardir. Jinoyat protsessual qonunchilikda esa faktlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar haqiqiy ma‘lumotlar deb yuritiladi.** Haqiqiy ma‘lumotlar va ularning manbalari o‘zaro bog‘liqlikda bo‘lib, ularning birlashuvi dalilning vujudga kelishiga asos bo‘ladi. Tergov va sud harakatlarining bayonnomalari ham dalil kuchiga ega. Ular sifatli, mazmunli va savodli yozilishi shart. Bayonnomani yuritish mas‘uliyati surishtiruvchi, tergovchiga, sud muhokamasi bayonnomasi esa sud majlisi kotibiga yuklatilgan. Dalillar faqat qonunda belgilangan manbalardan olinishi lozim. Bu manbalar O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 81-moddasida belgilangan. Agar ma‘lumotlar boshqa manbalardan olingan bo‘lsa, bu ma‘lumotlar ish bo‘yicha dalil bo‘la olmaydi.

Jinoyat-protsessual qonuniga 2016 yil 26 aprelda kiritilgan so‘nggi o‘zgartirish va qo‘shimchalarga binoan endilikda qonunda belgilangan

talablarga rioya etilgan holda o'tkazilgan tezkor qidiruv tadbirlarining natijalari JPK normalariga muvofiq tekshirilganidan va baholanganidan so'ng jinoyat ishi bo'yicha dalillar deb e'tirof etiladi.

Isbot qilish jinoyat protsessida juda muhim ahamiyatga ega bo'lib, agar mazkur faoliyat natijasiz yakunlansa, jinoyat kim tomonidan va qanday holatlarda sodir etilganligi aniqlanmasa, jinoyat protsessining maqsadlariga erishilmagan, deb hisoblanadi. Isbot qilish jarayonida xatolikka yo'l qo'yilsa, bundan ham og'irroq oqibatlar kelib chiqishi, natijada aybi bo'lmagan shaxs jazoga tortilishi mumkin. Shunday qilib, isbot qilish qanchalik to'la va mahorat bilan amalga oshirilsa, ish bo'yicha chiqariladigan hukm va boshqa qarorlarning qonuniyligi va asoslantirilganligi shunchalik ta'minlangan bo'ladi.



Isbot qilish deganda subyektlarning jinoyat-protsessual qonunga asoslangan holda muayyan jinoyat ishiga tegishli bo'lgan har qanday ma'lumotlarni protsessual tartibda to'plash, mustahkamlash, tekshirish va baho berish, shuningdek, davlat nomidan bu ma'lumotlarning mavjudligini tasdiqlash faoliyati tushuniladi.

Jinoyat protsessining asosiy vazifasi jinoyat ishi bo'yicha obyektiv

haqiqatni aniqlashdir, buning uchun esa ish bo'yicha aniqlangan har bir dalil, ma'lumot, fakt isbotlanishi lozim. Isbotlash murakkab jarayon bo'lib, jinoyat protsessining negizi hisoblanadi. Jumladan, isbot qilish - jinoyat protsessual faoliyatni tartibga soluvchi, shuningdek sudlov faoliyatidagi jinoyat ishi bo'yicha haqiqatga erishishni ta'minlovchi jarayondir. Bu jarayonning mohiyati uning elementlarida, ya'ni dalillarni to'plash, tekshirish, mustahkamlash va baholashda aks etadi. Dalillarni aniqlash, ular bilan ishlash va protsessual isbotlash jinoyat protsessining asosiy faoliyat qismidir. Protsessual isbotlash faqat fikrlash faoliyati emas, balki ish uchun ahamiyatga ega bo'lgan holatlarni aniqlashga qaratilgan va ish bo'yicha yakuniy qaror chiqarishga imkon beruvchi huquqiy faoliyatdir. Isbotlash predmeti va doirasi, isbotlash ishtirokchilari, ularning isbotlash jarayoni davomidagi majburiyatlari jinoyat-protsessual huquq fanida muhim masalalaridan biri hisoblanadi. Chunki jinoyat protsessual faoliyatning asosini isbotlash jarayoni tashkil qiladi. Faqatgina isbotlash jarayoni davomida olingan ishonchli ma'lumotlar asosida har qanday jinoyat ishi adolatli hal qilinadi.

Jinoyat protsessida isbot qilish tushunchasi bilan birgalikda dalillar huquqi, dalillar nazariyasi kabi tushunchalar mavjud. Isbotlash predmeti va doirasi, shuningdek ushbu jarayonni amalga oshiruvchi normalar yig'indisi dalillar huquqini tashkil qiladi. Isbotlash huquqi har bir ish bo'yicha isbot qilish maqsadiga erishish uchun kafolat hisoblanadi va isbot qilish shartlari, yo'nalishlari mazmunini belgilab beradi. Isbot qilishning aniq mazmunini esa protsessual harakatlar va munosabatlar tashkil qiladi.

Dalillar nazariyasi isbot qilishning gnoseologik, huquqiy, mantiqiy va psixologik asoslarini o'rganadi, shuningdek huquqiy normalarning jinoyatlarni tergov qilish davomida qonuniy qo'llanilish amaliy faoliyatini tartibga soladi.

Ish bo'yicha to'plangan har bir dalil alohida va barcha dalillar bir tizimga keltirilib umumiy baholanadi. Dalillar o'rtasida hech qanday mantiqiy ziddiyatlar bo'lmasligi lozim, aks holda aybdor shaxsning aybi to'la isbotlanmagan, deb hisoblanadi. Bu esa tergov bir yoqlama olib borilganini ayblanuvchining protsessual manfaatlari to'la tekshirilmaganligini, tergov sifatsiz, yuzaki olib borilganini ko'rsatuvchi holat bo'ladi. Tergovchi dalillarni baholashda yoki jinoyat ishi bo'yicha xulosa chiqarishida o'z ichki ishonchiga amal qilishi lozim. Isbot qilish O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi moddalarining talablariga mos bo'lishi lozim. Bu qoidaga amal qilmaslik jinoyat ishi bo'yicha yig'ilgan ma'lumotlarni noqonuniy deb topishga sabab bo'lishi

mumkin. Masalan, shaxsni aybdorligi tasdiqlanmaganda, uning aybdorligi yoki aybsizligi to'la aniqlanmaganda, jabrlanuvchining protsessual huquqlari va qonuniy manfaatlari ta'minlanmaganda, ishni adolatli hal qilish masalasi yechilmasdan qoladi. Isbot qilish o'zida haqiqatni aniqlash jarayonini ifoda etadi. Uning mohiyati dalillarni to'plashda, tekshirishda namoyon bo'ladi. Isbot qilish jarayonini amalga oshirishda sudya, tergovchi va boshqa protsess subyektlarining amaliy tajribasi, shuningdek ularning dunyoqarashi, huquqiy ongi va tafakkuri muhim o'rin tutadi. Amaliy tajriba bilim faoliyatining asosi bo'lib, bu tajriba isbotlash subyektlari tomonidan ishlash jarayoni davomida o'zlashtirib boriladi, natijada ularning amaliy tajriba darajasi yillar davomida ortib boradi. Isbot qilinishi lozim bo'lgan holatlar ichida har bir jinoyat ishi bo'yicha faktik holatlarni bor yoki yo'qligini aniqlash muhim o'rin tutadi. Jinoyat protsessida isbot qilishning asosiy maqsadi - haqiqatni aniqlashdir.

Jinoyat protsessida **obyektiv haqiqat** tushunchasi o'z ichiga tergov, prokuratura va sud organlarining jinoyat ishi bo'yicha aniqlangan holatlar to'g'risidagi ishonchli xulosalarini qamrab oladi. Obyektiv haqiqat real bo'lgan taqdirdagina isbotlash protsessi maqsadiga erishiladi.

Jinoyat protsessida **nisbiy haqiqat** deganda, ya'ni jinoyat protsessida bironta jinoyat ishini isbotlanishi davomida aniqlangan holatlar tashqi dunyo hodisalari bilan bog'liq bo'lmaydi va yuridik, daliliy ahamiyatga ega bo'lmaydi.

Jinoyat protsessida **absolyut haqiqat**da esa, jinoyat ishi bo'yicha aniqlangan holatlarning barchasi bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Ayrim hollarda haqiqat konkret aniqlanmaganda, u ham nisbiy, ham absolyut bo'ladi.

Haqiqatni aniqlash jinoyat protsessining maqsadi va adolatli hukm chiqarishning asosiy shartlaridan biridir. Jinoyat qanday sodir ishi holatlarini bo'lgan bo'lsa, shunday holda aniqlash obyektiv haqiqatning mazmunini tashkil qiladi. Jinoyat ishi bo'yicha obyektiv haqiqatni aniqlash tartibi jinoyat-protsessual qonunchilik bilan tartibga solingan.

5.2 Isbot qilish predmeti

Isbotlanishi lozim bo'lgan holatlarning aniq belgilanishi tergov va sud organlari faoliyatining maqsadini, jinoyat ishi holatlarining to'la, har tomonlama va xolisona tekshirilishini ta'minlaydi.

Protsessual jihatdan **isbotlash predmeti** – bu jinoyat ishi bo'yicha ahamiyatli va barcha aniqlanishi lozim bo'lgan holatlar yig'indisidir.

Isbotlash predmetiga chambarchas bog‘liq bo‘lgan isbotlash doirasi esa isbotlanishi lozim bo‘lgan holatlar, dalillar va ularning manbalarining hajmi, chegarasini belgilaydi. Isbotlash doirasi isbotlash predmetining har bir elementi aniqlanishini ta‘minlash uchun biron-bir aniq harakatning chegaralarini belgilab beradi. Isbot qilishning asosiy vazifasi isbotlash predmetiga kiruvchi zarur bo‘lgan barcha holatlarni aniqlashdir. Subyektlar tomonidan ish uchun ahamiyatli holatlarning to‘liq, har tomonlama va xolisona aniqlanishi ish bo‘yicha haqiqatni o‘rnatishga, jinoyatni to‘g‘ri tasniflashga, jazoning muqarrarligi va jinoyat ishi bo‘yicha qonuniy, adolatli, asoslangan hukm chiqarilishiga xizmat qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 82-moddasida isbotlash predmetiga quyidagi isbotlanishi lozim bo‘lgan holatlar kiritilgan: jinoyat obyekti: jinoyat tufayli yetkazilgan ziyonning xususiyati va miqdori, jabrlanuvchining shaxsini tavsiflovchi holatlar; sodir etilgan jinoyatning vaqti, joyi, usuli, shuningdek jinoyat kodeksida ko‘rsatib o‘tilgan boshqa holatlari; qilmish va ro‘y bergan ijtimoiy xavfli oqibatlar o‘rtasidagi sababiy bog‘lanish; jinoyatning ushbu shaxs tomonidan sodir etilganligi; jinoyat to‘g‘ri yoki egri qasd bilan yoxud beparvolik yoki o‘z-o‘ziga ishonish oqibatida sodir etilganligi, jinoyatning sabablari va maqsadlari; ayblanuvchi, sudlanuvchining shaxsini tavsiflovchi holatlar. Isbotlash jarayonida jinoyatning vaqti, joyi, usuli, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida ko‘rsatib o‘tilgan boshqa holatlar, qilmish va ularning ijtimoiy xavfli oqibatlari o‘rtasidagi sababiy bog‘lanishni o‘rganish muhim o‘rin egallaydi. Bu holatlarning aniqlanishi orqali jinoyatning qachon, qayerda, qanday usullar orqali hamda qanday sharoitlarda sodir etilgani va ulardan kelib chiqqan oqibatlar o‘rtasida qanday sababiy bog‘lanish borligi kabi masalalar hal qilinadi. Bu holatlarni aniqlash surishtiruvchi, tergovchidan katta mas‘uliyat talab etadi. Chunki ayrim holatlar asosiy fakt bo‘lmasa ham, jinoyatning ochilishida yordamchi dalil bo‘lib xizmat qiladi. Ba‘zi jinoyatlar bo‘yicha vaqtni aniqlashda esa kun yoki haftaning aniqlanishi ham yetarli bo‘ladi. Ammo har qanday vaziyatda jinoyat sodir etilgan vaqt, joy, usul, harakatlar va ularning oqibatlari o‘rtasidagi sababiy bog‘lanish holatlari to‘la, har tomonlama, xolisona aniqlanishi shart, aks holda dastlabki tergovning to‘liqsiz yoki bir yoqlama o‘tkazilishi holati yuzaga keladi. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 82-moddasi 3-bandida jinoyatning muayyan shaxs tomonidan sodir etilganligi jinoyat hodisasining isbotlanishi lozim bo‘lgan holati sifatida ta‘riflanadi. Jinoyat aynan muayyan shaxs tomonidan sodir etilganligini isbotlash uchun uning ma‘lum yoshga

toʻlganligi, aqli rasoligi, jinoyat aynan shu shaxs tomonidan sodir etilganligi, ayrim jinoyatlarda maxsus subyekt bor yoki yoʻqligini ham aniqlash zarur. Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 82-moddasi 4-bandida koʻrsatilgan jinoyatning subyektiv tomonlarini, uning sabab va maqsadlarini aniq belgilash jinoyatni toʻgʻri malakalash, shaxsning ayblilik darajasini hisobga olgan holda adolatli jazo tayinlashning zaruriy shartidir. Jinoyatning subyektiv tomonini aniqlash sud-tergov amaliyotida maʼlum qiyinchiliklar tugʻdiradi, shuning uchun jinoyatning ijtimoiy xavfli tomonlari, maqsad va motivlarini chuqur oʻrganish lozim. Jinoyatning maqsadi, motivi va sodir etish asoslarini yetarlicha tadqiq etmaslik jinoyatni malakalashda xatoliklarga yoʻl qoʻyilishiga, shaxsning sodir etmagan qilmishi uchun jinoiy javobgarlikka tortilishiga sabab boʻladi. Jinoyatning sabablari va maqsadlarini aniqlanishi keyinchalik shu jinoyatning qayta sodir etilishini oldini olish imkoniyati beradi. Ayblanuvchi, sudlanuvchining shaxsini tavsiflovchi holatlar isbot qilinishi zarurligi Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 82-moddasi 5-bandida belgilangan. Ayblanuvchi, sudlanuvchining shaxsini tavsiflashda ogʻirlashtiruvchi hamda yengillashtiruvchi holatlar inobatga olinadi. Tergovchi ayblanuvchi (sudlanuvchi)ning familiyasi, ismi va otasining ismi, tugʻilgan vaqti (yili, oyi, kuni) va joyi, yashash va ish joyi, mansabi, mashgʻulot turi, maʼlumoti, oilaviy ahvoli, sudlanganligi yoki sudlanmaganligini aniqlaydi. Shuningdek, shaxsning ilgarigi faoliyati natijasidagi imtiyozlari, mehnatga, jamiyatda tutgan oʻrni, oilasining moddiy holati, ish staji, sogʻligʻi, oldingi ish joylarida qanday ishlaganligi, qaramogʻida voyaga yetmagan farzandlari borligi eʼtiborga olinib, ular boshqa isbotlanishi lozim boʻlgan holatlar bilan uzviy bogʻliqlikda koʻrib chiqiladi. Yaʼni bu holatlar aniqlanayotganda shu jinoyatni sodir etishga undagan sharoitlar, sabablar ham aniqlanadi. Demak, isbotlanishi lozim boʻlgan holatlar bir-biri bilan chambarchas bogʻliq boʻlib, bir holatning aniqlanishi ikkinchisini topishga yordam beradi. Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 82-moddasida nazarda tutilgan isbotlanishi lozim boʻlgan holatlar barcha turdagi jinoyatlarga taalluqlidir. Lekin alohida toifadagi ishlarni yuritishda qoʻshimcha holatlar ham aniqlanadi. Dastlabki tergov harakatlari va sud muhokamasi davrida voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlarni yuritishda Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 82-84-moddalarida koʻrsatilgan holatlardan tashqari voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlar boʻyicha isbotlanishi lozim boʻlgan bir qator oʻziga xos boshqa holatlar ham isbotlanishi lozim. Bu toifadagi ishlarda voyaga yetmagan ayblanuvchining

aniq yoshi (tug‘ilgan yili, oyi, kuni), voyaga yetmaganning shaxsiga xos xususiyatlar va uning salomatligi holati; uning turmush va tarbiyalanish sharoitlari; katta yoshli dalolatchilar va boshqa ishtirokchilarning bor yoki yo‘qligi aniqlanadi. Shaxsning aqli rasoligini belgilash ham isbotlash lozim bo‘lgan muhim holatlardan biridir. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 566-moddasida aqli noraso shaxs tomonidan sodir qilingan ijtimoiy xavfli qilmish yuzasidan isbotlanishi lozim bo‘lgan holatlar ko‘rsatilgan. Unga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 82-moddasining 1, 2 va 5-bandlarida nazarda tutilgan holatlar; shaxs, qilmish sodir etgan vaqtida surunkali ruhiy kasal ekanligi, ruhiyati vaqtincha buzilganligi, aqli zaifligi yoki boshqa kasalligi, shuning oqibatida uning aqli noraso bo‘lganligi, ya’ni o‘z harakatlarini idrok eta olmaganligi; mazkur shaxsning dastlabki tergov va sud muhokamasi vaqtidagi ruhiy holati aniqlanishi lozim. Shu bilan birgalikda jinoyat sodir etganidan so‘ng ruhiy kasallikka chalingan shaxsning ishi bo‘yicha uning bundan keyingi harakatlari o‘zi va atrofdagilar uchun xavf tug‘dirishi mumkinmi yoki yo‘qligi, davolanishga muhtojligi, unga nisbatan tibbiy yo‘sindagi majburlor choralari qo‘llanilishiga zarurat bor yoki yo‘qligini ham isbotlash lozim. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida belgilangan isbotlanishi lozim bo‘lgan holatlarning har biri jinoyat ishlarini ochish uchun umumiy ravishda zarur bo‘lgan holatlar yig‘indisidir. Bu holatlar bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, isbotlash jarayoni davomida bir-birini to‘ldirib boradi.

Isbotlashning asosiy maqsadi - jinoyat jarayonini olib borish davomida adolat mezoni bo‘lmish haqiqatni aniqlashdan iborat.

Xulosa qilib aytganda, protsessual isbot qilish jarayonida har bir jinoyat ishi bo‘yicha isbotlanishi lozim bo‘lgan holatlarni to‘la, har tomonlama, xolisona aniqlashlari lozim. Isbotlash jarayonining eng zaruriy shartlaridan biri bo‘lgan isbotlanishi lozim bo‘lgan holatlarni aniqlashda qonuniy, ishonchli manbalardan olingan ma’lumotlardan foydalaniladi.

5.3. Isbot qilish doirasi

Isbotlash doirasi isbotlash predmeti bilan uzviy bog‘liqdir. Birinchisi, maqsadni anglatadi, ikkinchisi esa unga erishish vositasi hisoblanadi. Isbotlash doirasi tushunchasi, bir tomondan bilish hodisasining kerakli va to‘liqlik talabini ta’minlanishini, ikkinchidan, bilish natijalarining talabini aks ettirilishini o‘z ichiga oladi. Isbotlash doirasi jinoyat ishi bo‘yicha juda katta ahamiyatga ega bo‘lgan holatlarni to‘liq har tomonlama ishonchli

tasdiqlanishini ta'minlaydi.

Isbotlash doirasi - bu jinoyat ishi bo'yicha to'plangan dalillarning kerakli yetarli birligi bo'lib, jinoyat ishini adolatli hal qilish uchun yordam beradi.

Isbotlash doirasi to'plangan dalillar isbotlash predmetining har bir elementi aniqlanishini ta'minlash uchun biron-bir muayyan ishning chegaralarini belgilab beradi. Isbotlash predmeti javobgarlik va jazo masalalarini hal qilishi uchun faktik asos bo'lgan hamda jinoyat ishi bo'yicha isbotlanishi lozim bo'lgan holatlarni o'z ichiga olsa, isbotlash doirasi esa isbotlash predmetini aniqlash uchun faktik asos bo'lgan daliliy materiallarni o'z ichiga oladi.

Aniq jinoyat ishi bo'yicha isbotlash doirasi isbotlash predmetining chegarasi hisoblanadi. Isbotlash doirasi isbotlash predmetiga mansub bo'lib, ana shu asosda jinoyat ishi bo'yicha isbotlanishi lozim bo'lgan holatlar to'planadi, tekshiriladi, baholanadi va tegishli protsessual harakatlar amalga oshiriladi. Isbotlash doirasi - isbotlash predmetiga kiruvchi fakt (holat)larni aniqlash va tekshirishning chegarasidir. Isbotlash doirasi isbotlash predmetiga kiruvchi faktlar, holatlarni tekshirilishini ta'minlaydi.

Isbotlash doirasi predmetiga kiruvchi holatlarni to'plash, ya'ni ushbu elementlarni amalga oshirishda barcha bog'liqliklar, detallar emas, balki ularning eng zarurlari hisobga olinadi. Masalan, bezorilik jinoyatida holatlarni aniqlashda ayblanuvchi tomonidan xulq-odob qoidalariga xilof aytilgan barcha so'zlarni olish shart emas, balki aynan jamoat tartibiga hurmatsizlik qilish harakati inobatga olinishi lozim.

Jinoyat protsessida isbotlash doirasi deganda, ish bo'yicha chiqarilgan xulosalarning asosliligini tasdiqlash uchun dalillar, ularning manbalari hajmi, shuningdek tergov versiyalari, isbotlanishi lozim bo'lgan holatlarni tekshirish chegarasi, doirasini belgilab beruvchi faoliyat tushuniladi.

Jinoyat protsessida ish bo'yicha isbotlash doirasi shunday aniqlanadiki, ishni to'g'ri hal qilish uchun ahamiyatga molik bo'lgan, isbotlash predmetiga kiruvchi barcha holatlar yetarli, to'liq darajada tekshirilib, to'plangan materiallar bilan ularning xususiyatlari to'liq aniqlanishiga olib keladi.

Isbotlash doirasini to'g'ri belgilab olish isbotlashning subyektlariga bog'liq bo'lib, ularning faolligi darajasiga, aniqlangan dalillarning sifati va miqdoriga bog'liqdir. Agarda isbotlash chegarasidagi barcha ishga taalluqli

bo‘lgan dalillar aniqlangan bo‘lsa, isbotlash chegarasi ish bo‘yicha kerakli bo‘lgan xulosani shakllanishiga asos bo‘ladi. Boshqacha so‘z bilan aytganda, isbotlash chegarasi – ish bo‘yicha isbotlanishi lozim bo‘lgan holatlarning isbotlanish darajasidir.

Isbotlash doirasi protsessual faoliyat chegarasini belgilaydi va u:

– barcha tekshiriladigan tergov versiyalarini to‘liqlik darajasida ko‘rsatadi;

– aniqlanishi lozim bo‘lgan faktlarning tadqiq etish chuqurligini ko‘rsatadi;

– dalillar va ularni manbalarining hajmini belgilaydi, chunki ularning voqelikdagi bor yoki yo‘qligini tan olish uchun xizmat qiladi;

– ish bo‘yicha xulosalarni chiqarish yetarliligini belgilaydi.

Isbotlash chegarasi jinoyat protsessining barcha bosqichlari uchun yagonadir. Isbotlash doirasiga dalillar, holatlarning asosiy quyidagi guruhi kiradi:

a) jinoyatning sodir bo‘lishini bildiruvchi holatlar (vaqt, joy va boshqalar) va jinoyat tarkibi bor yoki yo‘qligi to‘g‘risidagi holatlar;

b) shaxsning aybini tasdiqlovchi yoki inkor etuvchi holatlar;

v) jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini aniqlovchi holatlar;

g) jinoyat tufayli yetkazilgan ziyonning xususiyatini va miqdorini aniqlovchi holatlar;

d) jinoyatni sodir qilishga yordam bergan shart-sharoitlarni aniqlovchi holatlar.

Jinoyat protsessida isbot qilish predmeti ish bo‘yicha nimalar aniqlanilishini bildirsa, isbotlash doirasi esa ish bo‘yicha mavjud holatlarning tekshirish hajmi va chegarasini belgilaydi.

Jinoyat ishi bo‘yicha aniqlanishi lozim bo‘lgan faktlar va holatlar juda ko‘p bo‘lib, ularning barchasi o‘z xususiyatlari, belgilariga ega. Ushbu fakt va holatlarni to‘la, har tomonlama aniqlash isbotlash doirasini belgilash demakdir. Isbotlash doirasi isbotlash predmeti bilan uzviy bog‘liq, lekin mazmunan turlicha bo‘lgan tushunchalardir. Isbotlash predmeti maqsadni anglatsa, isbotlash doirasi ushbu maqsadga erishish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Isbotlash doirasi – isbotlash predmetining dalillari bo‘lib xizmat qiladigan faktlarni aniqlash va tadqiq etish chegarasi hisoblanadi. Agar isbotlash predmeti jinoyat ishini to‘g‘ri hal qilishga imkon beradigan, qidirilishi lozim bo‘lgan holatlar majmui bo‘lsa, isbotlash doirasi – bunday holatlarni aniqlash uchun zarur bo‘lgan dalillar yig‘indisidir.

Isbotlash doirasi jinoyat ishi bo‘yicha juda katta ahamiyatga ega bo‘lgan holatlarni to‘liq har tomonlama ishonchli tasdiqlanishini

ta'minlaydi. Isbotlash doirasi faktlar va holatlar yig'indisining shunday yetarliligini ta'minlaydiki, u qonun, huquqiy ong va amaliyot asosida tergovchi va sudyalarga isbotlash predmetining barcha elementlari amalda mavjudligiga ichki ishonch hosil qilish imkonini beradi.

Jinoyat protsessining turli bosqichlarida dalillarni to'plash, tekshirish va baholash uchun qonunda belgilangan cheklovlarni ham isbotlash doirasi deb tushunmaslik lozim. Ushbu holatda qonunda belgilangan cheklovlar isbotlash rejimining alohida xususiyatlarini anglatadi. Lekin cheklangan isbotlash rejimi sharoitida ham uning doiralari turlicha, ya'ni keng yoki birmuncha tor bo'lishi mumkin.

Isbotlash doirasi isbotlash predmetidan farqli ravishda jinoyat protsessual qonunchilikda yetarli aks ettirilmagan.

Isbotlash doirasi isbotlash predmetiga bog'liq bo'lib, ana shu asosda jinoyat ishi bo'yicha isbotlanishi lozim bo'lgan holatlar to'planadi, tekshiriladi, baholanadi va tegishli protsessual harakatlar amalga oshiriladi. Isbotlash doirasi isbotlash predmetiga kiruvchi faktlar, holatlar, shuningdek jinoyat ishidagi turli versiyalarning ham tekshirilishini ta'minlaydi.

Isbotlash doirasida isbotlash predmetiga kiruvchi barcha bog'liqliklar, detallar emas, balki eng zarur bo'lgan holatlar e'tiborga olinadi. Masalan, bezorilik jinoyati bo'yicha ish holatlarni aniqlashda ayblanuvchi tomonidan axloq qoidalariga xilof aytilgan barcha so'zlar emas, balki aynan jamoat tartibiga hurmatsizlik holati inobatga olinadi.

Tergov amaliyotda isbotlash doirasini asoslanmagan tarzda qisqartirish hollari uchrab turadi.

Amaliyotdan misol: O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 104-moddasi, 2-qismi, «e» bandi bilan javobgarlikka tortilgan Salimovning jinoyat ishini ko'rib chiqamiz. Shu ishni ko'rayotgan tergovchi va sud tomonidan bitta versiya ilgari surilgan, ya'ni unga ko'ra, Salimov bezorilik oqibatida jabrlanuvchi Anorovanning qorin qismiga tepib, unga og'ir tan jarohati yetkazadi. Shu bilan birga jinoyat ishi bo'yicha tergovchi va sud tomonidan e'tiborga olinmagan boshqa versiyalar ham bo'lgan. Bezorilik temir yo'l stansiyasida sodir qilingan bo'lib, unda 10 kishi qatnashgan, jabrlanuvchi rels yaqinida behush holatda topilgan. Ekspertning xulosasiga ko'ra, u tan jarohatini o'tmas predmet yoki rels ustiga yig'ilishi oqibatida olgan, bu versiya vujudga kelishining sababi, jabrlanuvchi mast holatda edi. Ammo tergovchi va sud boshqa versiyalarni inobatga olmagan, natijada isbotlash doirasi asoslanmagan holda qisqartirilgan va dastlabki tergov to'liq o'tkazilmaganligi uchun sud hukmining bekor bo'lishiga olib kelgan.

Yuqoridagi misoldan kelib chiqqan holda jinoyat protsessida isbotlash doirasi deganda, ish bo'yicha chiqarilgan xulosalarning asosligini tasdiqlash uchun dalillar, ularning manbalari hajmi, shuningdek tergov versiyalari, isbotlanishi lozim bo'lgan holatlarni tekshirish chegarasi, doirasini belgilab beruvchi faoliyatini tushunamiz.

Isbotlash doirasini to'g'ri belgilab olish isbotlashning subyektlariga, ularning faollik darajasiga, aniqlangan dalillarning sifati va hajmiga

bog'liqdir. Agarda isbotlash doirasidagi ishga taalluqli barcha dalillar aniqlansa, u ish bo'yicha zarur xulosani shakllantirish uchun asos bo'ladi. Boshqa so'zlar bilan aytganda, isbotlash doirasi jinoyat protsessining barcha bosqichlari uchun yagona bo'lib, u ish bo'yicha isbotlanishi lozim bo'lgan holatlarning isbotlanish darajasidir.

Isbotlash doirasi protsessual faoliyatning chegaralarini belgilaydi va u barcha tekshiriladigan tergov versiyalarining to'liqlik darajasini, aniqlanishi lozim bo'lgan faktlarning qanchalik chuqur tadqiq etilishi lozimligini ko'rsatadi, dalillar va ularning manbalari hajmini va ish bo'yicha chiqarilgan xulosalarning yetarliligini belgilaydi.

Ta'kidlash joizki, isbotlash doirasi tergovchi va sud bilish faoliyatining o'ta muhim jihatlaridan bo'lib, ushbu faoliyatga aniq maqsadga yo'naltirish ruhini beradi hamda yuqorida tilga olingan shaxslarni ortiqcha mehnatdan xalos etadi.

Xulosa qilib aytganda, jinoyat protsessida isbot qilish predmeti ish bo'yicha aniqlanishi lozim bo'lgan holatlarni bildirsa, isbotlash doirasi esa ish bo'yicha mavjud holatlarning tekshirish hajmini va chegarasini belgilaydi.

5.4. Dalillarning xususiyatlari

Jinoyat protsessida dalil va isbotlanishi lozim bo'lgan holatlar eng muhim masalalardan hisoblanib, jinoyatni ochish, ayblanuvchini fosh etish, jazoni muqarrarligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Dalillarning quyidagi xususiyatlari mavjud: faqat haqiqiy ma'lumotlar dalil hisoblanadi; ular qonunda belgilangan manbalardan olingan bo'lishi shart; ishni to'g'ri hal qilish uchun ahamiyatga molik bo'lgan holatlar haqidagi ma'lumotlarga asoslanishi lozim; haqiqiy ma'lumotlar isbotlash predmetiga aloqador bo'lishi shart. Dalillarning birinchi xususiyatidan kelib chiqadigan bo'lsak, haqiqiy ma'lumotlar ikki qismga bo'linadi: faktlar to'g'risidagi ma'lumotlar; daliliy faktlar.

Faktlar to'g'risidagi ma'lumotlar deganda, ishonchliligini tekshirish zarur bo'lgan jinoyat ishi holatlari to'g'risidagi ma'lumotlar tushuniladi.

Daliliy faktlar deganda esa ishonchliligi shubha tug'dirmaydigan, tekshirilgan ma'lumotlar tushuniladi. Masalan, guvohning gumon qilinuvchini jinoyat sodir etilgan joyga yaqinroq yerda ko'rganligi to'g'risidagi ko'rsatuvi fakt to'g'risidagi ma'lumot bo'lib, u albatta tekshirilishi lozim.

Dalillarning ikkinchi xususiyati – dalillar faqat belgilangan

manbalardan olinishi lozimligidir. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 81-moddasida belgilanganidek, bular gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, guvoh, jabrlanuvchining ko'rsatuvlari, ekspert xulosasi, ashyoviy dalillar, ovozli yozuvlar, videoyozuvlar, kinotasvir va fotosuratlardan iborat materiallar, tergov va sud harakatlarining bayonnomalari va boshqa hujjatlardir.

Agar ma'lumotlar boshqa manbalardan olingan bo'lsa, bu ma'lumotlar ish bo'yicha dalil bo'la olmaydi.

Ayrim xorijiy mamlakatlarda jinoyatlarni ochishda boshqa noan'anaviy usullardan ham foydalaniladi. Bular gipnoz ostida so'roq qilish, poligraf - yolg'on detektoridan foydalanish va ekstrasensorikaga murojaat qilish kabi usullardir. Bu ma'lumotlar daliliy ahamiyatga ega bo'lmasa ham, ular tezkor-qidiruv faoliyatiga ko'maklashishi, ya'ni unga to'g'ri yo'nalish olishda yordam berishi mumkin, shuning uchun bedarak yo'qolgan shaxslarni qidirish, ashyoviy dalillarni izlashda parapsixologiya usullariga murojaat qilinishi foydadan xoli emas. Dalillarning uchinchi belgisi - jinoyat ishi bo'yicha ahamiyatga ega bo'lgan haqiqiy ma'lumotlar qonun bilan belgilangan tartibda qo'lga kiritilishi lozim. Haqiqiy ma'lumotlar qonuniy manbalardan olinib, lekin qonunda belgilangan tartibga rioya qilinmagan bo'lsa, bu dalillarning ishonchliligi yuzasidan shubha tug'iladi. Masalan, tergovchi tintuv yoki olib qo'yish tergov harakatini xolislarining ishtirokisiz amalga oshirilgan bo'lsa, olingan ma'lumotlar daliliy ahamiyatga ega bo'lmaydi. Shuningdek, tergovchining so'roq qilish davomida ishora qiluvchi savollar berishi, g'ayriqonuniy usullar qo'llashi ham salbiy natijaga olib keladi.

Dalillarning to'rtinchi xususiyati – haqiqiy ma'lumotlar isbotlash predmetiga aloqador bo'lishi lozim. Aloqadorlik dalillarning mazmunini ifodalaydi. «Aloqadorlik – dalillarning yuridik xususiyatini emas, balki obyektiv xususiyati tashkil qiladi.

Jinoyat protsessida dalil sifatida quyidagilar e'tirof etiladi: haqiqiy ma'lumotlar, ya'ni sodir etilgan jinoyat ishi to'g'risidagi axborotlar; ijtimoiy xavfning mavjud yoki mavjud emasligi, ushbu harakatlarni sodir etgan shaxsning aybini aniqlashga yordam beruvchi va jinoyat ishini to'g'ri hal qilinishi uchun ahamiyatga ega bo'lgan holatlar to'g'risidagi haqiqiy ma'lumotlar; guvoh, jabrlanuvchi, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchining ko'rsatuvlari, ekspertning xulosalari, ashyoviy dalillar, ovozli va video yozuvlar, kinotasvir hamda fotosuratlardan iborat materiallar, tergov va sud harakatlarining bayonnomalari va boshqa hujjatlar bilan aniqlanadigan haqiqiy ma'lumotlar; qonunda ko'rsatilgan

tartibda to'plangan haqiqiy ma'lumotlar; isbotlash subyektlarining ichki ishonchi bo'yicha tekshirilgan va baholangan haqiqiy ma'lumotlar.

Haqiqiy ma'lumotlar va ularning manbalari o'zaro bog'liqlikda bo'lib, ularning birlashuvi dalilning vujudga kelishiga asos bo'ladi. Isbotlash doirasi isbotlanishi lozim bo'lgan holatlarni isbot qilish uchun zarur bo'lgan dalillar yig'indisidir.

5.5. Dalillarni tasniflanishi va ularning amaliy ahamiyati

Dalillarni tasniflash – bu ma'lum bir asoslarga, mezonlarga ko'ra, ularni guruhlarga, toifalarga bo'lish, ajratishdir. Dalillarning tasnifi ularning ayrimlariga tavsif berish hamda ulardan to'g'ri foydalanishda katta ahamiyatga ega. Dalillarni qaysi manbalardan olinganligi, ma'lumotlarning isbotlash predmetiga taalluqli bo'lgan sharoitlarga aloqadorligi yoki bu sharoitlarni tasdiqlovchi yoki inkor etuvchi boshqa sohaga daxldor ekanligigiga qarab tasniflash va turli guruhlarga ajratish mumkin. Har bir dalilni mazkur belgilariga ko'ra turli guruhlarga mansubligi aniqlanadi. Dalillarni tekshirish chog'ida ularning «birinchi manbadan» olinganligi yoki ma'lumotlarning boshlang'ich manbasi, ularning aniqlanishi lozim bo'lgan holat bilan aloqasi, mazkur ma'lumotlar ayblov yoxud oqlov xarakteriga ega ekanligi e'tiborga olinishi zarur.

Dalillarni tasniflash bir necha asoslarga ko'ra amalga oshiriladi hamda ko'p tarmoqli tizim hisoblanadi. Tasniflashning amaliy ahamiyati shundan iboratki, u dalillarni to'plash, tekshirish va baholashda ularning hisobga olinishi lozim bo'lgan turli jihatlarini ochib beradi va jinoyat ishi bo'yicha ishonchli xulosalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Dalillar quyidagicha tasniflanadi:

Dastlabki va hosila dalillar. Olinish manbasiga qarab dalillar dastlabki va hosila dalillarga bo'linadi. Bunda tergovchi yoki sudning ma'lumotlarni boshlang'ich yoki boshqa manbalardan olganligi nazarda tutiladi.

Dastlabki dalillar - bu aniqlanishi lozim bo'lgan holat to'g'risidagi ma'lumot birinchi manbadan olingan dalillardir. Masalan, guvohning shaxsiy kuzatuvlari asosida bergan ko'rsatuvlari hamda uni so'roq qilish bayonnomasi dastlabki dalil hisoblanadi. Ekspertning xulosasi ham dastlabki dalil sifatida e'tirof etiladi.

Hosila dalillar esa isbot qilinishi lozim bo'lgan holat to'g'risidagi ma'lumot birinchi manbadan emas, balki boshqa manbadan yoki oddiy til bilan aytganda «ikkinchi manbadan» olingan dalillardir.

Dastlabki va hosila dalillar bir-biridan manbasining shakllanishi bilan farqlanadi. Hosila dalillarning shakllanish jarayonida oraliq bo‘g‘in mavjud bo‘ladi. Agar hodisaga bir shaxs shohid bo‘lib, so‘ngra bu haqda boshqasiga xabar bergan bo‘lsa, shuningdek ushbu ikkinchi shaxs guvoh sifatida hodisa haqida ko‘rsatuvlar berayotgan bo‘lsa, bunday ko‘rsatuvlar hosila dalil hisoblanadi. Demak, hosila dalil olinishida jinoyat shohidi bo‘lgan guvohning axborotini qabul qilish bosqichi bilan bu axborotning tergovchi tomonidan olinishi o‘rtasida yana bir bo‘g‘in – uni eshitgan guvoh ishtirok etadi. Axborot bir manbadan ikkinchisiga o‘tganda o‘zgarishlarga uchrashi tabiiy. Oraliq manbalar qanchalik ko‘p bo‘lsa, dalilning o‘zgarishlar va buzilishlari ehtimolligi ortadi. Shuning uchun oraliq manbalardan ma‘lumotlar olinganda albatta ma‘lumotning boshlang‘ich manbasi (masalan, guvoh) topilishi va so‘roq qilinishi kerak. Chunki hodisaning haqiqiy shohidi bu to‘g‘rida boshqalarga qaraganda to‘la, aniq, ishonchli ma‘lumot berishi shubhasiz va uning ko‘rsatuvlarini tekshirish ham qiyinchilik tug‘dirmaydi. Hujjatlardan olingan nusxalar ham hosila dalil hisoblanadi. Bu holda hujjatning asl nusxasi axborotning boshlang‘ich manbai, undan nusxa olgan va tasdiqlagan shaxs esa axborotning ikkilamchi manbaidir.

Ayblovchi va oqlovchi dalillar. Dalillarni ayblovchi va oqlovchilarga bo‘linishi olingan ma‘lumotlar va aniqlangan dalillarning mazmuniga bog‘liq.

Ayblanuvchining aybini tasdiqlovchi, uning javobgarligini og‘irlashtiruvchi dalillar ayblovchi dalillar deb ataladi. Bunday dalillarga ayblovga asos bo‘lgan dalillar yoki ayblanuvchining javobgarligini og‘irlashtiruvchi holatlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar kiradi.

Oqlovchi dalillar – bu ayblovni inkor qiluvchi, ayblanuvchining aybsizligini tasdiqlovchi, ayblanuvchining javobgarligini yengillashtiruvchi holatlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar, shuningdek ayblanuvchiga qo‘yilgan ayblovni shubha ostiga oluvchi dalillardir.

Dalillarni ayblovchi va oqlovchi dalillarga bo‘lish shartli xususiyatga ega, chunki bir dalil ish yuritish davomida o‘z xususiyatini o‘zgartirishi va ish yuritish davomida ayblovchi dalillar oqlovchi dalillarga aylanishi ham mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 22-moddasida surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud har bir jinoyat ishi bo‘yicha ayblanuvchini ayblovchi dalillarnigina emas, uni oqlovchi dalillarni ham, shuningdek uning javobgarligini yengillashtiruvchi va og‘irlashtiruvchi holatlarni ham aniqlashni shart qilib qo‘ygan. Amaliyotda

ayblanuvchini fosh qiladigan dalillarni to'plashga ahamiyat beriladi-yu, oqlovchi dalillarni to'plashga yetarli ahamiyat berilmaydi. Buni esa qonuniylikni buzish, ishni biryoqlama hal qilish deb baholash lozim.

Dastlabki tergov bosqichidagi tortishuv jinoyat-protsessual funksiyalar taqsimlanishi prinsipini bosqichma bosqich tatbiq etishni, ya'ni isbotlash jarayonida protsessual imkoniyatlar tengligini ta'minlashni nazarda tutadi.

Qonunga ko'ra, dastlabki tergovdagi ayblov va himoya funksiyalari prokuror va tergovchining vakolatlarida jamlangan bo'lib, ular ish bo'yicha haqiqatni aniqlash uchun isbotlanishi lozim bo'lgan barcha holatlarni, shu jumladan ayblanuvchini ham fosh etadigan, ham oqlaydigan holatlarni sinchkovlik bilan, har tomonlama, to'la va xolisona tekshirib chiqishlari kerak. Hozirgi zamon jinoyat protsessida ayblovchi va oqlovchi dalillarni topish vazifalari bir-biridan qat'iy tarzda ajratilishining tarafdorlari ko'pchilikni tashkil etadi.

Oqlovchi dalillar orasida ayblanuvchining alibisi alohida o'rin tutadi. Ishonchli isbot qilingan alibi shaxsni jinoyat sodir etganlikda ayblash imkoniyatlarini yo'qqa chiqaradi, shuning uchun u har tomonlama tekshirilishi lozim.

Tekshirilgan va baholangan ayblovchi va oqlovchi dalillar o'ta muhim protsessual hujjatlar - ayblov xulosasi (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 379-moddasi) va hukmda (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 463-464-moddalari) o'z aksini topadi. Sud ayblov hukmini chiqarishda sudlanuvchining aybini isbot qiluvchi ishonchli ayblovchi dalillarga asoslangani va oqlovchi dalillar nima sababdan rad etilganini; oqlov hukmini chiqarishda esa oqlovchi dalillarga asoslangani va ayblov xulosasida keltirilgan holatlarning rad etish sabablarini aniq ko'rsatishi shart.

To'g'ri va egri dalillar. Isbotlash predmetining bosh fakti bo'lgan isbotlash tezisiga, ya'ni shaxsning aybdorligi yoki aybsizligiga nisbatan dalillar to'g'ri va egri dalillarga bo'linadi.

Isbot qilinadigan holatni to'g'ridan-to'g'ri va bevosita belgilaydigan dalil to'g'ri dalil, «oralik», «yordamchi», «isbotlovchi» faktlar orqali bu holatni belgilaydigan dalil esa egri dalil deb ataladi.

Jinoyatni o'z ko'zi bilan ko'rgan guvohning ko'rsatuvlari (masalan, ayblanuvchi jabrlanuvchiga qanday zarba berganligi to'g'risida), ayblanuvchining o'z aybiga iqror bo'lishi va jinoyatni qachon, qaysi sabablar asosida sodir etganligi haqidagi tushuntirishlari to'g'ri dalil hisoblanadi. To'g'ri dalilda asosiy faktga qaratilgan faqat bitta xulosa bo'lib, bunda asosiy vazifa olingan ma'lumotlar bevosita isbotlash

predmetiga taalluqliligi sababli ularning ishonchli ekanligini (ya'ni, ayblanuvchi, guvoh haqiqatni gapirayotganligini) aniqlashdan iborat. Har bir to'g'ri dalilning ishonchliligini aniqlashda u barcha dalillar yig'indisi bilan birgalikda ko'rib chiqiladi.

Guvohlarning jinoyat sodir etilgan kunda gumon qilinuvchi o'z uyida bo'lmaganligi, u jinoyat sodir etilgan joyda ketayotganini ko'rganligi, jinoyat sodir etilgan joyda gumon qilinuvchiga tegishli ashyo topilgani va hokazolar egri dalillar hisoblanadi. Ular shunchaki «ikkilamchi», «ko'makchi», «oraliq» faktlar bo'lib, tergov va sud organlari mazkur dalillar yordamida ushbu jinoyat aynan kim tomonidan sodir etilganligi haqida xulosa chiqarishlari mumkin. Masalan, egri dalillar asosida qotillik to'g'risidagi ishni yuritishda tergovchi va sudda ayblanuvchining mazkur jinoyatni sodir etganligi to'g'risidagi xulosa (qotillik sodir etilgan pichoqning ayblanuvchiga tegishliligi, jinoyat sodir etilgan joydan ayblanuvchining poyafzal izlarini topilishi, ayblanuvchi va jabrlanuvchi o'rtasidagi salbiy munosabatlar va boshqalar) shakllanadi. Egri dalillar yordamida isbotlashda: birinchidan, sudga, tergovchiga berilgan ma'lumotlarning ishonchliligi (ayblanuvchi va jabrlanuvchi o'rtasida salbiy munosabatlar bo'lganligi to'g'risida guvoh bergan ko'rsatuvlarining rostligi, haqiqatan ham pichoqda ayblanuvchining barmoq izlari borligi v.h.) tekshiriladi; ikkinchidan, jinoyat sodir etish haqidagi ma'lumotlarning ayblanuvchiga aloqadorligi (ayblanuvchining jabrlanuvchi bilan salbiy munosabatda bo'lishi mumkinligi, lekin bu oqibatda jinoiy qilmish sodir etishga sabab bo'la olmasligi; hodisa sodir bo'lgan joydan ayblanuvchining poyafzal izlari topilgani, lekin bu poyafzalni boshqa shaxs kiygan bo'lishi mumkinligi v.h.) aniqlanadi.

Tergov va sud amaliyotidagi ba'zi ishlarda ayblov faqat egri dalillarga asoslanadi. Egri dalillarga asoslangan sud hukmi to'g'ri dalillarga asoslangan sud hukmi qanday qonuniy kuchga ega bo'lsa, xuddi shunday kuchga egadir.

Demak, egri dalillar – tarqoq faktlar va ular haqidagi ma'lumotlar emas, balki yagona, tarkibiy qismlari o'zaro uzviy bog'liqlikda va bir-birini taqozo etuvchi yaxlit birlikdir. Ular aynan shunday ko'rinishda isbotlashda daliliy ahamiyatga ega bo'lib, muayyan shaxsning ma'lum jinoyat sodir etganlikda aybdorligi haqida fikr yuritishga imkon beradi.

Keltirilgan egri dalillarning tasnifidan ulardan foydalanishning quyidagi qoidalari kelib chiqadi: egri dalillar ish bo'yicha faqat umumiy birlikda ishonchli xulosalarga olib keladi; egri dalillar o'zaro va isbotlanadigan holat bilan uzviy bog'liq bo'lishi lozim; egri dalillarning

yig'indisi ish bo'yicha mavjud shubhalar istisno etilishiga haqidagi xulosaga olib kelishi kerak.

Shaxsiy va ashyoviy dalillar. *Shaxsiy dalillar* – xabarlar bo'lib, bunda insondan olinuvchi ma'lumotlarni aks ettiruvchi dalillar nazarda tutiladi (guvoh, jabrlanuvchi, gumon qilinuvchi va boshqa shaxslardan olingan ko'rsatuvlar, ekspert xulosasi, hujjatlar).

Xabar deganda, inson sezgi organlari orqali qabul qilgan va ongida qayta ishlangan axborotning uzatilishi tushuniladi. Shu sababli, bunday dalillarda subyektiv elementlar mavjuddir. Shaxsiy dalillar og'zaki (yozma) xabar shaklida (ayblanuvchi, gumon qilinuvchi, guvohning ko'rsatuvlari va hokazo) hosil bo'ladi hamda O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 87-moddasida sanab o'tilgan tergov va sud harakatlarining bayonnomalarida aks ettiriladi. Bu hollarda tergovchi, sud tomonidan tuzilgan bayonnoma protsessning barcha boshqa subyektlari uchun dalillar manbai bo'lib xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 81, 204-moddalarida nazarda tutilgan boshqa yozma hujjatlar ham shaxsiy dalillar hisoblanadi.

Ashyoviy dalillar deganda moddiy dunyodagi ashyolardan olinuvchi dalillar tushuniladi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 203-moddasiga ko'ra, kelib chiqishi, kimga tegishlilikini, ma'lum maqsadlarda foydalanilganligini yoki foydalanishga yaroqliligini, qo'ldan-qo'lga o'tganligi yoki turgan joyi o'zgarganligi, u yoki bu moddalar, narsa, jarayon va hodisalar ta'sir etganligini aniqlash mumkin bo'lgan fizikaviy alomatlar yoki belgilarga, shuningdek ish holatlarini aniqlashga xizmat qiladigan har qanday boshqa xususiyatlarga ega bo'lgan narsalar ashyoviy dalil hisoblanadi. Ushbu moddada ko'rsatilgan alomatlar, belgilar, izlari ega bo'lgan yozma dalillar ham ashyoviy dalil vazifasini o'tashi mumkin (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 204-moddasi).

Ashyoviy dalil murakkab tuzilishga ega bo'lib, uning quyidagi uch tarkibiy qismi mavjud: a) jinoyat hodisasi natijasida vujudga kelgan iz, barmoq izlari, narsaning joylashuvi, holat va boshqa xususiyatlarining o'zgarishi; b) hodisa joyidan olingan va o'zgarishlar, xususiyatlar, izlar va hokazolarni o'zida aks ettiruvchi narsalar; v) hodisa joyidan olingan va ishga qo'shilgan narsaning xususiyatlarini ifoda etuvchi ma'lumotlar. Bu tarkibiy qismlardan biron-tasi bo'lmaganda ashyoviy dalil ham bo'lishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2012-yil 13-dekabrda "Jinoyat ishlari bo'yicha ashyoviy dalillarga oid qonunchilikni qo'llashning

ayrim masalalari to‘g‘risida”gi №17 sonli qaroriga binoan, ashyoviy dalil sifatida, jumladan, quyidagilar e’tirof etiladi:

a) jinoyat qurollari-jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish yoki jinoyat sodir etish uchun maxsus mo‘ljallangan, tayyorlangan yoki moslashtirilgan narsalar yoxud bevosita jinoyat sodir etish jarayonida jinoiy maqsadga erishish uchun foydalanilgan narsalar (masalan, odam o‘ldirish qurollari, qimmatliklarni talon-toroj qilish yoki egallashda vosita bo‘lgan narsalar, o‘qotar qurol, brakonerlik qurollari-qopqonlar, to‘rlar, soxta hujjat va h.k.);

b) o‘zida jinoyat izlarini saqlab qolgan narsalar (masalan, qon izlari mavjud kiyim, narsalar yoki jinoyat sodir etilishi jarayonida yirtilgan kiyim, narsalar, o‘q otilishi yoki portlash natijasida shikastlangan narsalar, qo‘lning, transportning, buzish qurollarining izlari va h.k.);

v) jinoiy harakatlar obyekti bolgan narsalar (masalan, olib qochilgan avtomobil, talon-toroj qilingan pullar, qimmatli qog‘ozlar, qurol, giyohvandlik vositalari, boshqa moddiy qimmatliklar, buyumlar va h.k.);

g) jinoiy harakatlar sodir etilgandan keyin jinoiy yo‘l bilan topilgan mablag‘lar evaziga topilgan mol-mulk, pullar va boshqa qimmatliklar (masalan, o‘g‘irlangan pullarga sotib olingan qimmatbaho buyumlar, jinoiy faoliyat natijasida, jumladan, qonunga xilof ravishda tadbirkorlik bilan shug‘ullanishdan topilgan naqd pullar, nodir metallar va toshlardan iborat xom ashyo va buyumlar, boshqa qimmatliklar)¹⁴.

Shaxsiy dalillarda aks etgan axborot qandaydir shartli belgilar yoxud shifrlar orqali ifodalanishi mumkin (misol uchun, bayonnoma, sxema, fonogramma). Ashyoviy dalilda esa axborot tabiiy holda ifodalanib, ko‘rgazmali tarzda qabul qilinadi. Isbotlash jarayonida faqat shaxsiy dalillardan foydalanilganda, u o‘zining ko‘rgazmalilik ta’sirini yo‘qotadi. Shuning uchun ham mazkur jarayonda ashyoviy dalillardan foydalanishning ahamiyati katta. Ashyoviy dalillarning shaxsiy dalillarni protsessual mustahkamlashdagi o‘rni ham beqiyosdir.


Izlardan olinadigan qoliplar, katta hajmli jismlarning maketlari, fotosuratlari, hujjatlarning nusxalari ashyoviy dalillarga yaqin turadi va ilmiy adabiyotda original-obyektdagi axborotni o‘zgartirgan holda qayta aks ettirgani tufayli ko‘pincha ***hosila ashyoviy dalillar*** deb ataladi. Isbotlash jarayonida mumkin qadar birlamchi, asosiy ashyoviy dalillardan

¹⁴ O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2012-yil 13-dekabrda “Jinoyat ishlari bo‘yicha ashyoviy dalillarga oid qonunchilikni qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi №17 sonli qarori. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumi to‘plami (2006-2014 yillar) - O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi. T.: “Adolat”, 2014. -B. 288-293.

foydalanishga intilish mavjud, lekin bu hosila ashyoviy dalillarning ishonchli xulosalarga olib kelmasligini anglatmaydi.

Tekshiruvchi dalillar. Boshqa dalillarning ishonchliligini tasdiqlovchi yoki inkor etuvchi dalillarga tekshiruvchi dalillar deyiladi (masalan, ekspertning vakolatlari to‘g‘risida, guvohning manfaatdorligi to‘g‘risida, uning eshitishi, ko‘rishining ahvoli to‘g‘risida).

Xulosa qilib aytganda, jinoyat protsessidagi isbotlash jarayonida tasnifga ko‘ra dastlabki va hosila dalillar, ayblovchi va oqlovchi dalillar, to‘g‘ri va egri dalillar, shaxsiy va ashyoviy dalillar, hosila ashyoviy dalillar, tekshiruvchi dalillardan foydalaniladi. Har bir dalilni to‘g‘ri tasniflash ham jinoyat protsessining asosiy vazifasi bo‘lgan jinoyatlarni tez va to‘la ochish, aybi bo‘lmagan hech bir shaxs javobgarlikka tortilmasligi va aybdorlarni fosh etishga xizmat qiladi.



5.6. Dalillar manbalarining tushunchasi va turlari

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi insonni oliy qadriyat sifatida e’tirof etadi. Aybsizlik prezumpsiyasiga ko‘ra, jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan har bir shaxsning ishi sudda qonuniy tartibda, oshkora ko‘rib chiqilib, uning aybi aniqlanmaguncha u aybdor hisoblanmaydi, ya’ni gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi uning jinoyat sodir etishda aybdorligi qonunda nazarda tutilgan tartibda isbotlangunga va qonuniy kuchga kirgan sud hukmi bilan aniqlangunga qadar aybsiz hisoblanadi.

Shaxs qonunda belgilangan tartibda aybi isbotlangan ijtimoiy xavfli

qilmishlari uchungina javobgar bo‘ladi (O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 9-moddasi). Shaxsning aybi qonunda belgilangan tartibda to‘plangan, tekshirilgan va baholangan dalillar vositasidagina isbotlanishi mumkin. Chunki, jinoiy hodisa isbot qilish majburiyati yuklatilgan surishtiruvchi, tergovchi, prokuror hamda sud uchun o‘tmish hodisasi bo‘lganligi sababli, uning barcha holatlarini ular faqat isbot qilish vositasi bo‘lmish dalillar yordamida aniqlashlari va tegishli xulosaga kelishlari mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 22-moddasida «Surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud jinoyat yuz berganligini, uning sodir etilishida kim aybdorligini, shuningdek u bilan bog‘liq barcha holatlarni aniqlashi shart» deb belgilab qo‘yilgan. Shuning uchun, isbot qilish subyektlari jinoyat haqidagi ma‘lumotlarni asosan jinoyat sodir etgan shaxsdan olishga harakat qiladilar. Amaliyotda gumon qilinuvchi va ayblanuvchi o‘zi jinoyat sodir etmaganligini isbot qilib berishga majbur bo‘lmaganliklari sababli ularni O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 238 va 240-moddalari bilan yolg‘on guvohlik berganlik va ko‘rsatuv berishdan bo‘yin tovlaganlik uchun jinoiy javobgarlik tahdidi bilan ogohlantirib, guvoh tariqasida, shundan so‘nggina, gumon qilinuvchi va ayblanuvchi tariqasida so‘roq qilib ko‘rsatuvlar olish hollari uchrab turganligidan, ayrim amaliyot xodimlari O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2003-yil 19-dekabrda 17-sonli «Gumon qilinuvchi va ayblanuvchini himoya huquqi bilan ta‘minlashga oid qonunlarni qo‘llash bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida»gi Qarori 8-bandiga binoan, shaxs O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 221-moddasida ko‘rsatilgan asoslarga ko‘ra ushlangan hollarda, garchi qonunda bu haqda tegishli bayonnoma shaxs militsiya yoki boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organga keltirilgandan so‘ng rasmiylashtirilishi belgilangan bo‘lsa-da, u amalda ushlangan vaqtdan boshlab gumon qilinuvchi deb hisoblanadi. Aynan shu paytdan boshlab ushlab turilgan shaxs gumon qilinuvchiga berilgan barcha huquqlardan, shu jumladan, himoyachi olish huquqidan foydalanadi¹⁵.

Amaldagi O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 81-moddasi 1-qismida «Ijtimoiy xavfli qilmishning yuz bergan-bermaganligini, shu qilmishni sodir etgan shaxsning aybli-aybsizligini va ishni to‘g‘ri hal qilish uchun ahamiyatga molik boshqa holatlarni

¹⁵ O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining “Gumon qilinuvchi va ayblanuvchini himoya huquqi bilan ta‘minlashga oid qonunlarni qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi 2003-yil 19-dekabrda 17-sonli Qarori// O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorlari to‘plami 1991-2006. T.1. –T.: 2007. – B.142.

surishtiruvchining, tergovchining va sudning qonunda belgilangan tartibda aniqlashiga asos bo'ladigan har qanday haqiqiy ma'lumotlar jinoyat ishi bo'yicha dalil hisoblanadi» deb ko'rsatilgan. Ma'lumki, jinoyat – bu isbot qilish subyektlari uchun doimo o'tmish hodisasi, aynan shu sababdan ular uni faqat har qanday hodisalarning moddiy dunyoda yoki odamlar ongida qoldiradigan izlari, qoldiqlari, akslari vositasidagina o'rganishlari mumkin.

Jinoyat sodir etgan shaxsda jinoyat sodir etishga tayyorgarlik ko'rishdan toki uni sodir etishgacha va undan keyingi barcha holatlar to'g'risida ma'lumotlar mavjud bo'lganligi sababli O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 81-moddasini 2-qismida ma'lum bir jinoyatni sodir etishda ayblanayotgan shaxs dalil manbalaridan biri sifatida e'tirof etilgan.

Ayblanuvchi nafaqat sodir etgan jinoyatini, balki jinoyatni sodir etishga ko'rgan tayyorgarligi, jinoyatning tashkilotchisi, dalolatchisi, jinoyat sodir etilishiga yordam bergan yordamchilari va boshqalar to'g'risida juda ko'p ma'lumotga ega bo'lgan shaxsdir.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 112-moddasiga binoan, «Gumon qilinuvchining u sodir etgan jinoyat haqidagi ko'rsatuvlari va ayblanuvchining o'z aybiga iqrор bo'lishi, bu iqrор bo'lish mavjud dalillar majmui bilan tasdiqlangan taqdirdagina, uni ayblash uchun asos qilib olinishi mumkin. Gumon qilinuvchi va ayblanuvchining bergan ko'rsatuvlari bilan aniqlangan holatlar, ayblanuvchi o'z aybiga iqrор bo'lgan taqdirda ham, o'zining aybdor ekanligini inkor qilgan taqdirda ham ishning hamma holatlari bilan bog'langan holda boshqa dalillar kabi tekshirib chiqilishi va baholanishi lozim».

Tergovchi va dastlabki tergovni olib borayotgan prokuror hamda sud ishdagi barcha holatlarni sinchkovlik bilan, har tomonlama va xolisona ko'rib chiqishga asoslangan holda qonunga va huquqiy ongga amal qilib o'zlarining ichki ishonchlari bo'yicha barcha dalillarga, shuningdek ayblanuvchi (sudlanuvchi) ko'rsatuvlariga baho beradilar.

Har bir dalil, shu jumladan ayblanuvchi ko'rsatuvlari ham ishga aloqadorligi, maqbulligi va ishonchliligi nuqtayi nazaridan baholanishi lozim. Tergovchi va dastlabki tergovni olib borayotgan prokuror hamda sud ayblanuvchi (sudlanuvchi) ko'rsatuvlariga baho berish natijasida sodir etilgan jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini, uning shaxsini, javobgarligini yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlarni inobatga olgan holda unga nisbatan tegishli ehtiyot choralaridan faqat bittasini qo'llashlari mumkin.



MAVZU BO‘YICHA XULOSALAR

Mazkur mavzuni o‘rganishda talabalar dalillar va ularga qo‘yilgan talablar, ularning tasniflanishi, isbot qilish predmeti va isbotlash doirasiga oid masalalarni ko‘rib chiqishlari, Oliy sud Plenumining tegishli qarorlari va tarmoq qonunlarni qiyosiy-huquqiy tahlil qilib, jinoyat ishlarini yuritishda dalillarning rolini aniqlashlari lozim.

MUAMMOLI SAVOLLAR VA KAZUSLAR

1. Jinoyat ishi bo‘yicha isbotlanishi lozim bo‘lgan holatlar qonunda aniq belgilangan. Jinoyat ishi bo‘yicha muhim deb hisoblangan har bir holat to‘la, har tomonlama, xolisona tekshirilishi lozim. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad haqiqatni aniqlashdir. Isbotlash jarayoni dalillarni to‘plash, tekshirish va baholashdan iborat. Muayyan holat yuzasidan dalillarni guruhlariga tasniflang va o‘zaro qiyoslang. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining “Dalillar maqbulligiga oid jinoyat-protsessual qonuni normalarini qo‘llashning ayrim masalalari” to‘g‘risidagi 2004-yil 24-sentabrdagi 12-sonli Qaroriga asosan nomaqbul dalillar deb nimaga aytiladi?

2. Jinoyat protsessida dalil va isbotlanishi lozim bo‘lgan holatlar eng muhim masalalardan hisoblanib, jinoyatni ochish, ayblanuvchini fosh etish, jazoni muqarrarligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Isbotlash doirasi bilan isbotlanishi lozim bo‘lgan holatlar bir-biri bilan uzviy bog‘liq. Isbot qilish doirasi va predmetining o‘zaro nisbatini tahlil qiling.

1-kazus

Toshkent shahar prokuraturasi iqtisodiy jinoyatchilik va korrupsiyaga qarshi kurash bo‘limi xodimlari va O‘zbekiston Respublikasi IIV jinoyat qidiruv va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash bo‘limi tezkor qidiruv xodimlari bilan hamkorlikda arizachi fuqaro Saidovning arizasiga asosan Uchtepa tuman xalq ta’limi bo‘limiga qarashli 245-sonli maktab direktorining fuqaro Saidovdan pora talab qilganligi holati yuzasidan tezkor-tadbir o‘tkazilishi rejalashtirilgan. Tadbir jarayonida zaruriyat tug‘ilganligi sababli, Uchtepa tuman xalq ta’limi bo‘limiga qarashli 245-sonli maktab direktorining uyali aloqa telefonidagi so‘zlashuvlari eshitilgan

va telefon so‘zlashuvlaridan nusxa olingan. O‘tkazilgan tezkor tadbiri jarayonida Uchtepa tuman xalq ta’limi bo‘limiga qarashli 245-sonli maktab direktori fuqaro Saidovdan 100 AQSh dollari miqdoridagi pul mablag‘larini olgan vaqtida qo‘lga olingan. Mazkur holat yuzasidan Uchtepa tuman xalq ta’limi bo‘limiga qarashli 245-sonli maktab direktoriga nisbatan O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 210-moddasi 3-qismi “v” bandi bilan jinoyat ishi qo‘zg‘atilgan. Tezkor tadbirni o‘tkazgan xodimlar tomonidan tergovga Uchtepa tuman xalq ta’limi bo‘limiga qarashli 245-sonli maktab direktorining telefonda so‘zlashgan yozuvlari taqdim etilgan va jinoyat ishi yuzasidan olib borilgan dastlabki tergov harakatlari jarayonida ushbu telefon so‘zlashuvdagi ma’lumotlardan ayblanuvchining aybini isbotlovchi dalil sifatida foydalanilgan.

Mazkur jinoyat ishi bo‘yicha qanday huquqiy oqibatlar kelib chiqadi, ularni tahlil qiling. Prokuror sanksiyasi talab etiladigan tezkor-qidiruv tadbirlari va tergov harakatlarini o‘tkazilishi protsessual talablarini bayon qiling.

2-kazus

2014-yilning 22-aprel kuni kech tungi soat 04:15 larda fuqaro Sarvarov o‘ziga tegishli bo‘lgan “Matiz” rusumli davlat raqami 01A 586 AA bo‘lgan avtomashinasida Toshkent shahar Mirobod tumanida joylashgan Mustaqillik va Shaxrisabz ko‘chalari kesishgan chorrahadan svetoforming qizil chirog‘ida harakatlanib, chorrahani kesib o‘tayotgan vaqtida, uning o‘ng tomonidan svetoforming yashil chirog‘ida chorrahani kesib o‘tayotgan fuqaro Ayubov boshqaruvidagi “Lasetti” rusumli davlat raqami 01 I 252 VA bo‘lgan avtomashina bilan to‘qnashuv sodir qilgan va to‘qnashuv natijasida har ikkala avtomashina haydovchilari o‘rtacha og‘irlikda tan jarohatlari olib, gospitalizatsiya qilinganlar. Ushbu hodisa tungi vaqtda sodir bo‘lganligi sababli, hodisa shohidlari bo‘lmagan. Tergov jarayonida har ikkala haydovchi ham o‘zini chorrahaga yashil chiroqda kirib kelganligini ma’lum qilishgan. Lekin dastlabki berilgan tushuntirish xatiga va tayinlangan sudga oid avtotexnika ekspertizasiga asosan tergovchi Sarvarovga O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 266-moddasi 1-qismi bilan ayb e’lon qilib, jinoyat ishini ayblov xulosasi bilan sudga yuborgan. Ushbu jinoyat ishi sud majlisida mazmunan ko‘rib chiqilayotgan vaqtida sudlanuvchi Sarvarovning himoyachisi iltimosnoma bilan bir SD diskni taqdim qilgan. Ushbu SD diskda chorraha burchagida joylashgan “Asaka Bank” amaliyot boshqarmasi binosida o‘rnatilgan video kuzatuv kamerasidan yozib olingan videolavhalar mavjudligi va sodir bo‘lgan yo‘l

transport hodisasi suratga olinganligi aniqlangan. Ushbu videolavhaga ko‘ra, chorrahaga qizil chiroqqa Sarvarov emas, balki Ayubov kirib kelganligi aniqlangan.

Tergovchi yuqoridagi holat bo‘yicha dalillarni to‘plashda qanday tergov harakatlarini amalga oshirish mumkin? Sud tomonidan dastlabki tergovda olingan dalillarni sud tomonidan baholash mezonlarini tahlil qiling.



MUSTAQIL ISH UCHUN TOPSHIRIQLAR

1. MDH davlatlarida va boshqa xorijiy davlatlarda isbotlash huquqini ko‘rib chiqing. Ish shakli – nazorat ishi (esse).

2. Xorijiy davlatlarda dalil turlari va manbalarini ochib bering. Ish shakli – nazorat ishi (esse).

3. Turli davlatlarda dalillarga qo‘yilgan talablarni tahlil qiling. Ish shakli – nazorat ishi (esse).

VI BOB. ISBOT QILISHNING UMUMIY SHARTLARI

(Muallif – yuridik fanlar nomzodi, dots. S.M.Raxmonova)

Annotatsiya: Talabalar tomonidan mazkur mavzuning o‘rganilishi jinoyat protsessida isbot qilish jarayonining mazmun va mohiyati, isbot qilishning umumiy shartlari, isbotlash subyektlari, isbotlash majburiyati, dalillarni to‘plash, tekshirish va baholash elementlari to‘g‘risida zaruriy bilim va ko‘nikmalar shakllantirishga xizmat qiladi.

6.1. Isbotlash va uning elementlari

Isbotlash - ishni qonuniy, asoslangan va adolatli hal qilish uchun ahamiyatga ega bo‘lgan holatlar to‘g‘risidagi haqiqatni aniqlash maqsadida dalillarni to‘plash, tekshirish va baholashdan iboratdir (O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 85-moddasi).

Jinoyat ishlari yurituvda amalga oshirilayotgan bilish isbot qilish shaklida olib boriladi, u o‘zida murakkab jarayonni mujassam etib, alohida elementlardan tashkil topgan. Ular esa o‘z navbatida jinoyat protsessining har bir bosqichida isbot qilishning tartibi, usullari, vositalari va shartlarini belgilab beradi.

Isbot qilish – jinoyat ishi bo‘yicha dalillarni olishga qaratilgan harakatlar tizimidir. U jinoyat protsessini harakatlantiruvchi kuch bo‘lib, u protsessning bir bosqichidan ikkinchisiga tadrijiy o‘tishini to‘ jinoyat ishi uzil-kesil hal bo‘lgunga qadar ta‘minlaydi.

Isbotlash haqiqatni aniqlashga xizmat qiladi. Jinoyat ishlarini sudda yuritishdagi haqiqat – tergov va sud xulosalarining xolisona voqelikka muvofiqligini amalda tekshirilgan fikridir.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksining 2-moddasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun har bir muayyan holda tergov qilinadigan yoki hal qilinadigan jinoyat ishi bo‘yicha isbotlash predmetiga kiradigan barcha holatlarni voqelikka to‘la muvofiq holda aniqlash lozim.

Ishning haqiqiy holatlarini isbotlash muammolari jinoyat protsessual nazariyaning hamda jinoyat protsessida jinoyatlarning tergov qilinishi va ochilishini amalga oshiradigan vakolatli davlat organlari va mansabdor shaxslarning protsessual faoliyati negizini tashkil etadi. Shu munosabat

bilan isbotlash maqsadi, vositalari, usullari va elementlari, uning mohiyati, predmeti va chegarasi kategoriyalari doimo jinoyat protsessual huquqi fani e'tibor markazida bo'lib keladi.

Isbotlash jarayoni – jinoyat protsessual qonun asosida haqiqatni aniqlash va jinoyat ishini to'g'ri hal qilish uchun obyektiv voqelikning faktlarini dalillar yordamida isbotlash, bilish va hujjatli qayd etish bo'yicha amalga oshiriladigan faoliyatdir.

Isbot qilish jarayonini faktik ma'lumotlarni mexanik tarzda to'plash deb, tushunmaslik lozim, zero isbot qilish – bu har qanday emas, balki aynan muayyan jinoyat ishi bo'yicha aniqlanishi lozim bo'lgan faktlarni maqsadli qidirish, ularni oqilona anglash va protsessual qayd etishdir.

Bu kategoriyani tadqiq etishda ta'kidlash zarurki, isbot qilish faqat tafakkur faoliyatigagina emas, balki ish uchun ahamiyatli holatlarni aniqlashga qaratilgan amaliy harakatlardan tashkil topgan bo'lib, jinoyat ishi bo'yicha yakuniy qarorni asoslash bilan tugallanadi.

Isbot qilish jarayoni elementlarini yoritmay, bu ish uchun ahamiyatli holatlarni aniqlash bo'yicha vakolatli shaxslarning qonunda ko'zda tutilgan faoliyati ekanligi bayon etgan soddalashgan ta'riflar ham mavjud.

Isbotlash jarayoni murakkab ichki tuzilmaga ega bo'lib, u 3 darajada namoyon bo'ladi: *axborot, mantiqiy va yuridik*.

Axborot darajasida isbot qilish muayyan dalillarni to'plash tekshirish va baholashdan iborat. Isbot qilishning bu kabi ko'rinishida isbot qilish subyekti daliliy ma'lumot manbasi bilan bevosita munosabatga kirishadi va buning natijasida jinoyat ishi bo'yicha dalillar majmui shakllanadi. *Mantiqiy* isbotlash - bu ish bo'yicha to'plangan dalillar majmuiga baho berish orqali aniqlanayotgan faktlar yuzasidan xulosalarni asoslantirish demakdir. Mantiqiy isbotlashga misol qilib, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 23-moddasi 1-qismini keltirish mumkin, unga binoan "Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi uning jinoyat sodir etishda aybdorligi qonunda nazarda tutilgan tartibda isbotlangunga va qonuniy kuchga kirgan sud hukmi bilan aniqlangunga qadar aybsiz hisoblanadi". Mantiqiy darajada isbot qilish protsessual hujjatlarda (ayblov xulosasi, hukm), iltimosnomalar va raddiyalarda asoslantirish orqali namoyon bo'ladi. Isbot qilishning *yuridik* darajasida axborot va mantiqiy isbot qilishning samarsiz natijalarini inobatga olgan holda isbot qilish subyekti tomonidan prezumpsiya va preyuditsiyalar qo'llaniladi. Xususan, aybsizlik prezumpsiyasiga binoan isbotlanmagan ayb

isbotlangan aybsizlikka tenglashtiriladi.

Surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sudya, sud o'z vakolatlari doirasida isbotlashni amalga oshiradilar. Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, himoyachi, jamoat ayblovchisi va jamoat himoyachisi, shuningdek jabrlanuvchi, fuqaroviy da'vogar va fuqaroviy javobgar hamda ularning vakillari isbotlashda ishtirok etish huquqiga ega.

Dalillarni to'plash va tekshirishda ishtirok etishga ekspertlar, mutaxassislar, xolilar va boshqa shaxslar jalb etilib, ular qonunda belgilangan muayyan protsessual majburiyatlarni bajaradilar. Dalillarni to'plash va tekshirish: so'roq qilish, yuzlashtirish, tanib olish uchun ko'rsatish, olib qo'yish, tintuv, ko'zdan kechirish, eksperimentlar, ekspertizalar hamda O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida nazarda tutilgan boshqa tergov va sud harakatlarini o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Jinoyat protsessida isbotlash – surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sud tomonidan ayblanuvchi, jabrlanuvchi, himoyachi va tegishli huquqlarga ega hamda zimmasida ma'lum majburiyatlar bo'lgan boshqa shaxslar ishtirokida amalga oshiriladigan jinoyat ishi holatlarini bilishning protsessual shaklidir.

Albatta, jinoyat ishlari yurituvchi uchun mas'ul organlar va mansabdor shaxslar isbot qilishda muhim rol o'ynaydi, zero aynan isbotlash majburiyati yuklatilgan subyektlar tomonidan dalillarga baho berish ish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Isbotlash subyektlari o'tmishda sodir bo'lgan hodisani u haqidagi dalillar beradigan axborot orqali bilishi mumkin bo'lib, dalillar isbotlash majburiyati yuklatilgan shaxs ongi hamda aniqlanayotgan jinoyat hodisasi o'rtasidagi oraliq bo'g'inga aylanadi.

Jinoyat hodisasini tashkil qilgan faktlar tizimi jinoyat ishi yurituvchi paytiga kelib o'tmishga aylanadi shu boisdan ham uni tergovchi, prokuror, sudya bevosita idrok eta olmaydi. Jinoyat hodisasini shartli ravishda yaxlit bir "zanjir" deb tasavvur etsak, u bir qancha qismlarga - faktlarga «parchalanib» uzuq-yuluq holatda bo'ladiki, ularning ayrimlari mavjud bo'lmaydi, ayrimlari esa birlamchi sifat xususiyatlarini yo'qotgan bo'ladi, mavjud bo'lganlari esa jinoyat hodisasining to'liq manzarasini bermaydi. Jinoyat hodisasini faqat mavjud faktlar asosida idrok etish va aniqlash isbotlash subyektidan ko'p mehnat, kasbiy mahorat, xolislik va qat'iylik talab etadi.

Sodir etilgan jinoyat holatlarini bilish, pirovardida esa ish bo'yicha xolisona haqiqatni aniqlash jinoyat protsessual isbotlash yo'li bilan

amalga oshiriladi. Albatta, bu narsa tadqiq etish asosida yuzaga keladi. Uning zamirida obyektiv voqelikni bilish yotadi.

Jinoyat protsessual isbotlashda bilish jarayonining ikki tomoni: o'ziga mantiqiy va ruhiy xususiyatlarga monand fikrlash hamda qonunda nazarda tutilgan protsessual harakatlarga (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 87-moddasi.) asoslangan amaliy tomon hamohangdir.

Jinoyat protsessual isbotlash jarayoni quyidagi tarkibiy qismlarga ajratiladi: dalillarni to'plash, tekshirish va baholash. Bunda ular, odatda, protsessual isbotlash bosqichlari deb ataladi. Lekin etimologik jihatdan «bosqich» so'zi biror-bir jarayonning rivojlanishida ma'lum bir davrni anglatadi. Jinoyat protsessiga nisbatan biz uning har bir bosqichida – jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichida, u bo'yicha dastlabki tergov yuritish bosqichida, sud muhokamasi bosqichida va hokazolarda protsessual isbotlash haqida fikr yuritishimiz mumkin.

«Isbotlash bosqichi» tushunchasi isbotlashning tashqi yo'nalishini ta'riflash, uning ish bo'yicha xolisona haqiqatni aniqlashda eng salmoqli chegaralarini ajratish bilan bog'liqdir. Lekin har qanday bunday bosqichda protsessual faoliyat va tegishli protsessual munosabatlar mavjud bo'lib, ular jinoyat protsessual isbotlashning ichki tuzilishini tashkil qiladigan dalillarni to'plash, tekshirish va baholash bilan bog'liq bo'ladi. Bunday tuzilishi jinoyat ishi harakatlanishining barcha bosqichlarida yagonadir (dalillar jinoyat ishlari bo'yicha surishtiruv va dastlabki bosqichda, misol uchun, sud muhokamasida ham to'planadi, tekshiriladi va baholanadi). Shu bilan birga u barcha jinoyat ishlari uchun ham yagonadir, chunki bunday faoliyat ijtimoiy xavflilik darajasi hamda boshqa tavsiflardan qat'i nazar odam o'ldirish va nomusga tegish, o'g'irlash va talonchilik, bezorilik va boshqa jinoyatlar to'g'risidagi ishlar bo'yicha amalga oshiriladi. Lekin yuqorida ta'kidlanganlar bilan jinoyat protsessual isbotlashning mazmuni chegaralanib qolmaydi.

Ish bo'yicha qarorlarni asoslash jinoyat protsessual isbotlashning mustaqil elementi bo'lmasada, tuzilmaviy nuqtayi nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi.

Chunki protsessual isbot qilish pirovardida to'plangan, tekshirilgan va baholangan dalillar (ular yig'indisi) asosida qabul qilinadigan protsessual mazmundagi xulosa va qarorlardir. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 17-moddasiga binoan tergovchi tergov qilinayotgan jinoyat jinoiy javobgarlik vujudga keladigan yoshga to'lmagan shaxs tomonidan sodir etilganini ishdagi dalillar asosida

aniqlasa, jinoyat ishi yuritilishini tugatish to‘g‘risida qaror qabul qilishga majbur. To‘plangan dalillar majmui qilmishda muayyan jinoyat tarkibining barcha konstruktiv elementlari, shu jumladan, uni sodir etganlikda ma’lum bir shaxsning aybliligini tasdiqlasa, tergovchi bu shaxsni jinoyat ishida ishtirok etishga jalb qilish haqida qaror qabul qiladi va hokazo. Mazkur qoida jinoyat ishlari yurituvini amalga oshirish yuzasidan sud faoliyatiga ham taalluqlidir. Shunday qilib, xulosa qilish mumkinki, tergov (sud) taxminlarining tuzilishi va dinamik rivojlanishi, har bir taxmin bo‘yicha dalillar hamda ularning manbalarini to‘plash, to‘plangan dalillar va ularning manbalarini tadqiq etish (tekshirish), mavjudlarini (dalillarni va ularning manbalarini) baholash, ish bo‘yicha boshqa xulosa va qarorlarni shakllantirish jinoyat protsessual isbotlashning ehtimoliy elementlari sifatida xizmat qiladi.

Demak, jinoyat protsessual isbotlash tuzilishida muhim elementlardan biri – haqiqiy ma’lumotlarni baholash hisoblanib, ular asosida surishtiruvchi, tergovchi, sud qonunda belgilangan tartibda ijtimoiy xavfli qilmishning mavjud yoki yo‘qligini, bu qilmishni sodir etgan shaxsning aybdorligini, ishni to‘g‘ri hal qilish uchun ahamiyatga ega bo‘lgan boshqa holatlarni aniqlaydi. Ularsiz biror-bir protsessual qarorni qabul qilish, shu qatorda, sud hukmini chiqarish mumkin emas.

Dalillarni to‘plash – surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sud tomonidan daliliy axborotni topish, talab qilib olish, qabul qilib olish va protsessual qayd etishga hamda qonunda nazarda tutilgan protsessual harakatlarni amalga oshirishga yo‘naltirilgan.

Shu maqsadda isbotlash majburiyati yuklatilgan vakolatli organlar va mansabdor shaxslar qonunda ro‘yxati hamda yuritilish tartibi ko‘zda tutilgan tergov va sud harakatlarini amalga oshirishga haqli (O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 87, 96-202-moddalari). Dalillarni to‘plash nafaqat ularni topishni, balki qonunda belgilangan tartibda ularni qayd etishni ham nazarda tutadi (O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 90-92, 106, 131, 134, 141, 147, 156, 163, 171-moddalari va boshqalar). Bayonnomalar yuritish uchun mas’uliyat sudga qadar bosqichda surishtiruvchi va tergovchiga sudda esa, raislik qiluvchi va sud majlisi kotibi zimmasiga yuklatiladi (O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 90-moddasi 2-qismi).

DALILLAR TO‘PLASH
(JPKning 87-moddasi)

Dalillar tergov va sud harakatlarini yuritish: gumon qilinuvchini, ayblanuvchini, sudlanuvchini, guvohni, jabrlanuvchini, ekspertni so‘roq qilish; yuzlashtirish; tanib olish uchun ko‘rsatish; ko‘rsatuvni hodisa ro‘y bergan joyda tekshirish; olib qo‘yish; tintuv; ko‘zdan kechirish; guvohlantirish; murdani eksqumatsiya qilish; eksperiment o‘tkazish; ekspertiza tadqiqotlarini o‘tkazish uchun namunalar olish; ekspertiza va taftish tayinlash; taqdim etilgan ashyolar va hujjatlarni qabul qilish; telefonlar va boshqa so‘zlashuv qurilmalari orqali olib borilgan so‘zlashuvlarni eshitish, **shuningdek tezkor qidiruv tadbirlarini o‘tkazish** yo‘li bilan to‘planadi.

Himoyachi dalillar sifatida foydalanilishi mumkin bo‘lgan ma‘lumotlarni: ishga taalluqli axborotga ega bo‘lgan shaxslarni so‘rovdan o‘tkazish hamda ularning roziligi bilan yozma tushuntirishlar olish; davlat organlariga va boshqa organlarga, shuningdek korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga so‘rov yuborish hamda ulardan ma‘lumotnomalar, tavsifnomalar, tushuntirishlar va boshqa hujjatlarni olish orqali to‘plashga haqli.

Himoyachining qonunga muvofiq to‘plangan materiallarni ishga qo‘shib qo‘yish to‘g‘risidagi iltimosnomasi surishtiruvchi, tergovchi, prokuror tomonidan albatta qanoatlantirilishi kerak.

Dalillar tergov va sud harakatlari o‘tkazishdan tashqari talab qilib olish orqali ham to‘planadi. Jumladan, surishtiruvchi, tergovchi prokuror tomonidan davlat organlariga va boshqa organlarga, shuningdek korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga topshiriq va so‘rovlar yuborish yo‘li bilan jinoyat ishi uchun ahamiyatli bo‘lgan ma‘lumotlar olinadi. Lekin mazkur turdagi dalil to‘plash natijasi tergov va sud harakatlari kabi kafolatlanmagan. Chunki mazkur protsessual talabning barcha tashkilotlar uchun majburiyligi belgilangan bo‘lsa-da, uning bajarilmaganligi uchun javobgarlik jinoyat protsessiga jalb qilingan shaxslarga nisbatangina qo‘llaniladi.

Jinoyat-protsessual kodeksiga 2008-yil 31-dekabrda kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalarga binoan hozirda himoyachi ham dalil

to'plash subyektini sifatida faoliyat yuritadi. Jumladan, himoyachi dalillar sifatida foydalanilishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni: ishga taalluqli axborotga ega bo'lgan shaxslarni so'rovdan o'tkazish hamda ularning roziligi bilan yozma tushuntirishlar olish; davlat organlariga va boshqa organlarga, shuningdek korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga so'rov yuborish hamda ulardan ma'lumotnomalar, tavsifnomalar, tushuntirishlar va boshqa hujjatlarni olish orqali to'plashga haqli. Himoyachining to'plangan materiallarni ishga qo'shib qo'yish to'g'risidagi iltimosnomasi surishtiruvchi, tergovchi, prokuror tomonidan albatta qanoatlantirilishi kerak (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 87-moddasi 2-3 qismi).

Demak, himoyachi himoya pozitsiyasini shakllantirish va mustahkamlash uchun zarur bo'lgan daliliy ma'lumotlarni to'plash va ularni jinoyat ishi materiallariga qo'shib qo'yilishini talab qilish kabi protsessual imkoniyatlarga ega. Bu esa ish materiallarida nafaqat ayblovchi, balki oqlovchi dalillar qayd qilinishini, natijada esa sudga qadar ayblov va himoya tarafining dastlabki tortishuvni ta'minlaydi. Shu bilan birgalikda tergovchiga alohida mas'uliyat yuklaydiki, u dalillar bazasini himoya taqdim etgan versiya nuqtayi nazaridan tadqiq etishi zarur. Bu qoidaning protsessual tasdig'ini ayblov xulosasiga qo'yilgan talablarda kuzatish mumkin. Ya'ni, ayblov xulosasining tavsif qismida dastlabki tergovda aniqlangan holatlar: jabrlanuvchi, shuningdek ayblanuvchi to'g'risidagi ma'lumotlar; ayblanuvchining aybdorligini tasdiqlovchi dalillar, ayblanuvchining o'zini himoya qilish uchun keltirgan vajlari va ularni tekshirish natijalari bayon qilinadi (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 379-moddasi 2-qismi).

Dalillarni tekshirish – jinoyat ishi holatlarini to'g'ri aniqlash uchun haqiqiy ma'lumotlarning ishonchliligini hamda ular olingan manbalarning sifatini sinchkovlik bilan, har tomonlama va xolisona aniqlash bo'yicha surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudning faoliyatidir.

Tekshiruv qo'shimcha dalillarni to'plashdan iborat bo'lib, ular tekshirilayotgan dalillarni tasdiqlashi yoki rad etishi mumkin (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 94-moddasi). Dalillarni tekshirish qo'shimcha so'roq, yuzlashtirish, tanib olish uchun ko'rsatish, ekspertiza tayinlash kabi tergov harakatlari orqali amalga oshirilishi mumkin.

Dalillarni tekshirishning quyidagi belgilarini alohida ta'kidlash

mumkin:

- dalil to'plash natijasida olingan ma'lumotlar turini aniqlash: shaxslar bergan xabarlar (shaxsiy) yoki ma'lumot manbasi narsa va buyumlar (ashyoviy);
- olingan dalilni to'plash usuli va uslubini aniqlash;
- mazkur usul va uslublarni qo'llash vaqti va joyi;
- ularning maqbulligi shartlariga rioya qilinganligini aniqlash
 - isbotlash ishtirokchilarning shaxsiy manfaatlari doirasiga asossiz aralashishga va ularning qonun bilan qo'riqlanadigan huquqlari buzilishiga yo'l qo'ymaslik choralari;
 - isbot qilish ishtirokchilari doirasini belgilash.

Dalillarni tekshirish protsessning barcha bosqichlarida amalga oshiriladi. Haqiqiy ma'lumotlar ham, ular olingan manbalar ham, har bir dalil alohida ham, shuningdek boshqa mavjud dalillar bilan birgalikda ham tekshirilishi lozim. Dalillarni tekshirishni protsessual qarorlar qabul qilish bilan bog'liq bo'lgan davlat organlari va mansabdor shaxslar amalga oshiradi. Protsessning boshqa subyektlari dalillarni tekshirishda faqat ishtirok etadilar. Dalillar protsessual harakatlar yuritish yo'li hamda mantiq yo'li (dalillar mazmunini tahlil qilish, tekshirilayotgan dalilni ishdagi boshqa dalil bilan taqqoslash, yangi dalillar olish) bilan tekshiriladi.

Har bir dalil ishga aloqadorligi, maqbulligi va ishonchliligi nuqtayi nazaridan baholanishi lozim (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 95-moddasi).

Dalillarni baholash - surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudning ishdagi barcha holatlarni sinchkovlik bilan, to'la, har tomonlama va xolisona ko'rib chiqishga asoslangan holda qonunga va huquqiy ongga amal qilib o'zlarining ichki ishonchlari negizidagi faolivatidir.

6.2. Isbotlashning umumiy shartlari

Isbotlash jinoyat sudlov ishlarini yuritish doirasida o'tadigan hamda uning vazifalarini hal qilishga yo'naltirilgan faoliyat sifatida jinoyat protsessual qonun bilan tartibga solingan. Jinoyat-protsessual qonun isbotlash jarayonini tartibga solish bilan birga, ishning haqiqiy holatlarini aniqlash faoliyatini ham tartibga soladi hamda isbotlashda ishtirok etayotgan taraflar huquqlari tengligining ishonchli kafolatlarini yaratadi.


Isbotlash jarayonida fuqarolarning va yuridik shaxslarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini muhofaza qilinishi qonundan kafolatlangan.

Isbotlashda fuqarolarning hayoti va sog'lig'i uchun xavfli bo'lgan yoki ularning sha'ni va qadr-qimmatini kamsitadigan harakatlar sodir etish, zo'rlash, po'pisa qilish, aldash va boshqa noqonuniy choralar orqali ko'rsatmalar, tushuntirishlar, xulosalar, hujjatlar yoki narsalar berishga majburlash taqiqlanadi. Protsessning har bir bosqichida uning aniq vazifalariga va protsessual shakllariga muvofiq isbotlash o'z xususiyatlariga, o'z jihatlariga ega bo'lib, isbotlash natijasi sifatida faqat mazkur bosqich uchun nazarda tutilgan qarorlar bo'lishi mumkin. Muayyan bosqich vazifalari, uning protsessual shakli isbotlashning ayrim elementlari nisbatida ham, dalillar qanday (bevosita yoki yozma materiallar bo'yicha) tadqiq etilishida ham, shuningdek dalillarni baholash natijasida u yoki bu bosqichda qanday xulosalar qilinishi mumkinligida ham aks etadi.

Jinoyat-protsessual kodeksining 9-bobi (85-95-moddalari) isbotlashning umumiy shartlarini belgilaydi.

Isbotlashning umumiy shartlari – qonunda belgilangan qoidalar bo'lib, ular isbotlashning o'ziga xos jihatlarini ifoda etadi hamda dalillarni to'plash, tekshirish va baholash hamda qarorlar qabul qilish tartibiga nisbatan qo'yiladigan qat'iy protsessual talablarni belgilaydi.

Ular muayyan huquqiy qoidalarning tizimini tashkil etib, ularga quyidagilar kiradi: isbot qilish jarayoni (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 85-moddasi), isbot qilish subyektlari va ishtirokchilari vakolat doirasi (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 86-moddasi), dalillar to'plash usullari (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 87-moddasi), isbotlash jarayonida fuqarolar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning huquq va qonuniy manfaatlarini qo'riqlash (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 88-moddasi), davlat sirlarini qo'riqlash (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 89-moddasi), dalillarni bayonnomalarda qayd etish (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 90-93-moddalari), dalillarni tekshirish (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 94-moddasi), dalillarni baholash (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 95-moddasi). Qonunga binoan isbotlashning barcha ishtirokchilarini shartli ravishda quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin:



Birinchi guruh zimmasiga jinoyat ishini to'la, har tomonlama va xolisona tergov qilish va ko'rib chiqish, nafaqat jinoyat tarkibini, balki barcha boshqa holatlarni aniqlash majburiyati yuklatilgan surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud kiradi. Sanab o'tilgan subyektlarning har biri isbotlashni o'z vakolatlari doirasida amalga oshiradi (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 86-modda 1-qism).

Isbotlash majburiyati deganda tegishli shaxslarning dalillarni to'plash, tekshirish va baholash bo'yicha zarur xulq-atvorining nazarda tutilgan haimi tushuniladi.

Isbotlash majburiyati jinoyat ishlarini sudda yuritish vazifalarini nazarda tutadigan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 2-moddasining hamda jinoyat ishi holatlarini tadqiq etish talablarini belgilaydigan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 22-moddasi qoidalaridan kelib chiqadi.

Aynan ana shu mas'ul shaxslar zimmasiga qonun jinoyat yuz berganligini, uning sodir etilishida kim aybdorligini, shuningdek u bilan bog'liq barcha holatlarni aniqlash majburiyatini yuklaydi. Shuningdek, surishtiruvchi, tergovchi va prokuror jinoyat sodir etilganligi to'g'risida sabab va yetarli asoslar mavjud bo'lgan barcha hollarda jinoyat ishini qo'zg'atishi shart (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 15, 321-moddasi). Xususan, isbotlash subyektlari tomonidan ish bo'yicha isbotlanishi lozim bo'lgan barcha holatlar sinchkovlik bilan, har tomonlama, to'la va xolisona tekshirib chiqilishi kerak. Ishda yuzaga

keladigan har qanday masalani hal qilishda ayblanuvchini yoki sudlanuvchini ham fosh qiladigan, ham oqlaydigan, shuningdek uning javobgarligini ham yengillashtiradigan, ham og'irlashtiradigan holatlar aniqlanishi va hisobga olinishi lozim (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 22-moddasi).

Isbot qilishda sudning roli qanday, degan o'rinli savol tug'iladi. Shunday yondashuv mavjudki, unga ko'ra sud odil sudlov funksiyasini bajarib, isbotlash subyektini hisoblanmaydi. Sudning faoliyati dalillarni to'plash tekshirish va baholash bilan bevosita bog'liq. Xususan, sud muhokamasi mobaynida sudlanuvchi, jabrlanuvchi, guvohlar va ekspert so'roq qilinadi, hujjatlar ko'zdan kechiriladi va qonunda ko'zda tutilgan boshqa sud harakatlari o'tkaziladi. Shuningdek, sudning mustaqilligi nuqtayi nazaridan sud jarayonida jinoyat hodisasi yuzasidan umuman boshqa versiya (hatto sudlanuvchining aybsizligini ko'rsatuvchi) o'z tasdig'ini topishi mumkin. Sud muhokamasida taraflar tortishuvi shart-sharoitini ta'minlab, xolislikni saqlagan holda sud faol isbotlash subyektini sifatida namoyon bo'ladi. Ya'ni haqiqatni aniqlash maqsadida adolatli hukm chiqarish uchun zarur bo'lgan dalillar bazasini shakllantirishda bevosita ishtirok etadi. Jumladan, taqdim etilgan dalillarni maqbulligi va ishonchliligini tekshirib, yakuniy qaror qabul qilish uchun yetarliligiga baho beradi. Demak, sud isbot qilishning faol subyektidir. Bu borada bahsga sabab bo'luvchi asosiy omil bu isbot qilishda tushunchalarni turli talqin etilishidir. Sud sudlanuvchining aybdorligini isbotlashga emas, balki jinoyat hodisasi bo'yicha haqiqatni aniqlashga qaratilgan faoliyatni olib boradi. Mazkur faoliyatida sud ish bo'yicha isbotlanishi lozim bo'lgan barcha holatlar sinchkovlik bilan, har tomonlama, to'la va xolisona tekshirib chiqishi, ishda yuzaga keladigan har qanday masalani hal qilishda sudlanuvchini ham fosh qiladigan, ham oqlaydigan, shuningdek uning javobgarligini ham yengillashtiradigan, ham og'irlashtiradigan holatlar aniqlanishi va hisobga olishi lozim (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 22-moddasi).

Ikkinchi guruhni gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, uning qonuniy vakili, himoyachi, jabrlanuvchi, fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar va ularning vakillari, jamoat ayblovcisi va jamoat himoyachisi tashkil qiladilar (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 86-moddasi 2-qismi). Ular uchun isbotlashda ishtirok etish majburiyat emas, balki huquqdir. Ular ishdan manfaatdor shaxslar sifatida tergov qilinayotgan va ko'rilayotgan ishga taalluqli narsalar, hujjatlar taqdim etishlari, dalillarni talab qilib olish va ishga ilova qilish to'g'risida

iltimosnomalar berishlari, dalillarning u yoki bu manbaini baholash bo'yicha o'z fikrlarini bayon qilishlari mumkin va hokazo.

Bular jumlasidagi gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi isbot qilish jarayonida o'ziga xos alohida protsessual maqom va kafolatlarga egaki, bunga ko'ra jinoiy ta'qib ostidagi shaxs o'zining aybsizligini isbotlab berishi shart emas (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 23-moddasi 2-qismi). Bu yuqorida aytib o'tilgan isbot qilish majburiyati yuklatilgan shaxslarning bevosita vazifasidir. Aybsizlik prezumpsiyasining tarkibiy qismi bo'lgan mazkur kafolatni O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining qator normalarida mustahkamlanganligini kuzatish mumkin. Xususan, jinoiy ta'qib ostidagi shaxsning ko'rsatma berishdan bosh tortish va yolg'on ko'rsatma berish uchun jinoiy javobgarlikka tortilishi to'g'risida ogohlantirilmasligi va uning sukut saqlash huquqi (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 46, 48-moddalari), himoyachidan voz kechish huquqi (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 52-moddasi), aybini bo'yniga olish to'g'risidagi arz, aybiga iqrorlik ko'rsatmalari boshqa dalillar bilan isbotlanishi shartligi (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 112,113-moddalari), yaqin qarindoshlarining guvohlik immuniteti (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 116-moddasi).

Isbot qilish jarayonida jinoiy ta'qib ostidagi shaxsga nisbatan amal qiladigan yana bir muhim kafolat bu aybdorlikka oid barcha shubhalar, basharti ularni bartaraf etish imkoniyatlari tugagan bo'lsa, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining foydasiga hal qilinishi lozimligi to'g'risidagi qoidadir. Qonun qo'llanilayotganda kelib chiqadigan shubhalar ham gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining foydasiga hal qilinishi kerak (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 23-moddasi 3-qismi). Aybsizlik prezumpsiyasining mazkur protsessual kafolati qonunning qator muhim normalarida o'z aksini topgan. Jumladan, jinoyat ishi bo'yicha ayblov hukmi taxminlarga asoslangan bo'lishi mumkin emas va faqat sudlanuvchining jinoyat sodir etishda aybli ekanligi sud muhokamasi davomida isbot qilingan taqdirdagina chiqariladi. Ayblov hukmiga jinoyat sodir etilishining ish bo'yicha barcha mumkin bo'lgan holatlarini tekshirish, ish materiallarida ma'lum bo'lib qolgan barcha kam-ko'stni to'ldirish, yuzaga kelgan hamma shubha va qarama-qarshiliklarga barham berish natijasida yig'ilgan ishonchli dalillargina asos qilib olinishi lozim (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 463-moddasi 1-qismi). Shuningdek, oqlov hukmini chiqarish

asosi sifatida ko'rsatilishicha, sudlanuvchiga qo'yilgan ayblov ish holatlari batafsil tekshirilgandan keyin ishonarli tarzda o'z tasdig'ini topmasa, sud jinoyat sodir etilishiga sudlanuvchi daxldor emas deb baho berib uni oqlaydi. (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 464-moddasi 2-qismi).

Uchinchi guruhni isbotlashda ishtirok etishga jalb etiladigan guvohlar, ekspertlar, mutaxassislar, tarjimonlar, xolislar, shuningdek fuqarolar va mansabdor shaxslar tashkil etadi. Ular Jinoyat-protsessual kodeksida belgilangan tartibda isbot qilish jarayonida muayyan huquqlardan foydalanadilar.

Mazkur shaxslarni isbot qilish jarayonida ishtirok etishi samarasi nuqtayi nazaridan shartli ravishda 2 toifaga ajratish mumkin:

1. Daliliy ahamiyatga ega ma'lumotlar manbalari bo'lgan shaxslar (guvoh va ekspert). Ya'ni bu shaxslar isbot qilish jarayonida faol ishtirok etib, aynan ular tomonidan beriladigan daliliy ahamiyatga molik ma'lumotlar ishning hal qilinishiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. (masalan, jinoyat shohidi bo'lgan asosiy guvohning ko'rsatmalari, jinoyat ishi bo'yicha ekspertiza tayinlanishi shart bo'lgan holatlarda –ekspert xulosasi).

2. Dalillarni qayd qilish va mustahkamlashda ko'maklashuvchi shaxslar (mutaxassis, tarjimon, xolis). Bu toifadagi shaxslar esa jinoyat hodisasi bo'yicha obyektiv faktik ma'lumotlar manbalari bo'lmasalarda, isbot qilish jarayonida texnik-tashkiliy yordam ko'rsatadilar. Masalan, dalillarni mustahkamlashdagi mutaxassisning oqilona ko'magi kelgusida mazkur dalillarning yaroqliligi va ulardan foydalanish samarasini belgilaydi (masalan, voqea joyini ko'zdan kechirish, ekspertiza uchun namuna olish, eksperiment, guvohlantirish va boshqa tergov harakatlari o'tkazishda). Tarjimon tomonidan ko'rsatilgan xizmatning ahamiyati ham muhim hisoblanib, obyektiv va to'g'ri tarjima talablaridan biroz chetga chiqish ham isbot qilish jarayonida ish mohiyatiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin (masalan, yetkazilgan zararining miqdori, jinoyat sodir etgan shaxslar soni borasida tarjimadagi chalkashliklar). Xolislar isbot qilish jarayonining qay darajada protsessual shaklga muvofiq olib borilganligi tasdiqlash uchun ishda ishtirok etib, bir tarafdin tergov va protsessual harakatlarning qonuniy o'tkazilishini ta'minlasa, ikkinchi tarafdin mazkur harakatlarning qonuniy o'tkazilganligi yuzasidan kelgusida hech bir shubhalar kelib chiqmasligini ta'minlaydi. Ya'ni, masalan, xolisning tergov harakatida ishtiroki ayblanuvchi uchun unga nisbatan qonunni to'g'ri tatbiq etilishi uchun kafolat bo'lsa, tergovchi uchun esa mazkur tergov harakatini noqonuniy

o'tkazilmagan kabi mazmundagi turli e'tirozlardan kafolat hisoblanadi. Jinoyat ishi bo'yicha jalb qilinadigan yuqoridagi shaxslarning ishtirokining optimal samarasini ta'minlash maqsadida ularga qonunda nazarda tutilgan qator protsessual majburiyatlar yuklatilgan.

Jinoyat protsessual qonunning yana bir qat'iy talabi - dalillarni to'plash, tekshirish va baholashda fuqarolarning, shuningdek korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini qo'riqlash ta'minlashdir. Shundan kelib chiqqan holda isbotlashda quyidagi harakatlar taqiqlanadi:

1) shaxslarning hayoti va sog'lig'i uchun xavfli bo'lgan yoki ularning sha'ni va qadr-qimmatini kamsituvchi xatti-harakatlar sodir etish;

2) zo'rlik, po'pisa qilish, aldash va qonunga xilof boshqa yo'llar bilan ko'rsatma, tushuntirish, xulosalar olishga, eksperimental harakatlarni bajarishga, hujjatlar yoki buyumlar tayyorlanishiga va berilishiga erishish;

3) tungi vaqtda, ya'ni kech soat 22.00 dan ertalab soat 6.00 gacha tergov harakatlari olib borish. Tayyorlanayotgan yoki sodir etilayotgan jinoyatning oldini olish, jinoyat izining yo'qolishiga yoki gumon qilinuvchining qochib ketishiga yo'l qo'ymaslik, eksperiment jarayonida tekshirilayotgan hodisaning holatini qaytadan tiklash zarurati bo'lgan hollar bundan mustasno (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 88-moddasi). Tergov yoki sud harakatlari bilan bog'liq faoliyatni amalga oshirayotganda surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sudya va ishda mutaxassis yoki ekspert sifatida ishtirok etayotgan shifokorlardan tashqari boshqa shaxslarning o'zga jinsdagi shaxsni yalang'och qilib yechintirish chog'ida hozir bo'lishlari taqiqlanadi.

Surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sudya tergov va sud muhokamasi jarayonida gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, jabrlanuvchi va boshqalarning shaxsiy hayotiga doir aniqlangan ma'lumotlarni oshkor qilmaslik chora-tadbirlarini ko'rishi shart. Buning uchun shunday ma'lumotlar aniqlanishi mumkin bo'lgan tergov yoki sud harakatlari olib borilayotganda ishtirok etadigan shaxslar doirasi cheklanadi, ishtirokchilar esa ularni oshkor qilganlik uchun javobgarlik belgilanganligi to'g'risida ogohlantiriladilar. Tergov yoki sud harakatlari jarayonida olib qo'yiladigan narsalar va hujjatlar tegishli bayonnomalarda aniq ko'rsatilishi kerak. Shu bilan birga narsa yoki hujjat egasiga bayonnoma nusxasi yoki uning ko'chirmasi topshirilib, tilxat olinadi. Ishga aloqasi bo'lmagan narsa va hujjatlar egasiga darhol qaytarilishi kerak. Fuqarolar saqlashi taqiqlangan narsa va hujjatlar yo'q qilinishi yoxud ularni saqlashga vakolati bo'lgan va ularni tasarruf etadigan muassasalar yoki tashkilotlarga berilishi lozim.

6.3. Dalillarni baholash

Isbotlash jarayonining eng muhim elementi – dalillarni baholashdir. Albatta, jinoyat protsessual isbotlashning barcha tuzilmaviy elementlari o‘rtasida qandaydir u yoki bu darajada aniq chegaralar o‘tkazish qiyin, ko‘pincha esa mumkin ham emas, chunki ularning barchasi o‘zaro murakkab va yaqin o‘zaro bog‘liqlikda bo‘ladi hamda yagona isbotlash jarayonining u yoki bu tomonlarini ifoda etadi.

Dalillarni baholash esa ularning ishonchliligini, kuchini, ish bo‘yicha xulosalar uchun asos bo‘lib xizmat qilishga loyiqqligini aniqlash demakdir.

Dalillarni baholash – sudya, prokuror, tergovchi, surishtiruvchining fikrlash, mantiq bilan bog‘liq faoliyati bo‘lib, u shundan iboratki, ular ishdagi barcha holatlarni sinchkovlik bilan, to‘la, har tomonlama va xolisona ko‘rib chiqishga asoslangan holda qonunga va huquqiy ongga amal qilib o‘zlarining ichki ishonchlari negizida isbotlash predmetiga kiradigan holatlarni aniqlash uchun har bir dalilning ishga aloqadorligi, maqbulligi va ishonchliligi hamda ular yig‘indisi yetarliligi haqida ishonch hosil qilishidir.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 95-moddasiga binoan surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud ishdagi barcha holatlarni sinchkovlik bilan, to‘la, har tomonlama va xolisona ko‘rib chiqishga asoslangan holda qonunga va huquqiy ongga amal qilib o‘zlarining ichki ishonchlari bo‘yicha dalillarga baho beradilar. Jinoyat protsessual adabiyotda dalillarga baho berish mazmuni turlicha belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual qonuni matnida protsessual ma‘nodagi qarorni qabul qilish uchun, shuningdek jinoyat ishini hal qilish uchun baholanishi lozim bo‘lgan dalillarga qo‘yilgan talablar: **aloqadorlik, maqbullik, ishonchlilik** va **yetarlilik** tushunchalari bevosita bayon qilingan.

Dalil jinoyat ishi uchun ahamiyatli bo‘lgan mavjud holatlar haqidagi xulosalarni tasdiqlovchi, rad etuvchi yoki shubha ostiga oluvchi faktlar yoki narsalar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni aks ettirgan taqdirdagina ishga **aloqador** deb e‘tirof etiladi.

Dalillarning ishga aloqadorligi xususiyati ularning jinoyat ishi bo‘yicha tadqiq etilayotgan holatlar bilan obyektiv bog‘liqligidan iboratdir. Lekin bu bog‘liqlik ish yuritish boshlanganida o‘tmishda bo‘lganligi sababli

isbotlash vazifasi ularni qayta tiklash, yaratishdan iborat bo‘ladi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri moddiy-huquqiy ahamiyatga ega bo‘lgan faktlar haqidagi ma’lumotlarning ishga aloqadorligi har vaqt ayondir, shu boisdan ham masalaning bu qismda hal etilishi jiddiy qiyinchiliklarga sabab bo‘lmaydi. Shuningdek, bevosita dalillarning ishga aloqadorligi ham oson aniqlanadi, ularning mazmuni tergov qilinayotgan hodisaga va ayblanuvchining aybdorligiga (aybsizligiga) to‘g‘ri keladi (yoki uni istisno etadi).

Dalillar o‘z mazmuniga ko‘ra shundayki, ularning tadqiq etilayotgan ish holatlari bilan aloqalari mavjudligi va xususiyati doim ham aniq emas. Ko‘pincha bu aloqa shunday murakkabki, tergov va sud organlarining u yoki bu protsessual manbada bo‘lgan aniq ma’lumotlarning hamda aniqlanayotgan isbotlash fakti bilan bog‘liqligini, alohida isbotlash faktlari o‘rtasidagi aloqani aniqlashiga, gohida esa maxsus asoslab berishiga to‘g‘ri keladi. Dalil va ishning moddiy-huquqiy holatlari o‘rtasida aloqa mavjudligi xolisona tasdiqlangan hollarda bu haqiqiy ma’lumotlar ishga aloqador deb e’tirof etiladi, mohiyatiga ko‘ra baholanadi hamda ish bo‘yicha tegishli protsessual xulosalar va qarorlar asosini tashkil etadi.

Dalillarning ishga aloqadorligi to‘g‘risidagi qoidaning mohiyati isbotlash chegarasi ishni hal qilish uchun jiddiy holatlar doirasi bilan cheklanganidadir. Jinoyat-protsessual qonuni bu masalani hal qilish uchun asosni yaratib, u umumiy ko‘rinishda jinoyat ishlari bo‘yicha isbotlash predmetini belgilaydi. Ishga taalluqli bo‘lgan barcha dalillar doirasidan, birinchi navbatda, tergov qilinayotgan hodisa bor yoki yo‘qligini, uni sodir etganlikda ayblanayotgan shaxsning aybdorligi yoki aybsizligini ko‘rsatadigan haqiqiy ma’lumotlarni ajratish lozim.

Bu dalillar shaxs tomonidan muayyan harakatlar qasddan, ehtiyotsizlik tufayli yoki tasodifan sodir etilganligi to‘g‘risida jinoyat protsessual isbotlashning markaziy savoliga javob berishga imkon beradi: bu harakatlar jinoiy xususiyatga yoki jinoiy bo‘lmagan xususiyatga egami? Bu harakatlarning, shuningdek ayblanuvchilarning javobgarlik darajasi va xususiyatiga ta’sir etuvchi qator holatlarning mazmuni jinoyat protsessual normalar orqali ochib beriladi.

Dalillar belgilangan tartibda to‘plangan va O‘zbekiston Respublikasi O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 88, 90, 92-94-moddalarida nazarda tutilgan shartlarga muvofiq bo‘lsagina, ular maqbul deb e’tirof etiladi (O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 95-moddasi 3-qismi).

Dalillar maqbulligi deganda, dalilni qonunda belgilangan manbadan, faqat vakolatli shaxslar tomonidan olish usullari hamda qayd etish nuqtayi nazaridan tavsiflovchi sifat tushuniladi.

Jinoyat ishlari yurituvda qonunni buzgan holda olingan dalillardan foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Dalillarni *maqbul* deb e‘tirof etish shartlari quyidagilardir:

1) dalil tegishli subyekt tomonidan, ya‘ni dalilni olish bilan bog‘liq bo‘lgan protsessual harakatni o‘tkazishga vakolatli mansabdor shaxs tomonidan olingan bo‘lishi;

2) faktga oid ma‘lumotlar faqat O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 81-moddasining ikkinchi qismida qayd etilgan manbalardan olingan bo‘lishi;

3) dalil uni olish bilan bog‘liq protsessual harakatni o‘tkazishga oid qoidalar va tartibga rioya etilgan holda olingan bo‘lishi;

4) dalilni olishda tergov va sud harakati jarayoni va natijalarining qayd etilishiga doir qonunning barcha talablariga amal qilingan bo‘lishi shart.

Surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud tomonidan qonunni aniq bajarishdan va unga rioya qilishdan har qanday chekinish, u qanday sababga ko‘ra yuz berganligidan qat‘i nazar, shu yo‘l bilan olingan dalillarning nomaqbul (yaroqsiz) deb topilishiga olib keladi.

Nomaqbul dalillar yuridik kuchga ega bo‘lmay, ulardan Jinoyat-protsessual kodeksining 82-84-moddalarida nazarda tutilgan holatlarni isbotlash uchun foydalanish hamda ularni ayblov asosiga qo‘yish mumkin emas.

Shuningdek, ish bo‘yicha har qanday qaror qabul qilishda, shu jumladan ayblov xulosasi va hukmda nomaqbul dalillarga asoslanish mumkin emas¹⁶.

Dalillar, jumladan, quyidagi hollarda nomaqbul deb topiladi, agar:

1) dalil surishtiruvchi tomonidan surishtiruv tamom bo‘lganidan so‘ng, tergovchi, prokurorning yozma topshirig‘isiz o‘tkazilgan tergov harakati davomida olingan bo‘lsa, tergov harakati belgilangan tartibda ishni o‘z yurituviga olmagan yoki tergov guruhi tarkibiga kiritilmagan tergovchi tomonidan o‘tkazilgan bo‘lsa, tergov harakati O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 76-moddasida belgilangan asoslarga ko‘ra rad etilishi shart bo‘lgan shaxs tomonidan o‘tkazilgan bo‘lsa;

2) ma‘lumotlar tergov va sud harakati o‘tkazilmasdan yoki qonunda

¹⁶ O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining “Dalillar maqbulligiga oid jinoyat-protsessual qonuni normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi 2004-yil 24-sentyabrdagi 12-sonli Qarori //O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorlari to‘plami 1991-2006. T.2. –T.: 2007. –B.190.

nazarda tutilmagan manbadan, masalan, jinoyat-protsessual qonunida belgilangan tartibda rasmiylashtirilmagan tezkor-qidiruv tadbirlari vaqtida olingan bo'lsa;

3) dalil qonunga xilof usul bilan, ya'ni uni to'plash yuzasidan qonunda nazarda tutilgan qoidalarga amal qilinmagan holda olingan bo'lsa, jumladan:

a) prokurorning sanksiyasi olinishi shart bo'lgan hollarda tergov harakatining sanksiya olinmasdan o'tkazilishi (kechiktirib bo'lmaydigan hollar bundan mustasno);

b) tergov harakatida xolis sifatida ish bo'yicha manfaatdor shaxsning, shu jumladan, huquqni himoya qiluvchi organ xodimlari yoki ularga jamoatchilik asosida ko'maklashuvchi boshqa shaxslarning ishtiroki;

v) ko'rsatmalarning, shu jumladan, aybiga iqrorlik to'g'risidagi ko'rsatuvlarning qiynoqqa solish, zo'rlik ishlatish hamda insonga nisbatan boshqa shafqatsiz yoki uning sha'ni, qadr-qimmatini kamsituvchi munosabatda bo'lish, shuningdek aldash va qonunga xilof boshqa yo'llar orqali olinishi;

g) ekspert xulosasining ekspertiza tayinlash vaqtida gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchining huquqlari buzilgan holda, shuningdek ekspert rad etilishi shart bo'lgan holda olinishi;

d) himoyachining, ishtiroki shart bo'lgan hollarda uning ishtirokisiz gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchidan ko'rsatma olinishi;

e) gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi yaqin qarindoshlarining O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 116-moddasi talablariga xilof ravishda o'z roziligisiz gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchiga tegishli holatlar yuzasidan so'roq qilinishi;

4) dalillarni qayd etishning protsessual formasi buzilgan bo'lsa:

5) tergov va sud harakatlarida ishtirok etuvchi shaxslarga oid ma'lumotlar yo'qligi;

6) tergov va sud harakatlarida ishtirok etuvchi shaxslarga huquq va majburiyatlarining tushuntirilmaganligi;

7) tergov va sud boshlangan va tugallangan vaqtning ko'rsatilmaganligi;

8) O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 90-93-moddalarida nazarda tutilgan boshqa talablarning bajarilmaganligi.

Jinoyat-protsessual qonuni talablari buzilgan tarzda olingan boshqa

hollarda ham dalillar nomaqbul deb topilishi mumkin¹⁷.

Bu borada xorijiy tajribaga murojaat qiladigan bo'lsak, masalan, Gollandiya Jinoyat protsessual kodeksiga binoan, dalillarni dalillar ro'yhatidan chiqarib tashlash yoxud uni nomaqbul deb topishga quyidagi holatlardagina yo'l qo'yiladi:

1. Dalillarni to'plash jarayonida Jinoyat-protsessual qonunchilik bilan belgilangan qoidalarning qo'pol buzilishi;

2. Dalillarni to'plashda Jinoyat-protsessual kodeksi va boshqa qonunchilik normalarida belgilangan prinsiplarning qo'pol buzilishi dalilni nomaqbul deb topishga asos bo'ladi¹⁸.

AQSH olimlari esa dalilning maqbulligi – bu dalilning “huquqiy ruhsatnoma”si bo'lib, u orqali dalillarni jinoyat ishiga qo'shish va ulardan jinoyat ishida foydalanishga berilgan ruhsatdir deb ta'rif berishadi¹⁹.

To'g'ri protsessual qaror chiqarishning zaruriy sharti - *ishonchli* dalillarning mavjudligidir.

Dalil ishonchliligi (ya'ni, undagi haqiqiy ma'lumotlarning voqelikka muvofiqligi) to'liq, so'zsiz ishonchga egaligi e'tirof etilgan taqdirda u ishonchli hisoblanadi.

Dalilning ishonchliligini aniqlash uchun nafaqat uning tashqi alomatlarini bilish va baholash kerak, balki har bir muayyan holda uning mohiyatini chuqur anglash, uning eng muhim va jiddiy alomatlarini, xususiyatlarini va ish uchun ahamiyatini bilish zarur. Dalilning mohiyati shundan iboratki, anglashda hodisa va mohiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar yotadi.

Dalilning ishonchliligi haqidagi savolga haqiqiy ma'lumotlar manbaini hamda dalilni shakllantirishning uyg'un ravishda sinchkovlik bilan va har tomonlama o'rganish natijasida javob berish mumkin (so'roq qilinganning axborotni qabul qilish, eslab qolish, qayta aks ettirishga qodirligi, bu jarayonlarga ta'sir etuvchi, sodir etilgan hodisaning haqiqiy manzarasini uni idrok etgan shaxs ko'z oldida o'zgartirishi mumkin bo'lgan

¹⁷ O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining “Dalillar maqbulligiga oid jinoyat-protsessual qonuni normalarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida”gi 2004-yil 24-sentyabrdagi 12-sonli Qarori // O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorlari to'plami 1991-2006. T.2. –T.: 2007. –B.189.

¹⁸ M.J. Borgers & L. Stevens. The Use of Illegally Gathered Evidence in the Dutch Criminal Trial. 2005.

¹⁹ Alex Stein. Criminal procedure-a criminal defendant is entitled to a specific jury instruction when supporting evidence exists: Foundations of evidence law. 2005.

faktlar, guvohning ayblanuvchi va jabrlanuvchi bilan o‘zaro munosabatlari, moddiy izlar paydo bo‘lishi va saqlanishi sharoitlari va hokazo). Alohida dalilning ishonchliligi haqidagi yakuniy qaror uning mazmunini boshqa protsessual manbalardan olingan axborot bilan solishtirish natijasida qabul qilinishi lozim.

Bu qoida barcha dalillarga taalluqlidir. Ayrim dalilning ishonchliligi ishdagi barcha dalillarni emas, balki aynan bitta omilga taalluqli bo‘lganlarni baholash orqali batafsil aniqlanadi. Masalan, trassologik ekspertizaning gumon qilinuvchidan olib qo‘yilgan poyabzal izlari voqea joyida qoldirilgan iz bilan bir xilligi haqidagi xulosasi bir tomondan va guvohning gumon qilinuvchini jinoyat sodir etilganidan oldin shu joyda ko‘rganligi to‘g‘risidagi ko‘rsatmalari ikkinchi tomondan, bir-birining ishonchliligini o‘zaro mustahkamlaydi. Lekin bular sirasiga, misol uchun, jinoyat tufayli yetkazilgan zarar xususiyati va miqdorini belgilaydigan dalillar kirmaydi. Dalillarga baho berish va ularning ishonchliligini aniqlash jarayonining muhim tarkibiy qismi haqiqiy ma’lumotlar manbalarini ularning sifati jihatidan baholashdir. Protsessual manbalarni baholash tergov va sud organlarining jinoyat hodisasiga taalluqli holatlarni isbotlash bo‘yicha butun faoliyatida o‘ta muhim ahamiyatga ega, chunki ish bo‘yicha isbotlash predmetini tashkil qiladigan barcha faktlar, barcha holatlar qonunda nazarda tutilgan protsessual manbalar yordamida aniqlanadi. Shu boisdan ish uchun ahamiyatli bo‘lgan u yoki bu faktni aniqlash uchun avvalambor, haqiqiy ma’lumotlar manbaini tadqiq etish va to‘g‘ri baholash, uning sifatligiga, qidirilayotgan fakt haqida u xabar berayotgan ma’lumotlarning ishonchliligiga: unda noto‘g‘ri, xolisona bo‘lmagan yoki xato bo‘lgan yoki yolg‘on ma’lumotlar yo‘qligiga ishonch hosil qilish kerak.

Lekin protsessual manbaning sifatligi o‘z-o‘zidan undan olingan fakt to‘g‘risidagi ma’lumotlarning ishonchliligini anglatmaydi. Bu ma’lumotlar jinoyat sodir etganlik to‘g‘risidagi obyektiv holatlarga mos bo‘lishi yoki mos bo‘lmashligi mumkin. Masalan, guvoh unga ish bo‘yicha ma’lum bo‘lgan holatlar to‘g‘risida haqiqatni so‘zlab bergan taqdirda u xato qilishi, yanglishishi, u yoki bu muhim jihatlarni noaniq aytishi mumkin. Demak, fakt to‘g‘risida u yoki bu dalillar manbasi xabar beradigan ma’lumotlar ishonchliligiga ishonch hosil qilish uchun bu ma’lumotlarni sinchkovlik bilan o‘rganish, ularning haqiqiy mazmunini tahlil qilish, ularni boshqa dalillar bilan solishtirish, ularning o‘zaro bog‘liqligini va bir-biriga to‘g‘riligini aniqlash, ular bir-biriga to‘g‘ri kelmagan taqdirda ziddiyat sababini aniqlash kerak. Har bir protsessual manbani aynan ana shunday

baholash tergov organlari va sudga isbotlanayotgan fakt yuzasidan olingan ma'lumotlarning ishonchli yoki ishonchsiz ekanligi haqida to'g'ri xulosa chiqarish imkonini beradi.

Shu o'rinda amaliyotdan misol: Mahkum Sanjarovning himoyachisi shikoyat bilan apellyatsiya tartibida ish qo'zg'atib, uning himoyasi ostidagi shaxsning jinoyat ishi yuzasidan dastlabki tergov bir tomonlama olib borilganligini, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 97-moddasi 1-qismi bilan noto'g'ri ayblanganligini bayon qiladi. Himoyachi o'z shikoyatida ish bo'yicha bir necha shaxs guvoh sifatida ko'rsatma bergan bo'lsa ham voqeani to'g'ridan to'g'ri o'z ko'zi bilan ko'rgan guvohning yo'qligi, ekspertiza xulosasida o'limning sababi aniq aytilmaganligi ya'ni, jabrlanuvchi yetkazilgan jarohat natijasida o'lganmi yoki yetarli darajada malakali tibbiy yordam ko'rsatilmaganligidan vafot etganligini ekspertiza xulosasining mazmunidan anglab bo'lmaydi.

Apellyatsiya instansiyasi himoyachining shikoyati asosida ushbu jinoyat ishini ko'rib shikoyatda nomlari ko'rsatilgan guvohlarni chaqirib so'raydi. Ekspertiza xulosasining qanchalik haqiqatga to'g'riligi xususida fikr olish uchun 1-shahar klinik kasalxonasining jarrohlik bo'limi mudiri Inoyatov chaqirilib, undan og'zaki ijobiy fikr olinadi.

Jabrlanuvchining xotini himoyachining shikoyatiga qarshi mahkumning salbiy jihatlarini ko'rsatib yozma arizani taqdim qilib, mahalladoshlari uning axloqsizligi, bezoriligi, doimiy ravishda spirtli ichimlik iste'mol qilib, yoshlarni tarbiyasiga yomon ta'sir qilganligi xususidagi jamoatchilik fikrini bayon qiladi.

Natijada yuqori instansiya sudi qo'shimcha taqdim qilingan materiallarini o'rganib chiqib, hukmni O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi normalarini noto'g'ri qo'llanilganligi munosabati bilan o'zgartirdi va jinoyat kvalifikatsiyasini yengilrog'iga almashtirdi.

Jinoyat ishi bo'yicha egri (bilvosita) dalillarga baho berish jinoyat hodisasiga taalluqli barcha holatlarni, barcha xususiyat va jihatlarini sinchkovlik bilan, har tomonlama tadqiq etishni va aniqlashni, har bir dalil mohiyatini chuqur anglash va tahlil qilishni, uning boshqa dalillar bilan uzviy bog'liqligini aniqlashni jiddiy talab etadi. Ayblov to'g'ri dalillarga asoslangan hollarda so'roq qilinayotganning shaxsini o'rganish, ayniqsa, katta ahamiyat kasb etadi. Guvoh, jabrlanuvchi va ayblanuvchining shaxsini o'rganish uchun ularning aqliy rivojlanishi umumiy darajasini va ma'naviy qiyofasini nafaqat aniqlash kerak, balki so'roq qilinayotganning ruhiy holatini, uning xotirasi xususiyatlarini, ya'ni faktlar va holatlarni qabul qilish hamda eslab qolishga qodirligini, fantaziyaga berilish, mubolag'aga moyilligi va boshqa muhim holatlarni har tomonlama tadqiq etish zarur.

Ish bo'yicha protsessual qaror qabul qilish uchun **dalillar yetarliligini** belgilash dalillarni baholashning mustaqil vazifasi hisoblanadi. Isbotlanishi kerak bo'lgan barcha va har bir holatning haqiqiylikini so'zsiz tasdiqlovchi ishga oid barcha ishonchli dalillar to'plangan bo'lsa, ularning jami ishni hal qilish uchun yetarli deb hisoblanadi (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 95-moddasi 5-qismi).

Ish bo'yicha to'plangan dalillar o'z mazmuniga ko'ra ishga aloqador, maqbul va ishonchli bo'lishi mumkin, ammo isbotlash yakunida aniqlanganligini e'tirof etish uchun ular yetarli bo'lmasligi ham mumkin. Shunday holat ham yuzaga kelishi mumkinki, dalillar isbotlash predmetini tashkil etadigan ayrim holatlarga nisbatangina yetarli bo'lib, boshqa aniqlanayotgan faktlarning mavjudligi borasida ishonchli bo'lishi uchun yetarli bo'lmasligi mumkin.

Jinoyat ishi bo'yicha boshqa faktlar bilan bog'liqlikdan ajratib olingan dalil shaxs aybdorligi haqida xulosa chiqarish uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin emas. Shu munosabat bilan ayblanuvchining o'z aybini tan olishi faqat mavjud dalillar yig'indisi bilan tasdiqlangandagina ayblov asosiga olinishi mumkinligi aynan to'g'ridir (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 112-moddasi). Dalillar yetarliligi tushunchasi ish bo'yicha dalillar yig'indisini nazarda tutadi.

Dalillar yig'indisi deganda, hodisalar va faktlarning haqiqiy bog'liqligini to'g'ri aks ettiradigan, o'zaro kelishgan va ichki bog'langan dalillar tizimi tushuniladi.

Xususan, dalillarni baholash quyidagilarni aniqlash uchun amalga oshiriladi:

- 1) mazkur faktdan ish bo'yicha sudda dalil sifatida foydalanish mumkinmi, bu protsessual qonunga, isbotlash prinsiplariga zid emasmi;
- 2) mazkur dalil yoki dalillar yig'indisi ishga taalluqlimi;
- 3) mazkur dalil ish bo'yicha to'plangan boshqa dalillar bilan qanday bog'liqlikda, bu bog'liqlikning xususiyati va ahamiyati qanday;
- 4) mazkur dalilning va dalillar yig'indisining haqiqatni aniqlash uchun ahamiyati qanday, dalillar yig'indisi ish taqdirini belgilash u yoki bu protsessual qaror qabul qilish uchun yetarli asos hisoblanadimi;
- 5) mazkur dalildan kelgusi sud jarayonidagi isbotlashda qanday foydalanish mumkin.

Dalillarni baholash – ularning har biri qay darajada aniq belgilanganligini, jinoyat hodisasi va boshqa dalillar bilan qanday o'zaro bog'liqlikda ekanligini, ish uchun ahamiyatli bo'lgan aynan qaysi faktni aniqlayotganligini yoki rad etayotganligini hamda ish bo'yicha to'plangan barcha dalillar nimadan dalolat berayotganini aniqlash demakdir.

Dalillarni baholash jinoyat-protsessual isbotlashning tuzilmaviy elementlaridan biridir. Jinoyat-protsessual isbotlash esa, o'z navbatida,

jinoyat-protsessual faoliyatning o‘ziga xos shakllaridan biridir. Demak, dalillarni baholash jinoyat protsessining barcha prinsiplariga tayanadi. Dalillarni baholash isbot qilish jarayonining boshidan to oxirigacha kuzatiladigan faoliyatdir. Dalillarni to‘plash va tekshirish bosqichida ham dalillarga shartli ravishda baho berib boriladi, yakuniy baholash ish yuzasidan yaxlit xulosaga kelib uni protsessual qarorda aks ettirishda namoyon bo‘ladi.

Qonunga binoan, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud ishdagi barcha holatlarni sinchkovlik bilan, to‘la, har tomonlama va xolisona ko‘rib chiqishga asoslangan holda qonunga hamda huquqiy ongga amal qilib o‘zlarining ichki ishonchlari bo‘yicha dalillarga baho beradilar.

Ichki ishonch baholash natijasi, yakuni sifatida – kishining shunday holatiki, u mavjud dalillar yig‘indisidan, tizimidan kelib chiqadigan yagona xulosa mavjudligini bildiradi.

Ichki ishonch bo‘yicha hal qilish ta'kidlanayotgan yoki rad etilayotgan dalillarning birdan-bir to‘g‘riligini anglash, o‘z fikrlari haqiqiylikiga qat’iy asoslangan ishonchga ega bo‘lish demakdir.

Baholash jarayonida hech bir dalil oldindan o‘rnatilgan qonuniy kuchga va imtiyozlarga ega bo‘lishi mumkin emas.

Ichki ishonch bo‘yicha dalillarni baholash prinsipi (O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 95-modda 1-qism) dalillarni baholashda ularning jami yig‘indisi bo‘lishi, ishning barcha holatlari har tomonlama, to‘la va xolisona ko‘rilishi haqidagi qonun talabi bilan mustahkamlangan.

Xususan, dalillarni baholash prinsiplari quyidagilar:

- baholayotgan shaxsning ichki ishonchi;
- jami dalillarni har tomonlama, to‘la va xolisona baholanishi;
- moddiy va protsessual qonun talablariga amal qilish;
- huquqiy ongga amal qilish.

Huquqiy ongga amal qilish prinsipi borasida aytish joizki, O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual qonunida aynan ana shu kategoriyaning qo‘llanilishi optimal holatdir. Masalan, Rossiya Federatsiyasining O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 17-moddasida dalillarga erkin baho berish prinsipi mustahkamlangan bo‘lib unga binoan, isbotlash subyekti ish bo‘yicha to‘plangan dalillarga tayangan

ichki ishonchi, qonun va vijdoniga asoslanib dalillarga baho beradi²⁰. Lekin dalilga baho berish prinsipi sifatida *vijdon* kategoriyasini belgilash to‘g‘ri emas. Zero vijdon nihoyatda ma’naviy kategoriya, uni huquqiy me’yorlar doirasi bilan chegaralashning imkoni bo‘lmay, etik tasavvurlar va qoidalar foydasiga qonundan jiddiy chekinishga sabab bo‘lishi mumkin. Vijdon kategoriyasiga nisbatan huquqiy ongning ustunligi uni isbotlash subyektining aynan huquq normalarini bilishi va ularga bo‘lgan munosabati asosida shakllanishidadir.

6.4. Dalillarni bayonnomalarda qayd etish

Isbotlash jarayonining asosiy sharti – bu albatta, protsessual shaklga rioya qilishdir.

Isbotlashning protsessual shakli – qonun bilan belgilangan qoidalar tizimi hisoblanib, jinoyat protsessining barcha bosqichlarida ularga qat’iy rioya qilish shartdir, ya’ni isbotlash jarayonning huquqiy tartibga solinishi jinoyat ishlari yurituvda haqiqatni aniqlash vositalari va usullarini protsessual normalarda mustahkamlaydi.

Jinoyat-protsessual qonuni jinoyat ishi bo‘yicha to‘planayotgan ma’lumotlarni tasdiqlash va qayd etishning umumiy usullarini o‘rnatadi: bayonnomalar tuzish, dalillarni mustahkamlash va hokazo.

Aynan protsessual shaklga rioya qilish isbotlash jarayonining markaziy sharti hisoblanadi. Mazkur shakldan har qanday chekinish ish yuzasidan to‘plangan ma’lumotning nomaqbulligiga va natijada uning yaroqsizligiga olib keladi.

Xususan, ma’lumotlar va narsalardan, ular tergov harakati bayonnomasi yoki sud majlisi bayonnomasida qayd etilganidan keyingina, dalil sifatida foydalanish mumkin. Bayonnomalar yuritish uchun mas’uliyat surishtiruv va dastlabki tergov bosqichida surishtiruvchi va tergovchi, sudda esa raislik qiluvchi va sud majlisi kotibi zimmasiga yuklatiladi (O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 90-moddasi).

Bayonnomalarga: tergov yoki sud harakatining ishtirokchilari to‘g‘risidagi ma’lumotlar, bu shaxslarga ularning huquq va majburiyatlari tushuntirilgani; tergov yoki sud harakatining o‘tkazilish joyi va vaqti, shart-

²⁰ Комментарий к Уголовно-процессуальному кодексу Российской Федерации (постатейный) / Коллектив авторов; отв.ред. И.Л. Петрухин, И.Б. Михайловская. – 7-е изд., перераб. И доп. – М.: Проспект, 2010. С.44.

sharoitlari, jarayoni va natijalari, bunda topilgan moddiy obyektlar tavsifi va ularning ish uchun ahamiyatli bo'lgan belgilari; tergov harakatlari yoki sud muhokamasi ishtirokchilari tasdiqlashni so'ragan faktlar; ularning yuz berayotgan hodisa sabablari xususidagi ko'rsatmalari; tushuntirishlari, mulohazalari; ular tomonidan berilgan iltimosnomalar, shikoyatlar, rad etishlar; tergov harakatini olib borish yoki sud muhokamasi jarayonidagi tartibbuzarlik hollari, shuningdek bu tartibbuzarliklarni bartaraf etish va oldini olish uchun ko'rilgan chora-tadbirlar kiritiladi.

Bundan tashqari, dalillarni qayd etish uchun bayonnoma tuzish bilan bir qatorda ovoz yozish, videoyozuv, kinotasvir, fotosuratga tushirish, qoliplar tayyorlash, nusxalar olish, rejalar, chizmalar tayyorlash va axborotni aks ettirishning boshqa usullari qo'llanilishi mumkin. Surishtiruvchi, tergovchi, sud dalillarni mustahkamlashning bu usullarini qo'llanishga ko'maklashish uchun mutaxassislarni jalb etishi mumkin (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 91-moddasi).

Surishtiruvchi, tergovchi, sud tomonidan dalillarni qayd etishning qanday usullari qo'llangani, foydalanilgan apparatlar, asboblar, uskunalar, materiallarning texnikaviy tavsifi keltirilib, tegishlicha tergov harakati bayonnomasi yoki sud majlisi bayonnomasida aks ettiriladi. Tergov yoki sud harakatining jarayoni va natijalari aks ettirilgan fotosuratlar, fonogrammalar, videoyozuvlar, kinotasvirlar, qoliplar, nusxalar, rejalar, chizmalar va boshqalar bayonnomaga ilova qilinadi. Har qaysi ilovada tergov yoki sud harakatining nomi, o'tkazilgan joyi, sanasi ko'rsatilgan izohlovchi matn bo'lishi lozim. Bu izohlovchi matnni surishtiruv va dastlabki tergov bosqichida surishtiruvchi yoki tergovchi va xolislar, sudda esa, raislik qiluvchi va sud majlisi kotibi o'z imzolari bilan tasdiqlaydilar.

Tergov harakatlari ishtirokchilarining, shuningdek sud muhokamasidagi taraflarning bu harakatlar jarayoni va natijalari aks ettirilgan bayonnoma bilan tanishish, xuddi shuningdek bayonnomaga qo'shimcha va tuzatishlar kiritish huquqlari ta'minlanishi kerak.

Surishtiruvchi yoki tergovchi tergov harakatlari tamom bo'lishi bilanoq bu harakat ishtirokchilariga bayonnomani o'qib chiqishga imkon beradi yoxud iltimoslariga ko'ra ularga o'qib beradi. Shunday tartibda raislik qiluvchi yoki uning topshirig'iga binoan sud majlisi kotibi sud zalidan tashqarida bajarilgan sud harakati ishtirokchilarini, shuningdek taraflarni sud majlisi bayonnomasidagi ushbu sud harakatiga taalluqli yozuvlar bilan tanishtiradi.

Og'zaki bildirilgan qo'shimchalar, tuzatishlar, fikr-mulohazalar, e'tirozlar, iltimoslar va shikoyatlar bayonnomaga kiritiladi, yozma ravishda

ifoda etilganlari esa bayonnomaga ilova qilinadi. O‘chirishlar yoki kiritilgan qo‘shimcha so‘zlar yoxud boshqa tuzatishlar xususida bayonnoma oxiridagi imzolar oldidan izoh beriladi (O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 92-moddasi).

Tergov harakati bayonnomasi bilan tanishtirilgan shaxslar bayonnomaning har bir sahifasi ostiga va uning oxiriga imzo chekadilar. Surishtiruvchi yoki tergovchi protsess ishtirokchilaridan birontasining yoki boshqa shaxslarning O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida nazarda tutilgan hollarda tergov harakatlari bayonnomasiga imzo chekishdan bosh tortganligi to‘g‘risida bayonnomaga yozib qo‘yib, uni o‘z imzosi bilan tasdiqlaydi.

Ma’lumki, protsessual shakl bir-birini taqozo etadigan ikkita vazifaga xizmat qiladi:

- birinchidan, dalillar ishonchliligini ta’minlashga;
- ikkinchidan, jinoyat protsessida fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga.

Jinoyat ishlari yurituvida inson qadr-qimmati, shaxs huquqlari va qonuniy manfaatlari muhofaza qilinadi. Haqiqatni aniqlash ularni buzish hisobiga amalga oshirilmasligi kerak. Shuning uchun dalilning maqbul emasligini e’tirof etish u nafaqat tegishli bo‘lmagan manbadan olingan taqdirda, balki fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlari jiddiy ravishda buzilgan holda olinganda ham vujudga kelishi kerak. Haqiqiy ma’lumotlar noqonuniyligi hamda shaxsning konstitutsiyaviy huquqlarini buzish bilan bog‘liq bo‘lmagan protsessual shakl nuqsonlariga nisbatan boshqacha yondashuv zarur. Axborot olish va uni qayd etish tartibining qoidalari dalillar ishonchliligini ta’minlashga qaratilgandir, shuning uchun ham ularni baholash ushbu umumiy vazifani hal qilishning tarkibiy qismiga aylanadi. Agar yo‘l qo‘yilgan qoidabuzarliklarni boshqa protsessual harakatlar o‘tkazish yo‘li bilan bartaraf etish mumkin bo‘lsa, ular jiddiy emas, ya’ni har tomonlama, to‘la va xolisona tergov qilishga ta’sir etmagan deb hisoblanishi mumkin, bunday dalillarni esa kelgusida tadqiq etishga va baholashga yo‘l qo‘yilishi mumkin.

Xususan, dalil to‘plash paytida yo‘l qo‘yilgan qonun buzilishi sababli nomaqbul deb topilgan ayrim dalillardan isbot qilishda tegishli protsessual harakatlar belgilangan talablarga amal qilgan holda o‘tkazilgandan so‘ng foydalanish mumkin (masalan, tergov yoki sud harakati o‘tkazish bayonnomalarida ayrim ma’lumotlar yoki bandlerning yo‘qligi, basharti bu kamchilikni xolislar, ushbu harakatning boshqa ishtirokchilarini, zarur hollarda esa, tergovchini so‘roq qilish orqali bartaraf qilish imkoniyati

bo'lsa)²¹.

Ko'pincha bu qoida qonun bilan belgilangan dalillarni qayd etadigan protsessual shaklga tegishlidir. Guvoh, garchi u o'zini so'roq qilish bayonnomasiga tergovchi aybi bilan imzo chekmagan bo'lsa, tergov borasida bergan o'z ko'rsatmalari to'g'ri yozilganligini sudda tasdiqlashi mumkin; xolis ko'zdan kechirish o'tkazilishidagi o'z ishtirokini guvohlantirishi mumkin; uning ko'rsatmalari tergov harakatini o'tkazishda ishtirok etgan boshqa shaxslarni so'roq qilish orqali tasdiqlanishi mumkin va hokazo. Yuqoridagilar protsessual shaklga rioya etish talabini qandaydir ahamiyatini tushurish, uni mensimaslik deb baholanishi kerak emas. Shu o'rinda aytish mumkinki, protsessual shaklga rioya etmaslik prokuror yoki sud tomonidan ishni qo'shimcha tergovga qaytarishga sabab bo'ladi (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 385-moddasi 3-qismi); yuqori instansiya sudi bunda jinoyat-protsessual normalarni jiddiy buzilishi deb e'tirof etib hukmni bekor qilishi mumkin (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 487-modda).

Shu bilan birga, nomaqbul, deb topilgan ayrim dalillarni, ularning yuridik tabiatiga ko'ra, tiklashning imkoniyati yo'q (masalan, qonunga muvofiq roziligi olinishi shart bo'lgan hollarda jabrlanuvchini, guvohni uning roziligini olmay turib takroran so'roq qilish, shaxsni yoki narsani tanib olish uchun takroran ko'rsatish v.h.). Bu esa, isbot qiluvchi subyektni muayyan holatni tasdiqlovchi vosita sifatida mazkur dalilga tayanish huquqidan mahrum etadi.

Jinoyat ishi bo'yicha dalillarning maqbulligi sharti sifatida protsessual shaklga rioya etish masalasini ko'rib chiqish munosabati bilan (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 95-moddasi 3-qismi) u yoki bu daliliy ma'lumot qayd etiladigan jinoyat-protsessual hujjatlarga qo'yiladigan talablar haqida aytish joiz. Jinoyat-protsessual hujjatlar huquq normalarini qo'llashning shaxsiy-huquqiy hujjatlari bo'lib, doimo qonuniy, asoslangan, sabablari ko'rsatilgan, ishonch uyg'otadigan, mantiqiy izchil, savodli shuningdek yaxlit holda rasmiylashtirilishi kerak.

Bunda qonuniylik shuni anglatadiki, tuzilgan protsessual hujjat qonun normalariga qat'iy muvofiq bo'lishi, ularning asosida va ularni ijro etish tariqasida qabul qilinishi kerak (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 11-modda). Asoslanganlik jinoyat-protsessual hujjatning xususiyati sifatida shuni anglatadiki, jinoyat ishi bo'yicha

²¹ O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining "Dalillar maqbulligiga oid jinoyat-protsessual qonuni normalarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi 2004-yil 24-sentabrdagi 12-sonli Qarori // O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorlari to'plami 1991-2006. T.2. -T.: 2007. -B.189.

xulosalar va qarorlar aniqlangan faktlar yig'indisiga, u yoki bu protsessual qaror qabul qilish uchun yetarli dalillarga asoslanishi, tegishli jinoyat-huquqiy va protsessual normalarga havola qilinishidan iborat.

Jinoyat-protsessual hujjatning asos va sabablarini ko'rsatish qabul qilinayotgan qarorda ish yuzasidan mavjud dalillarni keltirish demakdir. Protsessual hujjatning ishonchliligi uning u yoki bu holda qabul qilingan protsessual qaror to'g'riligi nuqtayi nazaridan aksiologik baholanishidir. Huquqiy hujjatni baholash chorasi sifatida ishonarlilikning asosi adolat hisoblanadi. Bu barchaning qonun va odil sudlov oldida tengligida namoyon bo'ladi.

Mantiqiylik talabiga ko'ra protsessual hujjat matni qat'iy mantiqiy izchillikda bayon etilishi kerak, uning har bir keyingi qismi avvalgisining davomi bo'lib, undan mantiqiy ravishda kelib chiqishi kerak. Mantiqiylik bayon etilayotgan holatlarning qarama-qarshiligi, izchil emasligi, xulosalar va qabul qilinayotgan qarorlarning noaniqligini istisno etadi.



MAVZU BO'YICHA XULOSALAR

Mazkur mavzuni o'rganishda talabalar isbotlash jarayoni, isbot qilish elementlari, isbotlash subyektlari, dalillarga baho berish va ularni protsessual mustahkamlash kabi masalalarda Oliy sudi Plenumining tegishli qarorlari va tarmoq qonunlarni qiyosiy-huquqiy tahlil etib, jinoyat ishlarini yuritishda isbotlashning umumiy shartlari rolini aniqlashlari lozim.

MUAMMOLI SAVOLLAR VA KAZUSLAR

1. Jinoyat-protsessual isbotlash uchta element – dalillarni to'plash, tekshirish va baholashdan iborat bo'lib, barcha elementlar bir-biri bilan uzviy bog'liq va bir-birini taqozo etadi hamda yagona isbotlash jarayonining turli tomonlarini tavsiflaydi. **Isbotlash jarayonining tuzilishi, elementlari va ularning o'zaro munosabatini tahlil qiling.**

2. Isbotlash jarayonining eng muhim elementi – dalillarni baholash hisoblanib, jinoyat ishini hal qilish uchun baholanishi lozim bo'lgan dalillarga aloqadorlik, maqbullik, ishonchlilik va yetarlilik talablari qo'yiladi. **Mazkur mezonlarni tahlil qiling va dalillarni to'plash va tekshirish usullari, tizimlarini tavsiflang.**

1 kazu

Sud hukmi bilan Xalilov uyida ko'p miqdordagi "geroin" giyohvandlik

vositasini saqlaganlikda aybdor deb topilib, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 276-moddasi 2-qismining "a" bandi bilan 5 yil ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlangan. Ushbu jinoyat ishi bo'yicha dastlabki tergov harakatlarini olib borishda O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 22-moddasi talablari bajarilmagan, dalillar to'plashda O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 82, 92-94 moddalari talablariga rioya qilinmagan.

Jinoyat ishi materiallarida bo'lgan Xalilovning uyida tintuv o'tkazilganligi haqidagi bayonnomada uning xonasidan qizil tugunchada oq rangli kukun va bir dona oq rangli tugunchada bir dona oq rangli tabletka topilganligi ko'rsatilgan.

Tintuvda qatnashgan xolis Kungurov ham shunday ko'rsatma bergan. Ish bo'yicha sud-kimyoviy ekspertizasi tayinlash to'g'risidagi tergovchining qarorida Xalilovning aybdorlik masalasini avvaldan hal qilib, hali ekspertiza o'tkazilmagan va uning xulosasi olinmagan bo'lishiga qaramasdan, uning uyida tintuv o'tkazilganida 0,2 gr "geroin" giyohvandlik vositasi topilganligi, Xalilov o'zining bu harakati bilan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 276-moddasi 2-qismining "a" bandida ko'rsatilgan jinoyatni sodir etganligi to'liq tasdiqlanganligini ko'rsatib, Xalilovning uyidan olingan sakkiz bo'lak tugunga o'ralgan predmetni giyohvandlik vositasining qaysi turiga kirishini aniqlab berish so'ralgan.

Ekspertiza xulosasida Xalilovni uyidan olingan yetti bo'lak qizil rangli tugundagi moddalardan 6- sonly tugunda qizg'ish, sariq rangli kukun bo'lib, uning og'irligi 0,2 gr. ekanligi, bu modda "geroin" giyohvand moddasi ekanligi, qolgan kukunlar tarkibida giyohvand moddasi topilmaganligi ko'rsatilgan.

Tuzilgan bayonnoma va xolislar ko'rsatmasida Xalilovning uyidan olingan yetti dona qizil rangdagi va bir dona oq rangdagi tugunchalarda oq rangli kukunsimon modda va bir dona tabletka topilganligi ko'rsatilgan bo'lib, qizg'ish, sariq rangli modda haqida hech qayerda ko'rsatilmagan. Lekin ekspertiza xulosasida aynan oq rangli kukun bor, deb ko'rsatilgan 6-sonli tugunda qizg'ish, sariq rangli poroshok topilgan deb, ushbu kukunni "geroin" deb ko'rsatilgan. Topilgan bir dona oq rangli tabletkani tekshirilganligi yoki tekshirilmaganligi haqida ma'lumot mavjud bo'lmagan.

Mazkur jinoyat ishi mahkumning shikoyati asosida kassatsiya bosqichida ko'rib, dastlabki tergov organlari tomonidan Jinoyat protsessual kodeksi talablari jiddiy buzilganligi sababli sud qarori bekor qilinib, jinoyat ishi qo'shimcha tergov o'tkazish uchun yuborilgan.

Shu holatda jinoyat-protsessual qonun talablari buzilganmi? Bu tergov harakati natijasida olingan dalillarning maqbullik darajasini aniqlab, vaziyatga huquqiy baho bering.

2 kazu

2013-yilning 24-aprel kuni Sergeli tuman DSI xodimlari tomonidan Sergeli tumanida joylashgan “Madinabonu” xususiy firmaga qarashli savdo shaxobchasida nazorat tartibida qisqa muddatli tekshiruv o‘tkazilgan. O‘tkazilgan tekshiruv jarayonida savdo shaxobchasida 70 turdagi jami 8.500.000 so‘mlik tegishli kirim hujjatlari va sifat sertifikatlari bo‘lmagan oziq-ovqat mahsulotlari mavjudligi aniqlangan. Bundan tashqari, do‘kon g‘aznasidagi savdodan tushgan naqd pul mablag‘lari sanalganda 1.500.000 so‘mni tashkil qilgan. Do‘konda o‘rnatilgan “Merkuriy 115 F” rusumli NKMDan kunlik hisoboti olinib, kunlik savdodan tushgan 1.500.000 so‘m miqdoridagi naqd pul mablag‘lari bilan solishtirilganda, ushbu kunlik savdodan tushgan naqd pul mablag‘lari do‘konda o‘rnatilgan NKM xotirasiga kiritilmaganligi aniqlangan. Bundan tashqari, do‘kon ko‘zdan kechirilganda, do‘kon sotuvchisi ish stolida 1 dona 48 varaqdan iborat bo‘lgan ikkilamchi qora buxgalteriya daftari mavjudligi aniqlangan va ushbu daftarda yil boshidan 40.000.000 so‘mlik qilingan xarajatlar aks ettirilganligi aniqlangan. Shunga asosan Sergeli tuman prokuraturasi tomonidan “Madinabonu” XF rahbari Xaydarov va firmaga qarashli do‘kon sotuvchisi Lazizovga nisbatan O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 189-moddasi 2-qismi “b” bandi va 189-moddasi 3-qismi bilan jinoyat ishi qo‘zg‘atilgan. Jinoyat ishi yuzasidan olib borilgan dastlabki tergov harakatlari jarayonida gumon qilinuvchi tariqasida so‘roq qilingan do‘kon sotuvchisi Lazizov o‘z ko‘rsatmalarida tekshiruv vaqtida do‘kondan olib qo‘yilgan 48 varaqdan iborat bo‘lgan ikkilamchi qora buxgalteriya hujjatlarining do‘konga aloqasi yo‘qligini, undagi ma‘lumotlar o‘zi tomonidan shaxsiy ehtiyojlari uchun ishlatilgan pul mablag‘lari ekanligi ma‘lum qilgan bo‘lsa-da, tergovchi ushbu ikkilamchi buxgalteriya daftariidagi ma‘lumotga asosan korxonahbari Xaydarovga va do‘kon sotuvchisi Lazizovga O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 189-moddasi 3-qismi bilan ayb e‘lon qilgan. Chunki ushbu ikkilamchi qora buxgalteriya daftariida do‘konda sotish uchun olib kelingan tovarlar ro‘yxati, olingan narxi, sotilgan narxi yozilgan edi. Ushbu daftardagi pul mablag‘lari bilan firma hisob raqamiga kelib tushgan naqd pul mablag‘lari solishtirilganda, farq aniqlangan.

Mazkur ikkilamchi qora buxgalteriya daftari jinoyat ishi yuzasidan

dalil hisoblanadimi, agar hisoblansa, qanday dalil hisoblanadi, tergovchining harakatlariga huquqiy baho bering.

Dalillar maqbulligi shartlarini bayon qiling. Mazkur jinoyat ishi materiallari bo'yicha isbotlash doirasi nimadan iborat?



MUSTAQIL ISH UCHUN TOPSHIRIQLAR

1. MDH davlatlarida va boshqa xorijiy davlatlarda jinoyat ishlari bo'yicha dalillar va isbotlash jarayonining o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qiling. Ish shakli – nazorat ishi (esse).

2. Xorijiy davlatlarda jinoyat ishlari bo'yicha dalillarga qo'yilgan talablarni ko'rib chiqing. Ish shakli – nazorat ishi (esse).

3. Xorijiy davlatlarda isbotlash majburiyati yuklatilgan subyektlar faoliyatiga to'xtalib o'ting. Ish shakli – nazorat ishi (esse).

VII BOB. DALILLARANI TO'PLASH USULLARI

Annotatsiya: mazkur mavzuni talabalar tomonidan o'zlashtirilishi jinoyat ishlari bo'yicha ish yurituvni amalga oshirish jarayonida dalillarni to'plashning usullari bo'lgan tergov va sud harakatlarining tushunchasi, turlari, shakllari, ularni o'tkazishning asoslari va protsessual tartibi, ularni o'tkazishda ishtirok etuvchi shaxslar, natijalari bo'yicha tuziladigan protsessual hujjatlarning shakli va mazmuniga oid xususiyatlarini bevosita o'rganib, tergov va sud harakatlarini o'tkazish va rasmiylashtirishga yo'naltirilgan bilimlarni olish va zaruriy ko'nikmalar shakllantirish imkonini beradi.

7.1. Dalillarni to'plash usullari tushunchasi va turlari

*(Mualliflar –yuridik fanlar nomzodi N.M.Qo'shaev,
o'qituvchi A.R.Matmurotov)*

Dalillarni to'plash usullari jinoyat protsessining g'oyat munozarali, dolzarb masalalaridan biridir. Jinoyat ishlarini yuritishdan ko'zlangan asosiy maqsadlardan biri jinoyatlarni tez va to'la ochish va aybdorlarni fosh etish ekan, bu maqsadga erishishda asosiy vazifalardan biri dalillarni to'plash hisoblanadi.


Dalillarni to'plashning usullari turlicha bo'lib, ular jinoyat–protsessual kodeksi normalari bilan tartibga solingan. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasining “Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida”gi Qonunida belgilangan qator tezkor-qidiruv tadbirlari mavjudki, ular yordamida to'plangan ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksiga muvofiq tekshirilganidan va baholanganidan so'ng dalil sifatida e'tirof etilishi mumkin (mazkur qonunning 19-moddasining uchinchi qismi).

Nazariyada jinoyat protsessual qonunchiligi bilan tartibga solinadigan dalillarni to'plash usullari “tergov harakatlari” ham deb yuritiladi. Ayrim vaqtlarda “tergov harakatlari” atamasi keng ma'noda ham qo'llanilib, dastlabki tergovda vakolatli organlar va mansabdor shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan jinoyatni tergov qilish bilan bog'liq barcha protsessual harakatlar ham tushuniladi. Shuning uchun tergov yoki sud harakatlari atamalariga duch kelganda ularning aynan dalillarni to'plash usullari sifatida yoki keng ma'noda qo'llanganligini aniqlab olish zarur.

Ushbu bob (mavzu) doirasida “tergov harakatlari” atamasini jinoyat–

protsessual qonunchiligi bilan tartibga solinadigan dalillarni to'plash usullari ma'nosida qo'llash maqsadga muvofiq. Bunday tergov harakatlari doirasini O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 87-moddasi birinchi qismida keltirilgan dalil to'plash usullari tashkil qiladi.

Ushbu normada isbot qilish majburiyatiga ega shaxslar (ya'ni surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud) tomonidan dalillarni to'plashning quyidagi usullari qo'llanilishi belgilangan:



1) so'roq qilish;

2) yuzlashtirish;

3) tanib olish uchun ko'rsatish;

4) ko'rsatuvni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish;

5) olib qo'yish;


6) tintuv;

7) ko'zdan kechirish;

8) guvohlantirish;

9) murdani eksqumatsiya qilish;

10) eksperiment o'tkazish;



Yuqorida ko'rsatilganlardan tashqari, himoyachi ham isbotlash jarayonida faol ishtirok etib, dalillar sifatida foydalanilishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni, ya'ni:

1) ishga taalluqli axborotga ega bo'lgan shaxslarni so'rovdan o'tkazish hamda ularning roziligi bilan yozma tushuntirishlar olish;

2) davlat organlariga va boshqa organlarga, shuningdek korxonalar muassasalar va tashkilotlarga so'rov yuborish hamda ulardan ma'lumotnomalar, tavsifnomalar, tushuntirishlar (ya'ni holat yuzasidan batafsil ma'lumot yoki qoidaning sharhi) va boshqa hujjatlarni olishga haqlidir. Lekin, himoyachining himoya pozitsiyasini shakllantirish uchun foydalanadigan dalil to'plash usullarini "tergov harakati" deb baholab bo'lmaydi.

Barcha tergov harakatlari o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lsa-da, ularning barchasiga xos bo'lgan umumiylik mavjud.

Odatda, tergov harakatlari jinoyat ishi qo'zg'atilgandan keyin o'tkaziladi.

Quyidagi tergov harakatlarigina jinoyat ishi qo'zg'atilgunga qadar o'tkazilishi mumkin: hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish, ekspertiza tayinlash, (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 329-moddasi 2-qismi) shuningdek ushlangan shaxsni shaxsiy tintuv va ashyolarni olib qo'yish (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 224-moddasi 2-qismi).

Tergov harakatlari turli mezonlarga ko'ra tavsiflanadi.

Tergov harakatlari bilish usuliga ko'ra:

- 1) so'rov shaklidagi tergov harakatlari;
- 2) kuzatuv shaklidagi tergov harakatlari;
- 3) kuzatuv va so'rov shaklidagi tergov harakatlariga bo'linadi.

So'rov shaklidagi tergov harakatlarida shaxsdan dalil bo'la oladigan ma'lumotlar muloqot yoki so'zlashuv (so'rov) yo'li bilan olinadi. Bunga misol qilib, so'roq qilish, yuzlashtirish tergov harakatlarini ko'rsatish mumkin.

Kuzatuv shaklidagi tergov harakatlari muayyan obyekt yoki jarayonning tashqi belgilarini yoki ulardagi o'zgarishlarni kuzatish orqali o'tkaziladi. Misol tariqasida, guvohlantirish, olib qo'yish va eksperiment tergov harakatlarini ko'rsatish mumkin.

Kuzatuv va so'rov shaklidagi tergov harakatlari bir vaqtda bilishning ikkala usuli: ham kuzatuv, ham so'rov bilan o'tkaziladigan tergov harakatlari hisoblanadi. Bunga ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirishni misol qilsa bo'ladi.

Bilish usullari jinoyat izlariga bog'liq va ular tergov harakatlarining protsessual shakliga sezilarli ta'sir etadi. Masalan, kuzatuv usuli qo'llaniladigan vaqtda xolislarning ishtiroki obyektivlik garovi sifatida talab qilinadi.

Ma'lumotni olish usuliga ko'ra tergov harakatlari:

- 1) ma'lumotlarni bevosita olishga asoslangan tergov harakatlari;
- 2) yashirin ma'lumotlarni maxsus mutaxassislar yordamida, ya'ni bilvosita olishga asoslangan tergov harakatlari.

Ma'lumotlarni bevosita olishga asoslangan tergov harakatlarida tergovchi (yoki tergov harakatini o'tkazayotgan boshqa shaxs) ma'lumotlarni shaxsan o'zi bevosita qabul qiladi va qayd qiladi.

Yashirin axborotni mutaxassislar yordamida bilvosita olishga asoslangan tergov harakatlarida dalil sifatida olinadigan ma'lumotni olish uchun maxsus bilim talab qilinadi. Ekspertiza tayinlanishi lozim bo'lgan hollarda, faqatgina ekspertiza orqali dalillar olinadi. Amaldagi jinoyat-protsessual qonunining mazmuniga ko'ra ekspertiza tayinlanishi lozim bo'ladigan holatlarda tergovchining tadqiqotni o'tkazish va ma'lumotni olish qobiliyati borligidan qat'i nazar ekspertiza tayinlanishi shart.

Tergov harakatlarining fanda mazkur mezon asosida tasniflanishi tartibi, ma'lumotni olish usuliga ko'ra bir-biriga o'xshash tergov harakatlarining qanday holatda o'tkazilishini aniqlashga yordam beradi. Misol uchun, bir holat yuzasidan tergov eksperimenti yo guvohlantirish o'tkazish yoki ekspertiza tayinlash kerakmi?-degan savollarga ma'lumotni olish usuliga ko'ra tergov harakatlari turlarga ajratish orqali javob olish mumkin. Chunki mazkur tasniflash yuqorida sanab o'tilgan tergov harakatlari o'tkaziladigan holatlarning chegarasini belgilab beradi.

Obyektlarining murakkabligiga ko'ra tergov harakatlari ikki guruhga

bo‘linadi. Bular:

- 1) bir obyektga qaratilgan tergov harakatlari;
- 2) bir necha obyektga qaratilgan tergov harakatlari.

Bir obyektga qaratilgan tergov harakatlarida ma’lumot manbasi bo‘lib bitta obyekt xizmat qiladi va bir mazmundagi harakatlar amalga oshiriladi. Misol uchun, so‘roq qilishda faqat bir shaxs so‘roq qilinadi. Ko‘zdan kechirishda faqat kuzatilib, ma’lumotlar olinadi. Tintuv va olib qo‘yishda esa daliliy ashyolar topiladi.

Bir necha obyektga qaratilgan tergov harakatlarida ma’lumot manbalari yoki olish usullari bir nechta bo‘ladi. Yuzlashtirish tergov harakatida ma’lumot manbasi sifatida ikki shaxsning ko‘rsatuvlari taqqoslanadi. Ko‘rsatuvlarni hodisa joyida tekshirishda ham shaxs so‘roq qilingan bo‘ladi, ham uning ko‘rsatuvlari obyektiv holat bilan tekshiriladi.

Tergov harakatlari o‘zining maqsadiga ko‘ra:

- 1) dalillarni to‘plashga qaratilgan tergov harakatlari;
- 2) dalilarni tekshirishga qaratilgan tergov harakatlariga bo‘linadi.

Dalillarni to‘plashga qaratilgan tergov harakatlarida hali o‘rganilmagan obyekt xususida ma’lumot olinadi. So‘roq qilish (takroran, qo‘shimcha va qayta so‘roq qilishlar bundan mustasno), olib qo‘yish, tintuv v.b.

Dalillarni tekshirishga qaratilgan tergov harakatlarida oldin tergov harakatlari orqali boshqa bir tergov harakatida yig‘ilgan dalilning haqiqiy holatga mos kelishi tekshiriladi. Bular yuzlashtirish, eksperiment o‘tkazish, tanib olish uchun ko‘rsatish tergov harakatlaridir. Shuning uchun bunday tergov harakatlarini amalga oshirishdan oldin dastlabki kerakli dalillarni to‘plash zarur bo‘ladi.

Bulardan tashqari, fanda tergov harakatlarini tasniflashda ularni o‘tkazish paytiga ko‘ra (boshqa protsessual harakatlarga nisbatan) kechiktirib bo‘lmaydigan tergov harakatlari turi ajratilib ko‘rsatiladi.

7.2. Tergov harakatlarining boshqa protsessual harakatlardan farqi

(Muallif – yuridik fanlar nomzodi, dotsent A.Sh.Umarxonov)

Yuqorida qayd etilganidek, jinoyat ishi bo‘yicha dalillarni aniqlash, to‘plash, mustahkamlash, tekshirish va baholashga qaratilgan harakatlar tergov (sud) harakatlari deb nomlanib, ular jinoyat-protsessual normalarni bajarish bilan ifodalanadi.

Jinoyat-protsessual faoliyat ishtirokchilarining protsessual harakatlari esa protsessual hujjat shakliga solinadi va ish bo‘yicha muayyan protsessual

harakatning bajarilishini, muayyan to'xtamga kelinganligini, hamda muayyan ishlar amalga oshirilishi zarurligini belgilaydi. Masalan, jinoyat ishini qo'zg'atish haqidagi qaror, shaxsni jinoyat ishida ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish to'g'risidagi qaror, dastlabki tergovni to'xtatish haqidagi qaror, jinoyat ishini sud muhokamasiga tayinlash haqidagi qaror va hokazo.

Protsessual harakatlar jinoyat-huquqiy, jinoyat-protsessual normalarining amalga oshirilishini ta'minlashi, jinoyat-protsessual faoliyat ishtirokchilarining huquq va majburiyatlarini amalda ta'minlashga yordam beradi. Bu borada dastlabki tergov organlarining jinoyat-protsessual hujjatlari ayniqsa katta ahamiyatga ega. Ushbu hujjatlar jinoyatni tez va to'la ochish, aybdorlarni fosh etish va jinoiy javobgarlikning muqarrarligi prinsipining amalga oshirilishini ta'minlash vositasigina bo'lib qolmay, balki fuqarolarni qonunlarga rioya etish, Konstitutsiya va boshqa qonunlar ularning zimmasiga yuklagan burchlarni bajarish ruhida tarbiyalash, birgalikda yashash qoidalariga rioya qilish vositasi, fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashning vositasi ham bo'lib xizmat qiladi.

Protsessual harakatlar jinoyatlarni oldini olishga ko'maklashadi hamda sudlovning samaradorligiga va umuman odil sudlovning sifatiga ta'sir etadi.

Protsessual harakatlar quyidagi hollarda jinoyat va jinoyat-protsessual huquq normalarini qo'llash hujjatlari bo'ladi. *Birinchi*dan, jinoyat ishi bo'yicha dastlabki tergov amalga oshirish davomida jinoyat-protsessual huquq normalari bilan belgilanadigan. *Ikkinchi*dan, jinoyat ishini tergov qilish jarayonida subyektiv huquqni amalga oshirishga to'sqinlik qiluvchi g'ovlar paydo bo'lishi mumkin bo'lganda. Bu o'rinda jinoyat-protsessual normalarni qo'llash hujjatlari dastlabki tergovning tegishli ishtirokchilari yoki jinoyat protsessiga jalb etilgan boshqa shaxslar huquq va majburiyatlarining hayotga joriy etilishini ta'minlashi kerak. *Uchinchi*dan, protsessual asoslar bo'yicha jinoyat ishlarining to'xtatilishi yo jinoyat va jinoyat-protsessual huquq normalarini qo'llash hujjatida yoxud faqat jinoyat-protsessual huquq normalarini qo'llash hujjatida o'z ifodasini topganda.

Jinoyat va jinoyat-protsessual huquq normalarini qo'llash jinoyat-protsessual huquqiy munosabatlarning yuzaga kelishi, o'zgarishi yoki to'xtatilishiga olib keladi, ya'ni tegishli yuridik oqibatlarni keltirib chiqaruvchi yuridik faktidir.

Protsessual harakat - jinoyat ishini yuritishga mas'ul bo'lgan davlat organlari va mansabdor shaxslarning jinoyat protsessi ishtirokchilariga, ko'p hollarda esa boshqa shaxslar va muassasalarga ham qaratilgan

hokimiyat irodasini aks ettiradigan faoliyatidir.

Protsessual harakatning ahamiyati - ularning asosida yuzaga kelgan jinoyat-protsessual munosabatlar sababli ko'p hollarda mazkur organlar va jinoyat-protsessual faoliyatning boshqa ishtirokchilari huquq normasini bajaradilar, qo'llaydilar hamda ularga rioya etishida namoyon bo'ladi.

Jinoyat huquqi va jinoyat-protsessual huquqining alohida normalarini qo'llash jarayoni jinoyat-protsessual va jinoyat huquqining boshqa normalarini ularga rioya etmasdan bajarish mumkin emas, chunki huquq normalari faqat huquq tizimidagina amal qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2004 yil 24 sentabrdagi "Dalillar maqbulligiga oid jinoyat-protsessual qonuni normalarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi 12-son Qarorida sudlar har bir jinoyat ishi bo'yicha surishtiruv, tergovni olib borish, shuningdek, sud muhokamasi davrida jinoyat-protsessual qonunining isbot qilishning umumiy shartlariga oid talablariga rioya qilinganligini sinchiklab tekshirishlari va yo'l qo'yilgan qonun buzilishlari hollari yuzasidan munosabat bildirishlari shartligi belgilangan.

Jinoyat-protsessual va moddiy huquq normalarining qo'lanilishi doimo protsessual qarorlar qabul qilish, protsessual hujjatlarni chiqarish orqali rasmiylashtiriladi. Huquq normalarini bajarish jinoyat-protsessual hujjatlari, yuqorida ko'rsatib o'tganimizdek, bir vaqtning o'zida u yoki bu jinoyat-protsessual harakatning jinoyat-protsessual shaklining ajralmas tarkibiy qismi hamda mustaqil hujjat bo'lishi mumkin.

Protsessual harakat – jinoyat protsessining vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan va qonunda belgilangan protsessual shaklga rioya etgan holda jinoyat ishini yuritishga mas'ul bo'lgan davlat organlari va mansabdor shaxslar tomonidan chiqariladigan protsessual hujjat bilan rasmiylashtiriladigan, muayyan vazifani bajarilishini ta'minlaydigan yoki uni bajarishga qaratilgan faoliyatdir.

7.3. So'roq qilishning umumiy shartlari

(Mualliflar - yuridik fanlar nomzodi – N.M.Qo'shaev, o'qituvchi
A.R.Matmurotov)

So'roq qilish – dalil to'plashning jinoyat ishini yuritishda eng keng tarqalgan tergov harakati bo'lib, bir shaxsdan (guvoh, jabrlanuvchi, gumon qilinuvchi va ayblanuvchidan (sudlanuvchidan)) og'zaki ma'lumotlar olish va mustahkamlash maqsadida amalga oshiriladi.

So‘roq qilish jinoyatni ochishda ham asosiy usullar bo‘lib xizmat qiladi. Tergov amaliyotida biror bir ochilgan jinoyat ishi yo‘qki, unda so‘roq qilish tergov harakati o‘tkazilmagan bo‘lsa.

So‘roq qilish tergov harakatining ahamiyati shundaki, jinoyat izlari sifatida qolgan va moddiy dunyoning inson ongidagi in‘ikosidan isbot qilishda foydalaniladi. So‘roq qilish orqali tergov harakatini o‘tkazuvchi shaxs so‘roq qilinuvchidan muayyan holat yuzasidan ma‘lumotni olishi va fikrini bilishi mumkin bo‘ladi. Qolaversa, ushbu tergov harakati so‘roq qilinuvchiga jinoyat ishi yoki uning muayyan holati yuzasidan bilganlarini boshqalarga ma‘lum qilish va munosabatini bayon qilish imkonini beradi.

So‘roq qilish o‘zining tashqi ko‘rinishidan o‘xshash bo‘lgan harakatlar: tushuntirish talab qilish yoki olish, og‘zaki arizani qabul qilish (ya‘ni dalil to‘plash usuli hisoblanmagan boshqa protsessual harakatlar) va fuqarolar o‘rtasida so‘rov o‘tkazish, ma‘lumotlar to‘plash (tezkor-qidiruv choralari)dan mazmuniga ko‘ra farq qiladi.

Dalillar to‘plashning mazkur usuli jinoyat protsessining turli ishtirokchilariga nisbatan o‘tkazilishi va uni o‘tkazishda jinoyat protsessual qoidalar, shu bilan birga turli milliy va xalqaro normalarni bevosita qo‘llash zarurligi uchun uni amalga oshirishning umumiy qoidalari belgilangan (O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 96-108-moddalar).

So‘roq qilishning umumiy qoidalari – bu so‘roq qilishda qo‘llaniladigan umumiy normalar bo‘lib, ular odatda, har qanday shaxslarni so‘roq qilishda qo‘llaniladi.

So‘roq qilishning umumiy qoidalari nafaqat dalillar to‘plashning so‘roq qilish usuliga balki, ayrim qoidalari boshqa ayrim tergov harakatlarini ham tartibga soladi. Masalan, tergov harakatlarini o‘tkazish joyini belgilashda “so‘roq qilish joyi” qoidalaridan yoki tergov harakatlarida ishtirok etishga chaqirish uchun “so‘roq qilish uchun chaqiruv” va shu kabi boshqa qoidalaridan analogiya tarzida foydalaniladi.

Quyida so‘roq qilishning har bir umumiy qoidasiga alohida to‘xtalib o‘tish joiz.

So‘roq qilish joyi. Jinoyat – protsessual qonun surishtiruvchiga yoki tergovchiga yoki prokurorga guvohni, jabrlanuvchini, gumon qilinuvchini va ayblanuvchini dastlabki tergov o‘tkaziladigan joyda yoki so‘roq qilinuvchi qayerda bo‘lsa, o‘sha joyda, sudga esa sud muhokamasi yuritilayotgan joyda so‘roq qilishga ruxsat beradi.

Odatda so‘roq qilish joyi bu tergovchining xonasi hisoblanadi. Lekin tezkorlik bilan tergov harakatini o‘tkazish zarurati bo‘lgan hollarda, tergov xarajatlarni kamaytirish, taktik jihatdan lozim deb topilgan hollarda so‘roq

qilinadigan shaxsning o‘qish, ishlash yoki turar joyida yoxud jinoyat sodir bo‘lgan joyda yoyinki jazoni o‘tayotgan shaxslarni jazoni o‘tash joylarida so‘roq qilinadi. So‘roq qilish joyini belgilash borasida shuni aytish mumkinki, so‘roqni amalga oshirish uchun sharoitlarga ega bo‘lgan joyda mazkur harakatni amalga oshirish mumkin.

So‘roq qilish uchun chaqiruv. So‘roq qilishdan oldin so‘roq qilinadigan shaxslar tergov harakati o‘tkaziladigan joyga yetib kelishini ta‘minlash zarur bo‘ladi. So‘roq qilish tergov harakatida so‘roq qilinuvchi va so‘roq qilinuvchining bevosita yuzma-yuz bo‘lishi talab qilinadi²².

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 97-moddasida so‘roq qilish uchun chaqiruv tartibi belgilangan. Bu qoidadan nafaqat so‘roq qilish balki boshqa tergov harakatlarini o‘tkazish uchun chaqiruvda ham qo‘llaniladi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida erkin harakatlanishi mumkin bo‘lgan shaxslar chaqiruv qog‘ozi orqali chaqirtiriladilar. Protsessual majburlov choralarini va jazoni o‘tayotgan shaxslar, shuningdek statsionar davolash muassasalar davolanayotgan shaxslar shu muassasalarning ma‘muriyati orqali chaqirtiriladi.

Chaqiruv qog‘ozi pochta orqali jo‘natiladi yoki chopar orqali topshiriladi. So‘roq qilish uchun shaxsning qanday chaqirtirilganligidan ko‘ra, bu tergov harakatini o‘tkazish muhim. Shuning uchun chaqiruvni amalga oshirish uchun chaqiruv qog‘ozi o‘rniga boshqa vositalardan ham foydalansa bo‘ladi. Masalan, chaqiruv telefonogramma, telegramma, radiogramma bilan yoki telefaks orqali ham bo‘lishi mumkin.

Chaqiruv qog‘ozida, chaqiruv maqsadidagi telefonogramma, telegramma, radiogramma bilan yoki telefaksda shaxs kim sifatida, qaysi manzilga va kimning huzuriga chaqirilayotganligi, qaysi kunda va qaysi soatga yetib kelishi kerakligi, shuningdek uzrsiz sabablarga ko‘ra kelmay qolgan taqdirda qanday oqibatlar ro‘y berishi ma‘lum qilinishi lozim.

Chaqiruv qog‘ozi chaqiriluvchiga topshirilib, tilxat olinadi. Chaqiruv qog‘ozi olib borilganda chaqiriluvchi vaqtincha yo‘q bo‘lsa, unga berib qo‘yish uchun chaqiruv qog‘ozi u bilan birga yashovchi voyaga yetgan oila a‘zolaridan biriga, yotoqxon ma‘muriyatiga, uy egasiga yoki fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organi vakiliga topshirilib, tilxat olinadi.

So‘roq qilinuvchining shaxsini aniqlash. So‘roq qilishdan oldin so‘roq qilinuvchidan uning familiyasi, ismi, otasining ismi, aniq tug‘ilgan vaqti

¹⁵ Jahon tajribasidan ma‘lumki, ayrim davlatlarda tergov harakatlari uzoq masofadan turib videokonferensiya orqali ham o‘tkaziladi. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual qonunchiligida videokonferensiya yoki shunga o‘xshash vositalar yordamida uzoq masofadan turib tergov harakatlarini o‘tkazishni nazarda tutadigan qoida mavjud emas.

(yili, oyi, kuni), tugʻilgan joyi, millati, fuqaroligi, ish joyi, mansabi, mashgʻulot turi, maʼlumoti, oilaviy ahvoli, sudlanganligi yoki sudlanmaganligi, doimiy yoki vaqtincha turar-joyi aniqlanadi. Ushbu maʼlumotlarning barchasi jinoyat ishidagi yoki soʻroq qilinuvchining shaxsiy hujjatlaridagi maʼlumotlar bilan solishtiriladi. Har qanday holda ham surishtiruvchi, tergovchi yoki sud soʻroq qilinuvchi oʻzini kim deb tanishtirgan boʻlsa, aynan oʻsha shaxs ekanligiga ishonch hosil qilishi lozim (Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 98-modda). Ish uchun ahamiyatli boʻlgan hollarda soʻroq qilinuvchining shaxsiga boʻlgan boshqa maʼlumotlar ham aniqlanishi mumkin. Masalan, qaramogʻida boʻlgan shaxslar, ogʻir kasalligi bor-yoʻqligi, psixonevrologik va narkologik dispanserlar hisobida turish-turmasligi kabi maʼlumotlar shular jumlasidan.

Soʻroq qilinuvchining qaysi tilda koʻrsatuv bera olishini aniqlash. Soʻroq qilinuvchi ish yuritilayotgan tilni bilmasa yoki yetarli darajada tushunmasa, u qaysi tilda koʻrsatuv bera olishi mumkin, degan masalalar ham aniqlanishi lozim. Zarur hollarda tarjimon chaqiriladi va u kelguncha soʻroq qilish toʻxtatib turiladi (Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 99-modda). Soʻroq qilinuvchining qaysi tilda koʻrsatuv bera olishi bayonnomada koʻrsatilishi shart. Soʻroq qilinuvchi shaxsning ona tili yoki millati xususida maʼlumotlar mavjud boʻlsa-da, undan qaysi tilda koʻrsatuv berish istagi borligi soʻralishi lozim.

Huquq va majburiyatlarni tushuntirish. Soʻroq qilinuvchining shaxsi aniqlanganidan keyin unga (ushbu kodeksda mavjud) huquq va majburiyatlari tushuntiriladi. Bu huquq va majburiyatlar tushuntirilganligi ham soʻroq bayonnomasi yoki sud majlisi bayonnomasida qayd etiladi (Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 100-modda). Soʻroq qilishda, umuman istalgan tergov harakatida ishtirok etayotgan fuqarolarning, necha marta ishtirok etishidan qatʼi nazar jinoyat-protsessual qonunchiligidagi huquq va majburiyatlari tushuntirilishi shart. Bu qoidaga rasmiyatchilik uchun amal qilmasdan, soʻroq qilinuvchining kim sifatida soʻroq qilinishidan kelib chiqib (guvoh, jabrlanuvchi, gumon qilinuvchi v.h.), uning huquq va majburiyatlari mazkur shaxsning huquqiy ongi darajasida tushunarli tarzda yoritib berilishi kerak.

Ishning holatlari toʻgʻrisida erkin soʻzlab berish. Soʻroq qilinuvchiga ishning unga maʼlum boʻlgan holatlari toʻgʻrisida soʻzlab berish taklif qilinmogʻi lozim. Soʻroq qilinuvchi erkin soʻzlab berganidan keyin uning koʻrsatuvlarini toʻldirish va aniqlashga qaratilgan savollar berilishi mumkin (Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 101-modda). Soʻroq qilinuvchi tomonidan oʻziga maʼlum holatlar xususida erkin soʻzlab berishi

birinchidan, ish yuzasidan aniqlanishi lozim bo'lgan holatlarni isbot qilish uchun muhim bo'lsa, boshqa tomondan mazkur shaxsning bo'lib o'tgan holatlarni xotirada qayta tiklash tasodifiy xatolarning oldini olish uchun ahamiyatlidir. Har qanday shaxsni sud majlisida yoki undan tashqarida so'roq qilishda mazkur qoidaga rioya qilinadi. Shaxs erkin so'zlab bo'lganidan keyin, holat yuzasidan savollar berilishiga yo'l qo'yiladi. Agar erkin so'zlab berish jarayonida so'roq qilinuvchi ishga taalluqli bo'lmagan ma'lumotlarni so'zlashda davom etsa, so'roq qiluvchi vaqtni samarali tejash maqsadida uni to'xtatib tegishli ish uchun ahamiyatli holatlarga to'xtalishni va savollarga javob berishni talab qilishga haqli.

Ishora qiluvchi savollar berishga yo'l qo'yilmasligi. Kutilayotgan javobga bevosita yoki bilvosita yo'naltirish mazmunidagi ishora qiluvchi savollar berish taqiqlanadi (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 102-modda). Ishora qiluvchi savollar deganda so'roq qilinuvchidan ma'lum bir javobni olish maqsadida unga savol berish tushuniladi. Ishora qiluvchi savollarga misol: "o'sha kuni egningizda qora kiyim edimi?" deb so'rashning o'zi shaxsning qora kiyimiga ishora qilyapti. Bu savolni to'g'ri shakllantirib "o'sha kuni qanday kiyim kiygan edingiz?" deb so'ralsa, to'g'ri bo'ladi.

So'roq qilinuvchining hujjatlar va boshqa yozuvlardan foydalanishi. So'roq qilinuvchining ko'rsatuvlari raqamlar yoki xotirada saqlanishi qiyin boshqa ma'lumotlarga taalluqli bo'lsa, u so'roq jarayonida o'zidagi yoki ishga qo'shib qo'yilgan hujjatlardan yoxud boshqa yozuvlardan foydalanishi mumkin. So'roq qilinuvchiga so'roq qilish jarayonida o'zidagi hujjatlar va boshqa yozuvlarni o'qib eshittirishga ruxsat etilishi mumkin. Surishtiruvchi, tergovchi va sud so'roq qilinuvchidan so'roq qilish jarayonida u foydalanayotgan hujjatlar va boshqa yozuvlarni talab qilishi, ularni keyin qaytarib berishi yoki ishga qo'shib qo'yishi mumkin (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 103-modda).

So'roq qilinuvchining hujjatlar va boshqa yozuvlardan foydalanishi uchun sharoitlar yaratib berilishi kerak. Biroq, ushbu huquqdan foydalanish so'roq qilinuvchi so'roq paytida oldindan tayyorlab qo'yilgan ko'rsatuv (ishlab chiqilgan) matnga aylanmasligi kerak. Agar zarurat tug'ilsa, masalan sud jarayonida so'roq qilinuvchining yozuvlardan foydalanishi ishni oshkora ko'rilishi va dalillarni bevosita va og'zaki usulda tekshirish prinsiplarini buzadigan bo'lsa, bu yozuvlarni surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud olib qo'yadi va bu haqda tegishli bayonnomaga yozuv kiritadi. Ko'rsatuvlarning haqqoniyligini tekshirish uchun xotirada saqlab qolinishi mumkin bo'lgan ma'lumotlar xususida tegishli hujjat yoki

yozuvlar olib qo‘ygan holda ham savollar berilishi mumkin.

So‘roq qilinuvchining ilgari so‘roqlarda bergan ko‘rsatuvlarini o‘qib eshittirish. Jinoyat protsessining va dalillarga baho berishning prinsiplaridan biri dalillarni bevosita va og‘zaki usulda tekshirish hisoblanadi. Unga ko‘ra, ilgari so‘roq qilinganligidan qat’i nazar dalil sifatida ma’lumotni qabul qilish yoki tekshirish uchun mazkur ma’lumotga ega shaxs (uni ma’lum qilgan shaxs) bevosita (og‘zaki) so‘roq qilinishi lozim. Biroq shaxs ko‘rsatuv berishdan bosh tortgan hollarda, shuningdek hozirgi va ilgari so‘roqlarda berilgan ko‘rsatuvlar o‘rtasida jiddiy qarama-qarshiliklar bo‘lganda yoki tergov va suddan yashiringan vaziyatlarda ish yuritilayotganda, uning ilgari bergan ko‘rsatuvlari bayonnomalashtirilgan bo‘lsa, u o‘qib eshittirilishi mumkin.

Bundan tashqari, so‘roq qilinuvchi shaxs takroriy yoki qo‘shimcha so‘roqda biri boshqasini inkor qiladigan ma’lumotlarni bayon qilgan hollarda so‘roq qilish yakuniga yetkazilib, rasmiylashtirilgandan so‘ng ilgari bergan ko‘rsatuvlarini tekshirish yoki aniqlik ko‘rsatish maqsadida o‘qib eshittirilishi mumkin (O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 104-modda).

Shuningdek, ish so‘roq qilinuvchining ishtirokisiz ko‘rib chiqilayotganda surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud tomonidan so‘roq qilinuvchining ilgari bergan ko‘rsatuvlar o‘qib eshittirilishi mumkin.

So‘roq qilinuvchiga narsalar va hujjatlarni ko‘rsatish. So‘roq jarayonida surishtiruvchi, tergovchi va sud, shuningdek sud muhokamasida taraflar ishga qo‘shib qo‘yilgan yoki taraflar ixtiyorida bo‘lgan narsalar va hujjatlarni so‘roq qilinuvchiga ko‘rsatishlari, shuningdek bu hujjatlarni o‘qib eshittirishlari mumkin (O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 105-moddasi 1-qismi).

Bu vaziyatda ko‘rsatuvlarning haqqoniyligiga erishish, unutilayotgan muayyan holatlarni esga solish, boshqalarga noma’lum noaniq bo‘lgan ma’lumotlarga oydinlik kiritish maqsadida so‘roq qilinuvchiga narsalar va hujjatlarni ko‘rsatishga yo‘l qo‘yiladi. Ko‘rsatiladigan bunday ashyolar so‘roq qiluvchilarda yoki sud taraflar ixtiyorida bo‘lib, ularning tashabbusi bilan ham ko‘rsatilishi mumkin.

So‘roq bayonnomasida yoki sud majlisi bayonnomasida qaysi narsa yoki hujjat ko‘rsatilganligi, hujjat matnining qaysi qismi va uning kim tomonidan o‘qib eshittirilganligi, narsa yoki hujjatni ko‘rsatish vaqtida qanday savollar berilganligi va bunga javoban so‘roq qilinuvchi qanday ko‘rsatuvlar berganligi aniq aks ettirilishi kerak (O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 105-moddasi 2-qismi).

So‘roq jarayoni va natijalarini qayd qilish. (O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 106-modda). Muayyan ma’lumotga dalil deb baho berishning muhim shartlaridan biri ularning rasmiylashtirishi hisoblanadi. Tegishli tartibda rasmiylashtirilgan ma’lumotlardan dalil sifatida foydalanish mumkin. Boshqa ko‘plab davlatlardan farqli ravishda O‘zbekiston Respublikasi jinoyat protsessida suddan tashqarida so‘roq qilish amalga oshirilganda alohida bayonnoma tuziladi. Sudda esa, barcha sud harakatlari sud majlisining bayonnomasida rasmiylashtiriladi.

Har bir holatni to‘laligicha yozib bo‘lmasligi bois so‘roq jarayonida bayonnoma yuritish bilan bir qatorda ovozni yozib olish, videoyozuv va kinotasvirga olish ham qo‘llanilishi mumkin. Ulardan foydalanish ko‘rsatuvlarning yanada ishonchliligini ta’minlaydi.

Ko‘rsatuvlar bayonnomaga birinchi shaxs nomidan, imkoni boricha so‘zma-so‘z yozib boriladi. Savol-javob so‘roq jarayonida qanday olib borilgan bo‘lsa, shunday izchillikda qayd qilinadi. Surishtiruvchi, tergovchi yoki sud majlisiga raislik qiluvchi tomonidan chetlatilgan, shuningdek so‘roq qilinuvchi javob berishdan bosh tortgan savollar ham bayonnomaga kiritilishi kerak.

Bayonnomada, bundan tashqari, so‘roq qilinuvchi tomonidan avvalgi so‘roqlarda berilgan ko‘rsatuvlarning o‘qib eshittirilgani, ko‘rsatuv berish jarayonida so‘roq qilinuvchining hujjat yoki boshqa yozuvlardan foydalangani, so‘roq qilinuvchiga so‘roq davomida narsa va hujjatlar ko‘rsatilgani, so‘roq paytida ovoz yozish, videoyozuv, kinotasvirga olish o‘tkazilgani qayd qilinadi, fonogramma, videoyozuv, kinotasma bayonnomaga ilova qilinadi.

Agar so‘roq qilishda texnik vositalaridan foydalanilgan bo‘lsa, bayonnomada quyidagilar ko‘rsatilishi lozim:

- fotosurat, videoyozuvlar va ovozli yozuvlardan foydalanganligi haqidagi ma’lumotlar;
- texnik vositalar to‘g‘risida ma’lumotlar;
- agar uzilishlar bo‘lsa, ularning sabablari va muddatlari;
- so‘roq qilinuvchi tomonidan texnik vositalardan foydalanish borasida berilgan ariza va shikoyatlar;
- so‘roq qilinuvchining imzosi.

So‘roq tugaganidan keyin bayonnoma o‘qib chiqish uchun so‘roq qilinuvchiga ko‘rsatiladi yoxud uning iltimosiga ko‘ra surishtiruvchi, tergovchi tomonidan unga o‘qib beriladi.

So‘roq qilinuvchi ko‘rsatuvni o‘z qo‘li bilan yozma ravishda bayon qilishga haqli, o‘z qo‘li bilan yozilgan ko‘rsatuv bayonnomaga ilova qilinib,

bu haqida bayonnomaga yozib qo'yiladi.

So'roq qilinuvchi yoki taraflarning iltimosiga ko'ra sud majlisida bayonnomaga imzo qo'yilguniga qadar yozilgan ovoz, videoyozuv va kinotasvir namoyish qilinishi mumkin. Ular bilan bayonnoma o'rtasida tafovut bo'lgan hollarda, tafovut sababini aniqlash uchun qayta so'roq qilinishi mumkin.

So'roq qilinuvchi bayonnomani o'qib bo'lgach, ko'rsatuvlari to'g'ri yozilganligi va u bilan tanishganligini imzo chekib tasdiqlaydi. Imzo bayonnomaning oxiriga qo'yiladi, bosharti ko'rsatuvlar bir necha sahifaga yozilgan bo'lsa, har qaysi sahifaga alohida imzo chekiladi.

So'roq qilishda tarjimon qatnashayotgan bo'lsa, u so'roq qilinayotgan shaxsning bayonnomadagi ko'rsatuvlarini unga og'zaki tarjima qiladi, so'roq qilinuvchining o'z qo'li bilan yozib bergan ko'rsatuvlarini esa, yozma ravishda tarjima qiladi. Tarjimon ko'rsatuvlar yozilgan bayonnomaning oxiriga va har bir sahifasiga alohida, shuningdek so'roq qilinuvchining o'z qo'li bilan yozib bergan ko'rsatuvlarining tarjimasiga imzo chekadi.

So'roqning davom etish vaqti. So'roqning umumiy davom etish vaqti bir kunda sakkiz soatdan oshmasligi lozim. Dam olish va ovqatlanish uchun beriladigan bir soat tanaffus bu hisobga kirmaydi (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 107-modda).

Voyaga yetmagan gumon qilinuvchini, ayblanuvchini so'roq qilishga ketgan umumiy vaqt, kun davomida dam olish va ovqatlanish uchun bir soatlik tanaffusni hisobga olmaganda, olti soatdan oshmasligi kerak (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 553-moddasi 4-qismi).

Tergov amaliyoti so'roq qilinuvchini so'roq qilishning davom etish vaqtini belgilashda mutaxassis-shifokor fikri olinishi maqsadga muvofiq. Lekin ushbu muddat ham yuqorida ko'rsatilgan maksimal muddatdan oshishi mumkin emas.

Qo'shimcha so'roq. Dastlabki tergovda va sudda qo'shimcha so'roq qilish zarurati tug'ilishi mumkin. Bunday so'roq quyidagi hollarda o'tkaziladi:

1) so'roq qilinuvchi ishning o'ziga ma'lum bo'lgan barcha holatlari to'g'risida ko'rsatuv bera olishi uchun qonunda nazarda tutilgan so'roqning umumiy davom etish vaqti yetarli bo'lmasa;

2) so'roq qilingan shaxs ilgari bergan ko'rsatuvlarini to'ldirish yoki o'zgartirish istagini bildirsa;

3) ayblanuvchiga yangi yoki o'zgartirilgan yoxud qo'shimcha ayblov

e'lon qilinsa;

4) surishtiruvchi yoki tergovchi tomonidan ilgari so'roq qilingan shaxsning ko'rsatuvlari to'g'ri yozilganligini prokuror qo'shimcha so'roq qilish yo'li bilan tekshirib ko'rishni lozim topsa;

5) surishtiruvchi yoki boshqa tergovchi tomonidan ilgari so'roq qilingan shaxsning ko'rsatuvlari to'g'ri yozilganligini ishni yuritish uchun qabul qilgan tergovchi qo'shimcha so'roq qilish yo'li bilan tekshirib ko'rishni lozim topsa;

6) ilgari so'roq qilingan shaxsga berilishi kerak bo'lgan ish uchun muhim yangi savollar tug'ilsa;

7) shaxs so'roq qilinganidan keyin ishga kirishgan zaxiradagi xalq maslahatchisi ushbu shaxsni yangitdan so'roq qilishni talab qilsa (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 108-modda).

Ko'rsatuv beradigan subyektlarga ko'ra, **so'roq qilish qo'yidagi turlarga farqlanadi:**

1) gumon qilinuvchini va ayblanuvchini (sudlanuvchi) so'roq qilish;

2) jabrlanuvchi va guvohni so'roq qilish.

Bulardan tashqari, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, jabrlanuvchi va guvoh maqomida bo'lgan shaxslarning yoshi, jinoyat ishiga jalb qilinayotgan O'zbekiston hududidan tashqarida ekanligi yoki diplomatik daxlsizlikka egaligi kabi xususiyatlarini inobatga olib, ularni so'roq qilishga nisbatan qo'shimcha qoidalarni qo'llaniladi. Bunday xususiyatlarga ega shaxslar sifatida:

1) voyaga yetmagan gumon qilinuvchini va ayblanuvchini (sudlanuvchini);

2) voyaga yetmagan jabrlanuvchini va guvohni;

3) gumon qilinuvchining, ayblanuvchining va sudlanuvchining yaqin qarindoshlarini;

4) O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida bo'lgan va chaqirtirilgan guvohni, jabrlanuvchini, ekspertni, fuqaroviy da'vogarni, fuqaroviy javobgarni, ularning vakillarini;

5) xorijiy yoki xalqaro diplomatik daxlsizlikka ega shaxslarni keltirib o'tish mumkin.

Yuqorida sanab o'tilgan shaxslarni jinoyat protsessining har qanday bosqichida so'roq qilishda ularga berilgan qo'shimcha kafolatlar va o'ziga xosliklarni inobatga olgan holda so'roq qilishning umumiy qoidalariga rioya etiladi.

Sanab o'tilgan shaxslardan voyaga yetmaganlar gumon qilinuvchini va ayblanuvchini, (sudlanuvchi) shuningdek O'zbekiston Respublikasi

hududidan tashqarida bo'lgan va chaqirtirilgan guvoh, jabrlanuvchi, ekspert, fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar, ularning vakillarini so'roq qilishga doir maxsus qoidalar alohida mavzularda (darslik boblarida) ko'rib chiqiladi.

Gumon qilinuvchi va ayblanuvchini (sudlanuvchini) so'roq qilish

Jinoyat protsessi ishtirokchilari mavzusini esga oling: Shaxsni rasman gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi deb hisoblash uchun ularni ishtirok etishga jalb qilish to'g'risida qaror chiqarilgan bo'lishi kerak.

Gumon qilinuvchi va ayblanuvchilarni so'roq qilishda ham yuqorida bayon qilingan so'roq qilishning umumiy qoidalari qo'llaniladi. Bulardan tashqari, yana o'ziga xoslik kasb etadi. Quyida shular xususida to'xtalamiz.

Gumon qilinuvchi va ayblanuvchining manfaatlarini ta'minlash maqsadida ularni so'roq qilish muddalariga alohida e'tibor qaratiladi.

Quyidagi holatlarda gumon qilinuvchi va ayblanuvchiga so'roq qilish darhol, uzog'i bilan yigirma to'rt soatdan kechiktirmay ko'rsatuv berishga imkoniyat yaratilib berilishi kerak:

1) ular ushlanganda yoki qamoqqa olinganda huquqni muhofaza qilish organiga olib kelingan paytdan boshlab;

2) so'roq qilish uchun chaqirilgan yoki majburiy keltirilganda hozir bo'lgan paytdan boshlab.

Mazkur qoidani nazarda tutuvchi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 110-moddasidagi "so'roq qilinishi kerak" iborasining qo'llanilganligi gumon qilinuvchi va ayblanuvchining so'roq qilish tergov harakatida ishtirok etishiga majburligini anglatmaydi. Yuqoridagi holatlar yuz berganidan surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud gumon qilinuvchi va ayblanuvchidan ko'rsatuv berish xohishi borligini so'rashlari va ko'rsatuv berish imkoniyatini yaratish, ya'ni xohishlari bo'lganida so'roq qilishga kirishishlari lozimligini anglatadi.

Ayblanuvchi (sudlanuvchi) jinoyat protsessining eng asosiy ishtirokchilaridan bo'lganligi, unga himoyalani huquqi berilganligi bois sud tergov paytida sudlanuvchiga istagan vaqtida ko'rsatuv berish huquqi sudya tomonidan ta'minlanishi shart. Agar sudlanuvchi biror sud harakati o'tkazilayotgan paytda ko'rsatuv berish to'g'risida istak bildirsa, sud unga shu harakatlar tugashi bilanoq ko'rsatuv berish uchun imkoniyat yaratadi.

Gumon qilinuvchi va ayblanuvchini birinchi marotaba so'roq qilish o'zining amalga oshirish vaqti va tartibiga xos qoidalar nihoyatda ehtiyotkorlikni talab qiladi. Chunki surishtiruv va tergov organlari

xodimlari tomonidan bu qoidalarga rioya qilmaslik himoya huquqining buzilishini anglatadi.

Qonunda shaxsga gumon yoki ayblov e'lon qilinganidan keyin qanday muddat ichida so'roq qilish lozimligi masalasi aniq tartibga solinmagan bo'lsa-da, bu holat O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 110-moddasi birinchi qismidagi qoida bilan tartibga solinadi. Bu boradagi tergov an'analari to'g'ri shakllangan. Aksariyat jinoyat ishlarida gumon yoki ayb e'lon qilingan, shuningdek ayblov o'zgartirilgan zahoti gumon qilinuvchi yoyinki ayblanuvchini so'roq qilish tergov harakati o'tkaziladi.

Gumon qilinuvchini va ayblanuvchini birinchi marta so'roq qilishdan oldin surishtiruvchi, tergovchi quyidagi harakatlar ketma-ketligini amalga oshiradi:

1) so'roq qilishning umumiy qoidalariga muvofiq so'roq qilinuvchini chaqirishi, uning shaxsini va qaysi tilda ko'rsatuv berishi mumkinligini aniqlaydi;

2) gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 46 va 48-moddalarida nazarda tutilgan protsessual huquq va majburiyatlarini tushuntiradi;

3) so'roq qilishda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi shartnoma tuzgan himoyachining yoxud himoyachi ishtirok etishi shart bo'lgan hollarda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi shartnoma tuzishga ulgurmagan yoki tuza olmagan bo'lsa, boshqa himoyachining so'roqda ishtirok etishini ta'minlaydi;

4) gumon qilinuvchiga uning qanday jinoyat sodir etganlikda gumon qilinayotganligini, ayblanuvchiga esa ayblanganligini e'lon qiladi, ya'ni gumon yoki ayblovni e'lon qiladi;²³

5) gumon qilinuvchiga yoki ayblanuvchiga ularning jalb qilinganligi to'g'risidagi qaror nusxalarni (qaytarib olmaslik sharti bilan) taqdim qiladi;

6) Surishtiruvchi, tergovchi ayblanuvchini birinchi marta so'roq qilishdan oldin u o'zini aybli hisoblashi-hisoblamasligini yoki o'z aybini to'la yoxud qisman rad etishi yoki etmasligini aniqlaydi;

Ushbu harakatlar amalga oshirilganidan so'ng, so'roq qilishga kirishadi.

So'roq qilish ikki qismdan: a) erkin so'zlab berish (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 101-modda) va b) savol-javob qismlaridan iborat bo'ladi.

Bularning hammasi so'roq qilish bayonnomasida, sudda esa, sud

¹⁶ Gumon va ayblovni e'lon qilishning alohida tartibi bo'lib, ushbu masala "Jinoyat ishida gumon qilinuvchi va ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish" mavzusida ko'rib chiqiladi.

majlisi bayonnomasida qayd qilinadi.

So'roq qilishda shaxslarning nimalar xususida bayon qilganligi hali isbot qilinganligini anglatmaydi. Unga surishtiruv, tergov organlari va sud tomonidan bildirilgan munosabat ham ahamiyatlidir (Bu "Dalillar va isbot qilish" mavzusida dalillarga baho berish deb e'tirof etilgan edi).

Gumon qilinuvchi va ayblanuvchining ko'rsatuvlari guvohlar va boshqa shaxslarning ko'rsatuvlaridan tubdan farq qiladi. Ayblanuvchi o'ziga nisbatan qo'yilgan ayblov bo'yicha ko'rsatuvlar berar ekan, uning ko'rsatuvlarida bayon qilingan fikrlar chalg'itish ruhida bo'lishi mumkinligini nazardan chetda qoldirmaslik lozim.

Gumon qilinuvchi va ayblanuvchining ko'rsatuvlari e'lon qilingan ayblovga nisbatan ikki xil mazmunda bo'ladi. Bular 1) ayblovni (gumonni) rad etuvchi ko'rsatuvlar va 2) iqrорlik mazmunidagi ko'rsatuvlar.

Ayblovni (gumonni) rad etuvchi ko'rsatuvlar gumon qilinuvchi va ayblanuvchining huquqdan kelib chiqadi.

Gumon qilinuvchi va ayblanuvchini so'roq qilish ayblanuvchidan jinoyat ishi bo'yicha isbotlashning vositalaridan biri bo'lmish ko'rsatuvlar olish usuli bo'lish bilan bir qatorda ularning ayblovdan (gumondan) himoyalanişning eng ta'sirchan va aniq vositasi hisoblanadi.

Gumon qilinuvchi va ayblanuvchi himoya huquqining subyektlari bo'lganlari uchun ko'rsatuv berish ularning huquqi hisoblanadi.

Gumon qilinuvchi va ayblanuvchi (sudlanuvchi) ko'rsatuv berishdan bosh tortganda, yolg'on guvohlik (ko'rsatuv) berganda, hattoki, birovga tuhmat qilganida yoki bila turib yolg'ondan jinoyatni sodir etgan shaxs, deb ko'rsatganida ham, qanday oqibatlar yuz berishidan qat'i nazar, javobgarlikka tortilmaydilar.

Iqrорlik mazmunidagi ko'rsatuvlar - gumon qilinuvchining va ayblanuvchining zimmasiga e'lon qilingan ayblov va gumonni tan olishini anglatuvchi ko'rsatuvlar hisoblanadi.

Gumon qilinuvchi va ayblanuvchining iqrорligini ikki xil vaziyatda o'rganish mumkin:

- 1) Ko'rsatuvlar berish vaqtidagi iqrорlik;
- 2) Aybini bo'yniga olish to'g'risidagi arz bilan murojaat qilish vaqtidagi iqrорlik.

Gumon qilinuvchi va ayblanuvchi iqrорlik mazmunidagi ko'rsatuv nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi. Iqrорlik jinoiy javobgarlikni hal qilish va ish yuritish tartibini belgilashga bevosita ta'sir qiladi.

Gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi aybga (gumonga) iqrор bo'lganida u ayblovning (gumonning) aynan qaysi epizodlari v.h.latlarini tan olishi

hamda qaysilarini inkor etishini aniqlash zarur. Shuningdek, aybga iqrorlik yoki uni rad qilish voqelikka qanchalik mos kelishini tekshirishga ko‘maklashuvchi holatlarga ham aniqlik kiritish kerak.

Yolg‘ondan aybga iqrorlik ijtimoiy xavfli holatdir. Bu tergovni to‘g‘ri yo‘ldan chalg‘itadi, behudaga vaqt sarflaydi, moddiy yo‘qotishlarga sabab bo‘ladi va haqiqiy aylanuvchini javobgarlikka tortilmasligiga olib kelishi mumkin.

Gumon qilinuvchining sodir etilgan jinoyat haqidagi ko‘rsatuvlari va ayblanuvchining o‘z aybiga iqror bo‘lishi, ishdagi boshqa mavjud dalillar yig‘indisi bilan tasdiqlangan taqdirdagina ayblash uchun asos qilib olinishi mumkin. Guvon qilinuvchi va ayblanuvchining ko‘rsatuvlari bilan aniqlangan holatlar ayblanuvchi o‘z aybiga iqror bo‘lgan taqdirda ham, o‘zining aybdor ekanligini inkor qilgan taqdirda ham ishning hamma holatlari bilan bog‘liq holda boshqa dalillar kabi tekshirib chiqilishi va baholanishi lozim. Chunki shaxs boshqa shaxsning aybini bo‘yniga olishi yoki o‘zining jinoiy sheriklarni yashirishga urinishi ko‘p kuzatiladi.

Shuning uchun O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2014-yil 23-maydagi «Sud hukmi to‘g‘risida»gi 07-sonli qarorida sudlanuvchi tomonidan tergovda yoki sudda aybini bo‘yniga olish holati u ish bo‘yicha to‘plangan hamda sudda tekshirilgan boshqa dalillar bilan xolisona tasdiqlangandagina ayblov hukmi chiqarishga asos bo‘la olishi ta’kidlangan²⁴.

Aybini bo‘yniga olish to‘g‘risidagi arzning eng asosiy sharti bu uning ixtiyoriy ekanligidir. Shaxs u jinoyatni sodir etganlikda guvon qilinmasdan va unga ayblov e‘lon qilinmasdan oldin huquqni muhofaza qilish organlariga o‘zi sodir etgan jinoyat to‘g‘risida xabar bilan, ya’ni aybini bo‘yniga olish to‘g‘risidagi arz bilan murojaat etishi mumkin.

Aybini bo‘yniga olish to‘g‘risidagi arz og‘zaki yoki yozma bo‘lishi mumkin. Og‘zaki xabarni surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud bayonnomada aks ettiradi. Bayonnomaga arz qiluvchining shaxsiga doir ma’lumotlar kiritiladi va unda arzning mazmuni birinchi shaxs nomidan bayon qilinadi. Bayonnomaga arz qiluvchi va arz qilingan surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudya imzo chekadi.

Aybini bo‘yniga olish to‘g‘risidagi arz ham surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud tomonidan aniqlangan boshqa barcha dalillar bilan birgalikda baholanadi hamda aybini bo‘yniga olish mavjud dalillar yig‘indisi bilan tasdiqlangan taqdirdagina ayblash uchun asos qilib olinishi mumkin.

²⁴ O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2014-yil 23-maydagi «Sud hukmi to‘g‘risida»gi 07-sonli qarori.

Aybini bo‘yniga olish to‘g‘risida arz sud, prokuror, surishtiruvchi va tergovchini ishning barcha holatlarni aniqlash majburiyatidan ozod etmaydi.

Guvoh va jabrlanuvchini so‘roq qilish. Kundalik nutqda “guvohlik qilmoq” iborasi o‘zi guvohi bo‘lgan holat xususida aytib bermoq, ma’lumot bermoq, bildirmoq ma'nolarini anglatadi. Buni inobatga olib, masalaga umumiyroq yondoshsak, muayyan voqelik haqida ma’lumot berishni guvohlik berish, deb atash mumkin.

Guvoh va jabrlanuvchini so‘roq qilishda ham so‘roq qilishning **umumiy qoidalariga** rioya qilinadi. Guvoh va jabrlanuvchini so‘roq qilish quyidagi xususiyatlari bilan gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchini so‘roq qilishdan farqlanadi:

1. Ko‘rsatuv berish guvoh va jabrlanuvchining majburiyati hisoblanishi;
2. Qonunda guvoh va jabrlanuvchiga nisbatan o‘tkaziladigan tergov harakatida ularning manfaatlarini himoya qilishda advokat ishtirok etishi shart bo‘lgan holatlar belgilanmagan bo‘lsa-da, ularning o‘z advokati (guvohga nisbatan) yoki vakili (jabrlanuvchiga nisbatan) bilan birga hozir bo‘lsalar, ularni advokat yoki vakil ishtirokida so‘roq qilinadilar.

3. Jinoyat–protsessual qonun hujjatlarida guvoh yoki jabrlanuvchilar uchun hech qanday yoshga doir cheklashlar belgilanmagan. Amaliyotda kichik yoshdagi guvohlar (jabrlanuvchilar) ko‘rsatuvlaridan ham foydalaniladi.

4. Agar guvoh yoki jabrlanuvchi o‘n olti yoshga to‘lmagan bo‘lsa, ularni so‘roq qilish qonuniy vakili yoki katta yoshdagi yaqin qarindoshi, pedagog yoki jabrlanuvchining vakili ishtirokida ularning roziligi bilan o‘tkaziladi.

Jinoyat protsessi ishtirokchilari mavzusini esga oling: Shaxsni guvoh sifatida jalb qilish uchun hech qanday protsessual qaror yoki ajrim chiqarilmaydi, chaqiruv qog‘ozi, shaxsga guvoh sifatida ishtirok etishishi so‘rashning o‘zi kifoya.

Shaxsni jabrlanuvchi deb hisoblash uchun uni jabrlanuvchi, deb e’tirof etish to‘g‘risida qaror chiqarilgan bo‘lishi kerak.

Jinoyat-protsessual qonun normalari vujudga kelish va rivojlanish tarixini tahlil qilib, shunday xulosa qilish mumkinki, muayyan himoya huquqini ta’minlash maqsadida gumon qilinuvchi va ayblanuvchini so‘roq qilish tartibi ham umumiylik kasb etgan guvohlarni so‘roq qilish tartibidan ajralib chiqqan²⁵. Jinoyat protsessida himoya huquqi ega bo‘lgan

¹⁸ Shu o‘rinda ma’lumot sifatida aytish kerak, anglo-sakson huquqida jinoyat ishi yuzasidan ma’lumotlarga ega barcha shaxslar guvoh bo‘lishi mumkin bo‘lgan va guvoh bo‘lishi shart bo‘lgan shaxslarga bo‘linadi. Hattoki, jinoiy javobgarlikka jalb qilingan shaxs ham guvoh bo‘lishning barcha yuridik oqibatlari (“haqiqatni va faqat haqiqatni

shaxslardan tashqari barcha shaxslar guvohni so‘roq qilish qoidalariga asoslanib so‘roq qilinadi. Masalan, ekspert, fuqaroviy da’vogar, fuqaroviy javobgar, qonuniy vakillar v.h.

O‘zbekiston Respublikasi jinoyat-protsessual qonunchiligi bir jinoyat ishi yuzasidan gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi maqomida bo‘lgan shaxsning guvoh sifatida so‘roq qilinishiga yo‘l qo‘ymaydi. Sababi gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchi himoya huquqiga ega bo‘lgan shaxslardir. Gumon qilinuvchining, ayblanuvchining va sudlanuvchining guvoh sifatida so‘roq qilinishi, ya’ni ko‘rsatuv berishning majburiy qilib qo‘yilishi o‘zlariga qarshi ko‘rsatuv berishga olib kelishi, yolg‘on ko‘rsatuvlarning berilishi va boshqa salbiy holatlarni keltirib chiqaradi.

Jinoyat protsessual qonunchiligiga ko‘ra, nafaqat gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchi, balki gumon ostiga olingan ya’ni kelgusida gumon qilinishi mumkinligini ochiq ko‘rinib qolgan shaxslar ham guvoh sifatida so‘roq qilinmaydilar.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2003-yil 19-dekabrdagi “Gumon qilinuvchi va ayblanuvchini himoya huquqi bilan ta’minlashga oid qonunlarni qo‘llash bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi 17-sonli qarorining 8-bandida “Bu o‘rinda shuni nazarda tutish kerakki, shaxs O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 221-moddasida ko‘rsatilgan asoslarga ko‘ra ushlangan hollarda, garchi qonunda bu haqda tegishli bayonnoma shaxs militsiya yoki boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organga keltirilgandan so‘ng rasmiylashtirilishi belgilangan bo‘lsa-da, u amalda ushlangan (qo‘lga olingan) paytdan boshlab gumon qilinuvchi deb hisoblanadi²⁶.

Aynan shu paytdan boshlab ushlab turilgan shaxs gumon qilinuvchiga berilgan barcha huquqlardan, shu jumladan, himoyachi olish huquqidan foydalanadi. Shu tufayli, bunday hollarda u **guvoh sifatida so‘roq qilinishi**, jinoyat ishida gumon qilinuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilinganligi haqidagi qaror unga e’lon qilinmasdan hamda tegishli huquq va majburiyatlari tushuntirilmasdan turib, unga nisbatan tergov harakatlari olib

so‘zlayman” majburiyatini olish) bilan birga, guvoh sifatida so‘roq qilinishi mumkin. Anglo-sakson huquqida ish sudda ko‘rilayotganida ayb e’lon qilingan yoki shaxs ayblanuvchi maqomida bo‘lganida guvoh sifatida so‘roq qilinishiga yo‘l qo‘yilishi mumkin. Anglo-sakson huquqida jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan shaxsning guvoh sifatida so‘roq qilinishining muhim sharti ayblanuvchi tomonidan aynan shu xususida iltimos qilinganligi hisoblanadi. Agar ayblanuvchi o‘zining guvoh sifatida so‘roq qilinishi to‘g‘risida iltimos qilmasa, unga qarshi prezumpsiyalarning (taxminlarning) shakllanishiga sabab bo‘lmasligi kerak.

²⁶ O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining “Gumon qilinuvchi va ayblanuvchini himoya huquqi bilan ta’minlashga oid qonunlarni qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi 2003-yil 19-dekabrdagi 17-sonli Qarori//O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorlari to‘plami 1991-2006. T.1. –T.: 2007. – B.146.

borilishi mumkin emas.

Aybini bo‘yniga olish to‘g‘risidagi arz bilan tegishli davlat organiga murojaat qilgan shaxs ham shunday huquqiy holatga ega (O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 113-moddasi) deyilgan. Demak, mazkur shaxslar jinoyat protsessida gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchiga tegishli himoya huquqidan foydalanishlari uchun ham guvoh sifatida so‘roq qilinmaydilar.

Jinoyat protsessi qoidalariga ko‘ra shunday toifadagi shaxslar mavjudki, **ularni guvoh sifatida so‘roq qilish mumkin emas**, garchand ular ko‘rsatuv berish xohishini bildirsalarda. Ular quyidagicha:

1. Sudya va xalq maslahatchisi hukm va ajrim chiqarish jarayonida kelib chiqqan masalalarni maslahatxonada muhokama qilishga oid holatlar to‘g‘risida so‘roq qilib bo‘lmaydi. Sababi sudya va xalq maslahatchilari adolatli qaror qilishda keyinchalik ta‘qib olinmasliklari, ularning qarorni qabul qilish vaqtidagi o‘ylari va maslahatlashuvda aytgan fikrlari boshqa shaxslarga tanishtirilmasligi kafolatlanadi.

2. Himoyachini, shuningdek jabrlanuvchining, fuqaroviy da’vogarning, fuqaroviy javobgarning vakili jinoyat ishi yuzasidan o‘z vazifalarini bajarishlari natijasida o‘zlariga ma’lum bo‘lgan holatlar to‘g‘risida so‘roq qilinishi mumkin emas. Jumladan, FPK 69-moddasiga ko‘ra fuqarolik ishida vakil sifatida ishirok etgan shaxsga ham ish bo‘yicha o‘ziga ma’lum holatlar xususida so‘roq qilinmasligi kafolatlanadi. Bunday qoidaning belgilanishidan maqsad, yuridik yordamni (xizmatni) amalga oshiruvchi shaxslarning o‘z vakilliklari yoki himoyalari ostida bo‘lgan shaxslarning manfaatlarni himoya qilish uchun qonunda taqiqlanmagan vositalardan erkin foydalanishlari, ularni yollagan shaxslarga esa o‘zlarining haqiqiy ahvollarini yashirmasdan maslahatlashish imkoniyatini kafolatlashdir.

3. Ruhiy yoki jismoniy nuqsoni sababli ish uchun ahamiyatli bo‘lgan holatni to‘g‘ri idrok etish va bu haqda ko‘rsatuv bera olish layoqatiga ega bo‘lmagan shaxsni so‘roq qilish mumkin emas. Ular garchand jinoyat ishi uchun ahamiyatli holatlar xususida ma’lumot taqdim qila olsalar-da, ularning bergan ko‘rsatuvlari shubhadan holi bo‘lmaydi.

Shunday holatlar mavjudki, **so‘roq qilinayotgan shaxs o‘zining xohishiga ko‘ra so‘roq qilinadi**. Bular quyidagicha:

1. Har qanday “o‘ziga qarshi ko‘rsatuv bermaslik” huquqiga ega shaxs (O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 66-moddasi 1-qismi);

2. Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchining yaqin qarindoshlari gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga taalluqli bo‘lgan holatlar

haqida guvoh yoki jabrlanuvchi sifatida faqat o‘zlarining roziliklari bilan so‘roq qilinishlari mumkin (O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 116-modda);

Gumon qilinuvchining, ayblanuvchining yaqin qarindoshlari deganda, uning ota-onasi, aka-ukasi va opa-singillari, eri (xotini), farzandlari (farzandlikka olinganlar), nevaralari, shuningdek er (xotin)ining ota-onasi, aka-ukasi va opa-singillari nazarda tutiladi (O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2003 yil 19 dekabrda “Gumon qilinuvchi va ayblanuvchini himoya huquqi bilan ta’minlashga oid qonunlarni qo‘llash bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi 17-sonli qarorining²⁷ 11-bandi to‘rtinchi xatboshisi);

3. Diplomatik daxlsizlik huquqiga ega shaxslar toifasi mavjudki, ular ixtiyoriy guvohlik beradilar (Diplomatik aloqalar to‘g‘risidagi Vena konvensiyasi, 1963 yilgi Konsullik aloqalari to‘g‘risidagi Vena konvensiyasi);

Yana bir toifadagi shaxslar bo‘lib, ularni surishtiruv, tergov va sudda ishtirok etish uchun chaqirtirish va ularning tergov harakatlariga ishtiroki jumladan, ko‘rsatuv berishlari ixtiyoriylik kasb etadi. Bu toifadagi shaxslar fuqaroligidan qat’i nazar, xorijda bo‘lgan guvoh, jabrlanuvchi, ekspert, fuqaroviy da’vogar, fuqaroviy javobgar, ularning vakillari hisoblanadi (bu masala “Jinoyat sudlov ishlarini yuritishda xalqaro hamkorlik” mavzusida batafsil yoritiladi).

Yuridik adabiyotlarda shaxslarning ko‘rsatuv berish majburiyatidan to‘liq yoki qisman ozod qilinishi “**guvohlik immuniteti**” deb ham yuritiladi.

O‘n olti yoshga to‘lgan guvoh yoki jabrlanuvchini so‘roq qilishda ularning shaxsi aniqlangandan va unga protsessual huquq hamda majburiyatlari tushuntirilgandan keyin u ko‘rsatuv berishdan bosh tortganlik va bila turib yolg‘on ko‘rsatuv berganlik uchun O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 238 va 240-moddalari bilan javobgarlik haqida ogohlantiriladilar. Bunday ogohlantiruv haqida so‘roq bayonnomasi yoki sud majlisi bayonnomasiga yozib qo‘yiladi.

Gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining yaqin qarindoshlari ko‘rsatuv berishdan bosh tortganlik uchun javobgarlik to‘g‘risida ogohlantirilmaydilar.

²⁷ O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining “Gumon qilinuvchi va ayblanuvchini himoya huquqi bilan ta’minlashga oid qonunlarni qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi 2003-yil 19-dekabrda 17-sonli Qarori//O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorlari to‘plami 1991-2006. T.1. –T.: 2007. – B.147.

O'n olti yoshga to'lmagan guvoh yoki jabrlanuvchilar esa, ko'rsatuv berishdan bosh tortganlik va bila turib yolg'on ko'rsatuv berganlik uchun javobgarlik haqida ogohlantirilmaydilar va sudda ham guvohlik qasamyod qilmaydilar. Ulardan ko'rsatuv berishda mas'uliyatlarini anglatish va oshirish maqsadida jinoyatni ochish maqsadida haqqoniy ko'rsatuv berishlari ularning ma'naviy burchlari ekanligini tushuntiriladi.

Guvoh va jabrlanuvchi guvohlik immunitetiga ega bo'lmasa, surishtiruvchi, tergovchi yoki sud tomonidan aniqlanayotgan holatlar o'zida davlat sirlarini yoki kasb sirini yoxud gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi yoxud boshqa shaxslar hayotining sir tutiladigan tomonlarini aks ettirganligini bahona qilib, ko'rsatuv berishdan bosh tortishga haqli emas, ish uchun ahamiyatli holatlar xususida bilganlarini ma'lum qilishlari shart.

Aniqlanishi lozim bo'lgan holatlar o'zida davlat sirini yoki kasb sirini aks ettiradi yoxud shaxslar hayotining sir tutiladigan tomonlariga tegishli deb hisoblash uchun asos bo'lganda, surishtiruvchi, tergovchi va sud guvoh yoki jabrlanuvchini so'roq qilish chog'ida bu holatlarning oshkor etilishiga yo'l qo'ymaslik chora-tadbirlarini (ya'ni tergovning sir tutilishi, ayrim ishtirokchilardan oshkor qilmaslik haqida tilxat olinishi, xolislariga qo'yilgan talablarga rioya qilish, sudning yopiq yuritilishi v.h.) ko'rishi shart.

Guvoh va jabrlanuvchi ko'rsatuvlarni to'g'ri baholash uchun ularning boshqa ishtirokchilar bilan munosabatlari (aloqalari) haqida so'raladi. Shu maqsadda, protsessual majburiyatlarni buzganlik uchun javobgarlik to'g'risida ogohlantirilganidan keyin jabrlanuvchi gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar bilan o'zaro munosabatlari, guvoh to'g'risidagi savollarga javob beradi. Guvoh ham shunday savollar bilan birgalikda jabrlanuvchi bilan o'zaro munosabatlari to'g'risidagi savollarga javob beradi.

Ba'zida guvoh va jabrlanuvchini kechiktirmasdan so'roq qilish talab qilinadi. Shuningdek, tergov harakatida ishtirok etish uchun chaqirtirilgan shaxsning ortiqcha vaqtini olmaslik uchun jinoyat–protsessual qonunchiligiga ko'ra, tergov olib borilayotgan joyda yoki sudda bo'lgan guvoh yoki jabrlanuvchi ko'rsatuv berishga xohish bildirsa, ular qoida tariqasida o'sha kunning o'zida yoki keyingi kundan kechiktirmay so'roq qilinishi kerak.

Guvoh yoki jabrlanuvchining ko'rsatuv berishga xohishi to'g'risidagi xabar tergovchi yoki sudga pochta orqali kelsa, unga so'roq o'tkaziladigan joy va vaqt to'g'risida darhol xabar qilinadi va u kelishi bilanoq so'roq

o‘tkaziladi (O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 120-modda).

7.4. YUZLASHTIRISH (*muallif – A.R. Matmurotov*)

Yuzlashtirish bu - dalil to‘plash usullaridan biri bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 122-moddasida belgilanganidek, ilgari so‘roq qilingan ikki shaxs ko‘rsatuvlari o‘rtasida jiddiy qarama-qarshiliklar bo‘lganda, ushbu qarama-qarshiliklarning sababini aniqlash va bartaraf etish uchun o‘tkaziladi.

Jiddiy qarama-qarshiliklar bu - isbot qilish predmetiga kiruvchi holatlar mazmuni yuzasidan ko‘rsatuvlarda mavjud bo‘ladigan nomutanosiblik, ma’lumotlarning bir-birini rad etishi hisoblanadi.

Bu qarama-qarshiliklarning sabablarini aniqlash uchun yuzlashtirishda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, jabrlanuvchi va guvoh so‘roq qilinishi mumkin. Yuzlashtirish tergov harakati ko‘rsatuvlarni, ya’ni dalillarni tekshirishga qaratilgan tergov harakati hisoblanadi.

Yuzlashtirish tergov harakatini o‘tkazish ilgari so‘roq qilingan shaxslarning ko‘rsatuvlarni yana takrorlash emas, balki surishtiruvchi, tergovchi, sud tomonidan shaxslar tomonidan berilgan ko‘rsatuvlardagi jiddiy qarama-qarshiliklarning sababini aniqlash uchun o‘tkazilishi lozim.

Yuzlashtirish tergov harakatini o‘tkazish uchun asoslari va tartibi O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 96-108, 122-124-moddalarida ko‘rsatib o‘tilgan.

Jinoyat-protsessual qonunchiligi faqat ikki shaxs o‘rtasida yuzlashtirish tergov harakatini o‘tkazib, so‘roq qilishga ruxsat beradi.

Yuzlashtirish tergov harakati faqatgina so‘roq qilingan shaxslar o‘rtasida o‘tkaziladi.

Surishtiruvchi, tergovchi yoki sud yuzlashtirish tergov harakatini boshlamasdan oldin gumon qilinuvchiga O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 48-moddasida, ayblanuvchiga esa 46-moddasida belgilangan huquq va majburiyatlari tushuntiriladi.

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchi ko‘rsatuv berishdan bosh tortganlik va bila turib yolg‘on ko‘rsatuv berganlik uchun O‘zbekiston

Respublikasi Jinoyat kodeksining 238 va 240-moddalari bilan jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkinligi haqida ogohlantirilmaydi.

Yuzlashtirish o'tkazayotgan surishtiruvchi, tergovchi yoki sud tomonidan yuzlashtirilayotgan guvoh va jabrlanuvchi yolg'on ko'rsatuv bersa, shuningdek ko'rsatuv berishdan bo'yin tovlasa, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 238 va 240-moddalari bilan jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkinligi haqida ogohlantiriladi.

Yuzlashtirib so'roq qilish oldidan surishtiruvchi, tergovchi yoki sud majlisida raislik qiluvchi har bir so'roq qilinuvchidan navbat bilan ularning o'zaro tanishligi yoki tanish emasligini, o'zaro munosabatlari qanday ekanligini so'raydi va javoblarini tinglaydi. Shundan so'ng har bir so'roq qilinuvchiga navbat bilan qarama-qarshilik kelib chiqqan holatlar to'g'risidagi savollarga javob berish taklif qilinadi. Agarda qarama-qarshilik bir nechta masalaga yoki holatga taalluqli bo'lsa, yuzlashtirishda har ikki so'roq qilinuvchi bir holat bo'yicha ko'rsatuv bergach, ularga keyingi masala yoki keyingi holat to'g'risidagi savollar berilishi mumkin.

Yuzlashtirish chog'ida so'roq qilinayotgan shaxs surishtiruvchi, tergovchi yoki sud majlisida raislik qiluvchining ruxsati bilan boshqa so'roq qilinuvchiga savol berishi mumkin. Sud majlisida so'roq qilinuvchilarning har ikkalasiga xalq maslahatchilari, shuningdek taraflar savol berishlari mumkin. Surishtiruvchi, tergovchi va sud majlisida raislik qiluvchi ish uchun jiddiy ahamiyatga ega bo'lmagan yoki yuzlashtirishda aniqlashtirilayotgan qarama-qarshilikka taalluqli bo'lmagan savollarni chetlatishga haqlidir.

Amaliyotdan misol: Tilla buyumlarini uydan olib chiqib ketganlik holati bo'yicha qo'zg'atilgan jinoyat ishi yuzasidan ayblanuvchi tariqasida ishga jalb qilingan A.Qodirov va ishga jabrlanuvchi sifatida e'tirof etilgan O.Jumayevning ko'rsatmalarida jiddiy qarama-qarshiliklar yuzaga keldi. Ushbu holat bo'yicha tergovchi ayblanuvchi A.Qodirovni o'z xonasiga taklif qilib, ko'rsatmalaridagi qarama-qarshiliklarni bartaraf etish maqsadida uni so'roq qildi. Shundan so'ng tergovchi jabrlanuvchi O.Jumayev bilan munozarali masalalar bo'yicha telefon orqali suhbatlashdi va suhbat so'ngida O.Jumayevga IIBga kelib so'roq bayonnomasiga imzo chekib ketishini so'radi. O.Jumayev bilan bo'lgan suhbat mazmunini A.Qodirovga so'zlab berdi. Suhbat mazmunini eshitgan ayblanuvchi A.Qodirov jinoyat sodir etganligiga iqror bo'lib uni tan oldi. Ayblanuvchi A.Qodirov va jabrlanuvchi O.Jumayevning ko'rsatmalari yuzlashtirish bayonnomasida rasmiylashtirildi.

Yuzlashtirish bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi. Bayonnomada yuzlashtirish qachon, qayerda, kim tomonidan, kimlar o'rtasida, soat nechadan boshlab, soat nechagacha davom ettirilganligi qayd etilishi shart. Shuningdek, yuzlashtirilayotgan shaxslarning kimlar ekanligi aniqlashtirilishi, ya'ni familiyasi, ismi, otasining ismi to'liq yozilishi kerak. Shuningdek, taraflarning o'zaro munosabatlari haqidagi ularning javoblari, ko'rsatuv berishdan avval ularning huquq va majburiyatlari tushuntirilishi, tegishli tartibda ogohlantirilishi lozim bo'lgan shaxslar yolg'on ko'rsatuv

berganligi yoki ko'rsatuv berishdan bo'yin tovlaganligi uchun jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkinligi haqida ogohlantirilganligi bayonnomada qayd etilishi lozim.

7.5. Tanib olish uchun ko'rsatish tergov harakati

(Muallif - A.R.Matmurotov)

Tanib olish uchun ko'rsatish tergov harakatini o'tkazish asoslari. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 125-moddasiga ko'ra tanib olish uchun ko'rsatish tergov harakati guvoh, jabrlanuvchi, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining biror shaxs yoki narsa to'g'risidagi ko'rsatuvini tekshirib ko'rish maqsadida bu ko'rsatuv muayyan bir shaxs yoki muayyan bir narsaga oid ekanligini aniqlash zarur bo'lganda yoxud surishtiruvchi, tergovchi yoki sudga ma'lum bo'lgan ko'plab shaxs yoki narsalar orasidan ko'rsatuvda tasvirlab berilgan shaxs yoki narsani topish zarur bo'lgan hollarda amalga oshiriladi.

Tanib olish uchun ko'rsatish tergov harakatida tanib oluvchi sifatida guvoh, jabrlanuvchi, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchi ishtirok etishi mumkin. O'z navbatida yuqorida ko'rsatilgan shaxslar tanib olinuvchilar sifatida ham ishtirok etishlari mumkin.

Guvoh va jabrlanuvchi tanib olishdan oldin yolg'on ko'rsatuv bersa, shuningdek ko'rsatuv berishdan bo'yin tovlasa, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 238 va 240-moddalari bilan jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkinligi haqida ogohlantiriladi. Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchilar esa tanib olishdan oldin yolg'on ko'rsatuv bersa, shuningdek ko'rsatuv berishdan bo'yin tovlasa, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 238 va 240-moddalari bilan jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkinligi haqida ogohlantirilmaydi.

Amaliyotdan misol: Fuqaro B.Fatxullayev, N.Giyosov va K.Latipovlar tomonidan Toshkent shahar chilonzor tumanida joylashgan "BUDUR" nomli kafeda bo'la turib fuqaro T.Bo'riyevga tegishli bo'lgan "iPhone 5" rusumli uyali aloqa telefonini o'g'irlashadi. Ushbu holat yuzasidan T.Bo'riyev Chilonzor IIBga shikoyat bilan murojaat qildi.

Chilonzor IIB TB tergovchisi ushbu holat yuzasidan jinoyat ishini qo'zg'atib, gumon qilinuvchi B.Fatxullayev, N.Giyosov va K.Latipovlardan olingan "iPhone 5" rusumli uyali aloqa telefonini tanib olish uchun ko'rsatish tergov harakatini o'tkazish lozim degan xulosaga keldi.

Oq rangli 3 ta "iPhone 5" rusumli uyali aloqa telefonini jabrlanuvchi T.Bo'riyevga tanib olish uchun ko'rsatildi. Chilonzor IIB TB tergovchisi xolislar ishtirokida tanib olish uchun ko'rsatish bayonnomasini tuzib, tanib olinuvchilarning orasidan o'ziga tegishli "iPhone 5" rusumli uyali aloqa telefonini ko'rsatganligini qayd etiladi.

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, jabrlanuvchi, guvoh, shuningdek, jinoyat qurollari, jasadlar va ularning qismlari, hayvonlar, binolar va boshqa ko'chmas obyektlar tanib olish uchun taqdim etilishi, ya'ni bular tanib olish

obyektlari bo'lishi mumkin. Tanib olishning subyeksi bo'lib esa, tanib olishni amalga oshirayotgan shaxs, ayni paytda guvoh, jabrlanuvchi, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchi ham ishtirok etadi. Shuni ham unutmaslik lozimki, tanib olish jarayonidan oldin tanib oluvchi shaxs ushbu obyekt, uning belgilari bo'yicha to'la ravishda, batafsil so'roq qilinishi lozim.

Tanib olish uchun ko'rsatish tergov harakatini o'tkazish tartibi va turlari. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 126-moddasiga ko'ra tanib oluvchi tanib olish lozim bo'lgan shaxs yoki narsaning belgilari, alomatlari, xususiyatlari to'g'risida oldindan so'roq qilinishi lozimligi belgilangan.

Tanib oluvchi shaxs tergovchi tomonidan tanib olinishi lozim bo'lgan shaxs yoki predmet haqida batafsil so'roq qilingan bo'lishi, ularning alohida belgilari haqida ko'rsatuvlari olingan bo'lishi kerak. Obyekt aynan ilgari bergan ko'rsatuvlarida qayd etgan belgilari orqali tanib olinadi. Tanib oluvchi shaxs tanib olinishi kerak bo'lgan shaxsning o'ziga xos alohida belgilarini aniq ko'rsatib berishi kerak.

Tanib olish uchun ko'rsatish tergov harakati tanib olish obyektiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Shaxsni tanib olish uchun ko'rsatish. Shaxsni tanib olish uchun ko'rsatish tergov harakati obyeksi faqat tirik odam hisoblanadi. Shaxsni tanib olish uchun ko'rsatish tartibi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 127-moddasida belgilangan. Shaxsni tanib olish uchun tergov olib borilayotgan ishga aloqasi bo'lmagan, tashqi belgilari bilan o'ziga o'xshaydigan shaxslar guruhi orasida xolislar huzurida ko'rsatiladi. Tanib olish uchun ko'rsatilayotgan shaxslarning umumiy soni uch nafardan kam bo'lmashligi kerak. Jinoyat protsessi nazariyasida shaxsni tanib olish uchun ko'rsatishda tanib olinuvchilar statistlar deb yuritiladi.

Tanib olinuvchi kiyimi, soch qirqtirishi yoki tarashi yoxud boshqa belgilari bilan tanib olish uchun ko'rsatiladigan o'zga shaxslar orasida yaqqol ajralib turmasligi lozim.

Tanib olinuvchiga tanib olish uchun ko'rsatiladigan shaxslar guruhi orasida istagan joyni egallash taklif qilinadi.

Shundan so'ng tanib oluvchi chaqirtiriladi. Tanib oluvchi avval kim to'g'risida ko'rsatuv bergan bo'lsa o'sha shaxsni ko'rsatishi, tanib olingan shaxsni qaysi belgilar orqali taniganligini ham tushuntirib o'tishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 127-moddasiga asosan shaxsni tanib olish uchun ko'rsatishning iloji bo'lmaganda yoxud xavfsizlikni ta'minlash maqsadida uning fotosuratidan

foydalanish mumkin.

Tanib olish uchun jadval qog'ozga yaxshilab yopishtirilib, muhrlangan va raqamlangan, lekin suratga olingan shaxslarning ismi va familiyalari ko'rsatilmagan kamida uchta fotosurat ko'rsatiladi.

2. Ko'char narsalarni tanib olish uchun ko'rsatish. Ko'char narsalarni tanib olish uchun ko'rsatish tartibi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 128-moddasida belgilangan.

Tergov olib borilayotgan joyga, sudga yoki boshqa joyga olib borilishi mumkin bo'lgan narsalar, narsalarning bo'lagi va hayvonlar jinoyat ishiga aloqasi bo'lmagan boshqa turdosh narsalar orasida tanib olish uchun ko'rsatiladi.

Turdosh narsalar bu - tanib oluvchi so'roq qilinganda tasvirlaganidan tashqi belgilari, alomatlari, xususiyatlari bo'yicha jiddiy farq qilmaydigan narsalar tushuniladi.

Ko'char narsalarni tanib olish uchun ko'rsatish tergov harakati kamida ikki nafar xolislari ishtirokida amalga oshiriladi.

Tanib olish uchun ko'rsatilayotgan turdosh narsalarni joylashtirish tartibi surishtiruvchi, tergovchi tomonidan xolislari huzurida belgilanadi. Narsalarga tartib raqamlari qo'yib chiqiladi. Ko'char narsalarni tanib olish tergov harakati xolislarga va protsessning boshqa ishtirokchilariga ularning qonunda belgilangan huquq va majburiyatlarini tushuntirish bilan boshlanadi.

Tanib oluvchi tanib olishi lozim bo'lgan narsa to'g'risida tanib olish tergov harakatidan avval batafsil so'roq qilingan bo'lishi va tanib olinishi lozim bo'lgan narsaning belgilari, alomatlari, o'ziga xos xususiyatlarini bayon qilgan bo'lishi lozim.

Turdosh obyektlar orasidan tanib olish to'g'risidagi qoida murdani tanib olishda qo'llanilmaydi. Murdani tanib olishda statistlar ishtirok etmaydi. Bu holda faqat murdani o'ziga taqdim etiladi.

3. Ko'chmas obyektning tanib olish uchun ko'rsatish. Ko'chmas obyektning tanib olish uchun ko'rsatish tartibi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 129-moddasida belgilangan.

Jabrlanuvchi, guvoh, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi joy, bino, binodagi alohida xona yoki boshqa ko'chmas obyekt nomini aytib va tasvirlab bersa-da, biroq uning joylashgan o'rnini aniq aytib bera olmasa, biror aniq joydan obyektga borish yo'lini ko'rsatishga istak bildirsa, unga shu obyektning ko'rsatishiga imkon beriladi.

Ko'chmas obyektни tanib olish uchun ko'rsatish tergov harakati xolislar ishtirokida o'tkaziladi.

Surishtiruvchi yoki tergovchi va xolislar yoxud sud tarkibi va taraflar tanib oluvchi bilan birgalikda u aytgan joyga keladilar. Tanib olish uchun ko'rsatish ishtirokchilari shu joydan boshlab tanib oluvchining ko'rsatuvi bo'yicha yura boshlaydilar. Bunda tanib oluvchiga tanib olish uchun ko'rsatishning boshqa ishtirokchilari yoki yot shaxslar tarafidan yo'nalish aytib qo'yilishining oldini olish choralari ko'rilishi lozim.

Tanib olish uchun ko'rsatish chog'ida tanib oluvchining ko'rsatuvini qayd qilish. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 130-moddasiga ko'ra, tanib olish uchun bir guruh shaxslar yoki bir nechta narsani ko'rsatilganidan keyin tanib oluvchiga u ilgari tasvirlagan shaxs yoki narsani ko'rsatish taklif etiladi.

Tanib oluvchi ko'rsatilgan shaxslardan yoki narsalardan birini ko'rsatsa, unga ko'rsatilgan boshqa shaxslar yoki narsalar orasidan bu shaxsni yoki narsani qaysi belgilari yoki xususiyatlariga ko'ra taniganligini tushuntirib berish taklif qilinadi.

Tanib oluvchi tanib olish uchun unga ko'rsatilgan shaxslar yoki narsalarni ilgari ko'rmaganligini aytsa, unga qidirilayotgan shaxs yoki qidirilayotgan narsa ulardan nimasi bilan farq qilishini tushuntirib berish taklif qilinadi.

Tanib olish uchun ko'rsatish holatini mustahkamlash. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 131-moddasiga asosan surishtiruv yoki dastlabki tergov vaqtida o'tkazilgan tanib olish uchun ko'rsatish to'g'risida bayonnoma tuziladi. Sud muhokamasida o'tkazilgan tanib olish uchun ko'rsatish sud majlisi bayonnomasida qayd qilinadi. Bayonnomada tanib oluvchining shaxsi haqidagi ma'lumotlar, tanib olish uchun ko'rsatilgan obyektlar haqidagi qisqacha ma'lumotlar va imkon darajasida tanib oluvchining ko'rsatuvlari so'zma-so'z bayon qilinadi.

Surishtiruv yoki dastlabki tergov vaqtida o'tkazilgan tanib olish uchun ko'rsatish to'g'risidagi bayonnomada va sud majlisi bayonnomasida: tanib oluvchi, tanib olish uchun ko'rsatish sharoiti, jarayoni va natijalari, tanib olish uchun ko'rsatilgan shaxslar, ularning yoshi, bo'yi, millati, turar joyi, ko'zga tashlanuvchi belgilari, kiyimlari; tanib olish uchun ko'rsatilgan narsalar tavsifi; tanib olish uchun ko'chmas obyektlar ko'rsatilganda esa, shuningdek tanib oluvchi ko'rsatgan yo'nalishlar va izlanayotgan obyektga biror aniq joydan borish yo'llari to'g'risidagi ma'lumotlar kiritilishi lozim.

Tanib olish uchun fotosuratlar ko'rsatilgan bo'lsa, bayonnomaga fotojadval ilova qilinishi lozim.

Tanib oluvchining ko'rsatuvlari, shuningdek unga surishtiruvchi, tergovchi, sud, taraflar yoki boshqa shaxslar tomonidan berilgan savollar va qaytarilgan javoblar so'roq qilishning umumiy qoidalariga rioya qilingan holda bayonnomaga yozib boriladi.

7.6. Ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish

(Muallif - yuridik fanlar nomzodi, dotsent D.M.Mirazov)

Ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish mustaqil tergov harakati bo'lib, surishtiruvchi, tergovchi va sud, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, guvoh hamda jabrlanuvchilarning ko'rsatuvlarini hodisa sodir bo'lgan joyda muayyan holatlarni qayta tiklash yo'li bilan tekshirib ko'rishdan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 15-bobi ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish tergov harakatiga oid qoidalarni protsessual tartibga soladi. Bu tergov harakatining asosiy vazifasi tergovda to'plangan material va faktlar inobatga olingani holda ayblanuvchi, gumon qilinuvchi, guvoh va jabrlanuvchining ko'rsatuvlari qanchalik to'g'riligini, ularning ishga daxldor ayrim holatlarini yodiga tushirib, ko'rsatuvlarni to'ldirish, ishga daxldor moddiy ashyolarni qayerga yashirilganligini yoki joylashganligini aniq ko'rsatishlariga erishish, jinoyat sodir qilishda jinoyat joyiga qayerdan kirgan va chiqqan yo'nalishini (sxemasi, traektoriyasini) aniqlashdan iboratdir.

Ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirishdan maqsad esa, ko'rsatuvlari tekshirilayotgan shaxsga ma'lum, ammo surishtiruvchi, tergovchi va sudga noma'lum bo'lgan, jinoyat hodisasini aniqlash uchun ahamiyatga ega narsalar, hujjatlar, izlar va belgilarni topish, shaxsning tergov yoki sud muhokamasi davomida topilgan narsalar, hujjatlar, izlar qayerda bo'lganligini ko'rsatib berishi, bir necha shaxsning ayni bir hodisa to'g'risida bergan ko'rsatuvlaridagi o'xshashlik va farqlarni aniqlash uchun muhim bo'lgan joy yoki yo'nalishni shaxs ko'rsatib berishi, holatlarni qayta tiklash v.h.hodisa sodir bo'lgan joydagi sharoit bilan qiyoslash orqali ko'rsatuvlarning to'g'ri yoki noto'g'riligini aniqlashdan iboratdir. Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining ko'rsatuvlarini hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish natijalari, bu shaxslarning muayyan hodisalar haqida bilganlari faqat ularning jinoyat sodir etishga daxldorligidan darak bersagina, dalil kuchiga ega bo'ladi.

Ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish yordamida hal qilinadigan asosiy vazifalar quyidagilardan iborat:

- ko'rsatuvlar berilgan joyning haqiqatdan mavjudligi;
- ehtimol qilinayotgan jinoyatchining hodisa sodir bo'lgan joyga kelish va undan chiqib ketish yo'li;
- tekshirilayotgan joy haqida bir qancha guvoh yoki ayblanuvchining ko'rsatuvlarida qarama-qarshiliklar mavjudligi;
- ko'rsatuvlari tekshirilayotgan shaxsning voqea va barcha vaziyatlar haqiqatdan yuz berganidan xabardorligi;
- ishga oid daliliy ahamiyatga ega yangi ashyolarni aniqlab topish;
- jinoyat ishiga daxldor shaxslarni aniqlab topish;
- ko'rsatuvlari tekshirilayotgan shaxs xotirasini yanada faollashtirish;
- jinoyat sodir bo'lishiga imkon yaratgan vaziyatlarni aniqlash;
- ekspertiza uchun batafsil axborot izlash;
- tergov va qidiruv uchun ahamiyatli holatlarni batafsil bilish.

Ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish guvohlar, jabrlanuvchilar, gumon qilinuvchilar va ayblanuvchilarning ko'rsatuvlaridagi dalillarni tekshirishning samarali usullaridan biridir. Uni o'tkazish so'roq qilingan shaxsning ko'rsatuvlari qanchalik voqelikka to'g'riligini tekshirishga, daliliy ashyolarni aniqlashga, jinoyat yuz bergani, uni muayyan shaxslar sodir etganini aniqlashga imkon beradi.

JPKning 94-moddasiga binoan, tekshiruv deganda qo'shimcha dalillarni to'plash tushunilib, ular tekshirilayotgan dalillarni tasdiqlashi yoki rad etishi mumkin.

Demak, ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish ilgari so'roq qilingan shaxsdan tekshirilayotgan voqeaga oid tushuntirishlar olish, shu voqea bilan bog'liq bo'lgan joy va obyektning ko'rsatish hamda olingan daliliy ashyolarni tekshirish maqsadida ko'rsatuvlar bilan solishtirishdan iborat bo'lib, so'roq qilingan shaxs tergovchining taklifiga binoan protsessual sharoitlarga rioya qilgan holda u oldin bergan ko'rsatuvlarida nazarda tutgan joy, buyumlar v.h.latlarning bir-biriga bog'liqligini bayon qiladi. Tergovchi esa ko'rsatuvlari tekshirilayotgan shaxsning tushuntirishlarini eshitadi, uning harakatlarini kuzatadi. Shuningdek, shaxsning ko'rsatuvlari va harakatlari hodisa sodir bo'lgan joydagi vaziyatga mos yoki mos emasligini aniqlaydi.

Ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirishning protsessual tartibi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 133-moddasida ko'rsatilgan bo'lib, unga binoan mazkur tergov harakatini o'tkazishdan oldin surishtiruvchi yoki tergovchi xolislar ishtirokida tekshirilayotgan ko'rsatuvlarni e'lon qiladi. Ko'rsatuv bergan shaxsdan ularning to'g'ri yoki noto'g'riligini, qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritishga

ehtiyoj bor yoki yo'qligini so'raydi, tekshirishning maqsadi va tartibini tushuntiradi. Basharti guvoh yoki jabrlanuvchining ko'rsatuvlari tekshirilayotgan bo'lsa, ular ko'rsatuv berishdan bosh tortganlik va atayin yolg'on ko'rsatuv berganlik uchun jinoiy javobgarlik haqida ogohlantiriladi.

Tergov harakatini o'tkazish chog'ida ko'rsatuv bergan shaxs o'ziga ma'lum bo'lgan tekshirilayotgan hodisaning ayrim sharoiti, holatini tiklaydi, ish uchun ahamiyatli bo'lgan narsalar, hujjatlar, izlar topilgan joylarni ko'rsatadi, ayrim harakatlarni namoyish qiladi, hodisa sodir bo'lgan joyda sharoitning o'zgarganligiga e'tiborni qaratadi, o'zining avvalgi ko'rsatuvlarini aniqlashtiradi va ularga oydinlik kiritadi.

Ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish tergov harakatini o'tkazishda tergovchi hozir bo'lgan ishtirokchilarga ularning huquq va majburiyatlarini tushuntiradi va bu haqida tergov harakatining bayonnomasida qayd etadi. Tergov harakatining ishtirokchilariga tekshiruv maqsadi, vazifalari tushuntiriladi, ularning ishtirok etishdagi vazifasi belgilanadi.

Hodisa sodir bo'lgan joyga kelishda tergovchi ko'rsatuvi tekshirilayotgan shaxsga yo'lning to'g'riligi, hodisa joyiga yo'nalishni ko'rsatishni taklif etadi va boshqa ishtirokchilarga bu harakatni diqqat bilan kuzatishni va ishga ahamiyatli bo'lgan ayrim holatlarga e'tibor berishni tavsiya etadi.

Hodisa joyida ko'rsatuvlari tekshirilayotgan shaxs hech qanday chetdan ta'sir, sha'ma yoki yordamchi tushuncha so'zlar kiritilmasdan o'zi erkin ravishda tushuncha berishi lozim. Umumiy so'roq o'tkazishda qo'llaniladigan tartib-qoida bu holatda ham to'liq tatbiq etilishi mumkin. Shundan so'ng tergovchi bevosita ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirishga kirishadi.

Ko'rsatuv bergan shaxs hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirilayotgan hodisaning sharoit v.h.latini tiklaydi, ish uchun ahamiyatli bo'lgan narsalarni, hujjatlarni, izlarni qidirib topadi va ko'rsatadi, ayrim harakatlarni namoyish qiladi, tekshirilayotgan hodisada u yoki bu narsaning qanday ahamiyati bo'lganligini tushuntiradi. Ko'rsatuvlarni tekshirish paytida hodisa sodir bo'lgan joy, atrof-muhit sharoitining o'zgarganligiga e'tiborni qaratish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki tushuncha va aniqlik kiritish uchun ko'rsatuvi tekshirilayotgan shaxs o'zining avvalgi ko'rsatuvlarini aniqlashtiradi, ayrim holatlarni bir-biriga bog'lanishlarni oydinlashtirib beradi. Mazkur holatlarda ko'rsatuvi tekshirilayotgan shaxsning harakatiga, tushuntirishiga aralashish, gap qo'shish yoki o'rgatish va ishora qiluvchi savollar berishga yo'l qo'yilmaydi.

Tergovchi ko'rsatuvlari tekshirilayotgan shaxsga hodisa joyiga borish uchun yo'l marshrutini ko'rsatishni taklif qiladi, shunda barcha tergov harakati ishtirokchilari birgalikda ko'rsatilgan yo'l bo'yicha hodisa joyi tomon yo'l oladi. Ushbu vaqtda tergovchi ko'rsatuvni tekshirilayotgan shaxsning erkin, hech qanday tashqi ta'sirsiz, mustaqil va o'z ixtiyori bilan yo'lni ko'rsatib, joyga borishi va u yerda qanday harakat yoki holatning bo'lganligini aytishini kuzatib turadi.

Ko'rsatuvni tekshirilayotgan shaxs hodisa joyining umumiy chegarasini belgilab ko'rsatadi, tergovchining tekshiruv, nazorat qiluvchi yoki qo'shimcha savollariga tushuntirish beradi. Javob berishda so'roq qilingan shaxs jinoyat sodir qilingan joyning ayrim holatlarini, tekshirilishi lozim bo'lgan faktlarni dastavval so'roq qilinganda qanday tartib va oldinmakinlikda so'zlagan bo'lsa, shunday tarzda ko'rsatib, hodisa joyidagi o'zgarishlarni, buyum va ashyoviy dalil hamda izlarning topilgan, yashirilgan joylarini ko'rsatadi, tushuntirib beradi.

Hodisa joyida tergovchi ko'rsatuvni tekshirilayotgan shaxsga jinoiy harakatning ayrim vaziyatlarini takror ko'rsatish, uni kerak bo'lsa, qiyoslab ko'rsatishni taklif qilishi, ayrim holatlarni jinoiy hodisa bilan bog'liqligini tushuntirib berishi talab qiladi. Tekshirilayotgan ko'rsatuvdagi holatlar hodisa joyidagi vaziyatga to'g'ri kelmasa, ba'zida ziddiyatli vaziyatlar mavjud bo'lib qolsa, tergovchi bular haqida savol javob qilib, ziddiyatli holatlarni bartaraf qilmog'i lozim.

Ko'rsatuvlari tekshirilayotgan shaxsga u erkin so'zlab, tegishli harakatlarni namoyish qilganidan so'ng, ko'rsatuvdagi ayrim holatlarni oydinlashtiruvchi, shuningdek uning eslash qobiliyatini faollashtiruvchi savollar berilishi mumkin. Tergov harakatida ishtirok etuvchilar ko'rsatuvlari tekshirilayotgan shaxsga tergovchining ruxsati bilan savol berishlari mumkin. Ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish tergov harakatini o'tkazish davomida ish uchun ahamiyatli bo'lgan va tegishli holatlarni aniqlash uchun turli xil savollarni berish mumkin. Ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish jarayonida so'roq qilingan shaxsning ilgari ko'rsatuv bergan yoki tergov harakati davomida ko'rsatgan tekshirilayotgan voqea joyi, narsalar va sharoitga oid savollar berilishi mumkin. Qonunda ishora qiluvchi savollar berish taqiqlanganligi sababli ko'rsatuvlari tekshirilayotgan shaxsga biror ma'lumot berishi mumkin bo'lgan imo-ishora, belgi, harakatlar qilishga yo'l qo'yilmasligi kerak. Agarda ko'rsatuvlari tekshirilayotgan shaxsning so'roq davomida bergan oldingi ko'rsatuvlari bilan hodisa sodir bo'lgan joyda bergan ko'rsatuvlari o'rtasida tafovut yuzaga kelsa, bunday holatga oydinlik

kiritish maqsadida tergovchi ishga taalluqli bo'lgan savollarni berishi mumkin.

Ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish xolislar ishtirokida o'tkazilishi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida ko'zda tutilgan. Mazkur tergov harakatining o'ziga xos jihatlari tufayli tergovchi holislarga nafaqat ularning huquq va majburiyatlarini, balki ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirishning maqsad va vazifalarini ham tushuntirib berishi, ularning e'tiborini ko'rsatuvlari tekshirilayotgan shaxsning o'zini tutishiga, harakatlarning ixtiyoriy va mustaqil ekanligiga qaratish kerak.

Ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish tergov harakatini o'tkazish jarayonida tergovchiga yordam berish uchun mutaxassislar jalb etiladi. Tergov va sud amaliyotini o'rganish shuni ko'rsatmoqdaki, ko'rsatuvlarni keng hududlarda va ko'p epizodlar bilan voqea joyidagi murakkab sharoitda kechadigan tekshiruvlarda mutaxassisning ishtiroki ijobiy natijalarni bermoqda. Ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirishda mutaxassislarning ishtirok etishi tergovchiga kino-fotosuratga olish, videoyozuv, ovoz yozish ishlariga chalg'imasdan, diqqatini ko'rsatuvni tekshirilayotgan shaxslarning hatti-harakatlarini izohlashga v.h.disa sodir bo'lgan joydagi haqiqiy sharoitga qaratishiga imkon beradi. Shuningdek, ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish tergov harakatiga mutaxassisni jalb etish tergovchiga mazkur tergov harakatini samaraliroq va kamroq vaqt sarflab o'tkazishida yordam beradi.

Ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish tergov harakatining natijalarini rasmiylashtirish O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 134-moddasi asosida amalga oshiriladi.

Ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish jarayoni va uning natijalarini qayd qilish mazkur tergov harakatining yakunlovchi bosqichi hisoblanadi. Bunday qayd qilish, bayonnoma to'ldirish, fototasvirga tushirish, video-tovush yozish uskunalarini ishlatish, reja va sxemalarni tuzishdan iborat.

7.7. Ko'zdan kechirish

(Muallif - Cho'tboev M.R.)

Jinoyat protsessida isbot qilish ishni qonuniy, asoslangan va adolatli hal qilish uchun ahamiyatga ega bo'lgan holatlar to'g'risidagi haqiqatni aniqlash maqsadida dalillarni to'plash, tekshirish va baholashga qaratilgan jarayon hisoblanadi. Mazkur jarayonni amalga oshirishda tergov harakatlari o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Ko'zdan kechirish esa ushbu tergov

harakatlari tizimida o'z o'rniga ega.

Ko'zdan kechirish deganda, biron bir moddiy obyektning o'ziga xos xususiyatlarini kuzatish orqali inson ongida mazkur obyekt haqida tasavvur xosil qilishi tushuniladi.

Tergov harakati sifatida ko'zdan kechirish esa ijtimoiy xavfli qilmishning yuz bergan-bermaganligini, shu qilmishni sodir etgan shaxsning aybli-aybsizligini va ishni to'g'ri hal qilish uchun ahamiyatga molik boshqa holatlarni aniqlash uchun moddiy obyektlarning o'ziga xos xususiyatlarini kuzatish orqali ma'lumotlar to'plashga yo'naltirilgan harakat hisoblanadi.

Ko'zdan kechirish tergov harakatini asosi sifatida jinoyat izlari, ashyoviy dalillarni topish, hodisa sodir bo'lgan vaziyatni va ish uchun ahamiyatli bo'lgan boshqa holatlarni aniqlashtirish maqsadi belgilab berilgan.

Ko'zdan kechirish tergov harakatini amalga oshirish vakolati surishtiruvchi, tergovchi va sudga berilgan. Ko'zdan kechirish tergov harakati obyektlari sifatida hodisa sodir bo'lgan joy, murda, hayvonlar, tevarak-atrof, binolar, narsalar va hujjatlar keltirib o'tilgan. Bulardan tashqari ko'zdan kechirish obyektlari sifatida tirik odam, pochta-telegraf jo'natmalari ham hisoblanadi. Biroq tirik odamni ko'zdan kechirish alohida mustaqil guvohlantirish tergov harakati talablari asosida amalga oshiriladi.

Pochta-telegraf jo'natmalarini ko'zdan kechirish esa tintuv va olib qo'yish tergov harakatlari tarkibiga kiritilgan pochta-telegraf jo'natmalarini xatlash jarayonida belgilangan talablar asosida amalga oshirilishi belgilangan.

Narsalarni olib qo'yish va tintuv o'tkazish chog'ida topilgan narsa va hujjatlar shu tergov harakatlarini o'tkazish uchun belgilangan qoidalarga rioya qilgan holda ko'zdan kechirilishi lozimligi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 136-moddasida ko'zdan kechirish tartibining umumiy qoidalari mustahkamlangan. Unga ko'ra surishtiruv yoki dastlabki tergov bosqichida ko'zdan kechirish xolislar ishtirokida o'tkaziladi.

Xolis sifatida yashash va ish joylari aniq bo'lgan, aqli raso, eshitish va ko'rish qobiliyati yaxshi bo'lgan shaxslarni jalb qilish zarur. Xolislikka savodsiz, jazo o'tayotgan, tilni yaxshi bilmaydigan shaxslarni va huquqni muhofaza qilish idoralarida ishlaydigan xodimlarni jalb qilmaslik kerak.

Jinoyat ishi sudda ko'rilayotgan vaqtda ko'zdan kechirishga zarurat tug'ilsa, sud bu haqda ajrim chiqarishi va ko'zdan kechirishni taraflar ishtirokida o'tkazishi lozimligi ham alohida ta'kidlab o'tilgan.

Agar ko‘zdan kechirish tartibining umumiy qoidalari hisoblansa, ko‘zdan kechirish tergov harakati turlari sifatida hodisa sodir bo‘lgan joyni, murdani, hayvonlarni, tevarak-atrofni, binolarni, narsalar va hujjatlarni ko‘zdan kechirishga ham taalluqli hisoblanadi. Demak, sudda ushbu turlardagi ko‘zdan kechirish lozim bo‘lgan barcha hollarda ajrim chiqarilishi lozim. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 139-moddasi talablariga ko‘ra fuqaroning uyi yoki xizmat joylari tevarak-atrof va binolarni ko‘zdan kechirish obyekt sifatida o‘tayotgan bo‘lsa qaror yoki ajrim chiqarilishi belgilangan. Boshqa ko‘zdan kechirish turlarida bunday qoida keltirib o‘tilmagan. Demak, sud barcha hollarda ajrim chiqaradi, surishtiruvchi va tergovchi faqatgina tevarak-atrof va binolarni ko‘zdan kechirishda qaror chiqarishi lozim.

Hodisa sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirish aynan ana shu joyda jinoyat sodir etilganligi yoki uning izlari borligi haqida ma‘lumotlar bo‘lgan taqdirda o‘tkaziladi.

U boshlang‘ich va kechiktirib bo‘lmaydigan eng muhim tergov harakati hisoblanadi, aks holda jinoyat izlari tabiiy ta’sirlar natijasida buzilib ketishi, ataylab yo‘qotilishi mumkin. Shu sababli tergovchi hodisa sodir bo‘lganligi to‘g‘risida xabar olishi bilan har qanday ob-havo sharoitiga, vaqtga qaramay darhol o‘sha joyga yetib borishi va ko‘zdan kechirishni boshlashi lozim bo‘ladi.

Hodisa sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirishda haqiqiy hodisa holatini aniqlash va xolisona tergovni ta’minlashda katta ahamiyatga ega bo‘lgan holatlar, ya’ni ko‘zdan kechirilayotgan obyektlarning ahvoli, o‘ziga xos belgilari aniqlanadi. Shuningdek sodir bo‘lgan hodisaning xususiyati, jinoyatchining shaxsi va maqsadi kabi holatlar ham aniqlanadi.

Demak, hodisa sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirish tushunchasiga umumiy tushuncha beradigan bo‘lsak, bu tergov xarakati surishtiruvchi, tergovchi va sudlarning hodisa sodir bo‘lgan joyni sinchiklab o‘rganib chiqishi va bu yerdan tegishli dalil, ashyolarning topishlari va ularni jinoyatga tegishli yoki tegishli emasligi o‘rganib chiqishiga qaratilgan umumiy faoliyatiga aytiladi.

Hodisa sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirish birinchi navbatda quyidagi vazifalarni hal etishga qaratilgan bo‘ladi:

- hodisa yuz bergan joyning holatlari bilan shaxsan tanishish;
- ish bo‘yicha ahamiyatli bo‘lgan dalillarni, izlarni, narsa, qurol va hujjatlarni topish, qayd qilish va olish;
- hodisa natijasida yuz bergan o‘zgarishlarni aniqlash;
- jinoiy hodisasi holatlari bo‘yicha tergovni qiziqtiruvchi masalalarni

hal qilish;

- jinoyat ishi yuzasidan tasmollarni tuzish va ularni tekshirish;
- jinoyatchi yoki qidirilishi lozim bo'lgan guvohlarni ko'rsatuvchi ma'lumotlarni topish;
- tergov davomida gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, jabrlanuvchi va guvohlarning ko'rsatmalarini tekshirib ko'rishga imkon beradigan ma'lumotlarni yig'ish.

Kechiktirib bo'lmaydigan hollarda hodisa sodir bo'lgan joy jinoyat ishi qo'zg'atilishidan oldin ham ko'zdan kechirilishi mumkin. Bunga jinoyatga oid arizalar, xabarlar va boshqa ma'lumotlarni ko'rib chiqish tartibini belgilovchi qonun normalari bilan ruxsat berilgan.

Jinoyat ishi qo'zg'atilishidan oldin ko'zdan kechirish faqatgina surishtiruvchi va tergovchi tomonidan amalga oshirilishi mumkin, sud bunday ko'zdan kechirishni amalga oshira olmaydi. Bu mamlakatimizda sudlar tomonidan jinoyat ishini qo'zg'atish faoliyati amalga oshirilmasligi bilan izohlanadi.

Amaldagi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida kechiktirib bo'lmaydigan hollarda ko'zdan kechirish o'tkazilganidan so'ng kechi bilan yetmish ikki soatda, alohida hollarda esa, o'n kun ichida jinoyat ishini qo'zg'atish haqida yoki qo'zg'atishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilinishi lozimligi bayon etilgan.

Hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish tergov harakati obyektiga katta maydonlar va binolar bo'lgan hollarda ko'zdan kechirish bir necha surishtiruvchi yoki tergovchi tomonidan amalga oshirilishi mumkin, bunda ularning har biri kamida ikki nafar xolis ishtirokida ko'zdan kechirishi lozim.

Bunday ko'zdan kechirish shaklida hodisa joyi sektorlarga bo'linadi va tegishli tartibda ko'zdan kechiriladi. Rasmiylashtirilgan barcha hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish bayonnomalari taqsimotdan kelib chiqqan holda birin ketinlikda jamlanadi.

Hodisa sodir bo'lgan joydan olingan barcha narsalar, hujjatlar va izlar xolislar ishtirokida o'raladi va muhrlanadi.

Katta hajmdagi narsalar olinmaydi va muhrlanmaydi, lekin surishtiruvchi yoki tergovchi ularni saqlash choralari ko'rishi lozim. Saqlash choralari mulkni egasi, qo'riqlash xizmatlari qaramog'ida qoldirish yoki soqchilik tashkil qilish va boshqa shakllarda amalga oshirilishi mumkin.

Amaliyotdan misol: O'g'rilik jinoyatini tergov qilayotgan tergovchi hodisa joyini ko'zdan kechirish maqsadida xolislar bilan birgalikda jabrlanuvchi Azimov xonadoniga keladi. Shu paytda Azimov xonadonida maktabning 8-sinf o'quvchisi bo'lgan qizi va ularning voyaga yetgan qo'shnisi

Otaxonova bo'lgan. Tergovchining kelishidan maqsadini bilgan Otaxonova uy egalari yo'qligida o'zgalarni xonadonga kiritishga yo'l qo'ya olmasligini, shuningdek tergovchining ushbu xonadonga kirishi uchun orderi (tegishli ruxsati) yo'qligini ham ta'kidlab, ularni xonadonga kirishiga rad javobini berdi.

Murdani ko'zdan kechirish ayrim o'ziga xos jihatlarga ega. Murdaning tashqi ko'rinishini surishtiruvchi yoki tergovchi u topilgan joyda xolislar va sud-tibbiyot sohasidagi mutaxassis shifokor ishtirokida ko'zdan kechiradi. Bunday mutaxassis shifokor ishtirok etishiga imkoniyat bo'lmagan taqdirda, boshqa shifokor ishtirok etadi. Zarur hollarda murdani ko'zdan kechirish uchun boshqa mutaxassislar, shuningdek ekspertlar jalb qilinadi.

Murda topilgan joyda uni ko'zdan kechirish alohida murdani ko'zdan kechirish bayonnomasida emas, balki hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish bayonnomasida rasmiylashtirilishi lozim.

Eksgumatsiya vaqtida murdani ko'zdan kechirish O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining eksgumatsiya tergov harakati va ko'zdan kechirish tergov harakatlarini tartibga soluvchi normalar talablari asosida amalga oshiriladi.

Murda topilgan joyda uni tanib olish uchun ko'rsatish chog'ida tanib olish uchun ko'rsatishdan oldin so'roq qilish va tanib olish uchun ko'rsatish holatini mustahkamlash qoidalariga rioya qilinadi. Mazkur talab faqatgina jinoyat ishi qo'zg'atilib, tergov harakatlari olib borilgan jinoyatlar bo'yicha amalga oshirilishi mumkin. Chunki O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 329-moddasi talablariga asosan tergov oldi tekshiruv vaqtida faqatgina hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish va ekspertiza tergov harakatlarini o'tkazish mumkin. Bu muddat ichida boshqa tergov harakatlarini o'tkazish qonun bilan ta'qiqlab qo'yilgan.

Tanib olinmagan murdalarning barmoq izlari olinishi shart. Shu bilan birga, tanib olinmagan murdadan ekspertiza tekshiruv uchun boshqa xil namunalar ham olinishi mumkin. Bu uchun albatta ekspertiza tekshiruv uchun namunalar olish to'g'risida qaror chiqariladi va namunalar ekspertiza tekshiruv uchun namunalar olish bayonnomasida rasmiylashtiriladi.

Tanib olinmagan murda faqat prokuror ruxsati bilangina ko'miladi.

Tevarak-atrof va binolarni ko'zdan kechirish chog'ida ko'zdan kechirish obyekti bo'lib fuqaroning uyi yoki xizmat joyi hisoblansa, mazkur vaziyatda surishtiruvchi yoki tergovchi ko'zdan kechirish haqida qaror, sud esa ajrim chiqargan holda mazkur ko'zdan kechirishni amalga oshirishi lozim. Turar joyi ko'zdan kechirilayotgan shaxs yoki tegishli korxon, muassasa, tashkilotning vakili chiqarilgan qaror yoki ajrim bilan tanishtirilib, bu haqda imzo chektiriladi.

Koʻzdan kechirish korxonada, muassasada, tashkilotda oʻtkazilsa – maʼmuriyat vakilining, harbiy qismda, shtabda va muassasada oʻtkazilsa – qoʻmondonlik vakilining, zarur hollarda esa, moddiy javobgar shaxsning qatnashishi shart hisoblanadi. Davlat sirlariga oid boʻlgan narsalar va hujjatlarni faqat maxsus ruxsatga ega boʻlgan surishtiruvchi, tergovchi yoki sudya xuddi shunday ruxsatga ega boʻlgan xolislar ishtirokida koʻzdan kechiradi.

Binolarni koʻzdan kechirishda Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining olib qoʻyish yoki tintuv oʻtkazish vaqtida hozir boʻladigan shaxslar va olib qoʻyish va tintuv oʻtkazish tartibini belgilovchi normalarida nazarda tutilgan qoidalarga rioya qilinishi lozim.

Narsa va hujjatlarni koʻzdan kechirish surishtiruvchi, tergovchi va sud tomonidan koʻzdan kechirish koʻp vaqt yoki qoʻshimcha texnik vositalar talab qilmasa ular topilgan joyda, koʻp vaqt yoki qoʻshimcha texnik vositalar talab qilsa basharti, keyinchalik surishtiruv, dastlabki tergov yoki sud muhokamasi oʻtkazilayotgan joyda amalga oshirilishi mumkin.

Narsa va hujjatlarni koʻzdan kechirish ular topilgan joyda amalga oshirilayotganida, mazkur narsa va hujjatlarning topilishiga sabab boʻlgan, misol uchun tintuv, olib qoʻyish, koʻrsatuvlarni hodisa sodir boʻlgan joyda tekshirish va boshqa tergov harakatlarning bayonnomalarida koʻzdan kechirilib qayd qilinadi. Alohida narsa va hujjatlarni qoʻzdan kechirish bayonnomasi rasmiylashtirilishi talab qilinmaydi.

Boshqa tergov harakatlarida boʻlgani kabi narsa va hujjatlarni koʻzdan kechirishda texnik vositalardan foydalanish mumkin. Biroq zaruriy shart sifatida topilgan va koʻzdan kechirilishi lozim boʻlgan narsa va hujjatlarning keyinchalik jinoyat ishi boʻyicha daliliy ahamiyatga ega boʻlishi mumkinligini nazarda tutgan holda ularning yoʻqolishiga yoxud shikastlanishiga olib kelmasligiga alohida eʼtibor qaratish lozim.

Koʻzdan kechirish tergov harakati bayonnomasini rasmiylashtirishda Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 90–92-moddalarida nazarda tutilgan dalillarni bannomada qayd qilish tartibi va amalga oshirilgan koʻzdan kechirish turidan kelib chiqqan holda koʻzdan kechirish tartibining umumiy qoidalariga rioya qilgan holda surishtiruvchi, tergovchi tomonidan tegishli bayonnoma rasmiylashtiriladi. Sud tomonidan amalga oshirilgan koʻzdan kechirish esa, sud majlisi bayonnomasida qayd etiladi.

Bayonnomada koʻzdan kechirish davomida topilgan barcha narsalar, ular qanday tartibda koʻzdan kechirilgan boʻlsa, xuddi shu tartibda, koʻzdan kechirish paytida qanday holatda kuzatilgan boʻlsa, xuddi shu holatda qayd

etiladi. Koʻzdan kechirish chogʻida topilgan va olingan barcha izlar, narsalar va hujjatlar sanab oʻtiladi. Olingan buyumning egasiga tegishli maʼlumotnoma yoki bayonnomaning nusxasi beriladi.

Bundan tashqari, bayonnomada: koʻzdan kechirish qaysi vaqtda, qanday ob-havoda va qanday yorugʻlikda oʻtkazilganligi; qanday ilmiy-texnika vositalari qoʻllanilganligi va qanday natijalar olinganligi; koʻzdan kechirishda koʻmaklashish uchun kimlar jalb qilinganligi va koʻmaklashish nimada oʻz aksini topganligi; qanday narsalar va hujjatlar qay tartibda va qanday muhr bilan muhrlanganligi; koʻzdan kechirilganidan keyin murda va ish uchun ahamiyatli boʻlgan narsalarning qayerga yuborilganligi koʻrsatilgan boʻlishi lozim.

7.8. Guvohlantirish

(Muallif – yu.f.n. Rajabov B.A.)

Guvohlantirish deganda, shaxsning badanidagi alohida belgilar, dogʻlar, tan jarohatlari, jismoniy rivojlanganligi toʻgʻrisidagi maʼlumotlar, mastlik holati yoki jinoyat ishi uchun ahamiyatli boshqa xususiyatlarni aniqlash uchun oʻtkaziladigan, sud ekspertizasini talab etmaydigan, jinoyatning ochilishiga yordam beradigan majburiy tergov harakatini tushunish lozim.

Jinoyat-protsessual huquqda guvohlantirish tergov harakati dastlabki tergov bosqichida Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 142–147-moddalari va sud bosqichida Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 445-moddasi asosida oʻtkazilishi huquqiy jihatdan tartibga solingan.

Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida guvohlantirishni oʻtkazishning oʻziga xos xususiyatlari aks ettirilgan ular quyidagilardan iborat:

- guvohlantirishni oʻtkazish toʻgʻrisida qaror chiqarish;
- guvohlantiriluvchi shaxsga uning huquq va majburiyatlarining tushuntirilishi;
- guvohlantirish majburiy tartibda oʻtkazilishi mumkinligi;
- tergovchiga nisbatan oʻzga jinsga mansub boʻlgan guvohlantiriluvchi shaxsning badani tekshirilganda, tergovchining ishtirok etishi mumkin emasligi;
- agar guvohlantirish shaxsni yechintirib yalangʻochlash bilan bogʻliq boʻlsa, bir jinsdagi xolislar ishtirok etishi;
- guvohlantirishning soat 6:00 dan 22:00 ga qadar oʻtkazilishi;

- guvohlantiriluvchi shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini kamsitadigan yoki uning sog'lig'i uchun xavfli bo'lgan harakatlarga yo'l qo'yilmasligi;
- guvohlantirish jarayonida shaxs huquqlarining ta'minlanishi zarurligi.

Amaliyotdan misol: Nomusga tegish jinoyati yuzasidan berilgan arizaga asosan tergovchi jinoyat ishini qo'zg'atib, jabrlanuvchi Yuldashevani so'roq qilgach, unga ertasi kuni guvohlantirish uchun kelishini aytadi. Lekin ertasi kuni jabrlanuvchi Yuldasheva tergovchining chaqiruviga binoan kelmaydi va unga yuborilgan chaqiruv xatini olishdan bosh tortib, guvohlantirish tergov harakati o'tkazilishi jarayonida o'zining sha'ni va qadr-qimmatini kamsitilishini xohlamaydi.

Tergovchining qaroriga asosan Yuldasheva majburan keltiriladi va guvohlantirish to'g'risidagi qarorga muvofiq shifokor tomonidan ikki nafar ayol xolislar ishtirokida guvohlantiriladi. Tergovchi shifokorning so'zi bo'yicha tergov harakati bayonnomasini tuzadi. Bayonnoma tergovchi, shifokor va xolislar tomonidan imzolandi va unda jabrlanuvchi majburiy ravishda guvohlantirilganligi hamda bayonnomani imzolashdan bosh tortganligi qayd etiladi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, guvohlantirishni o'tkazish asoslari O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 142-moddasida ko'rsatilgan bo'lib, unga ko'ra, mazkur tergov harakati orqali bir qator vazifalar hal qilinadi. Guvohlantirishning ushbu vazifalari nuqtai nazaridan kelib chiqib, uni ikki guruhga ajratishimiz mumkin. Birinchi guruh odam badanida: a) ish uchun ahamiyatga molik xususiyat yoki alomatlar; b) alohida belgilar; v) shaxsning jismoniy rivojlanganligi to'g'risidagi ma'lumotlar; g) tan jarohatlarini; ikkinchi guruh: a) mastlik holatini; b) boshqa fiziologik holatini aniqlashga qaratilgan.

Birinchi guruh vazifalarini tahlil qiladigan bo'lsak, *ish uchun ahamiyatga molik xususiyat yoki alomatlar* deganda, guvohlantiriluvchi shaxsning kasbi yoki odatlariga ishora qiluvchi xususiyat va belgilar, masalan, biror-bir ishni bajarish natijasida vujudga keladigan qo'ldagi qadoqlar, qo'l va tirnoqlarning alohida tusi, teriga turli changlar yoki boshqa kirlarning kirib qolganligi, nafas olish xususiyatlari, biror ishni bajarish odatlari va shu kabilar tushuniladi.

Birinchi guruhga kiritilgan keyingi vazifa shaxsning badanidagi ish uchun ahamiyatga ega bo'lgan *alohida belgilarni* aniqlashdan iboratdir.

Guvohlantirishni o'tkazish jarayonida alohida belgilar bilan bir qatorda umumiy jismoniy belgilar va mazkur shaxsning muayyan irq, millat, xalqqa mansubligidan dalolat beruvchi belgilar aniqlanishi mumkin. Bu belgilarni aniqlash ko'z bilan qarab idrok qilish orqali amalga oshirilishi mumkin bo'lib, bu jarayonda bilishning boshqa shakllaridan, tekshirishning maxsus metodlari yoki usullaridan foydalanish talab etilmaydi.

Guvohlantirishning birinchi guruh vazifalariga kiruvchi navbatdagi vazifasi *shaxsning jismoniy rivojlanganligi holatini* aniqlashdir. Shaxsning jismoniy rivojlanganligi uning gavdasining tuzilishi, katta yoki

kichikligi, badanidagi a'zolarining normal yoki boshqacha hajmga egaligi, qo'l yoki oyoq mushaklarining baquvvatligi yoki kuchsizligi va shu kabi holatlar tushuniladi.

Shaxsning tanasidagi *tan jarohatlarini, ya'ni tiralgan, shilingan, qontalash joylarni aniqlash* O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 142-moddasida guvohlantirishning mustaqil vazifasi sifatida belgilangan.

Ta'kidlash lozimki, guvohlantirish asosan odam badanining yuzasida joylashgan, aniqlash va qayd etish uchun maxsus tibbiy tekshiruvlarni talab etmaydigan *tan jarohatlarini aniqlashga qaratilganligi* bois, ko'proq tiralgan, shilingan va qontalash joylarga e'tibor qaratish lozim. Zero, sanab o'tilgan jarohlardan boshqa jarohatlarni (masalan ichki qon ketish) aniqlashda albatta tibbiy bilimlar talab etiladi, chunki ularning aksariyati shaxsning sog'lig'i va hayoti uchun xavfli oqibatlarga sabab bo'lishi mumkin. Sud tibbiyotida *tan jarohatlari* deganda, mexanik, elektr, issiqlik va boshqa omillar ta'sirida organizmning anatomik yaxlitligining yoki tana a'zolari va to'qimalari funksiyalarining buzilishi tushuniladi.

Shilinishlar, tiralishlar, qontalash joylar asosan o'tmas qurollar (asbob, buyumlar) ta'siridan hosil bo'ladi.

Shilinishlar deganda, teri yuqori qatlami (epidermis) yoki shilliq pardalar epiteliysining buzilishi tushuniladi. Uchli yoki g'adir-budir sirtli narsa teri, badan yuzasi bo'ylab sirg'alishi natijasida yuzaga kelgan chiziqsimon shilinishlar *tiralishlar* deb nomlanadi. Yaqinda yuzaga kelgan tiralish pushti yoki och qizil rangli bo'ladi; oradan ma'lum (bir necha soatdan bir-ikki kungacha) vaqt o'tgach, tiralgan joy qotgan qon va yiringli ajralmalardan zich g'adir-budir po'st bilan qoplanadi, keyinchalik u qurib, to'qilib ketadi.

Qontalash joy yoki gematoma urilgan, siqilgan yoki lat yeganda, kichik qon tomirlar yorilishi natijasida qon quyilishi hisobiga yuzaga keladigan teri ostidagi jarohatdir. Qontalash joy rangi u qachon hosil bo'lgani haqida taxminiy bo'lsa ham xulosa chiqarish imkonini beradi. Yaqinda hosil bo'lgan qontalash joy to'q qizil rangda bo'ladi, u bir-ikki kun ichida avval ko'kimtir-qizg'ish, so'ngra binafsha rang va nihoyat, ko'k yoki kulrang-ko'k tus oladi. Bu rang uch-olti kun saqlanadi. Qontalash joy hosil bo'lganidan keyin sakkiz-o'n beshinchi kunlari u sarg'ish tus oladi, so'ngra qontalash joy yo'qolib ketadi.

Shaxsni guvohlantirish jarayonida *tan jarohatlaridan tashqari boshqa moddalar* ham aniqlanishi mumkin. Ular mazkur shaxs jinoyat predmetlari bo'lishi mumkin bo'lgan sochiluvchan narsalarga teginganidan v.h.disa

sodir bo‘lgan joyda bo‘lganligidan dalolat berishi mumkin.

Guvohlantirish jarayonida qattiq, suyuq yoki gazsimon moddalar ta‘sirida yuzaga kelgan *dog‘lar* ko‘rinishidagi jinoyat izlari ham aniqlanishi mumkin. Qon va spermadan hosil bo‘lgan dog‘larning aniqlanishi ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi.

Guvohlantirilayotgan shaxs badanida qon dog‘lari uning qo‘llarida, ayniqsa qo‘l barmoqlarida, bilaklarida, bo‘ynida, sochlarining ostida, badanining bukiladigan joylari (qo‘ltiq osti, chot)da, shuningdek sut bezlari ostida, tirnoq osti yoki sirtida joylashishi mumkin. Qon izlarining tirnoq ostida saqlanish ehtimoli ko‘proq bo‘ladi.

Guvohlantiriluvchi shaxsning mastlik holatini aniqlash O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 142-moddasiga asosan, guvohlantirishning ikkinchi guruhiga kiruvchi vazifalardan biri hisoblanadi.

Ma‘lumki, mastlik spirtli ichimliklar, ayrim turdagi dorilar, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar iste‘mol qilish natijasida yoki zaharli moddalar va patologik omillar ta‘sirida vujudga kelishi mumkin. Mastlikning asl sababini faqat mutaxassis, avvalo shifokor aniqlashi mumkin.

Ayni vaqtda mastlik darajasini aniqlash ham muhim bo‘lib, buning uchun maxsus bilimlar va tibbiy tekshiruvlar talab etiladi. Mazkur holat, avvalo, og‘izdan alkogol hidi kelishi, qaddini tutib tura olmaslik, nutqining o‘zgarishi, qo‘l barmoqlarining titrashi, yuz terisining rangi keskin o‘zgarishi, vaziyatga xos bo‘lmagan xulq-atvor, ko‘zlarning holati, nutqning uzuq-yuluqligi, harakatlarni boshqara olmaslik kabi alomatlarda nomoyon bo‘ladi.

Guvohlantirishning ikkinchi guruh vazifalari sirasiga kiruvchi keyingi vazifasi *boshqa fiziologik holatlarni* aniqlashdan iboratdir.

Fiziologik holatlar tibbiyot fanining “fiziologiya” deb nomlangan bo‘limida o‘rganiladi va odamning organizmidagi hayotiy jarayonlar majmuini tashkil etadi. Odamning badanini guvohlantirish jarayonida biz yuqorida qayd etib o‘tgan guvohlantirishning vazifalari ham organizmdagi hayotiy jarayonlar, o‘zgarishlarni qayd etishga qaratilgandir. Qonun chiqaruvchi va “boshqa fiziologik holatlar” deganda, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 142-moddasi 1-qismida ko‘rsatilganlardan boshqa fiziologik holatlarni qayd etish zaruriyati yuzaga kelganda shaxs guvohlantirilishi kerakligini nazarda tutgan.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 143-moddasida guvohlantiriladigan shaxslar doirasi tartibga solingan. Unga ko‘ra, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi va jabrlanuvchi

guvohlantirilishlari mumkinligi, guvoh esa, uning ko'rsatuvlari to'g'riligini tekshirish uchungina guvohlantirilishi mumkinligi ko'rsatib o'tilgan.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 144-moddasida esa, guvohlantirish o'tkazish uchun bu to'g'risidagi qaror va ajrim chiqarilishi lozimligi tartibga solingan. Unga ko'ra, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi yoki jabrlanuvchining badanida jinoyat izlari, ish uchun ahamiyatga molik boshqa belgilar yoki uning g'ayritabiiy fiziologik holati to'g'risida yetarli ma'lumotlar bo'lsa, guvohlantirishni o'tkazish haqida surishtiruvchi yoki tergovchi qaror, sud esa ajrim chiqarishi mumkinligi bayon qilingan. Qaror uch qism: kirish, tavsiflovchi va xulosa qismlaridan iborat bo'lishi lozim. Qarorning kirish qismida qaror chiqarilgan vaqt va joy; qarorni chiqargan shaxsning familiyasi, ismi va otasining ismi, lavozimi, darajasi yoki maxsus unvoni; jinoyat ishining soni ko'rsatiladi. Qarorning asoslantiruvchi qismida guvohlantirishni o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilinishiga asos bo'lib xizmat qilgan ma'lumotlar aks ettiriladi. Shu joyda guvohlantirish qaysi vazifani hal qilishga qaratilganligi ko'rsatiladi (alohida belgilar, jinoyat izlari, tan jarohatlarini, mastlik holati mavjud yoki mavjud emasligini v.h.). Qarorning xulosa qismida guvohlantiriluvchi shaxsning familiyasi, ismi va otasining ismi; guvohlantirish o'tkazilgan vaqt va joy, shuningdek yoritilishi lozim bo'lgan holatlar ko'rsatiladi. Tergovchi guvohlantirishda ishtirok etish uchun shifokor yoki boshqa mutaxassisni taklif qilishni nazarda tutgan bo'lsa, bu holat ham qarorda aks ettiriladi. Qarorda guvohlantiriluvchi shaxsning chiqarilgan qaror bilan tanishtirilganligi haqida ham ma'lumot bo'lishi kerak. Chiqarilgan qaror tergovchi tomonidan imzolanadi.

Surishtiruvchining, tergovchining guvohlantirish o'tkazish to'g'risidagi qarori yoki sudning shu haqdagi ajrimi qaysi shaxs xususida chiqarilgan bo'lsa, o'sha shaxsga nisbatan majburiydir (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 145-modda). Guvohlantirishdan bosh tortayotgan shaxslar majburiy keltirilishi va guvohlantirilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 142-moddasida ko'rsatilganidek, guvohlantirish sud ekspertizasini tayinlash talab etilmagan hollarda o'tkaziladi. Shuni e'tiborga olib, guvohlantirish bilan odamning sud tibbiyoti ekspertisasi o'rtasidagi farq masalasini ko'rib chiqish o'rinlidir. Chunki ko'rsatilgan protsessual harakatlarning yagona obyektini – odamning badani. Ularni o'tkazish uchun protsessual asos bo'lib, tergovchining qarori xizmat qiladi. Sud tibbiyoti ekspertizasini o'tkazish jarayonida tergovchining iltimosiga binoan guvohlantirishning vazifalari ham hal qilinishi mumkin.

Ba'zan guvohlantirish sud tibbiyoti ekspertizasidan oldin o'tkaziladigan harakat hisoblanadi, guvohlantirish jarayonida aniqlangan jinoyatning izlari ekspertiza o'tkaziladigan paytga qadar butunlay o'zgargan hollarda, guvohlantirish bayonnomasi ekspertiza o'tkazish uchun asos bo'ladigan material vazifasini bajaradi.

Ammo odamning sud tibbiyoti ekspertisasi va guvohlantirish o'z tabiatiga va o'tkazishning protsessual tartibiga ko'ra ham bir-biridan farq qiladi. Bu protsessual harakatlarning vazifalari har xil. Guvohlantirish shaxsning badanida alohida belgilarni, jinoyat izlari va tan jarohatlarini aniqlashga qaratilgan bo'lsa, tirik odamlarning sud tibbiyoti ekspertizasining vazifalari ancha kengdir. Alohida belgilar, jinoyatning izlari va tan jarohatlarini aniqlash ekspertizaning dastlabki bosqichi bo'lib, undan keyin ularni tibbiy usullar yordamida o'rganish va tekshirish amalga oshiriladi hamda ularning natijalariga ko'ra ekspert xulosasi chiqariladi.

Sud tibbiyoti ekspertisasi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 68-moddasida protsessual huquq va burchlari belgilangan ekspert tomonidan o'tkaziladi. Tergovchi guvohlantirishni o'tkazishni shifokorga topshirgan hollarda, shifokorning huquq va burchlari esa, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 70-moddasida mustahkamlangan mutaxassisning protsessual maqomiga ega bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 142, 144-moddalari guvohlantirish doirasida nafaqat odamning badanida jinoyatning izlari, alohida belgilar va tan jarohatlarini, balki odam organizmining ba'zi bir holatlarini, jumladan mastlik holatini, ish uchun ahamiyatga ega bo'lgan boshqa fiziologik holatlar, jismoniy rivojlanganlik holatini aniqlash imkonini beradi.

Guvohlantirish natijasida olingan ma'lumotlar tegishli tartibda rasmiylashtirilishi lozim. Bunday rasmiylashtirish O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 90–92 va 147-moddalari talablari asosida bayonnoma shaklida amalga oshiriladi. Guvohlantirish bayonnomasi boshqa tergov harakati bayonnomalari kabi, kirish, tavsiflovchi va yakunlovchi qismlardan tarkib topishi lozim.

Guvohlantirish jarayoni videoapparatura yordamida tasvirga olingan bo'lsa, yoki fotoapparatura yordamida guvohlantiriluvchi shaxsning badani suratga tushirilgan bo'lsa yoki badanda aniqlangan belgilar tananing qayerida joylashganligi bo'yicha chizmalarda aks ettirilgan bo'lsa, bularning barchasi guvohlantirish bayonnomasiga ilova qilinishi lozim.

Bayonnomada tergovchining barcha harakatlari qanday ketma-ketlikda amalga oshirilgan bo'lsa, shunday ketma-ketlikda qayd etilishi lozim.

Bayonnomaga qo'yiladigan sanalar, o'z navbatida, guvohlantirish o'tkazilgan kun va vaqtga mutanosib bo'lishi kerak.

Sud tergovida o'tkaziladigan guvohlantirishni sud O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 142-147-moddalarida nazarda tutilgan talablarga amal qilgan holda o'tkazadi.

Guvohlantirish yechintirib yalang'ochlash bilan bog'liq bo'lsa, alohida xonada shifokor yoki boshqa mutaxassis tomonidan, guvohlantirilayotgan shaxsning jinsidagi xolislar ishtirokida o'tkaziladi. Guvohlantirish o'tkazib bo'linganidan so'ng protsessning mazkur ishtirokchilari sud majlisi zaliga qaytib kiradilar va u yerda taraflarning, guvohlantirilgan shaxsning va xolislarining ishtirokida shifokor yoki boshqa mutaxassis guvohlantirilgan shaxsning badanida izlar yoki belgilar aniqlangan bo'lsa, shu xususda axborot beradi hamda taraflarning, sudyalarning savollariga javob beradi. Bu ma'lumotlar, shuningdek guvohlantirilgan shaxsning hamda xolislarining mulohaza va tushuntirishlari sud majlisining bayonnomasiga yozib qo'yiladi va ular shifokorning, boshqa mutaxassisning, guvohlantirilgan shaxsning va xolislarining imzolari bilan tasdiqlanadi (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 445-modda).

7.9. Murdani eksqumatsiya qilish

(Muallif - yuridik fanlar nomzodi Sh.A.Kulmatov)

Ushbu tergov harakati aksariyat hollarda dastlabki tergov va surishtiruv jarayonida yo'l qo'yilgan xatolarni bartaraf etish uchun o'tkaziladi.

Ko'zdan kechirish, tanib olish, tekshirish yoki ekspertizaga namunalari olish uchun murdani qabrdan chiqarib olish zarur bo'lgan taqdirda tergovchi bu haqda qaror chiqaradi va prokurorning sanksiyasini oladi. Sud eksqumatsiyani surishtiruv organiga yoki tergovchiga topshirishi mumkin bo'lib, bu haqda ajrim chiqaradi (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 148-modda).

Murdani eksqumatsiya qilish jarayonida tibbiyot nuqtayi nazaridan ushbu tergov harakati ishtirokchilarining sog'lig'i hayotiga xavf tug'diruvchi omillardan saqlanish kerak, tegishli aseptika-antiseptika qoidalariga rioya qilib, tibbiyot niqoblari va qo'lqoplarida, maxsus kiyimda va poyabzalda o'tkazish va shundan so'ng dezinfeksiya harakatlarini o'tkazish kerak bo'ladi. Bu harakatlar murdadan tarqaluvchi zaharli hiddan saqlanish, murdadan kelib chiqadigan kasalliklarni profilaktika qilish harakatlarini o'z ichiga olishi zarur. Bu talablarni amalga oshirmagan surishtiruvchi yoki tergovchi u bilan ishtirok etayotgan tergov harakati

qatnashchilarini salomatligiga zarar yetkazishi mumkin. Shu bois, tergov harakatining qatnashchilari bu haqda tushuntirish o‘tkazishi va yuqorida qayd etilgan qoidalarga bo‘ysunishlari kerak (O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 148-modda).

Murdani eks gumatsiya qilish tergov harakati tergov amaliyotida kam uchraydigan, zurat tug‘ilgan holatlarda o‘tkaziladigan harakatlardan biri bo‘lib hisoblanadi.

Eks gumatsiya so‘zi lotincha “exhumation” “ex” – dan, “humas” - yer, tuproq so‘zlaridan olingan bo‘lib, ya‘ni yerga ko‘milgan joydan qazib olish degan ma‘noni anglatadi.

Tergovchi murdani eks gumatsiya qilishni sog‘liqni saqlash organlari bilan kelishgan holda va murda ko‘milgan joy vakilining ishtirokida amalga oshiradi. Eks gumatsiya surishtiruv yoki dastlabki tergov vaqtida amalga oshirilayotgan bo‘lsa, xolislarning ishtirok etishi shart. (O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 149-modda). Bu tergov harakatida xolislarning ishtirok etishi shart. Murdani eks gumatsiya qilish to‘g‘risidagi qarorni (ajrimni) tergovchi, surishtiruvchi qabriston ma‘muriyati va sud-tibbiyot ekspertizalari muassasasiga yuboradi va eks gumatsiya qilish kunini va vaqtini (aniq vaqtini) belgilaydi, agar murdani qabristondan ekspertiza muassasasiga yuborish kerak bo‘lsa, sanitar-epidemiologik stansiyaga transport vositasi bilan ta‘minlash to‘g‘risida eks gumatsiya qilish qarorida bu muassasani qayd etib, u erga ham shu qarorni yuboradi va transportning qabristonga etib kelish vaqti qayd etiladi.

Madomiki, murdani eks gumatsiya qilish tergov harakatini o‘tkazishda marhumning qarindoshlari norozilik bildirsalar, bu holat ichki ishlar organi yordamida bartaraf etilib, murdani eks gumatsiya qilish tergov harakati majburan o‘tkaziladi.

Murdani eks gumatsiya qilishning protsessual tartibi. Eks gumatsiya tergov harakatini o‘tkazish haqida tergovchi qaror chiqaradi va prokurorning sanksiyasini oladi. Prokurorning ruxsatini olib, eks gumatsiya to‘g‘risidagi qarorni tergovchi qabriston ma‘muriyatiga, sog‘liqni saqlash organiga hamda zarur bo‘lsa, sanitariya–epidemiologiya stansiyasi ma‘muriyatiga va sud-tibbiyot ekspertiza o‘tkazish muassasasiga yuborish huquqiga ega. Ushbu qarorda eks gumatsiya qilish asoslari, zaruriyati, qayerda eks gumatsiya o‘tkazilishi, qachon bu harakat o‘tkazilishi, kim bu qarorni chiqarganligi, qaysi mansabdor shaxsga bu qaror ijro etilishi uchun

yuborilganligi qayd etilishi kerak. Bundan tashqari eksqumatsiyaga: ikkita xolis, sud-tibbiyot eksperti, qabriston vakili, texnik yordamchilar (ikki kishidan kam bo'lmagan holda), eksqumatsiyani videoyozuvga olish bo'yicha mutaxassis, ekspert-kriminalist va zarur bo'lsa, yana boshqa sohadagi mutaxassislar qatnashishi kerak. Eksqumatsiyaga gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi hamda murdani tanib oluvchi shaxslar taklif etilishi mumkin.

Murdani eksqumatsiya qilish tergov harakatini o'tkazishda ishtirok etayotgan barcha shaxslarga ularning protsessual huquq va majburiyatlari tushuntirilishi va mazkur tergov harakatining maqsad va vazifalari to'g'risida ayon qilinishi lozim.

Eksqumatsiya qilinadigan joyga etib borilgach, ushbu harakatda ishtirok etuvchi barcha qatnashchilar nazoratida tergovchi eksqumatsiya qilish to'g'risidagi qarorni o'qib eshittiradi. Qabriston vakili qaror bilan tanishganligi to'g'risida imzo chekadi. Shundan so'ng, tergovchi bayonnomada eksqumatsiyada ishtirok etuvchi barcha shaxslarning kimligi, qayerda istiqomat qilishi, qaysi muassasada ishlashi to'g'risidagi aniq ma'lumotlarni kiritib, ularni tegishli huquq va majburiyatlari bilan tanishtirganligi to'g'risida belgi qo'yib, tasdiqlovchi imzolarni bayonnomada qayd etadi va texnik yordamchilarga qabrni kovlash to'g'risida buyruq beradi. Qabrni kovlashdan avval qabrda dafn etilgan shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi, qachon tug'ilganligi va vafot etgan yili, oyi va kuni bayonnomada aks ettirilishi lozim (bu ma'lumotlar tegishli eksqumatsiya qilish qarorda ham bo'lishi shart). Texnik yordamchilar qabrni kovlab bo'lganlaridan so'ng, tergovchi tobutga olish to'g'risida buyruq beradi (agarda bu harakat xristianlarning (qabristonida o'tkaziladigan bo'lsa), agar bu harakatlar musulmonlar qabristonida o'tkaziladigan bo'lsa, u holda xilxonadan kafanga o'ralgan murda foto yoki videoga olinadi (xristian qabristonida tobutning dastlabki holati fotoga yoki videoga muttasil olib turilishi lozim).

Tobut tepaga chiqarilgandan keyin tobutni texnik yordamchilar ochadilar va shu lahza foto yoki videovositalar bilan murda holatini qayd etish kerak va uning holati tergovchi, xolislar va sud-tibbiyot mutaxassisi tomonidan ko'zdan kechiriladi. Musulmon qabristonida kafanga o'ralgan murda tepaga chiqarilgandan keyin fotosuratga (videoyozuvga) olinadi, so'ng matoni murda bilan maxsus tayyorlangan joyga o'tkazib, kafandan murda ochiladi. Bu joyda maxsus tayyorlangan oq choyshabga murda yotqiziladi va murdani tergovchi, xolislar va sud-tibbiyot eksperti ko'zdan

kechiradi. Ushbu harakatda ekspert-kriminalist va boshqa sohadagi mutaxassislar ishtirok etishi mumkin.

Eksgumatsiya qilingan murdani tashqi koʻzdan kechirish va uning ichki organlarini tadqiq qilish oʻlim sababini aniqlashdan tashqari, uni vujudga keltiruvchi hollarni tiklashga imkon beradi, bu esa jinoyat ishi boʻyicha haqiqatni aniqlashda katta ahamiyatga ega.

Murda eksgumatsiya qilingandan soʻng ushbu tergov harakati boʻyicha asos boʻlgan maqsad amalga oshiriladi:

- 1) murda koʻzdan kechiriladi;
- 2) murdani tanib olish uchun koʻrsatiladi;
- 3) ekspertiza zaruriyati boʻlsa uni ekspertizaga yuboriladi;
- 4) taqqoslash uchun tadqiqot oʻtkazish kerak boʻlsa, undan tegishli namunalar olinadi.

Bu harakatlar protsessual qonunda qayd etilgan qoidalarga asosan amalga oshirilishi lozim.

Eksgumatsiya qilingan murdaning ekspertizasi har doim toʻliq boʻlishi kerak va sud-tibbiyot eksperti murdaning uchta qismidan – miya qobigʻidan, koʻkrak qafasidan va ichakdan (qorindan) tegishli ravishda foydalanib, ochishi va koʻzdan kechirish, ularning holatini qayd etishi, zarur boʻlsa namunalar (qon, ichakda boʻlgan chiqindilar, soch tolalari, tirnoq tagidagi qoldiqlar, jinsiy organlarning ichida boʻlgan biologik mikrocharralar v.h.larni) olish kerak. Murdani sud-tibbiy jihatdan yorib ochish yaqin boʻlgan sud-tibbiyot oʻlikxonasi yoki qabristonda amalga oshiriladi. Ekspertiza qilishdan avval tergovchi bu toʻgʻrida tegishli qaror chiqarishi kerak va u ekspert muassasasiga yuboriladi.

Murdani eksgumatsiya qilish natijalarini protsessual qayd etish. Eksgumatsiyani amalga oshirgandan keyin tergovchi, surishtiruvchi murdani dafn etish toʻgʻrisida buyruq beradi va texnik yordamchilar murdani qayta qabrga dafn etadilar. Ushbu tergov jarayoni muttasil videoyozuvga yozib boriladi yoki ushbu vositalar boʻlmasa suratga olib boriladi.

Videoyozuv tergov harakati ishtirokchilariga ushbu tergov harakati yakunlanganidan soʻng namoyish qilinadi va bu bayonnomada qayd etilib, tergov harakati qatnashchilari tomonidan imzolar bilan tasdiqlanadi. Agar eksgumatsiya paytida ushbu tergov harakatida ishtirok etuvchi shaxslarda shu tergov harakatiga nisbatan biron bir qoʻshimcha, aniqlashtirish, eʼtiroz, ariza yoki shikoyat keltiradigan boʻlsalar, u holda tergovchi keltirilgan barcha qoʻshimcha, aniqlashtirish, eʼtiroz, ariza yoki shikoyatlarni bayonnomada qayd ettirilishi lozim.

Eksgumatsiya paytida murdadan olingan namunalar yoki biron bir obyektlar to'g'risida tergovchi bayonnomada qayd etishi va shu namunalar, obyektlar nimaga o'ralgani, muhrlangani, imzolangani, muhrning raqami to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'lishi kerak. Eksgumatsiyani boshlash va yakunlash vaqti bayonnomada ko'rsatiladi. Bayonnoma o'tkazilgan tergov harakatiga iltimos bo'lib, u to'g'ri qayd etilganligi to'g'risida ishonch hosil qilgan tergov harakatining qatnashchilari uni imzolari bilan tasdiqlaydilar, tergovchi oxirida imzo chekadi. Eksgumatsiya harakatini bayonnomada qayd etganda ushbu bayonnomaning har bir sahifasi tergovchi va xolislar hamda sud-tibbiyot mutaxassisi tomonidan imzolanishi shart.

Murdani ekspertiza qilib bo'lgandan keyin uni qabristonga jo'natiladi va qayta dafn etiladi. Tergovchi murdani eksgumatsiya qilish maqsadi, ekspertiza qilish masalasi asosida bu tergov harakatini o'tkazganda murdani eksgumatsiya qilinganligi va sud-tibbiyot muassasasiga yuborilganligi to'g'risida tegishli bayonnoma tuzadi, xolislar va shu tergov harakatida ishtirok etgan boshqa shaxslar bilan ushbu bayonnomaning o'z imzosi bilan tasdiqlaydi. Agar shu tergov harakatini o'tkazish davomida foto, kino yoki video vositalar qo'llanilgan bo'lsa, bu ham bayonnomada o'z ifodasini topish lozim. (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 149-modda).

Surishtiruvchi yoki tergovchi murdaning tashqi ko'rinishini u topilgan joyda xolislar va sud-tibbiyot sohasidagi mutaxassis shifokor ishtirokida ko'zdan kechiradi. Bunday mutaxassis shifokor ishtirok etishiga imkoniyat bo'lmagan taqdirda, boshqa shifokor ishtirok etadi. Zarur hollarda murdani ko'zdan kechirish uchun boshqa mutaxassislar, shuningdek ekspertlar jalb qilinadi. (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 138-modda).

Murda topilgan joyda uni tanib olish uchun ko'rsatish chog'ida tanib oluvchi tanib olish lozim bo'lgan shaxs yoki narsaning belgilari, alomatlari, xususiyatlari to'g'risida oldindan so'roq qilinishi lozim. (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 126-modda).

Surishtiruv yoki dastlabki tergov vaqtida o'tkazilgan tanib olish uchun ko'rsatish to'g'risida bayonnoma tuziladi. Sud muhokamasida o'tkazilgan tanib olish uchun ko'rsatish sud majlisi bayonnomasida qayd qilinadi.

Barcha hollarda bayonnomaga: tanib oluvchi, tanib olish uchun ko'rsatish sharoiti, jarayoni va natijalari, tanib olish uchun ko'rsatilgan shaxslar, ularning yoshi, bo'yi, millati, turar joyi, ko'zga tashlanuvchi belgilari, kiyimlari; tanib olish uchun ko'rsatilgan narsalar tavsifi, tanib olish uchun ko'chmas obyektlar ko'rsatilganda esa, shuningdek tanib

oluvchi ko'rsatgan yo'nalishlar va izlanayotgan obyektga biror aniq joydan borish yo'llari to'g'risidagi ma'lumotlar kiritilishi lozim.

Tanib olish uchun fotosuratlar ko'rsatilgan bo'lsa, bayonnomaga fotojadval ilova qilinishi lozim. Tanib oluvchining ko'rsatuvlari, shuningdek unga tergovchi, sud, taraflar yoki boshqa shaxslar tomonidan berilgan savollar va qaytarilgan javoblar bayonnomaga yozib boriladi. (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 131-modda).

Tanib olinmagan murdalarning barmoq izlari olinishi shart, murdadan tekshirish uchun boshqa xil namunalar ham olinishi mumkin. Tanib olinmagan murdani faqat prokuror ruxsati bilangina ko'miladi. (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 138-modda).

Murdani eksqumatsiya qilish to'g'risida surishtiruvchi yoki tergovchi bayonnoma tuzadi, sud esa eksqumatsiya jarayoni va natijalarini sud majlisining bayonnomasida qayd etadi. Bayonnomaga qabr, tobut va murdaning fotosuratlari, kinotasvir hamda videoyozuvlari ilova qilinishi mumkin. (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 151-modda).

Agar eksqumatsiya paytida foto, kino, ovoz yozish, videotasvirni qo'llash harakatlari yoki murdadan qoliplar va namunalar olish harakatlari amalga oshirilgan bo'lsa, u holda texnik vositalarning to'liq nomlanishi, ularning texnik parametrlari, ishlatish qoidalari va sharoitlari, murdaga nisbatan ular qanday jihatdan qo'llanilganligi va olingan natijalarni, olingan qoliplar va namunalar qanday obyektlarga yoki narsalarga o'ralganligi, imzolar bilan tasdiqlanganligi bayonnomada qayd etilishi kerak.

Eksqumatsiyadan va boshqa protsessual harakatlardan so'ng murdani ko'mish murdani eksqumatsiya qilish to'g'risida qaror yoki ajrim chiqargan shaxsning ishtirokida amalga oshiriladi. Murda ko'milganligi to'g'risida bayonnoma tuziladi (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 152-modda).

Murda eksqumatsiya qilinganidan va boshqa protsessual harakatlar (ko'zdan kechirish, tanib olish yoki ekspert tekshiruvi uchun namunalar olish) o'tkazilganidan keyin murda qazib olingan joyiga qayta dafn etilishi kerak. Agar eksqumatsiya harakatlari va murdani qayta dafn etish harakatlari aynan bir kunning o'zida amalga oshiriladigan bo'lsa, bu holda yagona bir bayonnomada bu harakatlarni qayd etish maqsadga muvofiq bo'ladi, agar murdani eksqumatsiya qilish va uni qayta dafn qilish orasidagi vaqt bir kundan ko'proq muddatni talab qilsa, bu holda murdani eksqumatsiya qilish uchun qayta dafn etish haqida alohida bayonnoma tuziladi.

Eksgumatsiyaning maqsadi amalga oshirilganidan keyin tergovchi, surishtiruvchi murdani dafn etish to'g'risida buyruq beradi va texnik yordamchilar murdani qabrga qayta dafn etadilar va ushbu tergov jarayoni muttasil videotasmaga yozib boriladi yoki ushbu vositalar bo'lmasa fotosuratga qayd etib boriladi. Qayta dafn etish jarayonida tergovchi, surishtiruvchi eksgumatsiya to'g'risida bayonnoma tuzadi va uni ushbu tergov harakatida ishtirok etgan shaxslarga ovoz chiqarib o'qib beradi va ishtirokchilardan shu tergov harakati hamda bayonnomaning tergov harakatiga muvofiq bo'lishi bo'yicha ular qanday qo'shimchalar, e'tirozlar, arizalar yoki tergovchining harakatiga nisbatan shikoyatlari bor yoki yo'qligini so'raydi. Agar tergov harakatida ishtirok etgan shaxslar biron bir e'tiroz, shikoyat, ariza yoki qo'shimchalarga ega bo'lsalar, u holda tergovchi bu e'tiroz, shikoyat, ariza yoki qo'shimchalarning hammasini bayonnomada qayd etishi lozim. Bayonnoma ushbu harakatda ishtirok etgan barcha shaxslar tomonidan imzolanib tasdiqlanadi.

7.10. Eksperiment

(Muallif - yuridik fanlar nomzodi A.B. Rajabov)

Eksperiment tergov harakati deganda, jinoyat ishi bo'yicha ahamiyatga ega bo'lgan ma'lum voqeaning holatini qayta tiklash yo'li bilan tajriba harakatlarini o'tkazish, biror hodisaning sodir bo'lish imkoniyatini tekshirish, shuningdek hodisaning voqelikda qanday yuz berishi va izlarning qolish yo'sinlarini aniqlash, shaxsning qobiliyatlari (ko'rish, eshitish yoki jismoniy) va tergov tasmolarini tekshirish maqsadida o'tkaziladigan protsessual harakat tushuniladi.

Eksperiment so'zi lotincha "experimentum" so'zidan olingan bo'lib, "sinash", "tekshirib ko'rish" degan ma'nolarni anglatadi.

Ushbu ta'rif orqali eksperiment oddiy ko'rinsa-da, uni chuqurroq mulohaza qiladigan bo'lsak, ancha o'ziga xos jihatlariga ega ekanligini anglash mumkin. Chunki, jinoyat ishi bo'yicha to'plangan ba'zi dalillarni tekshirish orqali undagi ma'lumotlarni ishonchliligi va haqqoniyligini aniqlashda samarali qo'llanilishi mumkin. Ya'ni, eksperiment shaxsning bergan ko'rsatuvlaridagi voqea, holat, vaziyat va jarayonlar haqidagi ma'lumotlarning haqiqatga qanchalik mosligini, o'sha voqea, holat, vaziyat va jarayonlarni tajriba o'tkazish orqali qayta tiklab o'tkazishdan iboratdir.

Eksperiment tergov harakati tekshiruvning xususiyatlariga ko'ra bir necha turlarga ajratiladi. Bularga:

- eshitish qobiliyatini tekshirish;
- ko'rish qobiliyatini tekshirish;
- muayyan xatti-harakatlarni bajara olish yoki bajara olmaslik qobiliyatini tekshirish;
- ma'lum bir harakatlarni muayyan vaqt oralig'ida sodir eta olish qobiliyatini tekshirish;
- tergov tasmollarini tekshirish v.h..

Bundan tashqari, eksperiment tergov harakati jinoyat sodir etilishida izlarni qolish yo'sinlarini aniqlash uchun ham o'tkazilishi mumkin. Eksperiment surishtiruvchi yoki tergovchining qarori yoxud sudning ajrimiga asosan o'tkaziladi.

Eksperiment tergov harakatini o'tkazish jarayonida uning samarali bo'lishini ta'minlash maqsadida jinoyat yoki ijtimoiy xavfli qilmish sodir etilgan paytdagi holat qayta tiklanishi zarur.

Eksperimentni uni o'tkazish vaziyatini hisobga olgan holda quyidagicha tasniflash mumkin:

- eksperiment o'tkazishga faqat tergovchining qarori yetarli bo'ladigan holatlar;
- eksperiment o'tkazishga prokurorning ruxsati talab etiladigan holatlar;
- eksperiment o'tkazish taqiqlanadigan holatlar.

Ushbu qayd etilgan holatlar eksperiment o'tkazishda jiddiy e'tibor talab etuvchi holatlar bo'lib, bunday vaziyatda tergovchi yetuk bilim, tajriba va mahoratga ega bo'lishi lozim bo'ladi.

Eksperiment o'tkazishga prokurorning ruxsati talab etilmagan va qonun bo'yicha uni o'tkazishga to'sqinlik qiladigan holatlar bo'lmagan taqdirda eksperiment o'tkazishga faqat tergovchining qarori yetarli bo'ladi.

Eksperiment natijasida fuqarolar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga mulkiy zarar yetkazilishi, ishlab chiqarish tartibotining, transport vositalari harakati jadvalining buzilishi va boshqa noxush oqibatlar kelib chiqishi ehtimol bo'lsa, surishtiruvchining, tergovchining bunday eksperiment o'tkazish to'g'risidagi qaroriga prokuror sanksiya berishi lozim.

Agarda eksperimentning o'tkazilishi natijasida jamoat tartibi yoki axloq normalarining buzilishi ehtimoli bo'ladigan yoki shunday oqibatlar yuz berishi muqarrar bo'lsa, uni o'tkazish taqiqlanadi.

Eksperiment tergov harakati o'tkazishga amaldagi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi bo'yicha faqatgina jinoyat ishi qo'zg'atilgandan keyingina ruxsat beriladi. Jinoyat ishi qo'zg'atilmadan

oldin o'tkazilgan eksperiment natijasida olingan ma'lumotlar daliliy ahamiyatga ega bo'lmaydi.

Eksperiment tadqiqotini o'tkazish ekspertga topshirilgan taqdirda uning harakatlari sud ekspertizasining tarkibiy qismiga kiritiladi va u eksperiment tergov harakati sifatida baholanmaydi (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 154-modda). Chunki eksperiment tergov harakati ekspertizadan farqli o'laroq shaxsan tergovchining o'zi tomonidan o'tkazilishi lozim. Ekspertiza esa tergov harakatlari sirasiga kiritilsada bunda tergovchining harakatlari faqatgina ekspertiza tayinlash to'g'risida qaror chiqarish va uning bajarilishini (tadqiqot qismini) ekspertga topshirish bilan tamomlanadi, ya'ni tergovchi ekspertizani shaxsan o'zi o'tkazmaydi.

Surishtiruvchi yoki tergovchi eksperimentni xolislar, sud esa taraflar ishtirokida o'tkazadi. Murakkab eksperimentlar kamida ikki nafar xolis va bir necha mutaxassis ishtirokida o'tkazilishi mumkin.

Jinoyat protsessining ishtirokchisi sifatida tergovchi ushbu tergov harakatini o'tkazilishida markaziy o'rinni egallaydi. U eksperiment o'tkazilishini rejalashtiradi, tashkillashtiradi, majburiy va ixtiyoriy ishtirok etuvchi shaxslar doirasini belgilaydi hamda tergov harakati o'tkazilishining boshidan oxiriga qadar bevosita rahbarlik qiladi.

Eksperimentni o'tkazish o'z ichiga asosan uchta bosqichni qamrab oladi: uni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish, o'tkazish va natijalarini rasmiylashtirish bosqichlari.

Eksperimentni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish bosqichida tergovchi quyidagi harakatlarni amalga oshiradi:

- jinoyat ishi materiallarini va ish holatlarini sinchiklab o'rganib chiqish va eksperiment o'tkazish to'g'risida qaror chiqaradi (prokurorning sanksiyasini olish talab etilgan holatlarda prokurorning sanksiyasini oladi);

- tergov harakatining ishtirokchilariga o'zini tanishtirib, ularning protsessual huquq va majburiyatlarini, shuningdek eksperimentning maqsadi, bajarish ketma-ketligini va mazmunini, har bir ishtirokchining vazifalarini hamda faqatgina tergovchining ko'rsatmalari asosan harakat qilishlarini, shuningdek ishtirokchilar o'rtasida ularning bir-birlari bilan qanday aloqa qilish tartibini va boshqalarni tushuntiradi;

- eksperimentni o'tkazish joyi va vaqtini belgilaydi (bunda jinoyat sodir etilgan vaqtdagi vaziyatni iloji boricha qayta tiklash mumkin bo'lgan joy va vaqt tanlanishi lozim);

- jabrlanuvchi, fuqaroviy da'vogar yoki ularning vakillariga, gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga va uning himoyachilariga tergovchi, tarjimon, mutaxassislarni rad etish xohishlari bor yoki yo'qligini aniqlaydi hamda

mutaxassis va tarjimondan o'z o'zini rad qilish uchun asoslar ularda bor yoki yo'qligini so'raydi v.h..

Eksperiment tergov harakatining ishtirokchilari ham ikki guruhga ajratiladi. Birinchi guruhga mazkur tergov harakatida ishtirok etishi majburiy bo'lgan ishtirokchilar bo'lib, unga tergovchi va kamida ikki nafar xolis kiritiladi. Ikkinchi guruhga esa tergov harakatida ishtirok etishi majburiy bo'lmagan ishtirokchilar bo'lib, unga guvoh, jabrlanuvchi, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, mutaxassis kabi ishtirokchilar kiradi.

Eksperiment o'tkazishga mutaxassis va ekspert, shuningdek tajriba harakatlarini olib boruvchi shaxslar jalb qilinishi mumkin. Ko'rsatuvlari tekshirilishi lozim bo'lgan shaxslar esa bu jarayonda ishtirok etishi shart bo'ladi.

Bunda guvohlar va jabrlanuvchilar ko'rsatuv berishdan bo'yin tovlanlik va bila turib yolg'on ko'rsatuv berganlik uchun javobgarlik to'g'risida ogohlantiriladilar. Eksperiment ishtirokchilariga uning maqsadi va o'tkazilish tartibi tushuntiriladi.

Eksperimentning ikkinchi bosqichida bevosita tajriba harakatlari amalga oshiriladi. Ya'ni bunda ma'lum hodisa, sharoit yoki hollatlarning qayta takrorlash harakatlari zarur bo'lsa tajribalar bilan bog'liq harakatlar o'tkaziladi.

Tajriba harakatlarini o'tkazishdan oldin o'rganilayotgan hodisa sharoitlari tekshirilayotgan ko'rsatuv yoki tasmollarga to'la muvofiq holda tiklangan bo'lishi lozim. Buning uchun gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, jabrlanuvchi, guvohlarning har biriga alohida-alohida o'zi qatnashgan yoki shohid bo'lgan hodisaning sharoit v.h.latlarni tiklash taklif qilinishi mumkin. Shundan keyin surishtiruvchi, tergovchi yoki sud tegishli tajriba harakatlarini o'tkazadi, shu maqsadda o'lchash, foto va videotasvirga olish, ovoz yozish, reja tuzish, chizmalar chizish, eksperimental qoliplar va izlarning nusxalarini tayyorlash mumkin.

Eksperiment o'tkazish sharoiti tiklanayotgan harakat yoki hodisalar jinoyat sodir etilgan sharoitga iloji boricha o'xshash bo'lishi lozim. Tajribalar imkon boricha bir necha marta o'tkazilishi lozim. Tajribalarning sharoitlari ishning holatlaridan kelib chiqqan holda o'zgartirilishi mumkin.

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, jabrlanuvchi, guvoh, mutaxassis va ekspertga eksperiment yuzasidan savollar berilishi mumkin. Sudning ijozati bilan eksperimentda ishtirok etayotgan shaxslarga taraflar ham savol berishi mumkin. Taraflar va eksperimentda ishtirok etayotgan boshqa shaxslar surishtiruvchining, tergovchining va sudning e'tiborini, ularning fikricha ish holatini aniqlashga yordam berishi mumkin bo'lgan

barcha holatlarga qaratishga, eksperiment sharoitiga aniqlik kiritishni va tajriba harakatlarini takrorlashni talab qilishga haqlidir. Ko'rsatuvi tekshirilayotgan shaxs eksperiment munosabati bilan o'zining qo'shimcha so'roq qilinishini talab qilishi mumkin (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 155-modda).

Amaliyotdan misol: O'g'irlik fakti yuzasidan qo'zg'atilgan jinoyat ishi bo'yicha tergovchi, gumon qilinuvchining xonadonga oynaning tuynugi orqali kirishi mumkinligini tekshirish uchun eksperiment o'tkazishga qaror qildi. Eksperiment joyiga olib kelingan gumon qilinuvchi tuynuk orqali turar joyga kirmasligi, o'g'irlik haqida hech narsani bilmasligi va avval berilgan ko'rsatmalari yolg'onligi hamda ular tergovchining ta'siri ostida berganligini ma'lum qilib eksperimentda ishtirok etishdan bosh tortdi.

Eksperiment o'tkazishning uchinchi bosqichi yakunlovchi bosqich hisoblanib, mazkur bosqich tergov harakati natijalarini bayonnoma orqali rasmiylashtirish va ushbu bayonnomaning ishtirokchilarga tanishtirish bilan nihoyasiga yetadi. Eksperiment o'tkazish bayonnomasi – bu asosiy protsessual hujjat bo'lib unda eksperimentning o'tkazish shartlari, jarayoni va natijalari to'liq qayd qilinadi.

Agarda eksperiment sud tergov jarayonida o'tkazilgan bo'lsa, eksperimentning borishi va natijalari sud majlisi bayonnomasida aks ettiriladi.

Eksperiment bayonnomasi kirish, tavsiflovchi va xulosa (yakunlovchi) qismlardan tarkib topishi, uning kirish qismida esa quyidagilar aks ettirilishi lozim: bayonnoma tuzilgan sana va joy, tergov harakatining boshlanish va tugash vaqti; eksperiment o'tkazgan mansabdor shaxsning familiyasi, ismi, sharifi, lavozimi va unvoni, jinoyat ishining raqami va Jinoyat kodeksining qo'zg'atishga asos bo'lgan moddasi, xolislarning familiyasi, ismi, sharifi, tug'ilgan yili, yashash manzili, boshqa ishtirokchilarning familiyasi, ismi, sharifi, tajriba harakatlarini amalga oshiruvchi shaxsning protsessual maqomi, uning familiyasi, ismi, sharifi, eksperiment ishtirokchilariga ularning protsessual huquq va majburiyatlari, javobgarligi tushuntirilganligi to'g'risida belgilar, xolislarga ularning huquq va majburiyatlari va javobgarligi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 74-moddasi talablari asosida tushuntiriladi va ular bayonnomaga bu to'g'risida imzo qo'yadilar.

Shundan so'ng mutaxassisga uning protsessual huquq, majburiyatlari va javobgarligi tushuntiriladi va mutaxassis bu belgini o'z imzosi bilan tasdiqlaydi. Bayonnomada eksperiment paytida qanday texnik vositalar kim tomonidan va qanday tartibda qo'llanilganligi ko'rsatiladi.

Bayonnomaning tavsif qismida eksperimentning o'tkazish sharoiti ya'ni kunning qaysi qismida o'tkazilganligi va ob-havoning qanday

bo'lganligi, eksperimentning o'tkazish uslubi, eksperiment ishtirokchilari o'rtasida majburiyatlar qanday taqsimlanganligi, eksperiment paytida qanday harakatlar, qanday ketma-ketlikda amalga oshirilganligi, uning natijasida qanday ma'lumotlar olinganligini, eksperiment o'tkazish jarayoni va natijalarini qayd etishda qaysi turdagi texnik vositalardan (foto, video, ovoz yozish va boshqalar) foydalanilganligi ko'rsatiladi hamda olingan fotosurat, videotasvir yoki ovozli ma'lumotlar va boshqa shunga o'xshash ashyolar bayonnoma ilova qilinishi lozim.

Bayonnomaning xulosa qismida tergov harakati ishtirokchilarining bayonnoma bilan tanishganliklari va uni imzolari orqali tasdiqlaganliklari hamda bayonnomaga nisbatan ularda taklif yoki shikoyatlarning bor yoki yo'qligi qayd etiladi. Eksperiment bayonnomasini tergovchi imzolagandan so'ng u o'z nihoyasiga yetkaziladi.

7.11. Olib qo'yish va tintuv

(Muallif – U.T.Turg'unov)

Tintuv – shaxsni, xonalarni, tintuv qilinayotgan shaxs va uning oila a'zolari yoki tashkilot ixtiyorida bo'lgan xona va turar joylarni, ochiq joylarni majburiy tekshirishdan iborat.

Tintuv o'tkazishning maqsadi (tor ma'noda) – jinoyatdan qolgan qurollar, predmetlar, jinoyat yo'li bilan topilgan qimmatbaho narsalar, ish bo'yicha ahamiyatga ega boshqa predmet va hujjatlar, jinoyat yo'li bilan topilgan qimmatbaho narsalar, ish bo'yicha ahamiyatga ega boshqa predmet va hujjatlar, shuningdek qidiruvda bo'lgan shaxslar, murda yoki uning qismlarini, garovga olingan va olib qochilgan shaxsni topishdan iboratdir.

Tintuvning maqsadi (keng ma'noda) 1) ish yuzasidan ashyoviy dalil ahamiyatiga ega bo'lishi mumkin bo'lgan narsa va hujjatlarni topish va olib qo'yish; 2) jinoyat sodir etganlikda gumon qilinuvchi va ayblanuvchi shaxslarni topish va ushlab; 3) berkitilgan murda yoki uning bo'laklarini topish va ularni topilgan joydan olib qo'yish; 4) jinoiy yo'l bilan orttirilgan yoki xatlanishi lozim bo'lgan mol-mulk va qimmatbaho narsalarni topish va olib qo'yish, jinoyat tufayli yetkazilgan zararining qoplanishini ta'minlash.

Olib qo'yish - bu mustaqil tergov harakati bo'lib, ish uchun ahamiyatli bo'lgan ashyo va hujjatlarning aynan kimda va qayerda ekanligi ma'lum holatdagina surishtiruvchi, tergovchi, sudya va sud tomonidan o'tkazilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 157-moddasiga muvofiq olib qo‘yish ish uchun ahamiyatli bo‘lgan ashyo va hujjatlarning aniq saqlanish joyi va aynan qaysi shaxsnikida ushbu ashyo va hujjatlar saqlayotganligi aniqlangandan so‘ng o‘tkaziladi.

Olib qo‘yish harakatini jinoyat ishi qo‘zg‘atilganidan so‘ng amalga oshirish mumkin. Odatda olib qo‘yish ixtiyoriy ravishda o‘tkaziladi, lekin agar zarur bo‘lib qolsa bu tergov harakati majburiy ravishda ham o‘tkazilishi mumkin.

Olib qo‘yish ko‘pincha muassasalar va tashkilotlarda ashyo va hujjatlarni olib qo‘yishda o‘tkaziladi. Olib qo‘yiladigan hujjatni olishdan avval aynan shu hujjat bilan bo‘lgan boshqa hujjatlar ham ko‘zdan kechirilib olib qo‘yilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 158-moddasiga muvofiq jinoyat ish bo‘yicha ahamiyatga ega bo‘lgan jinoyat qurollari, jinoiy yo‘l bilan topilgan predmetlar va hujjatlar, qimmatbaho narsalar biron shaxsda yoki biron joyda saqlanishi ma’lum bo‘lsa yoki bu to‘g‘rida biror gumon paydo bo‘lsa, bu tintuv harakatini o‘tkazish uchun asos bo‘la oladi.

Tintuv asosan ish bo‘yicha daliliy ahamiyatga ega bo‘lgan predmetlarni, hujjatlarni aniqlash (topish) va olish; qidiruvda bo‘lgan shaxslarning topib ularni ushlab olish yoki shu shaxslarni qayerda yashirib yurishini ko‘rsatuvchi materiallarni aniqlab topish va olish; ahamiyatli bo‘lgan moddiy mablag‘larni (pullar, qimmatbaho narsalar, aksiyalar, qimmatbaho metallar va toshlarni) aniqlab topish va olish; kelgusida musodarani ta’minlovchi yoki jinoyatdan ko‘rilgan zararni qoplovchi mulkni topish va uni xatlab qo‘yish maqsadida o‘tkaziladi.

Tintuv o‘tkazish uchun qidiriladigan obyektning aniq saqlanayotgan joyini bilish talab qilinmaydi va bu holat uni olib qo‘yishdan ajratadi. Tintuv o‘tkazishdan avval, u haqda qaror qabul qilishdan avval, ish bo‘yicha yig‘ilgan faktik ma’lumotlar baholanishi va tahlil etilishi lozim. Tintuv murdani qidirishda ham o‘tkazilishi mumkin.

Tintuv o‘tkazish uchun surishtiruvchi, tergovchi tintuv to‘g‘risida qaror chiqaradi va bu qarorga prokuror o‘z ruxsatini qayd etadi, yoki prokuror muovini uning o‘rniga ruxsat berishi mumkin.

Tintuv kechiktirib bo‘lmas tergov harakati bo‘lib jinoyat ishi qo‘zg‘atilganidan so‘ng tegishli tergov holati taqozo etadigan bo‘lsa, vaqtning har qanday jarayonida o‘tkazilishi mumkin.

Olib qo‘yish va tintuv o‘tkazish tartibi. Olib qo‘yish yoki tintuv o‘tkazishdan avval dastlabki tayyorgarlik harakatlarini o‘tkazish lozim. Bu

harakatlar qatoriga ushbu tergov harakatlari xavfsiz va kutilgan natijali bo'lishi uchun tegishli rejali chora-tadbirlar ishlab chiqilishi va har bir bu tergov harakatida ishtirok etuvchi xodimning huquq va majburiyatlari aniqlashtirilishi va asosiy maqsad barcha uchun to'g'ri o'zlashtirilgan bo'lishini talab qiladi. Tegishli texnik-kriminalistik vositalar ham tayyor holatga keltirilib qo'yilishi talab qilinadi.

Agar tintuv to'g'risida ogohlantirilgan shaxs qaror bilan tanishib chiqqandan so'ng tegishli qarorda qayd etilgan predmet va ashyolarni taqdim etib ixtiyoriy ravishda ularni tergovchiga berish hohishini izhor qilsa, tintuv olib qo'yishga aylanadi va tergovchi shu vaziyatda tintuv qilish bayonnomasi o'rniga olib qo'yish bayonnomasini qayd etishi kerak.

Tintuv yoki olib qo'yishning ijobiy o'tishi tintuv yoki olib qo'yish o'tkaziladigan shaxslar to'g'risidagi tegishli ma'lumotlarni to'liq ravishda yig'ilishiga asosan bog'langan (bu shaxslarning yoshi, oilaviy holati, qanday kasb bilan shug'ullanishi, ayblanuvchi yoki gumon qilinuvchi bilan bo'lgan munosabati, u bilan birga istiqomat qiluvchi shaxslar to'g'risida bo'lgan axborot, ular bilan bo'lgan munosabatlari, ishda va oilada bo'lgan xatti-harakatlari va qanday ko'nikma va mahoratlarga egaligi to'g'risidagi ma'lumotlar, nimaga moyillik ko'rsatishi to'g'risidagi axborotlar, qurol va transportga ega bo'lishi to'g'risidagi ma'lumotlar v.h.).

Tintuv o'tkazishdan avval tintuv o'tkaziladigan bino va xonadon to'g'risidagi mukammal axborotlarni to'plab olish zarur. Agar tergovchi tintuv qilinaotgan shaxsdan uni ixtiyoriga ko'ra tegishli obyektlar olgan bo'lsa-da, ammo bu shaxsda ish bo'yicha yana boshqa muhim predmetlar mavjudligiga shubha qilsa, u holda olib qo'yish emas, balki tintuv o'tkaziladi.

Amaliyotdan misol: Avtomobillarning yopiq to'xtash joyida qasddan yong'in chiqarish oqibatida 12 ta avtobus, 7 ta yengil avtomashina, 9 ta yuk mashina yonib ketishi fakti bo'yicha qo'zg'atilgan jinoyat ishi prokuratura tergovchisining ish yurituviga topshirildi. Yonib ketgan avtomashinalarning hujjatlarini tekshirish uchun tergovchi avtokorxonaga keladi va uning boshlig'i Mirzayevdan voqea tafsilotlari bo'yicha tushuntirish berishini talab qiladi. Shundan so'ng Mirzayev tungi soat 23:00 atrofida, ya'ni yong'in boshlanishidan chamasi bir soat oldin avtomobillarning yopiq to'xtash joyidagi xonalarning birida ushbu yong'inni sodir etishda gumon qilinayotgan chilangar Nizomovni ko'rganligi haqida ma'lumotni haydovchilardan olganligini aytadi. Tergovchi darhol Nizomovning xonadonida tintuv o'tkazish to'g'risida qaror chiqaradi va o'zi bilan hodisa joyini ko'zdan kechirishda qasddan yong'in chiqarish uchun foydalanilgan qopning yonib ulgurmagan qoldiqlarini oladi. Nizomovning uyida avtokolonna boshlig'i va mexanik ishtirokida tintuv o'tkazilishi natijasida uning uyidagi yordamchi xonalarning birida o'tinlar ostidan qopning qoldiqlari va mazut solingan kichkina chelak va unda maxsus tayyorlangan og'irligi 4 kg. yog'langan lattalar topildi. Tergovchi ularni qog'ozga o'rab olib ketishga tayyorlaydi. O'tkazilgan tergov harakati haqida tergovchi 2 nusxada bayonnoma tuzdi, ammo Nizomovning uyida uning 14 yoshli qizidan boshqa hech kim bo'lmaganligi sababli, tintuv bayonnomasining nusxasini qoldirmadi hamda o'zi bilan olib ketdi.

Tintuv qilinayotgan shaxsning oila a'zosi ham ko'pincha uyda mavjud bo'lgan barcha ashyo, predmet va hujjatlar to'g'risida to'liq xabardor bo'lmasligi mumkin. Agar tintuv qilinadigan shaxs biron xonani yoki obyektini ochishga to'sqinlik qilsa va kalitini bermasa va uni sindirib kirish zaruriyati tug'ilsa tergovchi quyidagi harakatlarni amalga oshirishi zarur:

a) O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 161-moddasi 9-bandi tintuv qilinayotgan shaxsga tushuntirilishi uning g'ayriqonuniy harakatlarini ta'riflab, unga shu band to'la o'qib berilishi lozim va kalitni berishini talab qilish kerak hamda bu bayonnomada qayd etilishi lozim;

b) ushbu xonalarni ochishda tegishli mutaxassislarni taklif qilib, eshiklarni sindirmasdan ochish harakatlari amalga oshiriladi, agar bu harakatlar natija bermasa, u holda eshiklar buzib ochilishi kerak, eshiklarga imkon qadar kam zarar etkazilib bu xonalar ochilishi lozim.

Agar tintuv qilinadigan shaxs qo'shnilari bilan birga hovlining ma'lum joyidan foydalanib kelgan bo'lsa, u holda ushbu fuqaroning turar joyi, hovlisidagi umumiy ravishda foydalanadigan joylari ham tintuvdan o'tkazilishi lozim. Bunday harakatlar bu fuqaro bilan birga yashaydigan shaxslarga unga g'ayriqonuniy yordam berish hollarini bartaraf etishga imkon yaratadi.

Tintuv o'tkazishdan avval tintuvda ishtirok etuvchi barcha shaxslarning protsessual huquq va majburiyatlari tushuntiriladi va bu haqda bayonnomada ularning imzolari qo'yiladi. Tintuv harakatlari o'tkazilgandan so'ng yoki tintuv o'tkazish jarayonida tergovchi, surishtiruvchi tegishli bayonnomani qayd etadi va u tintuv yoki olib qo'yishni o'tkazish bayonnomasiga qo'yilgan barcha talablarga rioya qilishi kerak.

Tintuvning obyektini bo'yicha turlari:

- 1) shaxsiy tintuv;
- 2) xonalarda tintuv qilish;
- 3) ochiq joyni tintuv qilish;
- 4) transport vositalarini tintuv qilish.

Tintuv o'tkazish vaqti bo'yicha turlari:

- 1) bir vaqtda bir necha joyda tintuv o'tkazish;
- 2) turli vaqtlarda tintuv qilish.

Shaxsiy tintuv va olib qo'yish. Shaxsning tintuv va olib qo'yishda shaxsning o'zini, uning ustida bo'lgan ustki va ichki kiyimlarni, ba'zi holatlarda zarur bo'lsa, uning badanini tintuv qilish harakatlaridan iborat.

Shaxsiy tintuv va olib qo'yish O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 157-161 moddalarda nazarda tutilgan qoidalarga asosan o'tkazilishi kerak, ammo O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 162-moddasi 2-qismida ko'rsatilgan vaziyatlarda maxsus qaror (maxsus ajrim) chiqarmasdan ham shaxsiy tintuv va olib qo'yish o'tkazish mumkin. Shaxsiy tintuv dastlabki va qayta tintuv tarzida bo'lishi mumkin. Dastlabki shaxsiy tintuv xavfsizlik choralari amalga oshirish uchun o'tkaziladi va shaxsdan o'qotar, sovuq qurol yoki boshqa o'tkir va qirrali predmetlarni, giyohvan moddalarni ishga talluqli bo'lgan hujjatlar, shaxsiy guvohnomalar va boshqa predmetlarni olib qo'yish maqsadida o'tkaziladi. Qimmatbaho narsalarni aniqlash uchun ham shu maqsadda shaxsiy tintuv o'tkaziladi. Shaxsni tegishli joyga so'roq uchun olib kelganda ham uni qaytadan shaxsiy tintuv qilish mumkin va bu harakat mukammal bo'lishi lozim.

Tintuv qilingan shaxsning o'zida bo'lgan hujjatlari va narsalari ham ko'zdan kechirilishi shart. Shaxsiy tintuv o'tkazish vaqtida tintilayotgan shaxsning o'zini tutishiga va harakatlariga e'tibor bermoq zarur, aks holda u o'zida bo'lgan jinoyatga aloqador yoki g'ayriqonuniy narsa va hujjatlarni tashlab yuborishi mumkin.

Shaxsiy tintuv va olib qo'yish o'tkazayotgan vaqtda shu harakat o'tkazilayotgan shaxsning xavfsizligi va sog'lig'iga zarar etmasligi uchun tegishli choralar ko'rish zarur.

Olib qo'yish turlari:

a) pochta-telegraf jo'natmalarini olib qo'yish;

b) davlat siri bo'lgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan hujjatlarni olib qo'yish. Tergovchining jo'natmalarini xatlab qo'yish va pochta-telegraf muasasalarida ularni olib qo'yish haqidagi qarori prokuror sanksiyasi talab qilinadi. (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 186-modda).

Olib qo'yish yoki tintuvning natijalarini rasmiylashtirish xususiyatlari. Tintuv o'tkazish va olib qo'yishning asosiy qayd etish vositasi – bayonnomadir. Olib qo'yish yoki tintuv o'tkazishni qayd etib, bayonnoma tuzganda O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 90 va 91-moddalarning talabiga to'la rioya qilinishi lozim. Bayonnoma tintuv yoki olib qo'yish harakatlarini tugatgandan so'ng aynan shu tergov harakatini o'tkazish joyida tuzilishi kerak. Agar tintuv bayonnomasiga tintuv qilingan shaxs o'z imzosini qo'yishdan bosh tortsa, u holda xolislar va tergovchi ushbu fakti bayonnomada qayd etib, tasdiqlaydilar.

Bayonnomaning yakunlovchi qismida, shuningdek bayonnomaga qanday sxemalar, qoliqlar ilova qilinganligi, tintuv qatnashchilarining qanday ariza, shikoyat yoki e'tirozlari tushganligi, xolislarning takliflari, mutaxassislarning bergan tushuntirishlari qayd etilishi kerak.

Olib qo'yish bayonnomasida esa tergovchi, surishtiruvchi qachon, qayerda, qaysi shaxslar ishtirokida olib qo'yishni o'tkazganligi, qanday obyektlar olib qo'yilganligi qayd etiladi. Bayonnomada qanday obyektlar olinganligi, ularning to'liq ro'yxati va alohida belgilari, xususiyatlari qayd etiladi. Olib qo'yishda ishtirok etuvchi shaxslarga avvalambor ularning protsessual huquq va majburiyatlari tushuntirilishi lozim. Bayonnoma ushbu shaxslarning imzosi bilan voqelikda bo'lgan harakatlarni shu hujjatda to'liq qayd etilganligi to'g'risida tasdiqlovchi belgi bo'lib xizmat qiladi. Agar shaxslar olib qo'yish paytida tergovchining harakatlari ustidan tegishli e'tirozlar, shikoyatlar bildirsalar ushbu e'tiroz va shikoyatlar majburiy ravishda bayonnomada qayd etilishi kerak.

Olib qo'yishda qimmatbaho narsalar olinadigan bo'lsa, ushbu qimmatbaho narsalar uchun moddiy javobgarlik shaxsning ishtirokini ta'minlab berish kerak.

Olib qo'yish, tintuvning tarkibiy qismi emas va o'zi mustaqil harakat sifatida ifodalanadi.

Diplomatiya vakolatxonalarining binolaridan va diplomatiya vakillaridan olib qo'yish yoki ularda tintuv o'tkazish. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 165-moddasiga muvofiq **diplomatiya vakolatxonalarining binolaridan va diplomatiya vakillardan olib qo'yish yoki ularda tintuv o'tkazish** ushbu diplomatik vakolatxonalarining rahbarlari va diplomatiya vakillarining roziligiga binoan o'tkazilishi zarur, aks holda bu joylarda olib qo'yish yoki tintuv o'tkazish mumkin emas. Agar xorijiy shaxs diplomatiya daxlsizligiga ega bo'lmasa, u holda uning turar joyida tintuv yoki olib qo'yish o'tkazish tergov harakatlari uning roziligisiz ham o'tkazilishi mumkin, ammo bu to'g'risida 24 soat ichida diplomatiya vakolatxonaning rahbariga (tegishli xorijiy mamlakatning favqulodda va muxtor elchisiga) xabar berish kerak.

Diplomatiya vakolatxonalarining binolarida va diplomatiya vakillarida tintuv yoki olib qo'yish harakatlarini o'tkazish vakolatxonalarda istiqomat qiluvchi va diplomatiya daxlsizligiga ega bo'lgan shaxslarning roziligiga asosan o'tkaziladi va bu rozilik O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi orqali so'raladi.

Diplomatik vakolatxonalarining binolarida va diplomatik vakillarda tintuv yoki olib qo'yish o'tkazishda surishtiruvchi, tergovchidan va

xolislardan tashqari ushbu vakolatxonaning rahbari (Favqulodda va muxtor elchi) va O‘zbekiston Respublikasining Bosh prokurori hamda O‘zbekiston Respublikasining Tashqi ishlar vaziri yoki uning o‘rinbosari ishtirok etishi shart.

7.12.Pochta-telegraf jo‘natmalarini xatlab qo‘yish, ko‘zdan kechirish va olib qo‘yish

(Muallif – U.T.Turg‘unov)

Pochta-telegraf jo‘natmalarini yoki ularning ayrimlarini xatlab qo‘yish - gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi boshqa shaxslarga yuborgan yoxud boshqa shaxslar gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga, sudlanuvchiga yuborgan pochta-telegraf jo‘natmalarida sodir etilgan jinoyatga doir ma‘lumotlar yoki ish uchun ahamiyatga molik hujjatlar va buyumlar bor deb gumon qilish uchun yetarlicha asoslar bo‘lganda o‘tkaziladigan tergov harakatidir.

Pochta-telegraf jo‘natmalarini xatlash to‘g‘risidagi qaror yoki ajrimda: jo‘natmalari ushlab turilishi lozim bo‘lgan shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi; bu shaxsning aniq manzili; xatlanayotgan pochta-telegraf jo‘natmalarining turi; xatlash chorasining muddati; jo‘natmalarni ushlab turish va bu haqda surishtiruvchi yoki tergovchiga ma‘lum qilish qaysi aloqa muassasasiga yuklatilganligi ko‘rsatilishi lozim.

Sud ajrimida pochta-telegraf jo‘natmalarini sudga etkazib berish haqida aloqa muassasasiga ko‘rsatma berilishi lozim.

Pochta-telegraf jo‘natmalarini xatlash haqidagi qaror yoki ajrim tegishli aloqa muassasasining boshlig‘i nomiga yuboriladi va uni bajarish mazkur boshliq uchun majburiydir. Bu qarorni yoki ajrimni bajarmaslik yoki uning oshkor etilishi qonunda belgilangan javobgarlikka sabab bo‘ladi.

Xatlab qo‘yilishi mumkin bo‘lgan pochta-telegraf jo‘natmalariga quyidagilar kiritiladi:

- barcha turdagi xatlar;
- telegrammalar;
- radiogrammalar;
- banderollar;
- posilkalar;
- pochta konteynerlari.

Aloqa muassasasining boshlig‘i surishtiruvchi, tergovchining qarorida yoki sudning ajrimida ko‘rsatilgan xat-xabarlar va boshqa jo‘natmalarni

ushlab turadi hamda bu haqda surishtiruvchi, tergovchi yoki sudga darhol ma'lum qiladi.

Pochta-telegraf jo'natmalarini xatlab qo'yish to'g'risidagi qaror yoki ajrim chiqarilgandan so'ng u bevosita ijro etilishi kerak, buning uchun pochta-telegraf jo'natmalari ko'zdan kechirilib olib qo'yiladi.

Pochta-telegraf jo'natmalarini xatlab qo'yish bu jo'natmalarni ularni olish huquqiga ega bo'lgan shaxsga yuborilishini taqiqlaydi. Pochta-telegraf muassasasining tashabbusiga ko'ra bu hujjatlar ularni xatlab qo'ygan organning ruxsatisiz bu hujjatlarni oluvchi shaxsga yuborilishi hollarida javobgarlik ularni yuborgan xodimga yuklatiladi.

Jo'natmalarni xatlab qo'yish ularni:

- a) ko'zdan kechirish;
- b) olib qo'yish;
- v) manfaatdor shaxslarning o'zaro xabarlashuvlariga chek qo'yish;
- g) jinoyat sodir etishda qatnashgan shaxslarni aniqlash;
- d) jinoyat sodir qilgan va qidiruvda bo'lgan shaxslarning yashiringan joylarini aniqlash;
- e) jinoyat qurollari va o'g'irlangan narsalarni topish maqsadlarida o'tkaziladi.

Jo'natmalarni xatlash faqat gumon qilinuvchi va ayblanuvchi hamda ular bilan bog'liq shaxslarga nisbatangina qo'llaniladi.

Pochta-telegraf jo'natmalarini ko'zdan kechirish va olib qo'yish. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 167-moddasiga muvofiq surishtiruvchi yoki tergovchi aloqa muassasasiga borib, ushlangan pochta-telegraf jo'natmalarini xolislar ishtirokida, zarurat bo'lganda esa, tegishli mutaxassis ishtirokida ochib, ko'zdan kechiradi. Ish uchun ahamiyatga molik ma'lumotlar, hujjatlar, narsalar topilgan taqdirda, surishtiruvchi, tergovchi pochta-telegraf jo'natmalarini olib qo'yadi yoxud ulardan nusxa ko'chirish bilan chegaralanadi. Agar ko'zdan kechirilgan jo'natmalarda ish uchun ahamiyatga molik ma'lumotlar, hujjatlar, narsalar bo'lmasa, surishtiruvchi, tergovchi ularni egalariga yetkazish yoki o'zi belgilagan muddatgacha ushlab turish haqida ko'rsatma beradi.

Ushlangan jo'natmalar ko'zdan kechirilgan har bir holda bayonnoma tuzilib, unda qaysi pochta-telegraf jo'natmalari ko'zdan kechirilganligi, nimalar olinganligi va nimalar egalariga yuborilishi, nimalar esa vaqtincha ushlab qolinishi kerakligi, qaysi jo'natmalardan nusxalar olinganligi ko'rsatilishi lozim. Bayonnoma O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 90-92-moddalarida nazarda tutilgan talablarga rioya etilgan holda tuziladi.

Har qanday jo'natma:

– oddiy, qimmatbaho, buyurtma xatlar, telegrammalar, banderollar, posilkalar, otkritkalar xatlab qo'yishligi, ko'zdan kechirilishi va olib qo'yilishi mumkin. Pochta-telegraf xat-xabarlari va jo'natmalari chiqib ketayotgan hamda kirib kelayotgani ham xatlanishi kerak. Xatlab qo'yish muddati dastlabki tergov muddatidan oshmasligi lozim.

Ish uchun ahamiyatli bo'lgan ma'lumotlar, hujjatlar, ashyolar topilgan taqdirda surishtiruvchi, tergovchi pochta-telegraf jo'natmalarini olib qo'yadi yoxud ulardan nusxa ko'chirish bilan chegaralanadi. Nusxa ko'chirish kseroks orqali amalga oshirilishi zarur, chunki hujjatning asl nusxasi kseroksda nusxalashtirilganda uning nusxasi ushbu hujjatning kriminalistik aynanligiga mansub bo'lgan belgilarini yo'qotmaydi. Kseroksda olingan nusxa to'la ravishda daliliy ahamiyatga ega bo'ladi. Kseroks ishlatilganligi to'g'risida ko'zdan kechirish va olib qo'yish bayonnomasida qayd etish kerak va uning texnik parametrlari ham qayd etilishi kerak.

Jo'natmalarni olib qo'yish va ko'zdan kechirishda tergovchi ularning mazmunini sir saqlash choralari ko'rishi lozim. Aks holda fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish prinsipi buzilgan hisoblanadi. Pochta-telegraf jo'natmalarini olib qo'yish va ko'zdan kechirish ikki kishidan kam bo'lmagan, shu muassasada ishlovchi xolislar ishtirokida o'tkazilishi lozim. Bu esa jo'natmalarning mazmuni sir saqlanishining kafolati hisoblanadi.

Ishga aloqador bo'lmagan pochta-telegraf jo'natmalarini tergovchi, surishtiruvchi ko'zdan kechirgach va nusxasini olgach, egalariga yetkazishi yoki o'zi belgilangan muddatgacha ushlab turish haqida ko'rsatma berishi mumkin.

Pochta-telegraf jo'natmalarini ko'zdan kechirish va olib qo'yish bayonnomasi tuzilishi kerak va u O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 90-92-moddalarning talablariga to'la rioya qilishi lozim. Ushbu bayonnomada ko'zdan kechirilgan va olib qo'yilgan obyektlar to'liq tavsif etilishi tasdiqlanishi lozim.

7.13. Telefon va boshqa so‘zlashuv qurilmalari orqali olib boriladigan so‘zlashuvlarni eshitib turish.

(Muallif – yu. f.n. Sh.A.Kulmatov)

Telefon va boshqa so‘zlashuv qurilmalari orqali olib boriladigan so‘zlashuvlarni eshitish surishtiruvchi yoki tergovchiga jinoyat ishi bo‘yicha manfaatdor bo‘lgan shaxslar ularga nisbatan ta‘magirlik, o‘ldirish, tan jarohati yetkazish va mulkiga zarar yetkazish bilan yoki boshqa shaxsga qarshi jinoyatlarni sodir etish bilan qo‘rqitish orqali biron moddiy manfaatga ega bo‘lish maqsadini ko‘zlaydigan jinoyatlar to‘g‘risida murojaat qilganda hamda odil sudlovga qarshi boshqa jinoyatlarni ochish maqsadida o‘tkaziladigan tergov harakatidir.

Ish bo‘yicha to‘plangan dalillar ish uchun ahamiyatga molik xabarlarni olish mumkinligiga etarli darajada asos bo‘la olsa, tergovchi telefon va boshqa so‘zlashuv qurilmalari orqali olib boriladigan so‘zlashuvlarni eshitib turish to‘g‘risida qaror chiqarishga haqlidir (O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 169-modda).

Telefon so‘zlashuvlari - abonentlar o‘rtasida, shuningdek shaharlararo va radiorele, yuqori to‘lqinli va kosmik aloqa orqali olib boriladigan so‘zlashuvlardir.

Boshqa so‘zlashuv qurilmalari deganda esa selektor-o‘tkazuvchi, radio va og‘zaki nutqni boshqa yo‘llar orqali ma‘lum masofaga yuborish imkoniyatiga ega qurilmalar tushuniladi. Bu qurilmalardagi so‘zlashuvlarni eshitishda O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 21-bobida qayd etilgan qoidalarga bo‘ysunish lozim.

Telefon va boshqa so‘zlashuv qurilmalari orqali olib boriladigan so‘zlashuvlarni eshitib turish uchun tintuv natijalari, guvohning, jabrlanuvchining ko‘rsatuvlari, ko‘zdan kechirilgan pochta-telegraf jo‘natmalari, SMS xabarlari, videoyozuvlari yozma ma‘lumotlar asos bo‘la oladi. Faqat magnit tasmaga yozilgan telefon va boshqa so‘zlashuv qurilmalari yordamida olib boriladigan so‘zlashuvlar doimiy ahamiyatga ega. Demak, bir tomonlama eshitiladigan (diktofon, ratsiya va shunga o‘xshash) vositalar orqali olingan ma‘lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 21-bobida nazarda tutilgan telefon va boshqa so‘zlashuvlar qurilmalari orqali olib boriladigan so‘zlashuvlarni eshitish tergov harakatini o‘tkazish yo‘li bilan olingan deb hisoblanmaydi. Zero, mazkur vositalardan ko‘pincha tezkor-qidiruv tadbirlarni o‘tkazish

chog'ida foydalaniladi va ular bir tomonlama eshitish yoki so'zlashish uchun mo'ljallangan.

Biroq, misol uchun qo'l telefonlari ashyo sifatida tergovchiga taqdim etilsa, u holda narsa va hujjatlarni taqdim qilish to'g'risida tuzilgan bayonnomada ko'zdan kechirish natijalari qatorida tashqari ular ko'magida amalga oshirilgan audioyozuv ham qayd etiladi. Audioyozuvdagi tovushning aynanligini aniqlash maqsadida fonoskopik, shuningdek audiomontaj qilinmaganligini istisno etish uchun kriminalistik ekspertizalar tayinlanishi ashyo sifatida qabul qilingan qo'l telefondagi audioyozuvni dalilga aylantiradi.

Telefon va boshqa so'zlashuv qurilmalari orqali olib boriladigan so'zlashuvlarni eshitish kechiktirib bo'lmaydigan tergov harakatlari qatoriga kiradi va bu tergov harakatlarini tergovchi o'tkazish huquqiga ega va uni milliy xavfsizlik xizmati organlari amalga oshiradi.

Ushbu tergov harakatini o'tkazish uchun tergovchi qaror chiqaradi va bu qaror prokuror ruxsatiga asosan kuchga kiradi (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 169-modda).

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchining telefon va boshqa so'zlashuv qurilmalari orqali olib boriladigan so'zlashuvlarini eshitib turish prokurorning sanksiyasi asosida tergovchi chiqargan qarorga binoan amalga oshiriladi.

Jabrlanuvchiga, guvohga, shuningdek ularning qarindoshlari va yaqinlariga nisbatan kuch ishlatish, tovlamachilik yoki boshqa qonunga xilof harakatlar sodir etish xavfi mavjud bo'lsa, bu shaxslarning arizalari bo'yicha yoki ularning yozma roziligi va prokurorning sanksiyasi bilan yoxud sudning ajrimiga ko'ra ularning telefon yoki boshqa so'zlashuv qurilmalari orqali bo'ladigan so'zlashuvlarini eshitib turish amalga oshirilishi mumkin.

Tergovchi kechiktirib bo'lmaydigan hollarda, prokurorni zudlik bilan yozma ravishda xabardor etish sharti bilan, uning sanksiyasisiz so'zlashuvlarni eshitib turish to'g'risidagi qarorni Milliy xavfsizlik xizmati organlariga yuborishga haqlidir. Prokurorning sanksiyasisiz so'zlashuvlarni eshitib turish to'g'risidagi qaror 24 soat davomida qonuniy kuchga ega bo'ladi.

Telefon va boshqa so'zlashuv qurilmalari orqali olib boriladigan so'zlashuvlarni eshitib turish to'g'risidagi qaror yoki ajrim unda eshitaladigan axborotlar xususiyati va hajmi, shuningdek so'zlashuvlarni eshitib turishning borishini va natijalarini qayd etish shakli belgilanib, milliy

xavfsizlik xizmati organlariga ijro etish uchun yuboriladi. Soʻzlashuvlarni eshitib turish olti oydan ortiq davom etishi mumkin emas.

Telefon va boshqa soʻzlashuv qurilmalari orqali olib boriladigan soʻzlashuvlarni eshitib turish chogʻida ovoz yozish moslamalari qoʻllanilishi lozim. Soʻzlashuv fonogrammasi aks ettirilgan magnit tasmasi tergov harakati bayonnomasiga qoʻshib qoʻyilishi lozim (Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 170-modda).

Bevosita telefon va boshqa soʻzlashuv qurilmalari orqali olib boriladigan soʻzlashuvlarni eshitish harakatlari milliy xavfsizlik xizmati organlariga yuklatilgan.

Agar kechiktirib boʻlmas holat yuzaga kelib, surishtiruvchi yoki tergovchi telefon va boshqa soʻzlashuv qurilmalari orqali olib boriladigan soʻzlashuvlarni eshitish harakatini zudlik bilan oʻtkazishi kerak boʻlsa, u holda ular qaror chiqarib, uni milliy xavfsizlik xizmati organlariga yuborish huquqiga egadirlar, ammo bu toʻgʻrida surishtiruvchi yoki tergovchi prokurorni 24 soat ichida xabardor qilishi lozim, prokuror ushbu qarorga ruxsat berganligi toʻgʻrisida milliy xavfsizlik xizmati organiga tegishli maʼlumotnoma yuborib, ushbu harakatlarning davom ettirilishiga ruxsat beradi. Surishtiruvchi yoki tergovchi tomonidan chiqarilgan qaror bir sutka davomida qonuniy kuchga ega va milliy xavfsizlik organi shu muddat tugaganidan soʻng ushbu qarorni bajarmaslik huquqiga ega.

Telefon va boshqa soʻzlashuv qurilmalari orqali olib boriladigan soʻzlashuvlarni eshitish jarayoni olti oydan ortiq davom etishi mumkin emas. Agar dastlabki tergovda shunday tergov holati vujudga kelib, telefon va boshqa soʻzlashuv qurilmalari orqali olib boriladigan soʻzlashuvlarni eshitishni davom ettirish zarurati boʻlsa, u holda tergovchi, surishtiruvchi bu toʻgʻrida asoslantirilgan qaror chiqaradi va prokurorning ruxsatini olib, ushbu harakatlarni umumiy hisobda uzogʻi bilan 6 oygacha davom ettirishlari mumkin. Bu toʻgʻrida milliy xavfsizlik xizmati organlariga ushbu qarorni yuborib, tegishli natijalarni jarayon ichida qoʻlga kiritishlari mumkin.

Telefon va boshqa soʻzlashuv qurilmalari orqali olib boriladigan soʻzlashuvlarni eshitib turish natijalarini protsessual rasmiylashtirish. Telefon va boshqa soʻzlashuv qurilmalari orqali olib boriladigan soʻzlashuvlarni eshitish jarayonida ovoz yozish moslamalari qoʻllaniladi. Ularning texnik parametrlari soʻzlashuvlarni eshitib turish bayonnomasida

to'liq qayd etilib, bayonnomaga so'zlashuv fonogrammasi qo'shib qo'yilishi lozim.

Telefon va boshqa so'zlashuv qurilmalari orqali olib boriladigan so'zlashuvlarni eshitish tergov harakati tegishli jinoyat ishi qo'zg'atilgandan so'ng amalga oshiriladi (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 170-modda).

Eshitib turish va ovoz yozishni amalga oshirgan shaxs ishga aloqador so'zlashuvlar fonogrammasi mazmunining qisqacha bayonnomasini tuzadi. Fonogramma muhrlanadi va bayonnomaga qo'shib qo'yiladi, uning ish uchun ahamiyatli bo'lmagan qismi hukm qonuniy kuchga kirganidan keyin yo'q qilinadi.

Eshitib turish va ovoz yozish bayonnomasida abonent raqami, eshitib turish va ovoz yozish vaqti va joyi, foydalanilgan texnikaviy vositalar turi va modeli, bu ishlarni amalga oshirgan shaxslarga oid ma'lumotlar hamda ish uchun ahamiyati bo'lishi mumkin deb hisoblangan boshqa ma'lumotlar aks ettiriladi (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 171-modda).

Milliy xavfsizlik xizmati organining xodimi telefon va boshqa so'zlashuv qurilmalari orqali olib boriladigan so'zlashuvlarni eshitish bayonnomasini qisqa tarzda tuzadi.

Agar so'zlashuv jarayoni bo'yicha ishga taalluqli muhim jumladan tashqari boshqa ishga aloqador bo'lmagan jumlar uchramagan bo'lsa, u holda bayonnomada bu so'zlashuvning butun matnini keltirishi kerak.

Bayonnomada abonentning raqami, qachon va qayerda so'zlashuv eshitilganligi, eshitish va ovozga qayd etish vositalarining texnik ko'rsatkichlari, ishga bayonnomani va harakatni olib borganda kimlar ishtirok etganliklari, ishga taalluqli boshqa axborotlar qayd etilishi lozim bo'ladi. Magnit tasma ega fotokasseta ushbu so'zlashuvning fonogrammasi bilan bayonnomaga ilova qilinib, o'raladi va muhrlab, eshitilgan so'zlashuv qachon boshlanib qachon tugagan vaqti belgilanadi va bu ma'lumotlar imzolar bilan tasdiqlanib surishtiruvchi yoki tergovchiga beriladi.

Bayonnoma va unga ilova qilingan fonogramma (telefon va boshqa so'zlashuv qurilmalari orqali olib boriladigan so'zlashuvlarni eshitish fonogrammasi) surishtiruvchi yoki tergovchiga 24-bobda qayd etilgan tartibda ashyolar hamda hujjatlarni taqdim etish qoidalariga ko'ra topshiriladi va 25-bobga asosan ashyo va hujjatlarni ashyoviy va yozma dalil sifatida ishga qo'shish qoidalariga asosan ashyoviy dalil sifatida tan olinadi. Ushbu tergov harakatida ishtirok etgan xolislar milliy xavfsizlik

xizmati organi tomonidan jalb etilgan bo‘lib, ishga aloqador bo‘lmashliklari kerak, ammo bevosita ushbu organ xodimlari sifatida ishlayotgan bo‘lib, xolis sifatida jalb etilishlari mumkin (davlat va xizmat sirlarini oshkora etmaslik talablariga binoan).

Telefon va boshqa so‘zlashuv qurilmalari orqali olib boriladigan so‘zlashuvlarni eshitish bayonnomasi O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 90 va 91-moddalarida qayd etilgan qoidalariga rioya qilingan holda tuzilishi shart.

7. 14. Ekspertiza (muallif – A.R.Matmurotov)

Ekspertiza – maxsus bilimlarni talab etadigan va surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning qarori yoki sudning ajrimi asosida o‘tkazadigan tekshiruv hisoblanadi. Mazkur tergov harakati ish uchun ahamiyatli holatlar haqidagi ma’lumotlarni fan, texnika, san’at yoki kasb sohasi bo‘yicha bilimi bo‘lgan shaxs o‘tkazadigan maxsus tekshirish orqali olish mumkin bo‘lganda ekspertiza tayinlanadi. Surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sudya, mutaxassislar, xolislarining bunday bilimlarga ega bo‘lishi ekspertiza tayinlash zaruratidan ozod etmaydi.

Ish uchun ahamiyatli holatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni fan, texnika, san’at yoki kasb sohasi bo‘yicha bilimi bo‘lgan shaxs o‘tkazadigan maxsus tekshirish orqali olish mumkin bo‘lganda **ekspertiza** tayinlanadi.

Ekspert oldiga qo‘yilgan savollar va uning bergan xulosasi ekspertning maxsus bilimlari doirasidan tashqari chiqishi mumkin emas. Mazkur maxsus bilimlarga bo‘lgan ehtiyoj juda baland va muhim ahamiyat kasb etuvchi bir qator holatlar mavjud bo‘lib, ular O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 173-moddasida bayon etilgan.

Amaliyotdan misol: 2014-yilning 06-mart kuni soat 21-30 larda Toshkent shahar Chilonzor tumani Bunyodkor shox ko‘chasida harakatlanib kelayotgan D.Sobirovga tegishli bo‘lgan “Nexia” rusumli davlat belgili 01 A143FA mashinasi T.Qayumov boshqaruvida bo‘lgan “Matiz” rusumli davlat belgili 01 F468AB mashinasi bilan to‘qnashib ketgan. Natijada “Nexia” haydovchisi va undagi 2 nafar yo‘lovchi vafot etgan. Holat yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 266-moddasi 2-qismi bilan jinoyat ishi qo‘zg‘atiladi va avto halokat hodisa qorong‘u paytda sodir etilganligi va guvohlar bo‘lmaganligi sababli ekspertiza tayinlandi. Natijada avto halokatga “Nexia” avtomashinasi haydovchisi D.Sobirov sababchi ekanligi aniqlanib, tergov organlari tomonidan aniq dalillar asosida qonuniy to‘xtamga kelish imkoniyatini berdi.

Ekspert sifatida davlat sud-ekspertiza muassasasi eksperti, boshqa korxonalar, muassasalar, tashkilot xodimi yoki boshqa jismoniy shaxs ishtirok etishi mumkin.

Belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan shaxslar, shuningdek qasddan sodir etgan jinoyatlari uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan shaxslar ekspert sifatida jalb qilinishi mumkin emas.

Surishtiruvchi, tergovchi, sudning ekspert etib tayinlangan shaxsni chaqirish va uning ekspertiza o'tkazishi to'g'risidagi talabi ushbu shaxs ishlayotgan korxonalar, muassasalar, tashkilot rahbari uchun majburiydir.

Ashyoviy dalillar, ekspert tekshiruvlari uchun namunalari, boshqa moddiy obyektlar, murdalar va ularning qismlari, hujjatlar, shuningdek ekspertiza o'tkazilayotgan ish materiallari tekshirish obyektlari bo'lishi mumkin. Ekspert tekshiruvlari tirik odamlarga nisbatan ham o'tkaziladi.

Ekspertiza tugallanganidan keyin tekshirish obyektlari, agar ular to'la ishlatilgan bo'lmasa, ekspertizani tayinlagan organga (shaxsga) qaytariladi.

Ekspertizaning jinoyat-protsessual turlari o'tkazilishi ketma-ketligi (birlamchi, qayta va qo'shimcha ekspertiza), tadqiqot ish hajmi (yakka shaxs tomonidan o'tkaziladigan yoki komissiyaviy ekspertiza), foydalanish lozim bo'lgan bilimlar ko'lami (bir turdagi yoki kompleks ekspertiza) kabi asoslarga tayanib tasniflanadi.

1. Jinoyat ishlari bo'yicha ekspertiza o'tkazilish ketma-ketligiga ko'ra, birlamchi, qo'shimcha va qayta ekspertizaga bo'linadi:

Birlamchi ekspertiza – aniq jinoyat ishidagi muayyan holat yuzasidan surishtiruvchi, tergovchi, prokuror qarori yoki sud ajrimi asosida o'tkazilgan birinchi marotaba o'tkazilgan ekspertiza.

Qo'shimcha ekspertiza – ekspert (ekspertlar komissiyasi) xulosasidagi bo'shliqlarning o'rnini to'ldirish uchun tayinlanadi va shu yoki boshqa ekspert (ekspertlar komissiyasi) tomonidan o'tkaziladi.

Qayta ekspertiza – ekspertning (ekspertlar komissiyasining) xulosasi asoslantirilmagan yoki uning to'g'riligiga shubha tug'ilganda yoxud unga asos qilib olingan dalillar ishonchli emas deb topilganda yoki ekspertiza o'tkazilishning protsessual qoidalari jiddiy buzilganda o'tkaziladigan ekspertiza turi hisoblanadi.

2. Tadqiqot ish hajmiga ko'ra ekspertiza quyidagi turlarga bo'linadi:

Yakka shaxs tomonidan o‘tkaziladigan ekspertiza – ekspertiza tadqiqoti aniq bir ekspert tomonidan o‘tkaziladi va xulosa ham shu ekspert tomonidan tuziladi, xulosa yuzasidan javobgarlik ham shu ekspert zimmasiga yuklanadi. Yakka shaxs tomonidan o‘tkaziladigan ekspertizalar qatoriga birlamchi, qo‘shimcha, qayta ekspertizalarni kiritish mumkin.

Komissiyaviy ekspertiza – bu ko‘p obyektli bir turdagi ekspertiza tadqiqotining o‘tkazilishi hisoblanib, ushbu ekspertiza turi bir necha ekspertlar tomonidan o‘tkazilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 177-moddasiga asosan komissiyaviy ekspertiza o‘tkazilayotganda ekspertlarning har bir ekspert tekshiruvlarini to‘liq hajmda o‘tkazadi va ular olingan natijalarni birgalikda tahlil qiladi. Ekspertlar umumiy fikrga kelganidan so‘ng birgalikdagi xulosasini yoki xulosa berishning iloji yo‘qligi to‘g‘risidagi hujjatni tuzadi va imzolaydi. Ekspertlar o‘rtasidagi kelishmovchiliklar kelib chiqqan taqdirda, ularning har biri kelishmovchiliklar kelib chiqqan barcha yoki ayrim masalalar bo‘yicha alohida xulosa beradi.

3. Foydalanish lozim bo‘lgan bilimlar ko‘lamiga binoan, ekspertizaning quyidagi turlari farqlanadi:

Bir turdagi ekspertiza – bir ixtisoslikdagi ekspert yoki ekspertlar komissiyasi tomonidan amalga oshiriladigan ekspertiza turi.

Kompleks ekspertiza - O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 178-moddasiga asosan ish uchun ahamiyatga molik holatlarni turli ilm sohalaridan foydalangan holda bir necha ekspert tekshiruvini o‘tkazish yo‘li bilangina aniqlash mumkin bo‘lgan hollarda tayinlanadi.

Kompleks ekspertizani o‘tkazishda ekspertlarning har biri o‘z vakolati doirasida ekspert tekshiruvlari olib boradi. Kompleks ekspertizaning xulosasida ekspertlarning har biri qaysi ekspert tekshiruvlarini va qancha hajmda olib borganligi, qaysi holatlarni shaxsan o‘zi aniqlaganligi hamda qanday fikrlarga kelganligi ko‘rsatiladi. Ekspertlarning har biri xulosaning ushbu ekspert tekshiruvi bayon etilgan qismini imzolaydi va ular uchun javobgar bo‘ladi. Umumiy fikrni (fikrlarni), olingan natijalarni baholashga va ushbu fikrni (fikrlarni) shakllantirishga vakolatli bo‘lgan ekspertlar qiladi. Agar ekspertlar komissiyasi yakuniy fikrining yoki uning bir qismining asosi sifatida ekspertlardan birining (alohida ekspertlarning) aniqlagan holatlari olingan bo‘lsa, bu haqda xulosada ko‘rsatilishi kerak. Ekspertlar o‘rtasida kelishmovchiliklar kelib chiqqan taqdirda ularning har

biri kelishmovchiliklar kelib chiqqan barcha yoki ayrim masalalar bo'yicha alohida xulosa beradi. Agar kompleks ekspertizani o'tkazish davlat sud-expertiza muassasasiga topshirilgan bo'lsa, unda ushbu ekspertizani tashkil qilish uning rahbari zimmasiga yuklatiladi.

7.15. Ekspertiza tekshiruvi uchun namunalar olish

(muallif – A.R.Matmurotov)

Ekspertiza tekshiruvi uchun namunalar olish tergov harakati surishtiruvchi, tergovchining qarori, sudning esa ajrimiga asosan amalga oshiriladi. Unda: namuna oladigan shaxs yoki organ; namuna olinishi kerak bo'lgan shaxs; aynan qanday namuna va qancha miqdorda olinishi lozimligi; namuna olinadigan shaxs qachon va kimning huzuriga kelishi zarurligi; olingan namunaning qachon va kimga taqdim qilinishi kerakligi ko'rsatilishi lozim.

Surishtiruvchi, tergovchi yoki sud odamning, murdaning, hayvonning, o'simlikning, buyumning, materialning yoki moddaning xususiyatlarini o'zida aks ettiruvchi namunalar olishga, basharti ularning ekspert tekshiruvi ekspert oldiga qo'yilgan savollarni hal qilish uchun zarur bo'lsa, amalga oshiradi.

Tirik odamdan o'zida uning xususiyatlarini aks ettiruvchi quyidagi namunalar olinishi mumkin:

-biologik – qon, soch, so'lak, inson organizmidan ajralib chiqadigan moddalar;

- psixofizik – dastxat;

- anatomik – teri naqshining chiziqlari, tish qoliplari;

- ovozning xususiyatlari, kasb malakasini aks ettiruvchi namunalar.

Murdani ko'zdan kechirishda ham tekshiruv o'tkazish uchun kerakli moddiy namunalar olinishi mumkin.

Namuna tariqasida xomashyo, mahsulot va boshqa materiallardan moddaning turga oid yoki o'ziga xos fizik yoxud kimyoviy xossalarini aks ettiruvchi namunalar olinishi mumkin.

Tekshiruv o'tkazish jarayonida ekspert gilza, o'q, buzish asboblari va boshqa obyektlarining tajriba namunalarini tayyorlashga va ularning eksperimental izlariga qarab, o'xshashlik yoki farqlanish masalasini hal etishga haqlidir.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 189-moddasiga asosan namuna olish huquqiga ega bo'lgan shaxslarga shaxsni yechintirib yalang'ochlash bilan bog'liq bo'lmasa va alohida kasb

mahoratini talab qilmasa, surishtiruvchi, tergovchi yoki sudning o‘zi, zarurat bo‘lganda esa shifokor, boshqa mutaxassis, ekspert ishtirokida o‘tkaziladi. Ekspert tekshiruv uchun namunalar olish yalang‘och bo‘lishni taqozo etsa yoki alohida kasb mahoratini talab qilsa, surishtiruvchi, tergovchi yoki sudning topshirig‘iga binoan tekshiruv uchun namunalarni shifokor yoki boshqa tibbiy mutaxassis oladi.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual qonunchiligiga asosan ekspertiza tekshiruv uchun namunalar quyidagi shaxslardan olinishi mumkin:

- gumon qilinuvchi;
- ayblanuvchi;
- sudlanuvchi;
- jabrlanuvchi;
- tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari qo‘llash bo‘yicha ustidan ish yuritilayotgan shaxs.

Shu bilan birga hodisa sodir bo‘lgan joyda yoki ashyoviy dalillarda boshqa shaxslar tomonidan ham iz qoldirilgan bo‘lishi mumkinligi to‘g‘risida yetarlicha asoslar bo‘lgan taqdirda shu shaxslardan ham ekspert tekshiruv uchun namuna olinishi mumkin.

O‘zidan namuna olinishi uchun kelishdan bosh tortayotgan gumon qilinuvchilar, ayblanuvchilar, sudlanuvchilar, jabrlanuvchilar majburiy keltirilishi mumkin va ushbu holatda qo‘llaniladigan usullar og‘riq bermaydigan hamda inson hayoti va salomatligi uchun xavfsiz usullarda majburlov yo‘li bilan olinishi mumkin.

Surishtiruvchi yoki tergovchi namuna olinishi kerak bo‘lgan shaxsni chaqirtiradi yoki u turgan joyga borib, uni namuna olish to‘g‘risidagi qaror yoki sudning o‘ziga kelib tushgan ajrimi bilan tanishtirib tilxat oladi va bu shaxsga, mutaxassisga, xolislarga ularning huquq va majburiyatlarini tushuntiradi. Agar kimdir rad etilgan bo‘lsa, bu masalani hal qiladi. Shundan so‘ng surishtiruvchi yoki tergovchi kerakli harakatlarni bajaradi va ekspert tekshiruv uchun namunalar oladi. Bunda og‘riq bermaydigan hamda inson hayoti va salomatligi uchun xavfli bo‘lmagan ilmiy-texnikaviy vositalar qo‘llanilishi mumkin.

Murdadan, shuningdek xom ashyolardan, mahsulotlardan, boshqa materiallardan namunalar olish, eksperimentalni qilish, olib qo‘yish yoki tintuv o‘tkazish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Olingan namunalar tegishli tartibda o‘raladi va muhrlanadi. Keyin surishtiruvchi yoki tergovchi ularni

namuna olish bayonnomasi bilan birga tegishli ekspertga yuboradi. Agar namuna olish sudning ajrimiga binoan amalga oshirilgan bo'lsa, ushbu ajrimni bajargan surishtiruvchi yoki tergovchi namunalarni ularni olish to'g'risidagi bayonnoma bilan birga yuboradi.

Sud taraflar ishtirokida namunalarni ko'zdan kechirib, ularning haqiqiylikiga va to'la saqlanganligiga ishonch hosil qilgandan keyin olingan namunani ajrim va bayonnoma bilan birga tegishli ekspertga yuboradi.

Surishtiruvchi, tergovchi yoki sud tegishli shaxsni, shuningdek undan namuna olish to'g'risidagi qarorni yoki ajrimni shifokorga yoki boshqa mutaxassisga yuboradi. Shifokorni, boshqa mutaxassisni, xolislarni rad etish masalasi qaror yoki ajrim chiqargan surishtiruvchi, tergovchi yoki sud tomonidan hal qilinadi. Shifokor yoki boshqa mutaxassis zarur harakatlarni bajaradi va ekspert tekshiruv uchun namunalar oladi. Bunda og'riq bermaydigan hamda inson hayoti va salomatligi uchun xavfli bo'lmagan ilmiy-texnikaviy vositalardan foydalanishi mumkin. Kuchli og'riq beradigan murakkab tibbiy harakatlar va usullarni qo'llash faqatgina namuna olinishi lozim bo'lgan shaxsning roziligi bilan, basharti u o'n olti yoshga to'lmagan yoki ruhiy kasal shaxslar bo'lsa, uning qonuniy vakili, vasiylari yoki homiylarining roziligi bilangina amalga oshirilishi mumkin.

Namuna olish yechintirib yalang'ochlash bilan bog'liq bo'lgan holatlarda, shifokor, boshqa mutaxassis, xolislar bir jinsdagi shaxslar doirasidan bo'lishi talab qilinadi. Yuqoridagi harakatlar yuzasidan surishtiruvchi yoki tergovchi bayonnoma tuzishi, sud esa, o'ziga kelgan namunalarni sud majlisi bayonnomasiga kiritishi talab qilinadi.

Namunalar o'ralib va muhrlanib, surishtiruvchi, tergovchi yoki sudga yuboriladi. Tekshirish uchun hayvonlardan namunalar olish zarurati tug'ilsa, unda surishtiruvchi, tergovchi yoki sud tegishli qarorni yoxud ajrimni veterinarga yoki boshqa mutaxassisga yuboradi.

Tekshiruv o'tkazish jarayonida ekspert tomonidan tadqiqot ishlarini o'tkazishga mo'ljallangan tajriba namunalari tayyorlanishi mumkin. Surishtiruvchi yoki tergovchi bunday namunalarni tayyorlash chog'ida hozir bo'lishga haqli bo'lib, bu hol ular tomonidan tuziladigan bayonnomada aks ettiriladi.

Ekspert tekshiruv o'tkazib bo'lganidan keyin namunalarni muhrlangan holda o'z xulosasiga qo'shib qo'yadi. Surishtiruvchi yoki tergovchi, sud muhokamasida esa, sud va taraflar ekspert taqdim qilgan tajriba namunalarni ko'zdan kechiradilar, shundan so'ng ular ashyoviy dalil sifatida jinoyat ishiga qo'shib qo'yadilar.

7.16. Ashyoviy dalillar va ularning tasniflanishi

(Muallif – yu.f.n., dotsent A.Sh.Umarxonov)

Oʻzida jinoyatning izlarini aks ettiruvchi moddiy olamning obyektlari jinoyat ishi boʻyicha **ashyoviy dalil** deb eʼtirof etilishi mumkin. **Ashyoviy dalillar** deganda kelib chiqishini, kimga tegishlilikini, maʼlum maqsadlarda foydalanilganligini yoki joyi oʻzgarganligini, u yoki bu moddalar, narsa, jarayon, hodisalar taʼsir etganligini aniqlash mumkin boʻlgan fizikaviy alomatlar va belgilarga ega boʻlgan narsalar tushuniladi.

Ashyoviy dalillarni eng umumiy maʼnoda jinoyatning moddiy izlari (oqibatlar) deb taʼriflash mumkin. Ashyoviy dalillarning isbotlash jarayonida bilish vositalari sifatida tutgan oʻrni ularning tergov qilinayotgan voqea «ishtirokchilari» ekanligi bilan, buning natijasida koʻrinishi, oʻrni oʻzgarganligi yoki jinoiy harakat oqibatida vujudga kelganligi bilan bogʻliq. Daliliy ahamiyatga ularning tabiiy xususiyatlari (masalan, izning oʻlchami va shakli), joylashgan oʻrni (masalan, ayblanuvchidan topilgan oʻgʻirlangan ashyo) yoki ularning yaratilishi (tayyorlanishi) yoxud koʻrinishining oʻzgarishi (masalan, qalbaki pul, soxta hujjat va shok.) ega. Shunday qilib, ashyoviy dalillar, boshqa barcha dalillar kabi, daliliy axborot manbalaridir, faqat bu axborot ularda tabiiy (kodlashmagan) shaklida boʻladi.

Jinoyat-protsessual qonunda ashyoviy dalillarning quyidagi turlari ajratilgan:

1) *jinoyat quroli boʻlgan narsalar*. Ularga, masalan qotillik qurollari (pichoq, toʻponcha va boshqalar) yoki oʻgʻrilik sodir etishda foydalanilgan narsalar (seyf buzishda ishlatilgan ochqich, lom va shok.) kiradi;

2) *oʻzida jinoyat izlarini saqlab qolgan narsalar*. Ularga, masalan, qon izlari boʻlgan yoki yirtilgan kiyimlar, oʻqdan zararlangan narsalar, buzilgan seyf kabilar kiradi;

3) *jinoiy harakatlar obyekti boʻlgan narsalar*. Jinoiy tajovuz qaratilgan narsalar, masalan, oʻgʻirlangan pul va buyumlar;

4) *jinoiy yoʻl bilan topilgan pul va boshqa boyliklar*. Bu oʻrinda jinoiy tajovuz qaratilgan (masalan, oʻgʻirlangan) pul va boyliklar emas, balki jinoyat sodir etish (masalan, noqonuniy tadbirkorlik) natijasida egallangan pul va boyliklar nazarda tutiladi;

5) *jinoyatni ochish, ishning haqiqiy holatlarini aniqlash, aybdorlarni topish, ayblovni rad etish yoki javobgarlikni yengillashtirish vositalari*

bo'lib xizmat qilishi mumkin bo'lgan barcha boshqa narsalar. Ularga, masalan, jinoyat sodir etilgan joyda jinoyatchi tushirib qoldirgan narsalar kiradi.

Demak, ashyoviy dalillar turlarining qonunda keltirilgan ro'yxati ochiq bo'lib, oxirgi turi qandaydir daliliy ahamiyatga ega bo'lgan va avvalgilariga kirmaydigan barcha narsalarni qamrab oladi.

Ashyoviy dalillarning protsessual shakli **uch jihatni** o'z ichiga oladi.

Birinchidan, tergovchi (sud)ning predmetni aniqlash yoki olish fakti protsessual jihatdan rasmiylashtirilishi kerak. Odatda ashyolar muayyan tergov harakati (ko'zdan kechirish, tintuv, olib qo'yish va boshqalar) davomida olib qo'yiladi va ushbu olib qo'yish fakti mazkur harakat bayonnomasida qayd etiladi. Ashyolarni ayblanuvchi, jabrlanuvchi, jinoyat-protsessining boshqa ishtirokchilari va fuqarolar ham taqdim etishlari mumkin bo'lib, bu tegishli bayonnomalar bilan rasmiylashtirilishi lozim. Nihoyat, ashyolarni korxonalar, muassasalar va idoralar ham tergovchi yoki sudga yuborishlari mumkin. Bu ham rasmiy hujjat (yo'llanma xat)dan ko'rinib turishi kerak.

Ikkinchidan, ashyoviy dalillar ko'zdan kechirilishi, to'liq tavsiflanishi va imkon qadar suratga tushirilishi kerak. Ashyoviy dalilni ko'zdan kechirish uni olib qo'yish bajarilgan tergov harakati (masalan, voqea joyini ko'zdan kechirish) davomida (bunda uning natijalari bayonnomada qayd etiladi) yoxud alohida tergov harakati – ashyoviy dalil (narsa)ni ko'zdan kechirish davomida amalga oshirilishi mumkin (bu jarayon mustaqil bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi).

Uchinchidan, ashyoviy dalil jinoyat ishiga tergovchining maxsus qarori yoki sudning ajrimi bilan qo'shib qo'yiladi. Faqat shunday qaror (ajrim) chiqarilganidan so'nggina narsaga nisbatan ashyoviy dalil rejimi qo'llanilishi mumkin. Narsani jinoyat ishiga ashyoviy dalil sifatida qo'shib qo'yish haqidagi qaror ajrim tergovchi (sud)ning ushbu narsa ishga taalluqli ekanligi haqidagi qarorini ifodalaydi va uning faqat tergovchi yoki sud ixtiyoriga o'tishini bildiradi. Narsani jinoyat ishiga ashyoviy dalil sifatida qo'shib qo'yish faktini protsessual jihatdan aniq qayd etish bunday narsalar ko'pincha muayyan moddiy yoki ma'naviy qadriyat bo'lishi bilan bog'liq bo'lganligi sababli zarur.

Shunday qilib, ashyoviy dalil bo'lib xizmat qilishi mumkin bo'lgan moddiy narsalar doirasi faqat ularni olish va ashyoviy dalil sifatida saqlash imkoniyati bilan bog'liq (murdalar, albatta, bundan mustasno). Bu masalada protsessual xususiyatga ega bo'lgan hech bir cheklov yo'q. Yuqorida aytilganidek, qonunda, umuman olganda, ashyoviy dalil sifatida moddiy

olaning har qanday narsasini ishga qo‘shib qo‘yishga ruxsat berilgan. Ajratib olish usuli – obyektни bo‘lib yoki butunlay olish – masalasi esa aniq vaziyatga bog‘liq, ya‘ni bu masala protsessual emas, balki tashkiliy texnik masaladir. Holbuki, odatda, bunday ajratishni (zarralarni ajratish, kiyimdan qandaydir yopishgan narsalarni olish va shok.) odatda, tergovchi emas, balki ekspert bajarishi tavsiya etiladi, chunki u bu ishni malakaliroq bajaradi. Shu bois qayerda imkoni bo‘lsa, bunday obyektlarni yaxshisi butunligicha ajratib olgan ma‘qul.

Ashyoviy dalillar birlamchi (asosiy) va ikkilamchi (hosila) bo‘lishi mumkin. Birlamchi ashvoviy dalillar – asl narsalar, originallardir (masalan, qotillik sodir etilgan qurol, qon izi bo‘lgan kiyim-kechak). Biroq bunday predmetni har doim ham aslicha olish va tekshirish mumkin va maqsadga muvofiq bo‘lmaydi (masalan, yerdagi yoki qordagi iz, mebildagi barmoq izi). Bunday hollarda ularning turli xil moddiy modellari, ya‘ni hosila ashvoviy dalillardan foydalaniladi. Ularning quyidagi turlari mavjud:

1) ashvoviy dalillarning ko‘chirilgan nusxalari (masalan, turli izlarning qoliplari);

2) turdosh narsalar (analog predmetlar). Odatda ulardan asl ashvoviy dalil topilmaganda uning o‘rnida foydalaniladi (masalan, topilmagan pichoq – qotillik quroli – o‘rniga ekspertizaga shunday turdagi boshqa pichoq jo‘natiladi). Tabiiyki, bunday turdagi narsalar asl nusxaning hech qanday individual belgisini aks ettirmaydi va individual identifikatsiyalash uchun foydalanilishi mumkin emas. Ammo ular umumiy tur yoki guruhii mansubligini aniqlash uchun bemalol yaraydi. Masalan, ekspert tan jarohati aynan shu turdagi pichoq bilan yetkazilganligi haqida xulosa berishi mumkin;

3) qiyoslab tekshirish uchun namunalar.

Ashvoviy dalillar doimo boshqa dalillar va, avvalo, ularni olish holatlari hamda tekshirish natijalari qayd etilgan hujjatlar bilan birga baholanadi. Masalan, o‘g‘irlangan ashvov uning ayblanuvchidan olinganligi fakti qayd etilgan bayonnoma, u ilgari jabrlanuvchiga tegishli bo‘lganligini tasdiqlovchi shaxslarni so‘roq qilish bayonnomalari, jabrlanuvchining uni tanib olganligi to‘g‘risidagi bayonnoma kabi hujjatlar bilan birgagina dalil bo‘lib hisoblanadi. Xuddi shuningdek, barmoq yoki poyafzal izi faqat ekspertning uni tekshirish natijalari qayd etilgan xulosasi bilan birga dalilii ahamiyatga ega bo‘ladi.

Ashvoviy dalillar jinoyat ishida hukm qonuniy kuchga kirguniga qadar yoki jinoyat ishini tugatish haqidagi qaror yoxud ajrim yuzasidan shikoyat qilish muddati o‘tguniga qadar saqlanadi. Hajmi yoki boshqa sabablarga

ko'ra jinoyat ishida saqlanishi mumkin bo'lmagan narsalargina bundan mustasno hisoblanadi. Bunday narsalarning fotosurati olinishi, imkon qadar muhrlanishi kerak, shundan so'ng tergovchi yoki sud belgilab bergan joyga saqlash uchun joylashtirilishi mumkin. Bu to'g'rida jinoyat ishida tegishli ma'lumotnoma bo'lishi kerak.

Ayblanuvchiga tegishli bo'lgan jinoyat qurollari musodara qilinadi hamda tegishli muassasalarga topshiriladi yoki yo'q qilinadi; muomalada bo'lishi taqiqlangan ashyolar tegishli muassasalarga topshirilishi yoki yo'q qilinishi lozim; hech qanday ahamiyatga ega bo'lmagan ashyolar yo'q qilinadi; qolgan narsalar egalariga qaytariladi. Jinoiy yo'l bilan topilgan pul va boshqa boyliklar sud hukmi bilan davlat hisobiga musodara qilinadi. Ashyoviy dalil bo'lgan hujjatlar jinoyat ishi saqlanadigan to'liq muddat davomida uning tarkibida qoladi yoxud manfaatdor muassasalarga jo'natiladi.

7.17. Narsa va hujjatlarni taqdim qilish

(Muallif – yu.fn., dotsent B.N.Rashidov)

Narsa va hujjatlarni taqdim qilish deganda, ish uchun ahamiyatga molik bo'lgan yoki ahamiyatga ega bo'lishi mumkin bo'lgan narsa va hujjatlarni ishga qo'shib qo'yish maqsadida, uning egasi tashabbusi bilan yoki ishni yuritayotgan surishtiruvchi, tergovchi yoki sudning talabiga ko'ra taqdim etilishi tushuniladi.

Ayrim jinoyat ishlari bo'yicha fuqarolar tomonidan muayyan narsa, ashyo, buyum va hujjatlar ish uchun ahamiyatga ega deb baholanib, ishga qo'shib qo'yish uchun surishtiruvchi, tergovchi va sudga taqdim etiladi. Shu bilan birga surishtiruvchi, tergovchi va sud ham ayrim narsa va hujjatlarni fuqarolardan, korxonalar, muassasa, tashkilotlar va mansabdor shaxslardan talab qilib oladilar.

Taqdim etish harakati ikki xususiyatiga ko'ra turlarga ajratiladi:

1. Taqdim etiladigan obyektga ko'ra;
2. Tashabbus subyektiga ko'ra.

Taqdim etiladigan obyektga ko'ra ikki turga bo'linadi:

1. Narsalarni taqdim etish;
2. Hujjatlarni taqdim etish.

Tashabbus subyektiga ko'ra ham o'z o'rnida ikkiga bo'linadi:

1. Narsa va hujjat egasining tashabbusiga ko'ra taqdim etish;
2. Surishtiruvchi, tergovchi yoki sudning talabiga ko'ra taqdim etish.

Taqdim etish harakati ham dalillarni to'plashga, ham kelgusi tergov harakatlarini o'tkazish uchun sharoit yaratishga xizmat qiladi. Dalillarni to'plash maqsadida o'tkazilgan taqdim etish natijasida olingan narsa va hujjatlar belgilangan tartibda ishga qo'shib qo'yiladi.

Narsa egasining tashabbusiga ko'ra taqdim etish harakati dalillarni to'plashga xizmat qiladi. Surishtiruvchi, tergovchi yoki sud ish uchun ahamiyatli bo'lishi va dalil deb e'tirof etish mumkin bo'lgan narsalar kimda va qayerdaligini bilsalar, taqdim etish tergov harakatini emas, olib qo'yish yoki tintuv tergov harakatini o'tkazadilar. Faqat hujjatlarni taqdim etishni talab qilish yoki vaziyatga ko'ra olib qo'yish yoxud tintuv tergov harakatini o'tkazish orqali olishlari ham mumkin. Ammo jinoyat ishi qo'zg'atishdan avval tergovga qadar tekshiruv o'tkazish paytida ish uchun ahamiyatli bo'lishi mumkin bo'lgan hujjatlar faqat taqdim etish orqali talab qilib olinadi.

Tergov harakatlarini o'tkazishga sharoit yaratish maqsadida surishtiruvchi, tergovchi va sudning talabiga ko'ra taqdim etish quyidagi holatlarda o'tkaziladi:

1) eksperiment o'tkazishda tekshirilayotgan hodisaning holatini va sharoitini qayta tiklash uchun foydalaniladigan o'xshash narsalar yoki maketlar;

2) tanib olish uchun ko'rsatilayotgan narsa bilan turdosh bo'lgan narsalar;

3) tergov yoki sud harakatlarini yuritish yoxud ekspert tekshiruvini o'tkazish uchun zarur bo'lgan moslamalar, asbob-uskunalar, anjomlar, materiallar, agar bunday narsalar surishtiruvchi, tergovchi yoki sudda yoxud ularning topshirig'i bo'yicha harakat qilayotgan mutaxassis, ekspert yoki ekspertiza muassasasida bo'lmasa, zarurat qolmagach, bu narsalar egasiga qaytariladi.

Narsa va hujjatlarni taqdim etish jinoyat ishi bo'yicha haqiqatni aniqlash va odil sudlovni amalga oshirishda jamoatchilikning faol ishtiroki bilan birga isbotlash jarayonlarining samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Chunki ushbu harakat jarayonida jinoyatchilikka qarshi kurashuvchi organlar kuchlari bilan jamoatchilikning bir maqsad sari intilishi ko'zga tashlanadi.

Faqat ashyoviy dalil sifatida ahamiyatga ega bo'lishi mumkin bo'lgan narsa va hujjatlarni taqdim etish natijalari belgilangan tartibda bayonnomada qayd etiladi. Bayonnomada umumiy rekvizitlar bilan birga narsa yoki hujjatni taqdim etgan shaxs haqida ma'lumotlar, ushbu shaxsning taqdim etgan narsa va hujjatni ishga qo'shib qo'yish haqidagi iltimosi, narsa

va hujjatni koʻzdan kechirish jarayoni va natijalari, narsa va hujjatni ish uchun ahamiyatli yoki ahamiyatli boʻlishi mumkin deb topilganda, u olinganligi, aksincha holatda esa, u taqdim etgan shaxsga qaytarib berilganligi koʻrsatiladi. Narsa va hujjat olinganda uni taqdim etgan shaxsga bayonnoma nusxasi beriladi. Narsa va hujjat egasiga qaytarib berilganida esa, uni ishga qoʻshib qoʻyish haqidagi iltimosni rad etish haqida qaror chiqariladi.

Muayyan tergov harakatlarini oʻtkazishga sharoit yaratish maqsadida vaqtincha foydalanish uchun talab qilingan narsalarning olinganligi va qaytarib berilganligi tilxat orqali rasmiylashtiriladi.

Jinoyat ishi boʻyicha, shuningdek tergovga qadar tekshiruv davomida (Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 329-modda) surishtiruvchi, tergovchi korxonalar, muassasa, tashkilotlarning rahbarlari va boshqa mansabdor shaxslardan, fuqarolardan hujjatlar va yozma tushuntirish berishni talab qilishga haqli. Shu bilan birga, korxonalar, muassasa, tashkilot rahbarlaridan oʻz vakolatlari doirasida hujjatli taftish yoki xizmat tekshiruvi oʻtkazib taftish yoki tekshiruv dalolatnomasini taqdim etishlarini ham talab qilishlari mumkin. Bunda hujjat yoki maʼlumot taqdim etish soʻrovnomalar, yozma topshiriqlar orqali talab qilinadi. Ushbu tartibda taqdim etilgan tushuntirishlar, hujjatli taftish dalolatnomasi, xizmat tekshiruvi xulosasi yoki boshqa hujjatlar ishga maxsus rasmiylashtirilmasdan qoʻshib qoʻyiladi.

7.18. Narsa va hujjatlarni ashyoviy va yozma dalil sifatida ishga qoʻshib qoʻyish

(Muallif – yu.fn., dotsent B.N.Rashidov)

Narsa va hujjatlarni ashyoviy va yozma dalil sifatida ishga qoʻshib qoʻyish deganda ish uchun ahamiyatli boʻlgan maʼlumotga ega narsalar, hujjatlar yoki boshqa yozuvlarning ish uchun ahamiyatliligini aniqlash va belgilangan tartibda ishga qoʻshib qoʻyishdan iborat jarayonlar tushuniladi.

Narsa va hujjatlarni ashyoviy va yozma dalil sifatida ishga qoʻshib qoʻyish haqida soʻz yuritishdan avval dalillar haqida qisqacha toʻxtalish maqsadga muvofiq.

Dalil deganda ijtimoiy xavfli qilmishning yuz bergan-yuz bermaganligini, shu qilmishni kim sodir etganligini va uning sodir etilishida kimlar aybliligini hamda ishni haqqoniy hal etish uchun ahamiyatli boʻlgan boshqa holatlarni aniqlashga asos boʻladigan, qonunda belgilangan tartibda

to'plangan ma'lumotlar tushuniladi. Dalillar ashyoviy yoki yozma bo'lishi mumkin.

Yozma dalillar deganda so'z, raqam, chizma yoki boshqa shaklda yozilgan va ish uchun ahamiyatli bo'lishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni saqlash, o'zgartirish, berish uchun mo'ljallangan hujjat yoki boshqa yozuvlar tushuniladi. Shuningdek, tergov harakatining bayonnomasi, sud majlisi bayonnomasi va ularning ilovalari ham yozma dalil hisoblanadi. Hujjatlar va boshqa yozuvlar O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 205-moddasida belgilangan tartibda olinishi bilan maxsus rasmiylashtirilmasdan yozma dalil sifatida ishga qo'shiladi (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 202-modda).

Narsa va hujjatlarni ashyoviy va yozma dalil sifatida ishga qo'shib qo'yish ikki usulda amalga oshiriladi:

1. **Ashyoviy dalil** sifatida ishga qo'shish;
2. **Yozma dalil** sifatida ishga qo'shish.

Narsa va hujjatlarni ashyoviy va yozma dalil sifatida ishga qo'shib qo'yish alohida tergov harakati sifatida e'tirof etilmaydi, ammo ko'pgina tergov harakatlari natijalarini ifodalaydigan va ularga baho berish amalga oshiriladigan harakat hisoblanadi.

Ashyoviy dalil sifatida ahamiyatga ega bo'lishi mumkin bo'lgan narsa va hujjatlar olinganda ko'zdan kechiriladi va tegishli tergov harakati bayonnomasida ko'zdan kechirish jarayoni va natijalari qayd etiladi. Ko'zdan kechirishda narsa yoki hujjatning ish uchun ahamiyatli, shuningdek uni boshqa narsa va hujjatlardan farqlovchi o'ziga xos belgilari aniqlanadi. Ko'zdan kechirish natijasida ish uchun ahamiyatli belgilarga (ma'lumotlarga) ega ekanligi aniqlangan narsa va hujjatlarni ashyoviy dalil deb e'tirof etish va uni ishga qo'shib qo'yish haqida qaror chiqariladi. Ushbu qarorda ashyoviy dalilni ishda qoldirish yoki uni saqlab turish uchun topshirish masalasi hal qilinadi. Ashyoviy dalillar O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 210-moddasiga asosan egasiga qaytariladi yoki ashyoviy dalillar masalasi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 211-moddasi talablari asosida hal etilgunga qadar belgilangan tartibda saqlab turish uchun topshiriladi.

Ishga ashyoviy dalil sifatida qo'shib qo'yilgan pul, qimmatli qog'ozlar, valyuta boyliklari, zargarlik buyumlari va qimmatbaho metallardan, qimmatbaho toshlardan yasalgan boshqa buyumlar, shuningdek bunday buyumlarning rezgilari mutaxassis ishtirokida ko'zdan kechirilib, saqlash uchun surishtiruv, dastlabki tergov organi yoki sudning depozit hisobiga topshiriladi. Boshqa narsalar surishtiruv, dastlabki tergov organining

ashyoviy dalillarni saqlash xonalarida, tegishli moddiy javobgar shaxs mas'ulligida saqlanadi. Tez buziladigan narsalar, uy hayvonlari, parrandalar va boshqa hayvonlarni egasiga qaytarib berish mumkin bo'lmaganda, ular qarab turish yoki belgilangan maqsadga muvofiq foydalanish uchun tegishli korxonaga, muassasa, tashkilotlarga topshiriladi.

Jinoyat ishi bo'yicha saqlash uchun topshirilgan ashyoviy dalillar masalasi hukmda, jinoyat ishini tugatish to'g'risidagi qaror yoki ajrimda O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 211-moddasida belgilangan qoidalar asosida hal etiladi.

Jinoyat ishi boshqa tergov organiga o'tkazilayotganda, prokuror yoki sudga yuborilayotganda ashyoviy dalillar ro'yxat qilinib, birma-bir sanab ko'rsatiladi, har bir ashyoviy dalilning qayerda ekanligi qayd etiladi va ushbu ro'yxat ishga ilova qilinadi.

Ashyoviy dalillar yo'qolganda yoki shikastlanganda kelib chiqadigan masalalar O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 212-moddasiga asosan hal etiladi.



MAVZU BO'YICHA XULOSALAR

Mazkur mavzuni o'rganishda talabalar jinoyat ishlari bo'yicha ish yurituvini amalga oshirish jarayonida dalillarni to'plashning usullari bo'lgan tergov va sud harakatlarining jinoyat-protsessual qonunida, tarmoq qonun hujjatlarida, xorijiy davlatlar qonunchiligida mustahkamlanishiga oid masalalarni o'zlashtirish va qiyosiy-huquqiy tahlil orqali tergov va sud harakatlarini o'tkazishning asoslari va protsessual tartibini va natijalari bo'yicha tuziladigan protsessual hujjatlarni o'rganishlari lozim.

MUAMMOLI SAVOLLAR VA KAZUSLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 87-moddasiga binoan, dalillar tergov va sud harakatlarini yuritish: gumon qilinuvchini, ayblanuvchini, sudlanuvchini, guvohni, jabrlanuvchini, ekspertni so'roq qilish; yuzlashtirish; tanib olish uchun ko'rsatish; ko'rsatuvni hodisa ro'y bergan joyda tekshirish; olib qo'yish; tintuv; ko'zdan kechirish; guvohlantirish; murdani eksperiment qilish; eksperiment o'tkazish; ekspertiza tadqiqotlarini o'tkazish uchun namunalar olish; ekspertiza va taftish tayinlash; taqdim etilgan ashyolar va hujjatlarni qabul qilish; telefonlar va boshqa so'zlashuv qurilmalari orqali olib borilgan

so‘zlashuvlarni eshitish yo‘li bilan to‘planadi. **Mazkur tergov harakatlarini dalillarni to‘plashga, tekshirishga qaratilgan vazifasi nuqtai nazaridan guruhlariga tasniflang va tahlil qiling.**

2. Protsessual harakatlar o‘z mohiyatiga ko‘ra jinoyat protsessual faoliyat ishtirokchilarining real xatti-harakatlari uchun huquqiy vositadir. Boshqacha aytganda, protsessual harakatlar – jinoyat-huquqiy va jinoyat-protsessual normalarni, shuningdek ayrim hollarda boshqa huquqiy tarmoqlar normalarni amalga oshirish vositasidir. **Tergov harakatlari tizimini jinoyat ishi yuzasidan o‘tkaziladigan protsessual harakatlar bilan o‘zaro qiyoslang va protsessual shaklga rioya qilish nuqtai nazaridan tahlil qiling.**

1-kazus

2014-yil 26-iyul kuni taxminan soat 22:00 larda Hamza tuman IIB navbatchilik qismidan tushgan xabarga ko‘ra, fuqaro Bakiyev Hamza tumanida joylashgan “Hamza” dehqon bozori hududida mast holda bo‘la turib, fuqaro Ivanov bilan o‘rtalarida kelib chiqqan o‘zaro janjal natijasida uni qasddan o‘ldirish maqsadida ko‘krak qafasi old devori qorin bo‘shlig‘iga bir marotaba o‘tkir tig‘li jism bilan urib, voqea joyidan yashiringan. Natijada fuqaro Ivanov olgan tan jarohati bilan 7-sonli SHKSHning jonlantirish bo‘limiga yotqizilgan va unda ko‘krak qafasi oldi devori qorin bo‘shlig‘ida va jigar qismida kesilib sanchilgan tan jarohatlari borligi aniqlangan.

Yuqoridagilarga ko‘ra, fuqaro A.S.Bakiyevning harakatlarida O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 25-, 97-moddalarida ko‘rsatilgan jinoyat alomatlarini mavjudligini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 321-322, 330-moddasi 1-bandi, 331-moddasiga asosan, jinoyat ishi qo‘zg‘atilgan. Dastlabki tergovdagi bergan ko‘rsatmasida Ivanov unga gumon qilinuvchi ko‘rsatilsa, bir ko‘rishda tanib olishini bayon etgan. Ivanov gumon qilinuvchining alohida belgilarini bayon etgan. Tezkor-qidiruv natijasida voqea joyidan yashiringan gumon qilinuvchi qo‘lga olingan. O‘tkazilgan tergov harakatlari natijasida gumon qilinuvchi Bakiyev ekanligi aniqlandi.

Ushbu xolatda tergovchi tomonidan qanday tergov harakati o‘tkazilgan va qanday faoliyat olib borilgan? Tergovchi ushbu holatda dalillarni qanday tekshirib ko‘radi?

2-kazus

Bosqinchilik jinoyatini sodir etishda gumon qilinayotgan fuqaro Erkayevni fuqaro Soliyevning xonadonida yashiringanligi hamda jinoyat

qurollari ham shu joyda ekanligi haqida yetarli ma'lumotlarga asoslangan tergovchi, Soliyevning xonadonida tintuv o'tkazish haqida qaror chiqaradi va uni o'tkazishga prokurordan ruxsat oladi.

Soliyevning xonadonida tintuv o'tkazilayotgan paytda uyga noma'lum erkak kishi kirib keladi va ichki ishlar idoralari xodimlarini ko'rib tezda qaytib ketishga harakat qiladi. Tergovchi ushbu kishini qaytarib, undan shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarini ko'rsatishni talab qiladi, ushbu shaxs o'zini Soliyevning qo'shnisi Po'latovman, deb tanishtiradi va yonida shaxsini tasdiqlovchi hujjatlari yo'qligi, pasportini esa uyda saqlashini aytadi. Tergovchi uning Soliyevga qandaydir imo-ishora qilishga harakat qilayotganligini ko'rgach, uning yonida ishga taalluqli narsalar bo'lishi mumkin deb tasmol qilib, Po'latovni shaxsiy tintuv qiladi, ammo uning yonidan hech narsa topilmagach, tergovchi unga ketish uchun ruxsat beradi.

Ertasi kuni Po'latov tergovchining ushbu harakatlarini noqonuniy deb hisoblab, unga nisbatan chora ko'rishlarini so'rab, prokurorga shikoyat arizasi bilan murojaat qiladi.

Ushbu arizaga prokuror nomidan protsessual tartibda javob tayyorlang. Agar Po'latovning o'rniga Soliyevning xonadoniga notanish ayol kishi kirib kelgan va ayol kishiga nisbatan ham shaxsiy tintuv o'tkazilgan bo'lsa, masalaning yechimi o'zgaradimi?

VIII BOB. PROTSESSUAL MAJBURLOV CHORALARI

(Muallif – yuridik fanlar doktori, dotsent G.Z.To‘laganova)

Annotatsiya: talabalar tomonidan mavzuning o‘rganilishi majburlov tushunchasi, mohiyati va vazifalari, protsessual majburlov choralarining turlari, jinoyat protsessida shaxs huquqlarini cheklash asoslari va chegaralari, ushlab turish, ehtiyot choralari, lavozimdan chetlashtirish, majburiy keltirish, shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish, jinoyat protsessi ishtirokchilarining xavfsizligini ta‘minlash, surishtiruvda, dastlabki tergovda va sudda protsessual majburiyatlarni hamda tartibni buzganligi uchun javobgarlik to‘g‘risida atroflicha ma‘lumot olishga imkon beradi.

8.1. Protsessual majburlov tushunchasi, mohiyati, vazifalari va turlari

Har qanday ushlangan yoki qamalgan shaxs qisqa vaqt mobaynida sudga keltirilishi va qamalishining asosli va qonuniy ekanligi sud tomonidan tekshirilishi lozim. <i>(Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro Paktning 9-moddasi)</i>	Fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo‘yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir, ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo‘yishga hech kim haqli emas. <i>(O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19-moddasi)</i>
--	---

Huquq va erkinlik – insonlarga berilgan eng ulug‘, daxlsiz ne‘matlar hisoblanib, jinoyat sudlov ishlarini yuritishda fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini turli darajada cheklovchi ba‘zi majburlov choralari qo‘llanadi hamda mazkur choralarni qo‘llamasdan adolat tantanasiga erishish imkoniyati yo‘qligi tabiiy holdir.

Sodir etilgan jinoyat uchun tayinlanadigan jazo choralari insonning tabiiy huquqlarini jiddiy darajada cheklaydi. Shaxsning aybdorligi o‘z isbotini topgan hollarda sud qaroriga asosan jinoiy jazo choralarini qo‘llash davlatning adolatli va asoslangan harakati hisoblanadi. Davlat bunday hollarda inson huquqlarini cheklashga nafaqat haqli, balki majbur hamdir. Jinoyat-protsessual majburlov choralari, shu jumladan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasi gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchiga, ya‘ni


aybdorligi sudda hali isbotlanmagan shaxslarga nisbatan qo'llaniladi. Ba'zi majburlov choralari esa boshqa ishtirokchilar, hatto jabrlanuvchi va guvohga (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 262-moddasi) nisbatan ham qo'llanilishi mumkin. Shuning uchun mazkur choralarni qo'llashda ishdagi barcha holatlar davlat organlari tomonidan sinchkovlik bilan va har tomonlama o'rganilishi, qarorlar adolatli, beg'araz va xolisona tarzda qabul qilinishi lozim.

O'zbekiston Respublikasining 1994-yil 22-sentabrda qabul qilingan Jinoyat-protsessual kodeksi barcha majburlov choralarini alohida to'rtinchi bo'limda «Protsessual majburlov» nomi ostida tizimlashtirdi (213-274-moddalar). Bu bilan qonun ijodkorlari ba'zi bir jinoyat-protsessual institutlarni protsessual majburlov choralariga taalluqligi to'g'risidagi bahslarga barham berdi. Masalan, ushlab turishning protsessual majburlov chorasi ekanligi qonun orqali mustahkamlandi. O'zbekiston Respublikasida inson huquq, erkinlik va manfaatlarini muhofaza qilish masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda. Xususan, 2008-yilning 1-yanvaridan e'tiboran mamlakatimizda, Habeas corpus institutining tatbiq etilishi - qamoqqa olish uchun sanksiya berish huquqining sudlarga o'tkazilganligi xalqaro hamjamiyat tomonidan ijobiy kutib olindi.

Milliy sud-huquq tizimini isloh etishning mantiqiy davomini anglatuvchi sud hokimiyati mustaqilligini mustahkamlash masalalari jinoyat ishlari yurituvining sudga qadar bosqichlarida sud nazoratini kengaytirishni, xususan, lavozimdan chetlashtirish va tibbiy muassasaga joylashtirish kabi protsessual majburlov choralarini qo'llashda tatbiq etilishini taqozo etdi.

Jumladan, 2012-yil 18-sentabrda O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 29 va 31-boblariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritilib, sudga qadar yurituv bosqichida qo'llanadigan choralar, ya'ni lavozimdan chetlashtirish va tibbiy muassasaga joylashtirish tarzidagi protsessual majburlov choralari faqat sudyaning sanksiyasi asosida qo'llash tartibi qonunan mustahkamlandi.

Jinoyat ishlarini ko'rib chiqadigan davlat organlarining faoliyatida bu masalalar o'ta muhim ahamiyat kasb etadi, chunki shaxs jamiyat oldidagi protsessual majburiyatlarini ixtiyoriy ravishda bajarmasa, uning erkinligini majburlov choralari orqali cheklashga to'g'ri keladi.



Surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud tomonidan jinoyat ishlarini yuritishda ba'zi toifadagi shaxslarga nisbatan majburlov choralari qo'llanishi mumkin. Bu choralar shaxsning huquqlari va qonuniy manfaatlarini muayyan darajada cheklaydi, biroq ularni qo'llamasdan jinoyat-protsessual faoliyatni yuritib bo'lmaydi.

Protsessual majburlov choralari shaxsning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan ko'pgina huquq va erkinliklarini cheklash bilan bog'liq: erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqlarini cheklovchi ushlab turish, qamoqqa olish, shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish choralari (25-modda); respublika hududida bir joydan ikkinchi joyga ko'chib o'tish va O'zbekiston Respublikasidan chiqib ketish huquqlarini

cheklovchi munosib xulq-atvorda bo'lish to'g'risida tilxat chorasi (28-modda); xususiy mulkning daxlsizligi huquqlarini cheklovchi garov, mol-mulkni xatlash choralari (53-modda); mehnat qilish, erkin kasb tanlash huquqlarini cheklovchi lavozimdan chetlashtirish chorasi (37-modda) va boshqalar.

Ayblanuvchi yoki sudlanuvchining dastlabki tergov, suddan bo'yin tovlashining oldini olish uning ishtirokida tergov harakatlari va sud muhokamasi o'tkazilishini va jinoyat natijasida yetkazilgan zararining qoplanishi ta'minlanishini nazarda tutadi. Shu bilan birga, ushbu maqsad ayblanuvchi zimmasiga tergov davri va sud muhokamasi chog'ida qandaydir harakatlarni bajarish yoki ko'rsatuvlar berish majburiyatini yuklamaydi.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksida protsessual majburlov choralari qo'llash asoslari va bu boradagi umumiy qoidalar belgilanib, (26-bob), quyidagi muayyan majburlov choralari tizimi, ya'ni majburlov choralari turlari aks ettirildi: ushlab turish (27-bob); ehtiyot choralari (28-bob); lavozimdan chetlashtirish (29-bob); majburiy keltirish (30-bob); tibbiy muassasaga joylashtirish (31-bob); protsess ishtirokchilarining xavfsizligini ta'minlash va sud muhokamasi protsessual majburiyatlar hamda tartibni buzganlik uchun javobgarlik (32-bob).

Qonunda mazkur majburlov chorasini amalga oshirishning qonuniyligi va asosligining bir qancha kafolatlari belgilangan bo'lib, uni qo'llash shartlari, asoslari, sabablari va muddatlari tartibga solingan.

Protsessual majburlov choralari dastlabki tergov va sud muhokamasi jarayonida qo'llanilishi mumkin, ularni qo'llash surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudning vakolatidir. Protsessual majburlov choralari faqat qonuniy asoslar mavjud bo'lganda va qonunda belgilangan tartibda qo'llaniladi.

8.2. Jinoyat protsessida shaxs huquqlarini cheklash asoslari va chegaralari

Jinoyat-protsessual majburlov choralari qo'llashning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari insonning erkinliklari va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat deb e'tirof etilganligi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13-moddasida mujassamlangan. Bundan tashqari, ushbu moddada demokratik huquq va erkinliklarning Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinishi ta'kidlangan.


Jinoyat ishlari yurituvchi sohasida davlat yagona maqsadga yoʻnaltirilgan ikki masalaga eʼtibor qaratishi lozim: inson va fuqarolarning huquq va erkinliklarini jinoyatlardan muhofaza qilish; aybi boʻlmagan shaxsning javobgarlikka tortilmasligi va hukm qilinmasligini taʼminlash (Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 2-modda). Jinoyat-protsessual majburlov jinoyat ishlarining muvaffaqiyatli va toʻsqinliksiz yuritilishi maqsadida qoʻllaniladi, u jinoyatdan jabr koʻrganlarning huquqlarini himoya qilishga yoʻnaltiriladi. Aybi boʻlmagan hech bir shaxs javobgarlikka tortilmasligi va hukm qilinmasligini taʼminlash uchun jinoyat-protsessual qonunchilikda protsessual majburlov choralari qoʻllash asoslari, tartibi qatʼiy tarzda belgilab qoʻyilgan. Jinoyat ishlari yurituvchi jinoyat-protsessual majburlovning asoslanganligi aynan mana shu qoidalarda namoyon boʻladi.

I. Majburlov xarakteriga koʻra:

a) **jismoniy xarakterdagi** jinoyat-protsessual majburlov choralari: ushlab turish, qamoqqa olish, majburiy keltirish, shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish;

b) **mulkiy xarakterdagi** jinoyat-protsessual majburlov choralari: garov, mol-mulkni xatlash, pul undirish va jarima solish;

d) axloqiy xarakterdagi jamoat birlashmasi va jamoaning kafilligi, munosib xulq-atvorda boʻlish toʻgʻrisida tilxat, shaxsiy kafillik, jamoat birlashmasi va jamoaning kafilligi, harbiy xizmatchining xulq-atvori ustidan qoʻmondonlik kuzatuv, voyaga yetmaganlarni kuzatuv ostiga olish uchun topshirish, lavozimdan chetlashtirish.



II. Qo‘llanish subyektlariga ko‘ra:

a) faqat gumon qilinuvchi va ayblanuvchilarga nisbatan qo‘llaniladigan jinoyat-protsessual majburlov choralari: ushlab turish, ehtiyot choralarining barcha turlari, lavozimdan chetlashtirish, mol-mulkni xatlash;

b) gumon qilinuvchi va ayblanuvchilarga nisbatan qo‘llaniladigan, lekin boshqa shaxslarning mulkiy manfaatlariga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan jinoyat-protsessual majburlov choralari: garov, mol-mulkni xatlash;

v) faqat gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, jabrlanuvchi, guvohlarga nisbatan qo‘llaniladigan jinoyat-protsessual majburlov choralari: majburiy keltirish;

g) jinoyat sudlov ishlarining barcha ishtirokchilari hamda boshqa shaxslarga nisbatan qo‘llaniladigan jinoyat-protsessual majburlov choralari: pul undirish va jarima solish.

III. Huquq va erkinliklarning cheklanishi darajasiga ko‘ra:

a) insonning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini cheklash bilan bog‘liq bo‘lgan jinoyat-protsessual majburlov choralari: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 25-moddasidagi erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqlarini cheklovchi ushlab turish, qamoqqa olish, shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish choralari; O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 28-moddasidagi respublika hududida bir joydan ikkinchi joyga ko‘chib o‘tish va O‘zbekiston Respublikasidan chiqib ketish huquqlarini cheklovchi munosib xulq-atvorda bo‘lish to‘g‘risida tilxat chorasi; O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasidagi xususiy mulkning daxlsizligi huquqlarini cheklovchi garov, mol-mulkni xatlash choralari; O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 37-moddasidagi mehnat qilish, erkin kasb tanlash huquqlarini cheklovchi lavozimdan chetlashtirish chorasi;

b) insonning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini cheklashga bevosita bog‘liq bo‘lmagan jinoyat-protsessual majburlov choralari: boshqa barcha turdagi jinoyat-protsessual majburlov choralari.

8.3. Ushlab turish

Muallif – yuridik fanlar doktori, professor B.X.Po‘latov)

Ushlab turish maqsadi, asoslari, ushlab turish huquqiga ega bo‘lgan va unda immunitet huquqidan foydalanuvchi shaxslar. O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan sud-huquq tizimi islohotining eng muhim vazifasi insonning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari, avvalo, shaxsiy daxlsizlik huquqlari ta’minlanishi hisoblanadi.

<p>Hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi yoki qamoqda saqlanishi mumkin emas.</p> <p><i>(O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 25-moddasi)</i></p>	<p>Hech kim asossiz qamalishi, ushlanishi va quvg'in qilinishi mumkin emas.</p> <p><i>(Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasining 9-moddasi)</i></p>
---	--

Ushlab turilganlar huquqlarining kafolatlari Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasining 3-, 7-, 10-, 11-moddalarida o'z ifodasini topgan. Bundan tashqari 1966-yil 19-dekabrda qabul qilingan "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Pakt"ning 6-, 9-, 14-moddalari, 1984-yil 10-dekabrda qabul qilingan "Qiynoq hamda muomala va jazolashning qattiq shafqatsiz, insoniylikka zid yoki qadr-qimmatni kamsituvchi turlariga qarshi Konvensiya"ning 2-16-moddalari, 1955-yil 30-avgustda qabul qilingan "Mahbuslar bilan muomala qilishning standart qoidalari", 1990-yil 14-dekabrda qabul qilingan "Mahbuslar bilan muomala qilishning asosiy prinsiplari", 1988-yil 9-dekabrda qabul qilingan "Qanday shaklda bo'lsin, hibsga yoki qamoqqa olingan barcha shaxslarni himoya qilish prinsiplari" turkumi, 1982-yil 18-dekabrda qabul qilingan "Mahbuslar yoki hibsga olingan shaxslarni qiynoq hamda jazolashning qattiq, shafqatsiz, insoniylikka zid yoki qadr-qimmatini kamsituvchi turlaridan himoya qilish"da sog'liqni saqlash xodimlarining, ayniqsa shifokorlarning o'rniga taalluqli tibbiyot etikasi prinsiplari va boshqa xalqaro hujjatlarda ushlab turilgan shaxslarning huquq va erkinliklariga oid qoidalar keng bayon etilgan.

Ushlab turilgan bironta shaxsga nisbatan qiynoqqa solish, zo'rlik ishlatish, qo'rqitish, aldash hamda insonga nisbatan boshqacha shafqatsiz yoki uning qadr-qimmatini kamsituvchi munosabatda bo'lish, shuningdek qonunga xilof boshqa choralar qo'llash mumkin emas. Ushlab turilgan gumon qilinuvchiga jismoniy yoki ruhiy xarakterdagi tazyiqlar o'tkazilishiga yo'l qo'yilmaydi. Ushlab turilgan shaxsning huquqiy holatidan foydalanib, uni jinoyat sodir etganlikda iqror bo'lishga, o'zini yoki boshqa shaxslarni fosh etish to'g'risidagi ko'rsatuvlarni berishga majburlash taqiqlanadi.

Jinoyat sodir etishda gumon qilingan shaxsni ushlab turish jinoyat sudlov vazifalarini hal etishga yo'naltirilgan bo'lib, ko'pincha kechiktirib bo'lmaydigan holatlarda qo'llanadigan, shaxsni qisqa muddat jamiyatdan ajratilgan holda saqlab turishdan iborat bo'lgan preventiv protsessual majburlov choralariidan biridir.

Ushlab turish quyidagi maqsadlarda qoʻllanadi: jinoyatni sodir etishda gumon qilinayotgan shaxsning jinoiy faoliyatini oldini olish; dastlabki tergov va suddan boʻyin tovlashning oldini olish; ushbu shaxsning haqiqatni aniqlashga toʻsqinlik qiladigan urinishlariga yoʻl qoʻymaslik, yaʼni jinoyat ishi uchun ahamiyatli boʻlgan dalillarni yashirish yoki yoʻq qilib yuborishning oldini olish; ushlangan shaxsning sodir etilgan jinoyatga aloqadorligini aniqlash.

Ushlab turish jinoyat ishi qoʻzgʻatilishidan avval ham amalga oshirilishi mumkin. Bu holda ushlab turish nafaqat militsiya yoki boshqa surishtiruv organi xodimi, balki muomalaga layoqatli har qanday shaxs tomonidan amalga oshiriladi. Ular ushbu harakatni amalga oshirish davomida yoki undan keyin darhol huquqni muhofaza qilish organlariga xabar berish yoxud ushlab turishdan oldin shu joyda boʻlgan huquqni muhofaza qilish organi xodimiga murojaat qilib, uning yordamidan foydalanishi lozim.

Jinoyat ishi qoʻzgʻatildandan keyin ushlab turishga faqat tergovchi, surishtiruvchi, prokurorning qaroriga muvofiq yoʻl qoʻyiladi. Surishtiruvchi, tergovchi, prokuror gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga nisbatan ushlab turish tarzida protsessual majburlov chorasi qoʻllaganida bu haqda 24 soatdan kechiktirmasdan uning oila aʼzolaridan biriga, ular boʻlmagan taqdirda esa qarindoshlariga yoki yaqin kishilariga xabar berishi, shuningdek bu haqda ish yoki oʻqish joyiga maʼlum qilishi shart. Ushlab turilgan shaxs boshqa davlatning fuqarosi boʻlsa, yuqorida koʻrsatilgan muddat ichida Oʻzbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligiga xabar berilishi shart. Ushlab turish asoslarining roʻyxati qonunda qatʼiy belgilangan boʻlib, uni kengaytirilgan tarzda talqin etishga yoʻl qoʻyilmaydi.

Shaxsni jinoyat sodir etishda gumon qilish uchun asos boʻladigan maʼlumotlar mavjud boʻlgan hollarda, uning surishtiruv va dastlabki tergov organlaridan qochishga urinishi yoki doimiy yashaydigan joyining yoʻqligi yoxud aniqlanmaganligi ushbu shaxsni gumon qilinuvchi tariqasida **ushlab turishga** asos boʻladi. Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 221-moddasining 4-bandi.

Qozogʻiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 94-moddasi, Belarus Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 108-moddasi 1-qismi, Qirgʻiziston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 132-moddasi va Moldova Jinoyat-protsessual kodeksining 160-moddasi 1-qismida ham ushlab turish uchun yuqorida sanab oʻtilgan asoslar koʻzda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputati va Senati a'zosi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman), Qaraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi deputati, xalq deputatlari viloyat, Toshkent shahar, tuman va shahar Kengashi deputati, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining sudyasi, boshqa sudlar sudyalari, prokuror va prokuratura tergovchisi ushlab turish chog'ida majburlov chorasini qo'llash immunitet huquqidan foydalanadilar. Ushlash vaqtida jinoyat sodir etishda gumon qilinayotgan shaxs tomonidan ko'rsatiladigan qarshilik va jamiyat uchun xavf tug'diradigan boshqa harakatlar bartaraf etilishi lozim. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 39-moddasiga binoan ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni hokimiyat organlariga topshirish maqsadida ushlash vaqtida unga zarar yetkazish, agar uni ushlash uchun zarur bo'lgan choralarning chegarasidan chiqilmagan bo'lsa, jinoyat deb topilmaydi.

Ushlab turishni amalga oshirayotgan militsiya xodimi, boshqa vakolatli shaxs yoki fuqaro: qurollangan jinoyatchini odamlar gavjum bo'lgan joyda qurol ishlatmaslikka da'vat etish va uni iloji boricha qurolsizlantirish va harakatlanishini cheklash choralari ko'rish; o'zlarini tanishtirish, ushlanayotgan shaxsning talabiga ko'ra, shaxsni tasdiqlovchi hujjatni ko'rsatish; ushlanayotgan shaxsning ushlash vaqtida barcha harakatlarini sinchiklab kuzatish; zarur hollarda ushlash uchun ko'makchi kuchlarni chaqirish; tegishli huquqni muhofaza qilish organi bilan aloqa bog'lash; ushlash jarayoni to'g'risida xabar berish; ushlanayotgan shaxsga qanday jinoyat sodir etganlikda gumon qilinib ushlanganligini bildirib, yaqin oradagi militsiya yoki boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organiga borishni talab qilish; ushlangan shaxs militsiya va boshqa huquqni muhofaza qilish organiga keltirilganda, voqea tafsilotlarini o'zining yozma arizasi yoki so'roq bayonnomasida batafsil bayon etish; ushlab turish bayonnomasini tuzishda ishtirok etish kabi majburiyatlarga ega bo'ladi.

Ushlanayotgan shaxsda qurol borligi yoki u jinoyat sodir etganligini fosh qiluvchi dalillardan qutulish niyatida ekanligini taxmin qilishga yetarli asoslar mavjud bo'lsa, ushlayotgan vakolatli shaxs uni shaxsiy tintuv qilishi, uning yonidan topilgan narsalarni olib qo'yishi va bu haqda ushlangan shaxs militsiya muassasasiga yoki huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organga keltirilganidan so'ng xolislar huzurida bayonnoma tuzishga haqlidir. Shaxs jinoyat sodir etilgan joyda daliliy ashyolar bilan qo'lga tushgan hollarda, uni ushlab turish to'g'risida darhol bayonnoma tuzilishi hamda ushbu bayonnomada ushlangan shaxsdan daliliy ashyolar qanday holatda olinganligi aks ettirilishi lozim. Bunday imkoniyat bo'lmagan hollarda

shaxs zudlik bilan militsiya yoki boshqa huquqni muhofaza qilish organiga olib borilib, o'sha yerda tegishli bayonnoma tuziladi.

Ichki ishlar organi xodimi, boshqa vakolatli shaxs ushlab turilgan shaxsga advokatga yoki yaqin qarindoshiga **telefon orqali qo'ng'iroq qilish** yoki xabar berish, himoyachiga ega bo'lish, ko'rsatuvlar berishni rad etishga bo'lgan protsessual huquqlarini tushuntirishi, shuningdek u bergan ko'rsatuvlardan jinoyat ishiga doir dalillar sifatida uning o'ziga qarshi foydalanilishi mumkinligini bildirishi shart (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 224-moddasi).

Militsiya xodimi, boshqa vakolatli shaxs yoki fuqaro shaxsni qonunga xilof yoki O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 221-moddasida ko'rsatilgan asoslarsiz ushlab turganligi yoxud ushlab turish vaqtida ular ushlab vositalari va usullariga, qilmishning hamda uni sodir etgan shaxsning xavflilik darajasiga, shuningdek ushlab sharoitiga butunlay mos kelmaydigan, ushlab zarurati taqozo etmagan holda ushlanayotgan shaxsga qasddan zarar yetkazish ushlab choralari chegarasidan chetga chiqish deb topiladi va bunday holatlar favqulodda hodisa deb qaralib, bunga yo'l qo'ygan shaxslarning javobgarlik masalasi qonun doirasida hal etiladi.

Ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxsni ushlab vaqtida unga yetkazilgan zararining qonuniyligini baholashda, qilmishni sodir etgan shaxsning ushlanishdan qochish maqsadida qilgan harakatlari, ushlayotgan shaxsning kuchi va imkoniyatlari, ruhiy holati va ushlab bilan bog'liq bo'lgan boshqa holatlar hisobga olinadi.

Ushlab turish bayonnomasini tuzish va ushlab turishning asoslilikini tekshirish. Ushlab turish bayonnomasi surishtiruvchi, tergovchi, prokuror tomonidan bevosita shaxs ushlangan joyda yoki u militsiya yoki boshqa huquqni muhofaza qilish organiga keltirilganidan keyin mazkur organ boshlig'ining ko'rsatmasiga binoan navbatchi yoki boshqa xodim tomonidan darhol tuziladi.

Ushlab turish bayonnomasini tuzishda O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 225-moddasida nazarda tutilgan talablarga qat'iy rioya etilishi lozim.

Militsiya xodimi yoki huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organning xodimi amalga oshirilgan ushlab turish haqida ushlangan shaxs militsiya muassasasiga yoki huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organga keltirilgan paytdan boshlab o'n ikki soat ichida nazoratni amalga oshiruvchi prokurorga yozma shaklda xabar berishi shart

(O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 225-modda).

Ushlab turishning asosli ekanligini tekshirish, hujjatlarni talab qilish va ko‘zdan kechirish ushlangan shaxs militsiya muassasasi yoki huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organga keltirilgan paytdan boshlab 24 soatdan kechiktirilmay o‘tkazilishi zarur. Agar bu muddat ichida shaxs asossiz ushlab turilganligi aniqlansa, militsiya bo‘linmasining boshlig‘i yoki boshqa vakolatli shaxs ushlanganni ozod qilish to‘g‘risida qaror chiqaradi. Ozod etilayotgan shaxs ushbu qaror bilan tanishib, unga imzo chekadi. Qarorning nusxasi darhol nazoratni amalga oshiruvchi prokurorga yuboriladi. Militsiya bo‘linmasining boshlig‘i yoki boshqa vakolatli shaxs asossiz ushlab turilgan shaxsdan rasmiy tarzda uzr so‘rab, uning ushlanganligi hamda ozod etilishi sabablarini tushuntirib berishi lozim.

Ushlab turish harakati jinoyat ishi qo‘zg‘atilgunga qadar amalga oshirilgan bo‘lsa, ushlangan shaxsga darhol ushlab turish, jinoyat ishini qo‘zg‘atish, ishda gumon qilinuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb etish to‘g‘risidagi qarorlar e‘lon qilinadi. Ayni vaqtda unga O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 48-moddasidagi huquq va majburiyatlari tushuntiriladi. Ushlangan shaxs yuqoridagi qarorlar bilan tanishganligi va unga gumon qilinuvchining huquq va majburiyatlari tushuntirilganligini tegishli qarorlarga imzo chekish orqali tasdiqlaydi. Qarorlar tanlangan yoki tayinlangan himoyachiga tanishib chiqish uchun taqdim etiladi.

Ushlangan shaxs militsiya muassasasi yoki huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organga keltirilgan paytdan boshlab yigirma to‘rt soatdan kechiktirilmay so‘roq qilinishi lozim. Ushbu muddatga rioya etilmagan hollarda, ushlangan shaxs ushlanganidan keyin yigirma to‘rt soatdan kechiktirmay so‘roq qilinishini talab qilish huquqiga ega. So‘roq vaqtida ushlangan shaxsning himoyachisi ham ishtirok etishga xaqli.

(O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 48 va 110-moddalari)

Fuqarolarning jinoyat sodir etganlikda gumon qilinib ushlanishining asoslari va qonuniyligi prokuror tomonidan har o‘n kunda kamida bir marotaba tekshirilib boriladi va shaxsning qonunga zid ravishda yoki zaruriyatsiz ushlanganligi aniqlangan taqdirda, uni zudlik bilan ozod qilish choralari ko‘riladi.

Gumon qilinuvchi, nisbatan ushlab turish tarzidagi protsessual majburlov choralari

Ushlab turilgan shaxsning qarovsiz va yordamga muhtoj voyaga yetmagan farzandlari,

<p>qo'llanilganda, bu haqda 24 soatdan kechiktirmasdan uning oila a'zolariga yoxud yaqin qarindoshlariga, agar bu shaxs chet el fuqarosi bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligiga xabar berish shartligi to'g'risidagi qonun talablariga og'ishmay rioya qilinishi lozim (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 217-moddasi).</p>	<p>keksaygan ota-onalari, boshqa boqimlari bo'lganda surishtiruvchi, tergovchi, prokuror ularni qarindoshlarining yoki boshqa shaxslar yoxud muassasalarning homiyligiga topshirishi, majburlov chorasini qo'llanilgan shaxsning nazoratsiz qolayotgan mol-mulki yoxud uy-joyi bo'lsa, ularni qo'riqlash chorasini ko'rishi shart (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 218-moddasi).</p>
--	---

Ushlab turish muddati va ushlab turilganlarni saqlash joylari. Ushlab turish muddati ushlangan shaxsning militsiyaga yoki huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organga keltirilgan vaqtdan boshlab hisoblanadi va yetmish ikki soatdan ortiq davom etishi mumkin emas. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 243- moddasining o'ninchi qismiga ko'ra, to'plangan materiallar yetarli bo'lmagan taqdirda, sud tomonidan taraflar qo'shimcha dalillar taqdim etishlar uchun ularning iltimosnomasiga asosan ushlab turish muddatini 48 soatgacha uzaytirilishi mumkin.

Ushlab turish muddatlari MDH davlatlari qonunchiligida cheklangan: odatda u 48-72 soatni tashkil etadi. Ba'zi MDH davlatlari va ko'plab rivojlangan mamlakatlar qonunchiligida ushlab turish muddati 48 soat qilib belgilangan. (Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasining 22-moddasi, Portugaliya Respublikasi Konstitutsiyasining 28-moddasi). Ayrim mamlakatlarda bu muddat 24 soatdan oshmasligi lozim (Belgiya Konstitutsiyasining 12-moddasi).

Ushlab turish muddati tugagunga qadar va asoslar mavjud bo'lganda shaxs ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilinishi, unga ayb e'lon qilinishi, gumon qilinuvchi va ayblanuvchini O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 109 — 112-moddalarida belgilangan tartib va qoidalarga rioya qilgan holda so'roq qilinishi va uning ko'rsatuvlari baholanishi va O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 236 — 240-moddalari qoidalarga amal qilgan holda ehtiyot chorasini tanlash haqidagi masala hal qilinishi zarur.

Agar surishtiruv yuritish jarayonida gumon qilinuvchiga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash uchun asoslar borligi aniqlansa, surishtiruvchi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 342-moddasiga muvofiq, surishtiruv yuritish muddati o'tishini kutmasdan, ishni darhol tergovchiga o'tkazishi shart. Alohida hollarda, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 226-moddasining uchinchi qismiga muvofiq qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasi gumon qilinuvchi sifatida O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 221-moddasiga asosan ushlangan shaxsga nisbatan sud tomonidan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 243-moddasida belgilangan tartibda qo'llanilishi mumkin.

Jinoyat ishi qo'zg'atilganidan keyin va ushlab turishning butun muddati mobaynida surishtiruvchi, tergovchi ushlab turishning qonuniyligi, asosligini tekshirish uchun hamda jinoyatni sodir etish holatlarini aniqlash va jinoyatni aynan mazkur gumon qilinuvchi tomonidan sodir etilganligini tasdiqlovchi ma'lumotlarni to'plash yuzasidan tergov harakatlari o'tkazishlari mumkin. Yetmish ikki soat ichida shaxsning asossiz, noqonuniy ushlab turilganligi ayon bo'lsa, ushlab turish tarzidagi protsessual majburlov chorasi bekor qilinib, shaxs darhol hibsdan ozod etiladi.

Qonunda belgilangan ushlab turish muddati o'tgandan so'ng sudga taqdim etilgan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash to'g'risidagi iltimosnoma sud tomonidan ko'rib chiqilmaydi. Bunday hollarda, ushlab turilgan shaxsni ozod qilish masalasi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 234-moddasi va 240-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq hal etiladi. Shu bilan birga, bunday iltimosnoma sudga qonunda belgilangan muddat o'tgandan so'ng, biroq ushlab turish muddati o'tgunga qadar taqdim qilingan taqdirda, sud uni ko'rib chiqish uchun qabul qilishi lozim. Bunday holda, sud qonun buzilishiga yo'l qo'ygan mansabdor shaxsga nisbatan xususiy ajrim chiqaradi.

Shaxsni noqonuniy ushlab turish tufayli yetkazilgan ziyon, basharti keyinchalik unga nisbatan oqlov hukmi chiqarilgan bo'lsa yoki O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 83-moddasida nazarda tutilgan asoslarga ko'ra ish tugatilgan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 235-moddasida nazarda tutilgan tartibda to'liq hajmda qoplanadi.

Ushlab turish tarzidagi protsessual majburlov chorasini o'tash muddati ayblanuvchini qamoqda saqlash hamda O'zbekiston Respublikasi Jinoyat

kodeksining 62-moddasida belgilanganiga mutanosib ravishda sud tomonidan tayinlangan jazo muddatiga kiritiladi, ya'ni sud dastlabki qamoqning har bir kunini qamoq, intizomiy jazoga jo'natish va ozodlikdan mahrum qilishning bir kuniga, axloq tuzatish ishlari yoki xizmat bo'yicha cheklashning uch kuniga tenglashtirib hisoblaydi. Bu muddat ushlab turish bayonnomasida qayd etilgan gumon qilinuvchi haqiqiy ushlangan vaqtga qarab belgilanadi.

Ushlangan shaxslar ozodlikdan mahrum etish joyi hisoblanmagan xizmat binolarida yoki vaqtincha saqlash hibsonasi kameralarida saqlanadilar. Ushlab turilgan harbiy xizmatchilar esa gauptvaxtaga joylashtiriladi.

Ushlab turilganlarni huquqlarini ta'minlaydigan sharoitlar yaratilishi, ularni saqlash joylari sanitariya va boshqa qulayliklarga ega bo'lishi shart.

Ushlab turilganlarni istisno tarzida ayrim joylarda maxsus moslashtirilgan binolarda, dengiz va daryo kemalarda esa, maxsus ajratilgan kayutalarda saqlashga yo'l qo'yiladi. Jazoni ijro etish koloniyalarida ushlab turilganlarni saqlash uchun ozodlikdan mahrum etilganlardan alohida, maxsus kameralar jihozlanadi.

Ushlab turilganlarni qamoqda saqlash joylarida saqlash tartibi va shart-sharoitlari qonunda belgilangan. (Jinoyat-ijroiya kodeksining 35-40 va 58-moddalari).

<p>Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari jazolarni va boshqa jinoyat-huquqiy ta'sir choralarni ijro etuvchi muassasalar va organlar faoliyatini qonun hujjatlarida belgilangan hollarda va tartibda tekshiradilar (<i>Jinoyat-ijroiya kodeksi 16-modda</i>).</p>	<p>Prokuror ushlab turilganlarni saqlash joylarida shaxslar saqlanishining qonuniyligi, ushlab turish tartibi va sharoitlari haqidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi, ularning qonunda belgilangan huquq va majburiyatlariga rioya etilishi va jinoyat-ijroiya qonun hujjatlarini qo'llayotgan organ va muassasalar, mansabdor shaxslar faoliyatida qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazorat olib boradi. (<i>O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni (yangi tahrirda 30-moddasi)</i>).</p>
---	---

Ushlab turilganlarga himoyachi, qarindoshlari va boshqa shaxslar bilan uchrashish uchun ruxsat berish tartibi. Ushlab turilgan shaxs, O'zR O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 46-48-

moddalarining birinchi qismlarida nazarda tutilgan qoidalarga ko'ra, ushlangan yoki gumon qilinuvchi deb e'tirof etilganligi to'g'risidagi qaror unga ma'lum qilingan paytdan boshlab himoyachiga ega bo'lish hamda uchrashuvlar soni va davom etish vaqti cheklanmagan holda u bilan xoli uchrashish huquqiga ega. Himoyachining ishda ishtirok etishiga jinoyat protsessining har qanday bosqichida, shaxs ushlanganida esa uning harakatlanish erkinligiga bo'lgan huquqi amalda cheklangan paytdan boshlab ruxsat etiladi. Ushlab turilgan shaxsga tanlangan yoki tayinlangan himoyachi bilan birinchi xoli uchrashuvga birinchi so'roqqacha ruxsat beriladi. Qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasi tanlanayotgan ushlab turilgan shaxsning himoyachi bilan uchrashuviga O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 226-moddasini birinchi va ikkinchi qismlarida nazarda tutilgan muddatlar inobatga olingan holda ruxsat beriladi. Qayd qilingan moddaning qismlarida nazarda tutilgan muddatlar bir muncha qisqa muddatlar bilan chegaralanganligi sababli bunday uchrashuvning davomiyligi surishtiruvchi, tergovchi va prokuror tomonidan ikki soatga qadar cheklanishi mumkin.

Ushlab turilgan shaxsga qarindoshlari va boshqa shaxslar bilan uchrashuvga ushlab turilgan shaxslar saqlanadigan joyning ma'muriyati ushlab turish to'g'risidagi materiallar qaysi tergovchi yoki surishtiruvchining ish yurituvida bo'lsa, faqat o'sha tergovchi yoki surishtiruvchining yozma ruxsati asosida ijozat beradi, himoyachi bilan uchrashuv bundan mustasno.

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi qamoqda saqlanayotgan muassasa ma'muriyati himoyachidan u o'z himoyasi ostidagi shaxs bilan uchrashishi uchun surishtiruv, tergov organi yoki sud tomonidan yana boshqa maxsus ruxsatnoma berilishini talab qilishga haqli emas. Himoyachiga o'z himoyasi ostidagi shaxs bilan uchrashishga, o'zining yoki himoyasi ostidagi shaxsning talabiga ko'ra, jinoyat protsessining har qanday bosqichida darhol, gumon qilinuvchi bilan esa, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 48-moddasining birinchi qismida belgilangan qoidalarga muvofiq ruxsat berilishi shart.

Ushlab turilganni ozod qilish, unga ushlab turish tufayli yetkazilgan ziyonni undirish asoslari va tartibi. Shaxsning qonunga zid ravishda yoki zaruriyatsiz ushlangani aniqlanganda va ushlab turish zaruriyati qolmaganda, uni zudlik bilan ozod qilish choralari ko'rilishi lozim. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 234-moddasining birinchi qismi 1-, 2-, 3-bandlarida ko'rsatilgan asoslar mavjud bo'lganda, ushlab turilgan shaxsni ozod qilish to'g'risida surishtiruvchi,

tergovchi, prokuror qaror yoxud sud ajrim chiqaradi. Ushbu qaror yoki ajrim ijro uchun kelib tushishi bilan ushlab turilganlar saqlanadigan joyning boshlig'i tomonidan darhol ta'minlanadi.

Ushlab turilgan shaxs jinoyat sodir etganligi haqidagi gumon turli holatlarga ko'ra tasdiqlanmasa, masalan, jabrlanuvchi va jinoyat shohidlari ushlangan shaxsni jinoyat sodir etgan shaxs sifatida ko'rsatishda xatoga yo'l qo'ysalar, gumon qilinuvchi sodir etilgan qilmishga aloqador yoki daxli bo'lmasa, surishtiruvchi yoki tergovchi jinoyat sodir etishda gumon qilinib ushlab turilgan shaxsni darhol ozod qilishi shart.

Prokuror, tergovchi yoki surishtiruvchining ushlab turilgan shaxsni ozod qilish haqidagi qarori yoxud sudning uni ushlab turish muddatini uzaytirish to'g'risidagi yoki unga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash haqidagi ajrimi qonunda belgilangan muddat ichida (yetmish ikki soat ichida) ushlab turilganlar saqlanadigan joyga kelib tushmasa, ushlab turilganlar saqlanadigan joyning boshlig'i bu shaxsni ozod qiladi va uning ozod qilinganligi to'g'risida prokurorga, tergovchiga yoki surishtiruvchiga bildirish xati yuboradi.

Zarur hollarda ushlab turilganlar saqlanadigan joyning ma'muriyati ozod qilingan shaxslarning yashash joyiga yetib borishga yordam beradi va ularning ushlab turilganlar saqlanadigan joyda bo'lgan vaqti haqida ma'lumotnoma beradi. Ushlab turilgan shaxsning ozod qilinishi unga nisbatan qamoqqa olishdan boshqa ehtiyot choralari (munosib xulq-atvorda bo'lish to'g'risidagi tilxat, shaxsiy kafillik v.h.) qo'llanishiga to'sqinlik qilmaydi. Bunday hollarda shaxsga qonunda belgilangan muddatlar ichida ayblov e'lon qilingunga yoki ish harakatdan tugatilgunga qadar, u gumon qilinuvchi protsessual maqomida qoladi.

Shaxsga qonunsiz ushlab turish tufayli yetkazilgan ziyon, basharti keyinchalik unga nisbatan oqlov hukmi chiqarilgan yoki O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 83-moddasida nazarda tutilgan asoslarga ko'ra ish tugatilgan bo'lsa, to'liq hajmda qoplanadi **(O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 83-, 302-, 304-, 307-, 309-, 310-, 311-moddalari.)**

Yuqoridagi asoslarga ko'ra, oqlov hukmi chiqarilganda yoki ish harakatdan tugatilganda oqlov hukmida, qarorda esa tergovchi, prokuror rehabilitatsiya etilgan shaxsning o'ziga yetkazilgan mulkiy ziyonni undirib olish huquqini e'tirof etishlari lozim. Shuningdek, rehabilitatsiya etilgan shaxsga mulkiy ziyonni qoplash, ma'naviy ziyonni bartaraf qilish va boshqa huquqlarini tiklash tartibi tushuntiriladi.

8.4. Lavozimdan chetlashtirish

(Muallif – yuridik fanlar doktori, dotsent G.Z.To‘laganova)

Har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash va qonunda ko‘rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalanih huquqiga egadir. (O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 37-modda).	Har bir shaxs mehnat qilish, kasb tanlash, qulay ish sharoitlarini talab qilish va ishsizlikdan himoya qilinish huquqiga egadir. (Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi 23- modda).
---	---

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 255-moddasida ko‘zda tutilgan lavozimdan chetlashtirish jinoyat-protsessual majburlov choralari orasida alohida o‘rin tutadi. Ya’ni shaxs va fuqaroning mehnat huquqlarini bevosita cheklaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida lavozimdan chetlashtirish asoslari, qo‘llash va uning ustidan shikoyat qilish tartibi, amal qilish muddati, qonunga xilof ravishda lavozimdan chetlashtirish oqibatida yetkazilgan ziyonni qoplash qoidalari bir necha moddalarda bayon etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 255-260-moddalari).

Amaldagi qonunchiligimizga asosan bu chora faqat mansabdor shaxslarga emas, balki har qanday toifadagi shaxslarga nisbatan qo‘llanilishi mumkin. Ilgari lavozimdan chetlashtirish shaxsni ayblanuvchi tariqasida ishga jalb etish to‘g‘risidagi boblarga kiritilgan bo‘lsa, endilikda unga protsessual majburlov choralari qatoridan alohida 29-bob ajratilgan.

Bundan tashqari, ayrim toifadagi mansabdor shaxslarni lavozimidan chetlashtirish tartibi (O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 259-moddasi) hamda shaxsning lavozimidan qonunga xilof ravishda chetlashtirilgani oqibatida yetkazilgan ziyon, basharti keyinchalik unga nisbatan oqlov hukmi chiqarilgan yoki jinoyat ishi O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 83-moddasida nazarda tutilgan asoslarga ko‘ra tugatilgan bo‘lsa, to‘la hajmda qoplanishi (O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 260-moddasi) qayd etilgan.

Mazkur protsessual majburlov chorasining ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish ehtiyot choralariga juda yaqinlashadi, lekin u protsessual majburlov choralarining mustaqil turi hisoblanadi. Chunki u ehtiyot choralariga mansub bo‘lgan erkinlik va shaxsiy daxlsizlikni emas, balki faoliyat turi va kasb tanlash kabi konstitutsiyaviy huquqni cheklaydi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 18-sentabrdagi 335-sonli Qonuni bilan O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 256-moddasiga kiritilgan o‘zgarishlarga muvofiq, ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish uchun asoslar mavjud bo‘lganda prokuror, tergovchi ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish to‘g‘risida iltimosnoma qo‘zg‘atish haqida mazkur protsessual majburlov chorasini qo‘llash asoslarini bayon etgan holda qaror chiqaradi.

Ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish to‘g‘risida iltimosnoma qo‘zg‘atish haqidagi qarorda: lavozimidan chetlashtiriladigan shaxs haqidagi ma‘lumotlar; uning ish joyi; lavozimidan chetlashtirish asoslari ko‘rsatiladi. Qarorga iltimosnomani asoslovchi zarur materiallar ilova qilinadi. Tergovchining ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish to‘g‘risida iltimosnoma qo‘zg‘atish haqidagi qarori va zarur materiallar prokurorga yuboriladi. Prokuror ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish to‘g‘risidagi iltimosnomaning asosligini tekshirib, unga rozi bo‘lgan taqdirda, ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish to‘g‘risida iltimosnoma qo‘zg‘atish haqidagi qarorni va zarur materiallarni sudga yuboradi. Ushbu qonunchilikka kiritilgan o‘zgartishlar mazkur jinoyat-protsessual majburlov chorasini qo‘llash tartibini eng jiddiy ehtiyot chorasi hisoblangan qamoqqa olishga yaqinlashtirdi. Lavozimidan chetlashtirish o‘z tabiatiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 47-moddasida nazarda tutilgan xizmat bo‘yicha cheklashga ham o‘xshaydi, lekin ular qo‘llanish maqsadlari bo‘yicha bir-biridan keskin farq qiladi. Xizmat bo‘yicha cheklash jazo chorasi bo‘lib, u faqat harbiy xizmatchilarga nisbatan qo‘llanilsa, lavozimidan chetlashtirish har qanday ayblanuvchi, sudlanuvchiga nisbatan qo‘llanadigan vaqtincha protsessual majburlov chorasidir. Amaldagi qonunchilikda ayblanuvchi yoki sudlanuvchini mulkchilik shaklidan qat’i nazar, har qanday korxonada va tashkilotda (davlat, xususiy) egallab turgan har qanday lavozimidan chetlashtirish mumkinligi nazarda tutiladi. Lavozimidan chetlashtirish vaqtincha qo‘llanadigan chora bo‘lib, u faqat dastlabki tergov va sud muhokamasi davrida qo‘llaniladi.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 259-moddasiga ko‘ra, sudning ayblanuvchini, sudlanuvchini lavozimidan chetlashtirish to‘g‘risidagi ajrimi korxonada, muassasa, tashkilot rahbari uchun majburiy bo‘lib, rahbar ajrimni olishi bilan darhol uni ijro etishi hamda bu haqda tergovchini, prokurorni va sudni xabardor qilishi shart.

8.5. Majburiy keltirish

(Muallif – yuridik fanlar doktori, dotsent G.Z.To‘laganova)

Majburiy keltirish jiddiyligi bo‘yicha lavozimdan chetlashtirish chorasidan keyingi o‘rinda turuvchi protsessual majburlov chorasi hisoblanadi.

Majburiy keltirish – protsessual majburlov chorasi bo‘lib, amaldagi jinoyat-protsessual qonunchilikka ko‘ra u ayblanuvchi, sudlanuvchi, guvoh, ekspert, xolis va tarjimonlarga nisbatan ular tomonidan tegishli majburiyatlar bajarilmagan holatlarda qo‘llaniladi.

Majburiy keltirish protsessual majburlov chorasi bo‘lib, u ayblanuvchi, jabrlanuvchi, guvoh, ekspert va sudlanuvchi chaqiruvlarga binoan uzrsiz sabablarga ko‘ra hozir bo‘lmaganda, tergov va sud harakatlari yurituvini ta‘minlash maqsadida surishtiruvni olib borayotgan shaxs, tergovchi, prokuror va sud huzuriga majburiy tarzda keltirishdan iborat. Majburiy keltirish jinoyat-protsessual javobgarlik chorasi yoki jinoyat-protsessual sanksiya hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 262-moddasiga binoan majburiy keltirish gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, jabrlanuvchi va guvohning protsessual harakatlarda yoki sud majlisida ishtirok etishini ta‘minlash uchun, faqatgina bir holatda - basharti ular uzrsiz sabablarga ko‘ra kelishdan bosh tortganligi aniqlangan taqdirda qo‘llaniladi.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 57-moddasida fuqaroviy da‘vogar deb e‘tirof etilgan shaxs ayni vaqtda jabrlanuvchining barcha huquqlaridan foydalanishi va uning majburiyatlarini bajarishi shart ekanligi ta‘kidlangan. Demak, fuqaroviy da‘vogar ham majburiy keltirilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 74-moddasiga binoan xolis o‘zi ishtirok etgan tergov harakatini yuritish bilan bog‘liq holatlar bo‘yicha guvoh tariqasida so‘roq qilinganda, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 66-moddasida nazarda tutilgan guvohning huquqlaridan foydalanadi va majburiyatlarini bajaradi. Binobarin, xolis guvohning majburiyatlarini bajarayotgan hollarda, unga nisbatan majburiy keltirish tarzidagi protsessual majburlov chorasi qo‘llaniladi.

MDH davlatlari qonunchiligida majburiy keltirilishi mumkin bo‘lgan shaxslar ro‘yxati turlicha ko‘rinishga ega. Bu chora Armaniston

Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 153-moddasida faqat gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, jabrlanuvchi, guvohga, Estoniya Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 783-moddasi va Rossiya Federatsiyasi Jinoyat-protsessual kodeksining 111-moddasi 2-qismida esa gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, jabrlanuvchi va guvohdan tashqari fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar, ekspert, mutaxassis, tarjimon va xolislarga nisbatan qo'llanishi nazarda tutilgan. Belarus Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 128-moddasi 2-qismiga ko'ra esa, majburiy keltirish tarzidagi chora surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudning qarori bilan jinoyat protsessi ishtirokchilarining barchasiga nisbatan qo'llanishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 97-moddasi ikkinchi qismida chaqiruv qog'ozida shaxs kim sifatida, qaysi manzilga va kimning huzuriga chaqirilayotganligi, qaysi kunda va qaysi soatga kelishi kerakligi, shuningdek uzrsiz sabablarga ko'ra kelmay qolgan taqdirda qanday oqibatlar ro'y berishi ko'rsatilgan bo'lishi lozimligi ta'kidlangan. Chaqiruv qog'ozini chaqiriluvchiga topshirilib, tilxat olinadi. Chaqiruv qog'ozini olib borilganda chaqiriluvchi vaqtincha yo'q bo'lsa, unga berib qo'yish uchun chaqiruv qog'ozini u bilan birga yashovchi voyaga yetgan oila a'zolaridan biriga, yotoqxonasi ma'muriyatiga, uy egasiga yoki fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organi vakiliga topshirilib, tilxat olinadi. Biroq, jinoyat-protsessual qonunchilikda chaqiruv qog'ozini kechikib yoxud qandaydir sabablarga ko'ra umuman topshirilmaganda qanday yo'l tutish lozimligi ko'rsatilmagan. Shaxs uzrsiz sabablarga ko'ra kelmay qolgan taqdirda qanday oqibatlar ro'y berishi to'g'risida ogohlantirilmagan har qanday holatda, unga nisbatan majburiy keltirish chorasini qo'llanmasligi kerak. **Majburiy keltirish jinoyat-protsessual majburlov chorasini bo'lib, u tergov va sud organlariga chaqiruv bo'yicha kelmayotgan shaxsni majburiy tarzda keltirishdan iboratdir.** Amaldagi jinoyat-protsessual qonun hujjatlariga ko'ra, jinoyat ishini yuritish munosabati bilan surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sud tomonidan belgilangan tartibda chaqirilgan shaxslar aynan ko'rsatilgan vaqtda hozir bo'lishlari shart. Uzrsiz sabablarga ko'ra kelmaganlari taqdirda ular majburiy keltiriladilar (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 261-modda).

Amaldagi jinoyat-protsessual qonun hujjatlariga ko'ra, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, jabrlanuvchi, guvohga nisbatan majburiy keltirishni qo'llash mumkinligiga, basharti ular uzrsiz sabablarga ko'ra kelishdan bosh tortganligi aniqlangan taqdirda, yo'l qo'yiladi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 262-moddasi

ikkinchi qismiga ko‘ra, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchini oldindan chaqiruvsiz majburiy keltirish ular surishtiruv, dastlabki tergov va suddan yashirilib yurgan yoki aniq yashash joyi bo‘lmagan taqdirda qo‘llanilishi mumkin.

Majburiy keltirish protsessual majburlov chorasi sifatida insonga jismoniy ta‘sir ko‘rsatish bilan bog‘liq. Majburiy keltirish to‘g‘risidagi qaror yoki ajrim ijro etish uchun ish yuritilayotgan joydagi ichki ishlar organiga topshiriladi (O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 264-moddasi birinchi qismi). Majburiy keltirish chorasining ijro etilishi amaldagi O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi va Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligining 2007-yil 12-yanvardagi 2/1, 2-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Sudga kelishdan bosh tortgan shaxslarni majburiy keltirish bo‘yicha sud topshiriqlarini ijro etish tartibi to‘g‘risida”gi Yo‘riqnomaga asosida amalga oshiriladi.

8.6. Shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish

(Muallif – yuridik fanlar doktori, dotsent G.Z.To‘laganova)

<p>Hech kimga uning roziligisiz tibbiy yoki ilmiy tajribalar o‘tkazilishi mumkin emas.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 26-moddasi)</i></p>	<p>Jinoyat sodir etish vaqtida o‘z qilmishining ijtimoiy xavfli xususiyatini anglagan va o‘z harakatlarini boshqara olgan shaxs aqli raso deb topiladi.</p> <p>Ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etish vaqtida aqli noraso holatda bo‘lgan, ya‘ni surunkali ruhiy kasalligi, ruhiy holati vaqtincha buzilganligi, aqli zaifligi yoki boshqa tarzdagi ruhiy kasalligi sababli o‘z harakatlarining ahamiyatini anglay olmagan yoki harakatlarini boshqara olmagan shaxs javobgarlikka tortilmaydi.</p> <p><i>(O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 18-moddasi)</i></p>
--	--

Milliy sud-huquq tizimini isloh etishning mantiqiy davomini anglatuvchi sud hokimiyati mustaqilligini mustahkamlash masalalari

jinoyat ishlari yurituvining sudga qadar bosqichlarida sud nazoratini kengaytirishni, xususan, tibbiy muassasaga joylashtirish kabi protsessual majburlov choralari qo'llashda tatbiq etilishini taqozo etdi.

Jumladan, 2012-yil 18-sentabrda O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksining 29- va 31-boblariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritilib, sudga qadar ish yurituv bosqichida qo'llanadigan choralari, ya'ni lavozimdan chetlashtirish va tibbiy muassasaga joylashtirish tarzidagi protsessual majburlov choralari faqat sudyaning sanksiyasi asosida qo'llash tartibi qonunan mustahkamlandi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 265-266-moddalari ushlab turish, qamoqda saqlash kabi jiddiy protsessual choralardan biri sanaladigan shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish tartibini belgilaydi. Sud-tibbiyot yoxud sud-psixiatriya ekspertizasini o'tkazishda statsionar kuzatuv zarurati bo'lsa, prokuror, tergovchi shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish to'g'risida iltimosnoma qo'zg'atish haqida mazkur protsessual majburlov chorasini qo'llash asoslarini bayon etgan holda qaror chiqaradi. Ushbu chiqarilgan qaror prokuror tomonidan o'rganib chiqilib, sudga iltimosnoma kiritish yoki kiritmaslik masalasi hal qilinadi. Ushbu jarayonda prokuror shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish to'g'risidagi iltimosnomaning asosligini tekshirib, unga rozi bo'lgan taqdirda, shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish to'g'risida iltimosnoma qo'zg'atish haqidagi qarorni va zarur materiallarni sudga yuboradi.

Sudya shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqib, shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish to'g'risida yoki shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirishni rad qilish haqida ajrim chiqaradi.

Har bir jinoyat sodir qilgan aqli raso shaxs o'z qilmishining oqibatini tushungan holda qasddan harakat qiladi yoki ehtiyotsizlik natijasida jinoyat sodir etadi va jinoiy javobgarlikka tortiladi. Bu masalaga jinoyat huquqi fanida jiddiy ahamiyat beriladi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 18-moddasida jinoyat sodir etish vaqtida o'z qilmishining ijtimoiy xavfli xususiyatini anglagan va o'z harakatlarini boshqara olgan shaxs aqli raso deb topiladi. Ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etish vaqtida aqli noraso holatda bo'lgan, ya'ni surunkali ruhiy kasalligi, ruhiy holati vaqtincha buzilganligi, aqli zaifligi yoki boshqa tarzdagi ruhiy kasalligi sababli o'z harakatlarining ahamiyatini anglay olmagan yoki harakatlarini boshqara olmagan shaxs javobgarlikka tortilmaydi (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 18-moddasining 2-qismi). Demak, jinoyat protsessida jinoyat sodir etishda gumon qilinayotgan yoki ayblanayotgan

shaxsning aqli rasoligi yoki norasoligi masalasi hal etilishi muhim, chunki u aqli noraso deb topilsa, jinoyat ishi alohida toifaga ajratiladi va O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 61-bobida ko'rsatilgan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash to'g'risidagi ishlarni yuritish tartibida olib boriladi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 265-269-, 569-moddalarida shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish asoslari, tartibi, muddatlari, bunday qaror va ajrimlar ustidan shikoyat qilish hamda bu toifadagi ishlarni to'xtatib turish masalalari bayon etilgan. Shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish va tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash shaxsni jamiyatdan ajratish bilan bog'liq bo'lgan keng ma'nodagi jinoyat-protsessual majburlov hisoblanadi, ya'ni bu choralar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 25-moddasidagi shaxsning erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqlarini cheklash bilan bog'liq.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 265-moddasiga ko'ra, jabrlanuvchilar va guvohlar tegishli sud ekspertizasini o'tkazish uchun tibbiy muassasaga majburiy joylashtirilishi mumkin emas, zero ular gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 15-moddasi to'rtinchi va beshinchi qismlarida nazarda tutilgan og'ir yoki o'ta og'ir jinoyatlarni sodir etganligini fosh qilayotgan va ular bergan ko'rsatuvlarning ishonchliligini tekshirishning boshqa imkoniyati bo'lmagan hollar bundan mustasnoligi belgilangan. Ishni sudga qadar yuritish bosqichida shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish to'g'risidagi masala O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 31-bobida belgilangan tartibda, sudlanuvchini tibbiy muassasaga joylashtirish haqidagi masala esa O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 423 va 438-moddalarida nazarda tutilgan tartibda sud tomonidan hal qilinadi.

Shuningdek, mazkur modda mazmuniga ko'ra, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining tibbiy muassasada bo'lgan vaqti qamoqda saqlash muddatiga qo'shib hisoblanadi. Bu holat ham shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish chorasini qamoqda saqlash jinoyat-protsessual institutiga yanada yaqinlashtiradi.

Shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish to'g'risidagi iltimosnoma dastlabki tergov yuritilayotgan joydagi jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudi tomonidan ko'rib chiqiladi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 265-moddasiga binoan, ayblanuvchi va sudlanuvchining ruhiy holati ustidan

statsionar kuzatuv zarurati bo'lganda, ular tegishli tibbiy muassasaga joylashtiriladi va bu holatda O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 236-moddasida ehtiyot choralarining maqsadlaridan birortasi ham ko'zda tutilmaydi. Biroq shaxsga nisbatan ehtiyot chorasi qo'llanilmagan bo'lsa, uni tibbiy muassasaga joylashtirilishi bir vaqtning o'zida ehtiyot choralari ko'zlaydigan maqsadlarga erishish uchun xizmat qilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 265-moddasining to'rtinchi qismida jabrlanuvchi va guvohlarni ekspertiza o'tkazish uchun tibbiy muassasaga majburiy tarzda joylashtirish mumkin emasligi ta'kidlangan.

Shubhasiz, jabrlanuvchi va guvohlar majburiy tarzda tibbiy va ruhiy statsionarlarga joylashtirilmasliklari lozim. Lekin ular gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 15-moddasi to'rtinchi va beshinchi qismlaridagi og'ir va o'ta og'ir jinoyatlarni sodir etishda aybli ekanligini ochib berayotgan va ko'rsatuvlarning ishonchliligini tekshirishning boshqa imkoniyati bo'lmagan hollarda tibbiy muassasaga joylashtirilishlari mumkinligi haqidagi qoidaga e'tiroz bildirish mushkul. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 173-moddasi 5-bandidagi jabrlanuvchi, guvohning ruhiy va jismoniy holatini hamda ular ish uchun ahamiyatli bo'lgan holatlarni idrok qilish, esda saqlash va so'roq qilganda, ifodalab berish layoqatiga ega ekanliklarini, shuningdek jabrlanuvchining jinoyat protsessi chog'ida o'z huquqlari va qonuniy manfaatlarini mustaqil himoya qila olish layoqatini aniqlashda ekspertiza o'tkazishning shart ekanligi ham faqat jinoyat ishini muvaffaqiyatli hal etishga ko'maklashadi.

Biroq, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 173-moddasi 5-bandida ko'rsatilgan holatlarda ekspertizani tayinlash va o'tkazish jinoyat ishini yuritishga mas'ul bo'lgan mansabdor shaxslarning majburiyatiga kiradi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 55-moddasida jabrlanuvchining surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudning chaqiruviga binoan hozir bo'lish, haqqoniy ko'rsatuvlar berish, haqiqatni aniqlashga, dalillarni yo'q qilish, soxtalashtirish, guvohlarni ko'ndirishga urinish va qonunga xilof boshqa harakatlar bilan to'sqinlik qilmaslik, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudning talabi bo'yicha dalillar taqdim qilish va ishning tergov va sud majlisi vaqtida tartibga rioya etish kabi majburiyatlari belgilangan. Guvohning huquqiy maqomiga ham shunga o'xshash majburiyat va

javobgarlik choralari xosdir. (O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 66-moddasi).

Qonunda jabrlanuvchi yoki guvohning ekspertiza tekshiruvi yoxud guvohlantirish o‘tkazishdan bosh tortganligi uchun jinoyat-protsessual javobgarlik choralari belgilash mumkin, lekin bu choralar ushbu subyektlarni jamiyatdan ajratish bilan bog‘liq bo‘lmasligi aniq. Bir vaqtning o‘zida xuddi shunday zarurat tug‘ilganida gumon qilinuvchi va ayblanuvchi jamiyatdan ajratiladi. Demak, ularni tibbiy yoki ruhiy statsionarga joylashtirishda ehtiyot choralari qo‘llashga xos bo‘lgan maqsadlar ko‘zlanadi. Ushbu fakt orqali tomonlarning tengligi prinsipi buziladi. Shunday jiddiy majburlov chorasini qo‘llashni gumon qilinuvchi va ayblanuvchining protsessual maqomi orqali asoslash ularning jinoyat sodir etishda aybdor deb topilmaganligini e‘tiborga olganda ishonchsiz ko‘rinadi.

Albatta, gumon qilinuvchi va ayblanuvchi, shuningdek jabrlanuvchi va guvoh statsionar ekspert tekshiruvlariga ixtiyoriy tarzda rozilik bergan holatlar bundan mustasno. Ushbu holatda tibbiy yoki ruhiy statsionarga joylashtirish o‘zining majburlov xarakterini yo‘qotadi.

Shaxsning roziligisiz tibbiy yoki ruhiy statsionarga majburiy joylashtirish faqat hibsdan saqlanayotgan shaxslarga nisbatan qo‘llanilishi lozim. Hibsdan saqlanmayotgan gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchini tibbiy yoki ruhiy statsionarga majburiy joylashtirish zarurati tug‘ilgan hollarda esa O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 243-moddasida nazarda tutilgan tartibda sudga murojaat qilinadi. Gumon qilinuvchi va ayblanuvchini tibbiy yoki ruhiy statsionarga majburiy joylashtirish amaldagi O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 265-269-moddalarida ko‘zda tutilgan tartibda amalga oshirilishi mumkin.

Shaxs tibbiy muassasaga ko‘pi bilan bir oy muddatga joylashtirilishi mumkin. Alohida hollarda shifokorlarning statsionar ekspertiza o‘tkazish jarayonida olingan xulosasiga asosan bu muddat sudning ajrimi bilan bir oyga uzaytirilishi mumkin va muddatni yanada uzaytirishga yo‘l qo‘yilmaydi. Ekspertiza o‘tkazishni tayinlagan shaxs yoki ekspertlar tomonidan jiddiy qonunbuzarliklarga yo‘l qo‘yilganligi aniqlangan hollarda sudya o‘zining xususiy ajrimi orqali protsessual ta’sir choralari ko‘radi.

8.7. Protsessual majburlov choralari, protsessual majburiyatlar va sud majlisida tartibni buzganlik uchun javobgarlik *(Muallif – yuridik fanlar doktori, dotsent G.Z.To‘laganova)*

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi to‘rtinchi bo‘limining 32-bobi 271-274-moddalarida ko‘rsatilgan eng so‘nggi protsessual majburlov choralari - protsessual majburiyatlar va sud majlisida tartibni buzganlik uchun javobgarlikdir. Protsessual majburiyatlarni buzganlik uchun javobgarlik jinoyat protsessining har qanday bosqichida amal qilib, chora qo‘llangan shaxsni jinoiy javobgarlikka tortishga qadar jiddiy oqibatlarga olib keladi.

Surishtiruv, dastlabki tergov va sudda protsessual majburiyatlarni hamda tartibni buzganlik uchun javobgarlik. Jinoyat protsessual huquqbuzarlik uchun javobgarlik qonunga rioya etmaslikda aybdor bo‘lgan shaxs xulqining uning o‘ziga nisbatan noqulay oqibatlarga olib keladigan rasmiy salbiy baholanishidir. Protsessual huquqbuzarlik uchun javobgarlik hamma vaqt faqat jarima xususiyatidagi sanksiyaning tatbiq etilishidir. Javobgarlik asosi – protsessual huquqbuzarlik deb ataladigan jamiyat uchun xavfli bo‘lgan hamda shuning uchun qonun bilan taqiqlangan qilmish (harakat yoki harakatsizlik)dir. Jinoyat protsessida javobgarlik qonunning ayb bilan bog‘liq buzilishi uchungina (qasddan yoki ehtiyotsizlik) yuzaga keladi. Protsessual huquqbuzarlik ko‘pincha jinoyat tarkibini (masalan, guvohning sud chaqiruviga ko‘ra kelishdan ataylab bosh tortgani) yoki intizomiy qilmish tarkibini tashkil etadi.

Sud majlisida tartibni buzgan, raislik qiluvchining farmoyishlariga bo‘ysunmagan yoki sudni behurmat qilgan taqdirda tartibbuzar bunday harakatlarning takrorlanishi uni sud majlisi zalidan chiqarib yuborishga sabab bo‘lishi haqida, tartibbuzar esa, bundan tashqari, ma‘muriy javobgarlikka tortilishi ham mumkinligi xususida ogohlantiriladi. Bu ogohlantirish ta‘sir qilmasa, protsess ishtirokchisi sudning ajrimiga, boshqa shaxslar esa, raislik qiluvchining farmoyishiga muvofiq sud majlisi zalidan chiqarib yuboriladi. Ishni ko‘rish chiqarib yuborilgan shaxslarsiz davom ettiriladi. Sud majlisida tartibni buzganlik uchun javobgarlik esa faqat ishni sudda ko‘rish bosqichiga mansub bo‘lib, u asosan pul undirish, jarima solish, eng jiddiy hollarda esa ma‘muriy javobgarlikni keltirib chiqaradi. Demak, ushbu ikki mustaqil protsessual majburlov chorasi bir-biridan tubdan farq qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 271-moddasiga ko‘ra jinoyat ishini yuritish chog‘ida Jinoyat kodeksining 230-241-moddalarida nazarda tutilgan odil sudlovga qarshi qaratilgan jinoyatni sodir etgan protsess ishtirokchilari O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining umumiy qoidalariga binoan javobgarlikka tortiladilar.

Mazkur protsessual majburlov chorasi jinoyat protsessi ishtirokchilarining juda keng doirasiga nisbatan qo‘llanilishi mumkin:

Surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudning guvohlantirishdan, ekspertizadan o‘tish, ekspert tekshiruvi uchun namunalar taqdim etish to‘g‘risidagi qonuniy talablarini bajarishdan bosh tortganliklari uchun - jabrlanuvchi va guvohlar;

Surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning talabi bilan izlanayotgan ashyolarni berishdan bosh tortganlik uchun - uyida olib qo‘yish, tintuv o‘tkazilayotgan shaxslar, shuningdek mol-mulki xatlangan shaxslar (gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va ularning yaqin qarindoshlaridan tashqari);

Surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning pochta-telegraf jo‘natmalarini xatlash to‘g‘risidagi qarorini bajarmaganlik yoki yetarli darajada bajarmaganlik uchun - aloqa muassasalarining xodimlari;

Hodisa sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirish, tergov eksperimenti o‘tkazish, murdani eksqumatsiya qilish, olib qo‘yish va tintuv o‘tkazishga to‘sqinlik qilayotgan mansabdor shaxslar va fuqarolar;

Surishtiruv yoki dastlabki tergov ma‘lumotlarini oshkor qilganlik uchun, agar ular ma‘lumotlarni oshkor qilishga yo‘l qo‘yilmasligi haqida surishtiruvchi, tergovchi, prokuror tomonidan ogohlantirilgan bo‘lsalar - protsess ishtirokchilari;

Korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning rahbarlari - surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudning chaqiruviga binoan gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, guvoh, mutaxassis, ekspert, tarjimon, shuningdek jabrlanuvchi, fuqaroviy da‘vogar, fuqaroviy javobgar, ularning vakillari, jamoat ayblovchisi, jamoat himoyachisi, xalq maslahatchilarining kelishiga to‘sqinlik qilganlik, jinoyatning sabablariga va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarga barham berish to‘g‘risidagi surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning taqdimnomasi yoki sudning xususiy ajrimini bajarmaganlik yoxud talab darajasida bajarmaganlik uchun qonunda nazarda tutilgan javobgarlikka tortilishlari mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 272-moddasiga ko‘ra sud majlisida tartibni buzgan, raislik qiluvchining farmoyishlariga bo‘ysunmagan yoki sudni behurmat qilgan tartibbuzar bunday harakatlarning takrorlanishi uni sud majlisi zalidan chiqarib yuborishga sabab bo‘lishi, ma‘muriy javobgarlikka tortilishi ham mumkinligi xususida ogohlantiriladi. Ogohlantirish kor qilmasa, protsess ishtirokchisi sud majlisi zalidan chiqarib yuboriladi va ishni ko‘rish chiqarib yuborilgan shaxslarsiz davom ettiriladi. Mazkur protsessual majburlov chorasi sud majlisi vaqtida tartibni buzgan prokuror yoki advokatga

nisbatan ham qo'llanilishi mumkin. Ular tartibni buzganligi uchun sud majlisi zalidan chiqarib yuborilmay, ishni eshitish keyinga qoldiriladi, bir shaxsni bir necha ayblovchi ayblayotgan yoki bir necha himoyachi himoya qilayotgan hollar bundan mustasno. Ayblovchi yoki himoyachining nomunosib xulq-atvori to'g'risida sud xususiy ajrim chiqarib, uni tegishliligiga qarab, yuqori turuvchi prokuror yoki advokatlar malaka komissiyasiga yuboradi. Sud zalidan sudlanuvchi chiqarib yuborilgan bo'lsa, ishni ko'rish davom ettiriladi, lekin hukm sudlanuvchi ishtirokida e'lon qilinishi yoki e'lon qilinganidan keyin unga darhol ma'lum qilinib, tilxat olinishi lozim.

Sudlanuvchi, prokuror va advokatdan tashqari boshqa sud majlisi zalida tartibni buzgan shaxslar raislik qiluvchining chiqargan ajrimiga asosan ma'muriy javobgarlikka tortilishi mumkin.

Sud muhokamasi vaqtida yoki ish apellyatsiya, kassatsiya yoxud nazorat tartibida ko'rib chiqilayotganida muayyan protsess ishtirokchisining odil sudlovga qarshi jinoyat sodir etganlik uchun jinoiy javobgarlikka tortilishiga asoslar aniqlangan bo'lsa, sud bu protsess ishtirokchisiga nisbatan jinoyat ishi qo'zg'atish to'g'risidagi masalani hal qilish uchun tegishli materiallarni ilova qilgan holda bu haqda prokurorga xabar qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 274-moddasida pul undirish va jarima solish to'g'risidagi masalani sud tomonidan hal qilish tartibi ko'rsatib o'tilgan. O'zbekiston Respublikasi jinoyat-protsessual qonunchiligi bo'yicha jarima solish tarzidagi protsessual majburlov chorasining faqat sudda tartibni buzgan shaxslarga nisbatan qo'llash mumkinligi nazarda tutiladi va boshqa bironta moddada jarima jazosi qayd etilmagan.

Boshqa mamlakatlarda jarima tariqasidagi jazo jinoyat protsessining turli bosqichlarida qo'llanadi. Masalan: gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchining munosib xulq-atvorini ta'minlay olmagan shaxsiy kafil (Rossiya Federatsiyasi Jinoyat-protsessual kodeksining 103-moddasi 4-qismi, Belarus Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 121-moddasi 2-qismi, Qozog'iston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 145-moddasi 5-qismi, Qirg'iziston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 106-moddasi 4-qismi, Tojikiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 87-moddasi ikkinchi qismi); voyaga yetmagan gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchining munosib xulq-atvorini ta'minlay olmagan ularni kuzatuv ostiga olgan shaxs (Rossiya Federatsiyasi Jinoyat-protsessual kodeksining 105-moddasi 3-qismi, Ukraina Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 164-moddasi, ikkinchi qismi, 436-moddasi

uchinchi qismi); jabrlanuvchi, guvoh, fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar, ekspert, mutaxassis, tarjimon (Rossiya Federatsiyasi Jinoyat-protsessual kodeksining 111-moddasi 2-qismi, Ukraina Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 70-moddasi uchinchi qismi, Qozog'iston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 160-moddasi, Qirg'iziston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 120-moddasi, Tojikiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 327-moddasi ikkinchi qismi) kabi ishtirokchilardan o'z protsessual majburiyatlarini bajarmaganligi uchun pul jarimasi undiriladi. Ya'ni, MDH davlatlarining ko'pchiligida jarima tarzidagi chora sud muhokamasidan tashqari protsessning boshqa bosqichlarida ham keng qo'llaniladi.

Deyarli barcha MDH davlatlari qonunchiligidagi ekspert, mutaxassis, guvoh, tarjimonning majburiyatlari, shuningdek shaxsiy kafillik to'g'risidagi moddalarda mazkur ishtirokchilarga yuklatilgan majburiyatlar bajarilmagan taqdirda, ularga nisbatan pul jarimasi qo'llanishi hamda jarimaning minimal va ba'zi davlatlarda maksimal miqdorlari ham belgilab qo'yilgan.

8.8. Jinoyat protsessi ishtirokchilarining xavfsizligini ta'minlash.

(Muallif – yuridik fanlar doktori, dotsent G.Z.To'laganova)

Protsess ishtirokchilariga g'ayrihuquqiy tahdid o'tkazish jinoyat sudlov ishlari samaradorligini pasayishiga olib keluvchi omillardan biri bo'lib, jinoyatchilikka qarshi kurashning bugungi kundagi ahvoli ushbu masalaga alohida e'tibor qaratish lozimligini taqozo etmoqda. Protsess ishtirokchilarining xavfsizligini ta'minlashda "Inson huquqlar umumjahon deklaratsiya"si (8-modda), "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi Xalqaro Pakt" (14-modda), BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1985-yil 29-noyabrda qabul qilingan «Jinoyat va mansab suiiste'molligidan jabrlanganlar uchun odil sudlovning asosiy prinsiplari to'g'risidagi deklaratsiya», BMTning 2000-yil 15-noyabrda qabul qilingan «Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi Konvensiya» (24-modda), BMTning 2000 yilda qabul qilingan «Jinoyatchilik va odil sudlov to'g'risida: XXI asr chaqirig'iga javoblar» nomli Vena deklaratsiyasi, BMTning 2005-yil 22-iyulda qabul qilingan Rahbariy prinsiplari (27-modda) va boshqa xalqaro hujjatlardagi qoidalar huquqiy asos sifatida e'tirof etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 22-, 43-, 44-moddalarida mustahkamlangan qoidalar ham barcha fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilishga xizmat qiladi. Jinoyat-protsessual kodeksining bir qancha moddalarida ham protsess

ishtirokchilarining xavfsizligini ta'minlash to'g'risidagi qoidalar o'z aksini topgan. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 270-moddasiga ko'ra, jabrlanuvchi, guvoh yoki ishda ishtirok etayotgan boshqa shaxslarga, shuningdek ularning oila a'zolari yoki yaqin qarindoshlariga o'ldirish, kuch ishlatish, mol-mulkini yo'q qilib tashlash yoxud mol-mulkiga shikast yetkazish bilan yoki o'zga g'ayriqonuniy xatti-harakatlar bilan tahdid qilinayotganligi haqida yetarli ma'lumotlar mavjud bo'lgan taqdirda surishtiruvchi, tergovchi, prokuror sud bu shaxslarning hayoti, salomatligi, sha'ni, qadr-qimmatini va mol-mulkini muhofaza qilish, shuningdek aybdorlarni aniqlash hamda ularni javobgarlikka tortish choralarini ko'rishlari shart.

Protsess ishtirokchilari xavfsizligining kafolatlariga jabrlanuvchilarning, guvohlarning, xolislarning yoki protsessning boshqa ishtirokchilarini, shuningdek ularning oila a'zolari yoki yaqin qarindoshlarining xavfsizligini ta'minlash taqozo etgan hollarda sudning yopiq sud majlisi o'tkazish huquqi ham taalluqlidir (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 19-moddasi).

Jabrlanuvchilar, guvohlar, xolislari va protsess boshqa ishtirokchilarining xavfsizligini ta'minlash maqsadida tergov harakatlari bayonnomasining kirish qismlari tanishib chiqish uchun taqdim qilinmasligi mumkin. Bunday hollarda bayonnomalarning ko'rsatib o'tilgan protsess ishtirokchilari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan kirish qismlari muhrlangan holda saqlanadi (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 375-moddasi).

Bundan tashqari, sud majlisiga chaqirilishi lozim bo'lgan shaxslarning ro'yxatida protsess ishtirokchilari xavfsizligini ta'minlash maqsadida ularning taxalluslari ko'rsatilishi mumkin. Xavfsizligi ta'minlanishiga muhtoj bo'lgan shaxslar haqidagi ma'lumotlar ular ishtirokida o'tkazilgan tergov harakatlari bayonnomalarining kirish qismi bilan birga muhrlangan holda sudga taqdim etiladi. Ular bilan faqat ayblov xulosasini tasdiqlovchi prokuror va ishni ko'rib chiquvchi sudya tanishishlari mumkin (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 380-moddasi). Bunday shaxslarni tanib olish xavfsizligini ta'minlash maqsadida ularning fotosuratidan foydalaniladi (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 127-moddasi).

Ishtirokchilarga nisbatan o'tkaziladigan g'ayrihuquqiy tahdid turli ko'rinishlarda namoyon bo'lishi mumkin. Masalan, telefon orqali suhbatda yoki shaxsiy uchrashuvda tahdidli so'zlarni aytish, ko'chalarda shaxsning orqasidan indamay kuzatib yurish, mol-mulkka shikast yetkazish yoki uni

yo‘q qilishga intilish, oila a‘zolarini ta‘qib ostiga olish, turli uydirma va bo‘htonlar tarqatish, zo‘ravonlik yoki o‘ldirish bilan qo‘rqitish v.h.

Ishtirokchilarga nisbatan g‘ayrihuquqiy tahdid solinishi mumkinligi to‘g‘risida yetarli ma‘lumotlar mavjudligi **xavfsizlikni ta‘minlash choralari** ko‘rilishiga asos bo‘la oladi.

Odil sudlovga ko‘maklashishni istagan shaxslarga o‘tkazilayotgan tahdid to‘g‘risidagi har qanday ma‘lumotlar (shaxsning arizasi, huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan tahdid solish faktining aniqlanganligi, boshqa manbalardan olingan xabarlar) xavfsizlikni ta‘minlash choralari qo‘llash uchun asos bo‘ladi. Vakolatli organlar tomonidan protsess ishtirokchisiga xavf solinayotganligi to‘g‘risida protsessual yoki boshqa manbalardan olingan ma‘lumotlar, shaxslarning xavfsizlik choralari qo‘llash to‘g‘risidagi arizalari ushbu choralarni qo‘llash uchun asos bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 270-moddasining 2-qismida: «Surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud ichki ishlar organlariga ishda ishtirok etayotgan shaxslarning hayoti, salomatligi, sha‘ni, qadr-qimmati va mol-mulki muhofaza qilinishini ta‘minlovchi barcha zarur choralarni ko‘rish xususida yozma ravishda topshiriq berishga haqlidir», deyiladi. Barcha zarur choralar nimalardan iborat, ishtirokchilarga nisbatan qanday xavfsizlik choralari qo‘llanishi to‘g‘risida qonun hech qanday sharh bermaydi. Fikrimizcha, aynan shaxslarning hayoti, salomatligi, sha‘ni, qadr-qimmati va mol-mulki muhofaza qilinishiga doir qanday choralar qo‘llanilishi qonunda aniq ko‘rsatilishi maqsadga muvofiqdir.

Jinoyat-protsessual qonunchilikda protsess ishtirokchilari xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan kafolatlar tizimi ham nazarda tutilgan bo‘lib, jabrlanuvchi, guvoh yoki ishda ishtirok etayotgan boshqa shaxslarga, shuningdek ularning oila a‘zolari yoki yaqin qarindoshlariga o‘ldirish, kuch ishlatish, mol-mulkini yo‘q qilib tashlash yoxud mol-mulkiga shikast yetkazish bilan yoki o‘zga g‘ayriqonuniy xatti-harakatlar bilan tahdid qilinmoqda deyish uchun yetarli ma‘lumotlar mavjud bo‘lgan taqdirda, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror sud bu shaxslarning hayoti, salomatligi, sha‘ni, qadr-qimmati va mol-mulkini muhofaza qilish, shuningdek aybdorlarni aniqlash hamda ularni javobgarlikka tortish choralari ko‘rishlari shart.

Protsess ishtirokchilari xavfsizligining kafolatlariga jabrlanuvchi, guvoh, xolis yoki protsessning boshqa ishtirokchilarining, shuningdek ularning oila a‘zolari yoki yaqin qarindoshlarining xavfsizligini ta‘minlash

taqozo etgan hollarda sudning yopiq sud majlisini o'tkazish huquqi va boshqalar taalluqlidir.



MAVZU BO'YICHA XULOSALAR

Mazkur mavzuni o'rganishda talabalar protsessual majburlov choralarining barcha turlari va o'ziga xos xususiyatlariga oid masalalarni xorijiy davlatlar qonunchiligida va tarmoq qonunlarda mustahkamlanishi holatini qiyosiy-huquqiy tahlil qilib, jinoyat ishlarini yurituvda ularning ahamiyatini aniqlashlari lozim.

MUAMMOLI SAVOLLAR VA KAZUSLAR

1. Jinoyat-protsessual majburlov choralari jinoyat protsessida ishtirok etuvchi shaxslar xulq-atvoriga ta'sir etish usullari sifatida qo'llaniladigan jinoyat protsessual tisdagi choralar hisoblanadi. **Jinoyat protsessual majburlov choralarini o'zaro qiyoslab tahlil qiling.**

2. O'zbekiston Respublikasi fuqarosi va davlat o'zaro huquq va burchlari bilan chambarchas bog'liqdir. Fuqarolarning huquq va erkinliklari daxlsizdir, ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki cheklab qo'yishga hech kim haqli emas. Shu bilan birgalikda fuqarolar o'z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning, davlat va jamiyatning qonuniy manfaatlariga putur yetkazmasliklari shart. Jinoyat ishlarini ko'rib chiqadigan davlat organlarining faoliyatida bu masalalar o'ta muhim ahamiyat kasb etadi, chunki shaxs jamiyat oldidagi protsessual majburiyatlarini ixtiyoriy ravishda bajarmasa, uning erkinligini majburlov choralari orqali cheklashga to'g'ri keladi. **Shaxsni konstitutsiyaviy huquqlarini cheklaydigan protsessual majburlov choralarini tavsiflab tahlil qiling.**

1-kazus

Ichki ishlar xodimi, tergovchi Qosimov Yakkasaroy ko'chasidan ketayotganida qarama-qarshi tomonidan kelayotgan fuqaro Nodirovning kiyimlaridagi qon dog'lari va izlarini ko'rib qoladi va uni to'xtatib, jinoyat sodir etganlikda gumon qilinib ushlanganligini ma'lum qiladi va unga uzoqda bo'lmagan militsiya uchastkasiga borishini talab qiladi. Ayni vaqtda uning yonida jinoyat sodir etish quroli mavjud degan gumon asosida fuqaro Nodirovni shaxsiy tintuv qiladi va uning yonidan topilgan pichoqni olib qo'yib, bu haqda bayonnoma tuzadi. Keyinchalik uning haqiqatdan ham

jinoyat sodir etganligi aniqlanib, unga nisbatan jinoiy ish qo‘zg‘atiladi. Dastlabki tergov jarayonida ayblanuvchi Nodirov yuqori turuvchi prokurorga tergovchi Qosimovning prokuror sanksiyasiz tergov harakatlari olib borganligi va majburlov chorasi sifatida ushlab turish chorasini qo‘llaganligi ustidan shikoyat qiladi.

Tergov harakatlarini amalga oshirish jarayonida protsessual xatoliklarga yo‘l qo‘yilganmi?

2-kazus

Ashurov sodir qilgan jinoyati uchun O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 169-moddasi bilan ayblanuvchi tariqasida jinoyat ishiga jalb qilingan. Prokuror ayblanuvchi Ashurovga nisbatan lavozimdan chetlashtirish to‘g‘risida iltimosnoma bilan sudga murojaat qilib, sud bu borada prokurorni iltimosnomasini qanoatlantirdi va lavozimdan chetlashtirish to‘g‘risidagi ajrim Ashurov ishlaydigan tashkilotga yuborildi. Lekin tashkilot rahbari Ashurovni juda qimmatli xodim ekanligini va uning vazifasini bajarishga muqobil kadr yo‘qligini vaj keltirib ajrimni ijro etishni rad etdi.

Vaziyatga huquqiy baho bering. Tashkilot rahbarining vaji o‘rinlimi?



MUSTAQIL ISH UCHUN TOPSHIRIQLAR

1. Jinoyat protsessida protsessual majburlov choralari qo‘llash asoslari va shartlari. Ish shakli – nazorat ishi (esse).
2. Xorijiy davlatlarda protsessual majburlov choralari tizimi. Ish shakli – nazorat ishi (esse).
3. Ushlab turish asoslari, tartibi va xususiyatlari. Ish shakli – nazorat ishi (esse).

IX BOB. EHTIYOT CHORALARI

(Muallif –yuridik fanlar doktori, dotsent G.Z.To‘laganova)

Annotatsiya: talabalar tomonidan mazkur mavzu doirasidagi jinoyat protsessida ehtiyot choralari qo‘llashning sabab va asoslari, ehtiyot chorasi qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan shaxslar, ehtiyot choralari va ularning turlari, protsessual asoslari va tartibini, ehtiyot choralari qo‘llashga vakolatli bo‘lgan organlar va mansabdor shaxslarning protsessual faoliyati yuzasidan zaruriy bilim olish imkonini beradi.

9.1. Ehtiyot choralari va ularning turlari, ularni qo‘llash, o‘zgartirish va bekor qilish

Ehtiyot chorasi - bu ayblanuvchi, sudlanuvchi surishtiruvdan, dastlabki tergovdan va suddan bo‘yin tovlashining oldini olish; uning bundan buyongi jinoiy faoliyatining oldini olish; uning ish bo‘yicha haqiqatni aniqlashga xalal beradigan urinishlariga yo‘l qo‘ymaslik; hukmning ijro etilishini ta‘minlash maqsadida qo‘llaniladigan protsessual majburlov chorasi turidir.


Ehtiyot choralari quyidagi turlari mavjud: *munosib xulq-atvorda bo‘lish to‘g‘risidagi tilxat, shaxsiy kafillik jamoat birlashmasi yoki jamoaning kafilligi garov, qamoqqa olish va uy qamog‘i, voyaga yetmaganlarni kuzatuv ostiga olish uchun topshirish; harbiy xizmatchining xulq-atvori ustidan qo‘mondonlik kuzatuv.*

Surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sud tomonidan ayblanuvchi, sudlanuvchiga nisbatan ehtiyot choralari qaysi turini tanlashda O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 236-moddasida nazarda tutilgan asoslardan tashqari quyidagi holatlar ham e‘tiborga olinadi: qo‘yilgan aybning (sodir etilgan jinoyatning og‘irligi; ayblanuvchining shaxsi; ayblanuvchi shug‘ullanadigan mashg‘ulot (faoliyat) turi; ayblanuvchining yoshi (masalan, voyaga yetmaganligi yoki keksayganligi); sog‘lig‘i; oilaviy ahvoli (uylanganligi, qaramog‘ida voyaga yetmagan farzandlari yoki nafaqa yoshidagi ota-onalari yoxud boshqa boqimandalari mavjudligi) va boshqa holatlar. Boshqa holatlarga quyidagilar kiradi: mehnatga layoqatligi; yashash va ish joyining mavjudligi; davlat mukofotlari, faxriy unvonlari borligi; sudlanganlik holati, ozodlikdan mahrum etish joylarida jazoni o‘tagan muddati, ozodlikka chiqqan vaqti; ayblanuvchini jamiyat a‘zosi sifatida tavsiflovchi ma‘lumotlar (yashash, ish joylaridan olingan ma‘lumotnomalar v.h.); tarjimai holda ko‘rsatilgan ba‘zi

holatlar (masalan, terroristik to‘dalarga qarshi kurashda, tabiiy ofat oqibatlarini bartaraf etishda ishtirok etganligi) v.h.

Ehtiyot chorasini qo‘llash to‘g‘risidagi surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning qarori va sudning ajrimi mazkur choralarni qo‘llash, bekor qilish va o‘zgartirishning huquqiy asosi hisoblanadi.

Uy qamog‘i va qamoqda saqlash tarzidagi ehtiyot chorasi prokuror, shuningdek prokurorning roziligi bilan tergovchi tomonidan bekor qilinishi yoki o‘zgartirilishi mumkin. Bu haqda mazkur ehtiyot chorasini tanlash to‘g‘risida ajrim chiqargan sud albatta xabardor etilishi lozim.



Prokuror yoki tergovchining qarorida ehtiyot chorasini qo‘llash yuzasidan chiqarilgan sud qarorining qonuniyligi va asosliligi muhokama qilinishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Ehtiyot chorasini qo‘llash, bekor qilish, o‘zgartirish to‘g‘risidagi qaror yoki ajrimda: shaxsning qanday jinoyatni sodir etishda ayblanayotganligi; ehtiyot chorasi qanday qonuniy asoslarga tayanib qo‘llanganligi yoxud tegishli dalillar keltirish yo‘li bilan bu asoslar yo‘qligi yoki o‘zgargani; ehtiyot chorasini tanlashga ta’sir qiluvchi, qonun bilan belgilangan holatlarni hisobga olib, ehtiyot choralarini qo‘llash, bekor qilish yoki o‘zgartirish zaruratini izohlovchi sabablar ko‘rsatiladi. Qaror yoki ajrim

kinga nisbatan chiqarilgan bo'lsa, shu shaxsga darhol e'lon qilinadi, mazkur shaxs qaror bilan tanishib chiqqanligini o'z imzosi bilan tasdiqlaydi. Ehtiyot chorasini qo'llash to'g'risidagi qaror yoki ajrim og'ir kasallikka chalingan yoxud tergov va suddan qochib ketgan shaxslarga nisbatan ular tuzalishi yoki ushlanishi bilan darhol e'lon qilinadi.

**Ehtiyot chorasi qo'llanilishi
mumkin bo'lgan shaxslar:**

Ayblanuvchi

Sudlanuvchi

Mahkum

Aqli noraso shaxs

**Jinoyat sodir
etganidan so'ng ruhiy
kasallikka chalingan
shaxs**

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputati va Senati a'zosiga nisbatan - O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining tegishli palatasi yoki uning Kengashi roziligi bilan;

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakiliga (ombudsmanga) nisbatan - O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining roziligi bilan;

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining sudyasiga nisbatan - O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining roziligi bilan, O'zbekiston Respublikasining boshqa sudlari sudyalariga nisbatan - tegishincha O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining yoki O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumining roziligi bilan;

Prokuror va prokuratura tergovchisiga nisbatan - O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining roziligi bilan qo'llanilishi

Alohida hollarda gumon qilinuvchiga nisbatan sudning ruxsati bilan qamoqda saqlash tarzidagi ehtiyot chorasi qo'llanilishi mumkin.

9.2. Ehtiyot chorasi sifatida qamoq va uy qamog‘i

Qamoqqa olish xuddi ushlab turish kabi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 25-moddasidagi shaxsning erkinligi, shaxsiy daxlsizlik huquqini cheklash bilan bog‘liq bo‘lgan eng jiddiy ehtiyot chorasi hisoblanadi.

Qamoqqa olishning aynan ana shu ehtiyot chorasiga xos bo‘lgan maqsadi –ayblanuvchilarni darhol jamiyatdan ajratishdir. Ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olish qonuniy va asoslangan bo‘lishi lozim. Shaxsni noqonuniy va asoslanmagan tarzda qamoqda saqlash inson huquqlarini jiddiy poymol etish hisoblanadi.

Prezidentimizning 2005-yil 8-avgustidagi «Qamoqqa olishga sanksiya berish huquqini sudlarga o‘tkazish to‘g‘risida»gi Farmoni asosida 2008-yilning 1-yanvaridan e‘tiboran qamoqqa olishga sanksiya berish huquqi prokuratura organlaridan sudlar vakolatiga o‘tkazilganligi mamlakatimizda inson erkinligini to‘liq ta‘minlash yo‘lida olib borilayotgan islohotlarning natijasidir.

Ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olish O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida uch yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo nazarda tutilgan qasddan sodir etilgan jinoyatlarga doir hamda ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilib, buning uchun Jinoyat kodeksida besh yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlarga doir ishlar bo‘yicha qo‘llanilishi mumkin.

Qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasi barcha protsessual majburlov choralari ichida eng jiddiy chora hisoblanadi. Qamoqqa olingan gumon qilinuvchi va ayblanuvchilar odatda tergov hibsxonalarida saqlanadi. Aynan gumon qilinuvchi va ayblanuvchilarni jamiyatdan ajralgan holda qamoqda saqlash uchun maxsus muassasalarning mavjudligi bir qator moddiy-huquqiy va protsessual talablarning kelib chiqishiga asos bo‘lgan.

Qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo‘llashda, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida shaxs huquqlarining kafolatlari to‘g‘risidagi qoidalarga hamda O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida belgilangan qonuniylik, shaxsning sha‘ni va qadr-qimmatini hurmat qilish, odil sudlovni fuqarolarning qonun va sud oldida tengligi asosida amalga oshirish, aybsizlik prezumpsiyasi, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchini himoyalanihi huquqi bilan ta‘minlash prinsiplariga qat‘iy rioya etilishi shart. Bundan tashqari, qamoqqa olingan shaxslar bilan bo‘ladigan munosabatlarda inson huquqlari himoyasini xalqaro doirada

to'la kafolatlaydigan "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiya"si, shaxsning sud himoyasida bo'lishini tartibga soluvchi "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida"gi Pakt, "Qiynoq va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy, insonning qadr-qimmatini kamsitadigan muomalaning barcha shakllariga barham to'g'risida"gi Konvensiya kabi hujjatlardagi qoidalar e'tiborga olinishi kerak.

Qamoqqa olish tariqasidagi ehtiyot chorasini qo'llashning umumiy shartlari. Qamoqqa olish tariqasidagi ehtiyot chorasini tanlashda jinoyat-protsessual qonunchiligida nazarda tutilgan shartlar e'tiborga olinishi lozim.

Qamoqqa olish shartlari deganda, ushbu ehtiyot chorasini tanlashga o'zining ijobiy yoki salbiy ta'sirini ko'rsatuvchi protsessual holatlar tushuniladi.

Qamoqqa olish chorasi quyidagi holatlar mavjud bo'lgandagina asoslangan va qonuniy deb hisoblanishi mumkin: shaxs ishga ayblanuvchi tariqasida jalb qilingan; sodir etilgan jinoyatga qonunda ozodlikdan mahrum etish tariqasidagi jazo nazarda tutilgan; ayblanuvchining shaxsi to'g'risidagi ma'lumotlar hisobga olingan; prokurorning qamoqqa olish to'g'risidagi iltimosnomasiga sud tomonidan ruxsat berilgan; ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olish to'g'risidagi sudning ajrimi jinoyat protsessual qonunlaridagi me'yorlar asosida chiqarilgan.

Shu jihatdan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 242-moddasida ilgari qo'llanilgan ehtiyot chorasi ayblanuvchi, sudlanuvchi tomonidan buzilganida qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasi qo'llanishining qayd etilganligi qonunchilikdagi yutuqlardan biri hisoblanadi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 242-moddasiga binoan, ayblanuvchi, sudlanuvchi tergov yoki suddan yashiringanida, ushlab turilgan gumon qilinuvchining shaxsi aniqlanmaganida, jinoyat qamoq yoki ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni o'tash davrida sodir etilganida ularga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasi qo'llanilishi mumkin. Ayrim toifadagi fuqarolarni qamoqqa olish uchun deputatlik, sudyalik va boshqa immunitetlar e'tiborga olinishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 239-moddasida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputati va Senati a'zolariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman), deputatlar, sudyalar, prokuror va prokuratura tergovchilari kabi mas'ul mansabdor shaxslarga bu borada imtiyozlar belgilangan. Jinoyat ishlarini yuritishda qamoqda saqlab turish muddatining sud

tomonidan uzaytirilishini ham bu chorani qo'llashning maxsus shartlari qatoriga kiritish mumkin.

“Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to‘g‘risida”gi Xalqaro Paktning 9-moddasi har qanday ushlangan yoki qamalgan shaxs qisqa vaqt mobaynida sudga keltirilishi va qamalishining asosli va qonuniy ekanligi sud tomonidan tekshirilishi lozim ekanligini ko‘zda tutadi.

Ta’kidlash joizki, bir qancha davlatlarda qamoqqa olish va uning muddatini uzaytirish bilan birga boshqa turdagi tergov harakatlari o‘tkazish uchun ham suddan ruxsat olinishi talab etiladi. Istiqbolda milliy qonunchilikda ham tintuv, mol-mulkni xatlash, telefon so‘zlashuvlarni eshitib turish kabi tergov harakatlarini, ya’ni shaxslarning konstitutsiyaviy huquqlarini cheklash bilan bog‘liq bo‘lgan mazkur choralarni sudning ruxsati asosida qo‘llash tartibiga bosqichma-bosqich o‘tilishi maqsadga muvofiqdir.

Shuni ham e’tiborga olish joizki, ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olish vakolatining sudlarga o‘tkazilishi bilan ekstraditsiya qilishga oid O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi normalarini qo‘llashdagi jiddiy muammolarga barham berildi.

Sudning qamoqqa olish va uning muddatini uzaytirishga sanksiya berishi odil sudlovni amalga oshirishning alohida shakli hisoblanadi.

Qamoqqa olishga sanksiya berish huquqini sudlarga o‘tkazish orqali quyidagicha natijalarga erishildi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 25-moddasida birinchi instansiya sudi majlisida va ishlar yuqori sudlarda ko‘rilayotganda ish yuritish taraflarning o‘zaro tortishuvi asosida amalga oshirilishi belgilangan. Qamoqqa olishga sanksiya berish huquqi sudlarga o‘tkazilishi bilan tortishuv tamoyili jinoyat protsessining surishtiruv va dastlabki tergov bosqichlarida ham amal qila boshladi. Sudda qamoqqa olish masalasi hal etilayotgan vaqtda ayblov tomoni bilan birgalikda «...jinoyat sudlov ishlarini yuritishda obyektiv zarurat» bo‘lgan himoya tomoni - gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va ularning himoyachisi ishtirok etadi.

2008-yil 12-iyundan e’tiboran O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 249-moddasi 2-qismiga kiritilgan o‘zgarishlarga ko‘ra, ishda himoyachi sifatida faqat advokatlar ishtirok etishlari mumkin. Demak, ayblov tomoni bilan qamoqqa olishning qonuniyligi, asoslanganligi va adolatligi yuzasidan halol tortishuv olib borish va e’tirozlar bildirish imkoniyatlari yanada ortdi;

2. Jinoyat protsessual kodeksi O‘zbekiston tomonidan ratifikatsiya qilgan xalqaro shartnomalar va O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiya normalariga yanada muvofiqlashtirildi;

3. Inson huquq va erkinliklarining buzilishi, ya’ni aybi bo‘lmagan shaxslarni nohaq qamoqda saqlash hollarining o‘z vaqtida oldi olindi, ularning huquq va erkinliklari qo‘shimcha kafolatlandi. Himoyaning nufuzi yana bir yuqori pog‘onaga ko‘tarildi;

4. Noqonuniy, asossiz qarorlar qabul qilinishi, nomaqbul dalillar olinishi holatlariga chek qo‘yildi;

5. Surishtiruv, tergov va prokuratura organlari xodimlarining o‘z vazifasiga bo‘lgan mas’uliyati yanada ortdi.

Qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo‘llashning yangi mexanizmini shartli tarzda *to‘rt bosqichga* ajratish mumkin.

1-bosqich. Qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo‘llash yuzasidan iltimosnoma qo‘zg‘atish haqida qaror chiqarish. Bu bosqichda prokuror yoki prokurorning roziligi bilan tergovchi jinoyat ishi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 236, 242-243-moddalarida nazarda tutilgan holatlar aniqlanganda, gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchiga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo‘llash to‘g‘risida iltimosnoma qo‘zg‘atish haqida qaror chiqarishga haqli. Surishtiruv jarayonida gumon qilinuvchiga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo‘llash uchun asoslar borligi aniqlansa, surishtiruvchi O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 342-moddasiga muvofiq, surishtiruv yuritish muddati o‘tishini kutmasdan, ishni darhol tergovchiga o‘tkazadi.

Qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo‘llash haqidagi iltimosnoma qo‘zg‘atish to‘g‘risidagi qarorda, shaxs gumon qilinayotgan yoki ayblanayotgan jinoyat, uning tavsifi, gumon qilinuvchi, ayblanuvchini qamoqqa olish zaruratini tasdiqlovchi asoslar, shuningdek shaxsga nisbatan boshqa turdagi ehtiyot chorasini qo‘llash maqsadga muvofiq emasligi haqidagi xulosalar bayon etilishi lozim. Qarorga iltimosnomani asoslantiruvchi zarur materiallar (jumladan, jinoyat ishi qo‘zg‘atish, jinoyat ishida gumon qilinuvchi, ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish to‘g‘risidagi qarorlar, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 221 va 225-moddalari asosida tuzilgan ushlab turish bayonnomasi, gumon qilinuvchi, ayblanuvchining shaxsiga oid ma’lumotlarga doir hujjatlar, himoyachining orderi yoxud himoyachidan voz kechish haqidagi bayonnoma va boshqa hujjatlarning nusxalari) ilova qilinadi. Zarurat bo‘lganda, sudga mazkur hujjatlarning asli taqdim qilinishi mumkin.

Iltimosnoma va materiallar sudga ushlab turish muddati tugashidan kamida o‘n ikki soat oldin taqdim qilinadi.

Qonunda belgilangan ushlab turish yoki qamoqda saqlab turish muddati o‘tgandan so‘ng sudga taqdim etilgan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo‘llash yoki qamoqda saqlab turish muddatini uzaytirish to‘g‘risidagi iltimosnoma sud tomonidan ko‘rib chiqilmaydi. Bunday hollarda, ushlab turilgan yoki qamoqda saqlanayotgan shaxsni ozod qilish masalasi O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 234-moddasi va 240-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq hal etiladi. Shu bilan birga, bunday iltimosnoma sudga qonunda belgilangan muddat o‘tgandan so‘ng, biroq ushlab turish yoki qamoqda saqlab turish muddati o‘tgunga qadar taqdim qilingan taqdirda, sud tomonidan uni ko‘rib chiqish uchun qabul qilish rad etilishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Qonun buzilishiga yo‘l qo‘ygan mansabdor shaxsga nisbatan esa sud xususiy ajrim chiqaradi.

2-bosqich. Qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo‘llash to‘g‘risidagi iltimosnomani sudga ko‘rib chiqish. Yuqorida tilga olingan iltimosnoma qonunga ko‘ra, jinoyat ishlari bo‘yicha tuman (shahar) sudining, okrug, hududiy harbiy sudning sudyasi tomonidan yakka tartibda ko‘rib chiqiladi.

Qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo‘llash masalasini hal etishi lozim bo‘lgan sudya tortishuv protsessi qoidalariga rioya etadi.

Qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo‘llash to‘g‘risidagi iltimosnoma material kelib tushgan paytdan e‘tiboran o‘n ikki soat ichida, lekin O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 226-moddasining birinchi qismida nazarda tutilgan ushlab turish muddati oxiridan kechiktirmay ko‘rib chiqiladi. Ushlab turish tariqasidagi protsessual majburlov chorasi qo‘llanilmagan ayblanuvchiga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo‘llash haqidagi iltimosnoma ham o‘n ikki soat ichida ko‘rib chiqilishi lozim. Qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo‘llash jinoyat protsessining eng dastlabki davriga taalluqli bo‘lganligi bois, jinoyat ishi materiallari uncha ko‘p bo‘lmaydi va ular bilan tanishib chiqish uchun o‘n ikki soat juda ko‘plik qiladi. Qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo‘llash to‘g‘risidagi iltimosnoma prokuror, gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi, himoyachi (agar u ishda qatnashayotgan bo‘lsa) ishtirokida ko‘rib chiqiladi. Gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchining qonuniy vakili va tergovchining bu jarayonda ishtirok etish huquqi qonunda belgilab qo‘yilgan. Bu bilan esa, qamoqqa olish ehtiyot chorasini qo‘llash masalasida sudga taqdim etilgan dalillarni tomonlarning

tortishuvi prinsipi asosida tekshirib, qonuniy qaror qabul qilishga zamin yaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 20 va 51-moddalarida nazarda tutilgan hollarda sud majlisida tarjimon va himoyachining ishtiroki ta'minlanishi shart. Iltimosnomani ko'rishda boshqa shaxslarning ishtirok etishiga yo'l qo'yilmaydi.

Sud qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash yoki qamoqda saqlab turish muddatini uzaytirish to'g'risidagi iltimosnomani ko'rish joyi, sanasi va vaqtini belgilaydi hamda bu haqda iltimosnoma kiritgan prokurorni xabardor qiladi. Prokuror yoki uning topshirig'iga ko'ra tergovchi sud majlisi ishtirokchilarining, shu jumladan, gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchining sudga kelishlarini ta'minlaydi. Sud majlisining joyi, sanasi va vaqti haqida lozim darajada xabardor qilingan shaxslarning (ayblanuvchi va tarjimon bundan mustasno), sud majlisiga kelmaganligi qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash to'g'risidagi iltimosnomani ko'rish uchun monelik qilmaydi.

Qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash to'g'risidagi iltimosnomani ayblanuvchining ishtirokisiz ko'rishga, faqat unga nisbatan qidiruv e'lon qilingan holdagina yo'l qo'yiladi.

Ayblanuvchi ishtirokisiz ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olishni qo'llash masalasi hal etilayotgan vaqtda sud majlisida advokatning ishtirok etishi shartligi, ayblanuvchi topilgandan keyin qamoqqa olish masalasini uning ishtirokida qaytadan ko'rib chiqish lozim.

Qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash yoki qamoqda saqlab turish muddatini uzaytirish to'g'risidagi masala sudning binosida, yopiq sud majlisida har bir gumon qilinuvchi, ayblanuvchiga nisbatan alohida ko'rib, majlis sudya tomonidan qanday iltimosnoma ko'rib chiqilishini e'lon qilishdan boshlanadi. Iltimosnomani ko'rib chiqish prokuror ma'ruzasi bilan boshlanib, u qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash yoki qamoqda saqlash muddatini uzaytirish zaruratini asoslab beradi. So'ngra gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi, uning himoyachisi, qonuniy vakili, shuningdek tergovchi (agar u majlisda hozir bo'lsa) eshitiladi, taqdim etilgan materiallar tekshiriladi. So'ngra sudya ajrim chiqarish uchun alohida xonaga kiradi.

3-bosqich. Sud tomonidan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash to'g'risidagi iltimosnoma yuzasidan qaror yoki ajrim qabul qilish. Qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash to'g'risidagi iltimosnoma qanoatlantirilganda, ajrimning qaror qismida mazkur ehtiyot chorasining amal qilish muddati ko'rsatilmaydi. Ayni paytda, qamoqda

saqlab turish muddatini uzaytirish to'g'risidagi iltimosnoma qanoatlantirilganda, sud ushbu ehtiyot chorasi qaysi sanagacha amal qilishini ajrimda ko'rsatishi shart.

Sudya tomonidan chiqarilgan ajrimlar quyidagi mazmunda bo'lishi mumkin: qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash; qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llashni rad etish; taraflar qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasining asoslangan yoki asoslanmaganligiga doir qo'shimcha dalillarni taqdim etishlari uchun ushlab turish muddatini qirq sakkiz soatdan ko'p bo'lmagan muddatga uzaytirish.

Qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash masalasi taqdim qilingan iltimosnoma bo'yicha qaror qabul qilish imkoniyati bo'lmaganligi va qo'shimcha dalillar taqdim qilinishi zarurligi sababli boshqa vaqtga qoldirilganda, sudning ajrimida iltimosnomani qayta ko'rib chiqish joyi, vaqti va sanasi ko'rsatilishi shart. Sudyaning qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash yoxud qo'llashni rad etish haqidagi ajrimi u e'lon qilingan paytdan kuchga kiradi va darhol ijro etilishi shart.

Agar qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash yoki qamoqda saqlab turish muddatini uzaytirish to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqish jarayonida qonun buzilganligi, jumladan qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala qo'llanilganligi haqida murojaat qilingan taqdirda, bu haqda sud majlisi bayonnomasida qayd etiladi va dastlabki tergov davomida nazoratni amalga oshiruvchi prokuror tomonidan tekshirilib, natijasi haqida sudga xabar qilinadi.

Iltimosnoma qanoatlantirilmay, qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash rad qilinganda, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi (ushlab turish oxirgi muddati tugagan yoki tugamaganligidan qat'i nazar) sud zalida qamoqdan ozod qilinadi. Bunday holda boshqa turdagi ehtiyot chorasini qo'llash masalasi dastlabki tergov organi tomonidan umumiy asoslarda hal etiladi.

Qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash rad qilinishi, ehtiyot chorasining bekor qilinishi yoki o'zgartirilishi, aynan o'sha shaxsga nisbatan bunday ehtiyot chorasini qo'llash to'g'risida iltimosnoma bilan sudga takroran murojaat qilishga, basharti ishni tergov qilish jarayonida uni qamoqqa olish zaruratini taqozo etuvchi yangi holatlar yuzaga kelgan bo'lsa, to'sqinlik qilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 240-moddasining ikkinchi qismida qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasi shaxsni bundan keyin qamoqda saqlash uchun asoslar bo'lmaganda

prokuror, shuningdek prokurorning roziligi bilan tergovchi tomonidan ehtiyot choralari to'g'risida qaror chiqargan sudni albatta xabardor qilgan holda bekor qilinishi yoki o'zgartirilishi mumkinligi ta'kidlangan.

Qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasiga sanksiya berish vakolatining prokuratura organlaridan sudlarga o'tkazilganligi jinoyat protsessi oldida turgan vazifalarni muvaffaqiyatli ado etish, tergovning qonuniy o'tkazilishini ta'minlash, dastlabki tergovda tortishuvni takomillashtirish, protsess ishtirokchilariga (eng avvalo – himoya tomoniga) o'z manfaatlarini himoya qilish uchun real imkoniyatlar yaratish va eng asosiysi, shaxsning huquq va erkinliklarini qo'shimcha kafolatlash maqsadlariga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi tomonidan 2014-yil 23-avgustda qabul qilingan, Senat tomonidan 2014-yil 28-avgustda ma'qullagan "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuniga asosan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksiga ehtiyot chorasi sifatida uy qamog'i kiritildi. Bu ehtiyot chorasi ogohlantirishga, ya'ni ushbu choralarda qo'llanishi mumkin bo'lgan shaxslarning kelgusida g'ayriqonuniy faoliyatiga yo'l qo'ymaslikka xizmat qiladi.

Hozirda ehtiyot chorasi sifatida uy qamog'i ko'plab davlatlar amaliyotiga kiritilgan. Bu haqda tavsiya MDH Parlamentlararo Assambleyasi 1996-yil 17-fevralda tasdiqlagan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi Modelida aks ettirilgan edi (175-modda). Unga nisbatan jiddiy bo'lmagan shartlar asosida ayblanuvchini qamamay, o'z uyida jamiyatdan birmuncha ajratilgan sharoitda saqlashdan iborat bo'lib, sudning qaroriga muvofiq shaxsning huquqlari ma'lum darajada cheklanishida ifodalanadi. Uy qamog'i gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga yoki sudlanuvchiga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini tanlash uchun asoslar mavjud bo'lganida uning yoshini, sog'lig'i holatini, oilaviy ahvolini va boshqa holatlarni hisobga olgan holda qamoqqa olish maqsadga nomuvofiq deb topilgan taqdirda qo'llaniladi.

Uy qamog'i gumon qilinuvchining, ayblanuvchining yoki sudlanuvchining jamiyatdan to'liq yoxud qisman ajratib qo'yilib, o'zi mulkdor, ijaraga oluvchi sifatida yoki boshqa qonuniy asoslarda yashab turgan turar joyda taqiqlar (cheklovlar) yuklatilgan, shuningdek uning ustidan nazorat amalga oshirilgan holda bo'lishidan iborat.

Gumon qilinuvchining, ayblanuvchining yoki sudlanuvchining sog'lig'i holatini hisobga olgan holda tibbiy muassasa uy qamog'ida saqlash joyi etib belgilanishi mumkin. Chunonchi: o'ziga nisbatan uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasi tanlangan shaxsga quyidagi taqiqlar (cheklovlar)

oʻrnatilishi mumkin: muayyan shaxslar bilan aloqada boʻlish; xat-xabar olish va joʻnatish; har qanday aloqa vositalaridan foydalanish va ular yordamida soʻzlashuvlar olib borish; uy-joyini tark etish.

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi barcha taqiqlarga, cheklovlarga yoxud ulardan ayrimlariga duchor etilishi mumkin.

Gumon qilinuvchining, ayblanuvchining yoki sudlanuvchining uy joyidan chiqishi boʻyicha oʻrnatilgan taqiqlarga (cheklovlarga) rioya etishi ustidan nazorat amalga oshirilayotganda ichki ishlar organi uning yashash joyida boʻlishini sutkaning istalgan vaqtida tekshirishga haqli.

Tekshirish kunduzgi vaqtda koʻpi bilan bir marta va tungi vaqtda koʻpi bilan bir marta oʻtkaziladi. Zarur hollarda, uy qamogʻi tarzidagi ehtiyot chorasi qoʻllanilgan shaxsga nisbatan elektron kuzatish vositalari qoʻllanilishi mumkin.

Uy qamogʻi ijro etish gumon qilinuvchining, ayblanuvchining yoki sudlanuvchining yashash joyidagi ichki ishlar organi zimmasiga yuklatiladi.

Uy qamogʻini oʻtash va uning muddati bilan bogʻliq masalalar xuddi qamoqda saqlash tartibidek hal etiladi. Bu chorani amalga oshirish va uy qamogʻidagilar ustidan nazorat olib borish masalalari Jinoyat-ijroiya kodeksida tartibga solinishi yetarlidir.

Qamoqqa olishning muqobili sifatida uy qamogʻi tarzidagi yangi ehtiyot chorasini qoʻllash jinoyat protsessi oldida turgan vazifalarni odilona hal etishda muhim oʻrin tutadi.

Uy qamogʻi tarzida ehtiyot chorasini tanlash hollariga ham taalluqli. Uy qamogʻini qoʻllash xususidagi amaliyotni oʻrganish va mamlakatimizda oʻtkazilayotgan sud-huquq islohotida undan foydalanish navbatdagi vazifalardan biri edi. Jinoyat protsessida ehtiyot choralari qatoriga uy qamogʻi kiritildi.

Qamoqqa olish yoki uy qamogʻi tarzidagi ehtiyot chorasi faqat ushlab turilgan gumon qilinuvchiga yoki ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilingan shaxsga nisbatan qoʻllanilishi mumkin.

Uy qamogʻi gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga yoki sudlanuvchiga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini tanlash uchun asoslar mavjud boʻlganida uning yoshini, sogʻligʻi holatini, oilaviy ahvolini va boshqa holatlarni hisobga olgan holda qamoqqa olish maqsadga nomuvofiq deb topilgan taqdirda qoʻllaniladi.

Ishni sudga qadar yuritish bosqichida qoʻllanilgan qamoqqa olish yoki uy qamogʻi tarzidagi ehtiyot chorasi shaxsni bundan keyin qamoqda saqlash yoki uning uy qamogʻida boʻlishi uchun asoslar mavjud boʻlmaganda prokuror tomonidan, shuningdek prokurorning roziligi bilan tergovchi

tomonidan ehtiyot choralari to'g'risida qaror chiqargan sudni, albatta, xabardor etgan holda bekor qilinishi yoki o'zgartirilishi mumkin. Qamoqqa olish yoki uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasining bekor qilinishi yoki o'zgartirilishi ushbu ehtiyot chorasini aynan o'sha shaxsga nisbatan qo'llash to'g'risidagi iltimosnoma bilan sudga takroran murojaat etishga monelik qilmaydi.

Dastlabki tergov bosqichida qamoqqa olish, uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash haqidagi yoki qamoqda saqlash, uy qamog'i muddatini uzaytirish to'g'risidagi masala bo'yicha sudning ajrimi ustidan mazkur ajrim chiqarilgan kundan e'tiboran yetmish ikki soat ichida apellyatsiya tartibida shikoyat berilishi va protest bildirilishi mumkin.

Gumon qilinuvchining, ayblanuvchining yoki sudlanuvchining sog'lig'i holatini hisobga olgan holda tibbiy muassasa uy qamog'ida saqlash joyi etib, belgilanishi mumkin.

Uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini tanlash to'g'risidagi qarorda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchiga nisbatan qo'llaniladigan ozodlik bo'yicha aniq taqiqlar (cheklovlar), shuningdek o'rnatilgan taqiqlarga(cheklovlarga) rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish zimmasiga yuklatilayotgan organ ko'rsatiladi.

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi surishtiruv organiga yoki dastlabki tergov organiga yoki sudga nazorat qiluvchi organning transport vositasida olib boriladi.

Uy qamog'ida jamiyatdan to'liq ajratib qo'yilgan sharoitda bo'lgan gumon qilinuvchining, ayblanuvchining yoki sudlanuvchining himoyachi, qonuniy vakil bilan uchrashuvlari ushbu ehtiyot chorasi ijro etilayotgan joyida o'tkaziladi.

Uy qamog'ining muddati, uni uzaytirish va uning ustidan shikoyat qilish tartibi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 241, 243, 245, 248-moddalarida nazarda tutilgan qoidalar bilan belgilanadi.

O'rnatilgan taqiqlar (cheklovlar) uy qamog'ida bo'lgan gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi tomonidan buzilgan taqdirda unga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasi qo'llanilishi mumkin.

Qonunda nazarda tutilgan hollar mavjud bo'lganda va dastlabki tergov davomida qamoqqa olish yoki uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasi tanlanganda prokuror, prokurorning roziligi bilan tergovchi qamoqqa olish yoki uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash to'g'risida iltimosnoma qo'zg'atish haqida qaror chiqaradi.

Amaliyotdan misol: Dastlabki tergov organi tomonidan to'plangan hujjatlarga ko'ra, B.Rixsiyev 2014-yil 24-dekabr kuni taxminan soat 20:40 larda o'zi istiqomat qilayotgan Toshkent shahri, Olmazor tumani, A.Karimov ko'chasi 47-uyda mast holatda bo'la turib, turmush o'rtog'i

E.Rixsiyeva bilan o'rtalarida kelib chiqqan o'zaro janjal natijasida, o'zi yasagan yog'och sopli yasama pichoq bilan qurollanib, E.Rixsiyevani qasddan o'ldirish maqsadida, ushbu pichoq bilan uning chap ko'krak qafasiga bir marta urib, unga hayot uchun xavfli bo'lgan og'ir tan jarohati yetkazgan. Natijada E.Rixsiyeva olgan tan jarohati natijasida bilan Toshkent tibbiyot akademiyasining 2-klinikasi jonlantirish bo'limida vafot etgan.

Sud-tibbiy ekspertizasining 25.12.2014 yildagi dastlabki xulosasiga ko'ra, G.E.Rixsiyevaning o'limi: "Ko'krak qafasi chap tomoniga ko'krak bo'shlig'iga kirib, o'pka, yurak xaltasi va yurakning jarohatlangan sanchib kesgan yarasi, ichki va tashqi ketishi" - natijasida yuzaga kelganligi aniqlangan. B.Rixsiyev mazkur jinoyat ishi bo'yicha 2014-yil 27-dekabr kuni Jinoyat kodeksining 97-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan jinoyatni sodir qilganlikda ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etish uchun jalb qilingan. B.Rixsiyevning sodir etgan qilmishi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 15-moddasiga ko'ra o'ta og'ir turdagi jinoyatlar turkumiga kirishi, shunday bo'lsa-da, ayblanuvchi B.Rixsiyev 2-guruh nogironi ekanligi, hozirda sog'ligi holatiga ko'ra mustaqil harakatlanishga qiynalishini, aybiga to'liq iqrorligini hisobga olib, u bilan bog'liq tergov harakatlarini jamiyatdan qisman ajratgan holda amalga oshirish lozim deb hisoblab, Sud, B.Rixsiyevga nisbatan uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash masalasini hal etishda B.Rixsiyevning muayyan shaxslar bilan uchrashishini, xat-xabarlar olishi va jo'natishini, uy-joyini tark etishi kabi cheklovlarni qo'llab, unga nisbatan ozodlikka bo'lgan huquqini qisman bo'lsa-da cheklash lozimligini, u o'ziga nisbatan muayyan shaxslar bilan, ya'ni oila a'zolari va yaqin qarindoshlaridan boshqa shaxslar bilan aloqada bo'lmaslik, xat-xabarlar olmaslik va jo'natmaslik, uy-joyini tergov va sud organining ruxsatisiz tark etmaslik haqidagi cheklovlarga rozi ekanligini, ushbu cheklovlar bilan uy qamog'ida saqlanishiga oila a'zolari qarshi emasligini hamda unga nisbatan ushbu cheklovlar qo'llanilmagan taqdirda, dalillarni yo'q qilishga urinishi, jinoyat ishi bo'yicha to'liq va har tomonlama, xolisona tergov harakatlari olib borilishiga to'sqinlik qilishi mumkinligini, shuningdek unga nisbatan uy qamog'i qo'llanilishi nazarda tutilgan Toshkent shahar Olmazor mahallasi Chig'atoy Oqtepa A.Karimov ko'chasi 47-uy yong'in xavfsizligi va boshqa texnik talablarga mos kelishini e'tiborga olib, prokuror tomonidan keltirilgan Jinoyat kodeksi 97-moddasining 1-qismi bilan ayblanayotgan Rixsiyevga nisbatan uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash to'g'risidagi iltimosnoma qanoatlantirilgan.

Qamoqda saqlash muddatlari va ularni uzaytirish tartibi. Bugungi kunda qamoqda saqlash muddatlari va uni uzaytirish tartibiga ham katta e'tibor qaratilmoqda, chunki bu tushuncha chuqur ijtimoiy-huquqiy mazmunga va adolatli maqsadlarga erishish uchun mo'ljallangan. Shuning uchun bu faoliyatda odillik va xolislik prinsiplari buzilishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Jinoyat-protsessual qonunchilikda tergov, sud muhokamasi va ayblanuvchini qamoqda saqlash muddatlarining o'rnatilganligi, jinoyat sudlov vazifalarini muvaffaqiyatli hal etish va ayblanuvchi (sudlanuvchi) yoki gumon qilinuvchining huquq va qonuniy manfaatlarini hurmat qilish zaruratidan kelib chiqadi. Ayblanuvchi (yoki sudlanuvchi)ni uzoq muddat yakuniy protsessual qaror – hukmsiz noma'lum holatda qoldirish mumkin emas. Faqat qonuniy kuchga kirgan sud hukmi, u qanday mazmunda bo'lishidan qat'i nazar, ushbu mavhumlikni bartaraf etadi: shaxs yoki mahkum, yoki oqlangan shaxsga aylanadi.

Amaldagi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 245-moddasiga binoan, jinoyat ishi tergov qilinayotganda qamoqda saqlab turish uch oydan ortiq davom etishi mumkin emas (O'zbekiston

Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 351-moddasida dastlabki tergov muddatlari ham uch oy qilib belgilangan). Bu muddat davomida tergovni tamomlashga imkon bo'lmasa va ehtiyot chorasini o'zgartirish maqsadga muvofiq emas, deb hisoblansa, tegishligicha Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori yoki viloyat, Toshkent shahar prokurori va ularga tenglashtirilgan prokurorlarning iltimosnomasiga binoan besh oy muddatga sud tomonidan uzaytirilishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori o'rinbosarining qamoqda saqlash muddatini yetti oygacha, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining - to'qqiz oygacha uzaytirish to'g'risidagi iltimosnomalari sud tomonidan ko'rib chiqiladi. Alohida murakkab ishlar tergov qilinayotgan hollarda og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar sodir etganlikda ayblanayotgan shaxslarga nisbatan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining iltimosnomasiga binoan qamoqda saqlab turish muddatini bir yilgacha uzaytirish imkoniyatlari sud tomonidan hal etiladi.

Qamoqda saqlash muddati tugagan va qonunda belgilangan tartibda uzaytirilmagan bo'lsa, mahkum ozodlikdan mahrum etish joylarida qonuniylikka rioya etilishini nazorat qiluvchi prokurorning qaroriga binoan ozod etiladi.

Qamoqda saqlash muddatini uzaytirish to'g'risidagi iltimosnoma materiallar sudga kelib tushgan paytdan e'tiboran yetmish ikki soat ichida O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 247-moddasida belgilangan qoidalarga muvofiq ko'rib chiqiladi. Sud qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash yoki qamoqda saqlab turish muddatini uzaytirish to'g'risidagi iltimosnoma ko'rib chiqilishini, materiallar taqdim etilgan kun va vaqtdan qat'i nazar (dam olish yoki bayram kunlari, ish vaqti tugagandan so'ng) ta'minlashi shart.

Qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash yoki qamoqda saqlab turish muddatini uzaytirish to'g'risidagi iltimosnomani ko'rishda qatnashadigan sud majlisi ishtirokchilari tarkibi qonunda qat'iy belgilangan bo'lib, jinoyat ishini mazmunan ko'rishda qatnashadigan sud majlisi ishtirokchilari tarkibidan birmuncha farq qiladi.

Qamoqda saqlab turish muddatini uzaytirish to'g'risidagi iltimosnoma ayblanuvchi statsionar tartibdagi sud-psixiatriya ekspertizasi o'tkazish uchun tibbiy muassasaga joylashtirilgan holda uning ishtirokisiz ko'rib chiqilishi mumkin. Bunda ayblanuvchining himoyachisi sud majlisida ishtirok etishi shart. Qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash yoki qamoqda saqlab turish muddatini uzaytirish to'g'risidagi iltimosnoma, shuningdek unga ilova qilingan materiallar bilan sud majlisi

ishtirokchilarini tanishtirish qonunda ko'rsatilmagan. Biroq, himoya huquqi to'g'risidagi konstitutsiyaviy prinsipdan kelib chiqqan holda, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, uning himoyachisi va qonuniy vakili iltimosnoma va unga ilova qilingan materiallar bilan, basharti ular bu haqda murojaat etishgan taqdirda, prokuror tomonidan sud majlisi boshlangunga qadar tanishtirilishlari lozim.

Sudning qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash yoki qamoqda saqlab turish muddatini uzaytirish to'g'risidagi masala bo'yicha chiqarilgan ajrimi ustidan berilgan shikoyat, protestlarni ko'rib chiqish masalasi apellyatsiya instansiyasi sudi tomonidan uchta sudyadan iborat tarkibda, sudning binosida, yopiq sud majlisida, kelib tushgan vaqtdan boshlab, yetmish ikki soatdan kechiktirmasdan ko'rib chiqiladi.

Sud majlisi raislik etuvchi tomonidan qanday shikoyat (protest) ko'rib chiqilishini e'lon qilish bilan boshlanadi. So'ngra raislik etuvchi sudyalari, prokuror, himoyachi, qonuniy vakil, gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi, kotib, tarjimon, tergovchining familiyasi, ismi, sharifini e'lon qiladi, gumon qilinuvchi, ayblanuvchining shaxsini aniqlaydi hamda ularning huquq va majburiyatlarini tushuntiradi, rad etish haqidagi arzlar bor-yo'qligini aniqlaydi. Bunday arzlar mavjud bo'lsa, sud hay'ati ular bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 76, 80-moddalariga muvofiq qaror qabul qiladi.

Shikoyat (protest)ni ko'rib chiqish sudyalardan birining ma'ruzasi bilan boshlanadi, u ko'rilayotgan masalaning mohiyati, shikoyat (protest) vajlari hamda ularga qarshi bildirilgan e'tirozlar mohiyatini bayon qiladi. So'ngra shikoyat (protest) bergan shaxs eshitiladi. Ham shikoyat, ham protest berilgan taqdirda, birinchi bo'lib prokuror so'zga chiqadi. Sud zarurat yuzaga kelsa, tergovchini eshitadi, taqdim etilgan materiallarni tekshiradi. Shundan keyin sud ajrim chiqarish uchun maslahatxonaga kiradi.

Apellyatsiya instansiyasi sudi qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash yoki qamoqda saqlab turish muddatini uzaytirish to'g'risidagi masala bo'yicha chiqarilgan ajrim ustidan berilgan shikoyat (protest)ni ko'rib chiqib, o'zining ajrimi bilan: a) sudyaning ajrimini o'zgarishsiz, shikoyat yoki protestni qanoatlantirmasdan qoldirishga; b) sudyaning ajrimini bekor qilish va qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llashni rad etish hamda gumon qilinuvchi, ayblanuvchini qamoqdan ozod qilishga; gumon qilinuvchi, ayblanuvchiga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llashga; ayblanuvchiga nisbatan qamoqda saqlab turish muddatini uzaytirishga; ayblanuvchiga nisbatan qamoqda saqlab turish

muddatini uzaytirishni rad etishga va, agar qonunda belgilangan qamoqda saqlab turish muddatlari tugagan bo'lsa, uni qamoqdan ozod etishga haqli.

Sudyaning, shuningdek apellyatsiya instansiyasi sudining ajrimi sud zalida prokurorga ijro uchun, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, himoyachiga - ma'lumot uchun topshiriladi.

Bugungi kunda ko'p epizodli, murakkab va ishtirokchilar soni katta bo'lgan ishlarning birmuncha ko'payganligini inkor etish mumkin emas. Biroq bu holat ham qamoqda saqlashning oxirgi muddatlarini qisqartirishga qarshi sabab vazifasini o'tay olmaydi. Chunki jinoyat-protsessual qonunchilik jinoyat ishlarini birlashtirish va ajratish institutini nazarda tutadi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 332-moddasining ikkinchi qismiga ko'ra, bir yoki bir necha jinoyatni birgalashib sodir etishda ayblanayotgan shaxslarga nisbatan ishni ajratishga, basharti bu ish holatlari bo'yicha zarur bo'lib qolsa hamda bunday ajratish surishtiruvning, dastlabki tergovning va sud tomonidan ishni ko'rib chiqishning to'liq va xolisona bo'lishiga ta'sir qilmasa, yo'l qo'yiladi. Demak, jinoiy faoliyatning tegishli tartibda isbotlangan ayrim epizodlarini alohida ish yurituviga ajratish va sudga yuborish uchun hech qanday nazariy, qonuniy va boshqa to'sqinliklar mavjud emas. Kelgusida ajratilgan epizodlar bo'yicha qamoqda saqlash masalasi hukmning turiga bog'liq ravishda hal etiladi. Jinoyat qonunchiligida bu muammo bir necha jinoyat sodir etganlik uchun (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 59-moddasi) yoki bir necha hukm yuzasidan jazo tayinlash (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 60-moddasi) orqali hal etiladi.

Noqonuniy tarzda ehtiyot chorasi tariqasida qamoqda saqlab turish oqibatida shaxsga yetkazilgan ziyon, basharti keyinchalik unga nisbatan oqlov hukmi chiqarilsa, to'liq hajmda qoplanadi.

9.3. Garov

Jinoyat protsessida garov samarali ehtiyot choralaridan biri sanalib, boshqa huquq sohalarida ham keng qo'llanilib kelayotgan institut hisoblanadi. Jumladan, fuqaroviy huquqda garov shartnomaviy majburiyatlarning bajarilishini ta'minlashga mo'ljallangan jiddiy vositalardan biridir. Shartnoma bajarilmagan taqdirda garov narsasi (deyarli barcha hollarda pul mablag'i yoki qimmatlikka ega bo'lgan muayyan mulk) talabgorning ixtiyoriga o'tadi. Ko'pincha shaxs birovdan, xususan, lombard (garovxona)dan pul qarz olganda yoki birovning mulkini ijaraga, vaqtincha foydalanishga olganda biror qimmatli buyumni garovga beradi. Qarz yoxud buyum kelishilgan muddatda qaytarilsa, garov narsasi ham egasiga

qaytariladi, aks holda u kreditorning tasarrufiga o'tadi (O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 264-289-moddalari).

Fuqaroviy huquqdagi bu ixtiyoriy garovdan farqli o'laroq, jinoyat huquqida garov tariqasida shaxsni tutqunlikda ushlab turish – og'ir jinoyatlardan biri hisoblanadi (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 245-moddasi). Keyingi yillarda bu xil jinoyatlar terrorchi-ekstremist jinoiy guruhlar tomonidan o'zlarining g'ayriqonuniy, insonparvarlikka zid talablarini qondirish, shu jumladan, yirik miqdorda mablag' olish, sheriklarini mahbuslikdan qonunsiz ozod etish, havo kemasidan foydalanish kabi qabih niyatlariga erishish uchun sodir etilmoqda.

Jinoyatchilikka qarshi kurash borasida garov mamlakatimizning ko'p asrlik huquqiy o'tmishida qanday mazmun kasb etgani va qanchalik keng qo'llangani to'g'risida aniq ma'lumotlar saqlanmagan.

Rossiya Federatsiyasi, Belarus, Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Moldova, Estoniya kabi yangi mustaqil davlatlarning amaldagi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksilarida garov instituti ehtiyot choralari sirasiga kiritilgan. O'zbekiston qonunchiligida garov instituti 1994-yil 22-sentabrda qabul qilingan amaldagi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksidan o'rin oldi. Garov surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud tomonidan ayblanuvchi va sudlanuvchiga nisbatan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 236-moddasida ko'rsatilgan maqsadlarda qo'llanadigan, iqtisodiy xarakterdagi ehtiyot chorasidir. Garov sifatida ayblanuvchi yoki sudlanuvchining o'zi, ularning qarindoshlari yoki yuridik shaxslar sudning depozit hisob varag'iga pul mablag'i yoki qimmatbaho buyumlarni topshirishlari mumkin, shuningdek ko'chmas mulk ham garov sifatida qabul qilinadi. Uning mazmuni shundaki, ayblanuvchi, sudlanuvchi garovga qo'yilgan pul yoki boshqa qimmatbaho narsalarni qaytarib olish, ulardan ayrilib qolmaslik uchun tergov va sudda faol ishtirok etishga harakat qiladi.

Garov summasi eng kam oylik ish haqining yigirma baravaridan oz bo'lishi mumkin emas.

Surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud tomonidan garov summasini belgilashda: ayblovning og'irligi; ayblanuvchi, sudlanuvchi va garovga qo'yuvchining shaxsi; garovga qo'yuvchining mulkiy ahvoli; garovga qo'yuvchining ayblanuvchi bilan munosabatlari e'tiborga olinadi.

Garovga qo'yuvchi pul mablag'i yoki boshqa qimmatliklarni dastlabki tergov organi yoxud sudning depozit hisob varag'iga o'tkazilganligini tasdiqlovchi hujjatni taqdim qilgandan keyin,

surishtiruvchi, tergovchi, prokuror tomonidan garovni qabul qilish haqida bayonnoma tuziladi.

Sud esa ushbu ma'lumotlarni sud majlisi bayonnomasiga tegishli yozib qo'yadi. Bayonnomada: uning kim tomonidan tuzilganligi (mansabi, unvoni, familiyasi, ismi, otasining ismi); jinoyat ishining tartib raqami; garov tarzidagi ehtiyot chorasi qo'llanilayotgan ayblanuvchi, sudlanuvchining familiyasi, ismi, otasining ismi, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining qaysi moddasida ko'rsatilgan jinoyatni sodir etishda ayblanayotganligi; garovning kim tomonidan qo'yilayotganligi; ayblanuvchi, sudlanuvchiga ayblovning mohiyati, uning O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 46-moddasida ko'rsatilgan huquq va majburiyatlari, qo'llanilishi mumkin bo'lgan jazo chorasi, o'ziga yuklatilgan majburiyatlarni bajarmagan taqdirda garovning davlat hisobiga o'tkazilishi tushuntirilganligi; ayblanuvchining o'ziga yuklatilgan majburiyatlarni to'liq bajarishga roziligi; garovga qo'yuvchiga ayblanuvchi majburiyatlarini bajarmagan taqdirda garovga qo'yilganlaridan mahrum bo'lishi ma'lum qilinganligi; tergov organi yoki sudning depozit hisob varag'iga o'tkazilgan garov summasi qayd etiladi. Garov yuridik shaxs tomonidan qo'yilgan hollarda esa, yuridik shaxsning (korxonasi, muassasa, tashkilot) nomi, uning manfaatlarini ifodalagan a'zosining familiyasi, ismi, otasining ismi bayonnomaga qayd etiladi. Bayonnoma ishtirokchilarga o'qib eshittirilib, garovni qabul qilgan mansabdor shaxs, garovga qo'yuvchi va ayblanuvchi, sudlanuvchi tomonidan imzolandi.

Garovni qabul qilish haqidagi bayonnoma ikki nusxada tuzilib, birinchisi jinoyat ishiga qo'shib qo'yiladi, ikkinchisi esa garovga qo'yuvchiga taqdim etiladi. Shu paytdan boshlab garov qabul qilingan, garovga qo'yuvchi zimmasiga ayblanuvchi, sudlanuvchining chaqiruvga binoan hozir bo'lishini ta'minlash majburiyati yuklatilgan hisoblanadi.

Garovni topshirish vaqtida garovga qo'yuvchini ushbu ehtiyot chorasi tanlangan ishning, ya'ni sodir etilgan jinoyatning mohiyati, ayblanuvchi, sudlanuvchiga tayinlanishi mumkin bo'lgan jazo va o'zining javobgarligi, agar chaqiruvga binoan ayblanuvchi, sudlanuvchining hozir bo'lishini ta'minlanmasa, garov summasi davlat foydasiga o'tishi to'g'risida xabardor qilish lozim. Garovga qo'yuvchi ayblanuvchi, sudlanuvchining xulq-atvorini kuzatishga imkoni bo'lmaganligini bahona qilishga haqli emas, u bartaraf etib bo'lmaydigan vaziyatning ta'sirini isbotlab beradigan hollar bundan mustasno.

U o'zining olgan majburiyatidan garovning davlat foydasiga o'tib ketishi uchun sabab bo'ladigan asoslar kelib chiqqunga qadar voz kechishi

mumkin. Garovga qo'yuvchi o'ziga yuklatilgan majburiyatlardan voz kechgan hollarda ham garov boshqa ehtiyot chorasiga almashtiriladi. Garovga qo'yuvchi o'ziga yuklatilgan majburiyatlardan, masalan, boshqa joyga doimiy yashash uchun ko'chib ketishi munosabati bilan voz kechishi mumkin. Garovga qo'yuvchi o'ziga yuklatilgan majburiyatlardan voz kechishning aniq sabablari ko'rsatilgan ariza bilan garovni qabul qilgan mansabdor shaxsga murojaat qiladi.

Garovga qo'yuvchining arizasi qanoatlantirilsa, ehtiyot chorasini o'zgartirish uni tanlash shart-sharoitlari buzilganligi tufayli ro'y bermayotgan bo'lsa, shuningdek ish bo'yicha ish yuritish tugatilgan hollarda yoxud sud hukmi kuchga kirishi munosabati bilan garovga qo'yilgan pul mablag'i yoki boshqa qimmatliklar garovga qo'yuvchiga qaytariladi.

Ayblanuvchi, sudlanuvchi zimmasiga olgan majburiyatlarini buzgan taqdirda, garov sud ajrimi bilan davlat foydasiga o'tkaziladi va ayblanuvchi, sudlanuvchiga nisbatan garovdan jiddiyroq (masalan, qamoqqa olish) ehtiyot chorasi qo'llaniladi.

Bunday hollarda garovga qo'yuvchi o'ziga yetkazilgan ziyonni garovda bo'lgan shaxsdan undirib olishga haqli. Ushbu masalani sud fuqarolik ishlarni yuritish tartibida hal qiladi

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 249-moddasi xorijiy davlat Jinoyat-protsessual kodekslaridan ko'p jihatdan farq qiladi. Ana shu jihatdan quyidagi masalalar va muammolar alohida e'tiborga loyiq:

1) garov milliy qonunchilikka ko'ra, faqat ayblanuvchi va sudlanuvchiga nisbatan qo'llanishi mumkin. Rossiya Federatsiyasi, Belarus, Qozog'iston, Estoniya va ba'zi davlatlar qonunchiligida bu chora gumon qilinuvchiga ham qo'llanishi nazarda tutilgan.

2) barcha mamlakatlardagidek, milliy jinoyat-protsessual qonunchiligida ham o'ta og'ir jinoyatni sodir etishda gumon qilingan yoki ayblangan shaxs, kimligidan qat'i nazar, albatta sudgacha qamoqqa olinishi va hech bir holatda qamoqdan ozod qilinmasligi to'g'risida qoida belgilanmagan. Amaliyotda ba'zi jinoyatlarni sodir etishda ayblanayotgan shaxsning xulq-atvorini e'tiborga olib qamoq chorasini qo'llash zarurligi ta'kidlanganidek, qaysi toifadagi ayblanuvchilarni garov evaziga ozod qilish noo'rin ekanligi ham shubhasiz o'zini oqlagan, shunga ko'ra garov tarzidagi ehtiyot chorasi ba'zi ayblanuvchilar toifasiga qo'llanmasligi talab qilinadi, masalan:

- shaxsi va doimiy istiqomat joyi aniq bo'lmagan yoki jinoyat protsessini yurituvchi organdan yashirinishga uringan ayblanuvchiga; og'ir

va o'ta og'ir jinoyatlarni sodir etishda ayblanayotgan shaxsga, agar uni qamoqdan ozod qilish ochiqdan-ochiq xatarli bo'lsa; favqulodda og'ir jinoyat sodir etishda ayblanayotgan shaxsga (MDH ishtirokchisi bo'lgan davlatlarga tavsiya etilgan Jinoyat-protsessual kodeksi Modelining 176-moddasi);

- jinoyat natijasida yetkazilgan mulkiy zararni to'lamaganlarga (Belarus Jinoyat-protsessual kodeksining 124-moddasi, Moldova Jinoyat-protsessual kodeksining 124-moddasi);

- o'ta og'ir jinoyat sodir etishda ayblanayotganlarga (Qirg'iziston Jinoyat-protsessual kodeksining 109-moddasi, Qozog'iston Jinoyat-protsessual kodeksining 148-moddasi), og'ir yoki o'ta og'ir jinoyat sodir etishda gumon qilingan yoki ayblanayotganlarga (Belarus Jinoyat-protsessual kodeksining 124-moddasi);

- qasddan sodir etilgan, 25 yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan jinoyatda ayblanayotganlarga (Moldova Jinoyat-protsessual kodeksining 192-moddasi);

- Penitetsiar kodeksda ko'rsatilgan 11 nafar jinoyatlarni sodir etishda ayblanayotganlarga (Estoniya Jinoyat-protsessual kodeksining 135-moddasi) bu insonparvar ehtiyot chorasi qo'llanmasligi ta'kidlangan.

3) ko'plab xorijiy davlat O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksilarida shaxsni dastlabki tergov bosqichida garov evaziga qamalmasligi uchun prokurorning roziligi (Rossiya Federatsiyasi Jinoyat-protsessual kodeksining 106-moddasi, Qirg'iziston Jinoyat-protsessual kodeksining 109-moddasi, Qozog'iston Jinoyat-protsessual kodeksining 148-moddasi va boshqalar) yoxud sudning ruxsati (Moldova Jinoyat-protsessual kodeksining 192-moddasi, Estoniya Jinoyat-protsessual kodeksining 135-moddasi va boshqalar) talab qilinadi. O'zbekiston va Belarus Jinoyat-protsessual kodeksilarida esa, shaxsni garovga berish masalasini tergovchi prokurordan rozilik olmay hal qiladi.

Jinoyat protsessining bu demokratiyalashtirish va erkinlashtirishga qaratilgan qoidasi aksariyat Jinoyat-protsessual kodekslarda aks ettirilgan (Rossiya Federatsiyasi Jinoyat-protsessual kodeksining 125-moddasi, Belarus Jinoyat-protsessual kodeksining 143-moddasi, Qozog'iston Jinoyat-protsessual kodeksining 109-110-moddalari, Qirg'iziston Jinoyat-protsessual kodeksining 131-132-moddalari, Moldova Jinoyat-protsessual kodeksining 196-moddasi, Estoniya Jinoyat-protsessual kodeksining 136-137-moddalari).

4) Ba'zi davlatlarning Jinoyat-protsessual kodekslarida garov predmeti faqat pul tarzida belgilangan (Estoniya Jinoyat-protsessual kodeksi 135-

moddasi, Moldova Jinoyat-protsessual kodeksi 192-moddasi, Belarus Jinoyat-protsessual kodeksi 124-moddasi, Qirg'iziston Jinoyat-protsessual kodeksi 109-moddasi), ba'zilarida qimmatli buyumlarni garovga olinishi, (Qozog'iston Jinoyat-protsessual kodeksi 148-moddasi, Ukraina Jinoyat-protsessual kodeksi 1541-moddasi, Rossiya Federatsiyasi Jinoyat-protsessual kodeksi 106-moddasi), bir xillarida – hatto ko'chmas mulk ham garovga qabul qilinishi (Ozarbayjon Jinoyat-protsessual kodeksi 164-moddasi), bu holda prokurorning ruxsati zarurligi (Qozog'iston Jinoyat-protsessual kodeksi 148-moddasi) nazarda tutiladi.

Ba'zi xorijiy mamlakatlarda garovga berilayotgan shaxslarni ular qanday jinoyat sodir etganlikda ayblanayotganini e'tiborga olib, differensiyalash va shu asnda garov summasining minimal miqdorini belgilash Jinoyat-protsessual kodeksining o'zida ko'rsatilgan. Chunonchi, Qozog'iston Jinoyat-protsessual kodeksiga muvofiq uncha og'ir bo'lmagan jinoyatni sodir etishda ayblanayotganga oylik maosh ko'rsatkichining 100 baravaridan, o'rta daraja og'ir bo'lgan ehtiyotsizlik bilan sodir etilgan jinoyatda ayblanayotganga – oylik maosh ko'rsatkichining 300 baravaridan, o'rta daraja og'ir bo'lgan qasddan sodir etilgan jinoyatda ayblanayotganga – oylik maosh ko'rsatkichining 500 baravaridan, og'ir jinoyatni sodir etishda ayblanayotganga – oylik maosh ko'rsatkichining 1000 baravaridan kam bo'lmasligi shart.

9.4. Munosib xulq-atvorda bo'lish to'g'risidagi tilxat

Ayblanuvchi (sudlanuvchi)dan munosib xulq-atvorda bo'lish to'g'risida tilxat olish ehtiyot choralarining eng yengili hisoblanadi, lekin uni qo'llashda ham jiddiy munosabat zarur.

Munosib xulq-atvorda bo'lish ko'proq ruhiy majburlovga xos bo'lib, tilxat olingan vaqtda ayblanuvchi o'ziga nisbatan jiddiyoq ehtiyot chorasi qo'llanishi to'g'risida ogohlantiriladi.

Bunday ehtiyot chorasi qo'llangan shaxslar barcha konstitutsiyaviy huquq va erkinliklar majmuasidan foydalanadilar. Bu chora bilan qo'llanishi mumkin bo'lgan boshqa cheklovchi choralar (kadrlar bo'limini, uchastka nozirini jalb qilish v.b.) qonunda nazarda tutilmagan bo'lib, ular fuqaroning shaxsiy erkinligini jiddiy va sezilarli ravishda cheklaydi.

Tergovchi va prokuror jinoyatni tekshirish jarayonida hodisaning ahamiyatga ega bo'lgan barcha holatlarini o'rganadi. Ehtiyot chorasi to'g'risidagi masalani hal qilishda u qo'llanadigan shaxsning kelgusidagi xulq-atvorini ham baholashga to'g'ri keladi. Shaxsning xulq-atvorini baholashga boshlang'ich ma'lumotlar bilan birga ish bo'yicha to'plangan

jinoyatning ogʻirligini, ayblanuvchining shaxsi, uning ayb shakli kabilarni xarakterlovchi dalillar ham xizmat qiladi. Ehtiyot chorasini tanlash masalasini toʻgʻri va asosli hal qilish uchun ishning barcha faktik holatlariga baho berish hamda shaxsning ehtiyot chorasi qoʻllashni taqozo etuvchi ehtimoliy xulq-atvori toʻgʻrisida toʻplangan maʼlumotlar asosida xulosa qilish lozim.

Jinoiy javobgarlikka tortiladigan shaxsning xulq-atvorini oldindan mutlaqo aniq koʻra bilish qiyin. Shuning uchun ehtiyot chorasi haqidagi masalani hal qilishda shaxsning ehtimoliy xulq-atvori aniqlanadi. Biroq bunday xulq-atvor haqidagi xulosa taxminlarga emas, balki shaxs tergovdan va suddan yashirinishi, haqiqatni aniqlashga toʻsqinlik qilishi, jinoiy faoliyat bilan shugʻullanishi, hukmning ijrosidan boʻyin tovlashi ehtimol ekani toʻgʻrisida darak beruvchi obyektiv maʼlumotlarga asoslanishi lozim.

Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 250-moddasi, Qirgʻiziston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 105-moddasida tilxat faqat ayblanuvchi va sudlanuvchidan olinishi nazarda tutilgan, gumon qilingan shaxs haqida hech bir maʼlumot yoʻq. Demak, mamlakatimizda mazkur ehtiyot chorasi gumon qilinuvchiga nisbatan qoʻllanmaydi. Rossiya Federatsiyasi Jinoyat-protsessual kodeksining 102-moddasi, Armaniston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 144-moddasi, Qozogʻiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 144-moddasi, Belarus Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 120-moddasi, Estoniya Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 96-moddasi, Tojikiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 86-moddalariga koʻra mazkur chora gumon qilinuvchiga nisbatan ham qoʻllaniladi.

Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 250-moddasida ayblanuvchi yoki sudlanuvchi oʻz zimmasiga olgan majburiyatlarini buzgan taqdirda, unga nisbatan jiddiy ehtiyot chorasi qoʻllanishi mumkinligi toʻgʻrisida ogohlantirilishi taʼkidlangan.

Ehtiyot chorasini qoʻllash zarurati toʻgʻrisidagi masalani hal qilishda, shuningdek qaysidir chorani tanlashda tergovchi, prokuror, sud Jinoyat-protsessual kodeksining 238-moddasida koʻrsatilgan holatlarni eʼtiborga olishi lozim. Bunday holatlarni hisobga olish va baholash ehtiyot chorasini qoʻllash zarurati va asoslari mavjudligi toʻgʻrisidagi masalani toʻgʻri hal qilishga, shuningdek ulardan ayblanuvchining, sudlanuvchining nomunosib xulq-atvorining oldini olishga yordam beradi.

Munosib xulq-atvorda boʻlish toʻgʻrisida tilxat asosan ijtimoiy oʻta xavfli boʻlmagan shaxslarga nisbatan, yaʼni uning erkinlikda qolishi jinoyat

sudlov ishlarini normal yuritishga jiddiy xavf tug'dirmaydigan holatlarda qo'llaniladi.

Ushbu ehtiyot chorasi ayblanuvchi, sudlanuvchining tergov va suddan yashirinmasligi va munosib xulq-atvorda bo'lishini ta'minlashi mumkin, ammo uni kelajakda dastlabki tergov yoki suddan bo'yin tovlaydigan, yana jinoyatlar sodir qiladigan yoki ish bo'yicha tergov va sudda ishtirok etuvchi shaxslarga nisbatan g'ayrihuquqiy ta'sir o'tkazadigan ayblanuvchiga va sudlanuvchiga nisbatan qo'llash man etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 250-moddasida tilxat beruvchi shaxs o'z zimmasiga surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudning ijozatisiz ushbu aholi punktidan chiqib ketmaslik va shu aholi punkti doirasida istiqomat joyini o'zgartirsa, bu haqda ularni xabardor qilish majburiyatini olishi ta'kidlanadi.

Munosib xulq-atvorda bo'lish to'g'risidagi tilxatda ushbu chora qo'llanilayotgan shaxsning yashash manzili ko'rsatilgan bo'lishi shart. Agar shaxs ro'yxatda turadigan va yashaydigan manzili muvofiq kelmasa, tilxatda qaysi manzil ko'rsatiladi. Bunday hollarda ayblanuvchi o'zining doimiy yoki vaqtincha turar joyi mavjudligini, bu joyda o'zi ro'yxatga olingan yoki olinmaganligidan qat'i nazar, isbotlab berishi lozim, deyish xato nuqtayi nazar bo'lib, ayblanuvchi zimmasiga hatto ayblovning mohiyati bilan bog'liq bo'lmagan holatlarni ham isbotlash majburiyati yuklatilishi mumkin emas, bu O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 26-moddasidagi aybsizlik prezumpsiyasi prinsipiga mutlaqo ziddir. Ayblanuvchi har qanday dalillar taqdim etishga majbur emas, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 46-moddasiga ko'ra dalillar taqdim etish ularning huquqi, aslo majburiyati emas.

Ayblanuvchi yashaydigan manzilni tilxatda ko'rsatish chog'ida qiyinchiliklar tug'ilganda (masalan, ikki yoki undan ortiq uy-joyda istiqomat qilishi ehtimol bo'lgan shaxslarga nisbatan) iltimosnomalar berish institutidan keng foydalanish mumkin, zero jinoyat protsessida juda ko'plab ishtirokchilarga mazkur huquq berilgan (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 43, 46, 48, 53, 55, 57, 59-moddalari). Ayblanuvchi yoki uning himoyachisi tomonidan munosib xulq-atvorda bo'lish to'g'risidagi tilxat amal qiladigan muddat ichida shaxsning qaysi manzilda istiqomat qilishi to'g'risida iltimosnoma berilishi mumkin. Agar iltimosnomada bir necha manzil ko'rsatilgan bo'lsa, tergovchi iltimosnoma bergan shaxslarning roziligi bilan ulardan birini tilxatda ko'rsatadi. Fikrimizcha, tilxatda bir necha manzilning ko'rsatilishi ham (masalan,

ayblanuvchi oilasi, ota-onasi yashaydigan manzillar) jinoyat sudlov ishlarini yuritishga to‘sqinlik qilmaydi.

Ehtiyot chorasi sifatida munosib xulq-atvorda bo‘lish to‘g‘risidagi tilxatni qo‘llash masalasini hal etishda ayblanuvchining haqiqatdan ham ko‘rsatilgan manzilda istiqomat qilishini aniqlash yuzasidan tekshiruv harakatlari o‘tkazilishi istisno qilinmaydi. Tergovchi shaxsning istiqomat joyi noma‘lum bo‘lgan holda undan tilxat olish chorasidan boshqa jiddiy chorani qo‘llashi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, munosib xulq-atvorda bo‘lish haqidagi tilxat ham ehtiyot choralari ichida eng yengili hisoblangani bilan, ayblanuvchi zimmasiga ko‘plab majburiyatlarni yuklaydi, ularni bajarmaslik esa boshqa jiddiy choralar qo‘llanishiga olib keladi va u ham boshqa ehtiyot choralari singari jinoyat sudlov ishlarining muvaffaqiyatini ta‘minlashga xizmat qiladi.

9.5. Shaxsiy kafillik

Kafillik ishonchga loyiq shaxslardan ayblanuvchi, sudlanuvchini munosib xulq-atvorda bo‘lishi va tergov hamda sud chaqirganda hozir bo‘lishi haqida majburiyatdir. Kafillikning ehtiyot chorasi sifatidagi afzalligi shundan iboratki, ayblanuvchi (sudlanuvchi) erkinlikda qoladi, o‘z mehnat faoliyatini davom ettiradi, odatdagi yashash sharoitlari va oiladan ajralmaydi.

Qonun kafillikning ikki turini nazarda tutadi: shaxsiy kafillik; jamoat birlashmasi yoki jamoaning kafilligi. Ba’zi mamlakatlar Jinoyat-protsessual kodekslarida kafillar kamida ikki kishidan iborat (Ukraina - 152, Qozog‘iston - 145, Qirg‘iziston - 106-modda), hatto 2-5 nafar (Moldova – 179-modda) bo‘lishini talab qiladi.

Ayblanuvchi (sudlanuvchi)ga faqat o‘zini tegishlicha tutishga majbur etadigan axloqiy omillar ta’sir qiladi. Kafillikka berilgan shaxsning tegishli xulq-atvori uchun kafillar mas’uldir, uning o‘ziga esa amaldagi qonun hech qanday majburiyat yuklamaydi. Munosib xulq-atvorda bo‘lish to‘g‘risida tilxat olishdagidek, kafillikka berilgan shaxsning zimmasiga ham quyidagi majburiyatlarni yuklashni O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 252-moddasiga kiritish maqsadga muvofiq: tergov va suddan yashirinmaslik; haqiqatni aniqlashga xalaqit bermaslik; jinoiy faoliyat bilan shug‘ullanmaslik; hukm ijrosiga to‘sqinlik qilmaslik. Ayblanuvchi bundan tashqari, tergovchi, prokuror va sudning chaqirig‘iga ko‘ra kelish va yashash joyining o‘zgargani to‘g‘risida ma‘lum qilish majburiyatlarini zimmasiga olishi kerak.

Shaxs ana shu majburiyatlardan birini bo'lsa-da, buzgan taqdirda unga nisbatan jiddiyroq ehtiyot chorasi qo'llanishi mumkinligi to'g'risida ogohlantirilishi lozim. Bunday ogohlantirish uning tegishli xulq-atvorini ta'minlaydi.

Ta'kidlash joizki, ayblanuvchi (sudlanuvchi) zimmasiga olgan majburiyatlarning birortasi ham uning huquqini jiddiy tarzda cheklamaydi. **Tegishli xulq-atvor deganda shaxsning protsessual majburiyatlarini buzmaslik tarzidagi xulq-atvori tushuniladi.** Umumiy axloqiy me'yorlarni buzish ehtiyot chorasini yanada jiddiyrog'i bilan o'zgartirishga olib kelmasligi kerak.

Ko'pgina davlatlarning protsessual qonunchiligida kafillik faqat ayblanuvchining chaqirganda hozir bo'lishini ta'minlash bilan cheklanadi. Kafillik maqsadini bunday tor doirada tushunish esa mazkur ehtiyot chorasining samaradorligini pasaytirishga olib keladi.

Qonun kafillik ehtiyot chorasi sifatida tanlanganda ayblanuvchi (sudlanuvchi)ning ish yoki o'qish joyidagi ma'muriyat xabardor qilinishini nazarda tutmaydi. Kafillikka berilgan shaxsning yashash joyidagi ma'muriyati va pasport stolini xabardor qilish uchun ham asos yo'q, chunki qonun unga yashash joyidan tashqariga chiqishni taqiqlamaydi. Ayblanuvchi (sudlanuvchi) tergovchi yoki sudni vaqtinchalik ko'chish yoki yashash joyini o'zgartirgani haqida xabardor qilishi kifoya.

Jamoat birlashmasi yoki jamoaning kafilligi ayblanuvchi (sudlanuvchi)ni ish, o'qish, yashash joyida qolishga, shuningdek jamoat birlashmasida a'zolikni davom ettirishga majbur qilmaydi. Biroq, uning boshqa ishga o'tishi, o'qish yoki yashash joyini o'zgartirishi mazkur jamoat birlashmasi yoki jamoani kafil bo'lish majburiyatidan voz kechishiga va bu to'g'risidagi qarorni (ajrimni) bekor qilishiga sabab bo'lishi mumkin. Bunday vaziyatda kafillikni kafillikdagi shaxs yashashga, ishga, o'qishga o'tgan yangi jamoat birlashmasining zimmasiga yuklash (agar u bunga rozi bo'lsa) to'g'risida qaror (ajrim) chiqarish, yoinki boshqa ehtiyot chorasini tanlash zarur. Ehtiyot chorasi dastlabkisidan jiddiyroq bo'lmasligi kerak, chunki faqat bir ishdan yoki o'qishdan, yashash joyidan boshqasiga o'tish ayblanuvchi (sudlanuvchi)ning protsessual holatini yomonlashtirish uchun asos bo'lolmaydi.

Kafillikning barcha ko'rinishlarida, agar kafillikdagi shaxs o'zi tomonidan berilgan va'dalarni bajarmasa, intizomni buzsa, spirtli ichimliklarni iste'mol qilsa v.h. hollarda kafil undan voz kechish huquqiga egadir. Shu tariqa, kafillikdan voz kechish uchun asoslar axloqiy tusda bo'lishi mumkin. Kafillar ayblanuvchi uchun tanlangan ehtiyot chorasiga

zid harakatlarni amalga oshirishini (yashirinishi, yangi jinoyat sodir etishi v.h.) kutib o'tirishi shart emas. Kafillikdan voz kechish uchun ishonch yo'qolishi va protsessual ma'noda tegishli bo'lmagan xulq-atvor ehtimolining borligi kifoyadir. Tergovchi va sud kafillikdan voz kechishning asosligini nazorat qiladi. Ammo, agar voz kechishning vajlari jiddiy bo'lmasa, kafillik samarali bo'lishi qiyin. Shuning uchun maqbul variant – agar bundan keyin kafillik imkoniyati obyektiv ravishda yo'qolmagan bo'lsa, kafilning ayblanuvchi bilan kelishuvini izlashdir. Kafillikni kafilning o'zi emas, balki tergovchi yoki sud bekor qiladi. Lekin kafil o'z ixtiyori bilan va har qanday vajlar sababli kafillikdan voz kechishga haqqi bor. Kafil bo'lish – fuqaroviy majburiyat emas. Kafillikdan voz kechish asoslarining jiddiyligiga qarab, tergovchi yoki sud kafillik o'rniga boshqa ehtiyot chorasini tanlaydi.

Shubhasiz, barcha ehtiyot choralari kabi kafillik ham shaxsni muayyan xulq-atvorga majburlaydi. Kafillik nazoratga olish bilan bog'liq chora sifatida ayblanuvchining ruhiyatiga ta'sir ko'rsatib, undan noxush oqibatlar kelib chiqishi tahdidi ostida ma'lum harakatlardan tiyilishni talab etadi. Bunday oqibatlar ikki xil bo'lishi mumkin: sud tomonidan ayblanuvchining kafillari va qonuniy vakillariga tatbiq etiladigan mulkiy jazo va ba'zi bir ma'naviy talofatlar. Jumladan, tergovchi, ayblanuvchi va kafil o'rtasida uch tomonlama munosabat yuzaga keladi. Kafil ayblanuvchining tegishli xulq-atvorini ta'minlashga majbur, lekin u ayblanuvchini qonunga itoat etuvchi xulq-atvorga majbur etish uchun yuridik vakolatga ega emas. Ayblanuvchining nazarida kafil obro'-e'tiborga ega, nufuzli shaxs. U bilan ayblanuvchi o'rtasidagi munosabat huquqiy tusga ega, lekin faqat ishonchga asoslangan. Ayblanuvchi o'zini kafillikka olgan shaxsga nisbatan mulkiy va ma'naviy tusdagi noxushliklar yuz berishini xohlamaydi va shu sababdan qonun va axloqqa zid xulq-atvordan o'zini tiyadi. Ayblanuvchi o'zini tuta olmasa, tergovchi bilan kafil o'rtasidagi regulyativ huquqiy munosabat keskin tus oladi. Demak, ayblanuvchining nojo'ya xulq-atvori mazkur huquqiy munosabatda yuridik fakt rolini o'ynaydi va bu narsa mazkur ehtiyot choralari qo'llash yoki o'zgartirish chog'ida e'tiborga olinadi. Kafillik o'rnatish to'g'risida qaror (ajrim) chiqarish lozim. Qaror asoslangan va kafil to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan bo'lishi kerak. Qaror (ajrim) chiqarishdan oldin tergovchi (sud) qonundan kelib chiqadigan harakatlarni amalga oshiradi. Kafil ishonchli bo'lishi kerak. Kafilning shaxsi to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plab va tekshirib, tergovchi (sud) bunga qanoat hosil qilishi shart. Kafilning shaxsi to'g'risidagi ma'lumotlarni tergovchi tezkor-qidiruv organlari yordamida ham to'plashi

mumkin. Jamoa kafilligidan foydalanish maqsadi bo'lganda, kafillikni samarali amalga oshira olishi mumkinligini belgilash uchun tegishli jamoat birlashmasi yoxud jamoadagi mikromuhit to'g'risida ma'lumotlarni to'plash zarur.

Qonunni kafillik uchun ayblanuvchining o'zidan ham rozilik olish zarurligi to'g'risida qoida bilan to'ldirish kerak. Bunday roziliksiz kafillik samara bermaydi. Kafillikni amalga oshirish uchun har ikki taraf - ayblanuvchi va kafilning ixtiyoriy xohish bildirishi zarur. Shu bois ayblanuvchining kafil bilan o'zaro munosabatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni e'tiborga olish lozim bo'ladi.

Jamoat birlashmasi yoki jamoaning kafilligi deyilganda, ayblanuvchining istiqomat joyi, o'qiydigan yoxud mehnat qiladigan jamoa yoki u a'zo bo'lgan kasaba uyushmasi va boshqa birlashmalarning kafilligi tushuniladi.

Jamoat birlashmasi yoki jamoaning yig'ilishida kafillik masalasini sinchiklab ko'rib chiqishni ta'minlash mumkin. Shu sababdan qonun kafillikni amalga oshiradigan subyektlarning ro'yxatini belgilarkan, jamoat birlashmalari va jamoalarning saylab qo'yiladigan organlarini nazarda tutmaydi. Kafillik masalasini jamoat birlashmasi yoxud jamoa ma'muriyati jamoa bilan maslahatlashmagan holda ko'rib chiqishi odil sudlovning manfaatlariga mos kelmaydi. Shu sababli tergovchi (sud) kafillik yoki undan voz kechish masalasini qayta ko'rib chiqish uchun jamoat birlashmasi yoki jamoaning umumiy yig'ilishini chaqirilishini talab qilishga haqlidir. Kafillikka berilayotgan shaxs jamoat birlashmasi yoki jamoaning yig'ilishida qatnashishi maqsadga muvofiq. Ba'zan yig'ilishda mazkur ishni yuritayotgan tergovchi so'zga chiqadi. Agar kafillik to'g'risida asoslangan qaror chiqarish uchun zarur bo'lsa, jamoat birlashmasi yoki jamoaga o'z vakili orqali ish materiallari bilan tanishish huquqi berilishi kerak. Tergovchi yoki sudga umumiy yig'ilish o'tkazilgani, unda ishtirok etganlar soni, so'zga chiqqanlarning mulohazalari va ovoz berish natijalari ko'rsatilgan holda yig'ilish raisi va kotibi tomonidan imzolangan bayonnoma va shaxsning tegishlicha xulq-atvoriga kafilligi to'g'risida birlashma yoki jamoaning yozma majburiyati yuborilishi zarur.

Birlashma yoki jamoaning iltimosi tergovchi (sud) uchun majburiy emas, kafillikka berish to'g'risidagi iltimos rad qilinishi mumkin. Shuningdek, shaxs uchun kafil bo'lishni xohlamagan, birlashma yoki jamoaga kafillikni zo'rlab o'tkazish mumkin emas. Birlashma yoki jamoa

faqat o‘z a‘zolari uchun kafil bo‘lishi mumkin, o‘zi bilmaydigan va xulq-atvorini nazorat qilmaydigan shaxs uchun kafil bo‘la olmaydi.

Jamoat kafilligining xarakterli xususiyati – ayblanuvchi (sudlanuvchi)ning tegishli bo‘lmagan xulq-atvori uchun kafilning huquqiy javobgarligi mavjud emasligidir. Biroq bu narsa uni samarasiz qilmaydi. Shaxs uchun jamoaning ishonchi shaxsiy kafillikdan ko‘ra ancha qimmatlidir. Jamoaga pand bermaslik, uning ishonchini oqlash xohishi kafillikka beriluvchining tegishli xulq-atvorining jiddiy omili bo‘lib xizmat qiladi.

Shaxsiy kafillik ishonchga sazovor bo‘lgan shaxslarning o‘z zimmalariga ayblanuvchi, sudlanuvchi munosib xulq-atvorda bo‘lishiga kafil ekanliklari haqida yozma majburiyat olishidir.

Kafillikni amalga oshirish uchun har ikki taraf – ayblanuvchi, sudlanuvchi va kafilning ixtiyoriy xohish bildirishi zarur. Ayblanuvchi, sudlanuvchi surishtiruv, dastlabki tergov, prokuratura organlari yoki sudga o‘zlarini kim shaxsiy kafillikka olishi mumkinligini ma‘lum qilishlari yoxud kafillarning o‘zi jinoiy javobgarlikka tortilayotgan shaxslar erkinlikda qoldirilsa, ularning munosib xulq-atvoriga kafil bo‘lish istagi to‘g‘risida yuqoridagi organlar va sudga murojaat qilishlari mumkin.

Ayblanuvchi, sudlanuvchini ularning qarindoshlari, do‘stlari yoki yaqin tanishlari kafillikka olishi mumkin. Kafillarning soni surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud tomonidan belgilanadi. Alohida hollarda yuksak ishonchga sazovor bo‘lgan bitta shaxs ham kafil bo‘lishi mumkin.

Ishonchga sazovor shaxs deganda jamiyatda muayyan mavqega, obro‘-e‘tiborga, ayblanuvchi, sudlanuvchining xulq-atvoriga ijobiy ta‘sir ko‘rsatish uchun yetarli imkoniyatlarga ega bo‘lgan shaxslar tushuniladi.

Kafil ayblanuvchining risoladagidek xulq-atvorini ta‘minlashga majbur, lekin u ayblanuvchini qonunga itoat etuvchi xulq-atvoriga majbur etish uchun yuridik vakolatga ega emas. Kafil bilan ayblanuvchi o‘rtasidagi munosabat huquqiy tusga ega, lekin faqat ishonchga asoslangan. Ayblanuvchi o‘zini kafillikka olgan shaxsga nisbatan mulkiy va ma‘naviy tusdagi noxushliklar yuz berishini xohlamaydi va shu sababdan risolaga zid xulq-atvordan o‘zini tiyadi.

Ayblanuvchi, sudlanuvchini shaxsiy kafillikka berish to‘g‘risida bayonnoma tuziladi yoki sud majlisi bayonnomasida aks ettiriladi. Kafillar ushbu ehtiyot chorasi qo‘llanilishiga sabab bo‘lgan ayblovning mohiyati, ayblanuvchiga qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan jazo, kafillarning javobgarligi

haqida ogohlantirilganligi ushbu bayonnomada qayd qilinib, u ehtiyot chorasini qo'llayotgan mansabdor shaxs, ayblanuvchi, sudlanuvchi va kafillar tomonidan imzolanadi. Bundan tashqari, har bir kafillikka oluvchidan kafillik to'g'risida tilxat olinadi.

Kafillar ularni javobgarlikka tortish uchun sabab bo'ladigan asoslar kelib chiqqunga qadar o'z zimmalariga olgan majburiyatlaridan voz kechishlari mumkin. Kafillikni kafilning o'zi emas, balki surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud bekor qiladi, lekin kafil o'z ixtiyori bilan va har qanday vajlar sababli kafillikdan voz kechishga haqli. Kafillikdan voz kechish uchun ayblanuvchi, sudlanuvchiga nisbatan ishonchning yo'qolishi va nomunosib xulq-atvorda bo'lish ehtimolining mavjudligi kifoya. Kafil bo'lish – fuqaroviy majburiyat emas. Kafillikdan voz kechish asoslarining jiddiyligiga qarab, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud kafillik o'rniga boshqa ehtiyot chorasini tanlaydi.

Kafillar ayblanuvchi, sudlanuvchining xulq-atvorini kuzatishga imkoni bo'lmaganligini bahona qilishga haqli emaslar, ular bartaraf etib bo'lmaydigan vaziyatning ta'sirini isbotlab beradigan hollar bundan mustasno.

Kafil o'z zimmasiga olgan yozma majburiyatlarini bajarmasligi oqibatida ayblanuvchi, sudlanuvchi oldi olinishi uchun shaxsiy kafillik qo'llanilgan harakatlarni sodir etgan taqdirda, u O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 208-moddasiga binoan javobgarlikka tortilishi mumkin (kafilga eng kam ish haqining bir baravaridan uch baravarigacha miqdorda jarima solinadi).

Shu tariqa, ayblanuvchini ruhan majburlash ochiqdan-ochiq yoki bilvosita kafillik va nazoratga olish bilan bog'liq barcha ehtiyot choralarini qo'llash chog'ida, hatto ehtiyot chorasi tanlanmay, ayblanuvchidan majburiyatlar olish va noo'rin xulq-atvor oqibatlari to'g'risida maxsus ogohlantirish hollarida ham yuz beradi.

Qonun kafillik ehtiyot chorasi sifatida tanlanganda ayblanuvchi (sudlanuvchi)ning ish yoki o'qish joyidagi ma'muriyat xabardor qilinishini nazarda tutmaydi. Kafillikka berilgan shaxsning yashash joyidagi ma'muriyati va pasport stolini xabardor qilish uchun ham asos yo'q, chunki qonun unga yashash joyidan tashqariga chiqishni taqiqlamaydi. Ayblanuvchi (sudlanuvchi) tergovchi yoki sudni vaqtinchalik ko'chish yoki yashash joyini o'zgartirgani haqida xabardor qilishi kifoya.

Jamoat birlashmasi yoki jamoaning kafilligi ayblanuvchi (sudlanuvchi)ni ish, o'qish, yashash joyida qolishga, shuningdek jamoat birlashmasida a'zolikni davom ettirishga majbur qilmaydi. Biroq, uning

boshqa ishga o'tishi, o'qish yoki yashash joyini o'zgartirishi mazkur jamoat birlashmasi yoki jamoani kafil bo'lish majburiyatidan voz kechishiga va bu to'g'risidagi qarorni (ajrimni) bekor qilishiga sabab bo'lishi mumkin. Bunday vaziyatda kafillikni kafillikdagi shaxs yashashga, ishga, o'qishga o'tgan yangi jamoat birlashmasining zimmasiga yuklash (agar u bunga rozi bo'lsa) to'g'risida qaror (ajrim) chiqarish, yoki boshqa ehtiyot chorasini tanlash zarur. Ehtiyot chorasi dastlabkisidan jiddiyroq bo'lmasligi kerak, chunki faqat bir ishdan yoki o'qishdan, yashash joyidan boshqasiga o'tish ayblanuvchi (sudlanuvchi)ning protsessual holatini yomonlashtirish uchun asos bo'la olmaydi.

Kafillik o'rnatish to'g'risida qaror (ajrim) chiqarish lozim. Qaror asoslangan va kafil to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan bo'lishi kerak. Qaror (ajrim) chiqarishdan oldin tergovchi (sud) qonundan kelib chiqadigan harakatlarni amalga oshiradi. Kafil ishonchli bo'lishi kerak. Kafilning shaxsi to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plab va tekshirib, tergovchi (sud) bunga qanoat hosil qilishi shart. Kafilning shaxsi to'g'risidagi ma'lumotlarni tergovchi tezkor-qidiruv organlari yordamida ham to'plashi mumkin. Jamoa kafilligidan foydalanish maqsadi bo'lganda, kafillikni samarali amalga oshira olishi mumkinligini belgilash uchun tegishli jamoat birlashmasi yoxud jamoadagi mikromuhit to'g'risida ma'lumotlarni to'plash zarur.

Kafillik to'g'risida tilxat olish uchun tergovchi yoki sud kafillikka olayotgan shaxsni chaqiradi. Jamoat birlashmasi yoki jamoaning vakili tergovchi yoki sudga ushbu birlashma yoxud jamoa ayblanuvchining tegishli xulq-atvori va uning chaqirish bo'yicha hozir bo'lishiga kafil bo'lishi to'g'risida yozma majburiyat berishi shart. Kafil yoki uning vakili, shuningdek ayblanuvchi mazkur ehtiyot chorasining tanlangani to'g'risidagi qaror (ajrim) bilan tanishib, imzo chekishlari kerak. Ularning har biriga, agar ular iltimos qilsa, ushbu hujjatdan nusxa topshirilishi lozim bo'ladi. Keyin tergovchi (sud) yana bir karra kafillikka berilayotgan bilan kafil o'rtasidagi o'zaro munosabatlar xususiyatini aniqlaydi va kafilni ishning mohiyatidan (ayblovning og'irligi, ehtimoliy jazo v.h.) xabardor qiladi.

Shuning uchun har bir ayblanuvchidan, unga nisbatan ehtiyot chorasi qo'llanganidan qat'i nazar, sud va tergovdan yashirinmaslik, haqiqatni aniqlashga, hukmni ijro etishga to'sqinlik qilmaslik, jinoiy faoliyat bilan shug'ullanmaslik, chaqirilganda hozir bo'lish va yashash joyini o'zgartirgani holda ma'lum qilish to'g'risida yozma majburiyat olinadi.

Bunda ayblanuvchi ko'rsatilgan majburiyatlarni o'z zimmasiga olganligi ko'rsatilgan bayonnoma tuzilishi va unga bu majburiyatlarni bajarmaslik qanday oqibatlarga olib kelishi tushuntirilishi kerak bo'ladi. Bayonnoma tuzilayotganda kafillar hozir bo'lishi va uni imzolashlari lozim. Ehtiyot chorasini sud tanlaganda tegishli holatlar sud majlisi bayonnomasida qayd etiladi.

Kafillikni ehtiyot choralariidan chiqarib tashlash haqida ba'zi amaliyot xodimlarining taklifiga qo'shilish uchun arzigulik asos yo'q. Ushbu nom bilan birlashtirilgan ehtiyot choralari jinoyat sudlov ishlarini demokratlashtirish, majburlash doirasini toraytirish, ijtimoiy hayotning axloqiy negizlarini takomillashtirish, davlat va shaxs o'rtasidagi munosabatlarda ishonchga suyanish bilan chambarchas bog'langan. U shaxs va davlatning qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta'minlaydi.

Ayblanuvchi kafillik shartlarini buzayotganiga ishonch hosil qilsa, kafil uni tergov organiga yoki sudga olib kela olmaydi. Chunki ayblanuvchi faqat yangi jinoyat sodir etgan hollarda ushlanishi va huquqni muhofaza qilish organiga olib kelinishi mumkin. Kafil biror shaxsni ushlab uchun boshqa fuqarolar qanday huquqli bo'lsa, ana shunday huquqqa ega. Ayblanuvchining tegishlicha bo'lmagan nojo'ya xulq-atvori haqida kafil mazkur ehtiyot chorasini tanlagan organga xabar qilishga haqli, ammo u kafillikka olinganni ushlashi va majburiy keltirishi uchun qonunda nazarda tutilgan asoslar yo'q.

Birlashma yoki jamoaning iltimosi tergovchi (sud) uchun majburiy emas, kafillikka berish to'g'risidagi iltimos rad qilinishi mumkin. Shuningdek, shaxs uchun kafil bo'lishni xohlamagan, birlashma yoki jamoaga kafillikni zo'rlab o'tkazish mumkin emas. Birlashma yoki jamoa faqat o'z a'zolari uchun kafil bo'lishi mumkin, o'zi bilmaydigan va xulq-atvorini nazorat qilmaydigan shaxs uchun kafil bo'la olmaydi.

Jamoat kafilligining xarakterli xususiyati – ayblanuvchi (sudlanuvchi)ning tegishlicha bo'lmagan xulq-atvori uchun kafilning huquqiy javobgarligi mavjud emasligidir. Biroq bu narsa uni samarasiz qilmaydi. Shaxs uchun jamoaning ishonchi shaxsiy kafillikdan ko'ra ancha qimmatlidir. Jamoaga pand bermaslik, uning ishonchini oqlash xohishi kafillikka beriluvchining tegishlicha xulq-atvorining jiddiy omili bo'lib xizmat qiladi.

9.6. Voyaga yetmaganlarni kuzatuv ostiga olish uchun topshirish

Inson huquqlari tizimida bola huquqlari alohida o‘rin tutadi, zotan, bunday holat bir necha omillar bilan tavsiflanadi, jumladan, bir tomondan, bolalar kattalar ega bo‘lgan va foydalanadigan huquqlarning hammasidan ham foydalana olmaydilar, ikkinchi tomondan esa, aynan ularning hali voyaga yetmaganliklari bois davlat va jamiyat tomonidan alohida g‘amxo‘rona munosabat ko‘rsatilishi va ayrim imtiyozlar berilishi talab etiladi.

O‘zbekiston Jinoyat-protsessual kodeksida voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlarni yuritish tartibi alohida 60-bobda ko‘rsatilgan bo‘lib, hozirgi zamon rivojlangan chet mamlakatlarning jinoyat qonunchiligiga mos keladi.

Voyaga yetmaganlar deb, davlat Konstitutsiyasida va boshqa qonunlarida ko‘rsatilgan fuqarolarning burch, huquq va majburiyatlarini bajarish uchun belgilangan yoshga to‘lmagan shaxslar nazarda tutiladi.

Voyaga yetmaganlarni jinoyatlari haqidagi ishlarni ko‘rishda ish bo‘yicha isbotlanishi lozim bo‘lgan holatlarni sinchkovlik bilan har tomonlama to‘la va xolisona tekshirib chiqilishi, qilmishning ijtimoiy xavflilik darajasini hamda sudlanuvchining shaxsini e‘tiborga olgan holda aniqlangan haqiqiy holatlar va dalillar majmuasiga to‘g‘ri baho berilishi, odillik va insonparvarlik tamoyillariga amal qilgan holda qonunda ko‘rsatilgan imtiyozlardan to‘la foydalanishga imkon yaratilishi lozim. Ushbu chora o‘z mohiyatiga ko‘ra kafillikka o‘xshaydi. Masalan, voyaga yetmaganning nomunosib xulq-atvori uchun uning ota-onasi vasiy v.h.miy, shaxsiy kafil singari mas’uldir.

Voyaga yetmaganlarni kuzatuv ostiga olish uchun topshirishda ota-onasi, vasiylar, homiylar yoki bolalar muassasasi ma‘muriyatidan voyaga yetmagan ayblanuvchini tergovchi, prokuror huzuriga va sudga o‘z vaqtida kelishi, uni O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 46-moddasida nazarda tutilgan barcha majburiyatlarni bajarishini ta‘minlashi haqida yozma ravishda tilxat olinadi. Bunday majburiyatni o‘z zimmasiga olayotgan shaxslar voyaga yetmagan ayblanuvchiga e‘lon qilingan ayblovning mohiyati hamda ayblanuvchini tergov organlari yoki sudga o‘z vaqtida kelmasligi hollarida javobgarligi haqida ogohlantiriladi.

Kuzatuv ostiga berish chorasi faqat ota-onalar, vasiylar, homiylar roziligi bilan qo‘llanishi mumkin, aks holda voyaga yetmaganlarni qayta tarbiyalash haqida gapirish qiyin bo‘lar edi. Qonunda ota-onalar (vasiylar,

homiylar) tomonidan kuzatuv ostiga olish bo'yicha majburiyat olishni rad etish ko'zda tutilmagan bo'lsa-da, bunday hol yuz berishi mumkin. Tergovchi va sud tomonidan kuzatuv ostiga berish chorasini tanlanayotganida yuqoridagi holatlar hamda ushbu shaxslar o'z vazifalarini qay darajada bajarishlari, voyaga yetmagan shaxsga to'g'ri tarbiyaviy ta'sir ko'rsata olishlari aniqlanishi kerak. Aks holda, voyaga yetmagan ayblanuvchini O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 556-moddasida ko'rsatilgan shaxslarga kuzatuv ostiga olish uchun topshirish samara bermaydi.

Voyaga yetmaganning munosib xulq-atvorini va uni chaqiruvga binoan kelishini ta'minlash bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmagan bolalar muassasasi ma'muriyatining javobgarligi haqidagi yozma tilxat ushbu muassasa rahbari yoki u tomonidan vakolat berilgan ma'muriyatning boshqa vakilidan olinadi. Bolalar muassasasining o'z zimmasiga olgan majburiyatni buzganligi uchun javobgarligi qonunda hal qilinmay qolgan. Bu esa o'z navbatida, kuzatuvga olish bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmagan bolalar muassasasining ma'muriyati javobgar bo'lmaydi, degan xulosa chiqarishga olib keladi.

Ma'muriyatning kuzatuvga olish bo'yicha majburiyatni bajarmagan shaxslarga nisbatan tergov organi taqdimnomasiga yoxud sudning xususiy ajrimiga muvofiq intizomiy yoki jamoat ta'sir choralari qo'llanilishi mumkin. Yopiq bolalar muassasasida tarbiyalanayotgan voyaga yetmagan tomonidan jinoyat sodir etilishi, uzluksiz tarbiya jarayonida yo'l qo'yilgan xatolar u bilan yetarli darajada individual tartibda shug'ullanilmaganligidan dalolat beradi. Bu ko'rsatilgan muassasa ma'muriyatini voyaga yetmaganga nisbatan uni munosib xulq-atvorda bo'lishini ta'minlaydigan yanada samaraliroq ta'sir etish vositalarini qidirishga undashi lozim. Bunday ta'sir choralari ma'muriyat kuzatuv ostiga olishi uchun berilgan voyaga yetmagan ayblanuvchiga nisbatan qo'llash kerak.

Agar voyaga yetmagan o'z ota-onasi (vasiylari, homiylari) nazoratidan chetda bo'lsa yoki ular uzrli sabablarga ko'ra (kasalligi yoki uzoq xizmat safari) kuzatuvga ostiga olish bo'yicha majburiyatlarni bajarish uchun imkoniyati bo'lmasa, bunday ehtiyot chorasini tanlash nafaqat samarasiz, balki zararli hamdir. Shuningdek, agar voyaga yetmaganni kuzatuvga olgan shaxs keyinchalik o'z burchlarini bajarolmaydigan holatda bo'lsa, uni boshqa shaxsning kuzatuviga berish kerak bo'ladi.

Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarliklarning sabablaridan asosiysi oilaviy tarbiyaning yetishmasligidir. Olimlarning tadqiqotlariga ko'ra, qayerda oilaviy nizolar va nikohni bekor qilishlar ko'p

bo'lsa, o'sha joyda voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi yuqoridir. Ularning fikricha, bunday hodisa bilan jinoyatchilik o'rtasida to'g'ridan to'g'ri bog'lanish bor.

Darhaqiqat, spirtli ichimlik iste'mol qilish, buzuq xulq-atvor, qo'pollik, tekinxo'rlik, o'z farzandlarini jinoiy faoliyatga jalb qilish kabilar uchraydi. Tabiiyki, bunday hollarda voyaga yetmaganni ota-onasi (vasiylari, homiylari)ga kuzatuv ostiga olish uchun topshirish chorasini qo'llash mumkin emas. Ushbu masala bo'yicha to'g'ri qaror qabul qilish uchun dastlabki tergov organlari ota-ona (vasiy, homiy)ning shaxsini, ularning ma'naviy qiyofasini, tarbiyaga bo'lgan munosabatini va ko'rsatilgan shaxslar ayblanuvchining munosib xulq-atvorini va chaqiruv bo'yicha kelishini ta'minlashlari haqida xulosa chiqarishga imkon yaratadigan boshqa holatlarni aniqlashlari shart.

Ota-ona, vasiy, homiy, jamoat tashkiloti yoki jamoa dastlabki tergov mobaynidayoq ayblanuvchini to'g'ri yo'lga solish va qayta tarbiyalash maqsadida u bilan tarbiyaviy ishlar olib borish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim. Ushbu ehtiyot chorasi voyaga yetmagan ayblanuvchi maktab, korxonalar, birlashma, jamoa bilan aloqasini yo'qotmagan hamda sodir etgan jinoyati va uning shaxsini tavsiflovchi xususiyatlari qamoqqa olishni istisno qiladigan hollarda o'zini oqlaydi.

Qonunda voyaga yetmagan ayblanuvchi ota-onalardan aynan qaysi biriga, bolalar muassasasi ma'muriyatidagi qaysi toifa yoki lavozimdagi shaxslarga kuzatuv ostiga olish uchun topshirilishi lozimligi ko'rsatilmagan. Fikrimcha, ayblanuvchini kuzatuv ostiga olish bo'yicha majburiyatlar ota-onaning biriga yoki ikkisiga ham, bolalar muassasasi ma'muriyatidagi tarbiyachi shaxslardan biriga topshirilishi mumkin.

Qonunda voyaga yetmagan ayblanuvchi farzandlikka oluvchiga kuzatuv ostiga olish uchun topshirilishi mumkin, deb maxsus ko'rsatishga hojat yo'q. Farzandlikka oluvchi o'zining huquqiy holatiga ko'ra ota-onalarga to'liq tenglashtiriladi.

Voyaga yetmaganlarni boshqa yaqin qarindoshlariga ham o'z zimmasiga ayblanuvchini munosib xulq-atvorda bo'lishini hamda tergov organlari va sudning chaqiruviga binoan kelishlarini ta'minlash bo'yicha majburiyatlarni olish huquqini berish lozim. Masalan, ish holatlarini hisobga olgan holda voyaga yetmagan ayblanuvchini kuzatuv ostiga olish uchun uning voyaga etgan akasi, opasi, bobosi, buvisiga topshirilishi mumkin. Ushbu ehtiyot chorasini tanlanishi voyaga yetmagan ayblanuvchi maktab, korxonalar, birlashma jamoasi bilan aloqasini yo'qotgan bo'lsa-da,

sodir etgan jinoyati va uning shaxsini tavsiflovchi xususiyatlari qamoqqa olishni istisno qiladigan hollarda ham o‘zini oqlaydi.

Shubhasiz, voyaga yetmaganlarni ehtiyot chorasi sifatida tarbiya-mehnat koloniyalari ma‘muriyati kuzatuv ostiga topshirib bo‘lmaydi. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 556-moddasida voyaga yetmagan jazoni o‘tayotgan muassasa haqida emas, balki u tarbiyalanayotgan bolalar muassasasi haqida gap ketadi. Tarbiya-mehnat koloniyalari esa, sud tomonidan ozodlikdan mahrum etish jazosiga hukm qilingan va hukm kuchga kirgan voyaga yetmaganlar uchun mo‘ljallangan.

Ushbu ehtiyot chorasini tanlashning majburiy sharti - ayblanuvchini ota-onasi (vasiy, homiylari), shuningdek bolalar muassasasining ma‘muriyati kuzatuv bo‘yicha majburiyatlarni bajarishga real imkoniyati borligini aniqlashdan iborat.

Jumladan, bolalar muassasasida tarbiyalanayotgan o‘smir tomonidan jinoyat sodir etilishi faktining o‘zi qandaydir darajada bu muassasa ma‘muriyatini o‘z ixtiyoridagi tarbiyalanuvchilarni qayta tarbiyalash va tuzatish bo‘yicha majburiyatlarini yetarlicha bajarmayotganidan dalolat beradi.

Voyaga yetmaganni kuzatuv ostiga olish bo‘yicha majburiyatlarni qabul qilish imkoniyati haqidagi masalani bolalar muassasasini ilmiy-tarbiyaviy kengashi, tarbiyalanuvchilar yig‘ilishi muhokama qilishi va tegishli qaror qabul qilishi shart. Bunday tartib jinoyat sodir etgan o‘smirning munosib xulq-atvorini ta‘minlash bo‘yicha ma‘muriyat, tarbiyachilar, pedagoglarning javobgarligini oshiradi. Bu o‘z navbatida nafaqat ayblanuvchiga, balki bolalar muassasasida tarbiyalanayotgan, ma‘naviyati endi shakllanayotgan boshqa voyaga yetmaganlarga ijobiy tarbiyaviy ta‘sir o‘tkazishi shubhasiz.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 556-moddasiga binoan, voyaga yetmaganni qarovga topshirish tariqasidagi ehtiyot chorasi faqat 18 yoshga to‘lmagan ayblanuvchilarga nisbatan tayinlanishi mumkin. Qarovga olingan shaxs voyaga yetishi bilan uni ota-onalar va boshqa qonuniy vakillari bilan bo‘lgan huquqiy munosabatlari o‘zgaradi. Chunki bu holda u to‘liq muomala layoqatiga ega bo‘ladi. Demak, ayblanuvchi 18 yoshga to‘lganda unga nisbatan tanlangan qarovga topshirish chorasi boshqa ehtiyot chorasiga o‘zgartirilishi kerak. Agar bu holatda ehtiyot chorasi o‘zgartirilmagan bo‘lsa, ayblanuvchi tomonidan majburiyatlar bajarilmagan taqdirda, uning ota-onasi, vasiylari, homiylari o‘z-o‘zidan javobgarlikdan ozod bo‘ladi.

Qonunda voyaga yetmagan kuzatuv ostiga topshirilishi mumkin bo'lgan muassasalar ro'yxati to'liq ko'rsatilgan. Qonun faqat ayblanuvchi tarbiyalanayotgan bolalar muassasalari (maktab internatlar, bolalar uyi, qabul qilish, topshirish muassasalari, maxsus tarbiya va davolash muassasalari, tarbiya mehnat koloniyalari)ni nazarda tutadi.

Ta'kidlash kerakki, qabul qilish-taqsimlash muassasalari va tarbiya mehnat koloniyalari, ma'muriyati voyaga yetmagan ayblanuvchini qarovga olishi mumkin bo'lgan bolalar muassasalari qatoriga kirmasligi kerak. Chunki qonunda (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 557-moddasi) voyaga yetmagan o'zi tarbiyalanayotgan bolalar muassasasi ma'muriyatiga qarovga olish uchun topshirilishi mumkin, deb bevosita ko'rsatib qo'yilgan.

Umuman olganda, mazkur ehtiyot chorasining qo'llanilishi bunday tartib jinoyat sodir etgan tarbiyalanuvchisining munosib xulq-atvorini ta'minlash bo'yicha ma'muriyat, tarbiyachilar, pedagoglarning javobgarligini oshiradi. Bu o'z navbatida nafaqat ayblanuvchiga, balki bolalar muassasasida tarbiyalanayotgan, ma'naviyati endi shakllanayotgan boshqa voyaga yetmaganlarga ijobiy tarbiyaviy ta'sir o'tkazishga xizmat qiladi.

9.7. Harbiy xizmatchining xulq-atvori ustidan qo'mondonlik kuzatuv

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 254-moddasida nazarda tutilgan harbiy xizmatchining xulq-atvori ustidan qo'mondonlik kuzatuv ehtiyot chorasi - hozirgi zamon talablariga javob beruvchi samarali chora bo'lib, jinoyat sodir etgan askarning o'z jamoasida qolishiga imkon beradi va profilaktik ahamiyatga ega. Huquqiy mohiyati jihatidan bu ehtiyot chorasi kafillikning o'ziga xos turi bo'lib, ayblanuvchi, sudlanuvchi munosib xulq-atvorda bo'lishini harbiy qism qo'mondonligi harbiy nizomlarda belgilangan choralar vositasida ta'minlaydi. Qo'mondonlik kuzatuv o'z mazmuniga ko'ra biror lavozimni egallamagan oddiy harbiy xizmatchiga qo'llanishi mumkin. U muddatli harbiy garnizonda xizmatni o'tayotgan yoxud harbiy o'quv yig'iniga chaqirilgan harbiy xizmat o'tashga majbur shaxs bo'lishi ko'zda tutiladi va bunday shaxs ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilingan bo'lishi lozim. Aniqrog'i, kattami-kichikmi, harbiy qo'mondonlarga va gumon qilingan shaxsga bu chora qo'llanishi mumkin emas.

Qo'mondonlik kuzatuv ayblanayotgan harbiy xizmatchi kelgusida sodir etishi ehtimol qilingan jinoiy faoliyatining oldini olish, tergovga to'sqinlik qilmasligini ta'minlash maqsadida tergovchining qarori yoki sudning ajrimi asosida qo'llanadi.

Buning uchun ayblanuvchining kuzatuvni amalga oshiruvchi qo'mondonidan rozilik olish talab qilinmaydi. Aksincha, ba'zi mamlakatlarda ushbu ehtiyot chorasini qo'llanishi uchun ayblanuvchi, hatto gumon qilingan shaxsdan rozilik olish shart deb hisoblanadi (Rossiya Federatsiyasi Jinoyat-protsessual kodeksining 104-moddasi). Bunday shartni nazarda tutish uchun ehtiyoj yo'q. Ba'zi bir mamlakatlarda ayblanuvchini harbiy qo'mondonlik kuzatuviga berish uchun prokurordan ruxsat olinishi talab qilinadi (Moldova Jinoyat-protsessual kodeksining 183-moddasi). Bunga ham zaruriyat yo'q. Chunki ayblanuvchining huquq va erkinliklari harbiy nizomlarda ko'rsatilgan hajmda saqlanib qoladi. Ayni vaqtda shuni ta'kidlash joizki, qo'mondonlik kuzatuv qo'llangan shaxs, tegishli harbiy nizomlarda ko'rsatilganidek, qurol va o'q-dori olib yurishi, yakka tartibda harbiy qism hududidan tashqarida bo'lishi, mas'uliyat bilan bog'liq qorovullik va navbatchilik vazifalarini bajarishi taqiqlanadi. Bu talab ba'zi mamlakatlarning qonunlarida qisman aks ettirilgan (masalan, Moldova Jinoyat-protsessual kodeksining 183-moddasi). Bundan tashqari, ayblanuvchi o'q otish, harbiy texnika ishlatish bilan bog'liq mashg'ulotlarda ishtirok etish, harbiy qism hududidan qisqa muddatga chiqish, qisqa muddatli ta'tillar olish kabi huquqlardan ham mahrum bo'ladi.

Agar harbiy xizmatchi og'ir yoki o'ta og'ir jinoyat sodir etishda ayblanayotgan bo'lsa, uni qismning maxsus tartibli xonasiga joylashtirilib, doimiy nazorat o'rnatiladi. Qo'mondonlik kuzatuv ostidagi harbiy xizmatchini tergov, prokuratura, sud idoralariga qurollangan soqchilar olib boradi va olib keladi. Agar harbiy xizmatchining sog'lig'iga shikast yetkazilgan bo'lsa, navbatchi uni darhol meditsina shifokoriga olib borib, tibbiy ko'rikdan o'tkazadi va shifokorning yozma xulosasi bilan qism komandiriga xabar beradi.

Qo'mondonlik kuzatuv ostidagi harbiy xizmatchining ota-onalari, qarindoshlari yoki boshqa shaxslar bilan ko'rishishi kuzatuvni qo'llagan tergovchi yoxud sudning ruxsati bilan amalga oshiriladi. Harbiy qism qo'mondoni kuzatuv qoidalarini buzgani holda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Ustaviga asosan javobgarlikka tortiladi.

Jinoyat sodir etishda ayblanayotgan muddatli harbiy xizmatchi yoki o'quv yig'iniga chaqirilgan harbiy xizmatga majbur shaxs surishtiruvchi,

tergovchi, prokurorning qarori yoki sudning ajrimi bo'yicha harbiy qism, qo'shilma, harbiy muassasa, harbiy o'quv yurti qo'mondonligining kuzatuviga berilishi mumkin. Ushbu ehtiyot chorasi kafillikning o'ziga xos turi bo'lib, ayblanuvchi, sudlanuvchi munosib xulq-atvorda bo'lishi harbiy qism qo'mondonligi tomonidan harbiy nizomlarda belgilangan choralar vositasida ta'minlanadi.

Qo'mondonlik kuzatuvi biror lavozimni egallamagan oddiy harbiy xizmatchiga nisbatan qo'llanilib, mazkur ehtiyot chorasini tanlanishi uchun u ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilingan bo'lishi lozim.

Qo'mondonlik kuzatuvi ayblanayotgan harbiy xizmatchi kelgusida sodir etishi ehtimol bo'lgan jinoiy faoliyatining oldini olish, tergovga to'sqinlik qilmasligini ta'minlash maqsadida qo'llanadi. Buning uchun ayblanuvchining xulq-atvori ustidan kuzatuvni amalga oshiruvchi qo'mondonlikdan rozilik olish talab qilinmaydi. Ushbu ehtiyot chorasini qo'llash, bekor qilish yoki o'zgartirish to'g'risidagi surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning qarori yoki sudning ajrimi qo'mondonlik uchun majburiydir, unga harbiy xizmatchi ustidan kuzatuv o'rnatish zaruratini keltirib chiqargan ayblovning mohiyati tushuntirilishi lozim.

Agar harbiy xizmatchi og'ir yoki o'ta og'ir jinoyat sodir etishda ayblanayotgan bo'lsa, uni qismning doimiy nazorat o'rnatilgan maxsus tartibli xonasiga joylashtiriladi. Qo'mondonlik kuzatuvi ostidagi harbiy xizmatchini tergov, prokuratura, sud idoralariga qurollangan soqchilar olib boradi va olib keladi.

Qo'mondonlik kuzatuvi ostidagi harbiy xizmatchining ota-onalari, qarindoshlari yoki boshqa shaxslar bilan ko'rishishi kuzatuvni qo'llagan tergovchi yoxud sudning ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Harbiy qism qo'mondoni kuzatuv qoidalarini buzgani holda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Ustaviga asosan javobgarlikka tortiladi.

Kuzatuv ostidagi harbiy xizmatchi o'z majburiyatlarini bajarmagan va oldini olish maqsadida mazkur ehtiyot chorasi qo'llanilgan harakatlarni sodir etgan taqdirda, bu haqda harbiy qo'mondonlik shu ehtiyot chorasini qo'llagan surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudga xabar berishi lozim.



MAVZU BO'YICHA XULOSALAR

Mazkur mavzuni o'rganishda talabalar ehtiyot choralarining barcha turlari va har birining o'ziga xos xususiyatlariga oid masalalarni tegishli

Oliy sud plenumi qarorlari va tarmoq qonunlar asosida qiyosiy-huquqiy tahlil qilib, jinoyat ishlarini yuritishda ularning rolini aniqlashlari lozim.

MUAMMOLI SAVOLLAR VA KAZUSLAR

1. Ehtiyot chorasi ayblanuvchi, sudlanuvchi surishtiruvdan, dastlabki tergovdan va suddan bo‘yin tovlashining oldini olish; uning bundan buyongi jinoiy faoliyatining oldini olish; uning ish bo‘yicha haqiqatni aniqlashga xalal beradigan urinishlariga yo‘l qo‘ymaslik; hukmning ijro etilishini ta‘minlash maqsadida qo‘llaniladi. **Ehtiyot choralari qo‘llash uchun asoslarni tavsiflang va ehtiyot choralari oid milliy normativ hujjatlarni tahlil qiling.**

2. Ehtiyot choralari quyidagi turlari mavjud: munosib xulq-atvorda bo‘lish to‘g‘risidagi tilxat; shaxsiy kafillik; jamoat birlashmasi yoki jamoaning kafilligi; garov; qamoqqa olish va uy qamog‘i; voyaga yetmaganlarni kuzatuv ostiga olish uchun topshirish; harbiy xizmatchining xulq-atvori ustidan qo‘mondonlik kuzatuv. **Ehtiyot choralari qo‘llash to‘g‘risidagi masalani hal qilishda surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sudning pozitsiyasi nimaga asoslanadi?**

1-kazus

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 106-moddasi bilan ayblangan Rustamovga munosib xulq-atvorda bo‘lish to‘g‘risidagi ehtiyot chorasi qo‘llanilgan. Rustamovga tergovdan yashirinishga urinib, chaqiruv qog‘ozi yuborilishiga qaramay, u tergovchining talabini bajarmagan. Tergovchi Rustamovga nisbatan qo‘shimcha ehtiyot chorasi sifatida shaxsiy kafillik qo‘llashni lozim deb topgan.

Bu holatda tergovchi va prokurorning harakatiga huquqiy baho bering.

2-kazus

Voyaga yetmagan K. Anvarov ukasi S. Anvarov bilan zargarlik do‘koniga o‘g‘irlik maqsadida kiradi va o‘zlarining yaqin tanishlari bo‘lgan sotuvchi Ilxomovni o‘ldiradilar hamda umumiy qiymati 3.400 AQSH dollarini tashkil etadigan tilla buyumlarni olib chiqib ketadilar. Tezkor qidiruv tadbiri natijasida ayblanuvchilar qo‘lga olinadilar va dastlabki tergov jarayonida prokuror ish materiallari bilan tanishib chiqib ayblanuvchilarning shaxsini tavsiflovchi holatlarni hisobga olib tergovchining qamoqqa olish to‘g‘risidagi iltimosnoma qo‘zg‘atish to‘g‘risidagi qaroriga rozi bo‘ladi. ***Voyaga yetmaganlarga nisbatan qamoqqa olish ehtiyot chorasini qo‘llash asoslarini ko‘rib chiqing.***

Voyaga yetmaganlarga nisbatan yana qanday ehtiyot choralari qoʻllanilishi mumkin?



MUSTAQIL ISH UCHUN TOPSHIRIQLAR

1. Jinoyat protsessida ehtiyot choralarini qoʻllash asoslari va shartlari. Ish shakli – nazorat ishi (esse).
2. Ehtiyot choralari tizimi. Ish shakli – nazorat ishi (esse).
3. Qamoq va uy qamogʻi asoslari, tartibi va xususiyatlari. Ish shakli – nazorat ishi (esse).

**X BOB. JINOYAT NATIJASIDA
YETKAZILGAN MULKIY ZIYONNI QOPLASH**
(muallif –yuridik fanlar nomzodi T.N.Tillaev)

Annotatsiya: Talabalar tomonidan mazkur mavzuning o‘rganilishi jinoyat protsessida fuqaroviy da’vo va jinoyat natijasida yetkazilgan zarar tushunchasi va turlari, uni qoplashning protsessual tartibi va shartlari, fuqaroviy da’vo qo‘zg‘atishning huquqiy oqibatlari, mulkiy ziyon subyektlari va predmeti to‘g‘risida zaruriy bilim va ko‘nikmalar shakllantirishga xizmat qiladi.

10.1. Jinoyat protsessida fuqaroviy da’vo tushunchasi va predmeti

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda jinoyat protsessida shaxs huquqlarini har tomonlama e’tirof etish va himoya qilishga qaratilgan, inson huquqlarini oliy qadriyat sifatida e’tirof etishga asoslangan keng ko‘lamli islohotlar olib borilmoqda. Konstitutsiyaning 53-moddasiga binoan xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasida ekanligi, mulkdor faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina mulkdan mahrum etilishi mumkinligi huquqiy tartibga solingan. Yuqoridagi konstitutsiyaviy qoida jinoiy jazolarning liberallashtirilishi munosabati bilan jinoiy jazolar tizimidan mol-mulknii musodara qilishning chiqarilganida ham namoyon bo‘ldi²⁸.

Shu bilan birga, sodir etilgan jinoyat nafaqat qonun bilan qo‘riqlanadigan munosabatlarga, shu jumladan, inson manfaatlariga ham ma’lum darajada zarar yetkazadi. Zarar moddiy, jismoniy yoki ma’naviy shakllarda namoyon bo‘ladi. Umume’tirof etilgan prinsiplarga asosan yetkazilgan zarar qoplanishi yoki bartaraf etilishi lozim. Bu vazifa fuqarolik huquqidagi zarar instituti, jinoyat protsessida jinoyat natijasida yetkazilgan zararni qoplash instituti orqali amalga oshiriladi. Jinoyat-protsessual kodeksining beshinchi bo‘limida tartibga solingan jinoyat natijasida yetkazilgan moddiy zararni qoplash mexanizmida fuqaroviy da’vo instituti muhim o‘rin egallaydi. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 275-moddasida qayd etilganidek, jinoyat protsessida jinoyat tufayli yoki aqli noraso shaxsning ijtimoiy xavfli qilmishi natijasida fuqarolarga va yuridik shaxslarga yetkazilgan mulkiy zararni qoplash, shuningdek jabrlanuvchini dafn etish yoki

²⁸ O‘zbekiston Respublikasining “Jinoiy jazolarning liberallashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslari hamda Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga o‘zgartishlar va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi 254-II-sonli 2001-yil 29-avgustdagi Qonuni // O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2001-yil, 9-10 (1305-1306)-son. – 165-modda.

uning statsionarda davolanish xarajatlarini hamda sug'urta tariqasida unga to'langan pul, nafaqa yoki pensiya pulini undirish to'g'risidagi fuqaroviy da'volar ko'riladi.

Moddiy zararni undirishning eng oddiy va shu bilan birga samarali usuli restitutsiya hisoblanadi. "Restitutsiya" so'zi lotin tilidan (Restitutio) tarjima qilinganda, "tiklash", "avvalgi, dastlabki holatga qaytish" degan ma'nolarni anglatadi. Mazkur atamadan asosan fuqarolik va xalqaro huquqda keng foydalaniladi, ammo u jinoyat-protsessual munosabatlarda ham qo'llanilishi mumkin. Restitutsiya jinoyat protsessida jinoyatdan moddiy zarar ko'rgan jabrlanuvchining jinoyat sodir bo'lguniga qadar mavjud bo'lgan mulkiy holatining qayta tiklanishini ifodalaydi. Masalan, shaxs O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 169-moddasida qayd etilgan o'g'irlik jinoyatini sodir etib, boshqa fuqaroning uyidan qimmatbaho taqinchoqlarni o'g'irlab ketganligi va ushbu jinoyatning ochilishi natijasida qimmatbaho taqinchoqlar qonuniy egasiga qaytarilganligi restitutsiyaga yaqqol misol bo'la oladi.

Lekin, o'g'irlangan buyum o'z egasiga qaytarilishining imkoni bo'lmagan taqdirda, qoidaga ko'ra, moddiy zararni undirish fuqaroviy da'voni qo'zg'atish shaklida amalga oshiriladi. Jinoyat protsessida fuqaroviy da'vo tushunchasini ta'riflashda jinoyat tufayli yetkazilgan mulkiy ziyon va jismoniy zararni undirish – buning uchun maxsus vakolat berilgan mansabdor shaxslar va organlarning rasmiy faoliyati ekanligi hisobga olinishi lozim. Yetkazilgan mulkiy ziyon va jismoniy zararni fuqaroviy da'vo qo'zg'atish yo'li bilan undirish faoliyati bunday da'vo taqdim etish va qabul qilish, shaxsni fuqaroviy da'vogar deb e'tirof etish, taqdim etilgan da'vodagi talablarni asoslash, ularni ta'minlash bo'yicha zarur choralar qabul qilish v.h.larni o'z ichiga oladi. Ushbu faoliyat fuqaroviy da'vogarlar, fuqaroviy javobgarlar va ularning vakillarining jinoyat ishi bo'yicha dastlabki tergov va sud muhokamalarida faol ishtirokini talab qiladi.

Jinoyat protsessida fuqaroviy da'voning mohiyatini belgilab olish uchun, avval "da'vo" tushunchasining mohiyatini anglab olish zarur bo'ladi. "Da'vo" asli arabcha so'z bo'lib, o'z haq-huquqini himoya etish haqida sud orqali yoki boshqa yo'llar bilan qo'yilgan talab tushuniladi. Shuningdek, zamonaviy huquqda da'vo (lot. "actio" – da'vo, "actionare" – sud muhofazasini izlash) barcha sud ish yurituvlari uchun xos bo'lgan turdosh tushuncha hisoblanadi.


Jinoyat protsessida fuqaroviy da'vo - bevosita jinoyat tufayli yoki aqli

noraso shaxsning ijtimoiy xavfli qilmishi natijasida moddiy, jismoniy yoki ma'naviy zarar ko'rgan shaxsning, uning qonuniy vakili yoxud uning manfaatlari asosida prokurorning aybdorga yoki moddiy javobgar shaxsga nisbatan yetkazilgan moddiy va jismoniy zararni qoplash uchun jinoyat ishi qo'zg'atilgan paytdan boshlab to sud muhokamasi jarayoni tugaguniga qadar bildiriladigan va jinoyat ishini yuritishga mas'ul bo'lgan davlat organlari va mansabdor shaxslar tomonidan hal qilinishi lozim bo'lgan talabidir.

Demak, jinoyat protsessida fuqaroviy da'vo jinoyatdan jabr ko'rgan shaxslarning subyektiv fuqarolik huquqlarini muhofaza qilishning eng keng tarqalgan va asosiy usullaridan biri hisoblanadi. Jinoyat protsessida fuqaroviy da'vo ma'naviy zararni undirish uchun ham taqdim etilishi mumkinligi e'tiborga loyiqdir. Bu masala O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2000-yil 28-apreldagi 7-sonli "Ma'naviy zararni qoplash haqidagi qonunlarni qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi qarorining 9-bandida tushuntirishlar bilan bayon etib berilgan.

Jinoyat protsessidagi fuqaroviy da'vo ikki jihat, ya'ni moddiy va protsessual huquqiy tabiatga ega. Uning moddiy tabiati – keng ma'noda fuqaroviylik hisoblansa, protsessual tabiati – jinoyat-protsessualdir. Uning moddiy tabiati da'vogar va javobgar o'rtasida vujudga kelgan munozarali moddiy-huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi normalarga ega moddiy huquq sohasi bilan belgilanadi. Bunda da'vogar javobgarga nisbatan talabini protsessual shaklda, moddiy-huquqiy talab sifatida amalga oshiradi. Jinoyat tufayli yetkazilgan moddiy zararni undirish to'g'risidagi da'vo esa jinoyat protsessida qo'zg'atilib, hal etilganligi bois, tabiiyki, uning protsessual tabiati faqat jinoyat-protsessual holatni ifodalaydi.

Jinoyat protsessida fuqaroviy da'vo o'z mohiyatiga ko'ra undirish to'g'risidagi da'vo hisoblanadi. O'z-o'zidan ma'lumki, fuqaroviy da'vo mohiyatiga ko'ra fuqaroviy da'vogarning moddiy huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi talabi bo'lib, u javobgarga emas, balki sudga yo'naltirilgan bo'ladi, shu sababli da'vo ishini javobgarga nisbatan emas, balki javobgarga qarshi qo'zg'atish to'g'risida va undan yetkazilgan zararni undirish to'g'risida bo'ladi.



Jinoyat protsessida fuqaroviy da'vo boshqa da'volar singari ikkita element – predmet va asosga ega. Ular ish bo'yicha isbot qilinishi kerak bo'lgan faktlar doirasini belgilash va bu bilan tergov organlari hamda sudning muvaffaqiyatli faoliyatini ta'minlash, da'vo bo'yicha qonuniy va asoslangan qaror chiqarishga yordam beradi.

Fuqaroviy da'voning predmeti – bu moddiy (mulkiy), jismoniy va ma'naviy zararni undirish to'g'risida sudga taqdim etilgan moddiy-huquqiy talabdir.

Zararni undirish to'g'risidagi talab sudga qadar bosqich, shuningdek jinoyat protsessining boshqa bosqichlari bilan cheklanmaydi, balki sud

hukmining fuqaroviy da'voga oid qismi ijro etilishi bilan yakunlanadi. Jismoniy zarar shaxsning hayotdan mahrum etilishida, unga tan jarohati yetkazilishida va sog'lig'iga zarar yetishida o'z ifodasini topadi. Jinoyat tufayli fuqaroning, korxonaning, muassasaning yoki tashkilotning mulkiy holatlariga zarar yetishi moddiy zararni keltirib chiqaradi. Ammo, shu bilan birga, moddiy zarar jinoyat tufayli mulkning o'ziga moddiy zarar yetmagan holatlarda ham, masalan, jismoniy shikast olgan jabrlanuvchi o'z mehnat qobiliyatini qisman yo'qotishi oqibatida maoshining ma'lum ulushidan mahrum bo'lganida yoki uning qonuniy vakili uning davolanishi uchun dori-darmonga xarajat qilganida, protez sotib olganida, ko'mish marosimlari va boshqa shu kabilarga sarflagan xarajatida ham mavjud bo'lishi mumkin.

Jinoyat tufayli vafot etgan shaxsning mehnatga layoqatsiz oila a'zolari yoki voyaga yetmagan farzandlarini boqish uchun ketadigan xarajatlar ham fuqaroviy javobgardan undiriladi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, jinoyat tufayli yetkazilgan zarar moddiy va nomoddiy shakllarda o'z ifodasini topadi. Bunda shuni tan olish kerakki, nomoddiy zarar oqibatlarini son (pul) ekvivalentida o'lchash, belgilash va ularni qoplashda bir qator qiyinchiliklar uchraydi. Masalan, jinoiy qilmish tufayli (bezorilik, tuhmat, haqorat va h.) insonga etkaziladigan jismoniy va ma'naviy azoblarning miqdorini moddiy jihatdan qanday belgilash mumkin? Bevosita mulkiy zarar yetkazish bilan bog'liq jinoyatlar sodir etilganda, ya'ni o'g'rilik, bosqinchilik, firibgarlik kabi harakatlarda tajovuz obyekti mavjud bo'lib, bunda yetkazilgan mulkiy zararni o'lchash va baholash, demakki, qoplash mumkin bo'ladi. Ushbu jinoiy harakatlar birinchi navbatda mulkka yo'naltirilgan bo'ladi, shuning uchun ham jinoyat tufayli yetkazilgan mulkiy zararining qiymatini belgilashda qiyinchilik tug'ilmaydi.

Insonning hayoti va sog'lig'iga qarshi yo'naltirilgan jinoyatlar jismoniy jihatdan zarar yetkazadi, shuning uchun ham ularni bevosita undirishning imkoniyati mavjud bo'lmaydi. Ammo tan olish kerakki, jabrlanuvchining sarf qilgan moddiy xarajatlarini hisoblab, ularning ham miqdorini aniqlash mumkin bo'ladi.

Jinoyat tufayli yetkazilgan zararining miqdori va xususiyatlarini belgilab berish sud, prokuror, tergovchi va surishtiruv organlarining vazifasi hisoblanadi. Sud tomonidan nafaqat yetkazilgan zararining miqdori va xususiyatlari belgilab beriladi, balki zararining to'liq hajmda undirilishi uchun barcha choralar ko'riladi.

Da'voning asosini yuridik faktlar tashkil etadi, fuqaroviy da'vogar esa

ulardan o'zining talablarini shakllantiradi, qonun fuqaroviy da'vogar va ayblanuvchi (fuqaroviy javobgar) o'rtasida huquqiy munosabatlar yuzaga kelishini ular bilan bog'laydi. Bunday faktlarga quyidagilar kiradi: jinoyat sodir bo'lishi; fuqaroviy da'vogar tomonidan moddiy zararining mavjudligi; jinoyat va zarar o'rtasidagi sababiy bog'lanish.

Quyidagi muayyan protsessual asoslarning mavjudligi da'voni jinoyat ishi bilan birga ko'rib chiqishning zarur sharti hisoblanadi: jinoyat ishining mavjudligi; jinoyat ishiga fuqaroviy da'vo taqdim etish; xuddi shu taraflar o'rtasida, xuddi shu predmet va asoslar bo'yicha qonuniy kuchga kirgan sud qarorining yoki fuqaroviy da'vogarning da'vodan voz kechganligini qabul qilish yoki kelishuv bitimini tasdiqlash to'g'risida sud ajrimining mavjud emasligi; fuqaroviy da'vogarning fuqaroviy protsessual muomala layoqatiga egaligi.

Fuqaroviy da'vo bo'yicha ishni yuritish jinoyat protsessining bir qismi hisoblanadi. Shuning uchun jinoyat ishini qo'zg'atish uchun sabab va asoslarning mavjud emasligi jinoyat protsessida fuqaroviy da'voni ko'rib chiqish va hal qilishga yo'l qo'ymaydi. Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 276-moddasi 2-qismida to'g'ridan to'g'ri ko'rsatilgan: fuqaroviy da'vo jinoyat ishi qo'zg'atilgan paytdan boshlab to sud tergovi boshlangunga qadar taqdim etiladi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 277-moddasiga asosan, fuqaroviy da'vo qo'zg'atilgan hollarda sodir etilgan qilmish oqibatida shaxsga mulkiy ziyon yetkazilgan deb hisoblasa, uni fuqaroviy da'vogar deb e'tirof etish to'g'risida surishtiruvchi, tergovchi qaror, sud esa ajrim chiqaradi. Qarorning yoki ajrimning nusxasi da'voni qo'zg'atgan shaxsga yoki uning vakiliga taqdim etiladi. Bunda fuqaroviy da'vogarga O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 57-moddasida nazarda tutilgan huquq va majburiyatlar, fuqaroviy da'vogar deb e'tirof etish rad qilingan shaxsga esa, qaror ustidan shikoyat qilish tartibi tushuntiriladi.

Jinoyat protsessida fuqaroviy da'voni ko'rib chiqish va hal qilish bilan bog'liq jarayonni ikki bosqichga ajratish zarur:

- sudga qadar ish yurituv davrida fuqaroviy da'voni ta'minlash;
- sud muhokamasida fuqaroviy da'voni hal etish.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 276–278-moddalari mazmunidan ko'rinib turibdiki, fuqaroviy da'vo yuzasidan ish yuritish surishtiruvchi, tergovchining jinoyat tufayli yoki aqli noraso shaxsning ijtimoiy xavfli qilmishi natijasida o'zini mulkiy zarar ko'rgan deb hisoblovchi shaxsdan da'vo arizasini olish bilan boshlanadi. Mulkiy zarar ko'rgan shaxs o'z huquqlarini amalga oshirib, fuqaroviy da'voni

qo'zg'atadi. Faqat ana shunday holatda fuqaroviy da'vo masalasida protsessual munosabatlar vujudga keladi. Surishtiruvchining, tergovchining shaxsni fuqaroviy da'vogar sifatida tan olib chiqargan qarori mazkur bosqichdan keyingi huquqiy munosabatlar uchun huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi. Demak, sudga qadar bo'lgan tergov jarayonida fuqaroviy da'voga xos asosiy holat jinoyat tufayli moddiy zarar ko'rgan jabrlanuvchi yoki boshqa shaxs tomonidan da'vo qo'zg'atilgan vaqt hisoblanadi.

“Jabrlanuvchi” va “fuqaroviy da'vogar” tushunchalarining protsessual ahamiyatini taqqoslab aytish mumkinki, yuridik shaxs ishda faqat fuqaroviy da'vogar sifatida ishtirok etishi mumkin, jismoniy shaxs esa ham fuqaroviy da'vogar, ham jabrlanuvchi sifatida ishtirok etadi. Jabrlanuvchi moddiy (mulkiy), jismoniy yoki ma'naviy zararlarni undirish to'g'risida ariza taqdim etar ekan, fuqaroviy da'vogarga aylanadi va har ikkala subyektning huquqlariga ega bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 56-moddasiga ko'ra, fuqaroviy da'vogar deb e'tirof etilgan shaxs, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 57-moddasi 3-qismiga ko'ra, ayni vaqtda jabrlanuvchining barcha huquqlaridan foydalanadi va uning majburiyatlarini bajaradi. Shunday qilib, u ikkita protsessual funksiyani bajaradi. Ammo shuni nazardan qochirmaslik lozimki, jabrlanuvchi va da'vogar ayblov tomonning vakillari hisoblanib, jinoyat protsessida o'z manfaatlarini himoya qilsalar-da, ularni tenglashtirib bo'lmaydi. Ularning har biri jinoyat protsessining mustaqil ishtirokchilari bo'lib, o'zlariga tegishli huquq va majburiyatlarga egadirlar, ammo bu ikki subyekt ba'zan bir shaxs sifatida ham ishda ishtirok etadi. Ko'pincha bunday holat jinoyat protsessida jismoniy shaxslarning da'volari ko'rib chiqilayotganida uchraydi. Shu sababli, jabrlanuvchi fuqaroviy da'vogarning aynan o'zi emasmi, ularning bir-biridan asosiy farqi nimada degan yoki aksincha, sudlanuvchi bir vaqtda fuqaroviy javobgar sifatida ishga jalb qilinadimi degan haqli savol tug'iladi? Masalan, *shaxs O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 267-moddasida ko'rsatilgan transport vositasini olib qochish jinoyatini sodir etib, boshqa fuqaroga tegishli «Lasetti» rusumli avtotransport vositasini olib qochgan va olib qochish jarayonida boshqaruvni eplay olmay, avtotransport vositasini yo'l chetidagi daraxtga urib, yo'l transport hodisasini sodir etgan. Sud jarayonida ushbu fuqaro sudlanuvchi hamda fuqaroviy javobgar sifatida ishga jalb qilingan. Avtotransport egasi bo'lgan fuqaro esa o'z navbatida jabrlanuvchi hamda fuqaroviy da'vogar sifatida qatnashgan.*

Agar fuqaroviy da'voni taqdim etish bilan bog'liq protsessual asos mavjud bo'lmasa, jinoyat protsessida fuqaroviy da'vo bo'yicha ish yuritish

boshlanmaydi. Agar jinoyat ishida da'vo taqdim etilmagan bo'lsa, mulkiy ziyonni undirish masalasini boshqa ko'rinishda hal qilishga ruxsat etiladi. Da'vo talablari og'zaki tarzda ifodalanishi va jabrlanuvchini so'roq qilish bayonnomasiga qayd etilishi yoki yozma shaklda bildirilishi va tergovchi tomonidan ish materiallariga tikib qo'yilishi mumkin. Da'vo talablarining yozma shaklda bildirilishi va da'vo arizasi taqdim etilishi maqsadga muvofiq.

U faqat jabrlanuvchi va fuqaroviy da'vogar bitta shaxs bo'lmagan holatlarda, ya'ni da'vo voyaga yetmaganlarning, fuqaroviy protsessual qonunchilikda belgilangan tartibda protsessual muomalaga layoqatsiz yoki layoqati cheklangan deb tan olingan shaxslarning, shuningdek biror sabab tufayli o'zining huquqi va qonuniy manfaatlarini mustaqil himoya qila olmaydigan shaxslarning manfaatlarini himoya qilish uchun ishlatilishi mumkin. Bunday shaxslarning manfaatlarini himoya qilish bo'yicha da'vo ularning qonuniy vakili yoki prokuror tomonidan, davlat manfaatlarini himoya qilishda esa, prokuror tomonidan taqdim etilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 279-moddasiga asosan, prokuror fuqaroviy da'voni qo'zg'atishi yoki qo'zg'atilgan fuqaroviy da'voni quvvatlashi yoxud basharti davlat yoki jamiyat manfaatlarini, yoxud fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish taqozo etilsa, da'voga qarshi e'tiroz bildirishi shart.

Jinoyat ishini yuritishda fuqaroviy da'voni ko'rib chiqishning yana bir protsessual asosi - Jinoyat-protsessual kodeksida fuqaroviy da'voning jinoyat ishi bilan birga ko'rib chiqilishi talab etilmasligi bilan bog'liq. Jinoyat tufayli zarar ko'rgan shaxsning xohishiga ko'ra da'vo fuqarolik sudi ish yuritish tartibida ham arz qilinishi mumkin. Ammo, agar da'vo fuqarolik sudiga berilgan va sud uni qondirishni rad qilgan bo'lsa, da'vogar ushbu da'vo bilan ikkinchi marta arz qilish huquqidan mahrum bo'ladi. Dispozitivlik tamoyiliga muvofiq da'vogar da'vodan voz kechishi mumkin. Javobgar da'voni tan olish huquqiga ega. Taraflar ishni kelishuv bitimi bilan tugatishlari mumkin. Agar fuqarolik ishida da'vogar o'z da'vosidan voz kechsa yoki javobgar bilan kelishuv bitimi tuzsa va bu haqida qonuniy kuchga kirgan sud ajrimi mavjud bo'lsa, u jinoyat protsessida yana da'vo bilan arz qilish huquqiga ega emas. Demak, da'vogarning da'vodan voz kechganligini qabul qilish yoki taraflarning kelishuv bitimini tasdiqlash to'g'risida qonuniy kuchga kirgan sud ajrimi jinoyat protsessida fuqaroviy da'voni ko'rib chiqilishiga yo'l qo'ymaydigan holat bo'lib xizmat qiladi. Bu da'voni qondirish to'g'risida qonuniy kuchga kirgan sud qaroriga ham taalluqlidir.

O‘z mohiyatiga ko‘ra, shaxsga yetkazilgan har qanday zarar undirilishi lozim. Jinoyat tufayli yetkazilgan moddiy zararni undirish esa jinoyat protsessida fuqaroviy da’vo ko‘rinishida amalga oshiriladi va u O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 33-bobida bevosita ko‘zda tutilgan.


Fuqaroviy da’vo bo‘yicha ish yuritishda zararni undirish asoslari, shart-sharoiti, hajmi va usuli fuqaroviy, mehnat va boshqa soha qonun hujjatlari qoidalariga muvofiq aniqlanadi. Boshqa soha qonun hujjatlarida belgilangan da’vo muddati jinoyat protsessidagi fuqaroviy da’voga nisbatan qo‘llanilmaydi.

Da’vodan voz kechishning qabul qilinishi da’vo bo‘yicha ish yuritishni tugatishga asos bo‘ladi va jinoyat protsessida ham, fuqaroviy sud ishlarini yuritish tartibida ham fuqaroviy da’vogarni o‘sha shaxsga xuddi shu asos bilan da’voni qayta qo‘zg‘atish huquqidan mahrum qiladi.

Ayblov hukmini chiqarishda, shuningdek tibbiy yo‘sindagi majburlov chorasini qo‘llash yoki sodir etgan qilmishning xususiyatiga va o‘zining ruhiy holatiga ko‘ra shaxs ijtimoiy xavfli bo‘lmagan hollarda bunday chorani qo‘llamaslik haqida ajrim chiqarishda sud asoslarning isbotlanishi va da’vo hajmini e’tiborga olib, uni to‘liq yoki qisman qanoatlantiradi yoxud uni qanoatlantirishni rad etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 283-moddasiga asosan, sud oqlov hukmini chiqarayotganida, shuningdek tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini qo‘llash bo‘yicha ishni tugatish haqida ajrim chiqarayotganida fuqaroviy da’voni qondirishni quyidagi hollarda rad etadi, basharti:

- 1) jinoyat yoki ijtimoiy xavfli qilmish hodisasi yuz bermagan bo‘lsa;
- 2) sudlanuvchining yoki tibbiy yo‘sindagi majburlov chorasini qo‘llash masalasi hal etilayotgan shaxsning sodir etilgan jinoyatga yoki ijtimoiy xavfli qilmishga daxli yo‘qligi aniqlangan bo‘lsa;
- 3) sudlanuvchining yoki tibbiy yo‘sindagi majburlov chorasini qo‘llash masalasi hal etilayotgan shaxsning mulkiy ziyon keltirgan harakati zaruriy mudofaa chegarasidan chiqmagan holda sodir etilgan bo‘lsa.



Sudlanuvchi tomonidan sodir etilgan qilmish jinoyat deb topilmaganligi sababli u oqlangan taqdirda, shuningdek ushbu moddaning ikkinchi qismida ko'rsatilgan asoslardan boshqa asoslarga ko'ra tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llash bo'yicha ish yuritish tugatilganda sud da'voning isbotlanish darajasi va hajmini e'tiborga olib, uni to'liq yoki qisman qanoatlantiradi yoki qanoatlantirishni rad etadi. Da'voning hajmi jinoyat tavsifiga va aybdorga jazo chorasi tayinlashga ta'sir etmasa, fuqaroviy da'voni qanoatlantirishda sud da'vo talabi chegarasidan chiqishga haqlidir. Biroq jinoyat protsessida qo'zg'atilgan fuqaroviy da'vo qanoatlantirilmagan taqdirda da'vogar shu shaxsga va xuddi shu asoslar bo'yicha fuqaroviy sud ishlarini yuritish tartibida da'vo qo'zg'atish huquqidan mahrum bo'ladi.

Fuqaroviy da'voni ko'rib chiqishda o'zaro kelishuv bitimi tuzilishi ham mumkin. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 282-moddasida ta'kidlanganidek, ayblanuvchi, sudlanuvchi yoki fuqaroviy javobgarning da'voni tan olganligi, shuningdek fuqaroviy da'vogar, ayblanuvchi, sudlanuvchi yoxud fuqaroviy javobgarning o'zaro kelishganlik to'g'risidagi arizasi fuqaroviy da'vo bo'yicha ish yuritishning tugatilishiga olib kelmaydi va surishtiruvchini, tergovchini fuqaroviy da'voga doir holatlarni sinchkovlik bilan, to'la, har tomonlama va xolisona

tekshirish majburiyatidan, sudni esa fuqaroviy da'voni ko'rish va hal qilish majburiyatidan ozod etmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 280-moddasida ko'zda tutilgan surishtiruv, dastlabki tergov jarayonida va sudda fuqaroviy da'vo bo'yicha ish yuritish aynan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida nazarda tutilgan tartibda olib boriladi. Jinoyat protsessida fuqaroviy da'voni ko'rib chiqish va hal etishda davlat boji undirilmaydi. Agar fuqaroviy da'vo bo'yicha yuzaga keladigan protsessual munosabatlar O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi bilan tartibga solinmagan bo'lsa, unda jinoyat protsessi prinsiplariga xilof bo'lmagan fuqarolik protsessual qonun hujjatlarining qoidalari qo'llaniladi.

10.2. Mol-mulkni jabrlanuvchi yoki fuqaroviy da'vogarga qaytarish

Jinoyat natijasida yetkazilgan moddiy zararni undirish tegishli vakolatga ega huquqni muhofaza qilish organlari va sudning tashabbusi bilan ham amalga oshishi mumkin. Jinoyat natijasida yetkazilgan moddiy zararni undirishning mavjud shakllari jamiyat, davlat va shaxs manfaatlarini himoya qilish borasida jinoyat-protsessual qonun hujjatlarining vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshishida muhim ahamiyatga egadir. Bunda ushbu vazifalarni bajarish jinoyatdan jabr ko'rgan shaxsning xohish-irodasiga bevosita va to'liq bog'liq bo'lmay, balki jinoyat protsessining amal qilishiga ko'ra maxsus vakil qilingan shaxs, organ va sudning bevosita majburiyati tarzida amalga oshiriladi. Uning mazmuni moddiy zararni undirish bo'yicha huquqni muhofaza qilish va sud organlari bajarishi lozim bo'lgan tadbirlarning xususiyatlarini ifodalaydi.

Jinoyat protsessida fuqaroviy da'voni hal qilish va jinoyat natijasida yetkazilgan moddiy zararni undirish borasida xorijiy qonunchilikdagi tajribalarga murojaat qilsak, Norvegiya JPKning 214-§da ko'rsatilishicha, jinoiy qilmish tufayli o'z mulkidan ajragan har qanday shaxsga jinoyatchining mulki, agar musodara qilish muddati o'tgan taqdirda ham olib berilishi lozim. Estoniyaning JPK 413-moddasida ko'zda tutilgan "Chet mamlakatlarga mulkni xatlab, uni egasiga berish bo'yicha iltimosnoma bilan chiqish" degan qoidaning mavjudligi, shuningdek ushbu moddada "Chet mamlakatga mulkni xatlab, uni egasiga berish to'g'risidagi iltimosnoma adliya vaziri yoki u tomonidan tayinlangan yuridik tashkilot tomonidan beriladi"- degan qoida ham mustahkamlanganligini ko'rish mumkin.

Jinoyat ishi bo'yicha ashyoviy dalillar deb e'tirof etilgan jinoyatning narsalari tergov idoralarida saqlanadi. Amaldagi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 287-moddasiga asosan, jinoyat sodir etilishi natijasida jabrlanuvchi yoki yuridik shaxsning yo'qolgan va ashyoviy dalil deb e'tirof etilgan mol-mulki egasiga qaytarilishi lozim. Jabrlanuvchi vafot etgan taqdirda uning mol-mulki merosxo'rlariga, tugatilgan yuridik shaxsning mol-mulki esa, uning huquq vorisiga o'tkaziladi. Egasini aniqlab bo'lmagan mol-mulk davlat egaligiga o'tkaziladi. Mol-mulkni qaytarib berish yoki uni davlat egaligiga o'tkazish sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi yoki tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash to'g'risidagi ajrimiga asosan, ish tugatilganda esa, surishtiruvchining, tergovchining qarori yoki sudning ajrimiga ko'ra amalga oshiriladi.

Jinoyat narsasi bo'lgan mol-mulk, basharti avvalgi egasiga qaytarib berilishi lozim bo'lmasa, sud hukmi bilan davlat egaligiga o'tkaziladi. Bu mol-mulk topilmagan bo'lsa, sud hukmi bilan, jinoyat ishi tugatilgan bo'lsa, sudning fuqaroviy sud ishlarini yuritish tartibida chiqargan hal qiluv qaroriga ko'ra uning qiymati davlat foydasiga undiriladi. Amaldagi O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 25-moddasi talabiga binoan fuqaro o'z majburiyatlari yuzasidan o'ziga qarashli barcha mol-mulki bilan javobgar bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 285-moddasiga asosan, ayblanuvchi jinoiy yo'l bilan orttirgan pullar, buyumlar va boshqa boyliklar sud hukmi bilan yetkazilgan mulkiy zararni qoplash uchun sarflanadi, zararni qoplashdan ortgan summa esa davlat foydasiga o'tkaziladi. Jinoyat predmeti bo'lmish mol-mulk uchinchi shaxslarda topilib, ulardan tortib olingan va tegishligiga qarab, qaytarilgan bo'lsa, sudlanuvchi tomonidan ushbu mol-mulkni sotish yo'li bilan orttirilgan pullar, buyumlar va boshqa boyliklar sud hukmi bilan davlat egaligiga o'tkaziladi. Mol-mulkni insofli egallovchiga bu mol-mulk egasiga qaytarilishi natijasida yetkazilgan zararni undirish haqida mahkumga nisbatan fuqaroviy sud ishlarini yuritish tartibida da'vo qo'zg'atish huquqi tushuntiriladi. Hukmning va tibbiy yo'sindagi majburlov chorasini qo'llash to'g'risidagi ajrimning fuqaroviy da'voni qanoatlantirishga, shuningdek boshqa mulkiy undirishlarga oid qismi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda ijro etiladi.

Jinoyat sodir etilishi natijasida mahrum bo'lingan va ish bo'yicha ashyoviy dalil deb e'tirof etilgan mol-mulkning mulkdori yoki qonuniy egasi bu mol-mulkdan voz kechsa va uning qiymatini undirib berish

to'g'risida fuqaroviy da'vo qo'zg'atsa, sud mol-mulkdan voz kechishni asosli deb topib, fuqaroviy da'voni qanoatlantirgan holda mol-mulkn mahkumga yoki fuqaroviy javobgarga undirib beradi.

Sud mol-mulkdan voz kechishni asosli deb topsa, qaytariladigan mol-mulkning qiymati qanchaga pasaygan bo'lsa, shu summani yoxud tovar ko'rinishini yo'qotganligi sababli ta'mirlashga qilinadigan chiqim summasini va tovarni jabrlanuvchi yoki fuqaroviy da'vogar foydasiga undirib beradi. Mol-mulkning dastlabki va keyingi qiymati hamda tovar ko'rinishini yo'qotganlik uchun tovon puli mutaxassis yoki ekspert ishtirokida aniqlanadi, ta'mirlash qiymati esa, ta'mirlashni amalga oshirayotgan korxonaga bergan hujjat asosida aniqlanadi. Xususiy egalikda bo'lishi man qilingan mol-mulk (masalan: harbiy o'qotar qurollar, portlovchi moddalar, psixotrop yoki giyohvandlik moddalari va shu kabilar) ish bo'yicha ashyoviy dalil deb e'tirof etilgan bo'lsa, mulkdor to'g'ri yoki g'ayriqonuniy ravishda qo'lga kiritganiga qarab, u rekvizitsiya qilinadi yoki musodara etiladi, ya'ni mol-mulk haqini to'lash yoki to'lamaslik sharti bilan sud tomonidan bunday mol-mulka egalik qilish, undan foydalanish hamda uni tasarruf etish huquqiga ega bo'lgan tegishli davlat organiga yoki yuridik shaxsga beriladi.

10.3. Hukmning mulkiy undirishlarga doir qismi ijrosini ta'minlash

Hukmning fuqaroviy da'voga va boshqa mulkiy undirishlarga doir qismining ijrosini ta'minlash uchun surishtiruvchi, tergovchi yoki sud gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi va fuqaroviy javobgarning mol-mulkini xatlashi shart (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 290-moddasining 1-qismi). Bu mulkiy undirishlarni ta'minlashning eng oqilona va qonuniy usulidir. Ta'kidlash lozimki, bu dastlabki tergov bosqichida jinoyat protsessi vazifalarini amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 290-moddasi ikkinchi va uchinchi qismlarida xatlanishi mumkin bo'lmagan mulk turlari sanab o'tilgan. Jumladan, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi va fuqaroviy javobgar oilasining normal turmushini ta'minlash uchun zarur bo'lgan uy-joy, kvartira, uy anjomlari va jihozlari, kiyim va buyumlar xatlanmaydi.

Turar joylar yoki yashash uchun mo'ljallanmagan joylar, mulk shaklidan qat'i nazar, davlatga xoinlik qilish, konstitutsiyaviy tuzumga,

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga tajovuz qilish, terrorizm, qo‘poruvchilik jinoyatlari sodir etish uchun foydalanilgan yoxud bu jinoyatlar qasddan odam o‘ldirish, bosqinchilik, talonchilik yoki boshqa og‘ir, o‘ta og‘ir jinoyatlar bilan bog‘liq bo‘lgan hollarda bu joylar xatlanadi. Shuningdek, masalan O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 264-moddasida qayd etilgan kontrabanda jinoyatini sodir etish quroli, ya’ni vositasi sifatida avtotransport vositalaridan ham foydalaniladi. Bunday holatlarda avtotransport vositasi jinoyat sodir etish quroli sifatida xatlanadi.

Mol-mulkni xatlash o‘z mohiyatiga ko‘ra, mulkdorga yoki mol-mulkning egasiga mol-mulkni tasarruf qilish, zarur hollarda esa undan foydalanish man etilganligini e‘lon qilishdan yoxud mol-mulkni tortib olishdan va uni tegishli vakolatga ega huquqni muhofaza qiluvchi organlarga hamda boshqa shaxslarga saqlab turish uchun topshirishdan iboratdir. Dastlabki tergov jarayonida mol-mulkni xatlash fuqaroviy da’voni ta’minlash vositasi hisoblanadi.

Mulkni xatlash surishtiruvchi, tergovchi qaroriga asosan yoxud bu tergov harakatini bajarishni tergov organiga topshirishga haqli bo‘lgan sudning ajrimiga ko‘ra amalga oshiriladi. Xatlash to‘g‘risidagi qarorda yoki ajrimda u kim tomonidan, qachon va qaysi ish yuzasidan chiqarilganligi, qanday maqsadda va kimning mol-mulki xatlanishi lozimligi, fuqaroviy da’voni ta’minlash uchun xatlanayotganida esa xatlanayotgan mol-mulk summasi ham, albatta, ko‘rsatiladi.

Agar surishtiruvchi yoki tergovchi hukmning mulkiy undirish yoxud mulkiy yo‘sindagi jazo qismining ijrosini ta’minlovchi choralarni ko‘rmagan taqdirda, ishni yuritayotgan sud ularga bunday choralarni ko‘rish majburiyatini yuklaydi.

Mulkni xatlash surishtiruvchi, tergovchi qarori bo‘yicha yoxud bu tergov harakatini bajarishni tergov organiga topshirishga haqli bo‘lgan sudning ajrimi bo‘yicha amalga oshiriladi. Xatlash to‘g‘risidagi qarorda yoki ajrimda u kim tomonidan, qachon va qaysi ish bo‘yicha chiqarilgani, nima maqsadda va kimning mol-mulki xatlanishi lozimligi, fuqaroviy da’voni ta’minlash uchun xatlanayotganida esa, xatlanayotgan mol-mulk summasi ham ko‘rsatiladi.

Surishtiruvchi yoki tergovchi hukmning mulkiy undirish yoxud mulkiy yo‘sindagi jazo qismining ijrosini ta’minlovchi choralarni ko‘rmagan taqdirda, ishni yuritayotgan sud ularga bunday choralarni ko‘rish majburiyatini yuklaydi. Fuqaroviy da’voni qanoatlantirganda yoki boshqa mulkiy undirishlarni qo‘llayotganda hukm qonuniy kuchga kirguniga qadar,

basharti oldin chora ko‘rilmagan bo‘lsa, sud hukmning shu qismi ijrosini ta‘minlaydigan choralar ko‘rish haqida ajrim chiqarishga haqlidir.

Diplomatiya vakolatxonalarini binolaridagi va diplomatiya vakillariga qarashli mol-mulkni xatlashda diplomatiya vakolatxonalarining binolaridan va diplomatiya vakillaridan olib qo‘yish yoki ularda tintuv o‘tkazish qoidalariga rioya qilinishi lozim. Surishtiruvchi yoki tergovchi mol-mulkni xatlash to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 90–92-moddalari talablariga rioya qilgan holda ikki nafardan kam bo‘lmagan xolislar ishtirokida bayonnoma tuzadi. Bayonnomada xatlangan barcha mol-mulkning nomi, o‘lchovi, og‘irligi, eskirish darajasi va boshqa o‘ziga xos belgilari sanab o‘tilib, mol-mulkni xatlayotgan shaxsning harakatlari to‘g‘risidagi va bayonnomaga kiritilgan mol-mulkning uchinchi shaxslarga tegishliligi haqidagi arzlar bayon etiladi. Mol-mulk olib qo‘yilgan taqdirda aynan nimaning olinganligi va qayerga yoki kimga saqlash uchun topshirilganligi bayonnomada ko‘rsatiladi. Mol-mulkni xatlash chog‘ida uni yashirish, yo‘q qilib yuborish yoki shikastlashga urinishlar qilingan bo‘lsa, surishtiruvchi yoki tergovchi tomonidan qo‘llangan choralar ko‘rsatilib, bayonnomada aks ettirilishi lozim. Bayonnomaning nusxasi mol-mulki ro‘yxatga olingan shaxsga yoki uning voyaga yetgan oila a‘zolaridan biriga, ular bo‘lmagan taqdirda, mol-mulk ro‘yxatga olingan hududdagi fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi vakiliga topshirilib tilxat olinadi. Korxonalar, muassasalar, tashkilot yoki diplomatiya vakolatxonasi hududidagi mol-mulkni ro‘yxatga olish o‘tkazilgan bo‘lsa, mol-mulk xatlanganligi to‘g‘risidagi bayonnomaning nusxasi tegishli ma‘muriyat yoki diplomatiya vakolatxonasi vakiliga topshirilib, imzo qo‘ydirib olinadi.

Surishtiruvchi yoki tergovchi xatlanishi lozim bo‘lgan mulkni baholashi kerak. Xatlanayotgan mol-mulk surishtiruvchi yoki tergovchi tomonidan uning eskirish darajasini e‘tiborga olib, baholash paytidagi bozor narxida baholanadi. Pullar, obligatsiyalar, cheklar, aksiyalar va boshqa qimmatli qog‘ozlar o‘z qiymati bo‘yicha hisobga olinadi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1998-yil 11-sentabrdagi “Jinoyat natijasida yetkazilgan moddiy zararni undirish bo‘yicha sudlar amaliyoti to‘g‘risida”gi 21-sonli qarorida birgalikdagi jinoiy harakatlar natijasida zarar yetkazgan barcha shaxslar yetkazilgan moddiy zararni qoplashda solidar javobgar bo‘lishlari, amaldagi O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1000-moddasiga binoan jabrlanuvchining arizasiga ko‘ra va uning manfaatlarini ko‘zlab, agar bu tartib zarar qoplanishini ta‘minlansa, sud birgalikda zarar yetkazgan shaxslar zimmasiga solidar emas, hissali

javobgarlikni yuklatishga haqli ekanligi, shuningdek jinoyat obyekti bo'lgan mulk qiymatini aniqlashda uning egasi tomonidan xarid qilinishi holatlaridan, jinoyat sodir etilgan vaqtdagi davlat ulgurji narxidan, bozor yoki komission narxlardan kelib chiqish lozimligi, mulk qiymatini aniqlash imkoniyati bo'lmaganda, u tegishli mutaxassislar jalb qilinib, ekspert xulosasiga ko'ra belgilanishi ko'rsatib o'tilgan²⁹.

Hukmning fuqaroviy da'vo qismi ijrosini ta'minlash uchun mol-mulkni xatlashda bayonnomaga qiymati ziyonni qoplash uchun yetarli mol-mulk kiritiladi. Bunda mulkdor yoki mol-mulk egasi, o'zining fikricha, qaysi mol-mulkni bayonnomaga kiritish zarur deb hisoblasa, shu mol-mulkni ko'rsatishga haqlidir.

Xatlangan mol-mulk olib qo'yilib, saqlash uchun fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi yoxud boshqa tashkilot vakiliga topshirilishi mumkin. Bu mol-mulk mulkdorga yoki mol-mulk egasiga, uning voyaga yetgan oila a'zolaridan biriga yoki boshqa shaxsga saqlab turish uchun qoldirilib, unga ushbu mol-mulkning to'la-to'kis saqlanishi uchun qonunda nazarda tutilgan javobgarlik tushuntiriladi va bu haqda undan tilxat olinadi. Bunda muomalada bo'lishi man qilingan ashyolar har qanday hollarda ham olib qo'yilishi kerak. Ularni saqlash tartibi qonun bilan belgilanadi.

Bank muassasalarida saqlanayotgan pullar, shuningdek davlat zayomi obligatsiyalari, aksiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar olib qo'yilmaydi, lekin mol-mulk xatlangani to'g'risidagi qarorni yoki ajrimni olish bilanoq, ularni xarjlash operatsiyalari to'xtatib qo'yiladi. Oqlov hukmi qonuniy kuchga kirganda, jinoyat ishi tugatilganda, shuningdek fuqaroviy da'vogar o'z da'vosidan voz kechganda hamda fuqaroviy da'voni qanoatlantirish yuzasidan ko'rilgan choralarga sabab bo'lgan asoslar bartaraf etilgan boshqa hollarda mol-mulkning xatlanganligi bekor qilinadi.



MAVZU BO'YICHA XULOSALAR

Talabalar jinoyat protsessida fuqaroviy da'vo, jinoyat natijasida yetkazilgan zararni qoplash mexanizmi, shakllari, usullari va xususiyatlariga oid masalalar yuzasidan Oliy sud Plenumining tegishli qarorlari va tarmoq qonunlari normalari bilan qiyosiy tahlil o'tkazib, fuqaroviy da'vo institutining jinoyat ishlari yurituvdagi ahamiyatini aniqlab berishlari lozim.

²⁹ O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining "Jinoiy harakatlar oqibatida yetkazilgan moddiy zararni qoplash masalasiga doir sud amaliyoti to'g'risida"gi 1998-yil 11-sentyabrdagi 21-sonli qarori // O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorlari to'plami 1991-2006. T.2. –T.: 2007. – B.170.

MUAMMOLI SAVOLLAR VA KAZUSLAR

1. Jinoyat protsessidagi fuqaroviy da'vo – kimningdir foydasiga hal qilish to'g'risidagi talabdir, chunki uning mazmuni javobgarni muayyan harakatlarni da'vogar foydasiga sodir etishi lozimligi to'g'risidagi, jinoyat tufayli yetkazilgan mulkiy va ma'naviy ziyonni qoplash haqidagi talab hisoblanadi. Fuqaroviy da'vo mulkiy ziyon ko'rgan shaxs yoki uning vakili, prokuror tomonidan jinoyat ishi qo'zg'atilgan paytdan boshlab to sud tergovni boshlangunga qadar qo'zg'atiladi. **O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining “Jinoiy harakatlar oqibatida yetkazilgan moddiy zararni qoplash masalasiga doir sud amaliyoti to'g'risida”gi 1998-yil 11-sentabrdagi 21-sonli qarorini tahlil qilib bering.**

2. Ayblanuvchi, sudlanuvchi yoki fuqaroviy javobgarning da'voni tan olganligi, shuningdek fuqaroviy da'vogar va fuqaroviy javobgarning o'zaro kelishuvi fuqaroviy da'vo bo'yicha ish yuritishning tugatilishiga olib kelmaydi va surishtiruvchini, tergovchini, prokurorni fuqaroviy da'voga doir holatlarni sinchkovlik bilan, to'la, har tomonlama va xolisona tekshirish, sudni esa fuqaroviy da'voni ko'rish va hal qilish majburiyatidan ozod etmaydi. **Jinoyat sodir etish natijasida yetkazilgan zarar va fuqaroviy da'voni qo'zg'atish masalasi tahlil qiling.**

1-kazus

“Zarafshan” restoranida Marupov spirtli ichimliklar ichib, mast holatda restoran xodimlarini so'kib, ularni “kelgindilar” deb atab, ularga ma'naviy zarar yetkazgan va 300 ming so'mlik qandildan ishlangan idishlarni sindirgan. Marupovga O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 277-moddasi 1-qismi (bezorilik) bilan ayb e'lon qilingan.

Bu holda jabrlanuvchi va fuqaroviy da'vogar sifatida kimni tan olish kerak? Fuqaroviy da'voni qo'zg'atish tartibi qanday?

2-kazus

Yo'l-transport hodisasi natijasida 3-sonli taksopark haydovchisi Qilichev «Tiko» rusumli xizmat avtomashinasida reys avtobusi bilan to'qnashgan. Hodisa natijasida bir necha odam halok bo'lgan va bu fakt bo'yicha jinoyat ishi qo'zg'atilgan. Avtobus parki Qilichevga nisbatan fuqaroviy da'voni qo'zg'atadi va avtobusni ta'mirlashni talab qiladi. Taksopark o'z hisobidan avtobusni tiklaydi va keyinchalik regress tartibida o'z xodimi Qilichevga da'voni qo'zg'atadi. Lekin pachoglangan «Tiko» avtomashinasi qayta ta'mirga yaroqsiz, uning haydovchisi esa 2-guruh nogironi bo'lib qolgan edi.

Avtobus parki tomonidan taksi haydovchisi Qilichevga nisbatan da'vo to'g'ri qo'zg'atilganmi? Regress tartibida beriladigan da'voning tushunchasini bering.



MUSTAQIL ISH UCHUN TOPSHIRIQLAR

1. Jinoyat protsessida fuqaroviy da'vo qo'zg'atishning asoslari va shartlari. Ish shakli – nazorat ishi (esse).
2. Dastlabki tergov bosqichida fuqaroviy da'voni isbotlash. Ish shakli – nazorat ishi (esse).
3. Mulknı xatlashning asoslari, tartibi va xususiyatlari. Ish shakli – nazorat ishi (esse).

XI BOB. JINOYATLARNING OLDINI OLISH CHORALARI

(muallif –yuridik fanlar doktori F.Muxitdinov)

Annotatsiya: Talabalar uchun mazkur mavzu o'rganilishi jinoyatlarning oldini olish choralari tushunchasi, turlari va huquqiy oqibatlari hamda jinoyatlarni oldini olishning protsessual vositalarini samarali o'zlashtirishga imkon beradi.

11.1. Jinoyatlarning oldini olish choralari tushunchasi, turlari va huquqiy asoslari

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 296-moddasi jinoyat ishlarini yuritishda surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud jinoyatning sabablarini va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlashlari shart ekanligini belgilaydi. Zero har bir jinoyatning sodir etilishiga muayyan sabablar hamda muayyan shart-sharoitlar ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, jinoyatning sabablarini va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash majburiyati – surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud tomonidan jinoyat sudlovida ishlarini yuritishda amalga oshiriladigan muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki, jinoyatning sodir etilishiga olib kelgan sabab va shart-sharoitlarni aniqlash:

birinchidan, uni sodir etgan shaxsning aybini isbot qilish faoliyatining yo'nalishini belgilash;

ikkinchidan, jinoyat sodir etgan shaxsga qonuniy, asosli va adolatli jazo qo'llash maqsadida, uning aybini ham og'irlashtiruvchi, ham yengillashtiruvchi holatlarini aniqlash;

uchinchidan, kelgusida sodir etilishi mumkin bo'lgan jinoyatlarning oldini olish borasida profilaktik-huquqiy choralarni ko'rish vazifasini amalga oshirishni nazarda tutadi.

Jinoyatning sabablarini va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash deganda surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudning ishning barcha holatlarini to'liq va har tomonlama tekshirish, jinoyat sodir etgan shaxs(lar)ning aybini fosh qilish asosida uning sodir etilishiga olib kelgan sabablarni aniqlashga yo'naltirilgan faoliyatlari tushunilishi lozim.

Ushbu faoliyatni amalga oshirishda surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud jinoyat ishining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, turli protsessual usul va vositalardan foydalanadi. Masalan, jinoyat sodir etilgan joyni ko'zdan kechirish, ekspertiza o'tkazish, ashyoviy dalillarni ko'zdan kechirish, so'roq qilish v.h.

11.2. Jinoyatning sabablarini va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf qilish shakllari va bu jarayonda surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning faoliyati

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi jinoyatning sabablarini va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash faoliyati jinoyat protsessining asosiy bosqichlari – dastlabki tergov va sud muhokamasi kabi ikki turga bo‘ladi.

1. dastlabki tergov bosqichida surishtiruvchi, tergovchi, prokuror tomonidan amalga oshiriladigan jinoyatning sabablarini va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash faoliyati;

2. jinoyatning sabablarini va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf qilish borasida amalga oshiriladigan sudning faoliyati.

Shunga ko‘ra, ushbu muhim protsessual faoliyatning asosida jinoyat ishini tergov qilish chog‘ida surishtiruvchi, tergovchi, prokuror isbotlash vazifasining predmeti bo‘lgan – jinoyatning sabablarini va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlashi shartligi majburiyati yotadi. Buning uchun surishtiruvchi, tergovchi, prokuror dalillarni to‘plashi hamda kerakli tergov harakatlarini amalga oshirishlari, sud esa ana shu dalillarni har tomonlama, to‘liq va xolisona tekshirishi va o‘z ichki ishonchiga tayanib baholashi lozim. Ushbu vazifani lozim darajada amalga oshirmaslik jinoyat ishining prokuror yoki sud tomonidan qo‘shimcha tergovga qaytarilishi kabi protsessual sanksiyaga duchor bo‘lishi mumkin. Aniqlangan holatlar bo‘yicha surishtiruvchi, tergovchi, prokuror tegishli davlat organiga, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organiga, jamoat birlashmasiga, jamoaga yoki mansabdor shaxsga jinoyatning sababini va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf qilish choralarini ko‘rish to‘g‘risida taqdimnoma kiritishi, sud esa shu haqda ajrim chiqarishi lozim.

Taqdimnoma jinoyat ishini tergov qilish faoliyatini amalga oshirishda surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning, shuningdek sudning jinoyatlarni oldini olish borasidagi profilaktik-huquqiy vazifalarini bajarishdagi asosiy protsessual vosita hamda sud tomonidan yana sud muhokamasining tarbiyaviy ahamiyatini oshirish borasidagi faoliyati hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 297-moddasiga binoan, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror jinoyat ishini tergov qilish chog‘ida jinoyatning sabablarini va uning sodir etilishiga imkon

bergan shart-sharoitlarni aniqlab chiqib, tegishli davlat organiga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organiga, jamoat birlashmasiga, jamoaga yoki mansabdor shaxsga ana shu sabab va shart-sharoitlarni bartaraf qilish choralarini ko'rish to'g'risida taqdimnomani kiritishi lozim va taqdimnomaning nusxasi ishga qo'shib qo'yiladi.

Mazkur modda taqdimnomaning surishtiruvchi, tergovchi, prokuror tomonidan qaysi vaqtda kiritish lozimligini tartibga solmasa-da, lekin amaliyotda bunday taqdimnoma jinoyat ishi bo'yicha dastlabki tergovning yakunlash bosqichida kiritiladi. Lekin taqdimnoma jinoyat ishini tugatish yoki ishning prokurorga yuborishga qadar kiritilishi joiz. Shuningdek, jinoyatning sabablari va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlar jinoyat ishini yakunlash bosqichigacha isbotlangan bo'lsa yoxud kelgusida shunday jinoyatlarni oldini olish uchun zudlik bilan tegishli choralar ko'rish zaruriyati mavjud bo'lgan hollarda, taqdimnoma ishni dastlabki tergovda yuritishning boshqa bosqichlarida ham kiritilishi mumkin.

Jinoyatning sodir etilishiga, unga olib kelgan sabablar hamda uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlar muhim hisoblanadi. Ularni shartli uch guruhga ajratish mumkin:


- 1) ayblanuvchi shaxsning o'zining ijtimoiy xavfli ekanligi;
- 2) shaxsning shakllanish shart-sharoitlari;
- 3) jinoyatni sodir etish sharoitlari.

Birinchi guruh ayblanuvchining shaxsiga oid xususiyatlar doirasida aniqlanadi. Ikkinchi guruh voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan yuritiladigan jinoyat ishlarida aniqlanadi. Uchinchi guruh esa, deyarli barcha jinoyat ishlarida aniqlanadi. Bunga: jinoyatning sodir etilishini yengillashtirgan, uning sodir etilishiga yoki og'irroq oqibatning kelib chiqishiga sabab bo'lgan holatlarni kiritish mumkin.

Qonunda taqdimnomaning mazmuni to'g'risida biron-bir talablar bildirilgan bo'lmasa-da, lekin unda jinoyatning sodir etilishiga qanday holatlar sabab bo'lganligi, unga qanday shart-sharoitlar imkon berganligi to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatilishi hamda ushbu sabab va shart-sharoitlarni bartaraf qilishda qanday choralarini ko'rish zarurligi ko'rsatilishi kerak. Shu bilan birga, taqdimnomada aybsizlik prezumpsiyasi prinsipiga zid bo'lgan xulosalar qilmaslik lozim. Taqdimnoma tegishli davlat organi, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organi, jamoat birlashmasi, jamoa yoki mansabdor shaxs tomonidan ko'rib chiqilishi va uning natijasida ko'rilgan choralar haqida surishtiruvchiga, tergovchiga, prokurorga xabar berilishi lozim. Taqdimnoma O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual

kodeksining 299-moddasiga binoan bir oylik muddat ichida ko‘rib chiqilishi kerak.

Taqdimnoma agar unga yo‘llangan javob ishni prokurorga yoki sudga yuborguncha qadar kelib tushgan bo‘lsa, uning javobi ham ishga qo‘shib qo‘yiladi. Agar taqdimnoma yuzasidan ko‘rilgan choralarni aks ettirgan javob ishning prokurorga yoki sudga yuborilganidan keyin kelgan bo‘lsa, surishtiruvchi, tergovchi uni ishga qo‘shib qo‘yish uchun tegishincha prokurorga yoki sudga yuborishi mumkin.



11.3. Sudning jinoyat sabablarini va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf qilish faoliyati

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 298-moddasi sud zimmasiga jinoyat ishini ko‘rish jarayonida jinoyatning sabablari va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlar aniqlangandan keyin sud xususiy ajrim chiqarib, unda tegishli davlat organlaridan, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlaridan, jamoat birlashmalaridan, jamoalardan yoki mansabdor shaxslardan ana shu sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish choralarni ko‘rish majburiyatini yuklaydi.

Jinoyatning sabablarini va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf qilish zaruriyati mavjud degan to‘xtamga kelsa, sud

hukm chiqarish bilan bir vaqtda xususiy ajrim ham chiqaradi. Hukm kabi xususiy ajrim ham sud tomonidan maslahatxonada chiqariladi.

Jinoyatning sabablarini va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf qilish to'g'risidagi ajrim sudda aniqlangan ma'lumotlar asosida qabul qilinadi hamda u dastlabki tergov davrida surishtiruvchi, tergovchi, prokuror tomonidan kiritilgan taqdimnomaga bog'liq emas.

Sud xususiy ajrimda tegishli davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari yoki mansabdor shaxslardan jinoyatning sodir etilishiga sabab bo'lgan va shart-sharoit yaratgan holatlarni bartaraf qilish choralari ko'rishni talab qiladi.

Amaliyotdan misol: Toshkent shahri qurilish kollejining voyaga yetmagan 1-kurs talabalari Tolmasov, Valiyev, Nodirovlar o'g'irlik jinoyatini sodir etadilar. Dastlabki tergovda jinoyatni sodir bo'lishiga sabab bo'lgan holatlar o'rganilgan, lekin uni oldini olish chora-tadbirlari ko'rilmagan. Sud muhokamasi bosqichida hukm bilan birga tuman xalq ta'limi bo'limi nomiga xususiy ajrim chiqarilgan. Lekin xususiy ajrim umumiy tarzda yozilganligi uchun, sudga javob xati yo'llanmagan.

Sudning xususiy ajrimi ham, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 297-moddasidagi surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning taqdimnomasi kabi asoslantirilgan bo'lishi lozim. Unda asosiy e'tibor: a) jinoyatning sodir etilishiga sabab bo'lgan holatlarga (ya'ni sud tomonidan aniqlangan dalillarga havola qilish); b) mazkur holatlarni bartaraf qilishda qanday aniq choralar ko'rish kerakligi masalalariga qaratilishi lozim.

Xususiy ajrim sud majlisining zalida hukm e'lon qilinganidan keyin o'qib eshittiriladi.

Xususiy ajrim tegishli organ yoki mansabdor shaxsga ijro etish uchun yuboriladi. Xususiy ajrimning talablarini bajarish O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 299-moddasiga muvofiq tegishli davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, jamoalar hamda mansabdor shaxslar uchun majburiydir.

11.4. Taqdimnoma va xususiy ajrimlarni bajarish majburiyati

Jinoyatning sabablarini va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf qilish to'g'risidagi taqdimnoma yoki xususiy ajrim yuborilgan davlat organi, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi, jamoat birlashmasi, jamoa yoki mansabdor shaxs zarur choralarni ko'rish va ko'rilgan choralarning natijalari to'g'risida kechi bilan bir oylik muddat ichida tegishincha surishtiruvchini, tergovchini, prokurorni yoki sudni xabardor qilishi shart.

Taqdimnoma yoki xususiy ajrim bajarilmagan yoki vijdonan bajarilmagan taqdirda korxonada, muassasa yoki tashkilotning aybdor rahbari

qonunda nazarda tutilgan javobgarlikka tortiladi (O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 299-modda).

Mazkur talab konstitutsiyaviy asosga ega bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 107-moddasida sud hokimiyatining aklari barcha davlat organlari, jamoat uyushmalari, korxonalari, muassasalari, tashkilotlari, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun majburiy ekanligi ta’kidlanadi. Shu bois, sud hokimiyatining ijtimoiy-huquqiy mavqeyi bevosita u qabul qiladigan aktlarning imperativ xususiyatga ega ekanligiga ham bog‘liqdir. Shundan kelib chiqib, jinoyatning sabablarini va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf qilish to‘g‘risidagi taqdimnoma yoki xususiy ajrim ham imperativ xarakterga ega. Ularni bajarmaslik qonunda belgilangan javobgarlikni keltirib chiqaradi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 181-moddasi sudning xususiy ajrimini (qarorini) bajarmaganlik uchun ma’muriy javobgarlikni; O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 232-moddasi sud aktlarini bajarmaganlik uchun jinoiy javobgarlikni nazarda tutadi.

Taqdimnoma yoki xususiy ajrimni olgandan keyin davlat organi, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi, jamoat birlashmasi, jamoa yoki mansabdor shaxs quyidagi masalalarni hal qilishi lozim: 1) taqdimnomada ko‘rsatilgan jinoyatning sabablarini va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf qilish borasida tegishli choralarni ko‘rish; 2) taqdimnoma yoki xususiy ajrim yuborgan surishtiruvchi, tergovchi, prokurorga yoki sudga ko‘rilgan choralar to‘g‘risida xabar yuborish.

Mazkur modda nazarda tutadigan muhim qoidalardan biri - jinoyatning sabablarini va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf etish choralari ko‘rish muddati hisoblanadi. Ushbu muddat bir oy qilib belgilangan bo‘lib, shu muddat ichida davlat organi, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi, jamoat birlashmasi, jamoa yoki mansabdor shaxs taqdimnoma yoki xususiy ajrimda ko‘rsatilgan jinoyatning sodir etilishiga olib kelgan sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish choralari ko‘rishi lozim. Agar jinoyatning sodir etilishiga olib kelgan sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish choralari uzoqroq muddatni yoxud ko‘plab tashkiliy-ma’muriy, moliyaviy-iqtisodiy, huquqiy, axloqiy-ma’naviy masalalarni hal qilishni talab qiladigan bo‘lsa, davlat organi, fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organi, jamoat birlashmasi, jamoa yoki mansabdor shaxs ko‘rilayotgan choralar hamda ko‘rilishi nazarda tutilgan choralar haqida surishtiruvchini, tergovchini, prokurorni va sudni xabardor qiladi. Belgilangan muddat ichida taqdimnoma yoki xususiy ajrim yuzasidan

surishtiruvchiga, tergovchiga, prokurorga va sudga xabar yuborilmaganligi yoxud jinoyatning sabablarini va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf etish choralarining ko‘rilmaganligi dastlabki tergov organlarining, prokurorning qonuniy talablari va sudning akti bajarilmagan deb hisoblanib, qonunda nazarda tutilgan javobgarlikni keltirib chiqarishi mumkin.

Amaliyotdan misol: Toshkent shahrida joylashgan davlat korxonalaridan birida bosh hisobchi lavozimida faoliyat yuritayotgan fuqaro Farxodov tomonidan davlat mulki o‘zlashtirilganligi fakti bo‘yicha prokuratura organi jinoyat ishi qo‘zg‘atdi hamda dastlabki tergovda tergovchi tomonidan jinoyat sodir etishda ayblanayotgan Farxodovni lavozimdan bo‘shatish to‘g‘risida korxonaga rahbariga taqdimnoma kiritildi.

Taqdimnoma yoki xususiy ajrimni bajarmaslik tushunchasining ikki shaklini anglash mumkin. Bular: 1) taqdimnomani yoki xususiy ajrimni bajarmaganlik; 2) ularni vijdonan bajarmaganlikdir. Taqdimnomani yoki xususiy ajrimni bajarmaganlik tushunchasi ushbu huquqiy aktlarda qayd etilgan talablarni qasddan bajarmaslikni nazarda tutadi.

Taqdimnoma yoki xususiy ajrim kiritiladigan tashkilot va shaxslar:

- davlat organlari;
- fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari;
- jamoat birlashmalari;
- jamoalar;
- mansabdor shaxslar.

Taqdimnomani yoki xususiy ajrimni vijdonan bajarmaganlik esa, surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning yoki sudning jinoyatning sabablarini va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf etish choralarini ko‘rishda beparvolikka, yuzakillikka yo‘l qo‘yish oqibatida ularning talablarini lozim darajada bajarilmaganligi tushunilishi lozim. Taqdimnomada yoki xususiy ajrimda qo‘yilgan talablarni lozim darajada bajarmaganlik jinoyatning sodir etilishiga olib kelgan sabablarni va shart-sharoitlarni bartaraf etishning samarali choralari ko‘rilmaganligida ham namoyon bo‘lishi mumkin. Yuqorida qayd etilganidek, taqdimnomani yoki xususiy ajrimni bajarmaganlik yoki ularni vijdonan bajarmaganlik qonunda belgilangan tartibda javobgarlikni keltirib chiqaradi.

11.5. Fuqaro ijtimoiy burchini namunali bajarganligi to'g'risida taqdimnoma va xususiy ajrim qabul qilish

Surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror – taqdimnoma, sud esa xususiy ajrim chiqarish yo'li bilan tegishli korxonaga, muassasa va tashkilot rahbariyati va jamoasini jinoyatning oldini olish yoki uni fosh etishda fuqaro yuksak onglilik, jasorat ko'rsatgani, ijtimoiy burchini namunali bajarganligi to'g'risida xabardor qilishi mumkin (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 300-moddasi).

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 48-moddasi fuqarolarga Konstitutsiya va qonunlarni, insonlarning huquq, erkinligi, sha'ni va qadri-qimmatini hurmat qilish majburiyatini yuklaydi.

Mana shu norma talablari har bir fuqaroning qonunlarga so'zsiz rioya qilish majburiyati bilan birga, qonun talablarini buzgan yoki buzayotgan shaxslarning harakatlarini oldini olish burchini ham yuklaydi. Shu bois fuqarolar jinoyatning sodir etilishini oldini olishda, jinoyat sodir etilganda uning holatlarini aniqlab olish, aybdorlarni qidirish va fosh etish, shuningdek jinoyatning sodir etilishi sabablari va unga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash uchun davlat organlariga ko'mak berishlari lozim. Ushbu qoida jinoyat ishlari yurituvda ijtimoiy burchini namunali bajargan mana shunday fuqarolarni rag'barlantirishning aynan protsessual vositalaridan biri hisoblanadi. Shunday holatlar mavjud bo'lganda jinoyatni oldini olish yoki uni fosh etishda yuksak onglilikni namoyon qilgan, jasorat ko'rsatgan yoxud ijtimoiy burchini namunali bajargan shaxslarni ular ishlaydigan korxonaga, muassasa va tashkilot rahbariyati va jamoani xabardor qilish maqsadida surishtiruvchi, tergovchi, prokuror – taqdimnoma, sud esa xususiy ajrim chiqarishi mumkin.

Agar jinoyatning oldini olish yoki uni fosh etishda yuksak onglilikni namoyon qilgan, jasorat ko'rsatgan yoxud ijtimoiy burchini namunali bajargan shaxs ishlaymaydigan yoki vaqtincha ishsiz bo'lsa, surishtiruvchi tergovchi, prokuror – taqdimnoma, sud esa xususiy ajrim chiqarish yo'li bilan mana shu shaxs yashaydigan fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organini xabardor qilishi mumkin.

Jinoyatning oldini olish yoki uni fosh etishda yuksak onglilikni namoyon qilgan, jasorat ko'rsatgan yoxud ijtimoiy burchini namunali bajargan shaxslar to'g'risidagi taqdimnomaning yoki xususiy ajrimning qat'iy shakli o'rnatilgan bo'lmasa-da, lekin ularda sodir etilgan jinoyatning holatlari, fuqaroning namunali xatti-harakatlari to'g'risidagi ma'lumotlar aks etishi lozim. Surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud protsessual

aktda jinoyatning oldini olish yoki uni fosh etishda yuksak onglilikni namoyon qilgan, jasorat ko'rsatgan yoxud ijtimoiy burchini namunali bajargan shaxsni aniq shaklda rag'barlantirish masalasini qo'yishga haqli emas. Bu masala mazkur shaxs ishlaydigan korxonada, muassasa yoki tashkilotning rahbariga tegishli ma'muriy-tashkiliy masala hisoblanadi.

Mazkur protsessual tartib dispozitiv xarakterga ega bo'lib, surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror – taqdimnoma, sud – xususiy ajrim chiqarish yo'li bilan tegishli korxonada, muassasa va tashkilot rahbariyati va jamoasini jinoyatning oldini olish yoki uni fosh etishda fuqaro yuksak onglilik, jasorat ko'rsatgani, ijtimoiy burchini namunali bajarganligi to'g'risida xabardor qilish majburiyatiga ega emas. Biroq jinoyat-protsessual qonunchiligining 2-moddasida belgilangan vazifalarini samarali amalga oshirishda jinoyatning oldini olish yoki uni fosh etishda yuksak onglilikni namoyon qilgan, jasorat ko'rsatgan yoxud ijtimoiy burchini namunali bajargan shaxslarni rag'barlantirish vositalaridan foydalanish zurruriy protsessual harakatdir.



MAVZU BO'YICHA XULOSALAR

Mazkur mavzuni o'rganishda talabalar jinoyat protsessida jinoyatlarni oldini olish tushunchasi va turlari, mazkur institutning shakllari va huquqiy oqibatlariga oid masalalarni ko'rib chiqishlari, qiyosiy-huquqiy tahlil o'tkazib, jinoyat ishlari yurituvida jinoyatlarni oldini olish institutining rolini aniqlashlari lozim.

MUAMMOLI SAVOLLAR VA KAZUSLAR

1. Jinoyatning sabablarini va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarini aniqlash majburiyati qonun hujjatlarining vazifalaridan biri bo'lgan jinoyatlarni oldini olish choralari ko'rishdan iborat. **Jinoyat protsessual kodeksining jinoyatlarni oldini olishdagi huquqiy va ijtimoiy o'rnini tahlil qiling. Jinoyat protsessual qonuni vazifalari doirasida jinoyatlarni oldini olishdagi davlat organlari hamkorligi masalasiga to'xtaling.**

2. Jinoyatni sodir bo'lishiga sabab bo'lgan yoki uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf qilish yuzasidan dastlabki tergovda taqdimnoma, sud muhokamasida esa xususiy ajrim chiqariladi. Xususiy ajrim chiqarishdan maqsad o'z isbotini topgan jinoyat ishini sodir bo'lishiga sabab bo'lgan holatlarni ko'rsatish va jinoyatni sodir bo'lishiga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf qilish choralarni bayon

qilish va ko‘rilgan chora-tadbirlarni ijobiy hal qilinganligini nazorat qilish. **Taqdimnoma va xususiy ajrimning umumiy va maxsus belgilarini tavsiflang. Tergovchi va sudyaning jinoyatlarni oldini olish faoliyatini o‘zaro nisbatini tahlil qiling.**

1-kazus.

Farg‘ona viloyatida joylashgan zavodda shu zavod ishchisi Qayumov tomonidan sodir etilgan talon-taroj jinoyati bo‘yicha sud xususiy ajrim chiqarib, jinoyat sodir etilishiga sabab bo‘lgan shart-sharoitlar sifatida quyidagilarni ko‘rsatadi:

- 1) kadrlar masalasini noto‘g‘ri tashkil etilganligi,
- 2) o‘z vaqtida inventarizatsiyani o‘tkazilmaganligi,
- 3) mulkiy javobgar shaxsning ishga sovuqqonligi,
- 4) zavodda qo‘riqlash tizimini yaxshi yo‘lga qo‘yilmaganligi.

Bularni tezda bartaraf qilib, (bartaraf qilish yo‘llari ko‘rsatilmagan) sudga xabar berilishi ta’kidlanib, sudning xususiy ajrimi zavod ma’muriyatiga jo‘natiladi.

Sudning ajrimida ko‘rsatilgan holatlarni jinoyatlarni oldini olish faoliyati nuqtayi nazaridan tahlil qiling va ularni bartaraf etish imkoniyatlarini ko‘rib chiqing.

2-kazus.

Jizzax shahrida voyaga yetmagan Valiyev, Zafarov va Shermatovlar tomonidan bezorilik jinoyati sodir etilgan. Dastlabki tergovda ushbu jinoyatning sodir etilishiga sharoit yaratgan holatlar aniqlanib, ularni bartaraf qilish bo‘yicha mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish organiga taqdimnoma kiritilgan. Keyinchalik, ushbu jinoyat ishi sudda ko‘rilishi vaqtida jinoyat ishlari bo‘yicha Jizzax shahar sudi tomonidan ham aynan yuqoridagi holatlar bo‘yicha xususiy ajrim chiqarilgan va shahar xalq ta’limi bo‘limiga yuborilgan.

Vaziyatga baho bering. Aynan bir masala bo‘yicha ham taqdimnoma ham xususiy ajrim kiritish mumkinmi?



MUSTAQIL ISH UCHUN TOPSHIRIQLAR

1. Jinoyat protsessida jinoyatlarni oldini olish institutini qo‘llash asoslari va shartlari. Ish shakli – nazorat ishi (esse).
2. Jinoyatlarni oldini olish mexanizmi. Ish shakli – nazorat ishi (esse).

3. Jinoyatlarni oldini olishning protsessual shakllari va xususiyatlari.
Ish shakli – nazorat ishi (esse).

XII BOB. REABILITATSIYA

(muallif – yuridik fanlar doktori F.Muxitdinov)

***Annotatsiya:** Talabalar tomonidan mazkur mavzuning o‘rganilishi jinoyat protsessida rehabilitatsiya tushunchasi, turlari va huquqiy oqibatlari hamda rehabilitatsiya etilgan shaxsga yetkazilgan ziyonni qoplash va uning boshqa huquqlarini tiklashning o‘ziga xos jihatlari yuzasidan zaruriy bilimlarni shakllantirish imkonini beradi.*

12.1. Rehabilitatsiya tushunchasi va uning asoslari

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 2-moddasida belgilangan mazkur qonunning vazifalari ichida muhim o‘rinni “har bir jinoyat sodir etgan shaxs adolatli jazoga tortilishi hamda bironta ham aybsiz shaxs javobgarlik va jazoga tortilmasligi uchun jinoyat sodir etgan shaxslarning aybini fosh etish va qonunni to‘g‘ri tatbiq qilish” vazifasi egallaydi. Biroq, ayrim hollarda dastlabki tergov va sudlar tomonidan jinoyat ishini hal etishda xatoliklarga yo‘l qo‘yilishi mumkin. Natijada davlat organlari tomonidan noqonuniy javobgarlikka tortilgan fuqarolar o‘zlariga yetkazilgan ziyonni undirish, ya’ni rehabilitatsiya huquqiga ega bo‘lishlari lozim.


Rehabilitatsiya iborasi – qayta tiklanish, avvalgi holatga qaytarish ma’nosini anglatadi.

Jinoyat protsesida rehabilitatsiya – bu noqonuniy jinoiy ta’qib etish va hukm qilish natijasida aybsiz shaxsga yetkazilgan ziyonni qoplash, undirish deganidir.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishguniga qadar davlatimizda amalda bo‘lgan jinoyat-protsessual qonunida mazkur odil institut tan olinmagan, keyinchalik qonunchilikka rehabilitatsiyaga oid kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar yetkazilgan ziyonni qoplash masalasida deyarli samarali ishlamas, ma’naviy zararni undirishni nazarda tutmas, rehabilitatsiyaga sudning hukmi, ajrimi va qarori asos bo‘lishi haqidagi qoidaga amal qilinmas, g‘ayriqonuniy ravishda ushlanganlik, hibsdan saqlanganlik va boshqa majburlov choralari qo‘llanganlik sababli shaxsga yetkazilgan ziyonni undirish nazarda tutilmagan hamda ziyonni undirish masalasida sansalorlikka yo‘l qo‘yar edi. Qonunga zid ravishda javobgarlikka va jazoga tortilgan shaxslar, ularning qancha muddat ozodlikdan mahrum

etilganligiga qaramay, faqat ikki oylik ish haqi miqdorida tavon puli olardilar.

Davlat mustaqillikka erishganidan so'ng qabul qilingan Jinoyat-protsessual kodeksi alohida bobda rehabilitatsiya qilishning asoslari va qoidalari, mezon va shartlari tartibga solindi. Shunga binoan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida aybsiz shaxsni noqonuniy tarzda jinoiy ta'qib etish yoki hukm qilish oqibatida yetkazilgan ziyon qaysi davlat organi yoki mansabdor shaxs tomonidan amalga oshirilganidan qat'i nazar, bevosita davlat tomonidan qoplanishi e'tirof etiladi.



Biroq, fuqaroni noqonuniy javobgarlikka va jazoga tortilishida aybdor bo'lgan davlat organlari va mansabdor shaxslarga nisbatan fuqaroviy tartibda da'vo qo'zg'atishga yo'l qo'yilmaydi. Qonunchilikda davlat organlari yoki mansabdor shaxslarga nisbatan davlat tomonidan regress tartibda da'vo kiritish tartibi nazarda tutilgan emas. Amaliyotda ham bunday holatlar uchramaydi, balki davlat tomonidan fuqaroni noqonuniy tarzda javobgarlikka va jazoga tortilishida aybli bo'lgan mansabdor shaxslarga nisbatan boshqa choralar ko'zda tutilgan, ya'ni: lavozimidan chetlashtirish, intizomiy javobgarlik, bila turib shaxsni jinoiy javobgarlikka tortganlik, ushlaganlik, hibsdan saqlaganlik, dalillarni soxtalashtirganlik, odil sudlovga zid hukm qabul qilganlik uchun (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 230-, 231-, 234-, 235-moddalari) jinoiy javobgarlikka tortish kabi choralar qo'llanishi mumkin.

Reabilitatsiyaning maqsadi doimo aybsiz shaxsga yetkazilgan moddiy va mulkiy ziyonni bartaraf etish hamda ma'naviy zararining oqibatlarini tugatish, shuningdek noqonuniy tarzda jinoiy javobgarlikka tortish va hukm

qilish tufayli poymol etilgan shaxsning mehnatga, nafaqaga, uy-joyga va boshqa huquqlarini tiklashga qaratiladi.

Jinoyat-protsessual qonunchiligi rehabilitatsiyaning ikki shaklda amalga oshirishni nazarda tutadi.

Birinchi, to'liq rehabilitatsiya, ya'ni shaxsni noqonuniy tarzda jinoiy javobgarlikka tortish va hukm qilish natijasida unga yetkazilgan moddiy, mulkiy va ma'naviy zararni bartaraf etilishini talab qilish huquqiga ega bo'ladi.

Ikkinchi, qisman rehabilitatsiya bo'lib, bunda shaxsga nisbatan qo'llanilgan jazo yoki majburlov choralari aybdorlik va jazoga sazovorlik holatiga monand ravishda hal qilinmaganligi tufayli vujudga keladi. Qisman rehabilitatsiya etishda ayblanuvchiga yoki mahkumga yetkazilgan mulkiy ziyonning asossiz qismi qoplanishi va ma'naviy ziyon oqibatlarining asossiz qismi bartaraf qilinishi lozim. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 303-moddasida qisman rehabilitatsiya qilishning quyidagi asoslari keltiriladi: 1) shaxs qamoqda saqlab turilganiga qaraganda kamroq muddatga ozodlikdan mahrum etishga yoki ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazoga hukm qilinganligi; 2) hukmdan ayblov qisman chiqarib tashlanishi va buning natijasida qonunga ko'ra qamoqda saqlash yoki ozodlikdan mahrum qilish mumkin emasligi; 3) ozodlikdan mahrum qilish muddatining yuqori sud tomonidan haqiqatan o'talgan muddatga qaraganda kamaytirilganligi yoxud boshqa yengilroq jazo turi bilan almashtirilganligi; 4) jinoiy jazo tayinlamay hukm chiqarilgan hollarda ushlab turish, qamoqqa olish yoki uy qamog'ining, tibbiy muassasaga joylashtirishning asossizligi.

Rehabilitatsiya ko'p sohaviy va bir necha bosqichli huquqiy munosabatlardan iborat bo'lib, u shaxsga nisbatan oqlov hukmining qabul qilinishi yoki rehabilitatsiya asoslari mavjud bo'lgan holatlarda jinoyat ishining tugatilishi bilan boshlanadi (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 301-moddasi), so'ngra hukm, ajrim yoki qarorning nusxasini topshirish yoki pochta orqali yuborish asnosida rehabilitatsiya qilingan shaxsga uning rehabilitatsiya qilinish huquqi, ya'ni mulkiy ziyonni qoplash va boshqa huquqlarini tiklab olish tartibi tushuntiriladi. Keyin shaxs rehabilitatsiya etish to'g'risida qaror chiqargan sudga, prokuror yoki tergovchiga shunday talab bilan murojaat etadi. Shaxsning talabi bir oy muddatdan kechiktirmasdan sud, prokuror yoki tergovchi tomonidan, agar ish kassatsiya yoki nazorat tartibida ko'rish chog'ida tugatilgan bo'lsa, o'sha sud tomonidan ko'rib chiqilib, ziyon miqdori aniqlanadi (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 306-moddasi) va, nihoyat

ziyonni qoplash uchun pul to'lovlarini amalga oshirish to'g'risida sud ajrim, tergovchi yoki prokuror qaror chiqaradi va ular reabilitatsiya qilingan shaxsga, u vafot etgan bo'lsa, uning merosxo'rlariga yuboriladi (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 307-moddasi). Shu tariqa reabilitatsiyaning protsessual qismi tugaydi.

Reabilitatsiya

<p>To'liq reabilitatsiya – shaxsni noqonuniy tarzda jinoiy javobgarlikka qo'llanilgan jazo yoki majburlor choralarining tortish va hukm qilish natijasida unga aybdorlik yoki jazoga sazovorlik holatiga yetkazilgan moddiy, mulkiy va ma'naviy zararni bartaraf etilishini talab qilish huquqi</p>	<p>Qisman reabilitatsiya - shaxsga nisbatan aybdorlik yoki jazoga sazovorlik holatiga yetkazilgan ziyonni qoplanishini talab qilish huquqi</p>
--	---

Sud, prokuror yoki tergovchining qarorini olgan shaxs qarorni moliya, ijtimoiy ta'minot, uy-joy va boshqa idoralarga yetkazilgan ziyonni qoplash, faxriy unvon, mukofotlar va darajalarni qaytarish to'g'risida murojaat etishi mumkin. Mazkur talablarning bajarilmaganda shaxs da'vo talabi bilan fuqaroviy tartibida sudga murojaat qilishi mumkin. Shunday tartibdagi harakatni reabilitatsiya qilingan shaxs ma'naviy zararni undirish masalalasida ham amalga oshiradi.

Ayblash va hukm qilish uchun asoslar

Ishni ayblov xulosasi bilan sudga yuborish va ayblov hukmi chiqarish uchun quyidagilar isbotlangan bo'lishi kerak:

1) jinoyat obyekti; jinoyat tufayli yetkazilgan ziyonning xususiyati va miqdori, jabrlanuvchining shaxsini tavsiflovchi holatlar;

2) sodir etilgan jinoyatning vaqti, joyi, usuli, shuningdek Jinoyat kodeksida ko'rsatib o'tilgan boshqa holatlari; qilmish va ro'y bergan ijtimoiy xavfli oqibatlar o'rtasidagi sababiy bog'lanish;

3) jinoyatning ushbu shaxs tomonidan sodir etilganligi;

4) jinoyat to'g'ri yoki egri qasd bilan yoxud beparvolik yoki o'z-o'ziga ishonish oqibatida sodir etilganligi; jinoyatning sabablari va maqsadlari;

5) ayblanuvchining, sudlanuvchining shaxsini tavsiflovchi holatlar.

12.2.Reabilitatsiya qilinuvchi shaxslar

Jinoyat-protsessual qonuni reabilitatsiya qilinuvchi shaxslarning doirasini ancha keng qilib belgilagan. Unga ko'ra, reabilitatsiya qilinish huquqiga quyidagi shaxslar ega:

- o'ziga nisbatan sudning oqlov hukmi qabul qilinib, hukm kuchga kirgan shaxslar;

- jinoiy hodisa yuz bermaganligi, shaxsning qilmishida jinoyat tarkibi bo'lmaganligi, jinoyat sodir etishda ayblangan shaxsning sodir etilgan jinoyatga daxli bo'lmaganligi sababli jinoyat ishini tugatish to'g'risida qaror qabul qilingan gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi. Bunday mazmundagi qarorlar tergovchi, prokuror, sud hamda ishni apellyatsiya, kassatsiya va nazorat instansiyalari tartibida ko'rib chiqqan va hal qilgan sudlar tomonidan qabul qilinishi mumkin;

- majburiy tibbiy xarakterdagi majburlov choralari qo'llash to'g'risidagi ajrim bekor qilingan shaxslar;

- jinoyat ishini sudda ko'rish chog'ida gumon qilinuvchi, ayblanuvchiga nisbatan aynan shu ayblov bo'yicha sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi, ajrimi, qarori yoxud surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning xuddi shu holat bo'yicha va shu shaxsga nisbatan jinoyat ishi qo'zg'atishni rad etish yoki jinoyat ishini tugatish haqidagi qarori mavjud ekanligi aniqlangan shaxslar. Bunday holatlarda jinoyat ishi tugatilib, ayblanuvchi (gumon qilinuvchi) reabilitatsiya qilinishi zarur.

Shu bilan birga, reabilitatsiya qilinish huquqini **qisman reabilitatsiya** qilingan shaxslar ham tasarruf etadilar. Ular qatoriga:

- qamoqda saqlab turilganiga qaraganda kamroq muddatga ozodlikdan mahrum etishga yoki ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazoga hukm qilingan shaxslar;

- hukmdan ayblov qisman chiqarib tashlanishi va buning natijasida qonunga ko'ra qamoqda saqlash yoki ozodlikdan mahrum qilish jazosi qo'llanishi mumkin bo'lmagan shaxslar;

- ozodlikdan mahrum qilish muddatining yuqori sud tomonidan haqiqatan o'talgan muddatga qaraganda kamaytirilishi yoki boshqa yengilroq jazo turi bilan almashtirilishi natijasida mulkiy va ma'naviy ziyon ko'rgan shaxslar;

- asossiz ravishda jinoiy jazo tayinlamay hukm chiqarilgan hollarda ushlab turilgan, qamoqqa olingan yoki uy qamog'iga, tibbiy muassasaga joylashtirilgan shaxslar kiradi (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 303-moddasi).

Darhaqiqat, amaliyotda shunday holatlar ham uchrab turadiki, mahkum birinchi instansiya sudi hukmda tayinlagan jazo muddatini to‘liq o‘tab bo‘lganidan so‘ng, yuqori turuvchi sud shaxsga nisbatan belgilangan jazoni qisqartiradi. Bunday holatlarda, shubhasiz shaxs o‘zini qisman reabilitatsiya etilinishini talab qilish huquqiga ega bo‘ladi.

12.3.Reabilitatsiya turlari

Jinoyat-protsessual qonuni reabilitatsiyani qo‘llash asoslarini ham kengaytirgan. Endi nafaqat qonunsiz sudlangan shaxslar, balki qonunga xilof ravishda ushlab turilgani, ehtiyot chorasi sifatida qonunga xilof ravishda qamoqda saqlangan yoki uy qamog‘iga joylashtirilgan, ishda ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilingani tufayli vazifasidan qonunga xilof ravishda chetlashtirilgan yoxud tibbiy muassasaga qonunga xilof ravishda joylashtirilgan shaxslar ham o‘zlariga sud, prokuratura, tergov va surishtiruv organlarining noqonuniy harakatlari tufayli yetkazilgan mulkiy zararni undirish hamda ma’naviy ziyon oqibatlarini bartaraf etilishini talab qilish huquqiga egalar (O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 301 va 303-moddalari).

Shu bilan birga, sud, prokuror va tergov organlarining noqonuniy majburlov choralari qo‘llash tufayli shaxsga ziyon yetkazish holatiga yana uy-joyning egasi ixtiyoriga zid ravishda uy-joyda tintuv o‘tkazish hamda g‘ayriqonuniy ravishda shaxsiy tintuv o‘tkazish tufayli shaxsga nisbatan yetkazilgan mulkiy va ma’naviy ziyon bilan bog‘liq reabilitatsiyani qo‘shish mumkin.

Bunday reabilitatsiya asoslariga, shuningdek insonning tanasini ko‘zdan kechirish, ekspertiza o‘tkazish va qiyoslash uchun namunalar olish chog‘ida noqonuniy tarzda ko‘zdan kechirish va tekshirish kabi harakatlarni kiritishimiz mumkin.

Noqonuniy va asossiz ravishda jinoyat-protsessual majburlov choralari qo‘llash oqibatida yetkazilgan ziyonni undirish – O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 991-moddasida ta’riflangan davlat organlari va mansabdor shaxslar tomonidan fuqaroga yetkazilgan ziyonni undirish tushunchasiga asoslanadi. Demak, ushbu tushuncha nafaqat jinoyat-protsessual sudlov yurituviga, balki fuqaroviy-protsessual huquqiga ham taalluqlidir. Lekin mazkur ikki asoslar ham O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 37-bobida qayd etilgan normalarda birlashtirilgan.

Ammo bu holatlarning o‘zaro farqlovchi jihatlari mavjud bo‘lib, agar to‘liq rehabilitatsiya qilishda shaxsga nisbatan surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud tomonidan qo‘yilgan barcha da’volar noqonuniy va asossiz ekanligi tufayli olib tashlansa (shaxsga nisbatan oqlov hukm qabul qilingan yoki jinoyat ishi O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 83-moddasi talablariga muvofiq tugatilgan bo‘lsa), noqonuniy va asossiz majburlov choralarini qo‘llash oqibatida fuqaroga yetkazilgan ziyonni undirish esa, ayblov hukmining qabul qilinishi yoki O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 84-moddasiga binoan ayblilik to‘g‘risidagi masalani aniqlamay turib jinoyat ishini tugatish natijasida ham amalga oshirilishi mumkin.

Shu bilan birga, g‘ayriqonuniy va asossiz ravishda uy-joyda o‘tkazilgan tintuv yoki olib qo‘yish choralarini qo‘llash, guvohlantirish va ekspertiza o‘tkazish, pochta va telegraf yozishmalarini xatlab qo‘yish va so‘zlashuvlarni eshitish natijasida yetkazilgan ziyonni undirish ham mumkin. Bunday huquqqa nafaqat gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi yoki mahkum ega bo‘ladi, balki bevosita manfaatlarini poymol etilgan shaxslar ega bo‘ladilar.

Shuningdek, rehabilitatsiya qilishning yana bir shakli mavjud bo‘lib, u XX asrning 30-50-yillarida hamda 70-80-yillarda nohaq qatag‘on qilingan shaxslarni mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so‘ng rehabilitatsiya qilish to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A. Karimovning tashabbusi bilan boshlangan siyosiy-huquqiy jarayonlarni o‘z ichiga oladi.

Adabiyotlarda O‘zbekistonda amalga oshirilgan siyosiy qatag‘onlarning ikki bosqichi haqida so‘z yuritiladi. Bular:

- 1917-1950 yillarni o‘z ichiga oluvchi va “Stalin qatag‘onlari” deb nomlanuvchi birinchi bosqich;
- 1970 dan boshlanib, 1990 yilga qadar bo‘lgan davrni o‘z ichiga oluvchi ikkinchi bosqich.

Siyosiy qatag‘onlarning mana shu ikki bosqichda qonunsiz va asossiz sudlangan shaxslarni rehabilitatsiya qilish siyosati tufayli 10 mingdan ziyod siyosiy qatag‘on qurbonlari oqlangan.

Shunday qilib, jinoyat-protsessual qonunchiligi shaxslarni rehabilitatsiya qilishning quyidagi uch holatini belgilaydi:

- 1) shaxsning sud, prokuror, tergovchi, surishtiruvchi tomonidan aybsiz deb topilishi;

2) dastlabki tergov va sud muhokamasi vaqtida tergov, prokuratura va sud organlarining noqonuniy va asossiz harakatlari oqibatida shaxsga ziyon yetkazilishi;

3) siyosiy qatag'onlar tufayli aziyat chekkanlar.

Fuqarolik kodeksining 991-moddasida fuqaroga "qonunsiz hukm qilish", "g'ayriqonuniy tarzda jinoiy javobgarlikka tortish", "qonunga zid ravishda qamoqqa olish yoki namunali xulq-atvorda bo'lish kabi ehtiyot choralarini qo'llash", "noqonuniy tarzda qamoq bilan bog'liq ma'muriy jazo chorasini qo'llash" oqibatida yetkazilgan ziyon davlat tomonidan to'liq ravishda qoplanishi haqidagi qoidalar belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 302-moddasida reabilitatsiya qilish holatlariga, shuningdek shaxsning ishda ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilingani tufayli vazifasidan qonunga xilof ravishda chetlashtirilganligi yoxud tibbiy muassasaga qonunga xilof ravishda joylashtirilganligi holatlari ham e'tirof etilgan.

Fuqarolik kodeksining 991-moddasi ikkinchi qismida sud, prokuratura, tergov va surishtiruv organlarining boshqa noqonuniy harakatlari tufayli fuqaro va yuridik shaxsga yetkazilgan zarar umumiy tartibda undirilishi haqida ko'rsatilgan. Ushbu qoida yuqorida ta'kidlangan holatlar mavjud bo'lganda yetkazilgan ziyonni undirish haqida fuqarolik sudlov yurituvi tartibida fuqaro va yuridik shaxsga talab qilish huquqini beradi.

12.4.Reabilitatsiya huquqiga ega bo'lmagan shaxslar

Reabilitatsiya masalasini to'g'ri tushunish uchun kimlar bu huquqqa ega va kimlar bunday huquqdan mahrum degan savolga javob topish muhim hisoblanadi. Mamlakatimiz jinoyat-protsessual qonunchiligida reabilitatsiya qilinish huquqiga ega bo'lmagan shaxslar haqida ma'lumotlar yo'q. Lekin bunday shaxslarning doirasini O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 84-moddasida qayd etilgan holatlar asosida tugatilgan jinoyat ishlariga aloqador shaxslardan bilib olish mumkin. Jumladan, jinoyat ishi bo'yicha qabul qilingan ayblov hukmi:

- shaxsni javobgarlikka tortish muddati o'tganligi;
- e'lon qilingan amnistiya akti sodir etilgan jinoyat yoki shaxsga daxldorligi;
- sudlanuvchining vafot etganligi;
- shaxs ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan paytda jinoiy javobgarlikka tortish mumkin bo'lgan yoshga to'lmaganligi;

- O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi Maxsus qismining tegishli moddasida shaxsning o‘z qilmishiga amalda pushaymon bo‘lganligi tufayli javobgarlikdan ozod qilinishi nazarda tutilganligi;

- shaxsning jinoyat sodir etilganidan keyin o‘z harakatlarining mohiyatini idrok etish yoki ularni idora qilish imkoniyatidan mahrum etadigan ruhiy kasallikka chalinib qolganligi;

- sodir etilgan qilmishning xususiyatini, birinchi marta ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyat sodir etganning shaxsini hisobga olib, materiallarni voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha komissiyaga qarab chiqish uchun berish maqsadga muvofiqligi tufayli bekor qilingan, tugatilgan bo‘lsa, shu toifadagi shaxslar rehabilitatsiya huquqiga ega bo‘lmaydilar.

Shu bilan birga, yana:

a) gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining jabrlanuvchi bilan Jinoyat kodeksining 66¹-moddasida nazarda tutilgan holatlar asosida jabrlanuvchi bilan yarashganligi;

b) ishni tergov qilish yoki sudda ko‘rib chiqish paytiga kelib, qilmish ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo‘qotgan yoxud vaziyat o‘zgarishi oqibatida bu shaxsning ijtimoiy jihatdan xavfli bo‘lmay qolganligi tufayli tugatilgan taqdirda ham, ushbu shaxslar rehabilitatsiya huquqidan mahrum etiladilar.

Negaki, har ikkala guruhga oid vaziyatlarda ham shaxsning jinoyat sodir etganligi masalasi shubhasiz, lekin qonunda nazarda tutilgan ayrim holatlar (masalan Jinoyat-protsessual kodeksining 84-moddasidagi holatlar) tufayli unga nisbatan jinoyat ishi tugatilishi lozimligi belgilangan bo‘ladi.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, aybsizlik prezumpsiyasi qoidalariga ko‘ra, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining jinoyat sodir etishda aybdorligi qonunda nazarda tutilgan tartibda isbotlangunga va qonuniy kuchga kirgan sud hukmi bilan aniqlangunga qadar aybsiz hisoblanishi lozim (O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 23-moddasi). Shunday ekan, qayd etilgan shaxslarga nisbatan ayblov hukmi qabul qilinmagan yoki ayblov hukmi 84-moddasida ko‘rsatilgan holatlarni qo‘llash zarurligi tufayli bekor qilingan ekan, unda ular aybsiz deb hisoblanadilar. Ammo bunda ushbu shaxslarning jinoyat sodir etganliklari holatini ham unutmash kerak.

Mazkur masalalar mantiqiy-huquqiy nuqtayi nazardan murakkablikni keltirib chiqaradi. Ammo jinoyat protsessidagi tortishuv prinsipining mohiyatidan kelib chiqadigan bo‘lsak, shaxsning o‘z aybini bo‘yniga olishi amalda uni davlat idoralari bilan ish bo‘yicha bahs yuritish huquqini yo‘qqa chiqaradi. Bunday holatda shaxs tomonidan davlat oldiga yetkazilgan zararni undirish haqidagi talabni qo‘yish asossiz bo‘ladi. Zero Fuqarolik

kodeksining 985-moddasiga binoan, agar shaxs ziyon yetkazishda aybdor emasligini tasdiqlay olsa, uni qoplash majburiyatidan ozod etiladi.

12.5. Yetkazilgan mulkiy ziyonni qoplash

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 304-moddasida belgilanganidek, reabilitatsiya etilgan shaxsga surishtiruv, dastlabki tergov va sud organlarining qonunga xilof harakatlari tufayli yetkazilgan mulkiy ziyon to‘la hajmda qoplanadi. Qonun yetkazilgan mulkiy ziyonni qoplashning hajmi va turlari belgilangan bo‘lib, unga binoan mulkiy ziyonning quyidagi turlari belgilangan hajmda qoplanishi zarur:

- reabilitatsiya etilgan shaxsning o‘zi mahrum bo‘lgan ish haqi va mehnatdan topiladigan boshqa daromadlari;
- pensiya va nafaqalar;
- pullar;
- pul jamg‘armalari va ularga to‘lanadigan foizlar;
- davlat zayomi obligatsiyalari va ularga chiqqan yutuqlar;
- aksiyalar va boshqa qimmatli qog‘ozlar;
- sudning hukmi, ajrimiga (qaroriga) asosan musodara qilingan yoxud davlat foydasiga o‘tkazilgan ashyolar yoxud boshqa mol-mulkning qiymati;
- surishtiruv, dastlabki tergov organlari yoki sud tomonidan olib qo‘yilgan;
- sud hukmini ijro qilish chog‘ida undirilgan jarimalar va sud chiqimlari;
- yuridik yordam ko‘rsatilishi uchun shaxs tomonidan advokatlar byurosiga, hay‘atiga yoki firmasiga to‘langan pul;
- shaxsga nisbatan sodir etilgan qonunga xilof harakatlar natijasida qilingan boshqa xarajatlar.

Agar reabilitatsiya etilgan shaxs vafot etgan bo‘lsa, reabilitatsiya qilingan shaxsning ish haqi va mehnatdan topiladigan daromadlari, pullar, pul jamg‘armalari va ularga to‘lanadigan foizlar, davlat zayomi obligatsiyalari va ularga chiqqan yutuqlar, aksiyalar va boshqa qimmatli qog‘ozlar, shuningdek sudning hukmi, ajrimiga (qaroriga) asosan musodara qilingan yoxud davlat foydasiga o‘tkazilgan ashyolar yoxud boshqa mol-mulklarni undirish bevosita uning merosxo‘rlari talab qilish huquqiga ega bo‘ladilar.

Vafot etgan reabilitatsiya qilingan shaxsning pensiya va nafaqalarini undirish huquqiga esa, boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi bilan ta‘minlanishi lozim bo‘lganlar jumlasiga kiruvchi oila a‘zolari ega bo‘ladilar.

12.6. Reabilitatsiyaga oid masalani hal qilish

Reabilitatsiyaga oid masalani hal qilish bevosita reabilitatsiya qilingan shaxsning huquqlarini amalga oshirish mumkinligini tushuntirish bilan boshlanadi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining reabilitatsiya qilish asoslarini tartibga soluvchi normalarida (masalan 306-moddasi) bu masalaning uch tartibi belgilangan. *Birinchisi*, sudning oqlov hukmida; *ikkinchisi*, yuqori instansiya sudining ayblov hukmini bekor qilish va jinoyat ishini Jinoyat-protsessual kodeksining 83-moddasiga asosan tugatish to'g'risidagi ajrimi yoki qarorida shaxsning reabilitatsiya qilish huquqlari tushuntirilishi lozim; *uchinchisi*, dastlabki tergovda ishni Jinoyat-protsessual kodeksining 83-moddasiga asosan tugatish to'g'risidagi qarorda oqlangan yoki jinoyat ishi tugatilgan shaxsning qonunga xilof ravishda jinoiy javobgarlikka tortilganligi hamda Jinoyat-protsessual kodeksining 302-moddasi birinchi qismida nazarda tutilgan holatlar tufayli yetkazilgan mulkiy zararni undirish hamda ma'naviy ziyon oqibatlarini bartaraf etilishini talab qilish huquqi e'tirof etilishi lozim.

Amaliyotdan misol: Farmonov O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 25-, 169-moddalari bo'yicha jinoyat sodir etishda gumon qilinib ushlangan. Unga nisbatan sudning ajrimiga asosan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasi qo'llanilgan. Farmonov ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb etilib, dastlabki tergov harakatlari amalga oshirilgan. Ish tamomlangandan keyin jinoyat ishi materiallari sudga yuborilgan. Sud muhokamasi jarayonida Farmonovning ushbu jinoyatga daxli bo'lmaganligi aniqlangan va u O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 83-moddasi bo'yicha reabilitatsiya qilingan. Farmonov chet elga ishlash uchun ketib, 3 yildan so'ng qaytib kelib, o'ziga yetkazilgan mulkiy ziyonni qoplashni talab qiladi.

Hukm, ajrim yoki qarorning nusxasi reabilitatsiya etilgan shaxsga topshirilishi yoki shu haqda xabar yuborilishi lozim. Mazkur xabarda ushbu shaxsga hukm, ajrim yoki qaror ustidan shikoyat qilish tartibi, shuningdek mulkiy ziyonni qoplash va boshqa huquqlarini tiklab olish tartibi tushuntiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi reabilitatsiya qilingan shaxsga mulkiy ziyonni qoplash uchun pul to'voni to'lashni talab qilish muddatini belgilagan bo'lib, 312-moddasiga ko'ra, shaxs o'zining reabilitatsiya qilinganligi haqidagi hukm, ajrim yoki qarorni olgan vaqtdan e'tiboran ikki yil mobaynida talab qilish huquqiga ega. Aynan mana shu muddat ichida reabilitatsiya qilingan shaxs hukm, ajrim yoki qaror qabul qilgan organga unga surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning yoki sudning qonunga xilof faoliyati tufayli yetkazilgan moddiy ziyonni qoplash haqida murojaat qilishi lozim.

Reabilitatsiya etish to'g'risida qaror chiqargan sud, prokuror yoki tergovchi reabilitatsiya etilgan shaxsdan ariza tushgan kundan boshlab bir oydan kechiktirmasdan ziyon miqdorini aniqlash choralari ko'rish kerak. Agar sudya, prokuror yoki tergovchi ziyon miqdorini mustaqil aniqlash imkoniga ega bo'lmasa, unda hisob-kitob qilishni amalga oshirishni moliya va ijtimoiy ta'minot organlariga topshirishlari mumkin (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 306-moddasi).

Reabilitatsiya qilish huquqi jamlangan protsessual hujjatlar:

- sudning oqlov hukmi;
- yuqori instansiya sudining ayblov hukmini bekor qilish va jinoyat ishini O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 83-moddasiga asosan tugatish to'g'risidagi ajrimi yoki qarori;
- ishni dastlabki tergovda Jinoyat-protsessual kodeksining 83-moddasiga asosan tugatish to'g'risidagi qaror.

Agar ish apellyatsiya, kassatsiya yoki nazorat tartibida ko'rish chog'ida sud tomonidan tugatilgan bo'lsa, ziyon miqdori hukm chiqargan sud tomonidan aniqlanishi lozim. Ammo bu masalada amalga oshiriladigan hisob-kitobning xolis amalga oshirilishi uchun, bu ishni qabul qilgan ayblov hukmi bekor qilinib tugatilgan sudyaga emas, boshqa shaxsga berilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Mulkiy ziyonning miqdori hisoblab chiqilganidan keyin bu ziyonni qoplash uchun pul to'lovlarini amalga oshirish to'g'risida sud ajrim, tergovchi yoki prokuror qaror chiqaradi (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 307-moddasi). Ajrim yoki qarorda yetkazilgan barcha turdagi mulkiy ziyonni qoplashni amalga oshiruvchi – moliya, ijtimoiy ta'minot, uy-joy va boshqa organlar ko'rsatiladi.

Ajrim yoki qarorning nusxasi gerbli muhr bilan tasdiqlanib, mulkiy ziyonni qoplab berishi lozim bo'lgan organlarga taqdim etish uchun reabilitatsiya etilgan shaxsga, agar u vafot etgan bo'lsa, uning merosxo'rlariga yoki oila a'zolariga beriladi yoki yuboriladi.

Reabilitatsiyaga oid masalani hal qilishning yuqorida keltirilgan qoidalari jinoyat-protsessual qonuni belgilagan tartibni ifoda qiladi. Agar mazkur tartibda qabul qilingan ajrim yoki qarorda ko'rsatilgan ziyon miqdori asosli emas degan fikrda bo'lsa, reabilitatsiya qilingan shaxs tergovchining, prokurorning pul to'lovini amalga oshirish to'g'risidagi qarori ustidan sudga, sudning ajrimi ustidan esa yuqori turuvchi sudga

shikoyat qilishi mumkin. Sudning ajrimi ustidan prokuror ham protest bildirish vakolatiga ega.

Agar shaxsning mehnat qilish, pensiya olish va uy-joydan foydalanish huquqlarini tiklash, shuningdek mol-mulknı qaytarish yoki uning qiymatini to'lash to'g'risidagi talabi qanoatlantirılmasa yoxud shaxs qabul qilingan qarorga rozi bo'lmasa, reabilitatsiya qilingan shaxs tegishli talab bilan da'vo ishini yuritish tartibida fuqarolik sudiga murojaat qilishi mumkin bo'ladi (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 311-moddasi).

Reabilitatsiya qilish to'g'risidagi sudning ajrimi uni ijro etish uchun yuborilgan barcha organlar uchun majburiydir. Sud qarorini o'z vaqtida yoki to'la bajarmaslik qonun hujjatlariga binoan javobgarlikka sabab bo'ladi.

Reabilitatsiya qilish to'g'risidagi sudning ajrimini, tergovchi yoki prokurorning qarorini olgandan so'ng, reabilitatsiya qilingan shaxs moliyaviy, ijtimoiy ta'minot organlari, uy-joy idoralariga yetkazilgan ziyonni qoplash va uning huquqlarini tiklash talabi bilan murojaat qiladi. Agar reabilitatsiya qilish haqidagi sudning ajrimi yoki tergovchining, prokurorning qarorini ijro etishi lozim bo'lgan organ yoki mansabdor shaxs uni bajarishni istamasa, shaxs ajrim yoki qarorni ijro etish masalasida sudga yoki tergovchiga, prokurorga murojaat qilishga haqli.

Qonunga xilof ravishda hukm qilingan, tibbiy muassasaga joylashtirilgan, ehtiyot chorasi tariqasida qamoqqa olingan, ushlab turilgan, lavozimidan chetlashtirilgan yoki lavozimidan ozod etilgan shaxs avval ishlagan lavozimiga tiklanishi lozim. Basharti shaxsni ilgari ishlagan lavozimiga tiklash imkoniyati bo'lmagan taqdirda unga avvalgisiga teng boshqa ish berilishi lozim.

Reabilitatsiya etilgan shaxsning qonunga xilof ravishda ehtiyot chorasi tariqasida qamoqda saqlangan vaqti, jazo o'tagan vaqti, lavozimidan chetlashtirilganligi tufayli ishlaymay yurgan vaqti, tibbiy muassasada saqlangan vaqti umumiy mehnat stajiga va ixtisoslik bo'yicha ish stajiga qo'shilishi lozim. O'quv yurtida talabalar safidan chiqarilgan shaxs esa, o'qishga tiklanishi zarur.

Qonunga xilof ravishda hukm qilingan, tibbiy muassasaga joylashtirilgan, ehtiyot chorasi tariqasida qamoqqa olingan, ushlab turilgan, lavozimidan chetlashtirilgan yoki lavozimidan ozod etilgan shaxs ilgari o'zi egallab kelgan uy-joyi qaytarib berilishi, agar buning imkoni bo'lmasa, o'sha tuman yoki aholi punktining o'zida avvalgisiga teng qulayliklarga ega bo'lgan uy-joy berilishi kerak (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 310-moddasi).

Shu bilan birga, qonunga xilof ravishda hukm qilingan, tibbiy muassasaga joylashtirilgan, ehtiyot chorasi tariqasida qamoqqa olingan, ushlab turilgan, lavozimidan chetlashtirilgan yoki lavozimidan ozod etilgan shaxs ma'naviy ziyonning oqibatlarini bartaraf qilinishini talab qilishga haqli. Fuqarolik kodeksining 1021-moddasida ma'naviy zararni undirish asoslari ko'rsatilgan bo'lib, unga ko'ra, qonunga xilof ravishda ozodlikdan mahrum etish, javobgarlikka tortish, ehtiyot chorasi tariqasida qamoqqa olish, ushlab turish yoki namunali xulq-avtorga ega bo'lish to'g'risida tilxat olish, ma'muriy javobgarlik choralari qo'llash tufayli fuqaroga yetkazilgan ma'naviy ziyon uni yetkazgan aybdorning mavjudligidan va uning istagidan qat'i nazar undirilishi lozim.

Fuqarolik kodeksining 1022-moddasiga muvofiq, ma'naviy ziyon pul shaklida qoplanishi lozim. Uning miqdori va hajmi fuqaroga yetkazilgan jismoniy va ma'naviy azob-uqubatlarning darajasiga qarab sud tomonidan belgilanadi. Adabiyotlarda ma'naviy zararning obyektlari sifatida: shaxsni xo'rlash, obro'sini to'kish, insoniy qadr-qimmatini poymol etish, hayotiga yoki sog'lig'iga jiddiy zarar yetkazish, nomulkiy huquqlaridan, masalan, mualliflik huquqidan mahrum qilish kabilar kiritiladi³⁰.

Jismoniy va ma'naviy ziyonning darajasi shunday ziyon yetkazishning holatlarini hamda ma'naviy ziyon ko'rgan fuqaroning shaxsiy xususiyatlarini e'tiborga olgan holda sud tomonidan belgilanadi. Shuningdek, ma'naviy ziyonning oqibatlari mulkiy ziyonning qoplanganligidan qat'i nazar bartaraf etilishi lozim.

Agar shaxs ushlab turilganligi, qamalanganligi, lavozimidan chetlashtirilganligi, tibbiy muassasa joylashtirilganligi yoki hukm qilinganligi to'g'risidagi ma'lumotlar matbuotda e'lon qilingan, radio, televideniye yoki boshqa ommaviy axborot vositalari orqali tarqatilgan bo'lsa, rehabilitatsiya qilingan shaxsning, u vafot etgan bo'lsa, qarindoshlarining, sud, prokuror, tergovchining talabiga ko'ra tegishli ommaviy axborot vositalari uning rehabilitatsiya etilganligi to'g'risida bir oy ichida xabar berishlari lozim (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 309-moddasi).

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida qonunga xilof ravishda hukm qilingani, qonunga xilof ravishda tibbiy muassasaga joylashtirilgani, ehtiyot chorasi tariqasida qonunga xilof ravishda qamoqqa olingani, qonunga xilof ravishda ushlab turilgani tufayli harbiy xizmatdan bo'shatilgan yoki jinoyat ishida ayblanuvchi, sudlanuvchi tariqasida ishtirok

³⁰ Комментарий к Гражданскому кодексу Республики Узбекистан (часть вторая). Профессиональный комментарий. Т.2. – Т.: Министерство Республики Узбекистан. SMI-ASIA, 2011.

etishga jalb qilinishi munosabati bilan lavozimidan qonunga xilof ravishda chetlashtirilgan harbiy xizmatchilarning reabilitatsiya qilinishi natijasida pensiya olish, uy-joydan foydalanish va boshqa shaxsiy hamda mulkiy huquqlarini tiklash va ularga yetkazilgan mulkiy ziyonni qoplash, ma'naviy ziyon oqibatlarini bartaraf etish borasidagi qoidalarni tartibga soladi. Reabilitatsiya qilingan harbiy xizmatchilarning huquqlarini tiklash va yetkazilgan ziyonni qoplash masalalari O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining yuqorida qayd etilgan moddalarida belgilangan qoidalar asosida amalga oshiriladi.

Shu bilan birga, reabilitatsiya qilingan harbiy xizmatchining harbiy xizmatga, egallab kelgan lavozimiga yoxud harbiy nafaqasini tiklash, harbiy unvonlarini qaytarish masalasini hal qilish, uy-joydan foydalanish va boshqa huquqlarini tiklash, uning mulkiga yetkazilgan ziyonni qoplash tartibi O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori, Mudofaa vaziri, Ichki ishlar vaziri va Milliy xavfsizlik xizmati raisining maxsus buyrug'ida belgilangan tartibda hal qilinadi. Shunday bo'lsa-da, qonunga xilof ravishda hukm qilingan, qonunga xilof ravishda tibbiy muassasaga joylashtirilgan, ehtiyot chorasi tariqasida qonunga xilof ravishda qamoqqa olingan, qonunga xilof ravishda ushlab turilgan harbiy xizmatchini reabilitatsiya qilish haqidagi sudning oqlov hukmi, yuqori sudda yoxud tergovchining, prokurorning jinoyat ishini jinoyat ishini reabilitatsiya asoslarida tugatish to'g'risidagi qarori harbiy xizmatchining huquqlarini tiklash uchun ustuvor ahamiyatga ega.



MAVZU BO'YICHA XULOSALAR

Mazkur mavzuni o'rganishda talabalar jinoyat protsessida reabilitatsiya tushunchasi va turlari, reabilitatsiyaning huquqiy oqibatlariga oid masalalarni xorijiy davlatlar qonunchiligi va O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi tegishli qarorlari asosida qiyosiy-huquqiy tahlil qilib, jinoyat ishlarini yuritishda reabilitatsiya institutining rolini aniqlashlari lozim.

MUAMMOLI SAVOLLAR VA KAZUSLAR

1. Qonunga xilof ravishda hukm qilingan, tibbiy muassasaga joylashtirilgan, ehtiyot chorasi tariqasida qamoqqa olingan, ushlab turilgan, lavozimidan chetlashtirilgan yoki lavozimidan ozod etilgan shaxs o'zining barcha huquqlarida tiklanishi zarur. Bu borada reabilitatsiya va restitutsiya tushunchalarini o'zaro qiyoslab tahlil qiling.

2. Shaxsning mehnat qilish, pensiya olish va uy-joydan foydalanish huquqlarini tiklash, shuningdek mol-mulknini qaytarish yoki uning qiymatini to'lash to'g'risidagi talabi qanoatlantirilmagan bo'lsa yoxud shaxs qabul qilingan qarorga rozi bo'lmasa, u tegishli talab bilan da'vo ishini yuritish tartibida sudga murojaat qilishga haqlidir. **Reabilitatsiya qilingan shaxsning moddiy ijtimoiy huquqlarida tiklanishi yuzasidan da'vo qo'zg'atish tartibi va muddatlarini tavsiflang.**

1-kazus

Tashlandiq joydan noma'lum shaxsning murdasi topiladi. Ekspert xulosasiga ko'ra u 24 soat ichida o'ldirilganligi ma'lum bo'ladi. Bedarak yo'qolganlarni ro'yxati tekshirilganda topilgan murdaning ayrim belgilari (yoshi, bo'yi) fuqaro Kamilovga to'g'ri keladi. Kamilovning xotini va qaynisini chaqirib murdani tanib olish uchun ko'rsatilganda ular tanib ololmaydilar.

Dastlabki tergov davomida Kamilov xotini bilan ahil yashamaganligi, xotini doimiy ravishda urib, unga azob berib kelganligi, bu haqda ichki ishlar organi xodimlari ham voqif ekanliklari ma'lum bo'ladi. Kamilov bedarak yo'qolganidan oldin xotini urib xomilasini nobud bo'lishiga sababchi bo'lgan. Bu haqda xotining arizasi va ekspertiza xulosasi bo'lgan. Kamilov hech qayerda ishlamagan, doimiy ravishda spirtli ichimlik iste'mol qilgan. To'plangan bunday ma'lumotlar qotillik jinoyatini Kamilovning xotini va ukasi sodir etganligi to'g'risidagi versiyani tekshirib chiqishni taqozo etdi.

Tergovchining versiyasi topilgan dalillar bilan borgan sari mustahkamlanib borayotganday tuyuladi. Kamilovning xotini va qaynisiga ayb e'lon qilinish, qamoqqa olinadi. Dastlabki tergov oxirlab qolganda Kamilovning hayot ekanligi ma'lum bo'lib qoladi.

Reabilitatsiya asoslari mavjudmi? Agar mavjud bo'lsa jinoyat ishini taqdiri qanday hal qilinadi?

2-kazus

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 277-moddasi 1-qismi bilan ayblangan Qobilovning jinoyat ishi sud majlisida ko'rib, jazo tayinlanmasdan ayblov hukmi bilan sud zalidan ozod qilinadi. Ma'lum bo'lishicha, Qobilov dastlabki tergov davrida ehtiyot chorasi sifatida qamoqda saqlangan. Sud Qobilov T.ga olti oy ozodlikdan mahrum qilish jazosini qo'llagan. Hukmda O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 83-moddasini qo'llab, Jinoyat-protsessual kodeksining 467, 474-moddalariga asosan Qobilov T.ni sud zalidan ozod qilinadi.

Bu vaziyatda Reabilitatsiya institutini qo‘llash mexanizmini va uning huquqiy oqibatlarini bayon qiling.

XIII BOB. PROTSESSUAL MUDDATLAR VA CHIQIMLAR

(muallif yu.f.n. S.Sahaddinov)

Annotatsiya: Ushbu mavzuning talabalar tomonidan o'rganilishi jinoyat protsessining muhim institutlaridan biri bo'lgan protsessual muddatlar va chiqimlarning protsessual ahamiyati va ularni qo'llash, jinoyat protsessida muddatlarni hisoblash va uzaytirish, hamda protsessual xarajatlarni undirish tartibi to'g'risida zaruriy bilim shakllantirish imkonini beradi.

13.1. Jinoyat protsessida protsessual muddatlarning tushunchasi, ahamiyati va turlari

Protsessual muddat jinoyat sud ish yurituvini maqsadlariga erishish maqsadida jinoyat-protsessual qonun bilan u yoki bu harakatni amalga oshirish yoxud muayyan qarorni qabul qilish uchun belgilangan vaqt muddati hisoblanadi. Jinoyat protsessual muddatlarning belgilanishidan maqsad – protsess ishtirokchilarining huquq va erkinligi, qonuniy manfaatlarining oqilona muddatlar ichida himoya qilish hamda jinoyat ish yurituvida oqilona tezkorlikning ta'minlanishidan iborat.

Protsessual muddatlar – jinoyat protsessida protsessual harakat yoki qarorlarni qabul qilishning, shuningdek, jinoyat protsessi ishtirokchilarining huquq va majburiyatlarini amalga oshirish yoki bajarishdan tiyilishning jinoyat-protsessual qonunchilikda ko'rsatilgan yoki unga asoslangan holda jinoyat ishini yuritishga mas'ul shaxslar tomonidan belgilangan muddatlari.

Jinoyat-protsessual qonunchilikda ko'zda tutilgan muddatlar shaxsning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini ta'minlash mexanizmida muhim element hisoblanadi. Kriminalistika nuqtayi nazaridan, tergov qancha tez boshlangan bo'lsa, jinoyatni ochish va isbotlanishi lozim bo'lgan barcha holatlarni aniqlash, shuningdek keyingi jinoiy harakatlarning oldini olish yoki to'xtatish uchun imkoniyatlar shuncha ko'p bo'ladi. Protsessual muddatlar protsessual faoliyatni tartibga soladi, uning izchilligini ta'minlaydi va yuridik natijaga erishishni kafolatlaydi.

Jinoyat protsessual muddatlarning quyidagi xususiyatlarini ko'rsatish mumkin:

1) faqat O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida yoki unga muvofiq jinoyat ishini yuritishga mas’ul bo‘lgan shaxslar tomonidan belgilanadi va ular tomonidan o‘zgartirilishi mumkin. Jinoyat-protsessual kodeksining 8-bo‘limi normalari bevosita protsessual muddatlar va chiqimlarni tartibga soladi;

2) huquq institutlaridan biri bo‘lib, Jinoyat-protsessual kodeksiga asoslanadi va umummajburiy tusga ega;

3) jinoyat protsessual munosabatlarning boshlanishi, tamomlanishi va o‘zgarishiga asos bo‘ladi;

4) to‘xtatilishi, tamomlanishi, uzaytirilishi, tiklanishi va hisoblanishining rasmiy yuridik tartibi o‘rnatilgan;

5) ular vositasida jinoyat protsessual qonun hujjatlarining vazifalari ro‘yobga chiqariladi;

6) protsessual harakat (harakatsizlik)lar va ularning ketma-ketligi, uzluksizligi hamda izchilligi ta‘minlanadi.

Jinoyat haqidagi xabar bo‘yicha qaror qabul qilish muddati Jinoyat-protsessual kodeksi 329-moddasi 3-qismiga muvofiq, odatda, mumkin bo‘lgan eng uzoq muddatga - 10 sutkagacha uzaytiriladi, Jinoyat-protsessual kodeksining 329-moddasida nazarda tutilgan yakuniy qaror esa ko‘pincha ko‘rsatilgan muddat tugagan kunda qabul qilinadi. Bu nafaqat keyingi tergovni qiyinlashtiradi, balki jabrlanuvchini jinoyat bilan buzilgan huquqlar va erkinliklarni sud yo‘li bilan himoya qilish uchun odil sudlovdan o‘z vaqtida foydalanish imkoniyatidan mahrum etadi.

“Ayblanayotgan shaxs oqilona muddat ichida ishi sudda ko‘rilishi yoki ozod qilib yuborilish huquqiga ega”.	“Bolani ushlab turish, hibsga olish yoki qamoqda saqlash faqat noiloj chora sifatida va mumkin qadar qisqa vaqt mobaynida qo‘llanilishi lozim”
1966-yilgi “Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risida”gi Xalqaro Paktning 9-moddasi.	1989-yilgi “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi Konvensiyaning 37-moddasi b-bandi.

Jinoyat protsessida muddatlar xususiyatiga ko‘ra ikkiga bo‘linadi:

1) jinoyat ishini yuritish bilan bog‘liq **tashkiliy muddatlar** – protsessni yuritayotgan organlar faoliyatini tashkillashtirishni ta‘minlovchi muddatlar (tergovchi ishni tergov qilish rejasida, chaqiruv qog‘ozida, topshiriqda belgilagan tergov harakatlarining muddatlari protsessual muddatlar hisoblanmaydi, ular faqat tashkiliy ahamiyat kasb etadi);

2) **protsessual muddatlar** – jinoyat protsessi ishtirokchilari huquqlarini ta'minlovchi muddatlar. Huquqiy xususiyatga ega bo'lgan muddatlarga protsessual muddatlar deb e'tirof etiladi.

O'z navbatida protsessual muddatlarni quyidagicha tasniflash mumkin:

a) mazmuniga ko'ra: qat'iy, muqobil va shartli muddatlar;

b) belgilanishiga ko'ra: Jinoyat-protsessual kodeksida bevosita ko'rsatilgan; surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud belgilagan muddatlar;

v) kafolat yo'nalishiga qarab: jinoyat ishi qo'zg'atishning muqarrarligini; jinoyatlarning dastlabki tergov va sud muhokamasining tezligini; dastlabki tergovda qonunlarga rioya etilishi ustidan prokuror nazoratini; dastlabki tergovda qonunlarga rioya etilishi ustidan sud nazoratini; jinoiy sud ishlarini yuritish sohasidagi xalqaro hamkorlikka oid protsessual huquqlarni kafolatlaydigan muddatlar;

g) maqsadiga ko'ra: jinoyat ishini yuritishga mas'ul shaxslar faoliyatini tashkillashtirishga qaratilgan hamda taraflarning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan muddatlar;

d) tartibga solish uslubiga ko'ra: davriy va darhol muddatlar;

e) vazifasiga ko'ra: muayyan harakatni amalga oshirishga; undan saqlanishga qaratilgan muddatlar;

y) subyektga taalluqligiga ko'ra: jinoyat ish yuritishga mas'ul shaxslar uchun; protsessning boshqa ishtirokchilari uchun belgilangan muddatlar;

j) protsessual bosqichlarga taalluqliligiga ko'ra: jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichidagi; dastlabki tergov bosqichidagi; jinoyat ishini sudda ko'rish uchun tayinlash bosqichidagi; sud muhokamasi bosqichidagi; hukm, ajrim va qarorlarning qonuniyligi, asosliligi va adolatliligini tekshirish hamda ijro etishga oid bir qancha protsessual bosqichlarga taalluqli bo'lgan (shu jumladan, alohida toifadagi jinoyat ishlarini yuritishga oid) muddatlar.

“Odil sudlovni ta'minlash muddatlarining uzayib ketayotganligi insonlarning oqilona muddatlarda sud muhokamasiga bo'lgan huquqlarining buzilishiga olib keladi”.

1987 yilgi yevropa Ittifoqining “Jinoyat ishlari bo'yicha odil sudlovni imkon qadar soddalashtirish to'g'risida”gi tavsiyalari.

“Har bir inson unga Konstitutsiya yoki qonun orqali berilgan asosiy huquqlari buzilgan hollarda nufuzli milliy sudlar tomonidan bu huquqlarning samarali tiklanishi huquqiga ega”.

1948 yilgi BMTning Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi 8-moddasi.

Jinoyatlarning nafaqat ochiq-oydin, balki bilvosita belgilari mavjudligi ham darhol jinoyat ishlarini qo'zg'atishni talab etadi. Bu o'z navbatida,

jabrlanuvchilarning va jinoyat protsessida ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini samarali himoya qilishga; jinoyatlar mumkin qadar tez fosh qilinishiga; jinoyat protsessi muddatlarini, shuningdek protsessual xarajatlarni qisqartirishga; moddiy va mehnat resurslarini tejashga; jinoyat ishlarini qo'zg'atishni qonunga xilof ravishda rad etish hollarini, rad etishga doir materiallar hajmini, huquqni muhofaza qilish organlari ro'yxatga olish va hisob yuritishdan yashirgan jinoyatlar sonini kamaytirishga; jinoyat sodir etishga moyil shaxslarga ijobiy ta'sir ko'rsatishga; huquqni muhofaza qilish organlarining obro'sini oshirishga imkoniyat yaratadi.

Protsessual muddatlarni hisoblash bilan bog'liq masalalar O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining bir qator moddalarida aks etgan. Chunonchi, Jinoyat-protsessual kodeksining 110-moddasiga muvofiq, surishtiruv va dastlabki tergov o'tkazish jarayonida gumon qilinuvchi, ayblanuvchi ushlangan, so'roq qilish uchun chaqirilgan, qamoqqa olingan yoki majburiy keltirilgandan keyin darhol yoki yigirma to'rt soatdan kechiktirmay, so'roq qilinishi kerak. Shuningdek, 227-moddada surishtiruvchi, tergovchi, prokuror gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga nisbatan ushlab turish tarzidagi, sud esa qamoqqa olish yoki ekspertiza o'tkazish uchun shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish tarzidagi protsessual majburlov chorasini qo'llaganida, bu haqda yigirma to'rt soatdan kechiktirmasdan uning oila a'zolaridan biriga, ular bo'lmagan taqdirda esa, boshqa qarindoshlariga yoki yaqin kishilariga xabar berishi, shuningdek bu haqda ish yoxud o'qish joyiga ma'lum qilishi shart. Kodeksning 226-moddasida esa, ushlab turish muddati ushlangan militsiyaga yoki huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organga keltirilgan paytdan boshlab ko'pi bilan yetmish ikki soatni tashkil etadi. Tergovchi yoki prokuror tomonidan zarur va yetarli asoslar taqdim etilganda ushlab turish sudning qarori bilan qo'shimcha ravishda 48 soatga uzaytirilishi mumkinligi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida belgilangan muddatlar, shuningdek qonunda nazarda tutilgan hollarda surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning qarori yoki sudning ajrimi bilan tayinlangan muddatlar soatlar, sutkalar va oylar bilan hisoblanadi. Muddatlarni hisoblashda muddatning o'tishi boshlangan soat, sutka hisobga olinmaydi, ammo bu qoida ushlab turish, qamoqda saqlash va tibbiy muassasada bo'lish muddatlarini hisoblashga taalluqli emas.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, Qozog'iston Jinoyat-protsessual kodeksi 54-modda, Qirg'iziston Jinoyat-protsessual kodeksi 144-modda,


Armaniston Jinoyat-protsessual kodeksi 173-modda, Ozarbayjon Jinoyat-protsessual kodeksi 202-modda, Ukraina Jinoyat-protsessual kodeksi 89-modda, Estoniya Jinoyat-protsessual kodeksi 85-modda, Belarus Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 158 va 231-moddalar, Tojikiston Jinoyat-protsessual kodeksi 98-modda, Turkmaniston Jinoyat-protsessual kodeksi 112-moddasiga muvofiq, muddatlar soatlar, sutkalar, oylar va yillar bilan hisoblanadi.

Muddatni hisoblashda ishdan xoli vaqt ham e'tiborga olinadi. Muddatlar sutkalar bilan hisoblanganda muddat oxirgi sutkada soat 24-00 da tugaydi. Tegishli harakat sudda, prokuraturada yoki boshqa davlat muassasasida bajarilishi lozim bo'lsa, muddat ushbu muassasalarda ish vaqti tamom bo'lishi bilan tugaydi.

Oylar bilan hisoblanadigan muddat oxirgi oyning muddat boshlangan kuniga to'g'ri kelgan sanasida tugaydi, muddatning tugashi tegishli sanasi bo'lmagan oyga to'g'ri kelsa, muddat shu oyning so'nggi sutkasida tamom bo'ladi. Muddatning tugashi ishdan xoli kunga (dam olish, bayram kuniga) to'g'ri kelsa ushlab turish, qamoqda saqlash va tibbiy muassasada bo'lish muddatini hisoblash hollaridan tashqari muddat shundan keyingi birinchi ish kunida tugaydi.

13.2. Protsessual muddatlarni hisoblash, uzaytirish va tiklash

Jinoyat protsessida vaqtning umumiy birliklaridan bo'lgan soat, sutka, oy va yillar asosida protsessual vazifalar bajarilishining qat'iy chegaralari belgilanadi. Jinoyat-protsessual huquqida muddatlar yuridik fakt sodir bo'lgan daqiqadan tegishli daqiqagacha prinsipi asosida hisoblanadi. Shu bois, muddatlar soat va sutkalar bilan hisoblanganda muddatning o'tishi boshlangan soat hisobga olinadi.



Protsessual majburlov choralari qo‘llanganda, muddatlarni hisoblash tartibiga muvofiq, shaxsni ushlab turish, qamoqda saqlash va tibbiy muassasaga joylashtirishda muddat ushbu choralar amalda qo‘llanilgan paytdan boshlab hisoblanadi. Bunda O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 226-moddasidagi ushlangan militsiyaga yoki huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organga keltirilgan paytdan boshlab ko‘pi bilan yetmish ikki soatni tashkil etuvchi va tergovchi yoki prokuror tomonidan zarur hamda yetarli asoslar taqdim etilganda sudning qarori bilan qo‘shimcha ravishda qirq sakkiz soatga uzaytirilishi mumkin bo‘lgan, shuningdek alohida hollarda ushlab turilgan gumon qilinuvchiga nisbatan sud tomonidan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasi qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan o‘n kunlik ushlab turish muddati, 245-moddadagi jinoyatlar tergov qilinayotganda qamoqda saqlab turishning uch, besh, yetti, to‘qqiz oy va bir yilgacha bo‘lgan qamoqda saqlab turish muddati, 268-moddadagi shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish to‘g‘risidagi iltimosnomani ko‘rib chiqib, shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish to‘g‘risida yoki shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirishni rad qilish haqida ajrim chiqarilgan kundan e‘tiboran yetmish ikki soat ichida tibbiy muassasaga joylashtirilayotgan shaxs, uning himoyachisi, jabrlanuvchining vakili, guvohning advokati va qonuniy vakil tomonidan apellyatsiya tartibida shikoyat berilishi yoxud prokuror tomonidan protest bildirilishi, shuningdek sudning shikoyat yoki ajrimni materiallar bilan birga apellyatsiya instansiyasi sudiga yuborishi shart bo‘lgan qirq sakkiz soat hamda apellyatsiya instansiyasi sudi ushbu materiallarni shikoyat yoki protest bilan birga ular kelib tushgan paytdan e‘tiboran ko‘rib chiqishning yetmish ikki soatlik muddati o‘tgach shaxs darhol ozod qilinishi lozim.

Shikoyat, iltimosnoma yoki boshqa hujjat muddat tugagunga qadar uni qabul qilishga vakolatli shaxsga topshirilgan yoxud xabar qilingan bo‘lsa, muddatga rioya etilgan deb hisoblanadi. Shikoyat, iltimosnoma yoki boshqa hujjat muddat tugagunga qadar pochtaga topshirilgan bo‘lsa, qamoqda saqlanayotgan yoxud tibbiy muassasadagi shaxslar uchun esa, dastlabki qamoq yoki tibbiy muassasa ma‘muriyatiga topshirilgan bo‘lsa, muddat o‘tgan deb hisoblanmaydi.

Protsessual muddatlarni uzaytirish tartibiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida belgilangan muddatlar faqatgina unda nazarda tutilgan hollardagina uzaytirilishi mumkin. Jumladan, Jinoyat-protsessual kodeksining 226-moddasida belgilangan ushlab turishning yetmish ikki soatlik muddati tergovchi yoki prokuror tomonidan zarur va yetarli asoslar taqdim etilganda ushlab turish sudning

qarori bilan qo‘shimcha ravishda qirq sakkiz soatga uzaytirilishi mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 246-moddasida belgilangan qamoqda saqlab turishning uch oylik muddatini: 5 oygacha - Qoraqalpog‘iston Respublikasi prokurori yoki viloyat, Toshkent shahar prokurori va ularga tenglashtirilgan prokurorlarning; 7 oygacha - O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori o‘rinbosarining; 9 oygacha - O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining; bir yilgacha - alohida murakkab ishlar tergov qilinayotgan hollarda og‘ir hamda o‘ta og‘ir jinoyatlar sodir etganlikda ayblanayotgan shaxslarga nisbatan O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining iltimosnomasiga binoan uzaytirish imkoni sud tomonidan ko‘rib chiqilib, bunda muddatni yana uzaytirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 351-moddasidagi dastlabki tergovning uch oylik muddati tegishincha Qoraqalpog‘iston Respublikasi prokurori yoki viloyat, Toshkent shahar prokurori va unga tenglashtirilgan prokuror tomonidan besh oygacha uzaytirilishi mumkin. Keyinchalik dastlabki tergov muddati faqat O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining o‘rinbosari tomonidan yetti oygacha va O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan to‘qqiz oygacha uzaytirilishi mumkin. Alohida hollarda, sodir etilgan jinoyatning og‘irligini hamda tergov qilinayotgan ishning murakkabligini inobatga olib, dastlabki tergov muddati O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan bir yilgacha uzaytirilishi mumkin.

Qonunda nazarda tutilgan hollarda surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning qarori yoki sudning ajrimi bilan muayyan harakatni bajarish uchun belgilangan muddat protsessning manfaatdor ishtirokchisi qilgan iltimosga binoan muddatni belgilagan surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning qarori yoki sudning ajrimi bilan uzaytirilishi mumkin.

Protsessual muddatni tiklash asoslari va tartibiga muvofiq, uzrli sabablarga ko‘ra o‘tkazib yuborilgan muddatni tiklash uchun asos bo‘lib, ish yuritayotgan surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning qarori yoki sudning ajrimi xizmat qiladi. Surishtiruvchi, tergovchi, prokuror o‘tkazib yuborilgan muddatni tiklash haqidagi iltimosnomani qanoatlantirish yoki rad etish xususida qaror, sud esa ajrim chiqaradi. O‘tkazib yuborilgan muddatni tiklashning rad etilishi ustidan umumiy tartibda shikoyat qilinishi va protest bildirilishi mumkin.

Belgilangan muddat o‘tkazib yuborilgandan so‘ng shikoyat qilinganda ajrim yoki qarorning ijrosi manfaatdor protsess ishtirokchisining iltimosiga

binoan, o‘tkazib yuborilgan muddatni tiklash haqidagi masala hal qilinguniga qadar to‘xtatib turilishi mumkin.

13.3. Jinoyat protsessida protsessual chiqimlar tushunchasi va turlari

Protsessual chiqimlar instituti jinoyat ishlari yurituvini tizimida muhim o‘rin egallaydi hamda shaxs huquq va qonuniy manfaatlariga rioya etilishining muhim kafolati hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 40-bobidan o‘rin olgan protsessual chiqimlar va ularni qoplash tartibiga oid normalarning belgilanishi, ularda shu jumladan, protsessual chiqimlar ro‘yxati va ularni qoplash asoslarining ko‘zda tutilganligi jinoyat protsessida ishtirok etayotgan shaxslarning mulkiy manfaatlarini ta‘minlashga xizmat qiladi.

Ta‘kidlash lozimki, jinoyat protsessida protsessual chiqimlar instituti ko‘p jihatdan fuqarolik-protsessual huquqi, xo‘jalik-protsessual huquqidagi analogik institutlar bilan o‘xshash bo‘lsa-da, boshqa tomondan jinoyat-protsessual faoliyat ko‘p jihatdan ommaviy asoslarga egaligi bilan ulardan farqlanadi.

Bundan tashqari, protsessual chiqimlar instituti jinoyat protsessining boshqa institutlari bilan ham chambarchas bog‘liqdir, zero, jinoyat-protsessual qonunchilik yaxlit holda umumiy tizimga ega bo‘lib, jinoyat-protsessual faoliyat sohasiga jalb qilingan fuqarolarning huquqlariga qat‘iy va og‘ishmay rioya etilishini ta‘minlaydi.

Protsessual chiqimlar – jinoyat ishlari yurituvini amalga oshirayotgan subyektlar (surishtiruv, dastlabki tergov, sud) va boshqa protsess ishtirokchilarining jinoyat qonuni bilan qo‘riqlanadigan huquqiy munosabatlarni jinoiy buzilishi va uning holatlarini aniqlash bo‘yicha jinoyat-protsessual faoliyatni amalga oshirishga oid hamda jinoyat sodir etishda aybdor deb topilgan shaxsdan va (yoki) jinoyat sud ishida ishtirok etayotgan boshqa shaxslardan, alohida hollarda esa, davlatdan undiriladigan xarajatlari.

Protsessual chiqimlar:

1) jabrlanuvchilarga va ularning vakillariga, guvohlarga, ekspertlarga, mutaxassislarga, tarjimonlarga, xolislariga ularning protsessual harakatlar

o'tkaziladigan joyga kelib ketish, turar joyni ijaraga olish xarajatlarini qoplash uchun, shuningdek sutkalik xarajat puli tariqasida beriladigan summadan;

2) doimiy ish haqi olmaydigan jabrlanuvchilarga va ularning vakillariga, guvohlarga, xolislariga ularni odatdagi mashg'ulotidan chalg'itganlik uchun to'lanadigan summadan;

3) ekspertlarga, tarjimonlarga, mutaxassislariga ular surishtiruv, dastlabki tergov yoki sudda o'z vazifalarini bajarganligi uchun to'lanadigan haqdan, ana shu vazifalar xizmat topshirig'i tartibida bajarilgan hollar bundan mustasno;

4) O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 50-moddasiga muvofiq sudlanuvchi to'lovdan ozod qilingan taqdirda yuridik yordam ko'rsatganlik uchun himoyachiga to'lanadigan haqdan;

5) ashyoviy dalillarni saqlash va jo'natish bilan bog'liq xarajatlar summasidan;

6) ekspertiza muassasalarida ekspertiza o'tkazish uchun sarflangan summadan;

7) shaxslarni ushlab, majburiy keltirish va qidirish uchun qilingan xarajatlardan;

8) jinoyat ishini yuritishda qilingan boshqa xarajatlardan iborat bo'ladi.

Jinoyat ishlarini ko'rib chiqish va tergov qilish bilan bog'liq xarajatlarni ularning mazmuni va protsessual qonunchilikda belgilangan qoplash tartibidan kelib chiqqan holda shartli ravishda ikki guruhga ajratishimiz mumkin:

a) **kompensatsiya ko'rinishidagi to'lovlar** – ishtirokchilar sarflagan xarajatlarni qoplash uchun ularga to'lanadigan pul mablag'i;

b) **benefitsiar ko'rinishdagi to'lovlar** – jinoyat sud ish yurituv jarayonidagi o'z majburiyatlarini bajarganligi uchun to'lanadigan mukofot puli tariqasidagi pul mablag'i.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sud Plenumining 2009 yil 24 noyabrdagi "Jinoyat ishlari bo'yicha protsessual chiqimlarni undirish amaliyoti to'g'risida"gi 13-son qaroriga binoan protsessual chiqimlarga tegishli boshqa xarajatlar deganda, jinoyat ishi bo'yicha bevosita shaxsning aybdorligiga doir dalillarni to'plash va tekshirish yuzasidan surishtiruv, tergov organlari va sudlar tomonidan qilingan sarf-xarajatlar tushuniladi. Boshqa xarajatlarga, jumladan, tergov eksperimenti yoki ekspertiza o'tkazish chog'ida buzilgan yoki yo'q qilingan narsalar qiymatini qoplash; jinoyat ishini alohida ish yurituvga ajratish; tanib olish uchun ko'rsatilgan

shaxslar (ayblanuvchilardan tashqari) xarajatlarini qoplash bilan bogʻliq sarflar kiritilishi mumkin³¹.

Ayni paytda esa, mazkur Qarorga koʻra quyidagilar jinoyat ishlari boʻyicha protsessual chiqimlarga kirmaydi:

– guvoh, jabrlanuvchi, fuqaroviy daʼvogar, fuqaroviy javobgar va ularning vakillari, ekspert, mutaxassis, tarjimon, xolis, jamoat ayblovchisi va jamoat himoyachisi tariqasida chaqiriladigan shaxsning surishtiruv, tergov organlari, prokuror yoki sudga chaqirilganligi bilan bogʻliq vaqt uchun ularning ish joyida qonunga koʻra saqlanib qoluvchi oʻrtacha ish haqi;

– ekspert, mutaxassis, tarjimonga u surishtiruv, dastlabki tergov yoki sudda oʻz vazifalarini bajarganligi uchun toʻlanadigan haq, bosharti bu vazifalar xizmat topshirigʻi tartibida bajarilganda;

– mazkur ishni surishtiruv, dastlabki tergov organlari va sudda yuritish bilan bogʻliq devonxona va pochta xarajatlari.

Jabrlanuvchilarga va ularning vakillariga, guvohlarga, ekspertlarga, mutaxassislarga, tarjimonlarga, xolislarga ularning protsessual harakatlar oʻtkaziladigan joyga kelib ketish, turar joyni ijaraga olish xarajatlarini qoplash uchun, shuningdek sutkalik xarajat puli tariqasida beriladigan summa; doimiy ish haqi olmaydigan jabrlanuvchilarga va ularning vakillariga, guvohlarga, xolislarga ularni odatdagi mashgʻulotidan chalgʻitganlik uchun toʻlanadigan summa; ekspertlarga, tarjimonlarga, mutaxassislarga ular surishtiruv, dastlabki tergov yoki sudda oʻz vazifalarini bajarganligi uchun toʻlanadigan haq, ana shu vazifalar xizmat topshirigʻi tartibida bajarilgan hollar bundan mustasno; va Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 50-moddasiga muvofiq sudlanuvchi toʻlovdan ozod qilingan taqdirda yuridik yordam koʻrsatganlik uchun himoyachiga toʻlanadigan haq surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning qarori yoki sudning ajrimiga muvofiq byudjet mablagʻlari hisobidan toʻlanadi.

Oʻzbekiston Respublikasining “Guvohlar, jabrlanuvchilar, ekspertlar, mutaxassislar, tarjimonlar va xolislarning qilgan xarajatlarini toʻlash tartibi va miqdorlari toʻgʻrisida”gi Qonuniga koʻra surishtiruv organiga, tergovchi, prokuror huzuriga yoki sudga chaqiriladigan guvohlar, jabrlanuvchilar, ekspertlar, mutaxassislar, tarjimonlar va xolislarga oʻz turar joyidan shu chaqirilgan yerga kelish va bu yerdan qaytib ketish xarajatlari korxonalar,

³¹ Oʻzbekiston Respublikasi Oliy sud Plenumining 2009-yil 24-noyabrdagi “Jinoyat ishlari boʻyicha protsessual chiqimlarni undirish amaliyoti toʻgʻrisida”gi 13-son Qarori // yOʻzbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining Axborotnomasi. 2009-yil.

muassasalar va tashkilotlarning xodimlariga xizmat safariga borish va qaytish xarajatlarini qoplash uchun belgilangan tartibda to‘lanadi.

Guvohlar, jabrlanuvchilar, ekspertlar, mutaxassislar, tarjimonlar va xolislar o‘zlarining doimiy yashash joylaridan tashqaridagi surishtiruv organiga, tergovchi, prokuror huzuriga yoki sudga chaqirilganda va ular shu chaqirilgan joyda bir sutkadan ortiq turishlari lozim bo‘lganda, ularga turar joy binosini ijaraga olganlik uchun qilingan xarajatlar va sutkalik xarajatlar, shuningdek xizmat safari bilan bog‘liq qo‘shimcha xarajatlar korxonalar, muassasalar va tashkilotlar xodimlarining xizmat safari bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlarni qoplash uchun belgilangan tartibda va miqdorda to‘lanadi.

Ekspertlar, mutaxassislar bajargan ish uchun eng kam ish haqiga nisbatan - ishning bir soatiga 0,015 - 0,020 koeffitsienti bo‘yicha haq to‘lanadi.

Tarjimonlar yozma tarjimaga - har 1000 bosma (qo‘lyozma) belgi uchun eng kam ish haqiga nisbatan - 0,010 - 0,015 koeffitsienti bo‘yicha haq oladilar.

Sud majlislarida yoki surishtiruv organlari va dastlabki tergov organlari o‘tkazadigan so‘roqlarda tarjimon sifatida qatnashganlik uchun tarjimonlar eng kam ish haqiga nisbatan - ishning bir soatiga 0,015 - 0,020 koeffitsienti bo‘yicha haq oladilar.

Ekspertlar, mutaxassislar va tarjimonlar bajargan ishlari uchun surishtiruv yoki dastlabki tergov organlarining qaroriga yoxud sudning ajrimiga binoan haq oladilar.

Bu haqning miqdori ekspert, mutaxassis yoki tarjimonni chaqirgan idora tomonidan ularning malakasi va ishning murakkabligi, shuningdek bajarilgan ish uchun sarflangan vaqtni hisobga olib belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 20-iyundagi “Advokatlar tomonidan ko‘rsatilgan yuridik yordam uchun davlat hisobidan haq to‘lash mexanizmini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 137-son qarorida fuqaroni yuridik yordam ko‘rsatilganligi uchun haq to‘lashdan ozod qilish to‘g‘risida surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning qarori, sudning ajrimi gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchiga advokat tomonidan yuridik yordam ko‘rsatish bo‘yicha xarajatlarni davlat hisobiga o‘tkazish uchun asos hisoblanishi; oilasida har bir oila a‘zosiga to‘g‘ri keladigan yalpi oylik daromad yuridik yordam ko‘rsatilganligi uchun haq to‘lashdan ozod qilish to‘g‘risida qaror (ajrim) qabul qilingan kundagi eng kam oylik ish haqining 1,5 baravaridan ortiq bo‘lmagan shaxslar advokatlar tomonidan yuridik yordam ko‘rsatilganligi

uchun haq to‘lashdan ozod qilinadi va xarajatlar davlat hisobiga o‘tkazilishi va gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchi himoyachidan voz kechishi bilan bog‘liq protsessual harakatda advokat ishtirok etishi hollarida, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 52-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq jinoyat ishida himoyachining qatnashishi majburiy deb hisoblangan hollarda ham yuridik yordam uchun haq to‘lash bo‘yicha xarajatlar davlat hisobiga o‘tkazilishi belgilangan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2008-yil 2-dekabrda 1878-son bilan ro‘yxatga olingan, Adliya vazirligi va Moliya vazirligi qarori bilan tasdiqlangan “Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchiga advokatlar tomonidan yuridik yordam ko‘rsatish bo‘yicha xarajatlarni davlat hisobiga o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchiga advokatlar tomonidan yuridik yordam ko‘rsatish bo‘yicha xarajatlarni davlat hisobiga o‘tkazish tartibi belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sud Plenumining 2009-yil 24-noyabrda “Jinoyat ishlari bo‘yicha protsessual chiqimlarni undirish amaliyoti to‘g‘risida”gi 13-son qarorida protsessual chiqimlarni undirish masalalari yuzasidan sudlarga tushuntirish berib o‘tilgan³².

Guvoh tariqasida, shuningdek jabrlanuvchi, fuqaroviy da‘vogar, fuqaroviy javobgar va ularning vakillari, ekspert, mutaxassis, tarjimon, xolis, jamoat ayblovchisi va jamoat himoyachisi tariqasida chaqiriladigan shaxsning surishtiruvchiga, tergovchiga, prokurorga yoki sudga chaqirilganligi bilan bog‘liq butkul vaqt uchun ularning ish joyida o‘rtacha ish haqi saqlab qolinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 165-moddasiga binoan, xodim davlat yoki jamoat vazifalarini bajarayotgan vaqtida (saylov huquqini amalga oshirish, deputatlik vazifalarini bajarish, tibbiy-mehnat ekspertiza komissiyasi ishida ishtirok etish, harbiy burchni bajarish, surishtiruv organiga, tergovchi, prokuror huzuriga yoki sudga guvoh, jabrlanuvchi, ekspert, mutaxassis, tarjimon, xolis tariqasida chaqirilganda, xuddi shuningdek sud majlislarida xalq maslahatchisi, jamoat ayblovchisi va jamoat himoyachisi, jamoat birlashmalari va mehnat jamoalarining vakili sifatida ishtirok etganda, shuningdek qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda) ish beruvchi uni ish joyini (lavozimini) saqlagan holda ishdan

³² O‘zbekiston Respublikasi Oliy sud Plenumining 2009-yil 24-noyabrda “Jinoyat ishlari bo‘yicha protsessual chiqimlarni undirish amaliyoti to‘g‘risida”gi 13-son qarori // O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining Axborotnomasi. 2009-yil.

ozod qilishi shart bo'lib, bunda ana shu vazifalarni bajarish vaqtida xodimning o'rtacha ish haqi saqlanadi.

Mehnat kodeksining 169-moddasida xodimga tegishli bo'lgan o'rtacha ish haqini hisoblab chiqarish tartibi barcha hollarda (kafolatli to'lovlarni berish, ta'til vaqti uchun haq to'lash, vaqtincha boshqa ishga o'tkazilganda, zararni qoplashda, majburiy progul qilinganda va boshqa hollarda ish haqi to'lash), pensiya tayinlash uchun o'rtacha ish haqini hisoblab chiqarishni istisno etganda, O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan belgilanishi qayd etilgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 11-martdagi 133-son qarori bilan "Xodimlarning davlat yoki jamoat vazifalarini bajarishi, shuningdek ularning jamiyat manfaatlariga doir harakatlar qilishi bilan bog'liq kafolatli to'lovlarni to'lash tartibi" tasdiqlangan.

13.4. Protsessual chiqimlarni undirish tartibi

Protsessual chiqimlarni undirish tartibi ham Jinoyat-protsessual kodeksida belgilangan bo'lib, unga binoan protsessual chiqimlar Jinoyat-protsessual kodeksida nazarda tutilgan holatlardan tashqari, qoida tariqasida mahkumlardan undiriladi yoki davlat hisobiga o'tkaziladi. Bunda sud protsessual chiqimlarni, tarjimonga to'langan summadan tashqari, mahkumdan undirishga haqli. Protsessual chiqimlar jazodan ozod qilingan mahkum, shuningdek jazo tayinlanmagan mahkum zimmasiga yuklatilishi mumkin. Sud bir necha sudlanuvchini aybli deb topgan taqdirda, ularning har biridan qancha miqdorda protsessual chiqimlarni undirish lozimligini belgilab, bu holda sud aybning og'ir yoki yengilligini, jinoyat uchun javobgarlik darajasi va mahkumlarning mulkiy ahvolini inobatga oladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sud Plenumining 1998-yil 11-sentabrdagi "Jinoiy harakatlar oqibatida yetkazilgan moddiy zararni qoplash masalasiga doir sud amaliyoti to'g'risida"gi 21-son qarorida ish bo'yicha bir necha shaxslar aybli deb topilgan taqdirda, sud xarajatlari mahkumlar zimmasiga ulardan birining ayb darajasi va mulkiy ahvoli inobatga olinib yuklatiladi³³.

Protsessual chiqimlarni davlat hisobiga o'tkazish tartibiga muvofiq, sudlanuvchi oqlangan yoki O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual

³³ O'zbekiston Respublikasi Oliy sud Plenumining 1998-yil 11-sentyabrdagi "Jinoiy harakatlar oqibatida yetkazilgan moddiy zararni qoplash masalasiga doir sud amaliyoti to'g'risida"gi 21-son qarori. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorlari to'plami 1991-2006. T.2. –T.: 2007. – B.170.

kodeksining 83-moddasida belgilangan reabilitatsiya asoslariga ko‘ra ish tugatilgan taqdirda protsessual chiqimlar davlat hisobiga o‘tkaziladi. Sudlanuvchi bir ayblov bo‘yicha oqlangan, boshqa ayblov bo‘yicha esa aybli deb topilgan bo‘lsa, sud u aybli deb topilgan ayblov bilan bog‘liq protsessual chiqimlarni to‘lashni uning zimmasiga yuklaydi.

Protsessual chiqimlar undirilishi lozim bo‘lgan shaxsning to‘lovga moddiy imkoniyati bo‘lmagan taqdirda chiqimlar davlat hisobiga o‘tkaziladi. Mahkumning protsessual chiqimni to‘lashi uning qaramog‘ida bo‘lganlarning moddiy ahvoriga jiddiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lsa, sud mahkumni protsessual chiqimlarning hammasini yoxud bir qismini to‘lashdan ozod etishga haqli bo‘lib, mahkum huquqiy yordam uchun to‘lovdan ozod etilgan taqdirda advokat mehnatiga haq to‘lash bilan bog‘liq protsessual chiqimlar, shuningdek tarjimonga beriladigan pullar davlat hisobidan to‘lanadi.

Surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudga qonunda belgilangan tartibda chaqirilgan protsess ishtirokchisining uzrsiz sabablarga ko‘ra kelmasligi oqibatida ishning sudda ko‘rilishini yoxud tergov harakatlari o‘tkazishni kechiktirish bilan bog‘liq protsessual chiqimlar ana shu kelmagan shaxsdan undiriladi.

Jamoat birlashmasi yoxud jamoaga yuklatiladigan moddiy javobgarlik:

– advokat uzrsiz sabablarga ko‘ra kelmagani uchun tegishli advokatlar byurosiga, hay‘atiga yoki firmasiga;

– jamoat ayblovchisi yoki jamoat himoyachisi uzrsiz sabablarga ko‘ra kelmagani uchun tegishli jamoat birlashmasi yoxud jamoaga yuklatilishi mumkin.

Sud voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlar yuzasidan protsessual chiqimlarni to‘lashni voyaga yetmaganning xulq-atvori ustidan tegishli nazorat yo‘qligida aybi bo‘lgan taqdirda voyaga yetmagan mahkumning ota-onasiga yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarga yuklashi mumkin.

Jabrlanuvchining shikoyati bo‘yicha qo‘zg‘atilgan ish yuzasidan sudlanuvchi oqlangan taqdirda sud protsessual chiqimlarni ish yuritilishiga sabab bo‘lgan shikoyatni bergan shaxsdan to‘liq yoki qisman undirishga haqlidir.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2008-yil 12-dekabdagi “Ruhiy kasallikka chalingan shaxslarga nisbatan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini qo‘llash bo‘yicha sud amaliyoti

to'g'risida"gi 23-son qarorida³⁴ sud xarajatlari, jumladan, huquqiy yordam ko'rsatganlik uchun haq bunday shaxslardan Jinoyat-protsessual kodeksi 320-moddasiga ko'ra, undirilmaydi va davlat hisobidan to'lanishi belgilangan.



MAVZU BO'YICHA XULOSALAR

Ushbu mavzuni to'liq o'zlashtirish uchun talabalar O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi tegishli normalarini hamda mavzuni yoritish doirasida qayd etilgan tegishli Oliy sud Plenumi qarorlarini, shuningdek protsessual xarajatlarni qoplash tartibiga oid O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarni atroflicha o'rganishlari lozim.

MUAMMOLI SAVOLLAR VA KAZUSLAR

1. Protsessual muddatlar qonun bilan belgilangan vaqt oralig'i bo'lib, bu muddatda protsessual qarorlar va tergov harakatlari amalga oshiriladi yoki uni amalga oshirishdan tiyib turiladi. Protsessual chiqimlar jinoyat sudlov ishlarini yurgizishda sarf-xarajat qilingan pul shaklidagi chiqimlardir. Bu chiqimlar budget mablag'lari hisobidan yoki protsess ishtirokchilaridan undiriladi. **2009-yil 24-noyabrdagi Oliy sud Plenumining "Jinoyat ishlari bo'yicha protsessual chiqimlarni undirish amaliyoti to'g'risida"gi №13-sonli qarorini o'rganish va uning o'z kuchini yo'qotgan Oliy Sud Plenumining 1996-yil 20-dekabrdagi "Fuqarolik ishlari bo'yicha sud xarajatlari va jinoyat ishlari yuzasidan sud chiqimlarini undirish amaliyoti to'g'risida"gi qarori bilan o'zaro o'xshash va farqli jihatlarini tahlil qiling.**

2. Protsessual muddat jinoyat protsessi ishtirokchilarining huquq va majburiyatlarini o'z vaqtida amalga oshirishlariga hamda jinoyat sudlov ishlarini to'la, har tomonlama va xolisona yuritishlariga xizmat qiladi. Protsessual muddatlar qonun bilan yoki qonun doirasida vakolatli mansabdor shaxslar tomonidan belgilanadi. Muddatlarni hisoblash dalillarni topish, to'plash va tekshirishda, protsess ishtirokchilarining huquq va qonuniy manfaatlarini muhofaza qilishda, protsessual harakatlar va qarorlarining qonuniyligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. **Protsessual muddatlarni hisoblash, uzaytirish va tiklash tartibi**

³⁴ O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2008-yil 12-dekabrdagi "Ruhii kasallikka chalingan shaxslarga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi 23-son qarori// O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining Axborotnomasi. 2008-yil.

qanday? Protsessual muddatlarni protsessual kafolat tariqasida tahlil qiling.

1-kazus

Tergovchi tomonidan dastlabki tergov 31-dekabrda qo'zg'atilgan jinoyat ishi bo'yicha dastlabki tergovni keyingi yilning 1-aprel sanasida tamomladi. U ayblov xulosasini imzolash va jinoyat ishini sudga yuborish uchun jinoyat ishi materiallarini prokurorga yubordi. Prokuror jinoyat ishi bilan tanishib, tergovchi tomonidan dastlabki tergov muddatlari buzilganligini ko'rsatdi.

Prokurorning talabi qonuniymi? Protsessual muddatlar qay tartibda hisoblanadi? Ushbu holatda protsessual muddatlar talabi buzilganmi? Bu vaziyatning huquqiy oqibatlarini muhokama qiling.

2-kazus

Samarqand viloyatidan dastlabki tergov o'tkazish joyi bo'yicha Toshkent shahriga jabrlanuvchi sifatida jalb qilingan fuqaro ikki kun muddat mobaynida dastlabki tergov harakatlarida qatnashdi. Uning ishtirokida jabrlanuvchini so'roq qilish, ashyolarni ko'zdan kechirish, gumon qilinuvchini tanib olish uchun ko'rsatish kabi qator tergov harakatlari o'tkazildi. Jabrlanuvchi sifatida jalb qilingan fuqaro Toshkent shahriga poyezdda yetib kelgan, poyezdda uning shaxsiy buyumlarini o'g'irlab ketishgan. Tergovga jabrlanuvchi sifatida jalb qilingan fuqaro ikki kun davomida Toshkent shahrida "Malika" mehmonxonasida yashagan.

Fuqaroga tergovchi tomonidan dastlabki tergov harakatlariga jalb qilinishi munosabati bilan yetkazilgan protsessual xarajatlar hajmini aniqlang. Jabrlanuvchiga yetkazilgan xarajatlarni qoplashning protsessual tartibi qanday?



MUSTAQIL ISH UCHUN TOPSHIRIQLAR

- 1.** Xorijiy mamlakatlar jinoyat protsessida protsessual muddatlar va ularni hisoblash va uzaytirish tartibini tahlil qiling. Ish shakli – nazorat ishi (esse).
- 2.** Xorijiy mamlakatlar jinoyat-protsessual qonunchiligida protsessual chiqimlarni qoplash tartibini ko'rib chiqing. Ish shakli – nazorat ishi (esse).

GLOSSARIY

A

ADVOKAT – oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lgan va advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyani belgilangan tartibda olgan O'zbekiston Respublikasining fuqarosi O'zbekiston Respublikasida advokat bo'lishi mumkin.

ADVOKATLIK SO'ROVI – advokat kasbiy faoliyatini amalga oshirish jarayonida yuridik yordam ko'rsatilishi munosabati bilan davlat organlaridan, korxonalar, muassasa, tashkilotlardan hamda jamoat birlashmalaridan zarur bo'lgan ma'lumotnomalar, tavsifnomalar va boshqa hujjatlarni so'rashi va olishi.

ADOLAT HUQUQI – anglo-sakson huquq oilasi amalda bo'lgan mamlakatlar huquqining manbasi bo'lib, u Angliyada XV asrdan boshlab, Lord kansler tomonidan mustaqil sudya sifatida Qirol va uning kengashi nomidan yakka tartibda ishlarni ko'rishi natijasida va shu asosda tizimli ravishda “adolat” doktrinasi sifatida qabul qilingan qarorlar hisoblanadi.

ADOLATSIZ SUD QARORI – ishning aniqlangan holatlariga zid ravishda yoki moddiy yoxud protsessual qonunni jiddiy buzgan holda qabul qilingan sud hujjati (hukm, hal qiluv qarori, ajrim yoki qaror).

AJRIM – sud tomonidan chiqariladigan protsessual hujjatlardan biri, sud qarorlarining bir turi sifatida qaraladi. Ajrimlar birinchi instansiya va apellyatsiya, kassatsiya, nazorat sudlov instansiyalari tomonidan hamda yangi ochilgan holatlar bo'yicha sud majlisida va sud majlisidan tashqari fuqarolik sud ishlarini yuritishning barcha bosqichlarida qonunda belgilangan asoslarga muvofiq chiqariladigan akt (protsessual hujjat) sanaladi.

AYB E'LON QILISH – tergovchi, prokurorning jinoiy ta'qib ostidagi shaxsga uning nimada ayblanayotganligini ma'lum qilishdan iborat protsessual harakatidir.

AYBINI BO'YNIGA OLIB ARZ QILISH – bu o'zini odil sudlovga topshirish va tegishli jazoga tortilish maqsadida shaxsning sodir qilgan jinoyati haqida o'z ixtiyori bilan xabar berishidir.

AYBINI BO'YNIGA OLISH TO'G'RISIDAGI ARZ – ariza beruvchining o'zi sodir etgan jinoyati to'g'risida u shu jinoyatni sodir etishda gumon qilinmasdan va unga ayblov e'lon qilinmasdan oldin bergan xabari.

AYBLANUVCHI – Jinoyat protsessual kodeksida belgilangan tartibda ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilinishi haqida qaror chiqarilgan shaxs.

AYBLANUVCHINING QAYERDA EKANLIGI NOMA'LUMLIGI – jinoyat ishi yuzasidan ayblanuvchining qayerdaligi haqida surishtiruvchi, tergovchi muayyan ma'lumotga ega emasligidir (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 364-moddasi 1-qismi, 2-bandiga ko'ra, jinoyat sodir etgan shaxs aniq, biroq uning qayerda ekanligi noma'lum va ayni vaqtda ayblanuvchi o'zining qidirilayotganidan bexabar. Bunday holatda ayblanuvchi yashash joyini va ish joyini o'zgartirgan bo'lishi yoki uzoq safarga ketgan bo'lishi ham mumkin);

AYBLANUVCHINING YASHIRINGANLIGI – jinoyat ishi yuzasidan ayblanuvchi yoki sudlanuvchi haqida surishtiruvchi, tergovchi, muayyan ma'lumotga (ya'ni, uning qayerda turishi, uy, ish manzili haqidagi ma'lumotlar) ega, biroq ayblanuvchi o'zining qidirilayotganligini bilib, qasddan qochishga qilingan harakatidir (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 399-moddasi 2-qismi, 420-moddasi birinchi qismlarida ayblanuvchining suddan yashirinishga qilingan qasddan harakati tushuniladi).

AYBLOV – ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalb etish to'g'risidagi yuqori instansiya sudlarining qarorida, ayblov xulosasida, ayblov hukmida, ayblovga oid boshqa qarorlarida nazarda tutilgan ayblov xulosasi bandining mazmuni.

AYBLOV (JINOIY TA'QIB) FUNKSIYASI – bu jinoyat protsessi subyektlarining jinoyat sodir etgan shaxsni fosh etish, uning aybini, shuningdek jinoiy javobgarlikka oid boshqa holatlarni aniqlashga qaratilgan faoliyati. Uni prokuror, jamoat ayblovchisi, jabrlanuvchi va uning vakillari amalga oshiradi. Ayblov funksiyasi aniq shaxsga nisbatan jinoyat ishini qo'zg'atish, shaxsni jinoyat sodir etganligini fosh etish, gumon qilinuvchi va ayblanuvchiga nisbatan protsessual majburlov choralarini qo'llash, jinoyat sodir etishga gumonni shakllantirish, ayblovni e'lon qilish, davlat ayblovini sudda qo'llab-quvvatlashda namoyon bo'ladi.

AYBLOV XULOSASI – sodir etilgan jinoyat holatlari, shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish maqsadida jinoyat ishlarini sudga jo'natish uchun to'plangan dalillar yetarliligi to'g'risidagi tergovchining xulosasi bayon etilgan dastlabki tergovni tamomlashda tuziladigan protsessual hujjat.

AYBLOVNI O'ZGARTIRISH, TO'LDIRISH – tergov o'tkazish chog'ida dastlabki ayblovni qayta ko'rib chiqishni taqozo etadigan yangi dalillar to'plangan bo'lsa yoki dastlabki ayblovning noaniqligi yoxud

yuridik tavsifi noto'g'riligi ma'lum bo'lib qolsa, dastlabki ayblov o'zgartirilishi, qisman tugatilishi yoki to'ldirilishi lozim.

AYBSIZ HOLDA ZARAR YETKAZISH – shaxsni o'z qilmishining ijtimoiy xavflilik xususiyatini anglamaganligi, anglashi mumkin va lozim ham bo'lmaganligi yoki uning ijtimoiy xavfli oqibatlariga ko'zi yetmaganligi va ishning holatlariga ko'ra ko'zi yetishi mumkin va lozim ham bo'lmaganligi.

AYBSIZLIK PREZUMPSIYASI – 1) aybdorning huquqbuzarlikni qonuniy tartibda isbot qilinmaguncha, uni aybsiz deb faraz qilish; 2) gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi himoyalaniş huquqi bilan ta'minlanadi. Sud ishlarini yuritishning har qanday bosqichida malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlanadi. Ayblanuvchi, uning aybi qonunda nazarda tutilgan tartibda isbotlanmagunga va sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlanmagunga qadar, aybsiz hisoblanadi. Hech kim sud qaroriga asoslanmagan holda qamoqqa olinishi mumkin emas. Hech kim qiynoqqa solinishi, zo'raonlikka, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdagi tazyiqqa duchor etilishi mumkin emas; 3) odil sudlovning nazariya va amaliyotida, jinoyatchilikka qarshi kurashda to'g'ri yo'lni ko'rsatuvchi asosiy, muhim prinsiplardan biridir. Unga binoan, har bir jinoyat sodir etishda ayblanayotgan shaxs aybi qonunda belgilangan tartibda va qonuniy kuchga kirgan sud hukmi bilan isbotlanmagunga qadar aybsiz hisoblanadi.

ALIBI (ot lat. alibi – boshqa joyda)– ayblanuvchi yoki gumon qilinuvchini jinoyat sodir etilish vaqtida jinoyat joyida bo'lmaganligini va u bu vaqtda boshqa joyda bo'lganligini tasdiqlovchi fakt.

ALOHIDA TOIFADAGI JINOYAT ISHLARINI YURITISH – alohida kategoriyadagi jinoyat ishlarini dastlabki tergovda va sud jarayonida yuritishning maxsus tartibi. Bunga voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi to'g'risidagi ishlar; tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash bilan bog'liq ishlar; yarashuv borasidagi ishlar; sudgacha bo'lgan ish yurituvida amnistiya aktini qo'llash bilan bog'liq ishlar kiradi.

ALOHIDA FIKR – hay'atda ozchilik ovozga ega bo'lgan sudyaning bevosita maslahatxonada yozma bayon qiladigan va ishga ilova qilinadigan fikri.

AMNISTIYA (yun. amnestia – kechirish, gunohidan o'tish) – oliy davlat hokimiyati organining xususiy akti, ayrim shaxslarning jinoiy jazodan ozod qilish, jinoyat ishini bekor etish yoki jazoni yengillashtirish to'g'risidagi qarori. A. jinoyat va b. huquqbuzarliklarni sodir etgan shaxslarni jazodan to'la yoki qisman ozod etish, tayinlangan jazo turini

yengilrog‘i bilan almashtirish to‘g‘risidagi insonparvarlikni namoyish qiluvchi farmoyishdir. O‘zR Kons. 80-moddasiga ko‘ra, O‘zR Prezidenti A. to‘g‘risidagi hujjatlarni O‘zR Oliy Majlisining Senatiga taqdim etadi va bu taqdim asosida O‘zR sudlari tomonidan hukm qilingan shaxslarga nisbatan amnistiya to‘g‘risidagi hujjatlarni qabul qilish to‘g‘risidagi mutlaq vakolati orqali Senat tomonidan qabul qilinadi.

AMNISTIYA AKTINI QO‘LLASH – sudning e‘lon qilingan amnistiya aktini (aktlarini) qo‘llagan holda shaxsni javobgarlikdan yoki jazodan to‘liq yoxud yoki qisman ozod qilishga yoxud jazoni yengilrog‘i bilan almashtirishga qaratilgan vakolati.

ANONIM ARIZA – imzosiz, qalbaki imzoli yoki uydirma shaxs nomidan yozilgan, huquqlarni, erkinliklarni va qonuniy manfaatlarni amalga oshirishda yordam ko‘rsatish to‘g‘risidagi iltimos bayon etilgan murojaat – anonim ariza hisoblanadi.

APELLYATSIYA –qonuniy kuchga kirmagan sud hukmi, ajrim va qarorlari qonuniyligi, asosligi va adolatliligini tekshirishiga oid munosabatlarni tartibga soluvchi huquq instituti. A. – lotincha “appellatio” so‘zidan olingan bo‘lib, “murojaat” degan ma‘noni anglatib, birinchi instansiya sudining hal qiluv qarorlari va ajrimlarini qayta tekshirish instituti sanalib, fuqarolik ishlari bo‘yicha sudning hal qiluv qarori chiqqan kundan e‘tiboran yigirma kun ichida taraflar va ishda ishtirok etishga jalb qilingan shaxslar hal qiluv qarori ustidan apellyatsiya shikoyati berishlari, prokuror protest keltirishi mumkin. A. shikoyatlari va protestlari apellyatsiya instansiyasi nomiga yoziladi, lekin hal qiluv qarori chiqargan sudga beriladi.

APELLYATSIYA INSTANSIYASI – apellyatsiya tartibida ish ko‘ruvchi sudlar tizimi bo‘lib, ularga Qoraqalpog‘iston Respublikasi fuqarolik ishlari bo‘yicha Oliy sudi, fuqarolik ishlari bo‘yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlari; O‘zbekiston Respublikasi Harbiy sudi; O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlov hay‘ati; O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining Harbiy hay‘ati kiradi. Sudning qonuniy kuchga kirmagan hukmlari bo‘yicha birinchi instansiya sudining qaror va ajrimlari, sudgacha ish yurituvda qabul qilingan qarorlar ustidan berilgan shikoyat yoki protestlar bo‘yicha berilgan jinoyat, fuqarolik, xo‘jalik ishlarini ko‘rib chiquvchi mustaqil bosqich.

APELLYATSIYA INSTANSIYASI AJRIMI – ishda ishtirok etuvchi shaxslarning tushuntirishlari va prokurorning fikri tinglab bo‘linganidan keyin apellyatsiya instansiyasi sudi ajrim chiqarish uchun maslahatxonaga

chiqadi. Apellyatsiya instansiyasi sudining ajrimi ish ko‘rilganidan keyin darhol chiqariladi.

APELLYATSIYA INSTANSIYASI QARORI – jinoyat ishlari bo‘yicha sud ishni apellyatsiya tartibida ko‘rish natijasida quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi: 1) hukmni o‘zgarishsiz, shikoyat yoki protestni esa qanoatlantirishsiz qoldiradi; 2) birinchi instansiya sudining ayblov hukmini bekor qiladi hamda oqlov hukmi chiqaradi; 3) birinchi instansiya sudining hukmini bekor qiladi hamda ishni tugatadi; 4) birinchi instansiya sudining hukmini o‘zgartiradi; 5) birinchi instansiya sudining hukmini bekor qiladi hamda O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 419-moddasining 1-qismida ko‘rsatilgan asoslar bo‘yicha ishni qo‘shimcha tergov yuritish uchun yuboradi; 6) birinchi instansiya sudining hukmini yoki ajrimini bekor qiladi hamda ishni yangitdan sudga ko‘rish uchun yuboradi.

APELLYATSIYA PROTESTI – jinoyat ishlari bo‘yicha qonuniy kuchga kirmagan hukm ustidan shikoyat hukm qarori qaysi shaxslarning manfaatiga taalluqli bo‘lsa, shu shaxslar tomonidan, ya‘ni mahkum, oqlangan shaxs, jabrlanuvchi, fuqaroviy da‘vogar, fuqaroviy javobgar hamda tegishincha bu shaxslarning himoyachilari va vakillari tomonidan beriladi hamda u apellyatsiya shikoyati deb ataladi. A.p. – fuqarolik ishlari bo‘yicha sudning hal qiluv qarori chiqqan kundan e‘tiboran yigirma kun ichida prokuror tomonidan keltiriladigan (e‘tiroznoma) protest keltirish. Ushbu protest sudning qarori qonuniy, asosli va adolatli ekanligi yuzasidan tekshiruv o‘tkazish uchun asos bo‘ladi. Prokuror muayyan ishda ishtirok etgan-etmaganligidan qat’i nazar, sudning hal qiluv qarori, ajrimi, qarori ustidan o‘z vakolati doirasida protest keltiradi.

APELLYATSIYA SUDINING VAKOLATLARI – sud ishni apellyatsiya tartibida ko‘rib chiqqach, o‘z ajrimi bilan hal qiluv qarorini o‘zgarishsiz qoldirishga, shikoyat yoki protestni esa qanoatlantirmaslikka; ishni yangidan ko‘rish uchun yubormasdan hal qiluv qarorini o‘zgartirishga yoxud butunlay yoki qisman bekor qilishga va yangi hal qiluv qarori chiqarishga; qonunda nazarda tutilgan asoslar mavjud bo‘lgan taqdirda hal qiluv qarorini butunlay yoki qisman bekor qilishga va ishni birinchi instansiya sudiga yangidan ko‘rib chiqish uchun yuborishga; hal qiluv qarorini butunlay yoki qisman bekor qilishga hamda O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksining 97- va 100-moddalarida ko‘rsatilgan asoslarga ko‘ra ish yuritishni tugatishga yoxud arizani ko‘rmasdan qoldirishga haqli.

APELLYATSIYA TARTIBIDA ISH KO‘RILGANDA JAZONI KUCHAYTIRISHGA HAMDA OG‘IRROQ JINOYATGA DOIR QONUN MODDALARINI QO‘LLANISHGA YO‘L QO‘YILMASLIGI – bu bosqichda ish ko‘rilishining eng muhim qoidalaridan biri, ya‘ni sud jinoyat ishini apellyatsiya, kassatsiya yoki nazorat tartibida ko‘rgan vaqtida jazoni kuchaytirishga, shuningdek og‘irroq jinoyatga doir qonun moddalarini qo‘llashga haqli emas.

APELLYATSIYA TARTIBIDA ISH YURITISH – jinoyat ishlari yurituvda birinchi instansiya sudning qonuniy kuchga kirmagan hukmlari va ajrimlari ustidan shikoyat berish va protest bildirish, jinoyat ishlarini sudning qaysi hukmi (ajrimi) ustidan apellyatsiya shikoyati berilgan yoki protesti bildirilgan bo‘lsa, shu hukmning, ajrimning qonuniyligi, asosliligi va adolatliligini hal etish maqsadida jinoyat ishlarini apellyatsiya shikoyatlari va protestlari asosida apellyatsiya (ikkinchi) instansiya sudi tomonidan ko‘rish borasidagi faoliyatning qonun yo‘li bilan tartibga solinishi.

APELLYATSIYA TARTIBIDA SHIKOYAT BERISH SUBYEKTLARI – jinoyat ishlari bo‘yicha apellyatsiya tartibida shikoyat berish huquqi ishning yakunidan bevosita manfaatdor protsess ishtirokchilariga tegishli: mahkum, uning himoyachisi, qonuniy vakili, shuningdek jabrlanuvchi, uning vakili, fuqaroviy da‘vogar, fuqaroviy javobgar va ularning vakillari.

APELLYATSIYA SHIKOYATI – ishda ishtirok etuvchi shaxslar sudning qarori qonuniy, asosli va adolatli ekanligini tekshirish haqidagi shikoyat (ariza) bilan sudning hal qiluv qarori chiqqan kundan e‘tiboran yigirma kun ichida qonunda belgilangan tartibdagi murojaatidir.

APELLYATSIYA SHIKOYATI BERISH VA APELLYATSIYA PROTESTINI BILDIRISH – apellyatsiya shikoyati berilganligi qonuniy manfaatlari qabul qilingan hukm qaroriga qaysi fuqaroning manfaatlari bog‘liq bo‘lsa, shu fuqaroni himoya etishning huquqiy mexanizmini harakatga keltirib, apellyatsiya instansiyasi sudi zimmasiga hukm adolatliligi yoki yo‘qmi ekanligini aniqlash, shikoyatda keltirilgan har bir vajga asoslantirilgan javob berish, nomlari zikr etib o‘tilgan shaxslarning huquqlari hamda qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlari buzilayotganligini bartaraf etishga, ustidan shikoyat berilgan hukmning qonuniyligi, asosliligi va adolatliligini ta‘minlashga doir choralar ko‘rish majburiyatini yuklaydi.

AFV ETISH – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining aniq-individual hujjati bo‘lib, uning asosida jinoyat sodir etgan muayyan shaxs yoki

shaxslarning muayyan guruhi sud tomonidan tayinlangan jazodan ozod qilinishi yoki jazo yengillashtirilishi yoxud boshqa turiga almashtirilishi mumkin .

AFV ETISH – shaxsning sodir etgan jinoyati uchun tayinlangan yoki tayinlanadigan jazoni o‘tashdan ozod etish, ya’ni kechirish. Bunda har bir kishining shaxsi, avvalgi xizmatlari, o‘zini tutishi, tuzalish yo‘liga kirganligi, jinoyatning xarakteri (og‘ir-yengilligi), yetkazilgan zarar hamda kechirim so‘rash haqidagi iltimoslari e‘tiborga olinadi. Afv orqali shaxs jazoning hammasini o‘tashdan yoki o‘talmagan qismini o‘tashdan ozod qilinishi mumkin. O‘zbekistonda afv e‘lon qilish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga tegishlidir. (O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 93-modda, 23-bandi).

ASHYOVIY DALILLAR – ishni mazmunan hal qilish uchun ahamiyatli holatlarni aniqlash vositasi bo‘lib xizmat qilishi mumkin bo‘lgan narsalar ashyoviy dalillar hisoblanadi. Ashyoviy dalilni taqdim etuvchi yoki talab qilib olishni iltimos qilayotgan shaxs shu dalil orqali ish uchun ahamiyatli bo‘lgan qanday holatlarni aniqlash mumkinligini ko‘rsatishi shart.

ASHYOVIY DALILLAR – kelib chiqishini, kimga tegishliligini, ma’lum maqsadlarda foydalanilganligini yoki foydalanishga yaroqliligini, qo‘ldan qo‘lga o‘tganligi yoki turgan joyi o‘zgarganligini, u yoki bu moddalar, narsa, jarayon v.h.disalar ta’sir etganligini aniqlash mumkin bo‘lgan fizikaviy alomatlar yoki belgilarga, shuningdek ish holatlarini aniqlashga xizmat qiladigan har qanday boshqa alomatlar va belgilarga ega bo‘lgan narsa ashyoviy dalil hisoblanadi.

ASHYOVIY DALILLARNI SAQLASH VA QAYTARIB BERISH – ashyoviy dalillar sudning ajrimiga binoan ishga qo‘shib qo‘yiladi va ishda saqlanadi yoki alohida ro‘yxat qilinib, sudning ashyoviy dalillar saqlanadigan xonasiga topshiriladi. Sudga keltirib bo‘lmaydigan ashyolar turgan joyida saqlanadi. Ular batafsil ta’riflanishi, surg‘uchlangan, zarur hollarda esa, foto yoki video suratga ham olingan bo‘lishi lozim. Ashyoviy dalillar sudning hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirganidan keyin kimdan olingan bo‘lsa, o‘sha shaxslarga qaytarib beriladi yoki sud shu ashyolarga kimning huquqi bor deb topgan bo‘lsa, o‘sha shaxslarga beriladi.

ASHYOLARNI KO‘ZDAN KECHIRISH – ko‘zdan kechirish tergov harakatining turi bo‘lib, murda aniqlangan joyda jabrlanuvchining shaxsi, o‘lim joyi, vaqti, sababi v.h.latlarini, shuningdek ushbu jinoyatni sodir etgan jinoyatchini aniqlashga yordam beradigan belgilarni topish maqsadida surishtiruvchi yoki tergovchi tomonidan o‘tkaziladigan tergov harakati (O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 180-

modda). Ashyolarni koʻzdan kechirish xolislar va sud tibbiy ekspertiza xodimi (yoki boshqa shifokor) ishtirokida amalga oshiriladi.

B

BAYONNOMALAR – jinoyat protsessida tergov va sud harakatlarini olib borish tartibi va natijalarini qayd qiladigan protsessual hujjat.

BEVOSITA DALILLAR – jinoyat ishi toʻgʻrisida toʻgʻridan toʻgʻri maʼlumot beruvchi va jinoyat toʻgʻrisidagi bevosita belgilarga ega boʻlgan faktik maʼlumotlar.

BIRINCHI INSTANSIYA (lot. Instantia - bevosita yaqinlik) – maʼmuriy va sud huquqi termini boʻlib, mazkur muassasa yuqori va quyi turgan muassasaga nisbatan turgan bosqichidir.

BIRINCHI INSTANSIYA SUDI – sudlarga taalluqli fuqarolik ishlari fuqarolik ishlari boʻyicha tumanlararo, tuman (shahar) sudlarida koʻriladi, qonunda bunday ishlarni koʻrish boshqa sudlar vakolatiga berilgan hollar bundan mustasno. Viloyat, Toshkent shahar, Qoraqalpogʻiston Respublikasi Oliy sudi hududidagi har qanday fuqarolik ishini tumanlararo (shahar) sudidan olib birinchi instansiya sudi sifatida oʻzining ish yuritishiga qabul qilishga haqli. Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Sudi har qanday fuqarolik ishini Oʻzbekiston Respublikasining istalgan sudidan olib, birinchi instansiya sudi sifatida oʻzining ish yuritilishiga qabul qilib olishga haqli.

D

DA'VO – buzilgan huquqlarni tiklash toʻgʻrisidagi sud orqali yoki boshqa yoʻllar bilan qoʻyilgan talab.

DA'VODAN VOZ KECHISH – fuqaro yoki yuridik shaxs oʻzi taqdim etgan fuqaroviy daʼvoda voz kechish huquqiga ega. Agar daʼvoda voz kechish haqida yozma tarzda bildirilgan boʻlsa, ariza ishga tikiladi. Daʼvoda voz kechish toʻgʻrisidagi ariza jinoyat ishining istalgan paytida tergovchi tomonidan qabul qilinadi. Daʼvoda voz kechish toʻgʻrisidagi ariza sud majlisining istalgan paytida, lekin sud hukm chiqarish uchun maslahat xonasiga chiqib ketgunga qadar, sud tomonidan qaror chiqargan holda qabul qilinishi mumkin. Daʼvoda voz kechish qabul qilingandan soʻng daʼvo boʻyicha ish toʻxtatiladi.

DAVLAT AYBLOVI – jinoyat protsessida ayb e’lon qilish, ya’ni jinoyat qonuni bilan taqiqlangan qilmishni aniq bir shaxs tomonidan sodir qilinganlik isbotlanganligini jinoiy ta’qib organining rasmiy tasdiqlashi.

DAVLAT AYBLOVCHISI – davlat ayblovini qo’llab-quvvatlovchi mansabdor shaxs.

DALIL – taraflarning talablari va e’tirozlarini asoslaydigan holatlar mavjudligi yoki mavjud emasligini sud va boshqa organlarning qonunda belgilangan tartibda aniqlashiga asos bo’ladigan har qanday faktik ma’lumot va ishni to’g’ri hal qilish uchun ahamiyatga ega bo’lgan boshqa holatlar bo’yicha dalil hisoblanadi.

DALILY ASHYOLAR, HUJJATARNI TALAB QILIB OLISH – bu daliliy ahamiyatga ega bo’lgan ma’lumotni uning manbasidan isbot qilish subyektiga talab qilib olish hisoblanadi.

DALILLAR TAQDIM QILISH – har bir taraf o’zining talablari va e’tirozlariga asos qilib ko’rsatgan holatlarni isbotlashi shart. Sud qanday holatlar ish uchun ahamiyatga ega ekanligini, ularni taraflardan qaysi biri isbotlashi kerakligini aniqlaydi, hatto taraflar bu holatlarni dalil qilib keltirmagan bo’lsalar ham, ularni muhokamaga qo’yadi. Dalillar taraflar va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar tomonidan taqdim etiladi. Sud ularga qo’shimcha dalillar taqdim qilishni taklif etishi mumkin. Agar qo’shimcha dalillar taqdim etish taraflar va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar uchun qiyinchilik tug’dirsa, sud ularning iltimosnomasiga ko’ra dalillar to’plashda ularga yordam ko’rsatadi.

DALILLARGA BAHO BERISH – sud dalillarga ishning hamma holatlarini jamlab, ularni sud majlisida qonunga amal qilgan holda, har taraflama, to’liq va xolis ko’rib chiqish asosida ichki ishonch bo’yicha baho beradi. Har bir dalil ishga daxldorligi, maqbulligi va ishonchliligi nuqtayi nazaridan, dalillarning hammasi esa, yetarli darajada to’plangan yoki to’planmaganligi nuqtayi nazaridan baholanishi lozim. Agar tekshirish natijasida dalilning haqiqatga to’g’ri kelishi aniqlansa, u ishonchli deb e’tirof etiladi. Hech qanday dalil sud uchun oldindan belgilab qo’yilgan kuchga ega emas.

DALILLARNI BAHOLASH - surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudning ishdagi barcha holatlarni sinchkovlik bilan, to’la, har tomonlama va xolisona ko’rib chiqishga asoslangan holda qonunga va huquqiy ongga amal qilib o’zlarining ichki ishonchlari negizidagi faoliyatidir.

DALILLARNI BAHOLASH – sudya, prokuror, tergovchi, surishtiruvchining fikrlash, mantiq bilan bog’liq faoliyati bo’lib, u shundan iboratki, ular ishdagi barcha holatlarni sinchkovlik bilan, to’la, har

tomonlama va xolisona ko‘rib chiqishga asoslangan holda qonunga va huquqiy ongga amal qilib o‘zlarining ichki ishonchlari negizida isbotlash predmetiga kiradigan holatlarni aniqlash uchun har bir dalilning ishga aloqadorligi, maqbulligi va ishonchliligi hamda ular yig‘indisi yetarliligi haqida ishonch hosil qiladilar.

DALILLAR MAQBULLIGI deganda, dalilni qonunda belgilangan manbadan, faqat vakolatli shaxslar tomonidan olish usullari hamda qayd etish nuqtayi nazaridan tavsiflovchi sifat tushuniladi.

DALIL MAZMUNINING ISHONCHLILIGI (ya’ni, undagi haqiqiy ma’lumotlarning voqelikka muvofiqligi) to‘liq, so‘zsiz ishonchga egaligi e’tirof etilgan taqdirda u ishonchli hisoblanadi.

DALILLARNI QAYD ETISH – ashyoviy dalillarni muhrlash va qadoqlash, ovozli va videoyozuv yoki fotosuratga olish, shuningdek aniqlangan narsalarni xolislariga ko‘rsatish, daliliy ahamiyatga ega ma’lumotlarni tergov harakatlari bayonnomalari orqali qayd etish va mustahkamlash.

DALILLARNI TEKSHIRISH – jinoyat ishi holatlarini to‘g‘ri aniqlash uchun haqiqiy ma’lumotlarning ishonchliligini hamda ular olingan manbalarning sifatini sinchkovlik bilan, har tomonlama va xolisona aniqlash bo‘yicha surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudning faoliyatidir.

DALILLARNI TO‘PLASH – surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sud tomonidan daliliy axborotni topish, talab qilib olish, qabul qilib olish va protsessual qayd etishga hamda qonunda nazarda tutilgan protsessual harakatlarni amalga oshirishga yo‘naltirilgan.

DALILLARNING ALOQADORLIGI, MAQBULLIGI VA ISHONCHLILIGI – dalillar belgilangan tartibda to‘plangan va jinoyat qonunchiligida nazarda tutilgan shartlarga muvofiq bo‘lsagina, ular maqbul deb e’tirof etiladi. Tekshiruv natijasida haqiqatga muvofiq ekanligi aniqlangan dalillar ishonchli deb hisoblanadi.

DASTLABKI SUD MUHOKAMASI – prokuror, advokat va boshqa ish natijasidan manfaatdor taraflar ishtirokida ayblanuvchini sudga berish bilan bog‘liq masalalar muhokamasi.

DASTLABKI TERGOV – jinoyat protsessining bir bosqichi hisoblanadi. Jinoyat ishini qo‘zg‘atishdan boshlanib, uni sudga yuborish bilan bog‘liq dastlabki tergov organlarining protsessual faoliyati.

DASTLABKI TERGOV jarayonida ish bo‘yicha dastlabki xulosalarga kelinadi va so‘ngra jinoyat ishi sudga ko‘rib chiqiladi. Dastlabki tergov

jarayoniga jinoyat sodir etilganligini aniqlash, ayblanuvchi yoki ayblanuvchilarni qidirish va ularning jinoyatlarini oshkor qilish, jinoyat natijasida yetkazilgan zararni qoplash choralari ko'rish va yangi jinoyatlarni oldini olishdan iborat ishlar kiradi.

DASTLABKI TERGOV ORGANLARI – ichki ishlar, prokuratura va milliy xavfsizlik xizmati organlarining tergovchilari tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

DASTLABKI TERGOVNING UMUMIY SHARTLARI – dastlabki tergov organlari va prokurorlar tomonidan dastlabki tergovni amalga oshirish jarayonida protsessning barcha ishtirokchilariga taalluqli, rioya etishi shart bo'lgan protsessual-huquqiy ta'riflanuvchi, davlatning majburlov kuchi bilan ta'minlangan imperativ xususiyatga ega normativ-huquqiy talablar tizimidir.

DASTLABKI TERGOVNI QAYTA TIKLASH – to'xtatilgan jinoyat ishi bo'yicha dastlabki tergovni to'xtatish uchun asos bo'lgan holatlar bartaraf etilganda va qo'shimcha tergov harakatlarini o'tkazish zaruriyati tug'ilganda qayta tiklanadi.

DASTLABKI TERGOVNI TO'XTATISH– jinoyat-protsessual qonunchilikka binoan tergovchi, prokurorning qarori bilan to'xtatilgan jinoyat ishlari bo'yicha tergovchi, prokurorning protsessual faoliyati, jinoyat sodir etgan shaxs aniqlangunga qadar va yashiringan ayblanuvchi qidirib topilgungacha yoki qonunda belgilangan boshqa holatlar bartaraf etilgunga qadar jinoyat ishini yuritishni amalga oshirib bo'lmasligi tushuniladi.

DASTLABKI TERGOVNI TO'XTATISHNING SHARTLARI - tergovchi tomonidan ish yuritishga to'sqinlik qiladigan asoslarning vujudga kelishi orqali jinoyat ishini to'xtatish to'g'risidagi qarorning qabul qilinishi bilan bir paytda mavjud bo'lishi talab etiladigan holatlardir.

DASTLABKI TERGOV MUDDATI - jinoyat ishi qo'zg'atilgan kundan boshlab uch oy.

DASTLABKI TERGOVNING MUDDATINI UZAYTIRISH – qonunda belgilangan asoslar mavjud bo'lganida va tartibda tegishli vakolatga ega bo'lgan prokurorning dastlabki tergovni amalga oshirish muddatini uzaytirishi.

E

EHTIYOT CHORASI - ayblanuvchi, sudlanuvchi surishtiruvdan, dastlabki tergovdan va suddan bo‘yin tovlashining oldini olish; uning bundan buyongi jinoiy faoliyatining oldini olish; uning ish bo‘yicha haqiqatni aniqlashga xalal beradigan urinishlariga yo‘l qo‘ymaslik; hukmning ijro etilishini ta‘minlash maqsadida qo‘llaniladi.

EHTIYOT CHORASI SIFATIDA QAMOQQA OLISH - Jinoyat kodeksida uch yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo nazarda tutilgan qasddan sodir etilgan jinoyatlarga doir hamda ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilib, buning uchun Jinoyat kodeksida besh yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlarga doir ishlar bo‘yicha qo‘llaniladi.

EKSPERTIZA – (lotincha “response” – “javob”; “expertus” – “tajribali, tajribadan biluvchi”) mutaxassis yoki mutaxassislar guruhi tomonidan u yoki bu sohada malakali yechim talab qilinadigan masalalarni o‘rganish.

EKSPERT – xulosa berish uchun fan, texnika, san‘at yoki hunar sohasida maxsus bilimlarga ega bo‘lgan, belgilangan tartibda sud eksperti sifatida tayinlangan jismoniy shaxs.

EKSPERT XULOSASI – sud eksperti yoki sud ekspertlari komissiyasi tomonidan tuziladigan va sud-ekspert tekshirishlarining olib borilishini va natijalarini aks ettiradigan yozma hujjatdir.

EKSPERT XULOSASINI BAHOLASH – ekspert xulosasi surishtiruvchi, tergovchi yoki sud tomonidan ish bo‘yicha to‘plangan boshqa dalillar bilan birgalikda uning ilmiy asoslanganligi va ekspertiza o‘tkazish uchun belgilangan barcha protsessual qoidalarga rioya etilganligi nuqtayi nazaridan baholanadi.

EKSPERTIZA OBYEKTI – o‘zida daliliy ma‘lumot saqlovchi, ekspertga tadqiqot uchun yuboriladigan predmetdir.

EKSPERTIZA PREDMETI – bu maxsus bilimlar asosida aniqlanadigan faktik ma‘lumotlar (faktlar, jinoyat holati) bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 172-moddasi asosida shunday xulosaga kelish mumkin.

EKSPERTIZA TADQIQOTI USULLARI – bu muayyan ketma-ketlikda tanlab qo‘llaniladigan ekspertiza maqsadiga erishish yo‘lidagi tegishli yo‘l-yo‘riqlar tizimi hisoblanadi. Demak, ekspertiza usuli deganda, ilmiy asoslangan usullar tizimini va texnik vositalarni (apparatura, moslama, qurilmalar) tushunish lozim. Ekspertiza usuli – ilmiy asoslangan va maxsus obyektlarni o‘rganishga va sud ekspertizasi predmeti borasida yuzaga keladigan savollarni hal qilishga qaratilgan usul bo‘lib, har bir

ekspertiza turi usuli o'ziga xosdir hamda o'rganilayotgan obyektlar tabiati va sud, tergovchi oldiga qo'yilgan savollar doirasi bilan aniqlanadi.

EKSPERTIZA TAYINLASH TO'G'RISIDAGI QAROR (AJRIM) – ekspertiza tayinlash to'g'risida surishtiruvchi, tergovchi qaror, sud esa ajrim chiqaradi. Unda: ekspertiza tayinlash uchun asos bo'lgan sabablar; ekspertizaga yuborilayotgan ashyoviy dalillar va boshqa obyektlar, ularning qachon, qayerda va qaysi holatda topilganligi va olinganligi; ish materiallari bo'yicha ekspertiza o'tkazishda esa ekspert xulosasi asoslanishi lozim bo'lgan ma'lumotlar; ekspert oldiga qo'yilgan savollar; ekspertiza muassasasining nomi yoki ekspertiza o'tkazish topshirilgan shaxsning familiyasi ko'rsatilishi lozim.

EKSPERTIZA TAYINLASH UCHUN ASOSLAR – O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 172-moddasiga muvofiq, ish uchun ahamiyatli holatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni fan, texnika, san'at yoki kasb sohasi bo'yicha bilimi bo'lgan shaxs o'tkazadigan maxsus tekshirish orqali olish mumkin bo'lgan holatlar.

EKSPERTIZA TEKSHIRUVI OBYEKTLLARI – ashyoviy dalillar, ekspert tekshiruv uchun namunalar, boshqa moddiy obyektlar, murdalar va ularning qismlari, hujjatlar, shuningdek ekspertiza o'tkazilayotgan ish materiallari tekshirish obyektlari bo'lishi mumkin.

EKSPERTIZA O'TKAZISHDA MAJBURLOV CHEGARASI – murakkab tibbiy tekshiruv usullaridan, shuningdek kuchli og'riq berish bilan bog'liq usullardan majburiy foydalanishga faqat ekspertiza o'tkazilayotgan shaxsning roziligi bilan yo'l qo'yiladi. Basharti bunday shaxs o'n olti yoshga to'lmagan yoki ruhiy kasal bo'lsa, ekspertiza uning qonuniy vakili, vasiy yoki homiysining roziligi bilan amalga oshiriladi.

EKSPERTIZA XULOSASINI BERISHNING ILOJI YO'QLIGI TO'G'RISIDAGI HUJJAT – agar ekspert qo'yilgan savollarni uning maxsus bilimlari asosida hal qilish mumkin bo'lmasligiga yoki unga taqdim etilgan tekshirish obyektlarining yoxud materiallarning yaroqsizligiga yoki xulosa berish uchun yetarli emasligiga va ularni to'ldirib bo'lmasligiga yoxud fan va sud-ekspertlik amaliyotining holati qo'yilgan savollarga javob topish imkoniyatini bermasligiga ishonch hosil qilsa, u xulosa berishning iloji yo'qligi to'g'risida asoslantirilgan hujjat tuzadi hamda uni ekspertizani tayinlagan organga (shaxsga) yuboradi.

EKSPERTNI SO'ROQ QILISH – ekspertning xulosasi yetarli darajada aniq bo'lmay, kamchiliklarini to'ldirish uchun qo'shimcha tekshirish o'tkazishga zarurat bo'lmasa yoki ekspert foydalangan usullarga aniqlik kiritish zarur bo'lib qolsa, surishtiruvchi, tergovchi yoki sud ekspertni

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 98-108-moddalarida nazarda tutilgan qoidalarga rioya etgan holda so‘roq qilish huquqiga ega. Ekspert faqat o‘zi tomonidan berilgan xulosa va shaxsan o‘tkazgan ekspert tekshiruvlari yuzasidan so‘roq qilinishi mumkin. Ekspertni u xulosa berguniga qadar so‘roq qilish taqiqlanadi.

F

FUQAROVIIY DA’VOGAR – bevosita jinoyat tufayli yoki aqli noraso shaxsning ijtimoiy xavfli qilmishi natijasida moddiy, jismoniy yoki ma’naviy zarar ko‘rgan shaxs.

FUQAROVIIY DA’VONING ASOSI – yuridik faktlarning yig‘indisi, fuqaroviy da’vogar esa ulardan o‘zining talablarini shakllantiradi. Bu faktlar: jinoyat sodir bo‘lishi; fuqaroviy da’vogar tomonidan moddiy zararining mavjudligi; jinoyat va zarar o‘rtasidagi sababiy bog‘lanish.

FUQAROVIIY JAVOBGAR – ayblanuvchi tomonidan yoki ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan aqli noraso shaxs tomonidan yetkazilgan zarar uchun qonunga ko‘ra jalb qilingan mulkiy javobgar shaxs, korxonalar, muassasa yoki tashkilot.

FUQARONING MUOMALA LAYOQATI– fuqaroning o‘z harakatlari bilan fuqarolik huquqlariga ega bo‘lish va ularni amalga oshirish, o‘zi uchun fuqarolik burchlarini vujudga keltirish va ularni bajarish layoqati. U voyaga yetgach, ya’ni o‘n sakkiz yoshga to‘lgach to‘la hajmda vujudga keladi.

FUQARONING HUQUQ LAYOQATI – barcha fuqarolarning fuqarolik huquq va burchlariga ega bo‘lish layoqati. Fuqaroning huquq layoqati u tug‘ilgan paytdan e’tiboran vujudga keladi va vafot etishi bilan tugaydi.

G

GAROV - ayblanuvchi, sudlanuvchi, ularning qarindoshlari, boshqa fuqarolar yoki yuridik shaxslar tomonidan dastlabki tergov organi yoki sudning depozit hisob varag‘iga topshi-riladigan pul mablag‘i yoki qimmatbaho buyumlardan iboratdir. Garov tariqasida ko‘chmas mulk ham qabul qilinishi mumkin.

GUVOH – jinoyat sudlov ishlari yuritishning ishtirokchisi sifatida qonunga muvofiq, jinoyat ishi bo‘yicha aniqlanishi lozim bo‘lgan biror holatni bilishi mumkin bo‘lgan har qanday shaxs.

GUVOH –ishga doir biror holatdan xabardor bo‘lgan har qanday shaxs guvoh bo‘la oladi. Ammo vakil yoki himoyachi vazifalarini bajarishlari munosabati bilan o‘zlariga ma’lum bo‘lgan holatlar to‘g‘risida - fuqarolik ishlari bo‘yicha vakillar yoki jinoyat ishlari bo‘yicha himoyachilar; jismoniy yoki ruhiy nuqsonlari sababli faktlarni to‘g‘ri idrok qilishga yoki ular haqida to‘g‘ri ko‘rsatuv berishga layoqatsiz shaxslar bundan mustasno.

GUVOHLANTIRISH – guvohlantirish tergov harakati: 1) odamning badanidagi ish uchun ahamiyatga molik xususiyat yoki alomatlarni, alohida belgilarni, uning jismoniy rivojlanganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni, dog‘larni, tiralgan, shilingan, qontalash joylarni topish zarurati tug‘ilgan hollarda (agar buning uchun ekspertiza o‘tkazish lozim bo‘lmasa);

2) ekspertiza o‘tkazishni talab qilmaydigan usullarni qo‘llash yo‘li bilan shaxsning mastlik va boshqa fiziologik holatini aniqlash zarurati tug‘ilgan hollarda o‘tkaziladi.

GUVOHNING ADVOKATI – belgilangan tartibda guvohning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish hamda unga zarur yuridik yordam ko‘rsatish vakolatiga ega bo‘lgan shaxsdir.

GUVOHNING ADVOKATI – guvohning advokati belgilangan tartibda guvohning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish hamda unga zarur yuridik yordam ko‘rsatish vakolatiga ega bo‘lgan shaxsdir. Jinoyat ishida taraflar manfaatini himoya qilayotgan shaxs mazkur ish bo‘yicha guvohning advokati bo‘lishi mumkin emas.

GUMON – jinoyat to‘g‘risida taxmin va tasmollarga asoslangan, ayb e‘lon qilish uchun yetarli bo‘lmagan ma’lumot yoki shu ko‘rinishdagi boshqa xabar.

GUMON QILINUVCHI – jinoyat sodir etgani to‘g‘risida ma’lumotlar bor bo‘lsa-da, bu ma’lumotlar uni ishda ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish uchun yetarli bo‘lmagan shaxs.

GUMON QILINUVCHINI USHLAB TURISH – militsiya yoki boshqa surishtiruv organining xodimi, shuningdek muomalaga layoqatli har qanday shaxs qonunda belgilangan asoslar mavjud bo‘lgan taqdirda, jinoyat sodir etishda gumon qilingan shaxsni ushlash va yaqin oradagi militsiya muassasasiga yoki huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organga olib kelish.

H

HAQIQATNI ANIQLASH PRINSIPI – jinoyat protsessining asosiy prinsiplaridan biri bo‘lib, unga ko‘ra ish bo‘yicha haqiqatni aniqlash uchun faqat qonunda nazarda tutilgan tartibda topilgan, tekshirilgan va baholangan ma‘lumotlardan foydalanish mumkin bo‘lib, ish bo‘yicha isbotlanishi lozim bo‘lgan barcha holatlar sinchkovlik bilan, har tomonlama, to‘la va xolisona tekshirib chiqilishi kerak. Ishda yuzaga keladigan har qanday masalani hal qilishda ayblanuvchini yoki sudlanuvchini ham fosh qiladigan, ham oqlaydigan, shuningdek uning javobgarligini ham yengillashtiradigan, ham og‘irlashtiradigan holatlar aniqlanishi va hisobga olinishi lozim

HARBIY XIZMATCHINING XULQ-ATVORI USTIDAN QO‘MONDONLIK KUZATUVI - ayblanayotgan muddatli harbiy xizmatchi yoki o‘quv yig‘iniga chaqirilgan harbiy xizmatga majbur shaxs surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning qarori yoki sudning ajrimi bo‘yicha harbiy qism, qo‘shilma, harbiy muassasa, harbiy o‘quv yurti qo‘mondonligining kuzatuviga berilishi mumkin. Qo‘mondonlik kuzatuvi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan va ayblanuvchining munosib xulq-atvorda bo‘lishini ta‘minlaydigan choralarni ko‘rishdan iborat.

HODISA SODIR BO‘LGAN JOYNI KO‘ZDAN KECHIRISH – aynan ana shu joyda jinoyat sodir etilganligi yoki uning izlari borligi haqida ma‘lumotlar bo‘lgan taqdirda o‘tkaziladigan ko‘zdan kechirish tergov harakatining bir turi.

HUDUDIY TERGOVGA TEGISHLILIK - dastlabki tergovning jinoyat qayerda sodir etilgan bo‘lsa, jinoyat ishi o‘sha tuman (shahar)da yuritilishi.

HUKM – birinchi instansiya yoki apellyatsiya instansiya sudining sudlanuvchining aybdorligi yoki aybsizligi, unga nisbatan jazo tayinlash yoki uni jazodan ozod qilish haqidagi qaroridir.

HUKMNI BEKOR QILISH YOKI O‘ZGARTIRISH ASOSLARI – apellyatsiya, kassatsiya yoki nazorat tartibida hukmni bekor qilish yoki o‘zgartirish mumkin bo‘lib, ushbu harakatlar uchun asoslar quyidagilardir: sud tergovining to‘liq emasligi yoki bir yoqlama olib borilganligi; hukmda bayon qilingan sud xulosalari ishning haqiqiy holatlariga muvofiq emasligi; Jinoyat-protsessual kodeksi normalarining jiddiy buzilganligi; Jinoyat kodeksi normalarining noto‘g‘ri qo‘llanilganligi; jazoning adolatsizligi.

HUKMNI IJRO ETISH – hukm ustidan apellyatsiya shikoyati berish va protest bildirish muddati o‘tishi bilan qonuniy kuchga kirgandan so‘ng

amalga oshiriladigan va uni qabul qilgan sud zimmasiga yuklatiladigan harakat.

HUKMNI E'OLON QILISH – sud majlisi zalida, raislik qiluvchi yoki xalq maslahatchisi tomonidan tuzilgan hukmni o'qib eshittirishga qaratilgan protsessual harakat.

HUQUQ ANALOGIYASI (o'xshashligi) –yunoncha “analogia” so'zidan olingan bo'lib, ma'nosiga ko'ra “muvofiqlik”, “o'xshashlik” so'zlariga yaqin. Huquqda o'xshash normalar yo'q bo'lsa, bu holda huquqning tegishli huquq tarmog'i va huquq institutini huquqiy tartibga solishning umumiy asoslari va umumiy prinsiplari qo'llaniladi.

HUQUQ VA ERKINLIKLAR KAFOLATI – huquq va erkinliklarning amalga oshirishini, ro'yobga chiqishini ta'minlovchi vositadir. Huquq va erkinliklarni qonunlarda yozib qo'yish bilan cheklanmay, shu qonunlarda ularni amalga oshirish yo'llari ham belgilanishi huquqiy kafolat hisoblanadi. Konstitutsiyaning 10-bobi huquq va erkinliklarning kafolatlarini belgilab qo'ygan. Unga asosan huquq va erkinlik davlat, sud hokimiyati tomonidan kafolatlanadi, O'zbekiston Prezidenti ham huquq va erkinliklarning kafilidir. Bundan tashqari, huquq va erkinliklarning amalga oshirish uchun iqtisodiy manbalar, imkoniyatlar ham zarur. Ana shu imkoniyatlarning yaratilishi iqtisodiy kafolat hisoblanadi. Davlatimiz iqtisodiy jihatdan qanchalik baquvvat bo'lsa, huquq va erkinliklardan foydalanish imkoniyati shunchalik kuchayadi.

I

ISBOTLASHNING UMUMIY SHARTLARI – qonunda belgilangan qoidalar bo'lib, ular isbotlashning o'ziga xos jihatlarini ifoda etadi hamda dalillarni to'plash, tekshirish va baholash hamda qarorlar qabul qilish tartibiga nisbatan qo'yiladigan qat'iy protsessual talablarni belgilaydi.

ISBOTLASHNING PROTSESSUAL SHAKLI – qonun bilan belgilangan qoidalar tizimi hisoblanib, jinoyat protsessining barcha bosqichlarida ularga qat'iy rioya qilish shartdir, ya'ni isbotlash jarayonini huquqiy tartibga solinishi jinoyat ishlari yurituvda haqiqatni aniqlash vositalari va usullarini protsessual normalarda mustahkamlaydi.

ISBOT QILISH – jinoyat ishi bo'yicha dalillarni olishga qaratilgan harakatlar tizimidir. U jinoyat protsessini harakatlantiruvchi kuch bo'lib, u protsessning bir bosqichidan ikkinchisiga tadrijiy o'tishini to'g'ri jinoyat ishi uzil-kesil hal bo'lgunga qadar ta'minlaydi.

ISBOTLASH VOSITALARI – taraflarning talablari va e'tirozlarini asoslaydigan holatlar mavjudligi yoki mavjud emasligini sudning qonunda

belgilangan tartibda aniqlashiga asos bo'ladigan har qanday faktik ma'lumot va ishni to'g'ri hal qilish uchun ahamiyatga ega bo'lgan boshqa holatlar fuqarolik ishi bo'yicha dalil hisoblanadi. Bu ma'lumotlar quyidagi vositalar, ya'ni: taraflar va uchinchi shaxslar hamda ularning qonuniy vakillarining tushuntirishlari, guvohlarning ko'rsatuvlari, yozma va ashyoviy dalillar, ekspertlarning xulosasi bilan aniqlanadi.

ISBOTLASH JARAYONI – jinoyat protsessual qonun asosida haqiqatni aniqlash va jinoyat ishini to'g'ri hal qilish uchun obyektiv voqelikning faktlarini dalillar yordamida isbotlash, bilish va hujjatli qayd etish bo'yicha amalga oshiriladigan faoliyatdir.

ISBOTLASH MAJBURIYATI - deganda tegishli shaxslarning dalillarni to'plash, tekshirish va baholash bo'yicha zarur xulq-atvorining nazarda tutilgan hajmi tushuniladi.

ISBOTLASH SUBYEKTLARI – isbotlash majburiyati yuklatilgan muayyan mansabdor shaxslar.

ISHNI SUDDA KO'RISH UCHUN TAYYORLASH – jinoyat ishini sudda mazmunan ko'rib chiqilishi uchun zarur bo'lgan tashkiliy-huquqiy choralarning ko'rilishi.

ISHNI SUDDA KO'RISHGA TAYYORLASH – fuqarolik protsessining muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Ishni sudga ko'rishga tayyorlash sudya arizani qabul qilib, fuqarolik ishi qo'zg'atganidan so'ng, ishni o'z vaqtida va to'g'ri ko'rib chiqish hamda hal qilish maqsadida amalga oshiriladi. Fuqarolik ishlarini sudga ko'rishga tayyorlash ariza qabul qilingan kundan boshlab o'n kunlik muddatdan kechiktirmay amalga oshirilishi lozim. Bu muddat alohida hollarda o'ta murakkab ishlar bo'yicha sudyaning asoslantirilgan ajrimiga binoan kechiktirilib, yigirma kunga yetkazilishi mumkin, FPKning 131-moddasi ikkinchi qismida ko'rsatilgan ishlar bundan mustasno.

ISHDA ISHTIROK ETISHIGA MONELIK QILADIGAN HOLATLAR – jinoyat protsessi ishtirokchilarining xolisligi, beg'arazligiga va ish bo'yicha adolatli hamda qonuniy qaror qabul qilish yoxud protsessual harakatlarni amalga oshirishiga nisbatan shubha tug'diradigan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida belgilangan obyektiv va subyektiv holatlar.

ICHKI ISHONCH bo'yicha hal qilish ta'kidlanayotgan yoki rad etilayotgan dalillarning birdan-bir to'g'riligini anglash, o'z fikrlari haqiqiylikiga qat'iy asoslangan ishonchga ega bo'lish demakdir.

ISHLARNING ALOQASI BO‘YICHA TERGOVGA TEGISHLILIK

- boshqa belgilari bo‘yicha turli dastlabki tergov organlarining tergoviga tegishli bo‘lgan bir necha jinoyat ishini birlashtirib tergov qilinishi.

J

JABRLANUVCHI – jinoyat natijasida zarar ko‘rgan shaxs

JAMOAT AYBLOVCHISI – jamoat birlashmalari va jamoalarning jinoyat ishlari bo‘yicha sud muhokamasida ayblov tarafida ishtirok etadigan vakili hisoblanadi.

JAMOAT HIMOYACHISI – jamoat birlashmalari va jamoalarning jinoyat ishlari bo‘yicha sud muhokamasida jamoat himoyachisi tariqasida ishtirok etadigan vakili.

JIDDIY QARAMA-QARSHILIKLAR – isbot qilish predmetiga kiruvchi holatlar mazmuni yuzasidan ko‘rsatuvlarda mavjud bo‘ladigan nomutanosiblik, ma‘lumotlarning bir-birini rad etishi hisoblanadi. Tergovchi shaxslarning ko‘rsatuvlaridagi qarama-qarshiliklar jiddiy yoki jiddiy emasligini mustaqil ravishda belgilaydi.

JINOYAT ISHINI QO‘ZG‘ATISH – jinoyat protsessining mustaqil bosqichi

JINOYAT ISHINI QO‘ZG‘ATISH ASOSLARI – ijtimoiy xavfli qilmish haqida berilgan ariza yoki xabarda keltirilgan hodisada jinoyat alomatlarining mavjudligini ko‘rsatuvchi ma‘lumotlar majmuyi.

JINOYAT ISHINI QO‘ZG‘ATISH SABABI – Jinoyat-protsessual kodeksda belgilangan va o‘zida tayyorlanayotgan yoki sodir etilgan jinoyat haqida ma‘lumot beradigan manbalar.

JINOYAT ISHINI QO‘ZG‘ATISH HAQIDAGI QAROR - muhim protsessual hujjat bo‘lib, surishtiruv organi, tergovchi, prokuror tomonidan chiqariladi, uchta qism - kirish, tavsiflash-asoslantirish va xulosa qismlaridan iborat bo‘ladi.

JINOYAT ISHINI QO‘ZG‘ATISHNING SUBYEKTLARI - prokuror, tergovchi, surishtiruvchi.

JINOYAT ISHINI QO‘ZG‘ATISHNI RAD ETISH – jinoyat ishini qo‘zg‘atish asoslari mavjud bo‘lmagan taqdirda, shuningdek ish yuritishni istisno etuvchi holatlar (O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 83-moddasi 1 va 2-bob va 84-modda 1-, 3-7-b.) aniqlangan taqdirda, surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror tomonidan qaror chiqarish orqali jinoyat ishini qo‘zg‘atish maqsadga muvofiq emasligini belgilashdir.

JINOYAT ISHI UCHUN MUHIM BO‘LGAN FAKTIK MA’LUMOTLAR – jinoyat hodisasi haqida xabar beruvchi jinoyat ishida dalil sifatida foydalanilishi mumkin bo‘lgan ma’lumotlar.

JINOYAT ISHLARI BO‘YICHA EKSPERTIZA – sud ajrimi yoki tergov organlari qaroriga asosan tayinlanadigan, jinoyat ishi uchun muhim bo‘lgan faktik ma’lumotlarni aniqlash maqsadida tadqiqot uchun yuborilgan obyektlarni ekspertning fan, texnika, san’at, kasb-hunar sohalari bo‘yicha maxsus bilimlardan foydalanib tekshirishi va uning bu haqdagi bahosi aks etgan xulosa berishidan iborat protsessual harakat.

JINOYAT ISHLARI BO‘YICHA EKSPERTIZA O‘TKAZISHDA MAXSUS BILIM – fan, texnika, san’at va kasb-hunar sohalarida uzoq vaqt davomida mashg‘ul bo‘lish natijasida hosil bo‘lgan ko‘nikmalar.

JINOYAT ISHLARI BO‘YICHA EKSPERTIZA EKSPERTIZANI O‘TKAZISHDA TERGOVCHI YOKI SUDNING HARAKATLARI – ekspertiza muassasasini va xulosa berishi lozim bo‘lgan ekspertni aniqlash va jalb qilish; ekspert amalga oshirishi va aniqlashi kerak bo‘lgan holatlarni belgilab berish; o‘tkazilayotgan ekspertizaning qonuniyligini nazorat qilish; ekspertiza xulosasini olish, tahlil qilish, baholash va daliliy ahamiyatini aniqlash va b.

JINOYAT ISHLARI BO‘YICHA EKSPERTIZA TERGOV HARAKATINING BOSHQA TURDAGI TERGOV HARAKATLARIDAN FARQLOVCHI XUSUSIYATLARI – a) maxsus bilimlarga tayanish; b) ekspertizaning o‘ziga xos ketma-ketlikda amalga oshirilishi; d) ish uchun ahamiyatli bo‘lgan ma’lum bir holatni qayta tiklash maqsadida amalga oshirilish; e) ekspertizani o‘tkazuvchi maxsus subyektning ishtiroki; f) ekspertiza tadqiqotining o‘tkazilishi va natijasi isbotlashning mustaqil turi bo‘lmish maxsus rasmiylashtiriladigan hujjatda – ekspertiza xulosasida namoyon bo‘lishi; g) ushbu jarayon jinoyat protsessi bir necha subyektlari faoliyatining umumlashmasidan shakllanishi; h) jinoyat ishi bo‘yicha taqdim etilgan ma’lum bir obyekt yoki predmetni tadqiq qilishda maxsus bilimlarning qo‘llanilishi; i) tadqiqotning vakolatli shaxs (tergovchi, sudya) ko‘rsatmasiga muvofiq, maxsus subyekt, ya’ni ekspert tomonidan amalga oshirilishi; j) ekspertizani tayinlash, o‘tkazish, uning natijalarini rasmiylashtirish tartibining qonun bilan qat’iy o‘rnatilganligi; k) dalilning mustaqil turi bo‘lgan, o‘tkazilgan tadqiqotning natijasi sifatida olingan natijalarini ekspert xulosasi shaklida rasmiylashtirilishi va b.

JINOYAT ISHI YURITUVI – jinoyat ishlarini qo‘zg‘atish, ko‘rib chiqish va hal etish mazmunini tashkil etgan surishtiruv, dastlabki tergov organlarining prokuror va sudning faoliyati.

JINOYAT ISHINI BIRLASHTIRISH VA AJRATISH – bitta tergov yoki sud ish yurituviga bir necha shaxsning bir yoki bir necha jinoyatni birgalashib sodir etganlikda ayblanishiga doir ishlar yoxud bir shaxsning bir necha jinoyatni sodir etganlikda ayblanishiga doir ishlar birlashtirilishiga; bir yoki bir necha jinoyatni birgalashib sodir etishda ayblanayotgan shaxslarga nisbatan ishni ajratish (bu ish holatlari bo‘yicha zarur bo‘lib qolsa hamda bunday ajratish surishtiruv, dastlabki tergov va sud tomonidan ishni ko‘rib chiqishning to‘liq va xolisona bo‘lishiga ta’sir qilmasa, yo‘l qo‘yiladi).

JINOYAT ISHINI QO‘ZG‘ATISH – jinoyat belgilarini ko‘rsatuvchi, protsessual qonunchilik bilan belgilangan manbadan olingan ma’lumotga surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudning nazorat ta’sir hujjati.

JINOYAT ISHINI SUDDA KO‘RISH UCHUN TAYINLASH – jinoyat protsessining muhim bosqichi bo‘lib, unda sudya yakka tartibda shaxsning ayblilik masalasini hal qilmay turib jinoyat ishi materiallarini tekshirish natijasida ishni sud muhokamasida mazmunan ko‘rib chiqish uchun yetarli faktik va yuridik asoslar mavjudligi yoki yo‘qligi masalasini hal etadi.

JINOYAT ISHLARI YURITILADIGAN TIL – jinoyat ishlarini yuritish o‘zbek tilida, qoraqalpoq tilida yoki muayyan joydagi ko‘pchilik aholi so‘zlashadigan tilda olib boriladi. Ish yuritilayotgan tilni bilmaydigan yoki yetarli darajada tushunmaydigan protsess ishtirokchilariga Konstitutsiya va protsessual qonunchilik tomonidan tarjimon xizmatidan foydalanish kafolatlanadi.

JINOYAT ISHLARINING SUDLOVGA TEGISHLILIGI – sud organlariga tegishli bo‘lgan jinoyat ishlarining mazmuniga ko‘ra, sud instansiyalari o‘rtasida taqsimlanishi, shuningdek hududiy va shaxsga ko‘ra mazkur jinoyat ishining aynan qaysi sudga taalluqliligi.

JINOYAT PROTSESSI – surishtiruv, dastlabki tergov, prokuratura va sud organlari va jinoyat ishi yurituviga boshqa ishtirokchilarining jinoyat ishini qo‘zg‘atish, surishtiruv, dastlabki tergov, sud muhokamasi, sud qaror, ajrim va hukmini qayta ko‘rib chiqish, sud hujjatlarini ijro etish kabi bosqichlarni qamrab olgan qonun bilan tartibga solingan faoliyat.

JINOYAT-PROTSESSUAL HUQUQI – jinoyat ishlari bo‘yicha surishtiruv, dastlabki tergov va sud muhokamasini o‘tkazish bilan bog‘liq

faoliyatni tartibga soluvchi tartib qoida va normalarning qonunda mustahkamlangan tizimini, ya'ni jinoyat ishi yurituvchi vazifalari amalga oshiriladigan zarur huquqiy tartib-taomillarni ifodalaydi.

JINOYAT-PROTSESSUAL HUQUQINING UMUMIY QISMI – barcha jinoyat protsessiga yaxlit holda yoxud uning aksariyat bosqichlari va institutlariga taalluqli bo‘lgan asosiy tushunchalarni belgilab beradigan jinoyat-protsessual huquqi qismi. Umumiy qismda protsessual qonunchilikning vaqt, hudud va shaxslar doirasida amal qilishi, protsess ishtirokchilarining huquq va majburiyatlari, hokimiyat organlarining vakolatlari, dalillar va isbot qilish instituti, ularni to‘plash, tekshirish va baholash, protsessual majburlov choralari va boshqa umumiy institutlar va masalalar tartibga solingan.

JINOYAT-PROTSESSUAL HUQUQINING MAXSUS QISMI – jinoyat protsessining alohida bosqichlari va ularni amalga oshirish tartibini belgilab beradigan jinoyat-protsessual huquqi qismi. Unda alohida protsessual harakatlarni o‘tkazish qoidalari tartibga solingan. Maxsus qismning o‘zini shartli ravishda turdosh huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi to‘rt mustaqil institutlarga ajratish mumkin: sudga qadar ish yuritish; sudga ish yuritish; alohida toifadagi jinoyat ishlarini yuritish; jinoiy sud ishlarini yuritish sohasidagi xalqaro hamkorlik.

JINOYAT-PROTSESSUAL HUQUQINING NAZORAT FUNKSIYASI – bu prokuror va sud tomonidan jinoyat protsessi bosqichlarida qonuniylikka, protsess ishtirokchilarining huquq va manfaatlariga rioya etilishi ustidan amalga oshiriladigan faoliyat yo‘nalishidir. Hozirgi kunga kelib, “Xabeas korpus” instituti rivojlanishi munosabati bilan ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olishga (2008-yil), lavozimdan chetlashtirish va shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish tarzidagi protsessual majburlov choralari qo‘llashga (2012-yil) sanksiya berish huquqi prokurordan sudga o‘tkazilishi insonning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari, uning daxlsizligini himoya qilishda prinsipial qadam bo‘ldi.

JINOYAT-PROTSESSUAL HUQUQINING ODIL SUDLOV FUNKSIYASI – bu sudning ish bo‘yicha to‘plangan barcha dalillarni tekshirish hamda aniq shaxsning aybdor yoki aybsizligi to‘g‘risida, shuningdek unga tayinlanadigan jazo to‘g‘risida qaror qabul qilishga qaratilgan faoliyati (jinoyat ishini mazmunan hal qilish funksiyasi). O‘zbekiston Respublikasida odil sudlov funksiyasini amalga oshirishi mumkin bo‘lgan yagona organ bu sud hisoblanadi. Odil sudlov funksiyasini amalga oshirish tartibi ham kuchaymoqda.

<p>JINOYAT-PROTSESSUAL HUQUQINING HIMOYA FUNKSIYASI – bu jinoyat protsessi subyektlarining ayblovni inkor etishga, shaxsning aybsizligini hamda javobgarlikni yengillashtiruvchi holatlarni aniqlashga qaratilgan faoliyati. Uni gumon qilinuvchi va ayblanuvchi (sudlanuvchi), ularning qonuniy vakillari, himoyachi va jamoat himoyachisi amalga oshiradi. Himoya funksiyasi quyidagilarda namoyon bo‘ladi: gumon va ayblov mohiyatiga nisbatan butunlay e’tiroz bildirish; gumon va ayblovning alohida bandlariga nisbatan e’tiroz bildirish; qilmish malakasini (kvalifikatsiyasini) rad qilish; himoya ostida bo‘lgan shaxsning qilmishiga boshqacha huquqiy baho berish; javobgarlikni yengillashtiruvchi holatlarga e’tibor qaratish; ayblov asoslangan dalillarning yetarli emasligini asoslash va b.</p>
<p>JINOYAT PROTSESSIDA FUQAROVIIY DA’VO– bevosita jinoyat tufayli yoki aqli noraso shaxsning ijtimoiy xavfli qilmishi natijasida moddiy, jismoniy yoki ma’naviy zarar ko‘rgan shaxsning, uning qonuniy vakili yoxud uning manfaatlari asosida prokurorning aybdorga yoki moddiy javobgar shaxsga nisbatan yetkazilgan moddiy va jismoniy zararni qoplash uchun bildiriladigan va jinoyat ishini yuritishga mas’ul bo‘lgan davlat organlari va mansabdor shaxslar tomonidan hal qilinishi lozim bo‘lgan talabi.</p>
<p>JINOYAT PROTSESSUAL SHAKL - qonunda aniq va bandma-band ko‘rsatilgan shart-sharoitlar, jinoyat protsessual harakatlarni izchillik bilan rasmiylashtirish, tegishli huquqiy munosabatlarning vujudga kelishi, o‘zgarishi yoki tugatilishi.</p>
<p>JINOYAT-PROTSESSUAL QONUN – davlatning oliy vakillik (qonunchilik) organi tomonidan qabul qilingan, oliy yuridik kuchga ega bo‘lgan va jinoyat sud ish yurituvi sohasida ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjat.</p>
<p>JINOYAT-PROTSESSUAL QONUN HUJJATLARINING VAZIFALARI – jinoyatlarni tez va to‘la ochishni ta’minlash, jinoyat sodir etgan har bir shaxsga adolatli jazo berilishini, aybi bo‘lmagan hech bir shaxs javobgarlikka tortilmasligi va hukm qilinmasligi uchun aybdorlarni fosh etishni, qonunning to‘g‘ri tatbiq etilishini ta’minlash.</p>
<p>JINOYAT SUDLOV ISHLARINI YURITISH- jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan jazoning muqarrarligini ta’minlash bilan birga jamiyatning boshqa beqaror a’zolariga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatadi.</p>
<p>JINOYAT PROTSESSI FUNKSIYALARI – subyektlarning ishdagi o‘rni, belgilangan maqsadi yoki vazifasi bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyati yo‘nalishlarining turlari protsessual funksiyalar deb ataladi.</p>

JINOYAT PROTSESSIDA BARCHA DALILLAR aybga, bosh faktga, manbaga, ashyoviy dalillarga ko‘ra klassifikatsiya qilinadi.

JINOYAT PROTSESSIDA BOSQICHLAR – bu protsessning bir tomondan, o‘zaro bog‘liq va ikkinchi tomondan, nisbatan mustaqil bo‘lgan qismlari bo‘lib, bir-biridan yakuniy protsessual qarorlariga hamda bevosita vazifalariga (jinoiyat sud ish yurituvchi maqsadidan kelib chiquvchi), ish yurituvchi ishtirok etayotgan shaxslar va organlarga, protsessual faoliyatni (protsessual tartib-taomillarni) amalga oshirish tartibiga (shakliga) hamda jinoiyat-protsessual munosabatlar xususiyatiga qarab farqlanadi.

JINOYAT ISHI BO‘YICHA ISBOTLANISHI LOZIM BO‘LGAN HOLATLAR qonunda aniq belgilangan. Jinoiyat ishi bo‘yicha muhim deb hisoblangan har bir holat to‘la, har tomonlama, xolisona tekshirilishi lozim. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad haqiqatni aniqlashdir. Haqiqat bosqichma-bosqich isbotlash asosida amalga oshiriladi. Isbotlash jarayoni dalillarni to‘plash, tekshirish va baholashdan iborat.

JINOYAT PROTSESSI ISHTIROKCHILARI – jinoiyat protsessi ishtirokchilari quyidagi guruhlariga bo‘linadilar: 1) jinoiyat ishi yurituvchi mas‘ul bo‘lgan organlar va shaxslar; 2) jinoiyat ishini yuritishda ishtirok etadigan jamoat birlashmalari, jamoalar va ularning vakillari; 3) jinoiyat protsessida o‘z manfaatlarini himoya qiladigan shaxslar, himoyachilar va vakillar; 4) jinoiyat protsessida ishtirok etuvchi boshqa shaxslar. Ushbu guruh a‘zolari – guvoh, ekspert, mutaxassis, tarjimon va xolis.

JINOYAT PROTSESSI PRINSIPLARI – jinoiyat ishlari yurituvining xarakteri va o‘ziga xos xususiyatlarini, shuningdek dastlabki tergov va sudda jinoiyat ishlari ko‘rib chiqilishining asosiy yo‘nalishlarini belgilab beruvchi huquqiy qoidalar va tamoyillar.

JINOYATLARNING OLDINI OLISH – asosiy vazifalaridan biri bo‘lib, tergovchi, prokuror va sud zimmasiga jinoiyatning asosiy sabablarini, uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash, qonunlar bajarilishini nazorat qilish.

JINOYAT-PROTSESSUAL KODEKSI – jinoiyat ishi yurituvchi sud, dastlabki tergov organlari va prokuratura faoliyatini, shuningdek jinoiyat protsessida ishtirok etuvchi shaxslarning huquq va majburiyatlarini tartibga soluvchi protsessual normalar majmuyi.

JINOYAT-PROTSESSUAL NORMA – jinoiyat-protsessual munosabatlarni tartibga soluvchi, qonun bilan belgilangan huquqiy norma.

JINOYATCHILIKNING OLDINI OLISH (PROFILAKTIKASI) – jinoiyatchilik sabablari va uni vujudga keltiruvchi shart-sharoitlarni

bartaraf qilish yoki ularning ta'sirini susaytirish, jinoyat sodir etishdan ushlab turish va huquqbuzarlarning xulq-atvorini tuzatishga qaratilgan davlat va jamoatchilik tomonidan amalga oshiriladigan choralar tizimi tushuniladi.

JINOYATCHILIKNING OLDINI OLIH SUBYEKTLARI – jinoyatchilik, uning alohida turlari va muayyan jinoyatlarning mavjud bo'lishi va tarqalishiga yordam beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish, kuchsizlantirish va neytrallashtirish, xuddi shuningdek jinoyatlar sodir etishga (retsdivga) moyil shaxslarni jinoyat yo'liga kirishidan saqlash va ularni resotsializatsiya qilishni ta'minlash vazifalari va funksiyalari qonun bilan zimmasiga yuklangan organlar, muassasalar, tashkilotlar, shuningdek mansabdor shaxslar (xizmatchilar) va alohida fuqarolar jinoyatchilik (jinoyatlar)ning oldini olish subyektlari hisoblanadi.

JINOYAT HAQIDAGI ARIZA YOKI XABAR YUZASIDAN QABUL QILINADIGAN QARORLAR: 1) jinoyat ishini qo'zg'atish to'g'risida; 2) jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish to'g'risida; 3) ariza yoki xabarni tergovga tegishliligiga qarab jo'natish to'g'risida.

JINOYATNING TURIGA KO'RA (PREDMETLI) TERGOVGA TEGISHLILIK – Jinoyat kodeksi Maxsus qismining moddalari ularning tartib raqamlaridan kelib chiqqan holda dastlabki tergovni amalga oshirishga vakolatli organlar – prokuratura, ichki ishlar va milliy xavfsizlik xizmatining tergovchilari tomonidan tergov qilinishining taqsimlanishi qoidalari.

K

KAZUS – shaxsning xohish–irodasidan qat'i nazar, yuz beradigan va shu sababli muayyan sharoitda ko'zda tutilishi mumkin bo'lmagan voqea.

KASSATSIYA – fransuzcha so'zdan olingan bo'lib, "buzish" ma'nosini anglatadi. Qonuniy kuchga kirgan sud qarorlari kassatsiya tartibida yuqori instansiyalarda qayta tekshiriladi. Qonuniy kuchga kirgan, apellyatsiya tartibida ko'rilmagan hal qiluv qarorlari ustidan sudning hal qiluv qarori chiqqan kundan e'tiboran bir yil ichida taraflar va ishda ishtirok etishga jalb qilingan shaxslar tomonidan kassatsiya shikoyati berilishi va prokuror tomonidan protest keltirilishi mumkin.

KASSATSIYA INSTANSIYASI – kassatsiya tartibida birinchi instansiya sudlarining qonuniy kuchga kirgan hukmlari, ajrimlari va

qarorlari ustidan kiritilgan shikoyat yoki protestlar yuzasidan jinoyat ishini ko‘rib chiquvchi sud.

KASSATSIYA INSTANSIYASI SUDINING AJRIMI – kassatsiya instansiyasi sudi ishni ko‘rish natijalari bo‘yicha ajrim chiqaradi, mazkur ajrim sudyalarning ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi va barcha sudyalar tomonidan imzolanadi. Ovoz berishda ozchilikni tashkil etgan sudya ajrimga imzo qo‘yib, o‘zining alohida fikrini yozma ravishda bayon qilishga haqlidir. Kassatsiya instansiyasi sudining ajrimi ustidan nazorat tartibida shikoyat qilinishi va protest bildirilishi mumkin.

KASSATSIYA INSTANSIYASIDA ISH KO‘RISHDA SUD TARKIBI – yuqori turuvchi sud ishni kassatsiya tartibida kollegial tarzda uchta malakali sudyadan iborat tarkibda ko‘radi.

KASSATSIYA INSTANSIYASINING VAKOLATLARI – sud jinoyat ishini kassatsiya tartibida ko‘rib, hukmni yoki ajrimni (qarorini) o‘zgartirishsiz qoldirishi; hukm yoki ajrimni (qarorni) bekor qilib, ishni qo‘shimcha tergovga yoki yangitdan sudda ko‘rish uchun qaytaradi; jinoyat ishini tugatadi.

KASSATSIYA TARTIBIDA ISH YURITISH – birinchi instansiya sudlarining qonuniy kuchga kirgan hukmlari, ajrimlari va qarorlari ustidan kiritilgan shikoyat yoki protestlar yuzasidan jinoyat ishining kassatsiya instansiyasi sudi tomonidan ko‘rib chiqilishi.

KASSATSIYA SHIKOYATI VA PROTESTI – ishning hal qilinishidan manfaatdor bo‘lgan shaxslarning birinchi instansiya sudning qonuniy kuchga kirgan qarorlari ustidan kassatsiya tartibida bildirilgan protsessual murojaatidir.

KECHIKTIRIB BO‘LMAYDIGAN TERGOV HARAKATLAR - muayyan jinoyat ishi yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida nazarda tutilgan ayrim tergov harakatlarini kechiktirmay amalga oshirilishi.

KORXONALAR, MUASSASALAR, TASHKILOTLAR, JAMOAT BIRLASHMALARI VA MANSABDOR SHAXSLAR BERGAN XABARLAR – yuridik shaxslarning jinoyat to‘g‘risidagi yozma (xizmat xati, tasdiqlangan telefonogramma, telegramma, radiogramma shaklida) bayon etilgan murojaati.

KOMPLEKS EKSPERTIZA – ish uchun ahamiyatga molik holatlarni turli ilm sohalaridan foydalangan holda bir necha ekspert tekshiruvini o‘tkazish yo‘li bilangina aniqlash mumkin bo‘lgan hollarda tayinlanadi. Kompleks ekspertizani o‘tkazishda ekspertlarning har biri o‘z vakolati doirasida ekspert tekshiruvlarini olib boradi.

KOMISSIYAVIY EKSPERTIZA – ekspertizada qatnashayotgan ekspertlarning har biri ekspert tekshiruvlarini to‘liq hajmda o‘tkazadi va ular olingan natijalarni birgalikda tahlil qiladi. Ekspertlar umumiy fikrga kelganidan so‘ng birgalikdagi xulosani yoki xulosa berishning iloji yo‘qligi to‘g‘risidagi hujjatni tuzadi va imzolaydi. Ekspertlar o‘rtasida kelishmovchiliklar kelib chiqqan taqdirda, ularning har biri kelishmovchiliklar kelib chiqqan barcha yoki ayrim masalalar bo‘yicha alohida xulosa beradi.

KO‘ZDAN KECHIRISH – jinoyat izlari, ashyoviy dalillarni topish, hodisa sodir bo‘lgan vaziyatni va ish uchun ahamiyatli bo‘lgan boshqa holatlarni aniqlashtirish maqsadida surishtiruvchi, tergovchi yoki sud hodisa sodir bo‘lgan joyni, murdani, hayvonlarni, tevarak-atrofni, binolarni, narsalar va hujjatlarni ko‘zdan kechirishdan iborat tergov harakati.

KO‘RSATUVLAR – asosiy dalil manbalaridan hisoblanib, protsessual tartibda rasmiylashtirilgan guvoh, jabrlanuvchi, gumon qilinuvchi va ayblanuvchining jinoyat hodisasi yuzasidan bergan ma’lumotlaridir.

KO‘RSATUVLARNI HODISA SODIR BO‘LGAN JOYDA TEKSHIRISH – surishtiruvchi, tergovchi, sud gumon qilinuvchilar, ayblanuvchilar, sudlanuvchilar, guvohlar hamda jabrlanuvchilarning ko‘rsatuvlarini tekshirilayotgan hodisa sodir bo‘lgan joyda holatlarni qayta tiklash yo‘li bilan tekshirib ko‘rishga qaratilgan tergov harakati.

KO‘CHAR NARSALARNI TANIB OLISH - jinoyatga aloqador bo‘lgan narsalar, ularning bo‘laklari, hayvonlar va tergov harakatlari olib borilayotgan joyga yoki sudga olib borish imkoniyati bo‘lgan har qanday narsalar tanib olish uchun olib kelinishi kerak.

KO‘CHMAS OBYEKTNI TANIB OLISH - haqiqatni aniqlash va jinoyat haqida to‘g‘ri va aniq ma’lumotlar olish maqsadida ko‘chmas mulklarni, buyum va predmetlarni, joy, bino, inshoot, binoning ma’lum bir xonasini jabrlanuvchi, guvoh, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi tomonidan nomini aytib va tasvirlab bersa-da, biroq uning joylashgan o‘rnini aniq aytib bera olmasa, shu joyga borish yo‘lini ko‘rsatishga istak bildirsa, unga shu joyni ko‘rsatishga imkon beriladi.

L

LAVOZIMDAN CHETLASHTIRISH – protsessual majburlov chorasi bo‘lib, basharti ayblanuvchi, sudlanuvchi o‘z ish joyida qolsa, u jinoyat ishi

bo'yicha haqiqatni aniqlashga, jinoyat oqibatida yetkazilgan zararni qoplashga to'sqinlik qiladi yoki jinoiy faoliyatini davom ettiradi deb hisoblashga yetarli asoslar bo'lsa, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud unga nisbatan mazkur chorani qo'llaydi.

M

MAHKUM – sudning ayblov hukmi bilan jinoyat sodir etishda aybdor deb topilgan shaxs.

MAXSUS TERGOVGA TEGISHLILIK – jinoyat subyektining xususiyatlari bilan bog'liq bo'lib, u jinoyat ishlarining harbiy prokuratura organlarining tergoviga tegishlilikni belgilaydi.

MA'NAViy ZARAR – shaxslarga qarshi jinoyat sodir etilishi tufayli ular his qiladigan jismoniy va ruhiy azoblanishlar tushuniladi.

MAXSUS BILIM – bu ko'pchilik ega bo'lmagan va aniq bir fan yoki texnika, kasb-hunardan foydalangan holda olingan nazariy va amaliy ko'nikmalar shakli.

MODDIY ZARAR – shaxsning mol-mulkiga yetkazilgan zarar, uni pul ekvivalentida o'lchash mumkin.

MUNOSIB XULQ-ATVORDA BO'LISH HAQIDAGI TILXAT - ayblanuvchining yoki sudlanuvchining surishtiruvchiga, tergovchiga, prokurorga yoki sudga tergov va suddan yashirinmaslik, jinoyat ishi bo'yicha haqiqatni aniqlashga to'sqinlik qilmaslik, jinoiy faoliyat bilan shug'ullanmaslik, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudning chaqiruvi bilan etib kelish haqida bergan yozma majburiyatidan iboratdir. Tilxat beruvchi shaxs bundan tashqari o'z zimmasiga surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning yoki sudning ijozatisiz ushbu aholi punktidan chiqib ketmaslik va shu aholi punkti doirasida istiqomat joyini o'zgartirsa, bu haqda ularni xabardor qilish majburiyatini oladi. Ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o'z zimmasiga olgan majburiyatlarini buzgan taqdirda unga nisbatan jiddiyroq ehtiyot chorasi qo'llanilishi mumkin, bu haqda u tilxat olish chog'ida ogohlantiriladi.

MUQOBIL TERGOVGA TEGISHLILIK – muayyan turdagi jinoyatlar to'g'risidagi ishlarni jinoyat ishini qo'zg'atgan organning tergovchilari tomonidan tergov qilinishi.

MURDANI KO'ZDAN KECHIRISH – surishtiruvchi yoki tergovchi murdaning tashqi ko'rinishini u topilgan joyda xolislar va sud-tibbiyot sohasidagi mutaxassis shifokor ishtirokida ko'zdan kechirishga qaratilgan

tergov harakati.

MURDANI TANIB OLIISH - murdani tanib olish tergov harakatini o'tkazishda albatta, uning yonida yana ikkita murda bo'lishi talab etilmaydi. Odatda, yonida hujjati bo'lmagan, shaxsi aniqlanmagan, kimligi noma'lum bo'lgan shaxslarning murdalari tanib olish uchun taqdim etiladi.

MURDANI EKSGUMATSIYA QILISH – ko'zdan kechirish, tanib olish, tekshirish yoki ekspertizaga namunalari olish uchun murdani qabrdan chiqarib olish zarur bo'lgan taqdirda o'tkaziladigan tergov harakati.

MUTAXASSIS – tergov va sud muhokamasini o'tkazishda dalillarni topish va mustahkamlashda surishtiruvchiga, tergovchiga, prokurorga va sudga yordam berish uchun chaqiriladigan, shifokor, pedagog hamda zarur bilim va malakaga ega bo'lgan boshqa shaxslar.

N

NAZORAT INSTANSIYASI – jinoyat ishi apellyatsiya yoki kassatsiya tartibida ko'rilganidan so'ng chiqarilgan sud qarorlariga nazorat tartibida kiritilgan shikoyat va protestlarni mazmunan ko'rib chiqish vakolatiga ega yuqori turuvchi sud instansiyasi.

NARSA VA HUJJATLARNI KO'ZDAN KECHIRISH – texnik vositalardan foydalanilgan holda, basharti narsa yoki hujjatlarning yo'qolishiga yoxud shikastlanishiga olib kelmasa, o'tkazilishi mumkin bo'lgan tergov harakati.

O

OQLOV HUKMI – jinoyat ishini sud majlisida mazmunan ko'rilishi natijasida jinoiy hodisa yuz bermaganligi, sudlanuvchining qilmishida jinoyat tarkibi yo'qligi, jinoyat sodir etilishiga sudlanuvchi daxli yo'qligi aniqlansa yoki sudlanuvchiga qo'yilgan ayblov ish holatlari batafsil tekshirilgandan keyin ishonarli tarzda o'z tasdig'ini topmasa, sud tomonidan qabul qilinadigan hukm turi.

OLIB QO'YISH – jinoyat ishi uchun ahamiyatga molik narsa va hujjatlarning aynan kimda va qayerda ekanligi ma'lum bo'lib, ularni qidirishning hojati bo'lmasa, surishtiruvchi, tergovchi va sud ularni olib qo'yish tergov harakatini o'tkazadi.

OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI BERGAN XABARLAR – jinoyat to'g'risida matbuot, radio va televideniye orqali e'lon qilingan,

shuningdek ommaviy axborot vositalariga yoʻllangan, lekin eʻlon qilinmagan, xatlardagi xabarlar.

P

PROKUROR – Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 118-moddasiga koʻra, mamlakatimiz hududida qonunlarning aniq va bir xilda ijro etilishi ustidan nazorat qilish vazifasi yuklatilgan davlat organining masʻul mansabdor xodimi.

PROKUROR KOʻRSATMASI – nazorat qiluvchi yoki yuqori turuvchi prokurorning surishtiruv va dastlabki tergov organlariga bajarilishi lozim boʻlgan topshiriqning bajarilish usuli, muddati va tartibi yuzasidan qilgan murojaati.

PROKUROR PROTESTI – prokuror nazorati hujjatlaridan biri. Qonunga zid boʻlgan hujjatga nisbatan protestni prokuror ana shu hujjatni qabul qilgan organga yoki yuqori turuvchi organga keltiradi.

PROKUROR TAQDIMNOMASI – prokuror nazorati hujjatlaridan biri. Prokuror qonun buzilishi, uning kelib chiqish sabablari va bunga imkoniyat yaratib berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etish toʻgʻrisidagi taqdimnomani qonun buzilishi holatini bartaraf etish vakolatiga ega boʻlgan organga yoki mansabdor shaxsga kiritadi.

PROKUROR TALABLARINING BAJARILISHINI MAJBURIYLIGI – prokurorning hujjatlar, materiallar va boshqa maʼlumotlarni taqdim etish, taftish, tekshirishlar oʻtkazish, mutaxassis ajratish, prokuraturaga kelish va aniqlangan qonunbuzarliklar xususida tushuntirishlar berish, qonunbuzarliklarni, ularga imkoniyat yaratayotgan sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish, shuningdek qonunga rioya etish toʻgʻrisidagi oʻz vakolatlari doirasida qoʻyayotgan talablarini bajarish barcha fuqarolar va yuridik shaxslar uchun majburiydir.

PROKURORNING SUDDAGI ISHTIROKI – fuqarolarning, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlari sud yoʻli bilan samarali himoya qilinishini taʼminlash maqsadida barcha instansiya sudlarida ishlar koʻrilayotganda prokuror qonunda belgilangan tartibda ishtirok etadi.

Prokuror sudlarda jinoyat ishlari koʻrilayotganda davlat ayblovini quvvatlaydi.

Prokuror sudda dalillarni tekshirishda ishtirok etadi, qonunning qoʻllanishi xususida oʻz fikrini bildiradi.

Ishlar sudlarda ko‘rilayotganda ishtirok etayotgan prokurorning vakolatlari protsessual qonunlar bilan belgilanadi.

Prokuror sud protsessining boshqa ishtirokchilari bilan teng huquqlardan foydalanib, sudyalarning mustaqilligi hamda protsessual qonun hujjatlari normalariga qat’iy rioya etish prinsipiga amal qilishi shart.

PROTSESSUAL MUDDATLAR – jinoyat protsessida protsessual harakat yoki qarorlarni qabul qilishning, shuningdek jinoyat protsessi ishtirokchilarining huquq va majburiyatlarini amalga oshirish yoki bajarishdan tiyilishning jinoyat-protsessual qonunchilikda ko‘rsatilgan yoki unga asoslangan holda jinoyat ishini yuritishga mas’ul shaxslar tomonidan belgilangan muddatlari.

PROTSESSUAL MUDDATLAR TURLARI – 1) qonunda belgilangan protsessual muddatlar; 2) sud tomonidan tayinlangan protsessual muddatlar.

PROTSESSUAL MUDDATLARNI HISOBLASH – muddatlar, qonunda nazarda tutilgan hollarda surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning qarori yoki sudning ajrimi bilan tayinlangan muddatlar soatlar, sutkalar va oylar bilan hisoblanadi.

PROTSESSUAL HARAKATLAR VA QARORLAR USTIDAN SHIKOYAT QILISH – protsess ishtirokchilarining qonunda mustahkamlangan huquqlarini va jinoyat ishlari yurituvi jarayonida buzilgan tiklash uchun yuqori turuvchi organga yoki mansabdor shaxsga qilgan murojaat.

PROTSESSUAL HUQUQ NORMALARINI BUZISH YOKI NOTO‘G‘RI QO‘LLASH – protsessual huquq normalarining buzilganligi yoki noto‘g‘ri qo‘llanganligi ishning noto‘g‘ri hal etilishiga sabab bo‘lgan yoki sabab bo‘lishi mumkin bo‘lgan taqdirdagina hal qiluv qarori, ajrim yoki qarorning bekor qilinishiga asos bo‘ladi. Agar: 1) ish sud tomonidan g‘ayriqonuniy tarkibda ko‘rilgan bo‘lsa; 2) ish sud muhokamasida ishtirok etish huquqiga ega bo‘lgan, ammo sud majlisining vaqti va joyi to‘g‘risida xabar berilmagan shaxslardan birortasining yo‘qligida ko‘rilgan bo‘lsa; 3) ish ko‘rilayotganida ish yuritiladigan tilga doir qoidalar buzilgan bo‘lsa; 4) sud ishda qatnashishga jalb qilinmagan shaxslarning huquq va majburiyatlariga doir masalani hal qilgan bo‘lsa; 5) hal qiluv qarori, ajrim, qaror chiqarishda sud maslahatining sir saqlanishiga doir qoidalar buzilgan bo‘lsa; 6) hal qiluv qarori, ajrim, qaror sudyalardan birortasi (sudya) tomonidan imzolanmagan yoki hal qiluv qarori unda ko‘rsatilmagan sudyalardan (sudya) tomonidan imzolangan bo‘lsa; 7) hal qiluv qarori, ajrim, qaror ishni ko‘rmagan sudyalardan

tomonidan chiqarilgan bo'lsa; 8) ishda sud majlisi bayonnomasi mavjud bo'lmasa yoki u imzolanmagan bo'lsa, hal qiluv qarori, ajrim, qaror majburiy tartibda bekor qilinishi shart.

PROTSESSUAL CHIQIMLAR – jinoyat sud ish yurituvini amalga oshirayotgan subyektlar (surishtiruv, dastlabki tergov, sud) va boshqa protsess ishtirokchilarining jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan huquqiy munosabatlarni jinoiy buzilishi va uning holatlarini aniqlash bo'yicha jinoyat-protsessual faoliyatni amalga oshirishga oid hamda jinoyat sodir etishda aybdor deb topilgan shaxsdan va (yoki) jinoyat sud ishida ishtirok etayotgan boshqa shaxslardan, alohida hollarda esa, davlatdan undiriladigan xarajatlari.

Q

QAROR – bu davlat hokimiyati organining o'z vazifalarini amalga oshirish bo'yicha muayyan maqsadga erishishga yo'naltirilgan va shu maqsadni amalga oshirish vositalari va yo'llarini nazarda tutgan boshqaruv vaziyatini tahlil etish va baholashga oid erki ifodasidir. Q. ijro hokimiyati tegishli organi kompetensiyasi doirasida qabul qilinadigan me'yoriy yoki individual (aniq shaxs yoki vaziyatga taalluqli) huquqiy hujjat ko'rinishida yuridik rasmiylashtirilishi natijasida huquqiy ahamiyat kasb etadi. Boshqaruv faoliyatini amalga oshirish jarayonida uzoq muddatli va muayyan soha bilan bog'liq faoliyat (ishlar)ni istiqbolli loyixalalash yuzasidan qarorlar, masalan, maqsadli dasturiy qarorlar, joriy asosiy faoliyatni amalga oshirish bo'yicha tezkor, protsessual, uslubiy, tavsiyaviy, individual va shok. qarorlar qabul qilinishi mumkin. Q.larni qabul qilish quyidagi bosqichlardan iborat bo'lishi mumkin: qarorni qabul qilishning zarurligini asoslantirish; uning axborot ta'minoti; q. mazmunini, shu jumladan, ko'zlangan maqsadga erishish uchun zarur chora-tadbirlar va harakatlar ro'yxatini shakllantirish; talab qilinadigan resurslar (mablag' va vositalar) turlari va hajmini asoslash; q.ni amalga oshirish muddatlari va ijrochilarning aniq manzillarini belgilash; q. qabul qilinishida manfaatdor taraflarni va ular bilan q. mazmuni yuzasidan kelishish shakllarini o'rnatish; zarur hollarda tegishli idoralar va mutaxassislar bilan maslahatlar tashkil etish; q. loyahasini tayyorlash, muhokama qilish va uning samaradorligini dastlabki baholash; qarorni ifoda etuvchi hujjatning yuridik shaklini aniqlash. Q.ni tayyorlash huquqiy hujjat loyahasini rasmiylashtirish va tegishli tartibda qabul qilinishi bilan yakunlanadi.

QAYTA EKSPERTIZA – ekspert (ekspertlar komissiyasi) xulosasi asoslantirilmaganda yoki uning to‘g‘riligiga shubha tug‘ilganda yoxud unga asos qilib olingan dalillar ishonchli emas deb topilganda yoki ekspertizani o‘tkazishning protsessual qoidalari jiddiy buzilganda o‘tkaziladigan ekspertiza turi.

QO‘SHIMCHA EKSPERTIZA – ekspert (ekspertlar komissiyasi) xulosasidagi bo‘shliqlarning o‘rnini to‘ldirish uchun tayinlanadigan va shu yoki boshqa ekspert (ekspertlar komissiyasi) tomonidan o‘tkaziladigan ekspertiza turi.

R

RAD QILISHLAR – muayyan protsess ishtirokchilarining jinoyat ishi yurituvda ishtirok etishga monelik qiladigan asoslar mavjud bo‘lganda, mazkur ishtirokchi o‘z-o‘zini rad etishi yoki rad etilishi zarur.

REABILITATSIYA (lot. “yaroqliligini tiklash”) – reabilitatsiya deganda boy berilgan huquq va imtiyozlarni qaytarish, noqonuniy ravishda jinoiy javobgarlikka tortish, ozodlikdan mahrum etish, aybsiz shaxslarni nohaq hukm qilish bilan bog‘liq huquq cheklanishlarini bartaraf etish, shuningdek kelgusi vaqtga huquqiy layoqatni tiklash.

S

SUDDA ISH KO‘RISHNING PROTSESSUAL TARTIBI – ma‘muriy, fuqarolik, jinoyat, xo‘jalik ishlarini sud ishlarini yuritish bosqichlariga amal qilgan holda protsessual qonunchilikda belgilangan tartibda ko‘rilishi.

SANKSIYA – (lot.sanctio-qat‘iy qaror)

1)Huquqbuzarga nisbatan qo‘llaniladigan va uning uchun muayyan oqibatlar keltiruvchi chora bo‘lib, huquqda sanksiya quyidagi to‘rt asosiy turga: a) jinoiy-huquqiy; b) ma‘muriy- huquqiy; v) intizomiy-huquqiy; g) mulkiy sanksiyalarga bo‘linadi.

SUD –O‘zbekiston Respublikasida jinoyat, fuqarolik va ma‘muriy ishlar bo‘yicha odil sudlovni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Oliy sudi, viloyatlar, Toshkent shahar, tuman (shahar) sudlari va harbiy sudlar amalga oshiradi.

SUD AJRIMI USTIDAN SHIKOYAT KELTIRISH – Fuqarolik protsessual kodeksida nazarda tutilgan hollarda, sudning ajrimi ishning keyingi harakatlanishiga to‘sqinlik qiladigan hollarda, sud tomonidan ajrim topshirilgan kundan e‘tiboran o‘n kun ichida taraflar va ishda ishtirok

etuvchi boshqa shaxslar apellyatsiya instansiyasi sudiga sudning hal qiluv qaroridan alohida shikoyat berishlari, prokuror esa, protest keltirishi mumkin.

SUD ZALI – sud majlisini o‘tkazish uchun maxsus jihozlangan sud binosining alohida xonasi.

SUD ISHLARINI HAL QILISHGA ARALASHISHGA YO‘L QO‘YILMASLIGI – sudyalarning odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyatiga aralashishga yo‘l qo‘yilmaydi. Muayyan ishni har tomonlama, to‘la va xolisona ko‘rishga to‘sqinlik qilish yoki g‘ayriqonuniy sud qarori chiqarilishiga erishish maqsadida sudyalarga qanday bo‘lmasin biron-bir tarzda ta’sir etish qonunga muvofiq jinoiy javobgarlikka sabab bo‘ladi. Sudyadan ko‘rilgan yoki ish yuritishidagi ishlar mohiyati bo‘yicha biron-bir tushuntirishlar berishni, shuningdek qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollardan va tartibdan tashqari, kimga bo‘lmasin, tanishib chiqish uchun ishlarni taqdim etishni talab qilish taqiqlanadi. Ommaviy axborot vositalari o‘z xabarlarida muayyan ish yuzasidan sud muhokamasi natijalarini oldindan o‘zicha hal qilib qo‘yishga yoki sudga boshqacha tarzda ta’sir etishga haqli emas.

SUD ISHLARINI YURITISHNING OSHKORALIGI – hamma sudlarda ishlar ochiq ko‘riladi. Ishlarni yopiq majlisda ko‘rib chiqishga faqat qonunda belgilangan hollarda yo‘l qo‘yiladi.

SUD QARORLARI – bu moddiy-huquqiy va protsessual masalalarni hal qilish bo‘yicha sud (sudya)ning yozma shaklda rasmiylashtirilgan hujjatidir. Ko‘rilayotgan va hal etilayotgan masalalar bo‘yicha sud hal qiluv qarori, ajrim, qaror va buyruq qabul qiladi. Sudning hal qiluv qarorlari, ajrimlari, qarorlari qonuniy, asosli va adolatli bo‘lishi lozim.

SUD QONUNI (lex fori) – huquq tizimlari o‘rtasida kolliziya vujudga kelganda fuqarolik-huquqiy munosabatlar bo‘yicha nizo ko‘rilayotgan mamlakat qonunchiligi qo‘llanilishini belgilovchi kollizion bog‘lanish.

SUD MAJBURLOV CHORALARI – sud tomonidan sud majlisi ishtirokchilariga nisbatan qo‘llaniladigan, ularning zimmasiga ayrim harakatlarni sodir etish yoki undan tiyilishni yuklovchi choralardir.

SUD MAJLISI – fuqarolik, xo‘jalik, jinoyat ishlarini ko‘rishda taraflarni ogoh qilgan holda ochiq va yopiq tarzda o‘tkaziladigan majlisi.

SUD MAJLISI KOTIBI – sud majlisi bayonnomasini yuritilishida, shuningdek barcha protsessual harakatlarni amalga oshirilishida raislik qiluvchiga ko‘maklashuvchi shaxs.

<p>SUD MAJLISIDA RAISLIK QILUVCHI – sud majlisini boshqarib, ishning barcha holatlarini to‘liq, har taraflama va xolisona aniqlanishini, taraflarning huquq va majburiyatlarini, sud protsessining tarbiyaviy ta‘sirini ta‘minlaydi, ko‘rilayotgan ishga daxldor bo‘lmagan barcha holatlari chetlatadi, sud majlisida tegishli tartibni saqlash uchun zaruriy choralarni ko‘radi.</p>
<p>SUD MAJLISINING BAYONNOMASI – sud muzokarasining har bir holati, shuningdek amalga oshirilgan alohida protsessual harakatlarni o‘zida aks etgan sudning protsessual hujjati.</p>
<p>SUD MUZOKARASI – sud muhokamasining qismi hisoblanib, sudda ishda ishtirok etuvchi shaxslarning nutqlaridan iborat.</p>
<p>SUD MUHOKAMASIDA ISHTIROK ETISH – sud tarkibi, ishda ishtirok etuvchi shaxslar, odil sudlovni amalga oshirishga ko‘maklashuvchi shaxslarning qonunda belgilangan shakllarda ishtirok etishi tushuniladi.</p>
<p>SUD MUHOKAMASINI TAYYORLASH – fuqarolik protsessi bosqichlaridan biri bo‘lib, ishlarni tashkil qilish, sud protsessini rejalashtirish, protsessual hujjatlarni rasmiylashtirishga qaratilgan sudning protsessual harakatlari.</p>
<p>SUD MUHOKAMASI – fuqarolik ishlarini ko‘rishda ishning haqiqiy holatini aniqlash maqsadida dalillarni tekshirish, ularga baho berish, ishda ishtirok etuvchi shaxslarni tushuntirishlarini eshitish orqali amalga oshiriladigan protsessual faoliyatdir.</p>
<p>SUD PROTSESSI – sudda ishni qo‘zg‘atishdan to‘ yakuniy qaror chiqarishgacha bo‘lgan sudning faoliyatidir</p>
<p>SUD PROTSESSIDA TORTISHUVCHILIK TAMOYILI – bu sud ishlarini yuritishning sohalararo tamoyili bo‘lib, fuqarolik, jinoyat, xo‘jalik ishlarida teng protsessual huquqlarga ega, lekin manfaatlari qarama-qarshi bo‘lgan taraflarning o‘zaro tortishuvi shaklida olib borilishini ta‘minlaydi.</p>
<p>SUD TARKIBI – sud ishlarini sudda ko‘rib chiqadigan sudya (sudyalalar) va kotibdan iborat tarkib.</p>
<p>SUD TERGOVINI QAYTA BOSHLASH – taraflar muzokara nutqlarida yoki sudlanuvchi oxirgi so‘zida ish uchun muhim ahamiyatga molik yangi holatlar to‘g‘risida gapirsa yoki muqaddam tekshirilmagan, lekin ishga aloqador dalillarni keltirsa, sud taraflarning iltimosi yoki o‘z tashabbusi bilan sud tergovini yangidan boshlashidan iborat.</p>
<p>SUD HAY’ATI – ishni apellyatsiya va kassatsiya tartibida ko‘rish Qoraqalpog‘iston Respublikasi fuqarolik ishlari bo‘yicha Oliy sudida,</p>

fuqarolik ishlari bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlarida uch nafar sudyadan iborat tarkibda, nazorat tartibida ko'rish esa Rayosat a'zolarining ko'pchiligi hozir bo'lgan taqdirda amalga oshiriladi.

SUD HUJJATLARI – bu sudda ishlarni ko'rib, sud tomonidan chiqargan protsessual hujjatlar.

SUD HUJJATLARINING MAJBURIYLIGI – sud hujjatlari barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar, mansabdor shaxslar, fuqarolar uchun majburiydir hamda O'zbekiston Respublikasining butun hududida ijro etilishi shart.

SUD XULOSALARI – sudning jinoyat, fuqarolik, ma'muriy va xo'jalik ishini mazmunan ko'rib chiqqanidan so'ng o'z hukmida, hal qiluv qarorida bayon qiladigan xulosalari.

SUD CHIQIMLARI – guvohlar, ekspertlar, mutaxassislar, tarjimonlarga to'lanishi lozim bo'lgan summalar; joyga borib ko'zdan kechirish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar; javobgarni qidirish uchun qilingan xarajatlar; sudning hal qiluv qarorini ijro etish bilan bog'liq xarajatlardan iborat.

SUD EKSPERTI – xulosa berish uchun fan, texnika, san'at yoki hunar sohasida maxsus bilimlarga ega bo'lgan, belgilangan tartibda sud eksperti sifatida tayinlangan jismoniy shaxs.

SUD EKSPERTIZASI – fuqarolik, xo'jalik, jinoyat va ma'muriy sud ishlarini yuritishda ish holatlarini aniqlashga qaratilgan hamda sud eksperti tomonidan fan, texnika, san'at yoki hunar sohasidagi maxsus bilimlar asosida sud-ekspert tekshirishlarini o'tkazish va xulosa berishdan iborat bo'lgan protsessual harakat.

SUD EKSPERTIGA QO'YILADIGAN MALAKAGA OID TALABLAR – davlat sud eksperti lavozimini oliy ma'lumotga, alohida hollarda esa o'rta maxsus, kasb-hunar ma'lumotiga ega bo'lgan, muayyan sud-ekspert ixtisosligi bo'yicha keyingi tayyorgarlikdan o'tgan va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda davlat sud eksperti sifatida attestatsiyadan o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi egallashi mumkin.

SUD EKSPERTIZA TEKSHIRISHLARINING XOLISLIGI, HAR TOMONLAMALIGI VA TO'LIQLIGI PRINSIPI – sud eksperti tekshirishlarni xolisona, qat'iy ilmiy va amaliy asosda, tegishli ixtisoslik doirasida, har tomonlama va to'liq hajmda o'tkazilishi prinsipi. Sud ekspertining xulosasi (xulosa) qilingan fikrlarning asosiligi va ishonchligini umume'tirof etilgan ilmiy va amaliy ma'lumotlar bazasiga muvofiq tekshirish imkoniyatini beradigan qoidalarga asoslanishi lozim.

SUD EKSPERTINING XULOSASI – sud eksperti yoki sud ekspertlari komissiyasi tomonidan tuziladigan va sud-ekspert tekshirishlarining olib borilishini va natijalarini aks ettiradigan yozma hujjat.

SUD-EKSPERTLIK FAOLIYATI – sud ekspertizasini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha faoliyat.

SUDGA QADAR YURITUV – sudgacha bo‘lgan bosqichlarni o‘zida qamrab oluvchi, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror faoliyatini o‘zida jamlagan, jinoyat ishini qo‘zg‘atishdan boshlanadigan faoliyat. U jinoyat ishini qo‘zg‘atish, surishtiruv va dastlabki tergov bosqichlaridan iborat.

SUDGA CHAQIRUV – sudya o‘z qarorida ko‘rsatilgan shaxslarni sud majlisiga chaqirish to‘g‘risida farmoyish beradi, ularga chaqiruv qog‘ozini topshirilishini ta‘minlaydi, shuningdek sud majlisiga tayyorgarlik bilan bog‘liq boshqa choralarni ko‘radi.

SUDDA ISH YURITISHDA OSHKORALIK – barcha sudlarda, davlat sirlarini qo‘riqlash manfaatlariga zid keladigan, shuningdek jinsiy jinoyatlar to‘g‘risidagi ishlar ko‘riladigan hollarni istisno qilganda, jinoyat ishlarining oshkora ko‘rilishi.

SUDLANUVCHI – jinoyat ishini sudda ko‘rish uchun tayinlash bosqichidan sudlanuvchi deb e‘tirof etilgan jinoyat protsessida jinoiy-huquqiy manfaatga ega bo‘lgan jinoyat protsessining ishtirokchisidir. Birinchi instansiya sudning majlisida jinoyat ishi s.ning ishtirokida muhokama qilinadi.

SUDLANUVCHINING OXIRGI SO‘ZI – taraflarning muzokarasi tamom bo‘lgach sud majlisi doirasida raislik qiluvchi tomonidan, sudlanuvchiga muhokama qilinayotgan jinoyat ishi yuzasidan beriladigan oxirgi sudga murojaat qilish huquqi.

SUDNING VAKOLATLARI – sudning qonunda belgilangan vakolatlar doirasida ishlarni birinchi instansiya, apellyatsiya, kassatsiya, nazorat instansiyalarida ko‘rib, hal etishi.

SUDNING QARORIGA PROTEST BILDIRISH – qonunda belgilangan vakolatlar doirasida yuqori turuvchi sud raisi va prokuror sudning xal qiluv qarori, ajrimi, qarori ustidan protest keltirish huquqiga ega.

SUDNING OCHIQ MAJLISI – barcha ishlar sudlarda oshkora ko‘rib chiqiladi, davlat va tijorat sirlarini saqlash bilan bog‘liq ishlar bundan mustasno.

SUDNING SUDLOV HAY'ATI – fuqarolik, jinoyat, xo‘jalik ishlarini apellyatsiya, kassatsiya, instansiyalarida ko‘radigan uch nafar sudyalardan iborat tarkib.

SUDNING TALABI – sudning ishni to‘liq ko‘rib chiqish maqsadida muayyan harakatlarni bajarilishini yoki undan tiyilishni bildiruvchi talablari.

SUDNING TASHABBUSI – ekspertiza tayinlash, dalillarni talab qilib olish, dalillarni har tomonlama va obyektiv tekshirish maqsadida sud topshiriqlarini berish to‘g‘risida sudning ajrim shaklida rasmiylashtiriladigan protsessual harakatlari

SUDNING XUSUSIY AJRIMI – sud fuqarolik, jinoyat, xo‘jalik ishlarini ko‘rayotganida ayrim mansabdor shaxslar yoki fuqarolar tomonidan qonuniylik va huquq-tartibot buzilganligini aniqlasa, xususiy ajrim chiqarib, uni tegishli organlar va mansabdor shaxslarga yuboradi.

SUDNING CHAQIRUVI – ishda ishtirok etuvchi shaxslar, shuningdek guvohlar, ekspertlar, mutaxassislar va tarjimonlar sudga chaqiruv qog‘ozlari, zarur hollarda esa, telefonogrammalar, telegrammalar va boshqa aloqa vositalari orqali chaqiriladilar hamda sudning ayrim protsessual harakatlari to‘g‘risida xabardor qilinadilar.

SUDYA – qonunga muvofiq odil sudlovni amalga oshirishga vakolat berilgan shaxs.

SUDYA, XALQ MASLAHATCHISI, PROKUROR, TERGOVCHI, SURISHTIRUVCHI VA SUD MAJLIS KOTIBINI RAD QILISH – Quyidagi hollarda sudya, shuningdek xalq maslahatchisi, prokuror, tergovchi, surishtiruvchi, sud majlisining kotibi jinoyat ishini yuritishda ishtirok etishga haqli emas va uni rad qilish lozim, basharti:

- 1) u shu ish bo‘yicha jabrlanuvchi, fuqaroviy da‘vogar, fuqaroviy javobgar, ekspert, mutaxassis, tarjimon, xolis, guvoh, himoyachi sifatida, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining qonuniy vakili yoki jabrlanuvchining, fuqaroviy da‘vogarning, fuqaroviy javobgarning vakili sifatida ishtirok etayotgan yoki ilgari ishtirok etgan bo‘lsa;
- 2) u ushbu ishni yuritish uchun mas‘ul bo‘lgan biror mansabdor shaxsning yoki protsessda qatnashayotgan o‘zga shaxslarning qarindoshi bo‘lsa;
- 3) uning xolisligiga va beg‘arazligiga shubha tug‘diradigan boshqa holatlar mavjud bo‘lsa.

SUDYALARNING ALMASHTIRILMASLIGI – sudya vakolat muddati davomida o‘z roziligisiz boshqa lavozimga yoki o‘zga bir sudga o‘tkazilishi mumkin emasligi tushuniladi hamda sudyaga berilgan

vakolatlar faqatgina qonunda belgilangan asoslarga ko'ra va tartibda tugatilishi yoki to'xtatib turilishi mumkinligini anglatadi.

SUDYALARNING DAXLSIZLIGI – sudyaning shaxsi daxlsiz. Sudyaning daxlsizligi uning turar joyiga, xizmat xonasiga, foydalanadigan transporti va aloqa vositalariga, xat-xabarlariga, unga tegishli ashyolar va hujjatlarga taalluqlidir. Sudyalarning shaxsiy xavfsizligini ta'minlash maqsadlarida ularga tegishincha O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Raisi, Oliy xo'jalik sudi raisi, Adliya vaziri tomonidan belgilanadigan ro'yxat bo'yicha o'qotar qurol beriladi. Zarur hollarda tegishli sud raisining qaroriga binoan ichki ishlar organi sudya va uning oilasi uchun qurolli soqchilar ajratadi. Sudyaga nisbatan jinoyat ishi faqat O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan qo'zg'atilishi mumkin. Sudya tegishincha O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining yoki O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumining roziligisiz jinoiy javobgarlikka tortilishi, hibsga olinishi mumkin emas. Sudya sudyalarning tegishli malaka hay'atining roziligisiz ma'muriy javobgarlikka tortilishi mumkin emas.

SUDYALARNING INTIZOMIY JAVOBGARLIGI – odil sudlovni amalga oshirish chog'ida qonunchilikni buzganligi uchun; sud ishini tashkil etishdagi beparvoligi yoki intizomsizligi oqibatida yo'l qo'ygan kamchiliklari uchun, shuningdek xizmat borasidagi yoki obro'siga putur yetkazadigan boshqa xatti-harakati uchun faqat sudyalar malaka hay'atining qaroriga asosan intizomiy javobgarlikka tortilishi mumkin. Harbiy sudning sudyasi harbiy intizomni buzganligi uchun ham intizomiy javobgarlikka tortilishi mumkin. Sud qarorining bekor qilinishi yoki o'zgartirilishining o'zi sud qarorini chiqarishda qatnashgan sudyaning, agar u ataylab qonun buzilishiga yoki jiddiy oqibatlarga olib kelgan vijdotsizlikka yo'l qo'ymagan bo'lsa, javobgar bo'lishiga sabab bo'lmaydi.

SUDYANING ALOHIDA FIKRI – maslahatxonada sud tomonidan masalalar hal qilinayotganda ozchilik tomonida qolgan sudya o'zining alohida fikrini yozma ravishda bayon qilishga haqli, uning bu fikri ishga qo'shib qo'yiladi, biroq e'lon qilinmaydi. Ishda ishtirok etuvchi shaxslar sudyaning alohida fikri bilan tanishtirilmaydi.

SUDYANING VAKOLATLARI – ishni birinchi instansiyada ko'rib chiqib, da'vo arizasini qanoatlantirishi, qisman qanoatlantirishi yoki rad etishi, ishni apellyatsiya, kassatsiya yoki nazorat instansiyalarida ko'rib chiqib, hal qiluv qarorini o'zgarishsiz qoldirishga, shikoyat yoki protestni esa qanoatlantirmaslikka; ishni yangidan ko'rish uchun yubormasdan hal

qiluv qarorini o'zgartirishga yoxud butunlay yoki qisman bekor qilishga va yangi hal qiluv qarori chiqarishga; hal qiluv qarorini butunlay yoki qisman bekor qilishga va ishni birinchi instansiya sudiga yangidan ko'rib chiqish uchun yuborishga; ish yuritishni tugatishga yoxud arizani ko'rmasdan qoldirishga haqli.

SURISHTIRUV - jinoyat-protsessual qonuni bilan maxsus vakolatli bo'lgan davlat organlari va mansabdor shaxslarning jinoyatlarni ochish, oldini olish va unga yo'l qo'ymaslikka qaratilgan kechiktirib bo'lmaydigan tergov harakatlarini yuritish faoliyati hisoblanadi.

SURISHTIRUVCHI – O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 38-moddasida ko'rsatilgan surishtiruv organlarida surishtiruvchi (surishtiruv organining rahbari) lavozimida xizmat qiladigan mansabdor shaxs.

T

TAQDIMNOMA – jinoyat ishi yurituvida sudga, davlat organiga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organiga, jamoat birlashmasiga yoki mansabdor shaxslarga kiritiladigan surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning protsessual hujjati.

TANIB OLIISH UCHUN KO'RSATISH – shaxsning yoki ashyoning aynanligini aniqlash uchun olib boriladigan tergov harakati.

TANIB OLIISH - insonning ko'rish, eshitish, bilish hissiyotlarining kompleks majmuasi orqali aniqlab, boshqa shaxslar, boshqa predmet va buyum, narsalar ichidan ajratib olish orqali amalga oshiriladi. Bu tanib olish anatomik belgilar asosida, ya'ni jinsi, yoshi, bo'yi, tuzilishi, gavdasining shakli, hajmi, tana qismlarini alohida xususiyatlari, yuz tuzilishi, milliy yoki irqiy ko'rinishi v.h.lar orqali amalga oshirilishi mumkin.

TANIB OLIISH UCHUN KO'RSATISH BAYONNOMASI – surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud tomonidan tuziladi. Bayonnoma tanib olishni o'tkazayotgan shaxs tomonidan o'qib eshittiriladi va protsess ishtirokchilaridan qo'shimcha yoki e'tirozlari bor-yo'qligi aniqlanadi. Sud tergov chog'ida o'tkazilgan tanib olish sud majlisi bayonnomasida qayd qilinadi.

TANIB OLIISH JARAYONI - ilgari kuzatuvda bo'lgan obyektни tanish hisoblanadi. Shu bois insonning eslash qobiliyati jinoyat sodir bo'lgan paytdan boshlab vaqt o'tishi bilan bu hodisa to'g'risidagi taassurotlar va ularni esda saqlash darajasi vaqt o'tishi bilan pasayib borishi sababli

mazkur tergov harakatini tezkor o'tkazish taktik jihatdan to'g'ri hisoblanadi.

TARAFLAR MUZOKARASI – sud tergovida tekshirilgan dalillarga tayanib, sudlanuvchining aybliligi yoki aybli emasligi to'g'risidagi xulosani asoslantirishga qaratilgan taraflarning himoya yoki ayblov nutqlari.

TARJIMON – jinoyat sudlov ishlarini yuritishda shaxslarni huquqlarini ta'minlash yuzasidan yordamchi, tashkiliy-texnik funksiyani bajaruvchi shaxs.

TARIF SETKASI– turli xil tarif razryadiga mansub xodimlar tarif stavkalarining (1-razryad stavkasiga nisbatan) munosabatini tarif koeffitsientlari shaklida belgilovchi shkala.

TEZKOR-QIDIRUV FAOLIYATI – inson va fuqarolarning huquq va manfaatlari, hayoti, sog'lig'i, mulki, davlat va jamiyati xavfsizligini jinoiy tajovuzlardan himoya qilish maqsadida tezkor-qidiruv tadbirlari orqali (ochiq va yashirin) amalga oshiriladigan faoliyat turi.

TERGOV BO'LIMI BOSHIG'I – jinoyatlarni ochish va ularning oldini olish yuzasidan tergovchilarning o'z vaqtida harakat qilishini nazorat qiluvchi, jinoyat ishlari bo'yicha dastlabki tergovni to'la, har tomonlama va xolisona olib borish choralari ko'rishga vakolatli mansabdor shaxs.

TERGOVGA QADAR TEKSHIRUV – jinoyat haqidagi ariza yoki xabar yuzasidan sodir etilgan (tayyorgarlik ko'rilgan) qilmishning jinoiyliги, ijtimoiy xavfliligi, huquqqa xilofligi va jazoga sazovorligi haqida masalani tekshirishga qaratilgan harakatlar majmuyi.

TERGOVGA QADAR TEKSHIRUV DAVOMIDA O'TKAZILADIGAN HARAKATLAR – qo'shimcha hujjatlar, tushuntirishlar talab qilib olish, shuningdek shaxsni ushlab turish, hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish va ekspertiza tayinlash va o'tkazish mumkin. Tergovga qadar tekshiruv vaqtida boshqa tergov harakatlarini o'tkazish man qilinadi.

TERGOVGA TEGISHLILIK – jinoyat ishining xususiyati bo'lib, unga asosan u yoki bu organ yoxud mansabdor shaxs shu ish bo'yicha dastlabki tergovni amalga oshirishga vakolatli bo'ladi.

TERGOVGA TEGISHLILIK BO'YICHA YUBORISH – arizada keltirilgan holatlar yuzasidan tergovga qadar tekshiruv yoki dastlabki tergovni amalga oshirish ariza berilgan organning vakolatiga kirmaydigan hollarda ariza yoki xabarni predmetli yoki hududiy tergovga tegishliligiga qarab yuborishdir.

<p>TERGOV VAZIYATI – isbot qilinishi lozim bo‘lgan qilmish yuzasidan jinoyat ishini tergov qilish jarayonida yuzaga kelgan qarama-qarshiliklarni yechish, tergov taktikasi usullarini to‘g‘ri qo‘llash, shu bilan birga qo‘shimcha tekshiruvlarni o‘tkazishni o‘z ichiga qamrab oladi.</p>
<p>TERGOV GURUHI – jinoyat ishi ko‘p mehnat talab etib, juda murakkab yoki o‘ta dolzarbligi uchun shu ish bo‘yicha dastlabki tergov yuritish doimiy yoki maxsus tuzilgan tergov guruhiga topshiriladi.</p>
<p>TERGOV ORGANINING RAHBARI – dastlabki tergovni amalga oshirish vakolatiga ega bo‘lgan davlat organi boshlig‘i.</p>
<p>TERGOV HARAKATI – jinoyat ishi doirasida dalillarni to‘plash va tekshirishga qaratilgan surishtiruvchi, tergovchi va prokurorning protsessual faoliyati.</p>
<p>TERGOVCHI – jinoyat ishi yuzasidan dastlabki tergov yuritishga mas‘ul bo‘lgan mansabdor shaxs.</p>
<p>TERGOVCHI VA SURISHTIRUVCHINING ASOSIY O‘RINDA O‘ZARO FAOLIYATI - usul va vositalarni to‘g‘ri qo‘llash orqali jinoyat ishini yuritishga to‘sqinlik qiluvchi omillarni bartaraf etishga qaratilgan muvaffaqiyatli va samarali faoliyatidir.</p>
<p>TERGOVCHINING ALOHIDA TOPSHIRIG‘I - jinoyat ishini tergov qilish davomida muayyan tergov, protsessual harakatlarini yoki tezkor-qidiruv chora-tadbirlarini o‘tkazishga yordam berish, ularni o‘tkazish to‘g‘risidagi ijrosi majburiy bo‘lgan topshiriq.</p>
<p>TIBBIY YO‘SINDAGI MAJBURLOV CHORALARI – sodir etgan jinoyati yoki ijtimoiy xavfli qilmishi uchun jinoyat subyekti bo‘la olmaydigan va jinoiy javobgarlikka yoki jazolash mumkin bo‘lmagan shaxslarni majburiy davolash yoki uning xavfligiga qarab jamiyatdan ajratishga qaratilgan davlatning huquqiy ta’sir chorasasi.</p>
<p>TINTUV – surishtiruvchi va tergovchi tomonidan biror turar joy, xizmat, ishlab chiqarish binosida yoki o‘zga joyda yoxud biror shaxsda ish uchun ahamiyatli bo‘lgan narsa yoki hujjatlar bor deb o‘ylash uchun yetarli ma’lumotga ega bo‘lgan taqdirda o‘tkaziladigan tergov harakati.</p>
<p>TORTISHUV PRINSIPI – jinoyat protsessining asosiy prinsiplaridan bo‘lib, unga ko‘ra ayblov va himoya funksiyalari chegaralangan va ular odil sudlovdan ajratilgan, tortishuv faqat bir xil imkoniyatga ega bo‘lgan taraflar o‘rtasida olib boriladi.</p>
<p>TUMAN SUDI – umumiy yurisdiksiya sudlarining asosiy bo‘g‘ini bo‘lib, o‘z tarkibiga fuqarolik ishlari bo‘yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudi hamda jinoyat ishlari bo‘yicha tuman (shahar) sudlari kiradi.</p>

TO‘XTATILGAN JINOYAT ISHINI QAYTA TIKLASH – bu vujudga kelgan jinoyat ishini to‘xtatish holatlarining protsessual va tashkiliy harakatlar natijasida bartaraf etilishi hamda qonunchilikda belgilangan boshqa harakatlar bajarilishidir.

U

UY QAMOG‘I - gumon qilinuvchining, ayblanuvchining yoki sudlanuvchining jamiyatdan to‘liq yoxud qisman ajratib qo‘yilib, o‘zi mulkdor, ijaraga oluvchi sifatida yoki boshqa qonuniy asoslarda yashab turgan turar joyda taqiqlar (cheklovlar) yuklatilgan, shuningdek uning ustidan nazorat amalga oshirilgan holda bo‘lishidan iborat bo‘ladi. Uy qamog‘i ijro etish gumon qilinuvchining, ayblanuvchining yoki sudlanuvchining yashash joyidagi ichki ishlar organi zimmasiga yuklatiladi.

USHLAB TURILGAN SHAXS – jinoyat ishi qo‘zg‘atilmasdan yoki jinoyat ishi bo‘yicha shaxsni gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi sifatida jalb qilinmasdan ushlab turilgan shaxs.

USHLAB TURISH – jinoyatni sodir etishda gumon qilinayotgan shaxsni uning jinoiy faoliyat bilan shug‘ullanishiga barham berish, qochib ketishining, dalillarni yashirishi yoki yo‘q qilib yuborishining oldini olish maqsadida qisqa muddatga ozodlikdan mahrum qilishdan iborat protsessual majburlov chorasi.

V

VOYAGA YETMAGAN – o‘n sakkiz yoshga to‘lmagan shaxs.

VOYAGA YETMAGAN BOLANING SHAXSIY NOMULKIY HUQUQLARI – voyaga yetmagan bolaning shaxsiy nomulkiy huquqlariga, oilada yashash va tarbiyalanish huquqi, ota-onasi va boshqa qarindoshlari bilan ko‘rishish huquqi, o‘z fikrini ifoda etish huquqi, ism, ota ismi va familiya olish huquqi, ismi va familiyasini o‘zgartirish kabi huquqlari kiradi.

VOYAGA YETMAGANLARNI KUZATUV OSTIGA OLISH UCHUN TOPSHIRISH: Voyaga yetmaganlarni ota-onalari, vasiylari, homiylari, bolalar muassasasining ma‘muriyati kuzatuv ostiga olishi uchun topshirish ushbu Kodeksning 556-moddasida ko‘rsatilgan tartibda amalga oshiriladi.

VOYAGA YETMAGAN GUMON QILINUVCHI VA AYBLANUVCHINI SO‘ROQ QILISH – voyaga yetmagan gumon qilinuvchi va ayblanuvchini himoyachi ishtirokida so‘roq qilish. So‘roq qilish chog‘ida tergovchining ruxsati bilan voyaga yetmaganning qonuniy vakili ishtirok etishi mumkin. Himoyachi va qonuniy vakil gumon qilinuvchiga va ayblanuvchiga savollar berishga haqli. So‘roq oxirida himoyachi va qonuniy vakil bayonnoma bilan tanishish va u haqda o‘z mulohazalarini bildirishga haqli. Voyaga yetmagan gumon qilinuvchini, ayblanuvchini so‘roq qilishga ketgan umumiy vaqt, kun davomida dam olish va ovqatlanish uchun bir soatlik tanaffusni hisobga olmaganda, olti soatdan oshmasligi kerak

VOYAGA YETMAGAN SHAXS – 18 yoshga to‘lmagan shaxs.

VOYAGA YETMAGAN SHAXSNI G‘AYRIIJTIMOIY XATTI-HARAKATLARGA JALB ETISH – voyaga yetmagan shaxsni tilamchilik qilishga, spirtli ichimliklar iste‘mol qilishga, giyohvandlik yoki psixotrop hisoblanmaydigan, lekin kishining aql–idrokiga ta‘sir qiladigan vosita va moddalarni iste‘mol etishga jalb qilish.

VOYAGA YETMAGANLARNING JINOYATLARI HAQIDAGI ISHLARNI YURITISH – voyaga yetmagan shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar yuzasidan surishtiruv, dastlabki tergov va sud muhokamasini olib borishdan iborat alohida ish yurituv tartibi.

VOYAGA YETMAGANLARNING ISHLARI BO‘YICHA ISBOTLANISHI LOZIM BO‘LGAN HOLATLAR – dastlabki tergov harakatlari va sud muhokamasi davrida voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlar bo‘yicha, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 82, 84-moddalarida ko‘rsatilgan holatlardan tashqari, quyidagilar isbotlanishi lozim:

- 1) voyaga yetmagan ayblanuvchining aniq yoshi (tug‘ilgan yili, oyi, kuni);
- 2) voyaga yetmaganning shaxsiga xos xususiyatlar va uning salomatligi holati;
- 3) uning turmush va tarbiyalanish sharoitlari;
- 4) katta yoshli dalolatchilar va boshqa ishtirokchilarning bor yoki yo‘qligi.

VOYAGA YETMAGANLARNING QONUNIY VAKILI – voyaga yetmaganning jinoyatlari haqidagi ishni yuritishda qonuniy qatnashayotgan vakil. Qonuniy vakilning ishda ishtirok etishiga surishtiruvchi yoki tergovchining qarori bo‘yicha voyaga yetmagan shaxsni gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi tariqasida birinchi so‘roq qilish paytidan boshlab yo‘l qo‘yiladi. Qonuniy vakilning ishda ishtirok etishiga yo‘l qo‘yilganda, unga O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-

protsessual kodeksining 61-moddasida nazarda tutilgan huquqlar tushuntiriladi.

X

XOLISLAR – ishning oqibatidan manfaatdor bo‘lmagan, voyaga yetgan jinoyat ishi yurituvchi ishtirokchisi.

XUSUSIY AJRIM – jinoyatlar sabablarini va ularning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf qilish to‘g‘risida sud tomonidan chiqariladigan protsessual hujjat.

XUSUSIY AYBLOV– jinoyat ishining qo‘zg‘atilishi va tegishli davlat ayblov chora-tadbirlarining amalga oshirilishi uchun jabrlanuvchi arizasigina asos bo‘ladigan holatlar. Jabrlanuvchi ariza bermagan hollarda jinoyat ishini qo‘zg‘atish mumkin emas, qo‘zg‘atilgan jinoyat ishlari esa tugatilishi kerak.

Y

YOZMA DALILLAR – yozma dalillar ish uchun ahamiyatli bo‘lgan holatlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar bayon etilgan hujjatlar, xizmatga daxldor va shaxsiy yozishmalar.

YOZMA XAT-XABARLAR – oddiy, buyurtma, qiymati e‘lon qilingan xatlar va banderollar, oddiy, buyurtma pochta varaqchalari hamda oddiy, buyurtma sekogrammlar, shuningdek mayda paketlar.

YOLG‘ON XABAR BERISH – yozma yoki og‘zaki ravishda bevosita aybdor yoki boshqa shaxs tomonidan sodir etilgan, tamom bo‘lgan jinoyat haqidagi yoki jinoyatga tayyorgarlik ko‘rilayotganligini yoxud tajovuz haqidagi haqiqatga to‘g‘ri kelmaydigan xabar berish.

YOPIQ SUD MAJLISI – barcha sudlarda ishlar oshkora ko‘riladi, davlat yoki tijorat sirlarini saqlash manfaatlariga zid bo‘lgan hollar bundan mustasno. Ishda ishtirok etuvchi shaxslarning hayotiga taalluqli ma‘lumotlar oshkor bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik, shuningdek farzandlikka olish siri va yozishmalar siri saqlanishini ta‘minlash maqsadida sudning asoslantirilgan ajrimiga binoan, ish sudning yopiq majlisida ko‘rilishiga yo‘l qo‘yiladi. Ish sudning yopiq majlisida sudlov ishlari yuritishning barcha qoidalariga rioya qilingan holda ko‘riladi.

Sudning hal qiluv qarori barcha hollarda oshkora e‘lon qilinadi.

YUZLASHTIRISH – avval so‘roq qilingan ikki shaxs ko‘rsatuvlari o‘rtasida jiddiy qarama-qarshilikni bartaraf etish uchun dastlabki tergovda

tergovchi va prokuror, sud majlisida esa taraflar ishtirokida sudya tomonidan o‘tkaziladi tergov harakatlari hisoblanadi. Yuzlashtirish tergov harakati ko‘rsatuvlarni, jumladan dalillarni tekshirishga qaratilgan tergov harakatidir.

YUZLASHTIRISH BAYONNOMASI – yuzlashtirish jarayonida dastlabki tergovda tergovchi va prokuror tomonidan, sud majlisida kotib tomonidan tuzilib sud tarkibi tomonidan tasdiqlanadigan protsessual hujjat bo‘lib, unda yuzlashtirish qachon, qayerda, kim tomonidan, kimlar o‘rtasida, soat nechadan boshlab, soat nechagacha davom ettirilganligi va yuzlashtirilayotgan shaxslarning ko‘rsatuvlari qayd etilishi shart.

YO‘RIQNOMA – vazirliklar davlat boshqaruvining boshqa markaziy va mahalliy rahbarlari tomonidan ularning vakolatlari doirasida chiqaradigan qonuni, farmoyishi, hukumat va davlat boshqaruvining yuqori turuvchi organlarining qarorlari va aktlari asosida beriladigan qonun kuchiga ega normativ akti.

Z

ZARAR – biror kishining ikkinchi bir kishiga nisbatan zo‘rluk qilish, zo‘rlashi, kuchishlatish yo‘li bilan zo‘rlashi, jabr-zulm qilishi. U insonning daxlsizligini buzib jismoniy va ma’naviy zo‘rlash, jabr-zulm shaklida ham bo‘lishi mumkin.

O‘

O‘ZAROLIK – chet el davlati jismoniy va yuridik shaxslariga muayyan huquqlarni, mazkur huquqlarni taqdim etuvchi davlatning jismoniy va yuridik shaxslariga mazkur chet el davlatida xuddi shunday huquqlardan foydalanish sharti bilan taqdim etilishidir.

SH

SHAXSLARNI TANIB OLISH - boshqa turdagi tanib olishlarga nisbatan murakkabroqdir. Tanib olinuvchi shaxs tanib olish uchun tergov olib borilayotgan ishga aloqasi bo‘lmagan, tashqi belgilari bilan o‘ziga o‘xshaydigan shaxslar guruhi orasida xolislar huzurida ko‘rsatiladi. Jinoyat protsessi nazariyasida shaxsni tanib olish uchun ko‘rsatishda tanib olinuvchilar statistlar deb ham ataladilar.

SHAXSLARNING ARIZALARI – O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 324-moddasiga muvofiq, fuqarolar, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar va chet el fuqarolarining jinoyat to‘g‘risidagi yozma yoki og‘zaki murojaatlari.

SHAXSIY KAFILLIK ishonchga sazovor bo‘lgan shaxslarning ayblanuvchi, sudlanuvchi munosib xulq-atvorda bo‘lishiga kafil ekanliklari haqida yozma majburiyat olishidan iboratdir. Kafillar sonini surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud belgilaydi. Alohida hollarda yuksak ishonchga sazovor bo‘lgan bitta shaxs ham kafil bo‘lishi mumkin. Jamoat birlashmasi yoki jamoaning kafilligi.

SHIKOYAT – fuqarolarning buzilgan huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini tiklash to‘g‘risidagi talabi bayon etilgan murojaati.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

RAHBARIY ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Adolat – qonun ustuvorligida. Ikkinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining VI sessiyasidagi ma’ruza (2001-yil 29-avgust) // Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. T.10. – T.: O‘zbekiston, 2002. -429 b.
2. Karimov I.A. Biz tanlagan yo‘l-demokratik taraqqiyot va ma’rifiy dunyo bilan hamkorlik yo‘li. T.11. – Toshkent: O‘zbekiston, 2003. –320 b.
3. Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizlik o‘z kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat’iy irodamizga bog‘liq. T.12. – Toshkent: O‘zbekiston, 2004. –400 b.
4. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi ma’ruzasi, 2005-yil 28-yanvar // O‘zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo‘lmaydi. T.13. – T.: O‘zbekiston, 2005. 448 b.
5. Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari – oliy qadriyat. T.14. – Toshkent: O‘zbekiston, 2006. – 280 b.
6. Karimov I.A. Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma’naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish – barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir. T.15. – Toshkent: O‘zbekiston, 2007. – 320 b.
7. Karimov I.A. Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo‘lida. T.16. – Toshkent: O‘zbekiston, 2008. – 368 b.
8. Karimov I.A. Vatanimizning bosqichma-bosqich va barqaror rivojlanishini ta’minlash – bizning oliy maqsadimizdir. T.17. – Toshkent: O‘zbekiston, 2009. – 280 b.
9. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi ma’ruza, 2010 yil 12 noyabr. – T.: O‘zbekiston, 2010. -56 b.
10. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. – Toshkent: O‘zbekiston, 2010. – 80 b.

11. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish – mamlakatimiz rivojining asosiy mezon. T.19. Toshkent: O‘zbekiston, 2011. – 291 b.

12. Karimov I.A. Bizning yo‘limiz demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va modernizatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish yo‘lidir. T.20. Toshkent: O‘zbekiston, 2012. – 320 b.

NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston NMIU, 2015. – 76 b.

2. O‘zbekiston Respublikasi kodekslari. (2016-yil 1-fevralgacha bo‘lgan o‘zgartish va qo‘shimchalar bilan): to‘plam / O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi: T.: “Adolat”, 2016. - **1056 b.**

3. O‘zbekiston Respublikasining “Advokatura to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘zbekistonning yangi qonunlari: (Birinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining yettinchi sessiyasida 1996 yil 27-dekabrda qabul qilingan qonun va qarorlar). K.15. – Toshkent: Adolat, 1997. – 272 b.

4. O‘zbekiston Respublikasining 2000-yil 14-dekabrda “Sudlar to‘g‘risida”gi (yangi tahriri) Qonuni // “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi”, 2001-yil, 1-2-son, 10-modda.

5. O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 25-aprelda “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonuni O‘RQ-405-son, «Xalq so‘zi», 2016 y., 81 (6516)-son; O‘R QHT, 2016 y., 17-son, 173-modda

6. O‘zbekiston Respublikasining “Prokuratura to‘g‘risida”gi (yangi tahriri) Qonuni (29.08.2001) // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi. 2001-yil. 9-10-son, 168-modda.

7. O‘zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustda 258-II-sonli “Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to‘g‘risida”gi Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi 2001-y. 9-10-son, 169-modda.

8. O‘zbekiston Respublikasining 2008-yil 7-yanvarda “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni // “O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami”, 2008-yil, 1-2-son, 1-modda.

9. O‘zbekiston Respublikasining “Advokatura instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi

Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2008-yil, 52-son, 514-modda.

10.O‘zbekiston Respublikasining 2010-yil 1-iyundagi “Sud ekspertizasi to‘g‘risida”gi Qonuni. // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. 2010-y. 22-son, 173–modda.

11.O‘zbekiston Respublikasining 2010-yil 29-sentabrdagi “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida”gi № 263 Qonuni // “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi”, 2010-yil, 9-son, 342-modda.

12.O‘zbekiston Respublikasining “Jinoyat ishini yuritish chog‘ida qamoqda saqlash to‘g‘risida”gi Qonuni// O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2011-y., 40-son, 409-modda. – 8-38-b.

13.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 8-avgustdagi “Qamoqqa olishga sanksiya berish huquqini sudlarga o‘tkazish to‘g‘risida”gi 3644-son Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 2005-y., 32-33-son, 242-modda.

14.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 20-iyundagi “Advokatlar tomonidan ko‘rsatilgan yuridik yordam uchun davlat hisobidan haq to‘lash mexanizmini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 137-son qarori // O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 2008-y., 26-27-son, 250-modda.

15. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 1993-yil 16-apreldagi “Sudlar tomonidan mulkni ro‘yxat (arest)dan chiqarish haqidagi ishlarni ko‘rishda qonunchilikning qo‘llanishi to‘g‘risida”gi № 13-sonli qarori.

16.O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 1997 yil 22 avgustdagi “Sudlar tomonidan jinoyat ishlarining birinchi bosqich sudida muhokama etish jarayonida protsessual qonunchilikka rioya qilinishi to‘g‘risida”gi №12 sonli qarori//O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorlari to‘plami 1991-2006. T.1. –Toshkent, 2007. -104-111 b.

17.O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 1998-yil 11-sentabrdagi “Jinoiy harakatlar oqibatida yetkazilgan moddiy zararni qoplash masalasiga doir sud amaliyoti to‘g‘risida”gi №21-sonli qarori//O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumi qarorlari to‘plami 1991-2006. T.2. – Toshkent, 2007. – B.169-176.

18.O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2000-yil 15-sentabrdagi “Voyaga yetmaganlarining jinoyatlari haqidagi ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi №21-sonli qarori//O‘zbekiston Respublikasi

Oliy Sudi Plenumi qarorlari to‘plami 1991-2006. T.2. –Toshkent, 2007. – B.23-29.

19.O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2001-yil 2-noyabrdagi “Jinoiy jazolarning liberallashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi №25-sonli qarori//O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumi qarorlari to‘plami 1991-2006. T.2. –Toshkent, 2007. – B.169-175.

20.O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2002-yil 25-oktyabrdagi “Yarashuv to‘g‘risida ishlar bo‘yicha sud amaliyoti haqida”gi №27-sonli qarori//O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorlari to‘plami 1991-2006. T.2. –Toshkent, 2007. –B.126-130.

21.O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2003-yil 19-dekabrdagi “Gumon qilinuvchi va ayblanuvchini himoya huquqi bilan ta‘minlashga oid qonunlarni qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi №17 sonli qarori//O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumi qarorlari to‘plami 1991-2006. T.1. –Toshkent, 2007. – B.137-149.

22.O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2004-yil 24-sentabrdagi “Dalillar maqbulligiga oid jinoyat-protsessual qonuni normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi №12 sonli qarori//O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumi qarorlari to‘plami 1991-2006. T.2. –Toshkent, 2007. –B.188-192.

23.O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2006-yil 3-fevraldagi “Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to‘g‘risida”gi №1 sonli qarori//O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumi qarorlari to‘plami 1991-2006. T.2. –Toshkent, 2007. – B.225-243.

24.O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2006-yil 3-fevraldagi “Sudlar tomonidan jinoyat ishlarini apellyatsiya tartibida ko‘rish amaliyoti to‘g‘risida”gi №2 sonli qarori//O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorlari to‘plami 1991-2006. T.2. –Toshkent, 2007. – B.243-254.

25.O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2006-yil 22-dekabrdagi “Sudlar tomonidan amnistiya aktlarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi №16 sonli qarori. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumi to‘plami (2006-2014 yillar) - O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi. T.: “Adolat”, 2014. B. 34-43.

26.O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2007-yil 14-noyabrdagi “Sudga qadar ish yuritish bosqichida qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasining sudlar tomonidan qo‘llanilishi to‘g‘risida”gi №16 sonli

qarori // O‘lim jazosini bekor qilish va hamda qamoqqa olishga sanksiya berish huquqini sudlarga o‘tkazishga oid normativ-huquqiy hujjatlar to‘plami. – T.: Adolat, 2007 – B. 51-66.

27. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2007-yil 14-noyabrdagi “Sudga qadar ish yuritish bosqichida qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasining sudlar tomonidan qo‘llanilishi to‘g‘risida”gi №16 sonli qarori. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumi to‘plami (2006-2014 yillar) - O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi. T.: “Adolat”, 2014. -B. 81-94.

28. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sud Plenumining 2008-yil 15-maydagi “Sudlar tomonidan jinoyat ishlarini kassatsiya tartibida ko‘rish amaliyoti to‘g‘risida” №11 sonli qarori. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumi to‘plami (2006-2014 yillar) - O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi. T.: “Adolat”, 2014. -B. 95-108.

29. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sud Plenumining 2008-yil 15-maydagi “Sudlar tomonidan jinoyat ishlarini nazorat tartibida ko‘rish amaliyoti to‘g‘risidagi” №12 sonli qarori. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumi to‘plami (2006-2014 yillar) - O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi. T.: “Adolat”, 2014. -B. 109-125.

30. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2008-yil 12-dekabrda “Ruhiy kasallikka chalingan shaxslarga nisbatan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari qo‘llash bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi №23 sonli qarori. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumi to‘plami (2006-2014 yillar) - O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi. T.: “Adolat”, 2014. -B. 137-145.

31. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2009-yil 10-aprelda “Sud hujjatlarini bajarishdan bo‘yin tovlash va ularning ijro etilishiga to‘sqinlik qilish uchun jinoiy javobgarlikka doir qonunlarni qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi № 06/196 sonli qarori//. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumi to‘plami (2006-2014 yillar) - O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi. T.: “Adolat”, 2014. -B. 170-177.

32. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sud Plenumining 2009-yil 24-noyabrdagi “Jinoyat ishlari bo‘yicha protsessual chiqimlarni undirish amaliyoti to‘g‘risida”gi №13 sonli qarori. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumi to‘plami (2006-2014 yillar) - O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi. T.: “Adolat”, 2014. -B. 195-200.

33. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2012-yil 25-maydagi “Fuqarolik va jinoyat ishlari bo‘yicha sud ishlarini yuritish sohasida xalqaro hamkorlikning ayrim masalalari to‘g‘risida “gi №06 sonli qarori. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumi to‘plami (2006-2014

yillar) - O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi. T.: “Adolat”, 2014. -B. 266-273.

34. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2012-yil 13-dekabrda “Jinoyat ishlari bo‘yicha ashyoviy dalillarga oid qonunchilikni qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi №17 sonli qarori. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumi to‘plami (2006-2014 yillar) - O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi. T.: “Adolat”, 2014. -B. 288-293.

35. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2014-yil 23-maydagi «Sud hukmi to‘g‘risida»gi №07 sonli qarori. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumi to‘plami (2006-2014 yillar) - O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi. T.: “Adolat”, 2014. -B. 336-356.

MAXSUS ADABIYOTLAR

1. Абдумажидов Г. Справедливость как философская, этическая и правовая категория. // Методологические проблемы права. Академия МВД Республики Узбекистан. – Т.: 1995. – 46 с.

2. Alimova R., Otaxo‘jaev S. Sud ekspertizasini tashkil qilish va o‘tkazish masalalari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2001. – 131 b.

3. Astanov I.R. Jinoyat ishlari bo‘yicha maxsus bilimlardan foydalanish shakli sifatida ekspertiza tergov harakatini o‘tkazish: nazariya va amaliyot. Monografiya. // Mas‘ul muharrir: yu.f.n. dots. B.B. Hidoyatov. – T.: TDYI, 2012. 236 b.

4. Бажанов С.В. Процессуальные издержки в уголовном процессе России: Текст лекции – Владимир, 2001. – 36 с.

5. Безлепкин В.Т. Комментарий к Уголовно-процессуальному кодексу Российской Федерации (постатейный). – М.: Knorus, 2010. – 688 с.

6. Безлепкин В.Т. Уголовный процесс в вопросах и ответах: учебное пособие. - 6-е изд, перераб. и доп.– М.: Проспект, 2010. – 304с.

7. Володина Л.М., Сидорова Н.В. Уголовный процесс: учебное пособие / — 2-е изд., перераб. и доп. — Тюмень, 2007. — 563с.

8. Jinoyat protsessi (Umumiy qism): Yuridik institut va fakultetlari talabalari uchun darslik (Z.F. Inog‘omjonovanning umumiy tahriri ostida). – T.: TDYI nashriyoti, 2008. - 509 b.

9. Jinoyat protsessi (Maxsus qism): Yuridik oliy o‘quv yurtlari va universitetlarining yuridik fakultetlari talabalari uchun darslik / Z.F. Inog‘omjonovanning umumiy tahriri ostida. – T: TDYI, 2008. – 359 b.

10. Inomjonov Sh.X. Jinoyat protsessida dalillar taqdim qilish va foydalanish muammolari. Ilmiy-uslubiy qo‘llanma. . –T.: “Adolat”, 2003.
11. Inog‘omjonova Z.F., To‘laganova G.Z. Jinoyat protsessi muammolari. – Toshkent: TDYI, 2006. – 155 b.
12. Inog‘omjonova Z.F. Jinoyat protsessida sud nazorati. O‘quv qo‘llanma. – T.: TDYI nashriyoti. 2007. 191s.
13. Inog‘omjonova Z.F. Dastlabki tergov va jinoyat ishini sudda ko‘rish uchun tayinlash bosqichlarida sud nazorati. (Monografiya).–T.: TDYI, 2006. -156 b.
14. Inog‘omjonova Z.F., To‘laganova G.Z. Jinoyat-protsessual huquqi fanidan o‘quv-uslubiy qo‘llanma -T: TDYI nashriyoti, 2012. -441 b.
15. To‘laganova G.Z., Sh.F.Fayziyev, D.B.Bazarova. Jinoyat-protsessual huquqi. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – T.: TDYI nashriyoti, 2014. – 938 b.
16. Inog‘omjonova Z.F., To‘laganova G.Z. Jinoyat protsessi muammolari. O‘quv qo‘llanma./ yu.f.d., prof. Abdumajidov G‘.A. umumiy tahriri ostida–T.: TDYI, 2006. 340 b.
17. Kalinovskiy K.B., Fayziyev Sh.F. Xorijiy mamlakatlar jinoyat protsessi. –T.: TDYI nashriyoti, 2010. – 486 b.
18. Kriminalistika taktikasi: Darslik. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 1996. – 215 b.
19. Madaliev O.M., Allamuratov A.T. Prokuror nazorati. - T.:TDYI, 2004.- 59 b.
20. Madaliyev O.M. Birinchi instansiya sudlarida jinoyat ishi ko‘rilishida prokuror ishtiroki. T.: TDYI, 2005. -244 b.
21. Mamadiyev S.N. Surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning qarorlari va harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish. Monografiya. – T.: TDYI nashriyoti, 2010. – 250 b.
22. Маслов И.В. Правовая регламентация уголовно-процессуальных сроков (досудебное производство): монография. – М.: Юрлитинформ, 2004. – 160 s.
23. Матчанов А.А. Деятельность следователя по розыску скрывшегося обвиняемого: Учебно-практическое пособие. – Т.: Академия МВД Республики Узбекистан, 2007. – 80 s.
24. Muxitdinov F.M. Jinoyat protsessi: mohiyat, mazmun, shakl. -T.: Adolat, 2002. – 320 b.
25. Пулатов Б.Х. Теоретические основы совершенствования законодательного регулирования и практики участия прокурора при рассмотрении уголовных дел в судах. - Т.: Фан, 2002. – 156 b.

26. Pulatov B.X. Davlat ayblovchisini sudda dalillarni tekshirishda ishtiroki. Davlat ayblovchisi uchun ilmiy-uslubiy qo‘llanma. – T.: 2004. – 78 b.
27. Рустамбаев М.Х., Тухташева У.А. Судебные и правоохранительные органы. Учебник. –Т.: ТГЮИ, 2009.
28. Рустамбаев М.Х., Тухташева У.А. Суд хокимияти ва Ўзбекистон Республикасида суд-ҳуқуқ ислоҳотлар: илмий-публицистик нашр. Тошкент: ТДЮИ нашриёти, 2009. – 559 б.
29. Рахмонова С.М. Рассмотрение уголовного дела в суде первой инстанции: Учебное пособие. – Т.: ТГЮИ, 2010. – 145 s.
30. Рахмонова С.М. Уголовно-процессуальное право (особенная часть). Учебно-методический комплекс. Т.: ТГЮИ, 2011. 214 s.
31. Rahmonqulov A.X., Mirazov D.M. Dastlabki tergov: Darslik. - T.: O‘zbekiston Respublikasi IV Akademiyasi, 2013. - 607 b.
32. Salomov B. Jinoyat ishlarida advokatning ishtiroki. Amaliy qo‘llanma. T., “Adolat”, 2007. 472s.
33. Sahaddinov S.M. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksiga sharhlar. Umumiy qism (ilmiy-amaliy sharh) / Mas’ul muharrir: professor B.X.Po‘latov. – Toshkent: Yurist-media markazi, 2014. – 845 b.
34. Sahaddinov S.M. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi: ilmiy-nazariy, jinoyat-huquqiy va protsessual tahlil. Monografiya / Mas’ul muharrir: professor Z.F.Inog‘omjonova. – Toshkent: O‘zR FA, 2013. – 300 b.
35. Sahaddinov S.M. Yarashuv instituti: ilmiy-nazariy, jinoyat-huquqiy va protsessual asoslari. Monografiya / Mas’ul muharrir: professor Z.F.Inog‘omjonova. – Toshkent: TDYI, 2013. - 336 b.
36. Sud - tibbiy ekspertizani tayinlash va o‘tkazishning o‘ziga xos xususiyatlari. Ilmiy ommabop risola. – T.: TDYI, 2011.
37. Таран А.С. Обстоятельства, исключающие участие адвоката в уголовном процессе. Монография. – М.: Юрлитинформ, 2013. – 192 s.
38. Tergov protsessual hujjatlarining namunalari: Amaliy qo‘llanma / Mirazov D.M., Cho‘tboev M.R. va boshqalar. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IV Akademiyasi, 2012. – 407 b.
39. Тухташева У.А. Теоретические и практические вопросы апелляционного производства в уголовном процессе: монография. – Т.: ТГЮИ, 2007. – 169s.
40. Tuxtasheva U.A. Qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasi: tushunchasi va qo‘llash tartibi: Amaliy qo‘llanma – yuridik fanlar doktori,

professor M.H. Rustambaev tahriri ostida. T.. TDYI nashriyoti, 2007, - B.87-126.

41. Тухташева У.А. Уголовный процесс.Общая часть. Учебное пособие. – Т.: ТГЮИ, 2007. – 512 s.

42. То‘laganova. G.Z. Jinoyat protsessida shaxsiy huquqlarni cheklash mezonlari. Monografiya / prof. G‘.A. Abdumajidov tahriri ostida. –Т.: TDYI, 2007. -243 b.

43. То‘laganova G.Z. Jinoyat protsessida protsessual majburlov va uning o‘ziga xos xususiyatlari. Monografiya / prof. G‘.A. Abdumajidov tahriri ostida. –Т.: TDYI, 2009. –B.156-187.

44. Уголовно-процессуальное право. Особенная часть: учебник для студентов юридических вузов и факультетов. Под общей редакцией Г.Абдумажидова. Т.: “ILM ZIYO”, 2011.- 524s.

45. Уголовный процесс. Общая и Особенная части: учебник для юридических вузов и факультетов / В.В.Вандышев; Межрегиональный институт экономики и права. М.: Контракт, 2010. – 720s.

46. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksiga sharhlar. Mas’ul muharrir prof. G‘.A. Abdumajidov. - Т.: TDYI nashriyoti, 2009. – 950 b.

47. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksiga sharhlar / Nashr etish uchun mas’ul U. Tadjixanov. – Toshkent: Adolat, 2000. – 768 b.

48. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat protsessi: Darslik / B. A. Mirenskiy, A.X.Rahmonqulov, V.V.Qodirova, D.Kamolxodjaev, B.T.Akromxodjaev, D.M.Mirazov, A.B.Qulaxmedov, B.A.Saidov\; Sh.T.Ikramov umumiy tahriri ostida. To‘ldirilgan ikkinchi nashri. – Т.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012. – 635 b.

49. Fayziyev Sh.F. Surishtiruv organlarining jinoyat-protsessual faoliyatini takomillashtirish muammolari. Monografiya. –Т.: TDYI nashriyoti, 2009. – 200 b.

50. Fayziev Sh.F. Surishtiruv ishini tashkil etish. O‘quv qo‘lanma. –Т.: Ilm Ziyo nashriyoti, 2010. 338 b.

51. Хидоятлов Б.Б. Уголовный процесс. Методическое пособие. -Т.: ТГЮИ, 2008. -289s.

52. Хидоятлов Б.Б., Рахмонова С.М., Тухташева У.А. Теория доказательств в уголовном судопроизводстве. - Т.: ТГЮИ, 2007. 128с.

53. Шейфер С.А. Следственные действия. Основания, процессуальный порядок и доказательственное значение. – Самара, 2004. – 225 s.

54. Qo‘shayev N.M. Jinoyat ishida ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish. Monografiya. TDYI. – T.: Adolat, 2011. – 172 b.

55. Qo‘shayev N.M., Fayziyev Sh.F. Jinoyat protsessida o‘tkaziladigan tergov harakatlari / Prof. Z.F.Inog‘omjonovanning umumiy tahriri ostida. – Toshkent: TDYI, 2007. – 167 b.